

89-44(5000)  
Sh-96

*Shuhrat*

# OLTIN ZANGLAMAS



89-94(5026)  
Sh-96

SHUHRAT

# OLTIN ZANGLAMAS

«ZUKKO KITOBXON»  
TOSHKENT – 2022

UO'K 821.512.133-31

KBK-84-44(50'zb)

Sh 96

XX arsning oltmishinchi yillaridan boshlab o'zbek adabiyoti yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davrga kelib shaxsga sig'inish illatlarining qoralanishi adabiyot ahli ijodiga nisbiy erkinlik ato etdi. Ijodkorlarimiz o'z asarlarida badiiylikka, qahramon ruhiyati qirralarini haqqoniy tasvirlashga harakat qila boshladilar. Bundan ham muhimi urishdan keyingi qatog'on siyosatining qurbonlari bo'lgan ziyolilar, adib va shoirlar ozodlikka chiqdilar. Ularning ijodkorlik maqomi tiklanib, ijod bilan shug'ullanish imkoniyati paydo bo'ldi. Ana shunday iste'dodli adiblarimizdan biri Shuhrat edi.

Shuhrat ham ko'plab tutqunlar qatori erkinlikka chiqqach, «Oltin zanglamas», «Shinelli yillar» asarlarini yaratdi.

Katta mehnat evaziga tayyorlangan «Oltin zanglamas» romani kitobxonlarga adib ijodining mukammal namunasi bilan tanishish imkoniyatini berdi.

ISBN 978-9943-6881-8-6

© Shuhrat, 2022

© «ZUKKO KITOBXON»  
nashriyoti, 2022



## I QISM

### 1. ATLAS KO'YLAKLI QIZ

Qodir umri bino bo'lib bunaqa kelishgan qizni ko'rmagan edi!


U bog'da, maysa ustida, ko'ylagini chiqarib, bo-tinkasini yechib, maykada dars tayyorlab o'tirardi.

Havo dim, qilt etgan shamol yo'q. Daraxtlarning barglari qo'rg'oshindan quyilgandek vazmin sollanib turadi. Faqat anhor chetidagi o'siq giyohlarni suv epkini o'z holiga qo'ymay tortqilaydi, «yur biz bilan!» degandek bukib ketadi.

Qodir na havoning dimini, na vaqtning o'tganini bilardi. U bilan o'chakishgandek bir juft musicha par etib qayoqdandir oldinma-keyin uchib keldi-da, uning yoniga tushdi. Oldin uchib kelgani keyingisiga tutqich bermas, u «ku-ku»lab qarshisiga borsa qochadi. Yo'rg'alab yoniga o'tsa, uchib sal nariga tushadi. Yana keyingisi xushomad qiladi...

Birdan cho'qilashib ketishdi. Ikki yuvosh parrandaning bu nojo'ya ishi Qodirning g'ashiga tegib, endi haydamoqchi bo'lib turgan edi, bittasi daraxtga uchib o'tdi, keyingisi ketidan qarab qoldi.

Qodir «qani, endi nima qilar ekan!» deb turgan edi, qarshisida bir qiz ko'rindi. U, keng atlas ko'ylagiga shamol to'ldirib, qarshisidagi soyasini quvgandek yelib kelardi. Qiz



Qodirga yaqinlashgach, qadamini sekinlatdi. Qodir unga tuzukkina qaraguncha bo'lmay, qiz so'radi.

– Shu yerdan ikkita qiz o'tmadimi? Bittasi chamandagui do'ppili.

– Payqamadim, – dedi Qodir. U ilon avragan qurbaqadek baqrayib qolgan edi.

– Oldidan o'tgan qizni payqamaydigan qanaqa yigit ekansiz!

Qiz shu so'zni kulib aytdi-yu, yo'lida davom etdi. Kulganda ikki qator sadaf tishiari bir husniga o'n husn qo'shib yubordi. Qiz nariroq borib «gapimni uqdingizmi, yaxshi yigit» degandek yana bir orqasiga qarab qo'ydi. Mana shu qarash umrida biron qizdan, ayniqsa, «bugun tushdan keyin dum beraman» deb turgan qovundek yetilgan qizdan ikki og'iz shirin so'z eshitmagan Qodirni adoyi tamom qildi. Qo'lida daftari bilan ketidan baqrayib qolganini anchadan keyin payqadi. Payqadi-yu, fikrida shu kungacha bo'lmagan ajib g'alayon boshlanganini, shiviri unga ham shirin, ham vahimali allanarsalar va'da qilayotganini his etdi. Uning fikr-o'yi shamol shopirgan o'sha atlas ko'ylak qatiga o'ralib ketgan edi. «Oyisi bahorda qizil gul saylida tuqqanmi, buncha kulishi chiroyli bo'lmasa», deb qo'ydi o'zicha. Qiz o'sha bedana yo'rg'alashida so'qmoq yo'ldan borib daraxtlar orasida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bir ozdan keyin o'sha tomondan qiziarning kulgisi eshitildi! Bu kulgi ichidan Qodir qizning ovozini tanidi va yuragi gursillab urib larzaga keldi. Qodir o'zini zo'rlab dars tayyorlamoqchi bo'lgan edi, ko'zi kitobda yaxmalak otib, hech narsa boshiga kirmadi. Lekin, nima uchundir, birdan xayoliga o'sha atlas ko'ylak, chilvir soch, kulishi yoqimli qiz emas, boyagi musichalar keldi. Atrofiga qarab ularni ko'rmadi. Shunda yana xayoliga keldi: qiziq, ular o'sha qiz kelguncha uchib ketishdimi, yoki keyinmi?

– Nega men payqamay qoldim? Ular yarashganmikin, yoki hali ham quvlab yurishibdimi? Yarashgandirlar! Yarashlshlari kerak. Gunohi bo'lsa ham kechirishi kerak, yalinib-yalpog'lanib o'lyapti, bechora! Bag'ritoshlik yaxshi emas. Ahillik, mehru muhabbatga nima yetsin!

Qodirning xayoli musichalarda bo'lsa ham, ko'zi qiz ketgan tomonga yo'l chizib qoldi. Uni yana bir ko'rgisi, jonon piyola jarangiday tovushini eshitgisi keldi. Yuragi qiz ketgan tomonga undasa ham, oyog'i tortmadi. Lekin kechasi shunday ahvolga tushdiki, orada tubsiz, jar bo'lsa hatlab o'tishga, cho'qqida bo'lsa tirmashib chiqishga tayyor edi. U qizni ko'rish orzudan ko'ra ehtiyojga aylangan edi.

Ertalab turib, «yo'q, boqqa chiqmayman, shu yerda darsimni tayyorlayman», deb ahd qildi u. Yo'g'on qayrag'ochga suyab qo'yilgan tumbochkaga muk tushdi. Bir oz tayyorlagan bo'ldi. Sal o'tmay soyasi qalin, yapasqi qayrag'och tagida kulgi ko'tarildi. Kimdir hushtak chaldi. Atrofqa qarab qulay joy topolmadi: institut hovlisi karavotlarga to'la. Ularning usti qurama. Birining ustiga beqasam to'n ko'ndalang tashlangan bo'lsa, birida shinel, birining yostig'i ostida kattakon tugun, birida kimdir haligacha uxlab yotibdi...

Hammasi ko'ziga erish ko'rinib, har kuni shu yerda beparvo dars tayyorlaganiga, tinimsiz shovqin-suronni payqamaganiga ajablandi. Faqat kechagina boqqa chiqqan edi. Bog' esiga tushdi-yu, qalbi o'sha tomonga undadi. Nazarida, kechagi atlas ko'yiakli, kulishi yoqimli qiz kutib turgandek, yoki u borib o'tirishi bilan yana oldidan o'tadigandek bo'lib ko'rindi. Lekin qiz u yerda yo'q edi, Qodir tushgacha dars tayyorlasa ham o'tmadi. Oldinroq o'tib ketdimi, deb kecha kulgi kelgan tomonga quloq soldi: jimjit. Faqat to'g'ondan oshib tushgan suvning sharqirashigina eshitalardi. Kimdir uning qulog'iga «endi

kulishmasdan to'g'ri gaplashib o'tiribdi» degandek bo'ldi. Qodir bu mehribon g'oyib hamrohining so'ziga jon deb ishondi. O'rnidan turib kecha qiz ketgan tomonga yo'l oldi. Yuragi gup-gup urar, ko'z oldi ba'zan jimirlashib ketar edi. Har daraxt, har chechak, har giyoh jonli, ko'zi to'rt bo'lib uni kuzatib turgandek. Olam naqadar chiroyli! Har narsaning o'z xayoli, o'z husni, o'z kamoloti bor. O'z ko'rki, o'z fazilati bilan bir-birini to'ldiradi, bir-birining husnini ochadi, bir-biridan ajralmas bir butunlik tashkil etadi.

Qodir ilgari hech qachon payqamagan ajoyibotlar orasidan o'tib borayotgandek zavqianib, har yaproqqa, har giyohga, hatto marjondek tizilishib so'qmoqni kesib o'tayotgan chumolilarga gap qotgisi kelar, ular dunyosini qalbiga yaqin sezar edi. Lekin bu bilan bir vaqtda uning yuragida noma'lum bir tashvish, his-hayajon yotardi. Nimadandir cho'chir, nimadandir hadiksirayotgandek bo'lib, alanglab qo'yardi. «To'xta, – dedi ichki bir nido, – xo'sh, u qizni topding. Keyin nima? Unga aytadigan biron gaping bormi? Yo'q!! Shunday bo'lgach, qidirib nima qilasan. Bor, joyingga o'tir, darsingni qil, u qiz bahor shamoliday o'tdiketdi!» Qodir chindan ham bundoq o'ylab qarasa, u qizda hech qanday ishi ham yo'q, aytadigan so'zi ham! Shunday bo'lsa-da, kecha kulgi eshitilgan tomonni aylanib keldi. Uchratib qolsa, nima deyishini bilmasa ham, uni qidirdi. Hech qayerda yo'q: na yerda, na ko'kda. Qaytib kecha o'tirgan joyiga kelsa, musichalar donlashib yuribdi. Juda ahil, bir-biriga mehribon, saxiy. Yo kechagilar emasmi? Yo'q, o'shalar. O'shalarining o'zi! Ahillik, mehribonlik qanday yaxshi!

Atlas ko'ylakli, kulgisi yoqimli o'sha ochiq qiz Qodir uchun oltin uzukning suvga tushib ketgan zumrad ko'zi bo'ldi. Ertasiga, indiniga, bir haftagacha uni shu bog'dan izladi – topmadi, ko'cha-ko'yni kuzatib bordi – uchratmadi.

Unga qizning o'zidan ham xayoli shirin bo'lib qolgan edi. Oxiri, «tushimda ko'rdimmikan», dedi o'ziga-o'zi. Atlas ko'ylakning olovidan bag'riga tushgan uchquni kul bosgandek bo'ldi.

\* \* \*

Qodir institutga qabul qilinib, uch-to'rt kun ona shah-rining havosi bilan nafas olgani qaytganida imtihonlardan yaxshi o'tganidan xursand bo'lsa ham, yuragining allaqayeri nimadandir achishib turardi. O'sib-ulg'aygan har bitta toshigacha unga tanish bo'lgan ona shahrini tark etganida yuragi qancha entikkan bo'lsa, institutga kirib, o'z shahriga qaytayotganida ham ko'ngli shunchalik g'alati bo'lib ketdi. Begona shaharda nimasidir esidan chiqib qolgandek, nimasidir ko'ngliga g'ashlik solayotgandek tuyuldi. Hech kim uni kuzatgani chiqmagan bo'lsa ham, ko'zlari javdirab kimnidir qidirdi, kimgadir aytadigan gapı bordek o'zicha pichirlab qo'ydi. Poyezd jilganda-ku, kupeda turolmay, o'zini derazaga urdi, kimnidir ko'rmoqchi edi... Bu holatning boisi o'sha atlas ko'ylakii, kulgisi yoqimli qiz, oltin uzukning suvga tushib ketgan zumrad ko'zi ekanini Qodir yaxshi bilardi.

Qodirdagi bu o'zgarishni hammadan oldin uning onasi Adolat xola onalik qalbi bilan sezdi shekilli, katta o'g'li Sodiqqa: Yo'q, bolam, ukangga bir narsa bo'lgan. Bunaqa emas edi, – dedi.

– O'qishga kirgani rostmi? Yo nomusdan yolg'on gapirib, ich-etini yeb yuribdimi? Qog'ozini ko'rsatdi, o'z ko'zim bilan ko'rdim, – dedi Sodiq ishonch bilan.

– Bo'lmasa ukang kasal, bizdan yashiryapti.

– Charchagan bo'lsa kerak, mening ko'zimga ham shunaqa ko'rindi. Yana surishtiraman.



– Shunday qil, jon bolam, yosh, bilmaydi.

– Xo‘p, xo‘p!

Farzand dog‘ini ko‘raverib, yuragi bezillab qolgan Adolat xola Qodirning dardini bilolmay armonda edi. Bir chekkasi, yolg‘iz o‘zini o‘qishga yuborishga ham ra‘yi yo‘q. Shuning uchun, Sodiq ukasi o‘qishga kirgan shaharga ko‘chish, u yerdagi katta doktorlarga Jannatni ko‘rsatish, o‘zi ham aspiranturaga kirish niyatida ekanini aytganda, avvalgidek, «meni ota-onam yoniga qo‘ygin, keyin o‘z bilganingni qil» demadi, tezgina ko‘na qoldi. Ikki yil armiyada «musofir» bo‘lgan Qodirni yana begona shaharda yolg‘iz o‘zini musofir qilgisi kelmadimi, yoki yana sog‘inib ko‘z yoshi to‘kishga bardoshi yetmasilgini bildimi, Sodiqni quvvatladi:

– Mayli, jon bolam, hammamizning bir joyda bo‘lganimiz ma‘qul. Qodir ham issiq-sovuqsiz qolmaydi, yonimda bo‘ladi.

Sodiq bu qarorni Qodirga bildirganda uning ortiqcha quvonmaganidan hayratda qoldi. Bu loqaydlik Sodiqqa og‘ir botdi. Ukasiga bir narsa bo‘lganiga shubha qilmay qo‘ydi. «Oyim bekorga tashvishlanmagan ekan», dedi-yu, sababini bilishga jiddiy kirishdi. Uni boshlab soyga ketdi. Yo‘l-yo‘lakay ukasining qo‘yniga qo‘l soldi. Bir-ikki sho‘ng‘ib chiqib, oftobda o‘tirishar ekan, payti-payti bilan uning harakatini kuzatib, gap tashladi:

– Markazda anchadan beri bo‘lganim yo‘q, juda obod bo‘lib ketgandir.

– Ha.

– Bog‘larida haliyam dam olish kunlari odam ko‘p bo‘ladimi?

«Bog‘» so‘zi-Qodirni uyg‘otgandek bo‘ldi, g‘alati bo‘lib ketdi.

Sodiqning bugungi sayldan fahmlagani shu bo‘ldiki, Qodir avvalgidan kamgap, kishilar bilan uchrashishga

mayli yo'q, yolg'iziikni xush ko'radi. Tan-joni sog'u, faqat qattiq charchagan. Vaqti bilan ezilib ketadi. Ikki yil armiya xizmatini o'tab, bugungi kunda institutga imtihon berib kirishning o'zi bo'ladimi!

Lekin Qodir imtihon azoblarini allaqachon unutgan, ochig'ini aytganda, unchalik his qilmagan, faqat yoshiikning boshqa bir imtihoni oldida ming bir xayol bilan turardi. Bu imtihon avvalgisidan oson emas edi.

## 2. TIRNOQQA ZOR OILA

Dunyoda befarzandlikdan yomon narsa bormi! Yoshlikda bilinmaydi, umr o'yin-kulgi bilan o'taveradi. Bola muhabbatini er-xotinlikning qaynoq bo'sasi va hech tamom bo'lmaydigandek shirin suhbatini bosib turadi. Shunday payt keladiki, bu muhabbat va bo'sani farzandga ko'chirish kerak, farzand er-xotinlikka fayz kiritadi, oilani bezaydi. Lekin farzand yo'q. Ana shunda zil ketadi, haligacha shirin deb shimib kelgan og'zingdagi obakidandonning taxiri chiqqandek bo'ladi. Ayniqsa, sen bilan oldinma-keyin turmush qurganlar bir-ikki farzand ko'rib, kattasini yetaklab guzarga chiqadigan bo'lganda, qo'g'irchoqdek yasatib, boshiab yurganda yomon! Ardoqlab oqqa ko'chirayotgan xatingga siyoh to'kilgandek yuraging achishadi. Sodiq bilan Jannatning hayoti xuddi shunday bo'lgan edi. Ular sevishib turmush qurishgan, yulduziari juda o'ng kelgan, bir-birlarini ko'pdan sinashgan kishilardek fazilatlarini oshirib, nuqsonlarini yashirib, boshqalar havas qilgudek tinch-totuv yashashdi.

Hamma o'zbek kelinlarida bo'lganidek bolaga havas boshlab Jannatda uyg'ondi, axir qizlar bekorga mushtumdakiigidan «obbo, bolam!» deb qo'g'irchoq quchoqlamaydi-da! Yillar o'tgan sari bu havas zaruratga,

eng zo'r zaruratga aylandi. Avvaliga eriga bildirmay ichida kuydi, birovga aytgani uyaldi, yoshlik qildi, xilvatga o'tib achchiq-achchiq yig'ladi. Tanish-bilishning ko'zi yoriganini eshitsa, a'zoyi badani zirqirab iztirobdan titrab ketardi, kimdir «nega sen tug'maysan?!» deb ta'na toshi otayotgandek bo'lardi. Uning ko'ngli buzilganini ko'rgan Adolat xola darrov boshini silardi:

– Sabr qiling, jon bolam, xudo sevgan qulini befarzand qo'ymaydi. Sabr so'ngi – sariq oltin. – Sabr qilmay, nima qilyapman, oyijon! – deya Jannat yana battar yonardi, sirti kulib, ichi yig'lardi.

Adolat xola tabiatan halimdek yumshoq, shirin so'z ayol edi. «Siz» ham, «sen» ham bir og'izdan chiqadi. «Siz»ni «sen» qilish yaxshimas, derdi, o'zi shu aqidasiqa amal qilar, ikki so'zining birida «jon bolam» deb turar edi. Shuning uchun butun mahalla uning ismini aytmay «jonbolam xola» deyishar, bu so'z xolaning qulog'iga kirib qolsa kulib qo'ya qolardi.

«Jonbolam xola» bundoq qarasa, Jannat kundan-kun cho'pdek bo'lib ketyapti, kechagina barmog'iga zo'rg'a sig'gan uzugi bugun barmog'idan tushsa tushib qolgudek. Rangini aytmaysizmi! Yil – o'n ikki oy ko'rpa-yostiq qilib yotgan kasalning o'zi! Nima qilsin ona bechora! Qo'lidan kelgan irim-sirimni qildi – bo'lmadi, allaqachon irg'itib tashiagan paranjisini allaqaysi burchakdan topib folbinga qatnadi, otinga o'qitdi – bo'lmadi, doya xotin aytgan «dori-darmon»ni qildi – bo'lmadi. Hech narsadan qaytmadi. Tirik ilonni yut, shu senga shifo desa, uni ham yutishga tayyor edi Jannat bechora!

Jannatning nazarida, tinch turmushining qasri bolasizlik tufayli yildan-yil nurab borayotgandek ko'rinadi. Kimdir «orqangda bir tuyoq qolmagan umr umrmi!» deb kesatayotgandek bo'lardi. To'y-hashamga borishdan

yuragi bezillaydi, xotinlar «tugʻmas Jannat ana shu» deb bir-biriga koʻrsatayotganga oʻxshardi, farzanddan gap ochilgan toʻydan hamma xursand qaytsa, u yigʻlab qaytadi.

Jannat «erim ichida kuysa kerak» deb oʻyiardi. Chunki eri bildirmas edi. Ming qilsa ham erkak! Buning ustiga ishi boshidan oshib yotibdi. Yaqinda maktabga direktor qilib qoʻyishdi. Qishloq joy emasmi, ayniqsa, qiz bolalarni oʻqishga tortish qiyin. Sal boʻyi choʻzildi deguncha ketib qoladi, ota-onasi qoʻymaydi. «Bu ishingiz yaxshimas deb izlab borsa, «xotin kishidan paygʻambar chiqibdimi» deyishadi. Oʻsha kezlarda Sodiq xotinini oʻqishga kiritib qoʻydi. Bogʻcha murabbiyalari tayyorlash maktabini bitirgach, bogʻchada ishlatdi. Bu bilan bir tomondan, uni boshqalarga ibrat qilib koʻrsatmoqchi boʻlsa, ikkinchi tomondan xotinini ovutmoqchi, «bolaga boʻlgan mehringni shu yerga toʻk!» demoqchi edi.

Jannat buni payqadi. Demak, yori uni xafa qilmoqchi emas. Ichida yonadi-yu, tashqariga tutunini ham chiqarmaydi. Shundan biladiki, Sodiq uning yarasini tirnamoqchi emas, demak, u qalbida, Jannat esa koʻzida koʻrsatib yigʻlaydi! Nima uchundir, Jannat hamma aybni oʻzida koʻrardi. Shuning uchun Sodiq markazga koʻchish qarorini unga aytganda yoʻqotgan narsasini birdan topgan kishidek quvonib ketdi. Lekin, shu bilan bir vaqtda yuragining allaqayeri «jiz» etib achishdi, nimadir koʻnglini xira qildi.

– Xoʻsh, nima deysan, senga maʼqulmi? U yerda katta doktorlar bor, oʻzingni ham qaratasan, – dedi Sodiq. «Oʻzingni ham qaratasan» soʻzi Jannatning qulogʻiga allanechuk boʻlib eshitildi. U, shu vaqtgacha oʻzini tugʻmasligi bir kasal ekanini bilmas, kasalni bunaqa xili ham borligini tasavvur qilmas edi. Demak, eri uni kasal hisoblaydi, kasal hisoblaganda ham katta doktorlar

muolaja qiladigan kasal ekan. Mana shu «katta doktorlar» so'zi ham uning bag'riga uchli nayza bo'lib qadaldi.

Yaxshi, bular u shaharga ko'chib boradi, Jannat eri aytgan o'sha «katta doktorlar»ga o'zini ko'rsatadi, dardiga davo topsa-yu, nur ustiga a'lo nur, bordi-yu, topmasa, «dori-darmonning foydasi yo'q!» desa nima bo'ladi? Yo'q, katta doktor bo'lganidan keyin har qanday kasalga davo topishi kerak. Jannat shunday qarorga kelgan bo'lsa ham, haligi «nimadir» hamon ko'nglining bir chekkasini xira qilib turardi. Bo'lmasa uning bu yerda qoladigan hech kimi yo'q. Eng yaqin kishisi – eri, eng mehriboni – qaynanasi.

O'sha «nimadir» unga kechayu kunduz tinchlik bermadi. Hamon ko'nglining bir chekkasini xira qilib yotardi. Markazga ko'chish esiga tushdi deguncha entikadi, qalbini muzday bir narsa kesib o'tadi... Ertalab ko'chishga oyog'i tortmayotganini aniq his qildi. Sababini tushuntirib berolmaydigan bo'lgani uchun eriga aytmadi. Faqat deya oldi:

– Ko'chmasak nima qiladi? Doktor bo'lsa, Qodirjonning oldiga borib turib...

– Nima? U yer senga yoqmayaptimi? Juda yaxshi shahar, keng, gavjum...

– Yaxshilikka yaxshi-yu, shunday bo'lsa ham... ko'chmaylik... oyog'im tortmayapti...

– Jinni! – dedi kulib Sodiq, – yuraging uvishyaptimi? O'rganib ketasan.

Sodiq xotiniining ruhiy holatini tushunmadi, to'g'risi, xotinlarda bo'ladigan «nuqson»lardan deb kulib qo'ya qoldi. Lekin bu «nuqson» Jannatning qaibi tubiga chuqur botib borar, ko'ngilg'ashlikdan diqqatga aylanmoqda edi.

– Bormaylik! – dedi oxiri qat'iy.

– Charchabsan, xotin, damingni ol! «Nega Jannatning fe'li bunaqa aynigan? Nega yana ko'chishga ra'yi bo'lmay

qoldi. Sababini tuzuk surishtirmay, gapini qaytarganim yaxshi bo'lmadi».

Sodiq o'zicha muhokama qildi. Jannatning katta bir dalili bo'lishi mumkin emas. Tug'ilib o'sgan shahridan ketgisi, sirdosh o'rtoqlaridan ajralgisi kelmayotgandir. Yo ishini qizg'anyaptimi? Eh, attang, u yerda ham ishlashini aytсам bo'lar ekan. To'g'ri, shu ishi uchun qilyapti. Xafa bo'lma, Jannat, u yerda ham sevgan bog'changda ishiaysan. O'zingning bolalaring ham bir bog'cha bo'lib ketsa ajabmas. Ajoyib bir doktor Leningraddan kelibdi deb eshitdim. O'shanga boqtirasan. O'ksinma! Oyog'ing tortaversin, jonim!

\* \* \*

Ko'chib ketishlari aniq bo'lgandan keyin, Sodiq maorif bo'limining iltimosiga ko'ra, o'z o'rniga odam tanladi. U bilan bir necha kun ishlashdi. Sevgan maktabining kelajakda ham mavqei tushib ketmasin uchun qo'lidan kelgan butun maslahatlarni berdi. O'qituvchilarga qisqa-qisqa xarakteristika ham berib chiqdi, «ba'zi sir»largacha o'rtoqlashdi. Bir kekса o'qituvchi:

– Ko'nglimizni chirog'i olib chiqib ketilgan uyday qilib ketyapsiz, Sodiqjon, – degan edi.

– Yoritib turgan men emas, siziarsiz, siziarning o'zingiz, – deb kuldi Sodiq. Qorovuldan tortib, yangi direktorgacha hamma bilan qo'l olib xayrlashdi. Xayrlashuv orasida har kimning o'ziga yarasha hazil qildi, gap qotdi. U suyab yurgan, ishchidan chiqqan yosh o'qituvchi bag'riga tashlanib «endi mening ahvolim nima kechadi?» deganga o'xshagan bir gap qilgan edi, Sodiq:

– Ko'pchilikka suyaning, ko'pchilik ko'taradi. Lekin mutolaani susaytirmang. Men sizning harakatingizga ishonaman, – dedi va bag'riga bosib o'pdi, qo'lini qattiq

siqdi. Lekin maktabdan chiqib ketishi yengil bo'lmadi, yuragining allaqayeri uzilib qolayotgandek achishib ketdi. Nimadir esidan chiqib qolgandek orqasiga bir-ikki qarab qo'ydi, ammo rangining sal oqarinqiraganidan bexabar edi. Eshik oidida maktabga kirib kelayotgan bolani to'xtatib, ishi bo'lmasa ham ismini so'radi, sinfini surishtirdi, uning javob berishidan zavq olayotgandek kulib turdi, keyin bag'riga bosib, lo'ppi yuzlaridan cho'lp-cho'lp o'pdi:

– Yaxshi o'qi, xo'pmi? – bola hayron edi. Sodiq nariroq borib bolaga xayriashib, qo'l silkidi. Sodiq hamma bilan xursand xayrlashgan bo'lsa ham, uyiga ko'ngli g'a lati bo'lib qaytdi. Ana shunda maktabini qanchalik sevganini butun qalbi bilan his etgandi. U o'yinchog'i suvga oqib ketgan boladek ancha vaqt xomush yurdi. Faqat kechqurun, oila a'zolari jamuljam bo'lib, ovqatga o'tirganda ko'ngli asta-sekin yorishdi. Chunki suhbat endi butunlay ertagi kunga, ko'chib boradigan shahardagi hayotga, ishga bag'ishlangan edi.

Maslahat shunga kelib to'xtadiki, Sodiq Qodirjon bilan birga oldinroq ketib, uy-joy taraddudini ko'radigan bo'lishdi.

Ko'chishga hammadan oldin rozi bo'lgan Adolat xola ikkala o'g'lini kuzatish vaqtida o'pkasi to'lib yig'ladi. Yoshligini, bu uyga kelin bo'lib tushgan chog'larini, ketma-ket nobud bo'lgan bolalarini esladi. Ertalab turib, hali-hozir jo'nab ketayotgandek, ota-onasining qabri tepasiga borib keldi. «Allaqayerlarda o'ligi qolib ketgan» – mardikordan qaytib kelmagan rahmatli erini yodladi. Nobud bo'lgan bolalari tirik bo'lganida necha yoshga kirishini xayolidan o'tkazdi. Oxiri Sodiqning qilich-qalqon taqib «Oq podshoning dumi – bosmachilarni birato'la yo'qotmasak, yana beva-bechora ko'payib ketadiganga o'xshaydi», deb chiqib ketgani, u yig'laganda: «Yig'lamang, oyi, siz

yig'lasangiz, bosmachi qah-qah uradi», degani esiga tushdi. O'shanda koptokdek yerga ursa ko'kka sakraydigan azamat yigitcha edi. Mana, kecha ko'rsa uning ham chakkasiga ikkita oq tola iz solibdi. Lekin manglayi sho'r keldi, farzand ko'rmadi. Bitta siqiladigani shu, bo'lmasa kam-ko'sti yo'q. El orzu qilsa qilgudek, maslahat solsa aql olgudek es-hushli. Kelini Jannatdan ham aybsitadigan joyi yo'q. Ochsa kaftida, yumsa mushtumida. Yo'q, yig'lashi bekor. Yaxshi umidlar bilan boshlangan safarning oqibati xayrli bo'ladi. Mayli, Sodiq oldin borsin, joy topsin, ko'chib ketadi. Bolalarining o'z qanoti ostida bo'lganiga nima yetsin! Qodirjon ikki yil askarda yurganida sog'ingani ham bo'ladi. Endi ko'tarolmaydi. Musofir bo'lsa ham bolalarining oldida bo'ladi, ayniqsa, Qodirjonga ko'z-quloq bo'lib turishi shart. Yaxshi qiz topsa, o'zi bosh bo'lib uylantiradi, yoshi ham anchaga borib qoldi. Aslida, shu yerdan uylantirib ketganda yaxshi bo'lardi. Bolasi tushmagur, ko'nmadi, «oldin o'qiyman» deb turib oldi. Onaga qolsa-yu, yig'lab-siqtab ko'ndirardi, o'rtaga Sodiq tushdi, «shaxtini qaytarmang!» dedi. Jannat bo'lsa, «shahar ko'rgan yigit qishloqdan uylanadimi, ko'z ostiga olganlari bormi hali», deb hazilga oldi. Shunda ham ona qarshi turmadi, «voy aylanay, roziman. Har kim ko'ngli tortgan oshni ichadi», dedi. Lekin Qodirdan hadeganda sado chiqmadi, faqat anchadan keyin: «Men oladigan qizning qulog'ini kecha teshibdilar, bugun isirg'a buyurtirib kelaman!» deya kitobini qo'ttiqlaganicha chiqib ketdi. Ana shu «oldin o'qish» degan o'g'li murodiga yetyapti. O'qishga kirdi, besh yil ham «hahu» deguncha o'tib ketadi. Askarga jo'naganda «ikki yil qachon o'tadi!» deb bekor kuygan ekanman, ko'z ochib-yumguncha o'tib ketdi. Bunisi ham o'tadi. Mayli, o'qishi bitguncha uylanmasa, keyin uylanadi, es-hushini tanib uylangan yaxshi bo'ladi. Ishqilib, tanisog'lik, xotirjamlik bo'lib tursa bas.



Adolat xola xayolida hamma ishni taroziga solib, o'zini tutib olgandan keyin, yo'l taraddudini ko'rayotgan o'g'illari oldiga kirdi. Deraza ostida, bir tirsagini rapiga qo'yib o'tirdi.

– Hoy, bolam, qulog'ingda bo'lsin: joy oisang, qo'ni-qo'shnisini surishtir. Qo'shning tinch – sen tinch. Keyin, men gaplashadigan qari-qartangi ham bo'lsa yana yaxshi, – dedi u. Chamadonning qornidan kamar bog'layotgan Sodiq onasiga qarab, tuzatdi:

Kvartir oisang deng.

– Kavartir bo'lsa, kavartir. 'J yoqlarda turadigan joyni kavartir deyishadimi-a, jon bolam? – Adolat xola kelini Jannatga murojaat etdi. U «ha, shunday» degandek bosh silkib qo'ya qoldi. Uning yuragi hamon g'ash. Ko'chishni eshitgan kuni yuragida paydo bo'lgan, sababini haligacha bilolmagan «allanima» hozir ham tinchlik bermas edi. Bu yaxshilikdan ko'ra, ko'ngilsizlikni va'da etayotgandek bo'lardi. Kechasi jinday yig'lab, yuragini bo'shatib ham oldi.

Sodiq vazminlik bilan tasalli berdi:

– Kishi unar-unmasga diqqat bo'lib, har narsani o'ziga olavermaydi. Bag'ringni keng tut.

Sodiq xotinini ham, o'zini ham chalg'itmoqchi bo'ldi:

– Sen ishdan bo'shashingni ko'p cho'zma.

Xotinining ko'ngliga qil sig'mas edi, javobni qisqa qildi:

– Xo'p.

Uzoq hayallab ketsang, xat yoz, jon bolam! – dedi ona.

Eshik tagida, xayrlashish vaqtida ona o'zini tetik tutdi.

Irim qilib, bitta kulchani ushatib, bir burdadan ikkala o'g'liga berdi, qolganini olib qoldi: – Rizqimiz bir-birimizdan uzilmasin!

Sodiq kulib og'ziga solar ekan, hamon ko'ngli g'ash Jannatga nazar tashladi: «Buncha xafa bu! Oramizda bir narsa o'tganu, men bilmaymanmi! Yo oyim bilan... Yo'g'-e...

Ba'zan kishi o'zi shunaqa sababsiz diqqat bo'ladi», dedi ichida va Jannatning qo'lini olib, qattiq siqdi. Bu bilan «xafa bo'lishning sira o'rni yo'q, jonim!» demoqchi bo'ldi.

Bir haftadan keyin Sodiqdan «yo'lga chiqinglar» degan telegramma keldi.

Sodiqning ikkita o'rtog'i ularni poezdga kuzatib qo'ydi, Adolat xola bir oz xomush, Jannatning ko'zida yosh miltillardi.

– Safar oldidan niyatingizni yaxshi qiling, jon bolam! – dedi Adolat xola keliniga.


Jannat noiloj ko'zini artdi.

Aslida uning oyog'i tortmaganicha bor edi, istiqbolda uni baxtsizlik kutardi.

### 3. YANGI JOY, YANGI TANISHLAR

Shahar maorifi bo'limidan yo'llanma olib, rayon maorifiga kelganda Sodiqning birinchi uchratgan kishisi Mirsalim bo'ldi. G'o'labirdan kelgan, surma rang do'ppili, sertakalluf bu odam maorif eshigida unga ro'para keldi-yu, salomiashganga o'xshash bir harakat qilib, uning diqqatini o'ziga tortdi. Odatda, notanish yerga kirib kelayotganingda ilk uchragan odamdan, ayniqsa, u ochiq yuz bilan senga boqsa, ko'ngling suv ichgandek bo'ladi, o'zingdan unga yaqinlik sezasan. Sodiq ham xuddi shunday bo'ldi, undan maorif mudirining kabinetini so'radi. Keyinchalik o'qituvchi Mirsalim ekanligi ma'lum bo'lgan bu odam ko'rinib turgan eshikni «hu, ana!» deb qo'ya qolmasdan avval yumshoq kuldi, keyin Sodiqning oldiga tushib boshlab ketdi. Uch eshik o'tgandan so'ng qora dermatin qoplangan qo'sh qanot eshikni sal qiya ochib:

– Marhamat! Mudirning o'zlari ham shu yerdalar! – dedi. Bunga ham qanoat qilmay, uning ketidan mushukdek



silliq kirib, shaftoli qoqidek kamgo'sht sekretar xotinga tushuntirdi.

– Bu kishiga o'rtoq mudirimiz kerak ekan.

Sekretar xotin «o'zining tili yo'qmi» degandek, unga ko'zoynagi ostidan qarab qo'ydi, keyin bu «korchalon»ga zarda qilgandek, bir harakat bilan mashinkasiga qog'oz qo'ydi. Uning butun harakatidan ko'rinib turardiki, bu odamni u yaxshi biladi, uning nimasidir xotinning g'ashini keltiradi, ensasini qotiradi. Lekin sekretar xotin mashinkasida ish boshlashidan oldin ko'zidan ko'zoynagini olib, yoqimli bir tabassum bilan Sodiqqa mudirning oldida odam borligini aytdi va o'tirishga taklif qildi.

Sodiq ko'rsatilgan yerga o'tirayotib ovora bo'lgani uchun Mirsalimga minnatdorchilik bildirgan edi, u yana o'ta takalluf bilan nimalardir dedi, lekin mashinkaning shaqshuqida eshitilmadi. Mirsalim Sodiq bilan quyuq xayrlashib, hatto o'z ishiga band sekretarga ham xayrlashuv ishorasini qilib eshikdan chiqdi.

Maorif mudiri kabinetidagi kishini kuzatib chiqib, Sodiqni ko'rib qoldi.

– Siz Sodiq Qo'chqorovmisiz? Juda yaxshi. Ertalab menga telefon qilishgan edi. Qani marhamat!

Mudir Sodiqni kabinetiga emas, koridorga boshiadi. Yo'l-yo'lakay ahvolini, sog'lig'ini so'radi, kelib tushgan joyini surishtirdi. Mehmonxonadaligini eshitib:

– O'sha yerda turmoqchimisiz? – dedi.

Sodiq «mehmonxonada turib o'qituvchilik qilish juda boyvachchalik bo'ladi-ku» degandek ma'noli kulib, javob qaytardi:

– Yo'q. Ishiydigan maktabim aniq bo'lgandan keyin, o'sha atrofdan joy qaragam degan niyatdaman. Maorifning joyi bo'lmasa kerak?

– Boru, band. Yaxshisi, hozircha ijaraga o'tirib turingu, bir boshpana qurishga harakat qiling. Biz yordam beramiz.

Mudir kadrlar bo'limi bilan kelishib qo'ygan ekan, kira solib:

– Mana, o'rtoq Qo'chqorov keldilar. Yo'llanmalarini bering, ertadanoq ish boshlasinlar. Sizga esa, o'rtoq Qo'chqorov, muvaffaqiyat tilayman. Sizning to'g'ringizda yaxshi gaplar eshitganman, aminmanki, o'shanday g'ayrat bilan bizni ham xursand qilasiz.

Bunday shirin-chuchmal gaplarga Sodiqning toqati yo'q, xijolat tortsa ham javob qaytarishga majbur bo'ldi:

– Ishonchingiz uchun rahmat! Lekin kim meni bunchalik ulug'lab sizga ayta qoldi, ajab!

– Yoru birodarlar, innaykeyin, jumhuriyat muallimlar kengashida so'zlagan nutqingiz ham esimda. Tarix fanini o'tish haqida juda mantiqli gapirgan edingiz.

Sodiq quioig'igacha qizarib, o'ng'aysiz ahvolga tushdi. Indamadi.

– Ha, aytgandek, – dedi mudir, kadrlar bo'limiga qarab,– direktoriga ikki enlik xat qilib bering, o'rtoq Qo'chqorov bu tomonidan yangi, yaxshi bilmaydi, kvartira topishga ko'mak berishsin. Oilangiz kattami? Qachon ko'chirib kelasiz!

Sodiq ikkinchi savolga javob berib qo'ya qoldi:

– Joy topdim deguncha xabar qilaman. Shunday kelishganmiz.

– Juda yaxshi. Demak, tezlatsin, shunday deb yozing direktorga.

Kadrlar bo'limi xodimi muhim bir narsa birdan esiga tushgandek irg'ib o'rnidan turdi, ko'zini eshikka tikdi:

– Mirsalim aka hali shu yerda yurgan edi, ketib qolmadimikin?

Kadrlar bo'limi mudiri eshikka yelib chiqib ketdi. – Mirsalim bunaqa Ishlarning jonini kiritadi. – Mudir yon cho'ntagidan papiros olib Sodiqqa tutdi, u chekmasligini aytgach, bir donasini o'zi labiga qo'ndirdi, gugurt chaqib tutatguncha yo'q edi, kadrlar bo'limining mudiri boya Sodiqqa duch kelgan g'o'labir, surma rang do'ppili, sertakalluf kishini boshlab kirdi.

– Mirsalim aka, bu kishi bilan tanishib qo'ying, bundan keyin birga ishlaysizlar. Bu kishining sizga jinday iltimosi bo'ladi, – dedi mudir, «shu qush bolasi uyasidan tushib ketibdi, joyiga olib qo'ymasangiz uvol bo'ladi» degandek bir ohangda.

Mirsalim, rayon maorifi mudirining unga ishi tushganidanmi, yoki tabiati shunaqami birdan eshilib ketdi, yuzida tabassum qalqdi, qaddini sal egib, qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

– Bosh ustiga. Biz tanishmiz. Priyomingizga o'zim boshlab kirgan edim. Mudir bemehr otaning sovuq o'g'lini erkalashiday bir tabassum qilib qo'ydi.

Mudir aytganidek, Mirsalim «ishning jonini kiritdi». Shu kunning o'zidayoq Sodiqni maktabga boshlab borib, hamma bilan tanishtirdi. Keyin:

– Dars jadvalingiz bilan tanishib turing, men bir soatlarda kelaman. Iltimos, ketib qolmang, – dedi.

Mirsalim mayda qadam bilan shoshganicha chiqib ketdi. Sodiq orqasidan «bunaqa odamlar yurib charchamaydi», deb qo'ydi. Maktab ilmiy mudiridan uni surishtirdi: birinchi bosqichda ilmiy mudir va ona tilidan dars berar ekan.

– Darsdan ham kishilarning hojatini chiqarishni yaxshi ko'radi. Oyog'idagi kuch-quvvat boshida bo'lganda... bilmadim, kim bo'lardi, – dedi ilmiy mudir, – biror narsa iltimos qilganmidingiz?

– Biror joy bo'lsa devdim.

– Ha, bunaqa ishlarga suyagi yo'q. Do'ndirib tashlaydi. Tomi qanaqa bo'lsin, tunuqalimi, tuproqiimi, demadimi? Polini-chi?

Ilmiy mudir Mirsalimning ipidan-ignasigacha biladigan-dek, unga ko'p ishi tushgan, hammasini o'zi aytgandek «do'ndirib tashlagan» ko'rinadi, lekin uning labidan Mirsalimning nimasinidir mensimasligi, past ko'rishligi, tahqirlashga yaqin bir nazarda ekanligi sezilib turardi. Ilmiy mudir Sodiq buni payqaganligini sezdi shekilli, izoh berdi:

– O'zi tuzuk odam. Sal bachkanaligi bor, xolos. Tabiati shunaqaki, to'rvasini teshgan sichqonga ham indamaydi. Oilasi kichkina: xotini-yu, bir qizi. Butun shaharni taniydi, yarmi qarindosh-urug'i yoki do'sti. Yaxshi qizi bor. Bu yil o'ninchini bitirib ketdi. Qarqinoqdan bulbul chiqqan. O'g'lingiz bormi?

– O'g'lim yo'g'u, ukam bor, – hazilga hazil bilan javob qildi Sodiq. – Bahorda armiyadan kelgan.

– Niyatingiz bo'lsa, otingizni qamchilang, to'g'risi, otini ukangiz qamchilasiz.

– Nega ukam?

– Sovchi bilan er qiladigan qiz emas.

Sodiq bunday qizni ko'z oldiga keltirolmadi. U shuncha yil direktor bo'lgan maktabdan bunaqasini uchratgani yo'q. Ming qilsa ham bu yer poytaxt, madaniyati baland.

Mirsalim odatdagi shoshinqirashi bilan aytgan vaqtdan ancha oldin keldi. Tez yurgani shundoq ko'rinib turardi. Oqqa moyil yuziari qizil tortgan, manglayida mayda ter rezalari bor. Lekin qo'lidagi qog'oz papkasini qayergadir tashlab kelgan. «Uyiga ham kirib chiqqanga o'xshaydi, shu atrofda ekan-da!» degan fikr Sodiqning xayolidan o'tdi. Lekin uning uyiga «mehmon keladi!» deb tayinlab chiqqanidan xabari yo'q edi.

Mirsalimni o'z hisobi bor. O'zi bilan tanishmoqchi bo'lgan odamdan hayiqsa ham, lekin biron-birov bilan tanishuvni yaxshi ko'radi. Begona odam bilan qo'l olishib tanishayotganidayoq xayolidan o'tadi: «Bir kuni asqatib qolishi mumkin». Shu xayol bilan sertakalluf muomala qila boshlaydi. Bu tanishning o'ng qo'ltig'idan, kirib, chapidan chiqadi, yuzidan tabassumini aritmaydi. Choyxona oldida bo'lsa, choyga, oshxona yaqin bo'lsa ovqatga taklif qiladi. Epini qilsa, haqini to'lab «o'tqizib qo'yadi», o'zining tili bilan aytganda, «qo'ltig'iga suv purkaydi», mabodo o'sha odamga ishi tushib qolsa, salom-alikdan so'ng bir amallab shu o'tirishni shama qiladi.

Xuddi shunday, Sodiq bilan ham tezda inoqlashdi. Axir, qo'lidan bir ish kelmasa, bir narsasiga ishonmasa, qishloqdan shunday shahri azimga keladimi! Albatta, bir narsasi bor. Harakati bardam, boqishlari tetik. Maorif mudirining oldida turishini qara, «istasang ish ber, bo'lmasa o'zim topib olaman!» degandek viqor bilan turibdi. Hurmat yuzasidan tishining oqini ko'rsatmadi-ya! Buning, albatta, bir balosi bor. Hali ko'tarilishi ham mumkin. Bugun o'qituvchi, ertaga direktor bo'lmaydi deb kim aytadi! Hozir uning hech kimi yo'q, yordamga muhtoj. Ayni payti.

Bu rejasining debochasi sifatida yo'l osti uyiga kirib, qazilik osh buyurib qo'ydi. Undan chiqib asosiy ishga kirishdi – kvartira masalasida mahalla komissiyasiga yo'liqdi. Yaqinini kelib ko'rdi, biladiganini ko'z oldiga keltirib, ikkitasini tanladi. Ishning bunchalik tez bitganidan xursand Mirsalim: «Ko'r, sening uchun qanchalik kuyib-pishyapman» degandek, Sodiqiar oldiga kirishi bilan katta dastro'molini olib, yuzi va bo'yin terlarini artdi.

– Sizni ketib qolasizmi deb... Ha, aytgandek, so'rab olmabman: tomi qanaqa bo'lsin, tunukalimi, yoki o'zi-mizning jaydari – tuproqligi ham bo'laveradimi? Bittasi shunaqa, lekin poli yer.

Ilmiy mudir o'zining boya aytgani to'g'ri chiqqani uchun yalt etib Sodiqqa qarab kulib yubordi. Sodiq o'zini arang tutdi. Mirsalim kulgining ma'nosiga tushunmay, so'zini izohladi.

– To'g'ri-da, so'ragan yaxshi. Har kimning o'z didi bor. Masalan, men qishda taxta polli uyni, yozda o'zimizning jaydarimizni yaxshi ko'raman, salqin bo'ladi. Gapingiz to'g'ri, uning yonini oldi Sodiq. – Kvartira ko'rgani ketganningizni bilmadim, bo'lmasa sizni ikki-ikki ovora qilmasdan, birga bora qolardim.

Hechqisi yo'q. Kishi kishiga yaxshilik qilish uchun dunyoga keladi. Bugun mendan, ertaga sizdan...

Shu gapdan keyin Mirsalim Sodiqni boshlab ketdi. Mo'ljalidagi kvartiralarni ko'rsatdi. Sodiqqa bittasi yoqdi. Bu bir odamning alohida eshikli tashqarisi edi. Ikki uy, bir ayvon. Sal eskiroq demasa, o'zi bejirim, kichkina hovli sahni ham bor.

– Shu durust, – dedi Sodiq xonalarni aylanib chiqib, – bu yog'ini o'zingiz gaplashasiz-da!

U ijara haqi to'g'risida ishora qilgan edi, Mirsalim payqadi:

– Xotirjam. Sizga yoqqan bo'lsa bas.

Sodiq ishning bunchalik yengil ko'chganidan mamnun bo'lib, Mirsalimga minnatdorchilik bildirdi. Ko'cha muylashida yana bir marta tashakkur aytib, xayrlashuvga qo'uzatar ekan, Mirsalim qo'lini oldi-yu, qo'yib yubormadi:

– Kaminaning kulbalari ham shu yaqinda. Bugun bizda bo'lasiz. Baribir, boradigan joyingiz. Musofirxona (u mehmonxonani shunday derdi) bir zarurat kunidan tushiladigan joy. Xo'p deng. Bu yog'ini ham aytay, keliningiz ham sal ogohlantirilgan. Tiq etsa, ko'zi eshikda bo'lib, poylab o'tirgandlr. Xo'p deng.



Sodiq shuncha yaxshilik qilgan odamning soʻzini yerda qoldirgani botinmadi. Uning roziligidan Mirsalimning boshi osmonga yetdi.

– Sizni maorifda koʻrdim-u, «shu odam men bop» dedim. Yulduzingizga yulduzim toʻgʻri keldi-qoʻydi. Boʻlmasa, har kim bilan inoqlashavermayman. Hozir yaxshidan yomon koʻp. Dil tortib gaplashadigan odaming ishdan boʻshamaydi. Hali sizning ham ishingiz koʻpayib ketsa...

– Istagan kishi vaqt topadi.

– Albatta, albatta! Dilining yaqinligiga bogʻliq.

Sodiqning taxmini toʻgʻri chiqdi. Mirsalimning hovlisi maktabga yaqin ekan. Eshikka yaqinlashuviari bilan Mirsalim oldinga oʻtib, shoshinqiraganicha ichkariga kirib ketdi. Bu bilan Sodiqqa «siz bir oz sabr qiling», degan maʼnoni anglatdi. Sodiq buni tushunib, eshik oldida toʻxtadi. Eshikka nazar soldi, oʻz vaqtida ancha koʻrkam boʻlgan oʻymakor eshik. Albatta, avval boʻyoqsiz boʻlgan. Keyingi vaqtida zamonalashtirib koʻkka boʻyalgani koʻrinib turibdi. Hatto gazeta-jurnal va xat uchun qornidan koʻndalangiga ingichka tuynuk ham ochilgan. Qaddi past, yapaloq eshikka bu tuynuk boʻz koʻylakka sadaf tugmacha qadagandek yarashmas edi. Sodiq kulib qoʻydi.

– Nega toʻxtab qoldingiz, marhamat! – dedi Mirsalim ichkaridan chiqib. Vaholanki, u atayin avval kirib xotiniga xabar bergan, xotining «befarosat»ligidan baʼzan hovli yuzida qoladigan jomashov, supurgiga oʻxshash narsalarni chetga oldirgan edi. Eshikka qayta turib, hatto oʻrikning past shoxidagi qiyiqni ham yulib olib, dumaloqlab xotiniga otdi.

Sodiq Mirsalimning orqasidan kirib borganda xotini qoʻl qovushtirib ariqning tepasida turar edi.

Salom berib soʻrashdi. Uning ijozati xotinda boʻlganidek, Mirsalim mehmonni boshlab oʻtar ekan, dedi:

– Karavotga o'ta qolamiz-da, a, xotin? Yo uyga joy qilganmisan?

Mirsalimning sovuniga kir yuvib o'rganib qolgan xotini darrov javob qildi.

– Voy, uy dim, hovli yaxshi!

Mirsalim bu bilan mehmonga bo'lgan ehtiromini yana bir marta sezdirmoqchi edi, niyatiga yetdi. Xotining ziyrakiigidan xursand bo'lgandek, Sodiqning yelkasi osha kulib qo'ydi. Lekin xotining «soxta mehmondo'st bo'lmay o'ling!» degandek ensasi qotdi.

Sodiq kvartira qidirib, bir necha yerda bo'lganidan beixtiyor uning nazarini Mirsalimning o'z hoviisi tortdi. Hovii u ko'rgan hovlilardan ortiqcha farq qilmaydi. Faqat «zamonalashtirib» tartibga solingan, saranjom. Hatto tarnovning ostiga suv tushishi uchun musulmon g'ishtdan joy qilib, nishabini ham olib qo'yilgan. Devor ostiga yotqizilgan yo'lka bir tekis va keng g'ishtlari o'chmay teshada qirib tozalangan bo'lsa kerak, tasha izlari sap-sariq yiltillaydi. Undan pastda hafsala bilan o'tqazilgan gullar tizimi. Sadarayhon bahor bulutidek hurpayib, hojirayhon baqaterakdek kekkayib, binafsharang barglarini ochiq kaftdek tutib turadi. Ular orasida xinaning qizil oyog'i va chaqmoq guli darrov ko'zga tashlanadi. Gulibeor bo'lsa, osmonga chiqib paq etib sochilgan rango-rang mushakdek yonadi.

Ro'parada ikki uy. O'ng tomondagisining bir derazasi yerdan bir gaz baland ganchlangan sirkor ayvonga ochiladi. Ayvonning peshida o'ymakor ustun. Unga qarab Sodiq: «Hunar! Erinmagan ustaning ishi», deb qo'ydi. Ayvon tokchalarining hammasi keyinchalik kesak qalab urilgani ingichka chiziq bo'lib qolgan zihidan ko'rinib turibdi: Faqat o'rtadagi taxmon qolgan. Unga majnuntolga o'xshagan qandaydir gul surati solinib, bir shoxiga xum

choynakdek qush qo'ndirib qo'yilgan. Og'zini ochib, sayrab turishidan bulbulga, dumining yerga tegib turishidan tovsuga o'xshaydi. Xuddi shunga o'xshagan suratni Sodiq bolaligida dadasi xizmatkor bo'lib ishlaydigan Omil qori yuzboshining mehmonxonasida ko'rgan edi. Ha, o'sha mehmonxona keyinchalik kolxoz idorasi bo'ldi.

Mirsalim mehmonini yog'och karavotga to'shalgan atlas ko'rpachaga o'tqazib, «odatimiz qursin» deb qisqagina fотиha tortdi-da, o'zi oshxonaga o'tib ketdi. Xotniga nimalarnidir shivirlab, orasida bir xo'mrayib, keyin ochiq yuz bilan karavotga kelar ekan, mehmonining gullarga mahliyo bo'lib turganini payqab, sadarayhonni kafti bilan chayqab atrini taratdi.

– Asl narsa, jonivor. Hidi ham antiqa! – dedi va shoxidan bittasini sindirib, Sodiqqa uzatdi, keyin qizil gullarni maqtadi, ulardan ham bir nechtasini qaychilab, yasatig'lik xontaxtaning mehmon o'tirgan tomoniga qo'ydi.

– Sizning ham didingiz yaxshi ekan, – dedi Mirsalim karavotga chiqib o'tirgach, non ushataturib, – avval ko'rgan hovlimizni yoqtirarmikansiz deb o'ylovdim, yo'q, keyingisini, hovlisidan suv o'tadiganini tanladingiz. To'g'ri qildingiz. Avvalambor, suvi yaxshi, qolaversa, hovlisiga gul-pul degandek, ko'ngllochar narsalar eksa bo'ladi. Bay-bay, buning hidini qarang. Shuning suvini siqsa atir bo'ladi-da, a! Tabiatda mo'jiza ko'p. Mana shundan sizga ikkita qalamcha olib beraman. Anavinisidan ham. Unisi to'q qizil, hozir sal vaqti o'tdi. Rayhonni shuning uchun ekamanki, kuzda bargini yanchib olsa ham bo'ladi. Suyuq oshga juda ketadi-da! Xo'p desangiz, kellningizga aytaman, to'g'rilab beradi.

Mirsalimning mehmon ko'nglini olishga astoydil kirishgani choy quyishidan tortib, Sodiqning oldiga goh sariyog', goh murabbo, goh xandon pista surishigacha,

rayhonning fazilatidan tortib, ertaga u ish boshlaydigan maktab qo'ng'irog'ining ovozi maqtashigacha hamma narsada sezilib turardi.

Sodiq hali yaqinda nonushta qilgani uchun uncha ishtahasi bo'lmadi. Mirsalimning tez-tez dasturxonga taklif qilib turishiga qaramay, undan-bundan bir-ikki cho'qiladi, asosan choy ichdi. Mirsalimning nima bilandir ivirsib, hovlida yurganini ko'rib, cho'ntagidagi gazetani qo'liga oldi. Buning ustiga kelib qolgan Mirsalimga mehmonning shunday nozu ne'matli dasturxonga beparvo qarab, gazeta o'qib o'tirishi ensasini qotirgan bo'lsa ham, yotig'i bilan savol tashladi:

Olamda nima gap, tinchlikmi?

– Tinchlik. Mana shu Levanevskiyning topilmayotgani yaxshi bo'lmayapti-da.

– Yana shu haqda yozishibdimi? – Mirsalim birov «o'zing gazeta ko'rasanmi?» deyayotganday qo'shib qo'ydi: – Hali bugungi gazetani ko'rganim yo'q.

– Yozganda qanday! Moskva – Shimoliy Amerikaga uchishlarni uyushtiruvchi hukumat komissiyasining ma'lumoti bor. «Krasin» paroxodimiz Alyaskadan Shimolga yo'l olibdi. Amerika uchuvchilari Rubbins, Stuart izlashga qatnashibdi.

– Daragini topisholmaptimi?

– Yo'q. Ob-havo yomonligidan yo'ldan qaytishibdi. O'zimizdan ham to'qqizta kuchli aeroplan safarbar qilishibdi. Bular ichida Shimoliy qutbga uchib borib kelgan Ittifoq qahramonlari Mazuruk bilan Kozlovning ANT – 6 aeroplani ham bor. Topsa ana shular topadi. Ob-havoning sal jo'nashib ketishini kutib Rudolf orolida turganmish.

Mirsalim yangi olib kelgan choyni qaytarib, tinitib qo'ydi. Keyin «shamasi tushib ketmasin» degandek ehtiyotkorlik bilan jildiratib piyolaga quyar ekan, so'radi:

– Kechagi gazetada edi shekilli, shu ish uchun Amerikadan qandaydir aeroplan sotib olibmizmi?

– Aeroplan emas, gidroplan. Suvda ham suzadigan.

– Amerikada shunaqasi ham bor deng! – Mirsalimning zavqlangani ko‘rinib turardi. Buni fahmlab, Sodiq izoh berdi:

– Vaqti bilan bizda ham bo‘ladi!

– Albatta-albatta! – shoshib qoldi Mirsalim. Lekin tilini bermadi: – Bir mashhur uchuvchi ham uchadi deyilgan edi.

– Jems Matternmi? Yo‘q, uchmabdi. Katta pul so‘rabdi. Hozir ana shuni o‘qib, hayron bo‘lib turgan edim. Ming qilsa ham burjua kishisi-da, pul so‘rabdi, hamma narsani pul bilan o‘lchaydi. Uyalmagani! Axir biz uni qutqarganda pul so‘ramagandik.

– U ham shunaqa bo‘lganmi?

– 1933-yilda Arktikada qolib ketganda ana shu Levanovskiyning o‘zi uni halokatdan qutqargan edi.

– Unda pul so‘rashi juda noinsoflik.

– Noinsoflik emas, vijdotsizlik bu. Hukumatdek butun imkoniyatini safarbar qilib, oliy insonparvarlik bilan ish tutib turgan bir paytda oraga pulni aralashtirish – o‘ta pastkashlik. Siz bilan biz talabalarimizni ana shu balodan hazar qiladigan qilib tarbiyalashimiz kerak. Bu bizning muqaddas burchimiz.

Bu so‘z Mirsalimga yoqinqiramadimi, gapni chalg‘itdi: – Keling, birodar, dasturxonga qarang, choyingiz ham sovib qoldi.

Mirsalim Sodiqning oldidagi piyolani engashib olib, sovigan choyini bir chetga to‘kdi, issig‘idan quyib uzatdi.

Choy oxiriga yetib qolganda xotini oshxonadan chiqib ko‘rinish berdi, eri tushunadigan bir tilda uzoqdan labini qimirlatdi. Mirsalim sipolik bilan ko‘zini og‘ir yumib qo‘ydi,

«yaxshi» imosini qildi. Keyin karavotdan asta tushib, oshxonadan did bilan tayyorlangan pomidor zakuskani oldi, yo'l osti ariqqa tashlab qo'yilgan shishaga qo'l uzatdi. Ketidan xotini guldor xitoy laganda ixcham bo'yinturuqday qazini norin pichoq bilan olib keldi. Suvda qog'ozi ko'chib ko'ndalang yopishib qolgan aroqni odobsizlik bo'lmasin degandek, xontaxtaning tagiga olib qo'yib, qazini oldiga tortdi. Qo'lga puflab-puflab, parrak qilib to'g'ray boshladi, ora-sira ta'rifini qildi.

– Jonivor yaxshi narsa, kishining yigitligini esiga soladi. Qishda-ku qahratonga qalqon. Qani endi yaxshilab qartasi bilan yeb, pochapo'stinga o'ralib, oydin kechasi qalin qorda g'arch-g'urch yursang.

– Chenada kezsang-chi, – qo'shib qo'ydi. Sodiq yoki ovga chiqsang.

– Bu ham ma'qul. Siz ovni yaxshi ko'rasizmi?

Afsus, mening o'q tovushidan qulog'im bitib qoladi.

Sodiq uning bu gapini hazil tushundi.

– Ishqilib, kaka kabobiga tishingiz qamashmaydimi?

– Oh, oh, qani endi ketma-ket kelib tursa.

Mirsalim og'zining suvi kelib bir parrak qazini og'ziga soldi, keyingisini Sodiqqa tūtdi:

– Bay-bay-bay, ayni vaqti ekan, oling!

Mirsalim qazini butun qoidasi bilan to'g'rab bo'lgach, jaydari sirkada o'ldirilgan piyoz bilan o'rtaga surdi. Xontaxta ostidagi aroqni olib, cheti guldor bol piyolalarga bir tekisda quydi.

– Oling, birodar! Yomon kunimiz shunga o'xshasin!

Sodiqning ichkilikka mayli yo'q edi. Ulfatga kirib qol-gandagina bitta-yarimta og'ziga olmasa, boshqa vaqtlarda esiga ham kelmas edi. Shu yoshga kelib, biror shishaning og'zini ochganini bilmaydi, o'zinikida ichilib qolsa ham, kimdir, boshqa odam ochadi. Odob yuzasidan ochishga

urinsa, o'rtoblari «shunga qolganda talantingiz yo'q, azizim» – deb qo'lidan olishardi. Uzoq qiynalib ichishini ko'rib, «ignaning ko'zida quyyapsizmi, Sodiqjon, simirsangizchi», deb mazax qilishardi! Shuning uchun u Mirsalim uzatgan piyolani olishga oldi-yu tashvishga tushdi: bilmagan odam «jo'rttaga tarang qilyapti» deb o'ylashi mumkin.

Mirsalim «mehmon boshlagani uyalyapti» degan andishaga bordi-da, «men ketdim» deb bitta tashladi. Sodiq «bo'sh piyolani hazil qildi» degan xayolga bordi. Yo'q, ichibdi, zakuska qilayotganda bilib qoldi. «Bunaqa ichadiganlari bo'lar ekanu» deganicha ko'zini chirt yumib birinchi qadahni yarmigacha arang yutdi ikkinchisini ho'plab qo'ya qoldi! Shuncha qistasa ham «qo'lidan kelmasligini» aytib, uzr so'radi, o'zining tortinmasdan ichaverishini ta'kidladi.

Odatda ichkilikning bir piyolasi kishilarni bir-biriga tanishtiradi, ikkitasi tilini yechib, quifi-dilini ochadi; uchinchi haqorat boshlatadi; undan keyingilari esa, yo maqtanchoqlikni uchiga chiqaradi, yo alam bulog'ining ko'zini ochib, yig'latadi, nimanidir qasam ichirib do'stligini pesh qildiradi. Ichkilikning ne-ne gadoy topmas ko'chalariga kirib chiqqan Mirsalim keyingi yillarda haddi sig'adigan kishilar bilan o'tirsa uchinchi-to'rtinchini bemalol ichaverar, kimdandir tap tortib, ichidagi gidiri yuzaga chiqishidan hayiqsa, ikkinchisidan nari o'tmas, o'tsa ham ho'plash bilan chegaralanar edi. Hali sinashta bo'lmagan Sodiq oldida ham xuddi shunday qildi. Ikkitadan ortiq ichmadi. Ulfatining ortiqcha mayli yo'qligini bilib hatto ichishni yomonlab ham qo'ydi.

– Ko'p ichgan bilan kishining shoxi chiqadi deysizmi? Ermak qilarmiz, devdim, sizning ham menga o'xshagan hafsalangiz yo'q ekan. Rasmga kirib qoldi bu savil bo'lmasa, ichmagan ma'qul.

Aslida Mirsalimning ichini boyagi tushgan ikki piyola yostiq jildiga o'ralib qolgan mushuk bolasidek timdaldardi, uchinchisini chaqirardi. Uning qo'li beixtiyor goh shishaga, goh tagida jinday qolgan piyolasiga ketib qolar, ko'zi zakuskaga qadaldardi. Sodiqning yana bir «siz ichavering!» degan takiifiga muhtoj edi-yu, lekin Sodiq «befarosatlik» qilib indamas, to'g'risi, uning holatini fahmiamas edi.

Mirsalim chidolmadi, osh kelishi bilan ikkala piyolaga boyagidan jonliroq quyib, Sodiqni qistadi. Uni bir ho'platib, o'zi esa:

– Oshdan oldingisi yaxshi bo'ladi, ishtaha ochadi, – deya oq urdi. Me'yoridan oshgan bu uchinchisi Mirsalimni qora terga pishdi.

Bu shaharda issiq yozning ham kechquruni bahavo bo'ladi. Kun botishga yaqin sal dim bo'lib turadi-da, keyin g'ir-g'ir shamol esib-qoladi, kunduzining butun hordig'ini chiqarib yuboradi.

Mirsalim mehmonni «yotib qolsangiz ham bo'lardi, o'z uyingiz», deb kuzatib chiqib kelayotganda kech shamoli sadarayhonlarning ichini chovurib, atrini anqitardi. Gulibeor esa, allaqachon ko'zlarini yumib olgan edi.

Mirsalim ariq bo'yiga kelishganda Sodiqni to'xtatib, guizorga sho'ng'iganda eshikdan atlas ko'yiakli bir qiz kirib kela berdi. Ba'zi qizlarga o'xshab chetlab o'tmasdan, to'g'ri Sodiqning qarshisiga yurdi, odob bilan salom berib, boshini qalqidi. Xuddi shunday Mirsalim bilan ham salomiashdi. Shunda:

– Keldingmi, qizim, qaychini uzatib yubor, bo'lmayapti, – dedi Mirsalim.

Qiz qaychini olib chiqib, dadasiga uzatmadi: Siz chiqa qoling, dada, men o'zim uzaman, – dedi va gulni oralab ketdi. Bir zumda bir dasta gui uzib chiqdi.



– Amaking bilan so‘rashingmi? Yangi o‘qituvchimiz, qo‘shni mahallaga ko‘chib kelyaptilar. Bordi-keldi qilaszlar, – dedi Mirsalim Sodiqqa gullarni tekislab tuzatar ekan, – suvga solib qo‘ysangiz bir hafta turadi.

Sodiqning xayoli maktab ilmiy mudiri bilan bo‘lgan suhbatda, ko‘zi esa qizda edi: aytganicha bor! Aqli ham husniday yetukmikan?

Sodiq Mirsalimnikidan to‘g‘ri pochtaga borib, to‘yga xabar qilayotgandek quvonch bilan «yo‘lga chiqinglar» deb uyiga telegramma berdi.

#### **4. IKKISINING HAM QALBI GURS-GURS URARDI**

– Salom, azizim! Kecha qanday dam oldilar. Eshitdim, eshitdim! Haftada bir keladigan dam olish kunini ham ilm yo‘liga sarf qilbdilar.

Mirsalim o‘qituvchilar xonasiga shunday so‘zlar bilan kirib keldi va divanda o‘tirgan Sodiqqa qo‘lini uzatdi. U har vaqtdagidak shodu xandon va yuzi to‘la tabassum edi. Sodiqning qo‘lini uzoq qo‘yib yubormay turdi, bu bilan o‘zining hurmatini alohida chertib ko‘rsatmoqchi bo‘ldi.

– Shunday qilmasak bo‘lmaydi. Darslik bilan kifoyalanish jo‘jalarni katakda boqishdek gap. Ba‘zan tashqariga ham chiqarib turish kerak, ko‘zi ochiladi, o‘zi topib yeydigan bo‘ladi.

– Ofarin! Juda to‘g‘ri o‘xshatdingiz. Qalay, eksponatlarga boymi... boyitishibdimi? – Mirsalim bu tarix muzeyini ko‘rmaganini yashirish uchun shoshib qoldi, – men o‘tgan yili ko‘rganimda ancha kambag‘al edi.

– Yo‘q, yaxshi. Lekin o‘tmish ko‘p o‘rinni olib qo‘ygan ekan.

Mirsalim o‘zining ham shunday narsalarni yaxshi ko‘rganini va talabalarning ilmi uchun qayg‘uruvchi qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ldi:

– Afsus, bizning fandan muzey yo‘q. Bo‘lmasa men ham...

– Shu muzeylar sizga ham bo‘laveradi.

Mirsalim bu muzeylarning nimasi uning «ona tili»si uchun bo‘laverishini fahmlab yetmagan bo‘lsa ham, uning fikriga qo‘shildi, biror sinfni olib borishni ko‘ngliga tugib qo‘ydi. Buning sababi bor edi. Sodiqning maktabga kelganiga hali hech vaqt bo‘lgani yo‘q, lekin tekislikdagi tepadek ko‘zga tashlanib qoldi. Mana, kecha dam olish kunining bahridan kechib sakkizinchi sinfni tarix muzeyiga o‘zi olib bordi. Bo‘lmasa pioner vojatiyga ham topshirsa bo‘lardi. Undan oldin bir sinf bilan «Gamlet»ni borib ko‘rdi. Nimasidir darsiga kerak emish. Nimasi kerak. Mirsalim haligacha tushunib yetmaydi. To‘g‘ri, «Boy lia xizmatchi»ga olib borganda darrov fahmiagan edi: kambag‘allarning o‘tmishda qanday yashaganini ko‘rsatmoqchi! Yana bir sinfga Tuproqqo‘rg‘on bilan nurab qolgan madrasani tomosha qildiribdi. Qo‘shnining tovug‘i g‘oz ko‘rinadi degandek, Sodiqning bu oddiy ishlari Mirsalimning ko‘ziga uni bir pog‘ona ko‘tarib qo‘ydi, shu bilan bir vaqtda g‘ashini keltirib, rashkini uyg‘otdi. Bir hafta maktabda bo‘lmasa ham o‘rni yo‘qlanmaydigan bir-ikki o‘qituvchining chetchetdan «musofir dono» deb kesatganini hisobga olmasa, ko‘pchilik Sodiqning atrofida. U darrov kattaga uka, kichikka aka bo‘lib qoldi. Maktabga taalluqli nima masala bo‘lsa aralashadi. Lekin hech kim «nega sen hamma narsaga choviingni solaverasan?» demaydi. Shunday bo‘lishi kerakday unga qo‘shilishadi, demak, uning yo‘li to‘g‘ri, uning izidan borish kerak, uning bag‘riga kirish kerak. Kurmak bo‘lib suv ichib turish mumkin.

– Ha, aytganday, Sodiqjon, – dedi Mirsalim uning yoniga o‘tirayotib, – menda bir-ikki kitob bor. Tarixga doir. Shuni sizga ko‘rsataman, deb necha o‘yiayman, hech

mavridini topolmayman. Kecha olib borib birpas hordiq chiqarib kelay desam, ma'rifat sayriga ketgan ekansiz.

Mirsalim kutganidek, Sodiq kitoblarga qiziqib qoldi. Lekin «didi ayvonining taxmoniga soldirgan surati bo'lsa, kitobi nima bo'lardi», deb o'yladi. Shunday bo'lsa ham, so'radi:

– Qanday kitoblar ekan? Olib kela qolmabsiz-da.

– Bitta-yarimtasi bu almisoqdan qolgan kitoblarni nima qilib ko'tarib yuribdi demasin, dedim. Biri «Boburnoma», Qozon bosmasi, yana biri German Vamberining «Sayohatnoma»si.

Sodiq bu kitoblarning ta'rifini eshitgan-u, ko'rmagan edi, juda quvonib ketdi:

– O, juda badavlat ekansiz-ku. Qachon qo'lga tushira qolgan edingiz.

Mirsalim «biz ham chakana emasmiz» degandek sal kibrlanib qo'ydi:

– Ishqibozlik...

Sodiq «bu ham ichidan pishgan ekan-ku», degan fikrni ko'nglidan o'tkazdi. Har kimda ham «Boburnoma» bo'lavermaydi, Sodiq. «eski maktab ko'rgan» bu o'rtog'i bilan ichida faxrlanib qo'ydi.

Aslida Mirsalim rostini aytmedi, aytishi ham mumkin emas edi. Bu ikkala kitob ham uning qo'lga tasodif bilan kirib qolgan edi. U rastada qo'sh do'kon ochib, teridan bit semirib yurgan kezlari bir ziyoli o'rtog'i «ko'rib qo'ying, bizning bobolar qanaqa kishilar bo'lgan», deb maqtanib «Boburnoma»ni bergan edi. To Mirsalim «mag'zini chaqib» o'qiguncha «savdo-sotiq hurriyati» tugab, o'sha o'rtog'i ham yo'q bo'lib ketdi, keyinchalik afg'onda deb eshitdi. German Vamberini shundan ilgariroq bir rus tanishi mehmonga qo'ltiqlab keldi-yu, esidan chiqarib qoldirdi. U ham so'ramadi, bu ham eltib bermadi, qanaqa kitob ekanini bilmaganidan so'ng bergisi kelmadi:

Sodiq bunday antiqa kitoblarni ko'rishga juda qiziqib, ertalabgacha sabri chidamay, kechqurun Qodirni yubordi. Keyingi vaqtdagi xafaqonligi haligacha yozilmagan Qodir o'tirgan yeridan vazmin qo'zg'alib salmoqlab chiqib ketdi. Lekin qaytishda butun boshqa bir odam bo'lib keldi... Ko'zlari ostiga yashiringan quvonch chaqnab ketayketay deb turibdi. Sodiq yaxshi biladiki, bunday hayajon yoshlikda, faqat yoshlikda bo'ladi va yoshlikka yarashadi. Qodir ariq bo'yiga o'tib yaxshilab yuvindi, nima uchundir, artinish esiga kelmay hovliga suv sepdi, ko'm-ko'k bo'lib unib chiqqan kashnich bilan o'smaga suv quydi, orasidagi begona o'tlarni yulib tashladi. Hozir izzatli mehmon keladigandek eshik oldilariga yupqa qilib suv sochib, ketidan supurdi. Keyin uyga kirib oynaga qaradi, kiyimboshini tuzatdi, oladigan kuni ertaga bo'lsa ham soqoiini qirdi. Uning sevinchi ichiga sig'mas edi, bu shunday sevinch ediki birovg'a aytib bo'lmaydi, aytganda ham tushunishi qiyin.

U olgan uzugining suvga tushib ketgan zumrad ko'zini topgan edi!

Qodir Mirsalimning hovlisini ko'rmagan edi. Shuning uchun surishtirishga majbur bo'ldi. Surishtirganda ham shundoqqina oldiga borib so'rabdi. Ustiga to'r to'qilgan latta koptok o'ynayotgan ikkita qizchanning bittasi chittak chaqqonligi bilan yugurib kelib, bidirladi:

– Aziza opamnikimi? Hu, anavi ko'k eshik.

Qodir ko'k eshikni asta qoqdi. Qiz yana bidirladi:

– Ichkarilik, qattiq qoqavering.

Qodir qattiqroq qoqdi. Ichkaridan ayol kishining labbay degan tovushi keldi. Keyin eshikda o'sha atlas ko'yiakli qiz paydo bo'ldi. O'sha... Qodirning adashuvi mumkin emas. O'sha qomat, o'sha qosh, o'sha ko'z. Bu ko'zlarning tengi yo'q. Bu ko'zlar butun mavjudotning barcha go'zalligi va

latofatini, kamolati va saxovatini o'zida jamuljam qilib turardi. Unda hayot bor, viqor bor, unda quyosh bor, surur bor. Bu ko'zlarga boqish uchun esa bir olam jur'at kerak. Bu tasodifdan Qodirning hushi boshidan uchdi, tili so'zga buralmay qoldi. Barmog'ining uchigacha jimirlab ketdi. Nimaga kelgani esidan chiqib:

– Siz shu yerda turasizmi? – deb yuborganini o'zi ham bilmay qoldi.

Qiz ana shunda Qodirni tanib, o'sha kundagiday yoqimli tabassum bilan dedi.

– O'sha kuni o'rtoqiarimni topib oldim, sizdan sal narida dars tayyorlashayotgan ekan.

Qizning tovushi Qodirning quiog'iga goh kirar, goh kirmas edi. U butun xayoli bilan o'sha bog'da, o'sha maysa ustida turar edi, shu qiz, shu qarshisida yoqimli kulib turgan qiz «oldidan o'tgan qizni payqamaydigan qanaqa yigit ekansiz» deb ta'na qilardi.

Qodirning yuragi o'sha kundagidek bir entikib tushdi. Hamon yuzidan tabassum arimagan qizning yuziga tik qaradi. Endi u qizga yaxshilab qarab olmoqchi, shuncha intizorligi evaziga to'yib olmoqchi edi. Lekin bunday bo'lib chiqmadi: qurbi yetmadi! Yonib turgan qorachig'i keng patton ko'ziar uning damini qaytardi. U chor-nochor ko'zini olib qochdi, ammo ichini qandaydir iliq nur to'ldirgan, ruhida darddan arigan kishidek yengillik bor edi. Ana shu yengillik bilan yana boshini ko'tarib, so'radi:

– Dadangiz uydamlar?

– Yo'q, mehmonga ketuvdilar. Nima ishingiz bor edi?

– Men Sodiq akaning ukalari bo'laman.

– Ha...– dedi qiz bir narsa esiga tushgandek chaqqonlik bilan, – kitobga keldingizmi?

«Bu qiz qayoqdan biladi? Yoki dadasi bilan akam kelishib, atayin meni yuborishdimi?!» degan fikr Qodirning xayoliga keldi.

– Ha, topdingiz! Dadangiz aytib ketuvdilarmi?

– Aytmasalar ham o‘zim bilaman! – dedi Aziza o‘sha bog‘da «oldidan o‘tgan qizni payqamaydigan qanaqa yigit ekansiz» degandek qilib. Bu so‘zdan Qodir yana tildan qoldi, yana qaibi larzaga keldi. Yana Aziza o‘t tashladi:

– O‘zingiz kirib olasizmi, yoki olib chiqib beraymi? Oyimlardan boshqa hech kim yo‘q.

Askarlikda ne-ne to‘siqiardan o‘tish mashqini olgan, toblangan yigit qarshisida turgan ko‘k e‘shikning ostona-sidan hatlab o‘tishga jur‘at qilolmadi.

– Mumkin bo‘lsa...

– Olib chiqib beraymi? Xo‘p bo‘ladi!

Aziza atlas ko‘ylagining etaklarini chiroyli hilpillatib burilib ketdi. Qodir qancha vaqt o‘tganini bilmaydi, xazinaga yo‘liqqan gadoydek shoshib qolgan edi. Bir mahal qiz gazetaga o‘ralgan kitob bilan yana o‘sha o‘zi turgan yerda paydo bo‘ldi.

– Kirmadingiz! Oyimlar nega ichkariga taklif qilmading, deb meni koyidilar, – deya erkalangansimon bir harakat qildi Aziza.

Qodir qiz bilan xayrlashayotib, unda ham til bilan aytib berish qiyin bir o‘zgarish sezdi. Uning qorachig‘i yirik ko‘zlari ajib ma‘yus nurlanib, kafti yonar, kaftida qandaydir mayin titroq ham bor edi. U Qodirning orqasidan yo‘l chizib qarab qoldi. Keyin har vaqtdagidek tetik sho‘xiik bilan emas, vazminlik bilan orqasiga ma‘yus o‘girilib, tizzalaridan mador ketgan kishidek asta qadam tashladi. Uch-to‘rt odim yurgach, qandaydir ichki kuch uni yana orqasiga qarashga majbur etdi. Ana shunda tez yurib uzoqiashib ketolmayotgan Qodirning ko‘ziga ko‘zi duch keldi. Ikki o‘rtada o‘t chaqnagandek bo‘ldi. Ikkisining ham qinidan chiqib ketay deb turgan qalbi bir-biriga eshitilgudek gurs-gurs urardi.

Qodirning xursandligi kelinoyisi Jannatning qon qaqshagan kuniga to'g'ri keldi.

Jannatning shaharga kelishidan eng katta umidi nomi ketgan doktorda edi. Kinga masiahat solsa, shu doktorning nomini aytdi. Uning nomini eshitgan sari Jannatning ishonchi ortdi. Ne-ne umidlar bilan uning kabinetini qoqdi. Uni o'rta yoshlardagi chiyratma ipdek bir xotin qarshi oldi. Nima uchundir, Jannat bu mashhur doktorni keksa, sochining qorasidan oqi ko'proq, ko'zoynakli deb faraz qilgan ekan, ixlosi qaytgandek bo'ldi. Ammo doktor o'zining samimiyligi va ziyrakiigi bilan uning avvalgi ishonchini o'ziga qaytardi. Jannat ko'ringan va boqtirgan ba'zi doktorlarga o'xshab shoshmadi, naridan-beri u yer-bu yeriga quloq solib, o'lchab, dori-darmonga ko'chmadi. «Sen iziagan doktorman. Umidsizlanma, hali boladan qolganing yo'q. Hali qo'shaloq o'g'illar ko'rasan» degandek, yumshoq gapirib qarshisidagi stulga o'tqazdi. Qo'lidagi ilgari boqtirgan doktorlarning qog'ozlarini olib, shoshmasdan ko'zdan kechirdi. Keyin gapni eridan boshladi. «Eringiz avval uylanganmi? Uylangan bo'lsa bola ko'rganmi? Urug'ida befarzand o'tgan bormi? Sizning-chi? Turmush qurganinglarga necha yil bo'ldi? Qanday kasallar bilan og'rigansiz? Eringiz yaxshi ko'radimi? Bolaga mehri qanday?»

Shunday qator savol-javoblardan keyin uning o'zini ko'rdi. Turli kabinetlarga, laboratoriyalarga yozib berdi:

– Vaqtida qatnang! – deb alohida ta'kidladi. Ba'zan u kirgan choqda o'sha kabinet yoki laboratoriyada doktorning o'zi o'tirgan bo'lardi. Bularning hammasi Jannatga unga shirin orzularni yetakiab kelardi. U ba'zan tug'ilajak bolasiga ism tanlab qolar, qanday kiyimiar kiygizishni

o'ylar, u bilan g'oyibona gaplashar, uni osmonga otib  
erkalar, kulmaganiga qo'ymay qitiqlar, qiqillab kulishidan  
zavqlanar, unga qo'shilib o'zi ham kular, xursand bo'lardi.  
Bola birpasda yoshiga to'la'di, tug'ilgan kuni katta ziyofat  
qilib beradi. Bir mahallar ta'na qilganlarni albatta chaqiradi.  
Ularga «mana ko'rdinglarmi, orqavarotdan vaysaganinglar  
qoldi» deydi-yu, hammasini kechiradi, g'iybatning beti  
qursin, deydi-yu, apoq-chapoq bo'lib ketadi. Bolasini  
yetaklab ularnikiga boradi, bog'larga o'ynatib olib chiqadi,  
aytgan o'yinchog'ini olib beradi, sindirsa ham, buzsa ham  
xafa bo'lmaydi: qo'g'irchoq nima degan narsa!

Jannatning tushiga nuqul bola kirardi. To'rg'ayga  
o'xshab uzoqdan tovushi kelardi-yu, o'zi ko'rinmas edi.  
«Dononing yo'talida ham hikmat bor» degandek, doktor  
shamalab o'tgan narsaga ham astoydil ixlos qo'yardi.

Lekin bir necha oy o'tsa ham tushiga kirgan ingani  
o'ngida eshitmas, butun niyati orzudan nariga o'tmas edi.

Qodir oltin uzugining yo'qotgan zumrad ko'zini nogahon  
topib, uning zavqida mast bo'lib, aytishga so'z topolmay  
gangib turganda Jannat mashhur doktorning nasihatini  
ko'zida yosh bilan tinglar edi. Doktor unga «ovora bo'lma,  
senda bola bo'lmaydi demagan bo'lsa ham, shunga yaqin  
bir narsa aytdi. Bu mo'rt stakanga qaynoq suv quyishdek  
gap edi. Jannat qirsillab ketdi. Uning ko'nglini qancha  
ko'tarishmasin – bo'lmadi. Qodir visol daqiqalarining zavq-  
shavqida eshik oldiga suv sepib, endi supurayotganda  
Jannat ko'ngil uyi vayron kirib keldi. Ostonadan hatlab o'tdi-  
yu, ho'ngrab yig'lab yubordi. Uning yig'isini hammadan  
avval eshitgan Adolat xola oshxonadan yugurib chiqdi.

– Ha, bolam, tinchlikmi?

Jannat indamadi, ayvonga o'zini tashladi: Koshkiydi  
tug'ilmagan bo'lsam...



Adolat xola fahmladi. Derazadan borib, uyda kitobga muk tushib o'tirgan Sodiqqa ishora qildi:

– Chiq. Xotiningga doktor bir narsa dedimi, ko'ngli buzilib keldi.

O'zi xamir yuqi qo'li bilan oshxonaga o'tib ketar ekan, uzun «uh» tortib, «ey, xudoyim!» deb qo'ydi.

Sodiq yelkasiga tashlab o'tirgan beqasam to'nini yo'l-yo'lakay kiygancha chiqib keldi. U uyqudan yangi turgan kishidek xomush edi. Butun fikri-zikri hali ham o'qiyotgan kitobida va onasining so'zi diqqatini tortmagan bo'lsa kerak, beparvogina chiqib, Jannatning ayvon chetida yuzini changallab yotganini ko'rishi bilan hushyor tortdi, ko'zi charaqlab, qadamini tezlatdi:

– Nima gap? Birov xafa qildimi?

– Ayb sizdamas, menda! Men o'lgurda, men baxti qaroda! – dedi o'kirib Jannat va yuzini ko'rpachaga bosdi. Sodiq gap nima to'g'risida borayotganiga tushundi, xotining titragan yelkasidan tutdi, dalda berdi... Ularning bu harakatini dunyo tashvishlaridan hali bexabar Qodir uzoqdan hayron kuzatib turardi. Uning shodlikiari qanday to'satdan boshlangan bo'lsa, xuddi shunday bir tarzda tamom bo'ldi. Azizaning eshik tubida turishini ko'z oldiga keltirgan edi, ko'nglini shodlik emas, tashvishnamo qayg'u bosdi. Qayg'u umidsizlikka yetakladi...

– Hay, jon bolam, sen kitobga munaqa mukka tushaversang yotib qolasan. Uxia, vaqt allamahal bo'ldi, – dedi bir uxlab tursa, haligacha o'tirgan o'g'liga Adolat xola. O'g'li Qodir:

– Xo'p, oyijon, hozir, – dedi-yu, joyidan qo'zg'almadi. Lekin bu javobdan qanoat hosil qilgan bechora ona narigi yonboshiga ag'darilib, ko'zini yumdi. Saldan keyin uning «kiffa-pish» degan mayin xurragi eshitildi.

Aslida Qodir dars tayyorlayotgani yo'q, ming bir azob bilan Azizaga xat yozayotgan edi. Qiz bolaga xat yozishning bunchalik qiyin ekanini u umrida birinchi marta tasavvur etardi. Nima desa ham ko'nglidagi qog'ozga tushmay qolayotganga o'xshaydi, nimasidir yetmaydi, nimasidir chatoq. Boshlashining o'ziga qancha vaqt ketdi: «Sevgilim» desinmi, yoki «hurmatli Azizaxon!» deb murojaat qiisinmi? O'qigan kitoblarini esladi: birortasida andaza olgudek namuna yo'q. Deyarli hammasida muhabbat bor, lekin hech bittasi xat yozmabdi. Demak, xat yozmaslik kerak ekan-da! Men yozsam kulgi bo'lmasmikin? Ehtimol, ular mendan ko'ra jur'atli va uddaburon bo'lishgandir. Yo'q, men yozaman. Yozmasam bu gaplarni tilim bilan aytolmayman, aytib ham bo'lmaydi.

Adolat xola bir uyquni olib, o'g'lini yotishga da'vat etganda Qodirning xati hali yarmiga ham bormagan edi.

## 5. O'G'RI MUSHUK

Mirsalim quyuq xayrlashib chiqib ketgach, Jannat eshikni zarda yopdi. Eriga dedi:

– Bir ochilib yoqqan havodan, bir kulib boqqan odamdan qo'rq degan. Mana shu oshnangiz yaxshi odammas.

– Nega mening oshnam bo'larkan? – hazilga oldi Sodiq. U xotining xafa bo'lishiga asos ko'rmas edi.

– Axir sizning oldingizga keladi-da.

– Sening ham...

Jannat ensasi qotgandek indamay qo'ya qoldi. Jannatlar ko'chib kelgan kuni Mirsalim Sodiq bilan stansiyaga mashina olib chiqqan, kuyib-pishib ko'makiashgan edi. Ana shu birinchi ko'rishdayoq jibilajibonga o'xshagan bu tinib-tinchimas odam Jannatning ko'ziga eski tanish, har ko'rganda g'ashini keltiradigan tanishdek ko'rindi. Shu-

shu uni iqi sevmaydi. Eshikda ko'rindi deguncha ta'bi xira bo'ladi, so'zlab turgan bo'lsa so'zi og'zida qoladi, yuzidan kulgisi qochadi. Sodiq shunda:

– Ha, buncha? Senga bir narsa deyayotgani yo'q-ku? – deb tegishadi. Jannat rostiga ko'chadi:

O'zim ham bilmayman, nega bunaqa bo'laman. O'g'ri mushukka o'xshaydi.

– Sening nimangni o'g'irlyadi, tentak! – kuldi Sodiq.

– Bilmasam... – o'z fikrini isbot qilolmay bo'shashdi Jannat. Lekin, baribir, ko'nglida qori erisa ham muzi qoladi.

Sodiq ham Mirsalimning talay nuqsonlarini ko'radi, «nuqsonsiz odam bormi?» degan aqida bilan parvo qilmaydi. Undan keyin, kishining uzatgan qo'lini sababsiz qanday qilib qaytaradi. Mirsalim ana shu qo'l, bu ulkan shaharga «musofir bo'lib» kelganda ilk marta do'stona uzatilgan qo'l. Buning ustiga, Mirsalimdan yaxshilikdan boshqa narsa ko'rgani yo'q. Hatto «Domovaya knijka»dan o'tishdek serqatnov ishga ham Sodiqning qo'lini urdirmadi, «sizning ishingiz emas bu», dedi, ikki kunda to'g'rilatib keldi. Shunday odamni «menikiga kelma, xotanim yoqtirmaydi seni» deb bo'ladimi? Buning ustiga, u bilan o'tirsa har birjonda bo'ladigan turmush tashvishidan qutulganga o'xshaydi, yengil tortadi. Mirsalim, maktab ilmiy mudiri aytgandek, «butun shaharni biladi, yarmi yo do'sti, yo qarindoshi» edi. Sodiq yetti uxlab tushiga kirmaydigan qiziq gaplarni undan eshitadi.

Mirsalim bo'lsa Sodiqning mavqei qancha oshsa, shuncha yaqinroq suykalardi. Darsi biror soat oldin tugab qolsa, bir narsani bahona qilib aylanib yurar, keyin Sodiq bilan birga uzun-qisqa bo'lib chiqib ketardi. Uning fe'lini biladigan hazilkashlaridan biri «Mirsalim aka sirg'ansa oyoq tirab qolishga joy tayyorlayapti!» desa, boshqasi «yo'q, soyabon degin, yozda kundan, qishda yog'indan

asraydi», deb kulgiga olardi. Tajribali boshqa birovi nechukdir, kulgiga qo'shilmaydi, «oxiri baxayr bo'lsin, ishqilib», deya salmoqlardi.

Bugun ham Mirsalim o'ralashib, ketolmay qoldi. Sodiq darsdan chiqib, bo'r yuqqan qo'lini yuvar ekan, qoshiga bordi:

– Kalxatni boplabsiz-ku! – dedi. Sodiq boshida tushunmadi, keyin mamnun iljaydi:

– Bekorchilikka ermak.

– Ermagingiz shunaqa bo'lsa, astoydil harakat qilsangiz arslonning ham terisiga somon tiqar ekansiz-da. Juda boplabsiz. Xuddi tirigining o'zi-ya!

– Somon tiqish qo'limizdan keladi, – kulgi bilan javob qildi Sodiq. Ikkisi qotib kulishdi. Ayniqsa Mirsalimniki baland chiqdi – derazada o'tirgan musicha hurkib uchdi.

Gap Sodiqning zoologiya kabinetiga yasab bergan kalxat chuchelosi haqida borardi. Sodiq bundan bir necha kun avval ovga chiqqan edi. Hech narsa yo'liqmadi. Quruq ketmay, deb kalxatga o'q uzdi. Kalxat ham «men senga kerakmi?» degandek shaloplab shundoq oyog'i ostiga tushdi. O'q qayeriga tekkaniga qiziqib qo'liga oldi. U yoq-bu yog'ini qaradi, darrov topolmadi, lekin qo'liga qon yuqdi. O'q shunday tekkan ediki, tajribali ovchi Sodiqni hayron qoldirdi. Garchand shundan keyin bir necha tustovuq otgan bo'lsa ham kalxatni tashlamadi. Xotini Jannatga ko'rsatib maqtandi. Chivinday o'q zarrasidan halok bo'lgan, terisi butun kalxat Sodiqni yana bir fikrga olib keldi, chuchelo qilib maktab zoologiya kabinetiga qo'ysa nima qiladi? Axir qo'lidan keladi-ku!

Xuddi shunday qildi.

Mirsalim Sodiq bilan boshlashib ko'chaga chiqqach, maqsadga ko'chdi:

– Xo'p desangiz, bir joyga borardik. Sizni menga tayinlagan.

– Qanaqa joy?

– Borganda bilasiz! – Mirsalim chap ko'zini qochirliq qisib qo'ydi. – Ko'nglingizga yana boshqa gap kelmasin, hammasi hamkasabalar.

– Kimniki, aying-chi avval?

Mirsalim Sodiqning ikkilanganini payqab, otini qamchilab qoldi. Qayerda va kimniki ekanini butun tafsiloti bilan tushuntirdi, o'z odaticha, bir ozgina qo'shib-chatdi:

– Yomon bo'lmaydi, mamnun qaytasiz. Men sizni nojo'ya yerga boshlarmidim, – do'stligini pisanda ham qilib qo'ygan Mirsalim to Sodiq roziligini bergunicha otini so'rab bordi.

– Xotinlar ham boradimi? – aniqlamoqchi bo'ldi Sodiq. Mirsalim bu tomonini o'ylamaganidan shoshinqirab qoldi. U xotini bilan boshlashib yurishni yaxshi ko'rmasa ham el-yurtdan chetda qolmay deb, «xo'jako'rsin»ga ba'zan yetakiab qolardi. Bugun-ku, xayoliga ham keltirmagan edi. Shunday bo'lsa ham tadbirini qildi:

– Olib borsak bo'ladi, o'zi ham «oilanglar bilan» degan. Ammo «lekin»i bor...

Sodiq tushunmadi.

– O'g'lining besh yoshga kirish aqidasi... Jannatxonga qanday bo'lar ekan. Mayli olib bora qoling.

– Yo'q notanish joy. Jannat ham ko'nmaydi.

Sodiq «tosh tushgan yeriga og'ir» deb o'yladi-da, qattiq turib oldi, ko'nmadi. Lekin uyiga kelib, kundalik gazetalarni ko'zdan kechirguncha bo'lmay, eshik taqillab qoldi. Chiqsa, yoshgina bir yigit. Unga xat uzatdi. Xat rayon maorifining mudiridan bo'lib, mudir uni Mirsalim taklif qilgan xonadondan yozgan, uning shu yigitcha bilan birga kelishini iltimos etgan. Mudirning imzosi yoniga uy

xo'jasi ham «rad etmasligingizga ishonamiz» deb imzo chekkan edi. Sodiq hayron bo'lib qoldi. Buni Mirsalim uyushtirganini tushundi. Endi nima deb boradi? Bormasa mensimagan bo'ladi. Boray desa, Jannatga «Ovqatingni barvaqtroq qil, parkka chiqamiz» – deb qo'ygan. Bir oz o'ylab turgach, javob kutib turgan yigitchaga «hozir!» dedi-yu, ichkariga kirib ketdi. Jannatga xatni ko'rsatdi.

– Boring. Bormasangiz uyat bo'lar,– dedi Jannat.

– Park-chi? – Sodiq: «sen ham borasanmi?» deyishga, Mirsalimning boyagi so'zini eslab, botinmadi:

– Park bo'lsa, boshqa vaqtda chiqarmiz.

Xotinidan istihola qilib turgan Sodiq yengil tortdi, tezgina kiyinib chiqdi. Erining kishilikka kiyadigan shimini cho'tkalayotgan Jannat ovoziga taxir narsa chiqib qolgan-dek yuzini burishtirib dedi:

– Hoynahoy Mirsalim aka ham bo'lar... Ko'p ichmang!

Sodiq kelganda jamoat jam edi. Qarshisiga ilk qanot yozib peshvoz chiqqan kishi yana Mirsalim bo'ldi. Ko'pdan ko'rishmagan kishidek qo'lini olib, keyin boshqalar bilan tanishtirdi. Yonidan joy berdi. Bir ozdan keyin o'rta yoshlardagi va hayotda o'zini tutib olgan uy bekasi oshxonadan ochiq yuz bilan chiqib kelib, minnatdorchiilik bildirdi:

– Rahmat! So'zimizni yerda qoldirmabsiz: Kelin qani? Ey, attang! Shu bahona bilan tanishib olardik. Yanagi galga qolibdi-da, ha, mayli! Mayli! Musharraf! Mehmonga qara!

Sodiq bir yonida o'tirgan ayolga endi razm soldi. O'z nomini eshitgan qo'shnisi sipolik bilan uning oldiga turli taomlarni yaqin surgan bo'ldi, takiif etdi.

– Oling, Sodiq aka, siz kech keldingiz, – dedi, Mirsalim aroq quyib uzatdi:

– Shtrafi bilan.

Sodiq Mirsalimning soʻzini eshitmadi. Uning xayolini yonidagi qiz – Musharrafning «Sodiq aka!» degani tortgan edi. «Bu qiz mening otimni qayoqdan biladi?» degan oʻyga borib, oʻzidan soʻradi.

– Shunaqa deyishyapti-ku! Yo ismingiz boshqami? – dedi Musharraf va ismini yanglish aytib qoʻygan kishidek qip-qizarib ketdi, koʻzini olib qochdi.

– Yoʻq, toʻgʻri! – dedi Sodiq uni xijolatdan chiqarmoqchi boʻlib, lekin shu asnoda Mirsalim tutgan aroq toʻla ryumkani qanaqa qilib qoʻliga olib qoʻyganini bilmadi.

– Oq urasiz! – dedi Mirsalim nimadandir mamnun boʻlib.

Sodiq chumoli uyasiga tushib qolgan pashshaga oʻxshardi: ulkan balx tut ostida bezatilgan dasturxon atrofida oʻn besh chogʻlik erkak-xotin aralash oʻtirishibdi, hammaning koʻzi unda. Sodiq uzr aytar, boshqalar esa qistar edi. Uning kam ichishini bilgan Mirsalim ham yoniga tushmas, aksincha, «koʻzingizni yumib, bitta simirsangiz, vassalom!» deb qorashaqshaqdek shaqillab turardi, bir qoʻlida zakuska. Chorasiz qolgan Sodiq bir simirdi-yu, hammaga teng boʻldi-oldi, yangi kelganini, kishilarning unga tikilayotganini unutdi. Keyin koʻp qatori yana bir-ikki hoʻpladi. Hech kim ortiqcha mast boʻlmasa ham, gʻovur-gʻuvur avjida edi. Bu mahallarda endi rasm boʻlgan patefon Tamaraxonimning «Roʻmolim» ashulasini yangratganda hamma jim boʻlib qoldi. Faqat uy egasining eri sal kayfi oshib, bu plastinkani Moskvadan olib kelish tarixini ezmalik bilan qoʻshnisiga tushuntirardi.

Sodiq suhbatning borishidan bildiki, bu bejirim hovli yelib-yugurib xizmat qilib turgan oʻrta yoshli, uddaburon oʻqituvchi Sobiraxonniki. Besh yoshga kirgan ham uning oʻgʻli. Eri uch yil avval ichkuyov boʻlib kirgan. Ikkinchi er. Qayerdadir garajda ishlaydi. Sodiq goh qarshisidagi,

goh yonidagilar bilan gaplashib o'tirdi. Yonida o'tirgan Musharrafning o'ta sipoligi uning diqqatini tortdi: shuncha zo'rlashsa ham og'ziga olmadi. Limonadga qo'shib vino uzatishgan edi, bilib qoldi. Qanday bilganiga Sodiq hayron bo'ldi. U juda ziyrak edi. Ba'zan o'rnidan chaqqon turib uy bekasiga qarashdi, «opa! opa!» deb undan nimalarnidir so'radi. «Opa» to'ladan kelgan, yuz-ko'zi hali ko'rkini yo'qotmagan dumaloq yuzli juvon. Musharraf bo'lsa, aksi – yuzi oriq va uzunchoq. Faqat labi ustidagi xoli husnini ochib turadi. Lekin Sodiq Musharrafni oriq deb, xato fikr yuritganini o'yin boshlanganda bilib, labini tishladi. Birinchi bo'lib o'yin boshlab bergan Sobiraxon hovlini bir aylanib kelib Musharrafni ushladi. To uni ko'ndirguncha, patefon plastinkani chalib bo'ldi. Sobiraxon yugurib borib, plastinkani qayta qo'yib keldi-da, Musharrafni tortqiladi:

– Tur, opovsi, bu yerda begona yo'q, hammasi o'zi-mizniki.

Sodiq Musharrafning nimaligini ana shunda ko'rdi. Ko'rdi-yu, kishining yuzi qanchalik aldamchi ekaniga tan berdi.

Shunday qizlar bo'ladiki, yuzlariga qarasangiz, chuvakkina ko'rinadi, oyoqlari chillak oyoq bo'lsa kerak, deb gumon qilasiz, ortiqcha qiziqmaysiz. Keyin bir mahal kutmaganda qaddi-qomatiga ko'zingiz tushib qoladi. Qomati shunday chiroyli, kelishgan bo'ladiki, o'z ko'zingizga ishonmaysiz. Shunday kelishgan qaddi-qomat oriq yuzli qizniki ekaniga shubha qilasiz, payt poylab yuziga qaraysiz. Yo'q, o'shaning o'zi! Ana shunda u yangicha husn kashf etadi, latofat paydo qiladi.

Musharraf xuddi shunday qizlardan edi. Buni o'zi yaxshi bilar, kerak joyda kelishgan qaddi-qomatini namoyish qila olardi. Musharraf yolg'iz qaddi-qomati bilan emas, labi ustidagi kichik – moshdek timsiyoh xoli bilan ham



faxrlanardi. Uning uncha chiroyli bo'lmagan yuzini ochib turgan husn kaliti shu xol ekanini bilardi. Uni yana ham qoraroq qilib ko'rsatish uchun ba'zida ikki qator injudek oppoq tishlarini ko'rsatib, tabassum qilardi.

Musharrafning yoshini aniqlash qiyin edi: yigirmada desa ham bo'ladi, o'ttizda ham. Yigirma desang – ixcham yuz bichimi, bu yuzga yarashib tushgan qora xol kafillik beradi, o'ttizda desangiz – bo'yniga tushgan sezilar-sezilmas mayda ajin va ko'zining ostidagi so'lg'inlik guvohlikka o'tadi.

Uyalib, tortinib o'rtaga tushgan Musharraf, garchand astoydil o'ynamayotgan bo'lsa ham, goh-goh maqomga tushib qolayotgan qo'l tashlashi yoki qosh qimirlatishi uning yaxshi o'yinchiligidan dalolat berib turardi. Buni Sobira opa luqma tashlab tasdiqladi.

– Yozilib o'ynayber, singlim!

Baribir Musharraf yozilib o'ynamadi. Musiqa oxiriga yetib qolganda to'lda, maorif mudirining yonida o'tirgan chiroyli juvonne tutdi. «Voy o'lmasam!» deb o'zini olib qochgan bu ko'rkam juvon qiy-chuvdan keyin o'rtaga tushishga majbur bo'ldi. O'yinni qiyib tashladi. Lekin uning o'yini Sodiqning ko'ziga Musharrafning mug'ombirona qo'l tashlashidek chiroyli ko'rinmadi. Bu chiroyli juvonning maqomida hammasi oshkor, hammasi el ko'zida. Musharrafnikida esa, nimadir yashirin, nimadir sirli, nimasidir o'ziga tortib, yurakni jizillatib turardi.

Sodiq o'yinchi juvondan ko'zini olib, Musharrafga razm soldi. U xomush va sipo o'tirardi. «Uning o'tirishi ham o'zgacha», deb qo'ydi ko'nglida. Bir mahal ikkalasining ko'zi uchrashib qoldi. Musharraf yana o'shanday sipolik bilan olib qochdi, uyalgandek qimtinib qo'ydi. «Bunisi ham o'ziga yarashadi», dedi ichida Sodiq.

Uning butun harakatlarini Mirsalim zimdan kuzatib turardi. Sodiqning Musharrafga mahliyoligi paytida:

– Sodiqjon, chapakni oling! – deb uning tizzasiga shapatilab tushirdi. Bu bilan «qo‘ymaysiz, inim» demoqchi, o‘zining sezib turganini bildirib qo‘ymoqchi edi.

Sodiq bu luqmadan xijolat tortib, quiog‘igacha qizarib ketdi. Musharraf esa, o‘tirgan o‘rnidan hech narsa bilmagan kishidek og‘ir turib, orqa tomonga o‘tib ketdi.

Ziyofatdan qaytib kelayotganda Mirsalim kayfi bor kishidek tasmollab, oshiqning qo‘yniga qo‘l soldi: Qalay, Musharrafning o‘yini yoqdimi?

– Kim o‘zi?

– Yaqinda kelgan. O‘qishda ekan.

– Nimadan dars beradi?

– Sobiraxonning maktabida kutubxonachi. Boodob juvon deyishadi!

– Juvon bo‘lsa er qilgan ekan-da! – kutilmaganda chapani hazil qildi Sodiq.

– Shu yoshgacha er qilmay o‘ldimi! Yigirma beshlarga borib qolgandir.

– Ha, borgandir.

Shuhbat uzildi. Qarshidagi novcha terak uchidagi katta yorug‘ yulduz hali-zamon yerga sho‘ng‘ib ketadigandek pipirab charaqlaydi. Uzoqdagi sharsharakning ovozi, barglarning shildirashi bemalol eshitaladi. Yumshoq tun kishi xayolini olib qochgudek sokin. Sodiq bunaqa tunni umrida birinchi marta ko‘rayotgandek, yoki ertaga takrorlanishi asio mumkin bo‘lmagandek yayrab-yayrab nafas olar, uzoq-uzoqlarga nazar tashlar, atrofiga suqlanib boqar edi. Bo‘g‘ilgandek yoqasining tugmasini yechdi, ko‘kragini ochdi.

– Ajoyib tun, – dedi Sodiq.

– Juda! Bunaqasi kam bo‘ladi!

Sodiq indamadi, yana o'z o'yiga band bo'lib ketdi. Mirsalim zimdan kuzatib borardi: «Sodiq bugun ko'p ichib qo'yib yo qattiq charchadi, yo Musharrafga ko'ngli suv ichdi». Unga shu keyingisi kerak edi. U o'smoqchiladi:

– Sobiraxonning maktabini bilasiz-a, anhorning narigi betida.

– Ko'rganman. Yaxshi sport zali bor.

– Kutubxonasi ham yaxshi, – miyig'ida kuldi Mirsalim. Sodiq bu qochiriqni fahmlamadi.

– Bo'lsa bordir.

Bugungi ziyofatdan Sodiqda shirin bir taassurot qolgan edi. Ana shu totli taassurot og'ushida mamnun kelib, eshigining zulfini qoqdi. Lekin nima uchundir uyga kirgisi kelmas, orqaga qaytib ketgisi, keng dalalarda ko'kragini ochib, bor tovushi bilan ashula aytib yurgisi kelardi.

– Buncha shu vaqtgacha qolib ketmasangiz. Ziyofat quyuq bo'ldi shekilli,– dedi Jannat eshikni ochayotib.

Uning qulog'iga Jannatning tovushi umrida birinchi marta qandaydir do'rillab, xunuk eshitildi.

«Nega shu vaqtgacha buni payqamagan ekanman? – dedi yechinib, o'rniga kirar ekan.

## 6. IKKI DILLI VA IKKI TILLI ODAM

Sobiraxon ziyofatga taklif etar ekan, Mirsalim: – Musharrafxon, albatta, bo'lsa kerak? – deb so'radi. Chunki ularning «opa-singil» ekanini yaxshi bilardi. Bu kutilmagan savoldan Sobiraxon hayron qoldi. Mirsalimning navbatdagi hazili deb, tegishdi:

– Nima balo, jigaringizdan urdimi?

– Ursa arzimabmizmi?!

– Arziysiz, undan ham yoshrog'iga arziysiz? Mo'ychinakka jabr bo'ladi xolos, goh oqini, goh qorasini teraverib.

– Bo‘yaymiz-qo‘yamiz, vassalom! – Mirsalim bo‘ynini ichiga olib qah-qahlab kuldi.

Mirsalim Musharrafni surishtirganda, ma‘lum rejani ko‘nglidan o‘tkazib qo‘ygan edi.

Sodiq yangi ko‘chib kelgan kezlari ularning bolasi yo‘qligidan Mirsalim ajablanmadi. Bir qizga ko‘ngli to‘lmay, o‘g‘il armonida yonib yurgan Mirsalim «dunyoda o‘zidan ham baxti qora, xudoning qahriga uchragan kishilar» borligini ko‘rib, shukur qildi. «Yaxshi kuyov ko‘rsam, shu o‘g‘lim-da!» – deb o‘ziga tasalli berdi.

Lekin Mirsalim bir narsaga tushunmas edi: armon bilan o‘rtanib yotgan bu befarzand oila nega bunchalik tinch-totuv yashaydi? Bu tinch-totuvlik Mirsalimning ko‘ziga g‘ayritabiiy ko‘rinib g‘ashini ham keltirardi. Birov yongan olovda isinishga moyillik Mirsalimning tabiatida bor. Lekin buni u yaxshilikning yelkasi osha qilardi.

Mirsalim avvaliga bu «musofir oila» bilan aloqani puxtaladi. Mehmonga aytib, mehmonga bordi. Mehmonga borishida xotiniga nimta qilib berib, o‘zi bir juft konyakni qog‘ozga o‘radi. Bu bilan xotini kekkayishi, o‘zi mag‘rurlanishi kerak edi. Dasturxon ustida o‘zining baxtiyorligini yana bir marta namoyish qilish uchun atayin bolâ-chaqadan so‘z ochdi: – Qiz bo‘lsa ham bori yaxshi ekan. Mana bizning qizimiz onasining yoniga kirib qoldi, uyda bo‘lsa qo‘lini sovuq suvga urdirmaydi.

Mirsalimning taxminiga ko‘ra, Jannat qattiq o‘ksishi, o‘zining baxtsizligidan nolishi, shu bilan Mirsalimning g‘ayir ko‘ngliga orom berishi kerak edi. Bunday bo‘lib chiqmadi. Jannat, ko‘chadigan yara ko‘chib bo‘lgan, har narsaga tegib zirillamaydigan bo‘lgan bir tarzda gapga aralashdi, mehmonning izzatini saqladi: – Qizdir, o‘g‘ildir, bo‘lgani yaxshi. Hozirgi paytda o‘g‘il yoqqan chiroqni qiz ham yoqadi. Qizinglar yaxshi, ko‘rib havasim keldi.

– O‘qishini aytmaysizmi! Nuqul besh. To‘rt olgan kuni biz aybdordek qovoq-dimog‘idan qor yog‘adi, ovqat unut, to sahar chirog‘i o‘chmaydi. Qayta topshiradi-yu, ko‘ngliga kun tushadi.

– Ha, aylanay, bo‘ladigan bola shunaqa bo‘ladi. Chirog‘ini o‘chirsang, oydinga solib kitob ko‘radi. Mening Qodirim ham shunaqa. – Gappa aralashdi «Jonbolam xola».

Mirsalim yana «oltin qop»ning og‘zini ochib, maqtanishga tushgan edi, xotini stol ostidan oyog‘ini bosdi: «Bas, kalga o‘xshab oltin tarog‘ingizni maqtayvermang!»

Mirsalimning xotinigga Jannat yoqib qolgan edi: og‘irvazmin, ro‘zg‘or tutishi rejali, gap-so‘zi ma‘noli. Shuning uchun erining o‘tmas boltaga kunda tushira berishi g‘ashini keltirdi.

Mirsalim bo‘lsa, «ko‘rib qo‘y, mana bunaqa mushfiq oilalar ham bor dunyoda!» demoqchi, bu bilan hamisha «hayotidan noliydigan» xotinigga o‘z baxtiyor turmushini ta‘kidlab, minnatdor qilmoqchi edi. Lekin aksi bo‘lib chiqdi. Xotining bu oilaga mehri oshib, havasi kelib qaytdi:

– Qanday ahil! Bir-biriga muomalalarini ko‘ring. Bolasizlik demasa... Siz bo‘lsangiz... so‘zingizning boshi otamning go‘ri...

Mirsalim «haqiqatni tushunmagan» xotinidan kufuri oshib ketdi:

– Ey la‘nati, qachon senga aql bitadi, bu ahillik emas, g‘aribu benavolik.

Mirsalimning ikkita tili bor edi: biri ko‘chaga, biri uyga. Hozir shu keyingi tili bilan gapirmoqda edi. Bu tilning bir tomchisi bir chelak suvni zaharlashga yetardi.

Sodiqnikida ipaklarga o‘rab puf-puflab ko‘kka ko‘tarilgan qizi Mirsalim o‘g‘il kutganda tug‘ilgan farzand edi. Buvisi rahmatli berahm o‘g‘liga o‘chakishib, «qizim azizu

«mukarrama bo'ladi!» deb ismini Aziza qo'ygan edi. Shirin kulib, sho'x talpinadigan bo'lguncha Mirsalim uni qo'lga olmadi.

– Hoy, bemehr dadasi, qo'lingizga bir martagina olsangiz-chi, talpinishini ko'ring. Uyingizga etagimda olib kelmaganman-ku!

Mirsalim og'irlik bilan «bas!» degandek xo'mrayardi. Bolani qo'lga olardi. Dunyo tashvishidan bexabar bola gurunch donalaridek qo'shaloq tishiarini ko'rsatib, qiq-qiqqlab kular, dadasining bino qo'yib, taralgan mo'yiabini yulib olmoqchi bo'lardi.

– Buning halitdan erkakning mo'ylabiga chang soladi...  
– dedi Mirsalim kulib. Uning so'zi tugamasdan xotini ilib ketdi:

– Ha, bo'lmasa ko'ziga chang solsinmi?!

Mirsalim xotining ustomonligini tan oldi. Xotini o'zi chekkan jafolariga ishora qilgan edi.

– Ha, o'! Senga tildan bergan.

– Tilim boru yo'lim yo'q. Ostonada siz turibsiz!

«Xotinni boshidan, bolani yoshidan tut degan aqidaga itoat qilib yashagan Mirsalim xotini inqilobdan keyin sochidan burab, hovlida sudrab yurib urmasa ham, yo pichoqni qayratgani, yoki boltaga sop soldirgani yugurmasa ham zug'umini susaytirmadi, zulmning o'rnini o'zgartirdi, xolos. O'ringa kirganda tong otguncha yig'latadi, sirdosh kishilar oldida jerkib, siltab tashlar, begona oldida xo'mrayib «hali sen to'xtab tur!» – deya davomini kechasiga qoldirardi. Shunday qilib, xotini qayirib oldi, shoxini bukdi. Buning ustiga xotining tili qisiq yeri bor edi. Azizadan oldin ko'rgan qizi yoshiga yetmay o'lgan bo'lsa, undan keyin ko'rgan ikkala qizi ham nobud bo'ldi. Bittasi o'lik tushgan bo'lsa, bittasini endi «oyl»ga tili kelganda qizamiq edi. Keyin boladan qoldi.

Boladan qolishda o'zidan ko'ra ham, asiida Mirsalim aybdor edi. Inqilobdan keyin NEP davrida, uning o'z tili bilan aytganda, «savdo-sotiqqa erkinlik» berilgan yillari Mirsalimning oshig'i olchi turib, teridan bit semirib qoldi. U cho'ntagida ham, bu cho'ntagidan ham jiring-jiring pul. Tili burro, qadami tez. U «hay» desa, ikki-uch kishi birdan «labbay» deydi. Ana shunda u bosar-tusarini bilmay qoldi. Bir hamsoya do'kondor o'rtog'inikida bir konyak ichdi-yu, mazasi og'zida qoldi. Unga xuruj qildi. Konyak esa buzuq xotinlarga olib bordi, oldiniga juda shirin tuyulgan bu harom bir kuni uni qon qaqshatdi. Bu kasalni u bir oy qo'shni shahardagi o'rtog'inikida «mehmon»ga borib yotib, zo'rg'a pulning zo'ri bilan davolab oldi. Bu sirni o'zi-yu, u bilan birga og'rigan bir o'rtog'i bilardi. O'rtog'i shu kasaldan o'lib ketdi. Mirsalimning esa, bu kasal pushtini kuydirib yubordi. Shundan keyin ham Mirsalim xotiniga yon bosmadi, aksincha, uni qizg'anadigan bo'lib qoldi, avvaliga eri bo'lgani uchun kutsa, endi begonaga kunchlik qildi, «derazangni ko'chaga ochib beraymi!» deb o'dag'ayladi.

Savdo-sotiq to's-to'poloni bosilishi bilan Mirsalim ziyraklik qilib, muallimlikka urdi. Bundan avval ham bu sohaga bosh suqqan, familiyasining oxiriga «iy» qo'shib, afandilik qilgan edi. Endi familiyasining so'ngiga «ov» qo'shdi. Eski tanishlaridan birontasi «Mirzohidiy» deb qolsa, «qoloqsiz, davrdan ketda sudralib yurasiz» deya kuladi. O'zi ham sipo tortib, inqilob bo'lishi bilan oq «ma'rifat yo'liga jon bag'ishlagan ilg'or muallim»dek ziyoli to'niga kirdi. «Mutolaaga vaqt kam qolayotganini» pesh qilib, ko'p dars olmadi. «Ilm tog'dagi do'lana emas, o'zi gullab, o'zi pishsa, u anjir. Parvarish talab etadi», – dedi. Aslida pinhona savdo bilan shug'ullanardi. Savdodan kelgan foydani ona sutidan halol ko'rardi.

Mana shu yillardan boshlab uyiga ham isloh kiritdi. Shaharning anavi tomonidagi kichik ichki-tashqi ota hovlisini vorislar bilan imi-jimida bir yoqlik qildi. «Men merosga muhtoj emasman, ota-onam arvohi betinch bo'lmasin, shu ezgu ish qiyomatga qolmasin, deb qo'ldim», – dedi vorislarga va merosning kart dumbasini shart kesib ketdi. Shaharning hozir turgan yeridan joy qildi. Yopiq qozon yopiqligicha qoldi. «Savdo-sotiq erkinligi»da orttirilgan davlat lattaga o'rab, po'lat qutichada uying taxmoni ostiga tayinlik qilib ko'mildi. Bu «ko'rguliklar»ga xotini sababchidek, uning oldidan tortib kelib, g'azab aralash dedi:

– Ko'rib qo'y, la'nati, issiq jonman... Mendan keyin to'ruva osib ko'chaga chiqasanlar shu bo'lmasa!

– Ha, muncha! Avval siz o'lasizmi, menmi? Minnat qilmay gapiring!

– Minnat emas, ko'rib qo'y deyman!

– Ha, ko'rdim!

– Hech minnatdor bo'lmas ekan-da, bu xotin zoti!

– Xudo xayringizni bersin, bitta men uchun bo'lsa...

Hech kim ochidan o'layotgani yo'q.

– Tovuq bo'lib go'ng titasanmi?

– Yurt-el nima bo'lsa shu!

– Qizing-chi! Boshida bir tutam sochi-yu, og'zida o'ttiz ikkita tishi bilan birovnikiga kirib boradimi?

– Peshonasidagini ko'radi! Oltin o'raga solgandan ko'ra, oltin baxtini so'rang.

Mirsalim qah-qah urib kuldi:

– Baxt – pul-da, jinni! Bilasanmi, pul nima? Kishilarning oyog'i tagidagi prujina, sakratib yurgizadi. Puli bor farmon bilan, puli yo'q armon bilan yashaydi.

Mirsalim xotining eski paranjisini el ko'zi oldida baralla kuydirib tashlagan bo'lsa ham, sandiqdagi qo'sh banoras



paranjini shamollattirib turardi. Xotinini tejab ko'chaga chiqarardi. Uning o'z siyosati bor: bir ish qiigudek bo'isa oldinga ham o'tib ketmas, eng keyinda ham qolmas edi. Oldinga o'tib ketsa, «eskilik tarafdorlari»dan, ketda qolsa zamon zarbidan qo'rqardi. Xotining paraji tashlashi, savodsizlar kursiga chiqib o'qishi shu «siyosat»ga amal qilib olib borildi. Tabiatan quvnoq va o'yinqaroq, tili burro va chaqqon xotini davr bilan qadam tashlashni istar, ba'zan eridan shuni talab qilardi. Shunda Mirsalim jerkib solardi:

– Nima, etagingda menga o'g'il olib kelmoqchimisan?

– Hamma ko'chada yurganlar etagida bola olib kelyaptimi? Uyaling!

– Olib kelayotgan bo'lsa sen qayoqdan bilasan?

– Bilaman: ko'zim ko'r, qulog'im kar emas. Bino qo'yganingizning bittasi Mulla Normat edi. Xotini farishta, ko'cha betini ko'rmaydi, to'pig'idan yuqorisini ovrat tutib jiyakii ishton kiyadi, derdingiz. Oxiri nima bo'lib chiqdi. Yaxshi ko'rgan yigiti bilan qochib ketdi! Ha, aytganday, qilichdek o'g'il tug'ib olibdi.

– Harom! – dedi bu mushkulot o'z boshiga tushgandek Mirsalim.

– O'z ota-onasiga halol. Sizning qizingizga sovchi qo'yayotgani yo'q.

– Bir kami shu edi! Uyal yolg'iz qizingni shunaqalarga teng ko'rgani.

Xotini ehtiyotsizligidan labini tishladi: u, albatta, ko'zining oqu qorasi, bittayu bitta qizini shunday joyga kelin bo'lishini istamas edi!

Mirsalim yaqinginagacha xotinini bir qarindoshidan qizg'anardi. Rashki keldi deguncha yo pichoqni qayratgani, yoki boltaga sop soldirgani yugurardi. O'zi esa o'lgudek suyuq, o'z xotinidan ko'ra begonaga ko'proq kulib boqardi.

Bir yili tomog'idan ilindi-yu, keyin nafasi ichiga tushib ketdi. Bu bir begona xotinning unga yozgan xati edi.

Er xo'rligini toza tortgan xotinning qo'liga bu xat tushgach, Mirsalim o'tirgani joy topolmay qoldi. Bisotidagi butun so'z san'atini ishlatib, xotining oyog'iga yiqildi, o'n qator yirik marvarid olib berishga va'da berdi, qo'liga kuzur chiqqan o'yinchidek xotini bo'sh kelmas edi.

– Yo'q, oltin kosadan qon lchadigan bo'lsa, menga uning keragi yo'q. O'lar bo'lsam o'ldim. Hozir maktabingizga olib boraman, hammaga jar solaman. Ko'rsin! Bilsin! Bu yumshoqsupurgining qanaqa nayranglari bor! Dod, bu ko'cha xandon, uy zindonning dastidan! Haromdan qaytmaydi-yu, yana pinhon namoz o'qiganiga o'laymi! Bu qanday bedodlik, qizining bo'yi yetib kelyapti-yu, otasi o'ynash tutadi!

Mirsalim bir enlik etidan tushib, bu hodisani arang bosdi, ont ichdi, ko'z yosh to'kdi. Lekin xotin xatni bermadi, «joning mening qo'linda» degandek yashirib qo'ydi, u sal quyushqondan chiqdi deguncha esiga soladi. Stol tagidan uning oyog'ini bosish huquqini ham shundan keyin olgan.

Bugun ham xotini shu huquqdan foydalanib, Sodiqnikida yo'rg'alab ketayotganda tizginini tortib oyog'ini bosib qo'ygan, buni Mirsalim tezgina tushunib, tilini tiygan edi.

Bir haftadan keyin Sobiraxon ziyofatga aytar ekan, lop etib Musharraf esiga tushdi. Buning sababi bor edi. Chunki Sodiqnikiga o'sha keyingi borishida Jannatning «o'g'ri mushuk» deganini eshik orqasidan eshitib qolgan edi. Xotin kishining gapidan sirkasi suv ko'tarmaydigan Mirsalim ichida «to'xtab tur, sen qisirni» deb yanib, Jannatni otgani o'qi, ko'rgani ko'zi yo'q edi. Birdan esiga uning tug'masligi tushdi-yu, yengil tortgandek bo'ldi, go'yo

chigal ipning yo'qotgan uchini topgandek yashnab ketdi. Musharrafni esladi.

Musharrafni u jamalak sochli paytidan yaxshi bilardi. Bu mahalda Mirsalim familiyasi oxiriga «iy» qo'shib maktabda dars berardi. Musharraf unda o'qir edi. O'z husni va durkunligi bilan sinfdosh qizlardan lolaqizg'aldoqdek ajralib turgan Musharraf Mirsalimning diqqatini tortdi. U payti-payti bilan gap tashlab yurdi, sal muvaffaqiyatini pesh qilib, o'rtoqlari oldida maqtadi. Lekin Musharrafning qulog'iga esa «bu maqtoviarni oqlash kerak, singlim» dedi, yordam berdi: ba'zan o'qishdan keyin olib qolib qo'shimcha dars o'tkazdi, uning fazilatlarini yuziga aytib minnatdor qildi.

Musharraf esini tanib «bir narsa»ga fahmi yetadigan bo'lgan kundan boshlab, ota-onasining xohishi bilan er qilgan qizlardan «mushuk bolaga o'xshaysanlar, kimning etagiga solvorsa indamay ketaverasanlar», deb kulib yurardi. O'zi ajoyib er topib, hammaning og'zini ochirib qo'yishni qasd qilgan edi. Uning onasi barvaqt vafot etgan, otasi boshqaga uylangan, inqilobdan keyingi yillarda o'z mavqeidan qo'rqib, chet elga zudlik bilan qochib ketayotganda xolasi «bu mening qizim, bolaligida emizganman», deb olib qoldi, issiqda yelpib, sovuqda po'stinga o'rab katta qildi. Erkaksiz xonadonning erka qizi taltayib ulg'aymoqda edi. Mirsalim uni ko'zining ostiga olib, yomon niyat bilan yaxshilik qilib, qo'shimcha dars berib, payt poylab yurganda Musharraf durkungina qiz edi. Ertalab turib, oynaga qarab, o'z husnining fazilati bilan quvonib, nuqsoni bilan o'ksib yurgan chog' edi.

Mirsalim ozmi-ko'pmi Musharrafning ishonchiga kiringach, qo'shimcha darsni bir kuni uyiga ko'chirdi. Mirsalimning lofiga uchib, hammadan ko'ra yaxshi o'qiydigan bo'lishni niyat qilib yurgan Musharraf bu gal unikidan qon

yig'lab qaytdi: Mirsalim uning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib, nomusiga tegib qo'ygan edi!

Bu ishning qanchalik dahshat ekanini Musharraf Mirsalimning o'zini chetga olib qocha boshlaganidan keyin sezdi. Chunki Mirsalimning «xotinimga ko'ngilsizman. Uni qo'yib, seni olaman», deganlari yolg'onligi bilinib qolgan edi. Musharraf uning yoqasidan tutdi. Nochor qolgan Mirsalim avvaliga yalindi, sabr qilishini iltimos etdi, hamma bilib ketmasin, deb uni maktabdan olib, xotin-qizlar bilim yurtiga kiritib qo'ydi, oxiri katta bir mukofot evaziga yoqasini uning qo'lidan qutqarib qoldi. Musharrafning endi rozi bo'lishiga boshqa sabab ham bor edi. Qaysi bir shahardan kelib, kvartirada turib o'qiyotgan qoshko'zi qop-qora, barvasta yigitni yaxshi ko'rib qolgan edi. Yigit dutor chalardi. Musharraf esa, musiqaga ishqiboz edi, o'rganishga uquvi yo'q edi. Yigitning mohirona dutor chertishi uni mahliyo qilib qo'ygan edi. Yigit bir kun «dutorimga o'ynab ber!» deb qo'ymadi. Musharraf qarasa bo'lmaydigan. Dutorchining ko'zini shohi ro'molchasi bilan bog'lab qo'yib, o'ynab berdi. O'z navbatida dutorchi yigit ham uning ko'zini bog'lab qo'yib o'pdi. Hazil bilan boshlangan o'yin Musharrafning ikkiqat bo'lib qolishi bilan adoyi tamom bo'ldi. Yigit tashlab qochmoqchi bo'lgan edi, etagiga yopishdi. Mirsalim o'rtaga tushdi, yigitni «bu ishing xotin-qizlar ozodligiga qarshi aksilinqilob» deb qo'rqitdi. Nochor qolgan yigit shahriga olib ketishga majbur bo'ldi. Musharraf tug'di. Qarasa, baribir turmushi bo'lmaydigan. Buning ustiga qo'shni qishloqda yigitning ikkita bolali xotini bor ekan. «Itidan bo'lgan qurbonlikka yaramaydi» dedi-yu, emizikli bolani tashlab ketaverdi. O'qishni davom ettirishi endi mumkin emas edi. Turli yerda ishlab yurdi, keyin qisqa muddatli kutubxonachilar tayyorlash kursiga kirdi. Uni tugatib, uzoq rayonda bir necha yil ishladi, «qor

yog'di, iz bosildi» qilib o'tgan yili yana qaytib kelgan edi. Garchand Mirsalimga endi da'vosi bo'lmasa ham, baribir Mirsalim undan hayiqib yurardi, uning er qilib, tinchib ketishini istardi. Shu maqsadda uni Sodiqqa tanishtirgan edi. Tanishtirish oldidan Sobiraxon orqali uni toza pishitgan, hatto o'ziga bir xat yozib, puxtalab qo'ygan edi. Shusiz ham bu kezlarda Musharraf tavbasiga tayangan kishidek o'zini sipo tutib, taqdiridan nolib yurardi. Chunki bir emas, ikki bor sho'xiik qilib tili kuygan, endigisini boshlashga yuragi dov bermas edi. Sobiraxon iylab yumshatgan ko'ngli kutmaganda Sodiqdan g'oyibona suv ichib qoldi. Orqavarotdan surishtirdi; u yomon emas, minsa ham bo'ladi, oldiga solib yursa ham bo'ladigan. Axir qachongacha beva yuradi, bevani tuyaning ustida it qopadi...

Mirsalim Musharraf bilan ikkisini qamti qilib ko'rdi. Don olishuvi yomon bo'lmadi. Sodiqning ko'ngli qanday? Yoshi ulg'ayib qolgan odamning qoni tez soviydi. Kechagi o'tirishi, suqlanishi kayfniki emasmikin? Yo'q, bu suhbat – chaqilgan gugurt bo'ldi. U o'chib qolmasidan ustiga tutantiriq qalash kerak, toki gurillab yonsin. Tirnoqqa zor bo'lsa, yonadi! Musharrafning ko'z suzishi ham yomon bo'lmadi. Bir qizchalik nozu tamannosi bor. Sodiqning bag'riga cho'g' tashladi. Bo'lmasa, Sodiq, u o'ynagan paytida bunchalik mahliyo bo'lib qolmas edi. Bundan foydalanib qolish kerak.

Bu rejasining o'ziga nafi tegadigan tomoni ham bor. Sodiqning qadam olishi boshqalarnikiga o'xshamas, uzoqqa ketadigan ko'rinadi. Ana shunda Mirsalimning o'tiradigan to'nkasi baland va puxta bo'ladi-ku. Mabodo, farzand ko'rib qolsa bormi, Mirsalimning bu yaxshiligini to qiyomat esdan chiqarmaydi!

Shularning hammasi Mirsalimni zud bilan harakat qilishga da'vat etardi. U kechiktirmadi. Ertasiga payt

poylab, Sodiqni xoli uchratdi. Gapni yana o'tirishning yoqqan-yoqmaganligidan boshlab, bir uchini Musharraf tomonga egib keldi.

– Yaxshi o'tdi, – dedi Sodiqning so'zini tasdiqlab Mirsalim. – Rusiardan xotin-qizlar bilan birga o'tirishni o'rganganimiz yomon emas. Ba'zan diling tortganiga gap tashiaysan. Umuman, majiisga ruh kiritadi.

Sodiq nimaga imo-ishora qilayotganini sezsa ham, javob bermadi. Mirsalim ochiq hujumga o'tdi:

– Ayniqsa sizning yoningizdagisi sutga chayqagandekkina edi.

– Ismi nima, Musharrafmidi?

– Ana xolos, darrov kimligini ham esingizdan chiqarayozdingizmi? U bechora hammani unutib, sizga qoshko'zini suzib o'idi-yu, siz bo'lsangiz... Qo'ying-e, bunaqa beparvo munosabatda bo'lmang, bechoraga jabr qilasiz.

– Jabr qilmaslik uchun nima qilishim kerak? – dedi Sodiq hazil qilib.

– Bir marta «akang aylansin!» deb sochini silab qo'yasiz-da, vassalom!

– Shu yetadimi? – yana tegishdi Sodiq.

– Yetmasa... yana biror chorasi topilib qolar! O'zi ham shu kunda juda ko'zga yaqin bo'libdi: suysa suygunday, kuysa kuygunday. Bilmadim, kimning baxti-da!

Mirsalimning taxmini to'g'ri chiqdi. Qancha tegizib gapirmasin, Sodiq tuzuk bir qarshilik ko'rsatmadi, ko'rsatishga ham ojiz o'xshardi. Dadasi «uylantirib qo'yaymi, o'g'lim?» desa, «o'zingiz bilasiz, dadajon, degan go'l boladay bo'ynini solib turaverdi. Shunday pishiq, ko'pni ko'rgan kishining darrov egilib kelishi Mirsalimni «bechora, bir turtkiga muhtoj bo'lib yurgan ekan» degan fikrga keltirdi. Vaqt topib ularni bir-ikki «tasodifan» uchrashtirdi.

Aslida Sodiqning ko'ngli Musharrafdan suv ichib qolgan edi. Shunday bo'lsa ham oila Jannatning taklifi bilan keyingi kunlarda farzand asrashga qaror qilgan edi. Buni eshitib, Mirsalimning kapalagi uchib ketdi. Eng yaqin kishisini o'nglanmas xatodan qaytarayotgandek kuyib-yonib, isbotga kirishdi: – Bu ishingiz xato! Mutlaqo xato! Birovning bolasini asrash – belidan kuch-quvvati ketgan odamning ishi! Xudoga shukur, hali siz yoshsiz, pushti-kamaringiz butun, belingiz to'la bola. Donolar «yetim qo'zi boqsang og'zi-burning yog' etar, yetim bola asrasang og'zi-burning qon etar» deb bekorga aytmagan. Sattor boyvachchaning hangomasini eshitdingizmi? Qizi asrandi edi-da! Unashib qo'ygan joyida, ochilib qolib, kuyov aynib ketdi. Ming qilganda ham begona begona-yu, o'zingniki o'zingniki! Bo'lmasa, Sattor boyvachcha o'zi yemay yedirib, o'zi kiymay kiydirib, qog'ozdagi qantday boqqan edi. Yo'rgakda olib asragan edi-ya, bechora. Kishilar yomon! Egri ishni ellik yil o'tsa ham unutmaydi. Endi nima bo'ldi. Qiz nomusga qoldi, Sattor boyvachchaning boshi xam! Dunyoda shundan yomoni yo'q! Ha, Sodiqjon, shu tomonlarini yaxshilab tanangizga o'yang, Sattor boyvachchaning kuni boshingizga tushganda peshonangizga urganingizning nafi yo'q, unda kech bo'ladi.

Ilonning oyog'ini sanagan Mirsalim Sodiqni shunaqa avrab tashiadiki, bechora lom-mim deyolmay qoldi. Uning isbotiga shak keltirolmay:

– Xo'sh, nima qil deysiz? – deganini o'zi ham bilmay qoldi.

– Boshqaga uylaning! – dedi shartta Mirsalim. – Mana Musharraf, qarshingizda kokilini yozib turibdi. Yomon emas, necha og'iz solganga yo'q degan emish. Sizga mayli borga o'xshaydi. Ajab emas qo'shaloq o'g'il tug'ib bersa! Shuncha tortgan g'am-g'ussalaringiz

esingizdan chiqib ketadi. Ey, Sodiqjon, kishi dunyoga bir keladi, pushti-kamar ham har vaqt birday turavermaydi, uning ham oxiri bor! Oyog'i katta sig'ganni, oyog'i kichik sevganni kiyadi. Sizning seyb kiyadigan paytingiz, kiyib qoling-da!

Mirsalim hamma narsani archilgan shaftoliday Sodiqning og'ziga solib qo'ygan, uning «qilt» etib yutishigina qolganga o'xshardi. Masalaning bunchalik yengil ko'chishi Sodiqning qalbidagi cho'g'ni chaqnatib yubordi. Uning xayoli beixtiyor yana Musharrafga ko'chdi. Uning choy ho'plashidan tortib, kelishgan qaddi-qomatini ko'z-ko'z qilib yurishigacha, momiq qo'llarini muloyimgina uzatishidan tortib, xandon solib kulishigacha – hammasini taroziga solib ko'rdi. Mirsalimga uzil-kesil bir narsa demagan bo'lsa ham, undan yashirib Musharraf bilan ko'rishdi.

Mirsalim esa har duch kelganda Sodiqning qo'ltig'iga suv purkay berib, tobiga keltirib oldi. Endi Sodiq Musharraf bilan har ko'rishganda undan bir fazilat topar, har so'zidan bir hikmat qidirar edi.

– Kishilar qiz olish uchun xotinini qo'ydi, deyish-masmikin?

– Qiziqmisiz? Odamlarning siz bilan qanchalik ishi bor. – Surishtirdim: besh kungina er qilgan ekan.

– Nega besh kungina?

– Uni o'zidan so'raysiz! – zarda qilgandek dedi Mirsalim va balanddan keldi. Chunki Sodiqning qarmoqqa yuragining qoq o'zginasidan ilinganiga shubha qilmas edi. – Qiz bo'lsa... deb bir ta'nadan qo'rqasiz, besh kungina umr qilgan ekan, desam, yana hadiksiraysiz. Stansiyangiz bormi o'zi!

Sodiqning nafasi ichiga tushib ketdi.



– Ey do'stim, Sodiqjon, azizim, – deb yana ta'rifga tushib ketdi Mirsalim. – Yosh xotinning nimasini aytasiz! Qahratonda pista ko'mirli sandalga jiyda danagi tutatib o'tirgandek maza bo'ladi. Bilasizmi, Sodiqjon, burungi zamonlarda odil podsho qarisa, yoshga uylantirishar ekan. Sabab: yosh xotin erni yoshartirar emish. Kishi yoshi uig'aygan sari asaini yaxshi ko'radi, ayniqsa siz bilan bizning yoshda juda ketadi. Yosh xotin ham misoli asal. Og'zingda ta'mi qoladi. Chaqirganingizda «labbay, akajon, shu yerdaman, nima ishingiz bor edi», deb bedana yurish qilib qoshingga kelishiga nima etsin! Noz qilsa yarashadi, yig'lasa ham kulayotgandek huzur qilasan kishi!

Mirsalimning gapi Sodiqning qulog'iga kirmas, u Musharrafning fikr-xayoli bilan band edi. Unga qarshi og'iz ochishdan o'jiz edi.

## 7. JANNATNING KO'Z YOSHLARI

Mashhur doktor «mana, pattangni ol, senda bola bo'lmaydi» demagan bo'lsa ham Jannat o'zicha tushungan, endi farzandsiz o'tar ekanman, deb yig'lab qaytgan kundan boshlab, Sodiq bilan ikkisini bog'lab turgan oila ipining juda ingichka tortib qolganini, kichik bir ehtiyotsiz harakat orqasida uzilib ketishini sezib, yuragi bezillab yurardi. Sodda Sobiraxonnikidagi ziyofatdan shirakayf qaytib xotining «buncha shu vaqtgacha qolib ketmasangiz! Ziyofat quyuuq bo'ldi shekilli?» degan gapiga javob qaytarmasdan, indamay o'tib ketishi shu ingichka ipning yana tarang tortilishi edi. Eri o'zgargan edi. U shu kechadan keyin qaytib o'ziga kelmadi. Kamgap, o'ychan bo'lib qoldi. Farzand asrash haqida gap ochilganda bir oz yon bosib kelgan bo'ldi-yu, yana indamadi. Shunda Jannatning yuragi yana bir zirqirab ketdi.

Sodiq o'zining o'zgarganini sezar, Jannatning kuzatib yurganini bilar, qiynalar edi. U Jannat bilan shunday ajralish kerakki, bu qo'ydi-chiqdining oqibati ko'ngilsizlikka borib taqalmasin.

Payshanba kuni ishdan qaytayotib, yuragi siqildi-yu, yo'lda jinday vino ichdi. Har kungidek onasi, Qodir, Jannat bilan kechki ovqatga o'tirdi. Lekin uning bezovtaligini Jannat sezdi. Sezdi-yu, indamadi. Sodiqning ko'ziga ko'rinmasdan allanimalar bilan oshxona tomonda ivirsib yurdi. Qorong'i tushib, Adolat xola chirog'ini o'chirib yotgandan keyin, uyga kirib keldi. Indamasdan chiroqni o'chirib, o'ringa kirdi. Birpas jim yotdi. Keyin Sodiqqa o'girilib, gap boshladi:

– Siz o'zingizni ortiqcha qiynamang. Hamma gapdan xabarim bor. Men sizning umringizga zomin bo'lmayman. Men bir kunimni ko'rib ketarman.

Jannatning bo'g'ziga qandaydir dumaloq narsa tiqilgandek nafasi bo'g'ildi...

Sodiq qorong'ida ko'rinmasa ham uning yig'layotganini sezib turardi. Ayni vaqtda uning ko'z yosh to'kishiga o'zi sababchi ekanini bilganidan, shoshib qoldi.

– Yo'q... yo'q... mendan yashirmang. Men roziman. Men rozi!

Jannat o'rnidan turib, tashqariga chiqib ketdi. Eshik oldida nam burnini ketma-ket ikki marta tortib qo'ydi.

Sodiqning Jannatga qanchalik rahmi kelmasin, masalaning bunchalik yengil ko'chishini kutmaganidan, gangib qoldi. Jannatning ketidan chiqishini ham, chiqmasligini ham bilmadi. Chiqsa, uni ovutishi kerak, «hammasi yolg'on, sen ishonma» deyishi kerak, chiqmasa rahmi keladi, shuncha yillik qadrdoni, umrida biron marta xafa qilgan emas. O'rnidan asta turib, derazadan qaradi. Hovli yorug'. Ariq bo'yidagi o'rik osti qatiq to'kilgandek

olachalpoq oydin. Ana, o'rikning shoxi tepasida charaqlab turgan yulduz sho'ng'ib ketdi. Undan qolgan olov izdan o'rik shoxining uchi chaqilgan gugurtdak lovilladi. Jannat ariq bo'yida, orqasini uyga qilib o'tirardi. Yuzini muzday suvga yuvgan bo'lsa kerak, boshidan peshonabog'ini olib, sochlarini tekisladi. Saldan keyin o'rnidan turib orqasiga qaytdi. Sodiq darrov o'rniga kirib, hech narsa bilmagan kishidek ko'zini yumdi. Qo'lida peshonabog'i bilan xomush kirib kelgan Jannat uyning o'rtasida birpas tik turib qoldi, peshonabog'ini tang'idi. Keyin o'ringa kirib, Sodiqqa orqasini o'girib yotdi.

Ertasiga hamma gapni qaynanasiga aytdi. Adolat xola uchun o'g'li ham, kelini ham qo'llarining barmog'iga o'xshardi, qaysi birini tishlasa og'rirdi. Shuning uchun Jannatni yupatar ekan, o'g'lining sha'niga tegadigan bir narsa demadi. O'g'lini oqlab, kelinining xunibiyron bo'lib turgan qalbini ham tirnamadi. U Jannatdan xursand va mamnun edi: kelin bo'lsa shunchalik bo'lardi-da! Lekin o'g'liga ham joni achirdi, uning befarzand o'tishini istamas edi. Eshikdan horib-tolib kirib kelganda «dada!» deb bo'yniga osiladigan, butun charchog'ini yozib, ko'nglini chog' qiladigan biror farzandi bo'lmasa qiyin. O'zining ham nevara kuta-kuta ko'zi to'rt bo'ldi. To'rtta xotin bir yerga to'plansa, «kelingizning bo'yida bo'lmadimi?» deb so'rashgani so'rashgan!

Shularning hammasini xayolidan o'tkazgan «Jonbolam xola» aybni hech biriga qo'yishni istamadi. U yaxshilikdan boshqa narsa ko'rmagan odamga qilinadigan chuqur samimiyat bilan Jannatga dedi:

– Peshonangiz, bolam...

– Biror joy topgunimcha shu yerda tura turaman, xafa bo'lmaysiz, – dedi Jannat.

– Qayoqqa borasiz, jon bolam, men sizni hech qayoqqa yubormayman. Avval kelinim bo'lsangiz, endi qizimsiz. Qizsiz edim, qizli bo'ldim. Yo Sodiq bir nima dedimi?

– Yo'q, u kishi hech narsa deganlari yo'q. Men o'zim ruxsat berdim.

Adolat xolaning xo'riigi\* keldi. Ko'ziga yosh oldi. Ko'nglida «ey, xudoyim, bir tirnoqni ayamasang nima qilardi shu bechoralardan!» dedi. Kelinini bag'riga bosdi. Ikkisi tug'ishgan ona-boladek achchiq yig'lashdi.

...Jannat Musharrafning homiladorligi sezilguncha, Adolat xola yonida qoldi, orqa eshikdan kirib-chiqib turdi. Keyin o'zi bilan birga ishlaydigan murabbiyaning uyiga ko'chib ketdi. Endi Adolat xola ham indamadi. Faqat u eshikdan chiqqach «bechora!» deb qo'ydi, ko'ziga yosh oldi.

\* \* \*

Ko'chada Mirsalimning xotini Jannatni uchratib qoldi. Uning eri bilan ajralishganidan xabardor edi. Ko'nglini so'radi. Kutilmagan javobni olib, gangib qoldi. Jannat dardini kimga aytishini bilmagan odamdek asabiy titrab, alamini sochdi:

– Hammasini qildi-qildi Mirsalim aka qildi. Erimni yo'ldan urdi. Bu dunyo-yu u dunyo ikki qo'lim u kishining yoqasida. U kishiga ham xudoning ko'rsatadigani bordir! Ko'rsatmasa asti rozimasman! Erimda ayb yo'q. Baxtiga tuzukkinasi bo'lsa mayli-ya! Suyuqoyoqroq deb eshitaman.

– Voy, darrov uylanyaptilar hammi? Kimga?

– Eringiz aytmadilarmi, boshi-qoshidalar-ku!

– Erim o'lsin, moshxo'rdaga qatiq bo'lmay! Qachon ko'rsang birovni tuynugida boshi. Juvonmarg, o'z aravangni tortsang-chi, birov bilan nima ishing bor!

Mirsalimning xotini ko'ngil so'raganidan ham xijolat bo'ldi. «Ko'cha xandon, uy zindon» erining qiliqiarini bilsa

ham, bu sirdan bexabar qolgan ekan. Jannatga rahmi kelib, erini og'zidan qo'ymay o'xshatib qarg'adi, ko'ziga yosh oldi, uni yupatdi. Xayriashayotib, yana erini qora yerga kiritdi:

– Bu yumshoq supurgi o'lgur, nega eringizga bunaqa elim bo'lib o'lyapti, devdim-a, tagida bir balosi bor ekan-da! Quv-da, juvonmarg, menga ham sezdimapti. Sodiq akamning o'zlari ham dum berib turgan ekanlar-da, darrov xo'p debdilar-qo'yibdilar.

– Bilmadim!.. – bo'shashdi Jannat. Chindan ham u masalaning bunchalik tez hal bo'lib borishidan bexabar, to'g'risi hayron edi!

Xotini kirib kelganda Mirsalim bozordan olib kelgan uchta po'stdumbaning ikkitasini tozalab, suvga solib qo'ygan, uchinchisini ariq bo'yidagi tolga qoqilgan mixga ilib endi tozalashga kirishgan edi. Xotini eshikdan to'g'ri uning oldiga bordi:

– Hoy, menga qarang, to'g'ri yo'lingizda yursangiz bo'lmaydimi? Birovning uyi bilan sizning qanchalik ishingiz bor, Jannat harrab o'lyapti!

Mirsalim «Jannat» ismi aralashgandagina gap nima to'g'rida borayotganini fahmladi. Bugun u juda xursand edi. Pishpakka yuborgan moli omon-eson yetgan, sheriklari «ayni vaqtida keldi» deb xabar qilishgan edi. Bu xushxabarning cho'tali sifatida bugun bozor aylangan, po'stdumba xarid qilgan edi. Xotining «dag'dag'asi» baribir uning ruhini tushirmadi, lekin ehtiyot chorasi ko'rishga chaqirdi. Agar hozir xotinidan baland kelmasa, baloga qoladi. Uning jon kaliti bo'lgan «mashhur xat» ni ishga solishi, sharmandasini chiqarishi mumkin. (Bu la'nati xatni yo'q qilib tashlay deb shuncha qidiradi – topolmaydi!)

– Nima! – dedi dag'dag'a bilan Mirsalim va qo'lidagi pichoqni zarb bilan ariq bo'yiga sanchdi, irg'ib o'rnidan

turdi. Xotini urgani turdi, deb qo'rqib ketdi. – Ko'chada birov xotin qo'ysa ham men aybdormi! Tilini tiysin!

Xotining nafasi ichiga tushib ketdi. Mirsalim baland kelib, xotinini siltab tashladi, aybni Sodiqning o'ziga ag'dardi:

– Yosh xotinni ko'ngli tusagan u kishi-yu, men aybdormishmanmi! Ajabo! Sen nega u manjalaqi bilan ko'rishib yuribsan! Gaplashgani o'sha qisirdan boshqa odam topmadingmi?

Xotini indamasdi. Biladiki, bunday paytiarda unga bas kelib bo'lmaydi: Hozir erkak–avra, xotin–astar, deb turgan payti. Ya'ni avra hech qachon astdan yuqori bo'lmagandek, erkak xotindan aql o'rganmaydi. Bir do'q bilan popugi pasaygan xotini o'zicha po'ng'illab qo'ydi:

– Hamma erkaklarning ahvoli shu, yoshrog'ini ko'rsa, iliqadi-qoladi. Jannatxon qanday juvon edi!

– Bas qil, sendan gap so'rayotganim yo'q. Nega senga alam qiladi, ikki tug'ib bir qolganingmi! Qisir xotinni deb befarzand o'tsinmi!

Xotin indamasdan uyga o'tib ketdi. Mirsalim «yengdim!» deb, ariq bo'yiga sanchilgan pichoqni olib, suvda chayqadi:

– Hoy, onasi, mana buni tozalab qo'y! – dedi tog'ora-chadagi tozalangan po'stdumbani o'zidan nariroq surib.

Xotin hali alamidan tushmagan edi, derazadan tovushi keldi:

– Yov keldimi, tuzlanar!

Bu gal Mirsalim indamadi.

## 8. QARQINOQDAN CHIQQAN BULBUL

Qodirning maktubi Azizaning baxmal guini ko'rganda havasi kelib, uzib hidlaydigan bo'lganidan beri erkak kishidan olgan birinchi xati edi.

Xatning qo'liga tegishi ham qiziq bo'ldi. U institutdan xursand qaytardi: bugun uyidagilarga bildirmasdan yozilgan tansa to'garagining ilk mashg'ulotiga qatnashgan, «o'rganish juda qiyin bo'lsa kerak» deb vahima bosib yurgan tansaning ilk harakatlarini o'rgangan edi. Bu dastlabki muvaffaqiyat labiga qandaydir ashula qo'ndirgan, shuni tramvaydan tushib xirgoyi qilib kelardi. Bir qiz bola qarshisidan chopib kelib, oldida to'xtadi: «Mana shu xat sizga ekan, huv anavi amakim berdilar», – dedi. «Qaysi amaking?» – degan edi, qizcha chopib kelgan tomoniga qarab labini tishlab qoldi. «Voy, qochib ketibdilar», deb yig'laguday bo'ldi. Aziza xatni olishga majbur bo'lib qoldi, olmasa qizchani yig'lab yuborishi mumkin edi. Qizcha yolg'on gapirib, xijolatga qolgan kishidek: «Rost, hu anavi terakning yonida turgan edilar. Sizga o'xshab qo'llarida papkalari bor, boshlarida shapkalari...» – dedi. Aziza qizchani xijolatdan chiqarish uchun xatni olib, «mening boshimda shapkam yo'q-ku» deb kuldi. Qiz ham kuldi. Orqasiga xursand chopib ketaturib yana birdan to'xtab, baqirdi: «Analar, ana. O'zlari kelyaptilar».

Qodir yo'lkadagi qator teraklarning panasida kelmoqda edi. Azizaning unga ko'zi tushishi bilan tok yugurgandek bo'ldi. Qizcha bilan gaplashgan choqdagi xushnudlik o'rnini qandaydir noma'lum qo'rquv olgan, bu qo'rquv rangiga ta'sir qilib, qonini qochirgan edi. Qodir yetib kelib, Azizadan ko'ra dadilroq bir alfozda salomlashdi. Ikkisi ham salomdan keyin yerga qaradi. Azizaning qo'li portfelining bandini mushukdek tirnardi, Qodir esa cho'ntagidagi dastro'molini zo'r berib g'ijimlardi. G'ijimiashdan to'xtab, uni shartta qisdi-yu, gap boshiadi:

– Kechirasiz, Azizaxon, birov ko'rib qoladimi deb qizchadan...

Shu soʻzdan Aziza tetiklashdi: – Hozir koʻrmayotgan-mikin? Oʻtib turganlar «birov»masligini qayoqdan bilasiz: mang, oling-da, oʻz qoʻlingiz bilan boshqatdan bering? Nimalar yozgansiz? Juda qalin-ku.

Aziza choʻntagiga qoʻl tigʻgan edi, Qodir xatini rad etib qaytib berayotganday shoshib qoldi.

– Mayli, mayli, tura bersin. Bundan keyingisini...

– Ie, hali yana yozmoqchimisiz? Shoirmisiz, muncha yozishni yaxshi koʻrasiz.

...Qodir hafsalasi pir boʻlib uyiga qaytdi. Kechasi bilan ajriqqa agʻanab chiqdi. Baland dorga osilib qoʻymadimi? Xat yozmagan boʻlsa ham goʻrga edi! Hammaga koʻrsatib, «mana, askar yigitning ahvoli» deb masxara qilib yursa-ya. Hech xomligim qolmas ekan-da! Xoʻp, koʻngling ketgan ekan, avval surishtir, yigitsan, dadil bosib bor. Tiling bilan shart-shart ayt, qoʻy, vassalom! Xatga balo bormi!

Ming xil xayollar bilan miyasi achib ketgan Qodir qanday qilib uxlab qolganini bilmadi. Bir mahal qarasa, tepasida oyisi turibdi:

– Tur, bolam, bugun uxlab qolding-ku. Taning sogʻmi?

Qodir apil-tapil kiyinib, institutga chopdi. Bugun kechagidan yengil, shirin orzular ruhini erkalar edi. Ana shunday holat ikki juft dars oʻtguncha vujudini qoplab turdi.

Oxirgi darsning qoʻngʻirogʻi uning quiogʻi ostida chalingandek juda qattiq eshitildi. Yuragini hovuchlab tashqariga chiqdi-yu, xatda tayinlangan joyiga borishini ham, bormasligini ham bilmay qoldi. Oyogʻi orqaga tortsa, yuragining allaqayerida bir kichkinagina ilmoqqa ilinib turgan kuch oldinga undar, yoʻliga nur sochgandek boʻlardi. «Nima boʻlsa ham boraman, tayin qildimmi, boraman! Rost gapga taʼna yoʻq!» Qodir tayinlagan joy Aziza: «Oldidan oʻtgan qizni payqamaydigan qanaqa yigit ekansiz»,– degan yer edi.



Qodir bog'ning darvozasini ko'rish bilan bir entikib ketgan bo'lsa, tayinlangan yerga yaqinlashgan sari yuragining urishi teziashdi, o'zini bosish uchun jimillab gullarga oqayotgan ariqdan ikki hovuch muzday suv ichdi. Suv hovurini bosish o'rniga, ter bo'lib betiga tepdi, buriqtirib yubordi...

Shunday tashvishlar bilan yetib kelgan joyda hech kim yo'q edi. Faqat egri-bugri bir nechta iziar bor.

Aziza u kutmagan tomondan, yerdan chiqqandek birdan paydo bo'lib qoldi. Yuzi to'la tabassum edi. Qo'l uzatishi bilan ginasini sochdi:

– Shunaqa vaqtga tayinlaysizmi! Yetib kelguncha o'pkam og'zinga tiqildi. Hammani o'zingizga o'xshab uch pargina o'qiydi deysiz-da, a? Qo'shimcha bir par o'lgurning yarmi ordona qoldi. Sizni deb, bir soat keyin doktor bo'ladigan bo'ldim.

Qodir uzr so'radi, uning uzrini qabul qilmagandek Aziza yana o'pkaladi:

– Bir soat bo'lsa ham, o'zim oldinroq injener bo'lay deysiz-da, a? Bo'lib bo'psiz! Bundan keyin bunaqasi ketmaydi. Yana shunaqa vaqtga tayinlasangiz, o'zingiz cho'pingizni chaynab o'tira berasiz, men darsimni tugatib kelaman.

Chindan ham Qodir Azizani kutib, sap-sariq quruq o'tni beixtiyor ermak qilib tishlayotgani ustiga u kelgan edi. Shu gapdan keyin xijolatda blr chetga uloqtirdi.

Azizaning erkin gapirishlari uning shubhalarini bir zumda kuchli shamoldek uchirib ketdi. Qiz ko'pdan sinashta bo'lib qolgan kishisi oldiga kelgandek o'zini bemalol tutar, gina qilar edi. Bu uning tabiati edi. Maktab ilmiy mudiri Sodiqqa «qarqinoqdan bulbul chiqqan» deganda, Azizaning ana shu xislatlarini ko'zda tutgan edi. Bu xislat uning bolaligidan bor. «Azizu mukarram

bo'ladi», deb Aziza nomini bergan marhum buvisi o'zi ko'zi ochiqligida na otasi, na onasiga biylatdi. O'zi yuvib, o'zi taradi, o'z yonida olib yotdi. Qiz onasiga tortib, shaddod bo'lib o'sdi. Otasi onasiga o'xshatib, shoxini sindirib, qayirib olmoqchi bo'lgan edi, buvisi yo'l qo'ymadi, «bitta qiz ham senga ortiqchalik qilib qoldimi!» deb baland keldi. Sal esini tanigandan keyin Azizaning o'zi boshvog'ini bermay qo'ydi. Bu vaqtda qazo qilgan buvining o'rnini ona bosdi, bobillab eriga biylatmadi. «Qo'ying, o'qisin, yayrasin, ham qizimiz, ham o'g'limiz», – dedi ba'zan yolvorib. Bu vaqtda ilmi o'zbek qizlari idoralarda ko'rinib qolgan, o'z taqdirларini o'z qo'llariga olib, erkaklarga «qani, mening joyimdan nariroq suriling», deb dadil da'vo qilardi. Mana shu narsalar ta'sir qildimi, yoki qizning o'zi haqini talab qilib olganidanmi, harnechuk, Mirsalim har vaqtdagidek baqirib-chaqirib boltaning dastasiga yopishmadi. O'ziga qo'yib berdi, lekin bosgan iziga to'rt ko'z bo'lib turdi. Ko'rdiki, Aziza sho'x bo'lgani bilan odob doirasida, o'g'il bolalar bilan chumchuq bolasi qidirib teraklarga chiqsa ham, bekinmashoq o'ynasa ham, quvlashsa ham, haqini beradigan emas. Hatto bolalar undan hayiqishadi, er bolalar uni emas, u bolalarni yo'l-yo'riqqa soiyotganga o'xshaydi. Maktabda-ku, o'qishi yaxshi, lekin sal to'polonchiligi o'qituvchilarni ba'zan ranjitardi. Bir kuni farzanddan tili ku'rgan bir muallim o'rtog'i Mirsalimga nolib, «farzand bo'lsa sizning Azizangizdek qobiliyatli, pishiqqina bo'lsa ekan» deb qoldi. Bu xushomad Mirsalimga juda yoqib ketdi, «mening bola tarbiya qilishimni orzu qiladiganlar bor ekan», deb labining tanobi qochdi. Aziza erkin va sho'x o'sdi. Bo'yi cho'zilishi bilan bir oz hayo tortib, quyulgan bo'lsa ham, baribir o'zi aytgan yerini kesadi, deganini qildiradi. To'qqizinchi sinfdaligida onasi bir kuni sovchi kelganini aytib, har qanday qiz ham uyiga sovchi kelsa

faxrlangandek, Aziza ham xursand bo'lar deb o'yiadi. Yo'q, aksincha, Aziza sovchini yummatalab berdi, endi kelsa kosov olib quvishini aytib, ketidan nima uchundir jinday yig'lab ham qo'ydi. Shuncha kunchligi bilan Mirsalim: «Ayoldan payg'ambar chiqibdimi! Shahar olib berarmidi?» – degan gaplarga quloq solmadi. Aziza o'ninchini bitirganda kimdir «shunday a'lochi o'qishini davom ettirmasa, o'tanasiga la'nat keladi» degan bo'lsa, yana biri Mirsalimning o'ziga: «Bir qizingiz o'nta o'g'iiga arziydi, doktor qiling, yaxshi hunar», – dedi. Mirsalimning o'qitish niyati yo'q, «kerak bo'lsa egasi chalasini o'qitib olar» degan fikrda edi. Shuncha gapdan keyin gangib qoldi. Qaytmasa, «tushunib turib, o'z qizini uyga o'tqazib qo'ydi» degan ta'naga qoladi, o'qitay desa, baribir birovning hasmi, kundan-kun xarxashasi ko'payyapti. Dadasi o'y-o'ylab, oxiriga yetguncha Azizaning o'zi masalani hal qilib qo'ya qoldi. Medisina institutidan anketa ko'tarib keldi, konsultasiya kunlari jadvalini karavoti tepasiga osib qo'ydi. Mirsalim «bu qanday bo'ldi?» degan edi, xotini «o'zidan so'rang» deb javob berdi. O'zidan so'ragan edi: «Doktorlikdan yaxshi hunar yo'q dunyoda» deb faxrlandi, kitobini ko'tarib, imtihonga tayyorlangani bir o'rtog'inikiga ketdi. Mana u sevgan institutining dastlabki kursida.

– Institutda o'qish qiziq bo'lar ekan, – dedi Aziza portfelini likillatib, – muallimlar gapirib-gapirib chiqib keta berar ekan. So'rash yo'q. Takrorlash yo'q. Hammasini bitta qilib keyin so'rashadi. – Men maktabdagiga o'xshash bo'ladi, deb yurar ekanman. Qiziq.

Azizaning ochiqligi Qodirni ham tilga kiritdi. Lekin, baribir, tashabbus Azizaning qo'lida edi. U sevgan yigitning emas, qarddon o'rtog'ining oldiga kelgandek tortinmay o'tirar, gap-so'zlarini ham taroziga solmasdan, pardozini keltirmasdan dangal gapirib yubora berardi.

Qodir aslida sho'x qizlarni yaxshi ko'rardi, rus qizlarning er bolalar bilan apoq-chapoq bo'lib yayrab yurishlariga havasi kelar, «biznikilar qachon shunaqa bo'lishar ekan», deb ko'nglidan o'tkazib qo'yardi. Aziza o'sha qiziarni salpal eslatib turardi. «Lekin o'shalarday sho'xligi beg'ubormi? Birorta chaqqon chalib ketmaganmi!» – deb o'yladi u. Boshini birinchi marta dadil ko'tarib, Azizaning yuziga uzoq tikildi. Aziza qizarib ketdi, «yuzimga siyoh tegibdimi?» deb jajjigina dastro'molchasini qo'lga oldi. Bu qizarish Qodirning fikrini butunlay o'zgartib yubordi: qizning tabiati sho'x, erkin katta bo'lgan, u beg'ubor!

Ko'z oldiga Mirsalim keldi. Uni bir-ikki marta ko'rgan edi. Ikkisini solishtirdi: ikki dunyo! Qiziq, shunaqa ham bo'lar ekan-da!

– Hech dadangizga o'xshamaysiz, – dedi Qodir Azizaning yonib turgan yuzlariga qarab. Aziza «qanaqa ekanman» deb o'tirmadi. Gap nima to'g'risida ketayotganini fahmladi shekilli, shartta javob qildi:

– Bizning dada omixta: eskichaga eski, yangichaga yangi!

Shu zumdayoq Aziza soatiga qarab, dedi:

– Voy, allamahal bo'libdi-ku, ketmaymizmi!

Qodir Azizaning yonida borar ekan, o'ylar edi: nima qilishi kerakki, bundan keyin ko'rishib turish mumkin bo'lsin. Bahona topdi:

– Azizaxon, ba'zan-ba'zan birga dars tayyorlab tursak, qarshimasmisiz?

Aziza to'g'ri javob bermadi:

– Bundan buyoq papkamda nuqul odam suyagi bo'ladi. Cho'chimasmikinsiz?

Aslida Qodir cho'chir edi: Yo'q, nega! Bemalol!

Qodir uning roziligini olgandek yashnab ketdi. Demak, Azizaning ko'ngli unga moyil, xatining mazmuniga tushungan, hozir sevmasa ham keyin sevadi.

– Azizaning «bundan buyoq papkamda nuqul odam suyagi bo'ladi, cho'chimaysizmi?» – degan gapini Qodir «mendan qo'rqmaysizmi, meni hushingiz yoqtiradimi? degan ma'noda tushundi. Bu tushuncha bundan sal vaqt avval juda uzoqda turgan Azizani shundoq yoniga keltirib qo'ygan, unga benihoya hurmat uyg'otgan edi. Bu tushuncha uni qanot bo'lib uchirishi, bulbul qilib sayratishi kerak edi.

Qodir Azizaning yonida borayotib, yo'lkaga egilib tushgan tolning pastki shoxidan bir xivich sindirib oldi. Aziza uni boyagi sariq giyoh singari og'ziga solib o'ynaydi, deb o'yiadi shekilli, oppoq tishlarini yaraqiatib kulib, ogohlantirdi:

– Og'zingizga solmang, po'stlog'i achchiq bo'ladi.

Qodir bu mehribonlikdan mamnun bo'lib, boshqa narsadan gap ochdi:

– Men sizni o'sha atlas ko'yiagingizda kelasiz, deb o'ylagan ekanman.

– Sabab? – dedi Aziza. Qodir sababini aniq bilmas, shunday kelishi kerak, deb o'ylabgina qo'yaqolgan ekan.

– Qaydam, – ochig'ini aytdi u.

– Yo siz atlas ko'ylakni yaxshi ko'rasizmi?

Qodir kutilmaganda jur'at qildi:

– Yo'q, ichidagi qizni! Atlas ko'ylakii qizni!

Aziza bo'sh kelmadi:

– Sizga tekkan qizning sho'ri qurir ekan, erimga yoqay, deb yozda ham qopdek atlas ko'ylakka o'ralib...

Kulishdi. Bu kulishdan orada hech sir qolmagandek bo'ldi.

Katta ko'chaga chiqish bilan Aziza birdan to'xtab dedi:

– Bas, asalning ham ozi yaxshi, bo'lmasa tomog'ingizni bo'g'adi, bosqi qiladi. Men ketdim.

Kennoyingizga salom deng.

– Oyimga-chi?

– Oyingizga ham, akangizga ham! Da, aytgandek, – Aziza ikki qadam qo‘ygan yeridan qaytdi. – Kennoyingiz bilan akangiz ajralishibdimi? Nima balo, Toshkentga borsam qo‘yaman, deb yurgan ekanlarmi?

– Bilmadim. – Bo‘lmadi shekilli-da, – chaynaldi Qodir.

– Shuncha yildan keyin-a? Ko‘p g‘idi-bidi bo‘larmidi? Kennoyingizga oyim biram achinyaptilar, dildor juvon edi, deydilar.

– Yaxshi xotin edi. Bola ko‘rmadi, xolos, – shu keyingi so‘zni qiz bolaga noo‘rin aytib qo‘ydim, deb Qodir shoshib qoldi, so‘zni burmoqchi bo‘ldi.

– Sizlarnikida g‘idi-bidi ko‘p bo‘ladimi?

– Bizning dada hazil emas-da, Mirsalimboyvachcha deyishadi o‘z oti bilan. Shu mahal bizni ko‘rib qolsalar bormi, oho... men ketdim, xayr..

– Xayr!

Qodirning xayoli Mirsalimga ko‘chib, bundoq qarasa, Aziza ketib qolipti. Shunda endigi uchrashuv kunini kelishib olmagani esiga tushdi, ketidan yugurdi:

– Aziza! Menga qarang!

Aziza hozir kelib to‘xtagan tramvayga chiqish niyatida yelib borardi. Orqasiga bir o‘girilib:

– Chorshanba, soat besh! – dedi va yana tezroq chopib ketdi. Qodirga ham shu kerak edi, to‘xtab, uzoqdan kuzatib turdi. Tramvay joyidan qo‘zg‘alib, oldidan qo‘ng‘irog‘ini jiringlatib o‘tib ketguncha undan ko‘zini olmadi, Azizaning o‘zini ko‘rmasa ham qo‘lini silkib turdi. Tramvay ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi bilan birdan yuragida qandaydir bo‘shlik, eslagan sari huvillaydigan bo‘shlik sezdi. Xat berganidan beri chekkan iztiroblarining barchasi bekorga chiqib, Aziza bilan uchrashgani, uning quvnoqligi, sho‘x qochiriqari esiga tushib, yana yuragi zavq-shavq bilan

to'ldi. Katta ko'chada bir o'zining iljayib turganini payqab, shart orqasiga burildi. Yana sevgilisining xayoli bilan uyiga jo'nadi.

U katta bir imtihondan o'tgandek xursand edi!

\* \* \*

Qodir Azizani sevib qolgandan beri bezovta. Avvallari uni ko'rishga, suhbatiga intilsa, endi negadir hayiqadi undan. Qandaydir nojo'ya bir harakat yoki ehtiyotsizlik orqasida aytilgan noo'rin bir so'z bilan ozor yetkazib qo'yayotganga o'xshaydi. U bilan uchrashganda o'zini juda ehtiyot qiladi, ushlaydigan yeri juda noqulay shisha idish yoki bir savat tuxum ko'tarib ketayotgan odamdek, qadamini sanab bosadi. Imtihonga borayotgan student singari, gaplashadigan gaplarini hijjalab ko'radi. Ko'chako'ya biror qizning tovushi unikiga o'xshab ketsa, yuragi shuv etadi, nur tezligida bir narsa bag'rini tilib o'tgandek bo'ladi. Lekin muhabbatning yoziqsiz va takrorlanmaydigan qonunlari ularni o'z oqimiga solib, goh boqqa, goh kinoga boshlar, goh majnuntol soyasi – suv qirg'og'ida ertak aytirar, oydin kechalarni kezdirar, she'r yodlatib, ashula aytirar edi. Semestr tugab, imtihonning boshlanishi ularni yana ham yaqinlashtirdi. Ikkisining uyida ham dars tayyorlash uchun sharoit ko'ngildagidek bo'lmanidan shahar kutubxonasini tanladilar. Endi va'dalashib, soat belgilab o'tirishmaydi. Kim oldin bo'shasa to'g'ri shu yerga kelaveradi. Bu yerda ikkisining o'z stoli paydo bo'lib qoldi. Ular kelishi bilan band bo'lsa bo'shatishadi. Ular qattiq tartib bilan darsga kirishishadi, har soatda o'n minut tanaffus. Bu tanaffus kutubxonadan chiqib, uning yonidagi kamqatnov ko'chada o'tkaziladi.

Qodir tanaffus vaqti bo'lganini imo qilib, Azizaga soatini ko'rsatdi. Aziza ko'zi bilan «xo'p» ishorasini qildi-

yu, yana kitobga sho'ng'idi. Qodir oyog'ining uchida yurib, tashqariga chiqdi. Kecha yoqqan qor ko'cha o'rtalarida erigan bo'lsa ham, chetlarda bir-ikki enlik qalinlikda oppoq oqarib turardi. Boyadan beri konspekt tuzib, barmoqlari toliqqan Qodir bir qism qor olib, yumaloqladi. Issiq xonadan chiqqanligi uchun qor qo'liga sovuq tuyulgan bo'lsa-da, qandaydir huzur baxsh etdi. Qodir qorni goh osmonga otib olib, ermak qilib turar ekan, horigan ko'zlarini pirlpiratib, paltosini yelkasiga tashlaganicha Aziza chiqib keldi.

– Meni urmoqchimisiz?– hazilga oldi Aziza.

– Yo'q, sizni urganni.

– Meni kim uribdi?

– Mabodo.

– Meni hech kim urmaydi. Aya-buvilarimizning yegan kaltagi ham mendaqadan yuztasining umriga yetadi. Nega indashmagan ekan, ular ham kosov olib solishsa bo'lmasmidi?

– Xo'p, kosov emas, tesha olib yugurishdi ham deylik, keyin nima bo'ladi? – kuldi Qodir.

– Hisob-kitob!

– Hisob-kitobni kim qiladi. «Dunyoda nima yomon: qaytib kelgan yov bilan qaytib kelgan qiz» degan otasimi, yoki bir erkakka shariatdan to'rtta xotin vojib deb turgan qozi pochchami?

– Siz bo'lganda nima qilardingiz? – Aziza sinamoqlik bilan so'radi.

– O'sha vaqtdami? Hayot shu ekan, deb ko'p qatori chorig'imni sudrab oh-voh bilan yashayverardim.

– Men bo'lsam chidamasdim. Uyni tut, kirini yuv, bolasini boq-da, yana ursin. Yo'q, men chidamasdim. «Bas, to'ydim» deb boshimni olib chiqib ketardim.

– Qayoqqa? Yana bitta shunaqasining oldigami?



– Yo‘q! Men boshiga ko‘taradiganni topardim. Topardimu men ham uni boshimga ko‘tarardim.

– Sirkdagi akrobatlarga o‘xshab, bir-birlaringni navbatma-navbat boshga ko‘tarar ekansizlar-da? Bu o‘yin o‘sha vaqtdan qolgan ekan-da, a, Azizaxon? – hazilga oldi Qodir.

– Men astoydil gapirsam, bu kishi... Erkaksiz-da, erkaklarning yonini olasiz, – o‘ksigandek bo‘ldi Aziza.

– O‘sha vaqtda yashagan bo‘lsam, jon deb xotin-qizlarning yonini olgan bo‘lardim, lekin baribir qo‘limdan hech bir ish kelmas edi. Shunday fikrli kishilar o‘sha vaqtda ham bitta-ikkita bo‘lgan, ko‘lga tushgan kesakdek ko‘rinmagan. Tuzum shunaqa edi, – dedi Qodir Aziza-ning ko‘nglini olmoqchi bo‘lib. Aziza hamon undan o‘pkalagandek, shaxtidan tushmagan edi.

– Tuzumi o‘lsin!

– O‘lib bo‘lgan haliyam!

– Baribir o‘lganiga ishonmaydiganlar, o‘zi, o‘lsa ham hidini olib qolganlar bor.

– Bu to‘g‘ri!

– Yana o‘zlarini kulturniy qilib ko‘rsatganlariga o‘laymi! Yolg‘on gapirgani uyalishmagani!

– Bir shoir aytgan ekan: «Yolg‘onning taxtida shoh bo‘lgandan, rostgo‘yning chorbog‘ida giyoh bo‘l», deb.

– Men hayronman, nahot o‘sha odamlar «yolg‘on gapirganimni hech kim bilmaydi» deb o‘ylashadi? Dunyoda yomon ko‘rganim yolg‘on bilan qo‘rqoqlik! Yolg‘onlari ko‘zlaridan shundoq ko‘rinib turadi.

– Ko‘rinmaydi deb o‘ylashadi-da!

– Bekor! Masalan, men darrov bilaman. Tovushi qandaydir g‘alati eshitiladi, yuzimi, ko‘zimi, harakatimi, ishqilib, bir nimasi «Yolg‘on! Yolg‘on!» deb turadi.

– Donosiz-da, – yana hazilga oldi Qodir.

– Dono bo'lsam, boshchanog'ini papkamga solib, lotincha nechta nomi bor ekan, deb kallai sahardan yod qilarmidim.

– Dono ham avval o'rganadi, keyin o'rgatadi, Azizaxon.

– Shunaqami, bilmagan ekanman. Voy, gapga tushib ketib, vaqtni tuya qilibmiz-ku! – soatiga qarab, yugurganicha ichkariga kirib ketdi.

Qodir kirganda u kitobga mukka tushgan edi.

Vaqt – sevgi doyasi. Qodir buni kunlar o'tgan sari sevinch bilan his qilib borardi. Ko'nglida bo'lgan shubha o'rnini ishonch, ikkilanish o'rnini qat'iylik olib, Azizaga bo'lgan munosabati samimiylashib, mehribonlik chin muhabbat qoyasiga ko'tarilmoqda edi. U endi Azizaning sho'xiik va erkinlik sirlarini biladi. U hayotda o'z o'rnini topib yashashgina emas, kerak bo'lsa uni jon-jahdi bilan himoya qilish qobiliyatiga ega. Xuddi shunday sevgisini ham qadrlay bilishiga, sevgi bilan yashab, sevgi bilan faxrlanishga ishonchi komil. Bu ishonch esa, Qodirni o'zini erkin tutishga, jur'at bilan harakat qilish, o'z sevgisi bilan qizning yurak-bag'rini to'la-to'kis zabt etib olishga undar edi. Lekin u qancha urinmasin, shoshmasin, Aziza yurak qopqasini keng ochmas, «shoshgan qoqiladi» degandek qiya tutardi, xolos. Bundan uning uzoqni ko'zlaganligi, o'z baxtining hech qayoqqa qochib ketmasligiga ishonganligi ko'rinib turardi.

Bir kuni kinodan qaytishar ekan, Qodir Azizani yoshlarga xos ishtiyoq bilan qattiq qo'ltiqlab olgan, yoshlardagina bo'ladigan maroq bilan «yirik mavzular»da suhbatlashib kelardi. Qizda ham turmushnng «ikir-chikir»laridan ko'ra mana shunday dilkashlikka mayli ko'proq sezilar, buni har suhbatida anglash mumkin edi, Aziza boshlagan suhbatni davom ettirib, xulosa yasagandek dedi:

– Men baxtning yurak bilan topilganinigina tan olaman.  
Bu chin baxt.

– Men unga aql ham qo‘shilsa, mehnat sherik bo‘lsa ekan deyman.

– Fikrlarimiz bir-biriga yaqin.

– Yaqin emas, asiida bitta. Faqat masalaga turli tomonlardan yaqinlashyapmiz. Siz «yurak» bilan deganda, mehnatni inkor etmaysiz, aqlni unga sherik tutasiz, shundaymasmi?

– Albatta.

– Demak, fikrlarimiz yaqin, lekin oralarimiz uzoq xolos.

– Uzoq, – dedi Aziza birdan beixtiyor. Lekin bu o‘rinsiz javobning ma‘nisiga tushunib qolib, qizarib ketdi. Shu asnoda Qodir asl maqsadga qarab hujum qilib qoldi:

– Ikkimizga bitta familiya yetgani holda, negadir haligacha ikkita qilib yuribmiz.

– Yoqmay qolsin! – labini luchchak qilib erkalandi Aziza, – nega erkaklar bunaqa shoshadi?

– Shoshmaydi, tashabbuskor bo‘ladi. Yo qizlar ham takiif etishadimi?

– Bilmasam. Astoydil sevgan va sevilganiga ishonganidan keyin, nima, aybi bormi?

– Masalan, siz tashabbuskor bo‘la olarmidingiz?

– Nega endi!

– Bo‘pti-da! Yigitlarni aybsitmang. Taklif etish yigitlik burchiga kiradi.

– Menimcha, shu huquqni qizlarga ham berish kerak.

– Sabab?

– Sababi shuki, yigitlar bu masalada har vaqt chuqur o‘yashmaydi. Oqibati xunuk chiqib, ajralib ketishganda ham o‘zining ahvoli qiznikiga nisbatan tuzuk bo‘lishini his qilib turadi. Bu ustunlik esa, ba‘zan yaxshi o‘yiamay, havas bilan tarbiyatning farqiga bormay ish tutishlariga sabab bo‘ladi.

– Bu to'g'ri, lekin qiziar bu majburiyatni uddalay olarmikan, sizga o'xshaganlar ko'p emas-da.

– Inqilobdan bir-ikki yil bo'lsa ham avval tug'ilganingiz sezilib turibdi, dimog'ingizga feodalizm hidi kimganda anqib qolyapti, – dedi Aziza kaftidagi Qodirning qo'lini «tushundingizmi?» degandek siqib. Ketidan o'zining sho'x kulgisi bilan ko'chani to'ldirdi.

– Men shubhalanayotganim yo'q, Azizaxon, ehtiyot chorasini ko'ryapman, – jilmaydi Qodir, – kal taranguncha to'y tarqaladi degandek, sevgan qizing taklif etishini kutib, soqollarimizga oq tushmasa deyman.

– Tushmaydi!

– Tushmaydimi? Bo'ldi, men kutaman.

Hazilning birdan jiddiy tus olishi Azizani cho'chitib yuborgandek bo'ldi, yalt etib Qodirning ko'ziga qaradi, bu ikki ko'z nodir kitobning qo'sh varag'idek bir-birini yaxshi umid, yaxshi niyat bilan to'ldirib turardi, ularda hayot va ishonch to'la bir zavq porlardi.

Qodir Azizaning qo'ltiqlab borayotgan qo'lini tirsagi bilan o'ziga tortib, qattiq siqdi.

Birinchi kursni ikkisi ham ko'ngildagidek tamomlab, kanikulga chiqish oldida bir xunuk ish bo'ldi. Navbatdagi imtihonni berib, xursand bo'lgan Aziza institutdan chiqib, to'g'ri Qodirning oldiga bordi. Sho'xlik bilan dedi:

– Bugun meni o'ynating.

– Xo'p, jonim bilan! Qayoqqa boramiz?

– Istagan yeringizga! – Aziza unga ishongan holda ixtiyorini berayotganini ko'zi bilan ta'kidlab turardi.

– Marhamat! – dedi-yu, Qodir uni mahkam qo'ltiqiab ketdi. Aziza chindan ham xursand, u serqatnov katta ko'chaga boshlasa ham indamas edi, boshqa vaqtda bo'lganida «bu ko'chadan yurmaymiz, toshi yirik» demaganida ham qo'lini tortib olgan bo'lardi. Magazin

vitriinalarini tomosha qilib, yangi chiqqan modalarga nazar tashlab, o'zaro muhokama qilib borishar ekan, qarshidan lop etib Azizaning dadasi Mirsalim chiqib qoldi. Aziza uning o'ziga ko'zi tushgan-tushmaganini bilmaydi, lekin yashin tezligida Qodirning qo'ltig'idan qo'lini sug'urib, magazinga o'zini urgani esida. Mirsalim xuddi shu magazindan xarid qilib, narigi eshigidan chiqqan edi. U pinagini buzmay kelib, Qodirning salomiga boshini chayqab alik oldi:

– Akangizga salom deng! – dedi bamaylixotir. Lekin uning tovushidagi titroq bularni ko'rganidan xabar berib turardi. Rangi oqarinqiragan Qodir:

– Xo'p! – degancha oyog'i chalishgandek yurolmay qoldi. Mirsalim o'tib ketgandan keyingina bir yerda to'xtab qolganini bildi. Bundoq qarasa, Aziza magazingning narigi eshigidan chiqib odamlar orasidan pildirab yelib ketyapti. Qodir unga ergashdi. U yetib borganda Aziza qayilishdagi yo'g'on terakka orqasi bilan suyangan, rangi doka bo'lib ketgan, og'zini kappa-kappa ochib nafas olardi.

– Ha, muncha? – dedi Qodir uni o'ziga keltirish niyatida.

– le, bu kishini qarang. Dadamga...

– Dadangiz bo'lsa... – Qodir gap topolmay qoldi. Aziza ilib ketdi:

– Yuring, ketdik, ketimizdan kelib qoladilar.

– Yo'g'-e...

– Siz dadamni bilmaysiz... Yuring. Baloga qoldim.

Qodir nima deb Azizaga dalda berishni bilmas, ochig'i, o'zi ham bu kutilmagan uchrashuvdan gangib qolgan edi. Shunchalik o'zini tutib Mirsalimga salom berib so'rashganidan qoyil edi.

Aziza oldinroq shoshib, undan sal keyinda Qodir yelib borar ekan, Qodir dedi:

– Meni taniydilar-ku.

– Taniydilar... Taniganlari bilan qizimni ko'chada qo'ltiqlab yurgin deganmilar? Siz ham qiziqsiz.

– Bir narsa dermikinlar sizga, a? – tashvishga tushib qoldi Qodir. Shu ko‘chadan boshiab nima qilardim. Ayb menda. Aziza ham, «qo‘ying» demadi, deb o‘zidan koyinardi. Bu ko‘ngilsiz uchrashuvning oqibati nima bo‘larkin?

– Menga-ku, ortiqcha bir narsa demasalar ham, oyimga jabr. Butun zahrini oyimga sochadi, boshi ta‘nadan chiqmaydi. – Azizaning o‘ksigani harakatidangina emas tovushidan ham bilinib turardi.

Azizaning butun sevinchlari chilparchin bo‘lib, Qodir bilan sovuqqina xayriashib uyiga jo‘nadi. Qodirning yurak yutib, «men siz bilan birga boraman, hammasini ochiq-oydin aytib qo‘yaqolamiz» deganiga ko‘nmadi.

Lekin uyiga yaqinlashgan sari yurak urishi tezlashdi. Bu ahvolda uyiga kirib borsa, onasining o‘ti yorilishidan qo‘rqib bir o‘rtog‘inikiga kirib, bir oz nafasini roslab olmoqchi bo‘ldi. Unga bora turib yana aynadi, orqasiga qaytdi. Pastlikka tushib soy bo‘yida birpas o‘tirdi. Birdan dadillashib ketdi: «Xo‘sh, men nima gunoh qildimki, buncha qo‘rqaman! Sevgan yigitim bilan qo‘ltiqdashib kelayotgan edim, xolos. Shu aybmi? Nimasi ayb? Kerak bo‘lsa ochig‘ini aytishim mumkin. Nahot, shu yoshga kelib o‘z sevingni himoya qilib ololmasang. Uyat! Uyat, Aziza! Tur! Tur, o‘rningdan! Tashvishlanma, sevib, sevilganingdan quvon, xandon solib yur. Kishilar ko‘rsin, havas qilsin».

Qalbida uyg‘onib, jo‘sh urgan bu faxrianish va dadillik unga qanot bog‘ladi. U o‘rnidan irg‘ib turib, etagini qoqdi, haligina mahzun o‘tirganidan o‘zi kulib yo‘lga tushdi. U shunday ko‘rinadiki, uyga kirib dadasi gap ochgunicha o‘zi so‘z boshiab, ochiq-oydin qiladigan, haq-huquqini himoya qilib, kibrlanadigan edi. Boya ma‘yus o‘tgan ko‘chalaridan ishonch bilan borib, eshigi tagiga kelganda yana nimadir jur‘atini o‘g‘irlagandek bo‘ldi, xavotirlanib, ehtiyotlik bilan

uyga kirdi. Hovliga kirib birinchi ko'rgan narsasi dahlizdagi uchi to'mtoq qora botinka bo'ldi. «Demak, u shu yerda, mendan oldin kelibdi» dedi-yu, javobga o'zini hozirladi. Shu asnoda onasi uydan chiqib kelib, uni ayvonga ishora qildi. Azizaning yuragi «shuv» etib ketdi: demak, doston boshlangan!

– Dadam keldilarmi? – dedi Aziza ayvonga o'tgach. Uning rangi bir oz oqargan edi. «Ha» javobini olishi bilan yana allanechuk bo'lib ketdi:

– Sizni urishdilarmi? – dedi onasiga rahmi kelib Aziza va onasining yuz-ko'ziga qaradi. U xomush edi.

– Nimaga urishadi? Dadang «Azizani ko'rdim» dedi, xolos. Bir narsa bo'ldimi, ayt qizim? Nega bezovtasan?

– Boshqa hech narsa demadilarmi? – yana o'smoqchiladi Aziza.

– Yo'q! O'zi nima gap? Kishini buncha xit qilasan, aytqolsang-chi?!

Aziza yana a'rofdan qoldi. Ochiq-oydin onasiga aytay desa, bu kutilmagan hodisa uni ham turli fikrlarga olib borishi mumkin, aytmay desa, onasi qistab qo'ymayapti. Bundan ko'ra dadasidan eshitganda yaxshi bo'lardi, bu vaqt buning yoniga tushar, yakkalab qolgan qizini himoya qilardi, chunki kishi doim zahmat chekkan kishiga rahm qiladi. Hozir esa, «dadang bilsa, nima bo'ladi, voy o'lmasam?» deb jim yotgan ilonning boshini qo'zg'ab qo'yishi mumkin. Shuning uchun Aziza «hall tagiga olib ketayotgani yo'q, bir kuni eshitar» degan fikr bilan gapni chalg'itdi:

– Ikkita-uchta o'rtoqlarim bilan hoholashib kelayotgan edim.

– Ha, bolam, shunga shuncha tashvishmi! Senga o'xshab ko'chada hoholashib yuradigan yoshlar kammi! Men bir narsa bo'lgan ekanmi debman.

– Nima bo'lishi mumkin, oyijon?

– Kim biladi, yana... – ona u yog'ini aytolmadi, to'g'risi, aytishi ham mumkin emas edi, chunki u yerining bunday narsaga murosasiz ekanini bilardi.

Azizaning bu yolg'oni ertalab ochildi. Dadasi kechasi aytibdi. Azizaning yuragi yana kecha eshikdan kirib kelganidagidek duk-duk ura boshladi. Dadasining nima degani va nima xulosa chiqarganini bilib olmoqchi bo'lib oyisining ko'zlariga termildi, uni kuzatdi. Oyisining yuzida alamning achchiq izlarini ko'rmay ko'ngli bir oz taskin topdi. Shunday bo'lsa ham:

– Dadam nima dedilar, aytaqoling, oyijon?! – dedi va to onasining og'zidan javob chiqquncha nafasi qaytib ketdi. Ona kuldi:

– Ko'rpa-yostig'ingni qoplay ber, dedi.

– Bu nima deganlari?

– Qizingni to'y qilamiz degani-da, nima bo'lardi, ona qizim.

– Yo'g'-e, nahotki. Shunday dedilarmi? Sizni toza urishgandirlar «qizing sayoq bo'lib ketibdi» deb.

– Yo'q, yo'q, qizim. Indaganlari yo'q. Dadangga ham insof kirib qoldi, tushunadi. Lekin senga mening aytadigan gapim bor: yohsan, hech narsani bilmaysan, yomon ko'p hozir...

– Voy, unaqa emas, yaxshi yigit oyi! – onasining so'zini bo'ldi qiz.

– Eshitdim, eshitdim. Ming yaxshi bo'lgani bilan begona, so'ziga uchma, o'zingni mahkam tut!..

Sirkasi suv ko'tarmas dadasining bunchalik «olijanoqlik» qilishi juda g'ayritabiiy, Azizaning aqliga sig'mas edi. Aziza dadasi kecha ko'rib qolmaganida» ham bu sir bir kuni ochilishiga ko'zi yetar, katta bir «qiy-chuv» bilan



gazak olib, keyin tinchishini, o'zining kuchi va harakati bilan tinchishini kutib yurardi. Bu to'g'rida o'zining rejalari ham bor edi. Lekin bu «mudhish» voqeaning bunchalik yengil ko'chishi uni hayratda qoldirdi. Avvaliga «dadam menga ishonadi» deb o'yladi, keyinidan bu hoini dadasining zamonaga qarab ish tutayotganiga, madaniyatli bo'lib qolganiga yo'ydi. Aslida bu ikkisi ham emas edi. Mirsalimning o'z rejasi bor edi, bir haftaki maktab direktori ketadi, o'rniga Sodiq bo'ladi, degan mish-mish tarqaldi. Tagini bundoq surishtirsa, joni bor, shunday tayyorgarlik ketyapti. Sodiq kim? Qodirning akasi! Akasi bo'lganda ham bular juda bir-biriga mehribon. Musharrafni ro'para qilib, bir marta minnatdor qilib qo'ygan bo'lsa, qudaligi nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Buning ustiga Qodir ham yomon yigit emas. Bir-ikki gaplashganida yaxshi taassurot qoldirgan, shu vaqtning yigiti bundan ortiq bo'lmaydi! Tepasida otalik qiluvchi qozig'i mahkam akasi bor. Onasi ham mehribon, shirin so'z kampir.

Mirsalim kecha Aziza bilan Qodirni uchratganda avval burgadek bir sapchib tushgan bo'lsa ham, shularni o'ylab, nafasini rostlab oldi. «Qo'ltiqlashib yurish, o'zi gaplashib tegish, bitta mening boshimda emas, yurtga kelgan to'y!» – dedi va shunday turmush qilib tinchib ketgan yoshlardan bir-ikkitasini esiab ko'ngli taskin topdi, xudodan o'shalarning yo'lini so'radi.

Aziza onasining gaplarini eshitib, qancha xursand bo'lgan bo'lmasin, yangi unashilgan qizdek dadasining ko'ziga ko'rinishga botinolmay bir hafta chetlab yurdi. Buni dadasi «qizim yuzimni yerga qaratmaydi» deb tushundi, yana xotirjam bo'ldi, shunday bo'lsa ham xotiniga: «Qizingga ayt, boshvog'ini qattiq tutsin, o'z namiga o'zi sirg'alib yurmasin», – dedi. Xotini: «Voy, qizimiz unaqa quruq xazon emas, sal yelga uchadigan», – deb qizining

yonini olgan edi, Mirsalim siltab berdi: «O'zingdan katta bir narsa deganda xo'p de, shataloq otaverma».

«Xo'p! Xo'p, dadasi!» – dedi bechora xotin noiloj qolib, Aziza onasidan eshitgan xushxabarni o'sha kuniyoq oqizmay-tomizmay, Qodirga yetkazdi. Kechasi bilan guvalak ustida yotgandek bezovta bo'lib chiqqan Qodirning ko'ziga olam yana o'z «husnini kashf etdi, hatto avvalgidan serfayz va ko'rkam ko'rindi. Shodligini bayon etishga so'z topolmasdi. U Azizani uyiga kuzatib kelar ekan, nuqui derdi:

– Rostdanmi, a, Aziza, hech ishongim kelmaydi. Kechasi bilan «shu vaqtda Azizalarnikida nima bo'layotgan ekan?» deb o'ylab chiqibman.

– Yolg'on! Yolg'on! Tilyog'lamalik qilmay qo'yaqoling! Xurragingiz biznikidan eshitildi. O'z qulog'im bilan eshitdim, – dedi Aziza jo'rttaga.

– Yolg'on bo'lsa Karl Marks bilan Engels ursin! – qasamning bu yangi xilidan ikkalasi mamnun kulishdi.

Odatdagi xayriashadigan yerga borganda Aziza taqqa to'xtab: «Bas!» – dedi.

– Yana ozroq, hu anavi qayrag'ochgacha kuzatay! – dedi Qodir o'sha yergacha kuzatmasa hech bo'lmaydigan bir ohangda. Aziza:

– Bugun buncha mehribonsiz! – dedi-yu, yo'lida davom etdi. U Qodirning xursandchilikdan ichgan jinday vinosiga ishora qilgan edi.

– Qachon mehribonlik qilmovdim?

Aziza indamadi. Sadaqayrag'ochning soyasida to'xtagan Qodir Azizani gapga solib turib, o'ziga tortdi. Buni kutmagan Aziza shoshib, ikki qo'lini uning ko'krigiga tiradi:

– Qodirjon aka, sizga nima bo'ldi... Birov ko'rib...

Qodirning qulog'iga gap kirmas, entikib uni o'ziga tortar, Azizaning qarshiligi shunchaki narsa ekanini qalbi bilan sezib turardi.

– Dod deyman!.. Qo'yvoring! – der Aziza, lekin o'zi ortiqcha qarshilik ko'rsatmay Qodirning bag'rida kulib turardi.

– Odam yig'ing, qo'rqqan nomard! – dedi Qodir va uning labiga yopishdi. Qarshiligi astoydil bo'lmagan Aziza yolverishga tushdi:

– Sekinroq, birov eshitadi! – dedi va payt poylab uning bag'ridan chiqib qochdi: – Yomon kishi ekansiz, endi hech siz bilan uchrashmayman.

– Uchrashadigan kishingizning ismini ayting, bilib qo'yaylik, – tegishib qoldi Qodir. Aziza ham bo'sh kelmadi:

– Ismimi? Ismi mayparast Qodirjon!

Aziza yelib ketar ekan, hilpillagan etagining shamoli Qodirning yurak cho'g'larini yanada yallig'latardi. Oysiz tun sokin va orombaxsh edi!

Qodir o'pish mazasi labida qolgandek tamshanib qo'ydi.

## 9. XUSHOMAD ZIYOFATI VA ARZ

Mirsalimning fikricha, kishilar ko'ngliga olib kiradigan yo'lning boshida araq solingan shisha turadi. Bu shisha ko'p mushkuini oson qiladi. Ba'zan aql o'rgatadigan bir jild kitobning ishini yarimta araq bajarishi mumkin. Mirsalim shunday yashab kelgan edi, hali ham shu yo'lni to'g'ri biladi. Sodiqning shisha bilan bo'lmasa ham, shisha turgan dasturxon, takalluf bilan ancha maylini oldi. Jannatni qo'ydirib, Musharrafga uylantirishga muyassar bo'ldi, bag'riga kirdi. Mana bugun yana uning bag'rida qimirlamaydiganroq bo'lib olmoqchi. Bunga sabab – Sodiqning bundan bir-ikki oy ilgari direktor qilib tayinlanishi edi. Avvalgi direktor bilan apoq-chapoq edi, sal ilojini topdi deguncha Mirsalim shishaga qo'l uzatardi. Shisha

o'lgur shunaqa kuchli doriki, ne-ne dog'larni yuvib ketadi. Bo'lmasa Mirsalimning nimasi ko'p, «ishi chiqib» qolishi, «kasal» bo'lishi, ba'zan ota-onalarning uning dag'alligi ustidan arz qilishi ko'p. Kechagina shunaqalardan bittasi ro'y berdi. Yana bo'lishi mumkin. Chunki dars vaqtida Mirsalim asabiylashib ketadigan, arzimagan narsaga bolalarni qattiq koyib sinfdan quvib chiqaradigan odati bor. Biror yerda mo'mayi uchrab, ko'proq tortib qolgan kuni-ku, ertasiga darsni o'ldi deyavering!

Bularning davosi yangi direktor bilan muomalani sozlab yurish va shisha. Birinchisi bo'lib turibdi, lekin ikkinchisini anchadan beri ro'yobga chiqargani yo'q. Avval Sodiqni «chillalik» deb bezovta qilmadi, keyin o'zining yurishi bolalab ketdi. Shunda ham Sodiqning tizginini o'zicha qo'yib yubormagan bo'lib «Sodiqjon-chi, Sodiqjon» qilib turdi, ba'zan tegishib «yoshi qanaqa bo'lar ekan, kuyov bola» deb ishshayib qo'ydi, kechqurun uyiga kelib ikkita qazi bilan bitta katta po'stdumba yubordi. Mana bugun Sodiqni chaqirib og'zini moylab qo'ymoqchi, bunga bahona Musharrafni chorlashga o'xshagan bir o'tirish.

– Sen Musharrafni chaqir. Yaxshilab dasturxon yasat!  
– dedi Mirsalim ishidan qaytgach, «amal to'ni»ni echib, qora beqasam choponini elkasiga tashlar ekan. Xotining g'ashni keldi. U Musharrafni, jilpanglamay o'lsin, Jannatxon qanaqa og'ir-vazmin juvon edi, deb yoqtirmas edi, unga mulozamat ko'rsatish esa, yana og'ir botdi. Bundan tashqari, shunday yosh bir narsaning kap-katta kishiga tegishi ham g'ashini keltirar, erining ham unga havasi kelib, patagiga qurt tushib qolganga o'xshardi. Bir kuni Musharrafni ko'rib kelib, uni sochiga oq oralab qolgan Sodiqqa taqqoslab, ensasi qotdi, kechasi eriga dedi:

– Uning nimasini yaxshi ko'radi Musharraf? Burun loytovoqday, yoshi anchaga borib qolgan bo'lsa...

Mirsalim erib turgan edi, xotining bag'riga qo'lini yuborib, javob qildi:

– Sen bilmaysan, jonginam, ba'zi xotinlar erkakning husnidan ko'ra erkalashini yaxshi ko'radi.

Erining issiq qo'li badaniga xush yoqqan xotin:

– Sodiq aka yaxshi erkalaydiganlar xilidan ekanmi? – dedi.

Mirsalim bu kutilmagan savoldan sovuq suvga sho'ng'igandek bo'ldi, buni «mo'min-qobil» xotinidan kutmagan edi. U bunaqa so'zlarni begona xotinlardan eshitgan, unda xush yoqqan, yana eshitgisi kelgan paytlari bo'lgan. Lekin xotininikiga chidolmadi:

– Bas, og'zingni beparovuz qilma! – deb jerkib tashladi. Xotining, «erim deb bir og'iz gapni ham gapirolmayman», deya xo'rliги keldi:

– Ha, muncha, mening og'zim qopmi, bog'laysiz?

Mehmon chaqirish taklifi xotiniga yoqinqiramaganini payqagan Mirsalim ertalab chetdan aylantirib olib keldi:

– Yoshligingda dovuchcha terganmisan?

Xotin hayron bo'ldi.

– Termaganmisan? Boshing nimaga qorong'i bo'lgan edi! Dovuchchagamidi?

– Ha, yo'q. Gilvataga. Nima edi, ayta qoling?! Muncha rezinkaday cho'zdingiz.

Mirsalim o'z kashfiyotidan mamnun jilmayib izoh bera boshladi:

– Musharraf o'sha dovuchchalik o'rikning bo'y etadigan pastki shoxi. Uni tortsak yuqoridagisining o'zi egilib keladi. Tushundingmi? Burga tutishga ham barmoqni ho'llash, kerak, xotin! Tushundingmi?

– Ha, tushundim, Sodiqqa xushomad deb qo'ya qolsangiz bo'lmaydimi!

– Bu xushomad emas, tentak, odamgarchilik,

– Odamgarchilik o'lsin zoldirga o'xshab nuqui nishabga dumalasa.

Mirsalim qarasa, xotini yana cho'zadigan, niyatiga putur yetkazib, tashvishga qo'yadigan. Darrov sinalgan odati – do'qqa o'tdi:

– Tushundingmi?

Erining rezinkaday chirt uzilib ketadigan fe'lini bilgan xotin darrov cho'kdi: – Tushundim.

– Tushungan bo'lsang, hozirligingni ko'ra ber, – dedi Mirsalim buyruq berib va uyga burilar ekan, yana do'ng'illab qo'ydi: – Xotin kishining uzun tili uyga baxtsizlik olib kiradigan zina, deb senga necha marta aytdim! Yo'q, hech quiog'ingda turmaydi, kishining jag'ini ochirganing ochirgan. Tavba!

Bu Mirsalimning sal turib yarashishga ko'rgan tayyorligi edi. Chunki, xotini arazlab dasturxonni ko'ngildagidek tuzatmasligi mumkin. Shuning uchun uydan kiyinib chiqqach, ochiq chehra bilan hazil qilgan bo'ldi:

– Musharraf biram ochilib ketibdi.

Xotin alamidan tushmagan edi, chaqib oldi:

– Xohlaganini yeb, yarashganini kiyib yurgandan keyin u ochilmay men ochilamanmi!

Mirsalim o'rinsiz hazilidan pushaymon yedi. Tiling kesilsin, to'g'ri gapga ham qilich bo'lmay!

– Havasingiz keldimi, siz ham yoshrog'iga uylana qoling.

– Qani edi! – ko'nglidagi ro'yobga chiqayotgandek tirjaydi Mirsalim.

– Yoqmay o'lsin! Siz erkaklarda uyat bormi, ishshayganga iliqasizlar... Bo'yi yetgan qizingiz bo'lsa...

Xotining o'z taqdiriga xo'rliigi keldi shekilli, ko'ziga yosh oldi.

– Voy tentak, hazil-ku! – yupatdi xotinini Mirsalim kuydirgan kalladek ishshayib.

– Dilingizda bo'lmasa tilingizga chiqarmidi.

– Menga o'xshagan it g'ajigan suyakni boshiga uradimi.

Hammasi tilda, xotin.

Xotin ishonch hosil qilgandek baland keldi.

– Qani qilib ko'ring, naq soqolingizni bittalab yulay.

– Qorasinimi? – dedi Mirsalim qo'sh xotinlik afandi haqidagi mashhur latifani esiab.

– Hammasini ham! – dedi xotini bunga tushunmay.

– Bo'ldi! Bo'ldi! Unar-unmasga diqqat bo'lib, kishini qiynama. Men Sodiqnikiga borib kelaman.

Mirsalim boshidan surma rang do'ppisini olib, kizagini cho'zdi-da, qayta kiydi, nimadir demoqchi bo'lib turib, ko'cha eshikka qarab yurdi.

Birdan orqasiga burilib:

– Tushunding-a! – dedi. Bu savol emas, ta'kidlash edi. Xotini yana erining daftarini ochtirmaslik uchun boshini sal silkib ma'qullab qo'ya qoldi.

Mirsalim Sodiqning eshigida Musharrafni uchratdi. Kelin qoshda o'sma, ko'zda surma, jiyakli atlas lozimda suvga chiqib kelardi. Uning har qadam bosishidan «menga havasing kelsin, men shunaqa chiroyliman» degan ma'no yog'ilib turardi. Mirsalim ko'nglida «yana ochilib ketibdi-ku!» deb qo'ydi, vujudining allaqayeri jimirlab ketdi.

Musharraf kelinga xos nazokat bilan salom berib so'rashdi. Uning o'z turmushidan mamnunligi ko'zining tabassum bilan yonishidan tortib, chelak tutishigacha, hammasida oshkor ko'rinib turardi. Mirsalim buni fahmiab, «yoshga uylanib Sodiq yutgan desam, aksiga o'xshaydiku! Nuqsoni ersizligi ekan-da!..» deb ko'nglidan o'tkazdi. Musharraf «menda ishingiz yo'qmi? Yo'q bo'lsa, nozimda kuying» degandek xushnud jilpanglab turardi. Mirsalim so'radi:

– Sodiqjon uydami? Nima qilyapti?

– Hovonchada suv talqon qilyaptilar.

– Qodirjon-chi? – Mirsalim ham hazillashdi.

– Qodirjonmi? Qodirjon ho‘kiz bolasini ov qilgani ketgan.

Musharraf «yana kim kerak sizga?» degandek jilpanglab turgan edi, Mirsalim Sodiqning chiqib qolishidan hadiksirab, ichkariga kirdi.

Bu – Sodiq yaqinda ko‘chib kirgan, yevropacha solingan, to‘rt xonali, oldida bog‘chasi ham bor hovli edi.

Kitoblar poliga betartib uyib-qo‘yilgan xonada Sodiq nimadir yozib o‘tirardi. Mirsalimni ko‘rib o‘rnidan turdi, qo‘lini oldi.

Sodiq qilib o‘tirgan ishidan juda xursand va mamnun edi. Ana shunday xursandlik bilan Mirsalimga gap tashladi.

– Omadi kelgan kishisiz-da, ayni vaqtda keldingiz. Saylovchilar bilan bo‘ladigan suhbatingiz uchun yaxshi bir material topib qo‘ydim.

Mirsalim qilgan iltimosi esiga tushib juda qiziqdi:

– Xo‘sh-xo‘sh?

– Shu yil boshida bo‘lgan qurultoyi Toshkent xotin-qizlarining vakillari tabriklagan edi. Shunda bir xotin juda chiroyli gapirgan edi. Ana shu nutqni topdim. Mavjuda Abdurahmonova nomzodi ro‘yxatga olingan bizning okrugga juda ketadi. Mana buni qarang, haqiqatan ham, juda qiziq material. – Sodiq stol ustidan yozganini olib o‘qidi: «Toshkentda o‘ttiz ming o‘zbek xotin-qizlari savodsizlikni bitirish kurslarida o‘qimoqdalar. Ular «o‘qigan guliston, o‘qimagan – go‘riston» degan maqoini esga olib, shu yil Toshkentni yalpi savodxon shaharga aylantirishga so‘z berdilar... Ilgari «o‘nta xotin bir qozon qaynata olmaydi» der edilar. Qanday kulgili so‘zlar! Nafis va go‘zal so‘zanalar tikib turgan bu qo‘llar miltiq tutishga ham tayyor. Mashina va stanoklar boshida turgan qizlarimiz otlarga



minib, bir tomchi qonlari qolguncha sevimli Vatanimizni himoya qilurlar».

– Sodiq hamsuhbatiga qaradi: – Joyidami?

Mirsalim ma'qullab, bosh silkidi: Nazarimda, shu qurultoyda paranji haqida ham gap bo'lgan edi.

– To'g'ri. Ana shu vakillar qurultoydan paranji yopinishni taqiqash to'g'risida dekret chiqarishni, qizlarni 16 yoshda erga berish to'g'risidagi eskirgan qonunni qaytadan ko'rib chiqib, 18 yoshga yetkazishni so'raganlar. Mana, hammasini yozganman. Marhamat!

– O'zingiz-chi?

– O'zimga ham bor. Saylov tashviqotini jonli faktlar bilan shunday olib borish kerakki, konstitusiyamizning jahonda tengi yo'q demokratik va insonparvar konstitusiya ekani, shu qonun asosida saylanadigan deputatlar xalq xizmatkori bo'lajagidan har bir saylovchi qanoat hosil qilsin.

– Buning uchun sizga o'xshagan kishilarni safarbar qilish kerak, – xushomadomuz iljaydi Mirsalim.

– Siz ham chakki emassiz.

Mirsalim Sodiq uzatgan qog'ozni buklab, yoniga solar ekan, «shunaqa materialim kamroq edi», deb yana iljaydi. Keyin Sodiq yaqinda ko'chib kirgan bu uyning u yoq-bu yog'ini qandaydir bir kuzatish bilan ko'zdan kechirib, dedi:

– Shu uyni sizga berishib juda yaxshi qilishdi, uzukka ko'zdek yarashdi! – lekin bu «tekin uy»ga g'ayirligi kelayotgani qo'y ko'zlarining tubida ko'rinib turardi. «Yosh xotin. Direktorlik. Yaxshi hovli-joy! Berganga qo'shaloqlab...» deb yandi ichida. Ammo till moylangan pирpirakdek aylanar edi:

– Biz ham uyda yolg'iz. Zerikamiz. Kelin poshsha bilan ertaga bir biznikiga boringlar.

– Ertaga... – o‘ylab qoldi Sodiq, – avval sizlar kelinglar.  
– Biz kelib turibmiz... To‘yda shu yerda edik.  
– Ertaga borolmasmiz. Musharraf bir narsa deyaotgan edi. Qani, men, o‘zidan, – Sodiq tashqariga chiqib ketdi. Mirsalim ketidan o‘yladi: «Musharraf qo‘liga zag‘chadek qo‘ndirib olibdi-ku halitdan!».

Oldin Sodiq, saldan keyin ochilib-sochilib Musharraf kirdi.

– Mirsalim akam ovora bo‘lib o‘zlari aytib kelgan bo‘lsalar u yoqni qo‘ya qolamiz.

Musharrafning «Mirsalim akam!» degani uning qulog‘iga shunday xush yoqdiki, «sening shu tiling uchun kunda aytib kelishga tayyorman, akasi», deb yuborishiga sal qoldi, o‘rnidan sal turib minnatdorchilik bildirdi:

– Boshim osmonga yetdi, rahmat, kelin!

Mirsalim ovi o‘ngidan kelgan ovchiday uyiga xursand qaytdi. Lekin Sodiqning baxti uning yuragini o‘rtab yuborgan, ko‘nglida qandaydir notinch g‘uluv uyg‘ongan edi.

– Qalay, kelishadigan bo‘ldimi?

– Ha, kelishadi. Boshqa joyga va‘dalari bor ekan-u, Musharraf: «Mirsalim akam o‘ziari ovora bo‘lib kelibdilar, oldin shu kishinikiga boramiz», deb turib oldi, – maqtandi Mirsalim.

Xotinining nazarida, Musharraf kunda mehmonga boradigandek ko‘rindi:

– Muncha mehmonga borishni yaxshi ko‘rmasa! Qarisa eshik sanab yuradigan xotinlardan bo‘ladi, shekilli. Hozirdanoq qaynanasini hech narsaga biylatmay qo‘yganmish. Uyal, kecha kelib, bugun shunaqa qilishga.

Baxtli xonadonning uyidan o‘tgan bu chakka Mirsalimning g‘araz bilan yonib turgan yuragiga malham bo‘lib tomsa ham, sir bermasdan xotinini qayirdi:

– Unchalik emasdir. Sen ko'chadagi gapni ichkariga olib kirma, eshitgan quloqqa xunuk!

Sodiq aytilgan vaqtda Musharraf bilan keldi. Eshikda ikki bukchayib kutib olgan Mirsalim Musharrafning kiyinishini ko'rib: «Yana xotinimdan baloga qoldim!» – deb qo'ydi. Musharrafning bag'riga shamol tegib qolgan edi. Oyog'ida baland poshna amirkon etik, uning qo'nji atlas lozim ustidan ipak paypoq kiygan chiroyli boldirini siqib turardi, shu kunlarda endi rasm bo'lgan guldor krepeshin ko'ylak taqimga shamol yelpib, tarang ko'kragiga husn baxsh etardi. Boshidagi chamandagul do'ppining jiyagiga mayda sochlarining chiroyli jingalagi tarmashar, pardoz bilan nurlangan oppoq yuzda qop-qora xol yanada o'zgacha qoralik kashf etgan. Chakkasidagi juvon gajagi ming bir noz bilan qulog'iga nimadir shivirlardi.

«Kecha ko'rganim ham bir navi ekan», deb ko'nglidan o'tkazdi Mirsalim va Musharrafdan anqigan yaxshi atir-upalarning hidiga mast bo'lib uyga yo'l boshladi. Uy ostonasida kutib olgan xotini kechagi gina-kudurat-larni unutib, ochiq yuz bilan mehmonlarga salom berdi. Musharraf bilan quchoq ochib ko'rishdi.

Mirsalim ularni uyga, uy emas, chiroyli bir qo'g'ir-choqxonaga taklif etdi. U eski, burun solingan bo'lsa ham, zamonga moslab isloh qilingan. Tomining ustiga faner qoplanganidan guldor shipi past bo'lib qolganga o'xshaydi. Ro'paradagi qo'shaloq taxmonga shkaf qilingan, birining oynasidan duxoba, atlas ko'rpa, yakandoz va jilti sinkaga solingan parquv yostiqlik ko'rinib turibdi, ikkinchisiga kiyim-bosh osilgan: Tokchalar kamaytirilib, ularga ham javon qurilgan, ichiga idishlar qo'yilgan, qopqog'i to'ntarib terilgan havorang choynaklarning bittasi jo'mragiga kattakon xitoy qog'oz guli tiqilgan. Yana bitta tokchada oq rux samovar «mana savlatman» degandek yarqirab

turibdi. Hamma taxmon-tokchalar qulf-kalitli. Tokchalardan xoli devorga gilam osilgan. Uning tepasida ikkita surat bor, biri Mirsalimning yoshligida tushgan chaqmoq telpakli, ikkinchisi Azizaning shu kunlarda tushgan surati edi. Kiraverishda, chap tomonda\* obrez bo'lgan bo'lsa kerak, pol qoqilganda unga qopqoq qilingani ko'rinib turibdi.

Bularning barchasi sepsiz erga tekkan Musharrafning ko'zini yondirib yubordi. U erining oyog'ini stol ostidan asta bosib, «ko'ryapsizmi, kishilarning uyi qanaqa» degan ishorani qildi. Sodiqni esa, Mirsalimning kitoblari qiziqtirardi. Uning nazarida, «Boburnoma» kabi antiqa kitobi bor odamning boy kutubxonasi bo'lishi shart. Kitoblarni qayerda saqlarkin? Begona ko'zdan chetroqda turar ekan-da!

Musharraf shkaf-taxmondagi ko'rpa-yostiqlarni sanab, suqlanib, devor da cho'g'dek yonib turgan gilamga nazar tashlar ekan, qaynanasi bilan bo'lgan hangoma esiga tushib ketdi. U bir kuni poldagi gilamni qoqib-tozalab, devorga osar ekan, Adolat xola «qo'ying!» deb rozilik bermagandek bo'ldi. Shunda Musharraf «madaniyat» degan, xola esa «madaniyat shu bo'lsa o'lsin, jon bolam, oyoq ostidagi gilam devorga, kishi boshiga osilsa», deb kulgan edi.

Musharrafning ko'zlari yonib tomosha qilishidan Mirsalim juda mamnun, lekin Sodiqning beparvoligidan hayron edi. Shunda Sodiq kutilmagan savolni berib qoldi:

– Kitoblaringiz qayerda? Tokchalaringiz kitob qo'yadigan ekan!

– Kitob... kitoblarni... kitoblarimni narigi uyda saqlayman.

– Bolalar titmasin deysiz-da?

Garchand uyda mayda bolalar bo'lmasa ham, Mirsalim evini topdi:

– Ha, albatta! Qarindoshlar, Azizaning o‘rtoqlari kelib turishadi...

Yo‘q kitoblarni bor qilib, Sodiqni ishontirganidan ko‘ngli taskin topgan Mirsalim, mehmonlarni dasturxonga qistadi, gapga chalg‘itdi. Mehmonlar o‘tirishi bilan xotini Mirsalimga ko‘zini tashlab, «fotiha qilib yuboring» ishorasini qildi. Mirsalim payti kelganini bilib, qo‘lini ochdi, ketidan qo‘shdi:

– Yanagi yil shu paytiarda uchta bo‘lib kelinglar.

Sodiq o‘ng‘aysizlandi.

Sal o‘tmay Mirsalim bitta konyak, bitta vinoni to‘rtta ryumka bilan keltirib o‘rtaga qo‘ydi. Xotini esa, uy-joydan nolib, erini noshudlikda ayblar edi.

– Qizimizning bo‘yi etib kelyapti. Shu yerda to‘y qilib bo‘ladimi? Asti rozi bo‘lmasman. Oldin yaxshi joy qilasiz! Shartim shu! Eshitingizmi, dadasi.

Mirsalim indamay konyakni ustalik bilan ochdi. Avval Musharrafga qo‘ymoqchi edi, Sodiq qaytardi.

– Bo‘lmasa, vinodan.

Qadahlarga quyilib bo‘lgach, Mirsalim hamon bulbuligoyolik qilayotgan xotini qayirdi:

– Bo‘ldi! Bo‘ldi! Sodiqjon uy taqsimot qilmaydilar. Qani, ryumkangni ol, Musharrafxon bilan urishtir, qo‘shaloq o‘g‘illar niyat qil.

– Siz shunaqa deysiz-da, odamlar uy-joyga qaraydigan bo‘lib qolgan, – dedi xotini ryumkani ola turib.

Mirsalim Sodiq bilan urishtirar ekan, dedi:

– Nafsambirga qaraganda bu uy emas. Sizlarniki – bu boshqa.

– Almashamizmi? – dedi Sodiq. Mirsalimning havasi kelayotganidan ataylab.

– Tuf-tuf-tuf! O‘zingizga buyursin, azizim, – Mirsalim «Shu so‘zingiz yerda qolsin» degan mazmunda, bir chekkaga tufurgan bo‘ldi, qadahini jiringlatib urishtirdi. Bir ho‘plab yerga qo‘ygan xotini tegishdi:

– Seni hech madaniyatli qilolmadim-da! Ana Musharrafxonni ko‘r, simirdi-ko‘ydi.

– U kishi yosh, ichsa yarashadi...

Mirsalimning mehmon chaqirishdan maqsadi o‘zining yana bir fazilatini ko‘rsatib qo‘yish bo‘lganidek ikki ryumkadan ichilgandan keyin, g‘ilofi bilan qoziqda osig‘liq turgan tanburni olib, «sozli tordan nozli kuy chiqadi» degandek zerikmasdan sozladi, «nima chalib beray!» deb so‘radi, lekin javob kutmasdanoq, «Chaman yig‘lar» kuyini boshlab yubordi. Chindan ham u tanburni yaxshi chertardi. Umrida bironta musiqa asbobini qo‘lida tutmagan, lekin musiqaga juda ishqiboz Sodiq zavqlanib tingladi. Ikki ryumka vinoni oxirgi tomchisigacha simirib, ko‘zlari charaqlab, yuziari yana bir ko‘rk kashf etgan Musharrafku, allaqachon mahliyo bo‘lib qolgan edi. Maktabdaligida shuncha urinib, dutorda «Vaqvaqa to‘ram»dan boshqasini o‘rganolmagani hali-hali alam qilardi. Birorta musiqa asbobini chalishni bilgan odam, uning nazarida, dunyoda hech armoni yo‘qdek bo‘lib ko‘rinardi. Chunki bunday odamlar qayg‘udan begona, sal yuragi siqilsa kuy bilan yozadi! O‘zi bilmaganiga yarasha eri chalsa koshki edi!

Ikki mashqdan keyin Musharraf yana biror narsa chalib berishni o‘tindi. – Yo endi siz olasizmi? – dedi eriga tegishib. – Panja yo‘q, – kulgiga oldi Sodiq. – U kishinikining xizmati boshqa, ov miltiqning tepkisini yaxshi bosadi, – dedi Mirsalim Sodiqni himoya qilib.

– Chiroyli xat ham yozadi deng! – dedi Musharraf hazilidan allanechuk bo‘lgan eriga yaltog‘lanib. Lekin bu so‘z badxat Mirsalimga tegib ketgan edi. Uning jizzakiligi tutdi:

– Buni siz yaxshi bilasiz. Bizlarga hech xat yozmaganlar.

Mirsalim «men seni bilaman, to‘yinggacha toza donlashgansan» deb ta‘na qilmoqchi edi, uni Musharraf

shunday tushungan bo'lsa-da, boshqayoqqa burdi: – Albatta! Biror yoqqa ketsalar tez-tez xat yozadilar. To'g'rim, Sodiq aka?

Sodiq javob qaytarmadi. Xotinining bachkanalıkları g'ashini keltirgan edi. Sodiqning bu holatini Mirsalimning xotini fahmlab, «bas qiling» degandek, stol ostidan erining oyog'ini bosdi.

Mirsalim darrov o'zini o'nglab, tanburni chertdi. Lekin avvalgi zavq bilan kuy taratmas edi.

Mirsalim Musharrafning bu qochirimini mehmonlar ketgandan so'ng ham unutmadi. «Direktorning xotiniman. Shu hushingga keladimi?» deganday bo'lib, jilpanglashiga asti chidamas edi, unga alam qilardi.

\* \* \*

Direktor qilib tayinlashgandan keyin, Sodiq aspiranturaga kirish niyatini endigi yilga qoldirdi. Garchand uning bu shaharga ko'chib qelishdan bir muddaosi shu bo'lsa ham, raykomga chaqirib aytishgach, ko'ngilning qarori shu bo'lsa roziman», dedi-yu, o'ziga xos shijoatu kuch-quvvat bilan ishga sho'ng'ib ketdi. Ish tig'iz paytlarda kechqurun qolib ishladi. Ana shunga ham talaygina vaqt bo'libdi. «Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar» qabilida ishlaydigan bir-ikki o'qituvchining ko'ngli olinganini hisobga olmasa, ko'pchilik undan xursand. Buni jamoada tashabbus uyg'onishidan, o'qish-tarbiya sifatining yaxshilanishidan ko'rib turibdi.

Sodiq shularni xayolidan o'tkazib o'tirar ekan, kabinet eshigi taqillab qoldi.

– Mumkinmi? – eshik tirqishidan xotin kishining boshi ko'rindi. Sodiq ichkariga taklif etsa ham u kirishga tortinardi. Sodiq o'zi borib, eshikni keng ochib uni ichkari kiritdi-da, yana yopib qo'ydi, xotinga joy ko'rsatdi:

– Keling!

Xotinning butun vujudidan mahzunlik yog‘ilib turardi. Salqib turgan qovoqlari uyqusiz o‘tgan tundan xabar bersa, ma’yus ko‘ziari «zabun bir hayotning guvohiman» deb o‘ksirdi.

Xotin boshidagi ro‘molining uchini himarib turib, so‘zlash o‘rniga yig‘lab yubordi:

– O‘lar bo‘lsam o‘ldim. Na menga, na bolalarga tinchlik bor, ikki kunning birida dilsiyohiik. Choy qaynatsam ham tagiga oldirding, deb janjal. Siz o‘sha bir koyib qo‘yganingizdan keyin ancha tuzuk bo‘lib qolgan edi, keyin... sizdan ketgandan keyin yana...

Sodiq xotinni endi tanidi. Uning eri Faxriddin Shukurov avval shu maktabda muallim edi. Ancha shaloq. Xotini u endi direktor bo‘lgan kezi ham arz qilib kelgan, shunda eri bilan yaxshigina gaplashib, to‘g‘ri yo‘lga solib olgan edi. Lekin bu to‘g‘ri yo‘ldan yurishga uning bardoshi etmadi, oqibat, yaqinda bo‘shatib yuborishga majbur bo‘lgan edi. Demak, yana eski izga tushib olgan.

– Nima deydi, biror maqsadi bor edimi, – aniqlamoqchi bo‘ldi Sodiq.

– Maqsadini aytmaydi, iziagani janjal, topgani urish. Bir kun ro‘shnolik yo‘q. Na ichganimda, na eganimda halovat bor. O‘lar bo‘lsam o‘ldim. Bolalarga jabr bo‘lib ketdi. O‘zingiz bir narsa demasangiz... sizdan hayiqadi!

Sodiq hayron bo‘lib, qo‘lini engagiga tiradi. Pichoq suyakka taqalgan bechora xotinga shirin so‘zlab, qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirib yuborishning qizig‘i yo‘q. U masiahatga emas, yordamga muhtoj. Yordam qilish uchun eriga uchrashuvi kerak. Eri bo‘lsa, hozir boshqa maktabda ishiaydi. Modomiki, o‘zida ishlamas ekan, unga bir so‘z aytish noqulay. Sharmandaga shahar keng uni behurmat



qilib qo'yishi mumkin. Lekin Sodiq uning behurmat qilishidan cho'chimadi, shunday bo'lsa-da, maslahat soldi:

- Nima qil deysiz, singlim?
- Sizdan hayiqadi... Insofga chaqirib qo'ysangizmik...in...
- Keyin, arzga boribsan demaydimi?
- O'tgan safar indamovdi.

Xotinning bu javobi Sodiqqa yana dalda berdi. Shunday bo'lsa ham, xotindan butun voqeani surishtirib oldi, xotinning o'z kamchiliklarini ham aytib, maslahat berdi.

– Qars ikki qo'ldan chiqadi, singlim, siz ham hadeb tiklashavermang. Inson tili har qanday xanjardan o'tkir! Sevdiradigan ham til, bezdiradigan ham til.

– Voy, aylanay, o'n so'zidan bittasiga javob qaytarsam, dunyoga o't ketadi-ku! So'z boshlamasimdan «gapingdan tutun hidi keladi» deb og'zimga uradi. Yana o'zidan eshitarsiz-ku, cho'g'ni qog'ozga o'rab bo'larmidi!

Xotin yana bolalariga jabr bo'lganini, dadasi eshikdan kirishi bilan dag'-dag' titrashlarini aytib, yig'lab yubordi.

– Xudoyimdan o'rgulay, tilaganga bola bermaydi, bezganga qo'shaloqlab...

Xotinning bola haqidagi gapi Sodiqqa qattiq ta'sir qilgan edi. U, shu bolalar haqqi hozir xotinning eri bilan gaplashishga qaror qildi. Xotinni eshikkacha kuzatib, soatiga qaradi. Telefonda uning maktabda bor-yo'g'ini surishtirdi.

– Ketib qolmasin, men hozir etib boraman, – dedi. Poezdga chiqayotgan odamdek shoshilinch bilan eshikka otildi.

Tuyaning paypog'i, otning odimi ulkan degandek, Sodiq ot yurish qilib «begona» maktabga etib kelganini bilmay qoldi. Darvoza yonidagi kichik eshikdan kirishi

bilan, bolalarning qiy-chuvi «shu yer maktab!» deb turardi. U devor ostiga yotqizilgan g'isht yo'lkadan borar ekan, o'ylardi: nimadan gap boshiashim kerak. Shunday gaplashuvim kerakki, six ham, kabob ham kuymasin. Albatta xotining hamma gapi rost emas, arzga borgan doim qo'shib chatadi, o'zi istamasa ham alam va jahl shunga majbur etadi. Avval erining ulfatlarini bilish kerak, yaxshi yaxshiga yondashtiradi, yomon yo'ldan adashtiradi.

Lekin Sodiq aytgandek bo'lib chiqmadi. Sodiqning kelayotganini eshitgan Shukurov qisqa bo'ynini cho'zib, oldiniga «mening aravamga shatak kerak emas», deb jo'nab qolmoqchi bo'ldi. Maktab iimiy mudiri javob bermagach, «shu odam ham har narsaga hovlisini sola beradi-da», deb bir oz bo'shashdi. Keyin yana tajanglashdi. Ko'zi urishqoq xo'rozning tojisiday qonga to'idi. Xuddi shuning ustiga Sodiq kirib keldi. Samimiy ko'rishib, endi muloyim gap boshlagan edi, burgadek sakrab tushdi: Sodiq aka, xudo xayringizni bersin, menga otalik qilmang. Har qancha nasihat bo'lsa otamdan olib qolganman.

Yo'q, eshitasan! – dedi qat'iy qilib Sodiq va balanddan keldi:

– Gap yolg'iz sening oilang haqida emas, butun o'qituvchilarning axioqi haqida. Tarbiyasiz kishi boshqani tarbiyalay olmaydi. Axloqdan lof urishi puch.

Shukurov ko'rsa, Sodiq qaltis joyidan oldi, kuch egmaganni so'z egadigan. Birpasda eli chiqqan pufakdek bo'shashib tushdi.

– Shuncha bezibman. Uyda o'tirsam yuragimni birov sandiqqa solib, qulflab qo'ygandek bo'ladi. Xotinimning hatto kulgani ham ko'zimga xunuk ko'rinadi.

– Sen chuchmal gap qilma, – dedi Sodiq uni o'ziga yaqin tutib. Bu hammasi ichkilikning oqibati. Asablargni

bo'shashtirib yubordi. Nima, xotin qo'ymoqchimisan, beshta bolasi bilan-a! Odamlarning yuziga qanday qaraysan? Qadamingni o'ylab bos, bola, jar yoqasiga kelib qolibsana. Er xo'rligi – yer xo'rligidan yomon! To'g'ri bo'lsang, soyang egri tushmaydi, o'zingni oqlama! Axir men seni endi ko'rayotganim yo'q.

Shu keyingi jumla Shukurovning esiga ancha narsani tushirdi: xuddi shunday masala yuzasidan uning tili bir kuygan, garchand maktabdan quvilmagan bo'lsa ham, «o'z xohishi bilan» bo'shab qochgan edi. Mana o'sha unga tanish uzun qo'l hozir ham uning giribonidan tutib turibdi. U bu maktabda yana masala qo'ydirishi mumkin.

Qo'ydiribgina qolmay, o'zi ishtirok etishi, astar-avrasini ag'darib tashlashi turgan gap. Ana shundan keyin u Sodiqni mehribonligi, oilasining g'amini yeganligi uchun emas, undan qo'rqqanidan tilyog'lamalik bilan hurmat qila boshiadi. Aybini bo'yniga oldi, uzr so'radi, gap orasida «yangam ham keliningizga jinday nasihat qilib qo'ysinlar, qush tiliga qush darrov tushunadi», dedi. Lekin qo'yniga kattagina alam toshi solib oldi. Ichida «xaf senimi, to'xtab tur!» deb qo'ydi.

## 10. MIRSALIM MUSHTUMINI TUGDI...

Hamma gap Mirsalimning bir hafta yo'q bo'lib ketishidan boshlandi. Uning ustidan raport ko'tarib kirgan ilmiy mudir: «Bu holva, bundan qiziqdari ham bor» degandek gap qilib, Mirsalim doim direktor qanoti ostida yashab kelganidan arz qildi va «mana endi sizning o'tiningiz bilan kirib, kulingiz bilan chiqib turibdi»ga gap keltirdi. Hech qachon qanoti ostidan bundaylarga panoh bermagan Sodiq uchun bu og'ir gap edi. Demak, Mirsalim uni qora tortib

o'qish tarbiya ishiga putur yetkazyapti. Bu yaxshi emas. Bunga Sodiq murosa qilolmaydi. U Mirsalimning qaytishini kutib, dastlab o'sha ilmiy mudirning o'zi bilan bafurja suhbatlashmoqchi bo'ldi.

Sodiq, «darsdan keyin qoling, ozgina gap bor», deganda sal hurkigan ilmiy mudirning ko'nglidan turli gap o'tdi. U do'sti Mirsalim ustidan arz qilganim achchiq danakdek me'dasiga botmadi shekilli, deb o'yiadi, lekin aytgan so'zidan qaytmoqchi emas, aksincha, butun tafsiloti bilan fosh qilib tashlamoqchi bo'lib direktor oldiga yana kirib bordi. Direktorlik kreslosida o'tirgan Sodiq o'rnidan turib, pastga, ilmiy mudirning yoniga o'tdi.

– Boya gapimiz chala qolgandek bo'ldi, – deya so'z boshladi Sodiq. – Nazarimda, siz Mirsalim akani menga yaqin tutib, ba'zi gaplarni yamiadingiz. Mening u kishiga yaqinligim rost. Men bu shaharga kelganimda qarshimga ilk salom berib chiqqan va odamgarchilik qilgan shu kishi bo'ldi. Hali ham bordi-keldimiz bor. Lekin bu, uni har vaqt himoya qilaman, maktab eshigiga mix qoqib ketsa ham indamayman, degan gap emas. Meni direktorlikka tayinlashganda, allakimiarni panohingda tut, peshonasini sila deyishmagan, deyishmaydi ham, deyishgan vaqtda men maktabni olmas; ham edim. Menga, o'sha yerdagi o'rtoqlar bilan maktabni ko'tar, deyishgan. Siz bilan mening vijdon burchimiz ham shu. Siz bilan biz bir daraxtmiz, husnimiz bo'yimizda emas mevamizda, mevamiz shu bolalar. Demak, shunday ekan, kechagi gapni batafsil gaplashsak deyman, toki Mirsalim akaning nuqsoni gazak olib ketmasa, vaqtida oldini olsak.

Ilmiy mudir Sodiqdan bunchalik gapni kutmagan, o'z do'stini silab-siypab qo'ya qolar, deb o'ylagan edi. U Sodiqning gapini ko'nglida muhokama qildi, muhokama

qilgan sari tuzlangan go'shtni chaynagandek tagidan mazasi chiqib kelardi. Unga qanot bitdi. U ham ochig'iga ko'chdi:

– Mirsalim akaning maktab ishiga yozda qo'li sovuq qotadi! Qachon ko'rsak kimningdir pinjida, tosh bo'lib suv oqqan tomonga dumalaydi. Bir narsa deb bo'lmaydi, direktorning qo'ltig'idan boshini chiqarib iljayardi. Hozir ham kishilar shunday fikrda, kechirasizu, «Sodiq akani uylantirgan to'yboshi ham – shu, direktor qilgan dalolatchi ham – shu» deb qarashadi. Maorifdagilarga ham yuvosh mushuk bo'lib yumshoq surkalgani surkalgan-da! Mavqei pastroqni-ku, knopka qilib bosib yuborishga tayyor!

– Darsi qalay? – dedi Sodiq suhbatni Mirsalimning ishiga burmoqchi bo'lib.

– Darsi kam, sifati miyona. Lekin qachon ko'rsang, ilm do'lana emas, o'zi gullab, o'zi pishsa, u – anjir, parvarish talab qiladi, deb yuradi. Bolalarga baho qo'yishda juda serhimmat. Lekin afsus, baho bilimning mezoni deb tushunmaydiganlardan. Siz kelmasdan sal ilgari ikki bolaning o'ziga emas, otasiga qarab baho qo'yibdi.

– Bu nima deganingiz?

– Otasi o'rtog'i ekan.

– Bu axir... – Sodiqning nafasi siqilib keldi, nafrati uyg'ondi.

– Gap shunda-da! Keyin, ko'p «ishlari chiqib» turadi. Bir-ikki darslariga o'zingiz kirib ko'ring, bo'lmasa, mening gaplarim juda g'iybatga o'xshab ketadi.

– Bu g'iybat emas, ish yuzasidan shunday gaplash-masak, unda nima bo'ladi. Yo'q, siz bemalol gapiravering.

Lekin ilmiy mudir boshqa gapirmadi «mana, men dardimni aytdim, davosini qani, sen qanday topar ekansan», degandek uning og'ziga qarab turdi. Xayriashib chiqish oldida:

– Ko‘plarning og‘zini bog‘laydigan uning dasturxonil  
Ildizi chuqur!– deb qo‘ydi.

Bu gap Sodiqqa «sen ham dasturxoniga uchma» bo‘lib  
eshitildi, ichidan zil ketdi.

Sodiq yana bir nechta o‘qituvchilar bilan suhbat qildi.  
Biri: «Mirsalim aka maktabga dars berish uchun emas,  
ko‘rinish berishga keladi. Darsiga inqillab kirib, bolalardan  
nolib chiqadi. Darsidan boshqa maktab ishini tan  
olmaydi, yozda qo‘lini sovuq suvga urgani erinadi» desa,  
boshqasi esa uni to‘ldirdi. «U kishi toshbaqa emas, tovuq.  
Toshbaqa mingta tuxum qo‘ysa ham indamaydi. Tovuuq  
bitta tuxum qo‘yib olamni buzadi». Yana biri: «Mirsalim  
akaning tili bilan dili bir emas. Yolg‘onni chin, chinni xudo  
urdirib gapiradi. Lekin maishati zo‘r, dasturxonil – qalqoni!  
Maktabdan oladigan bilan bunday yasholmaydi, – dedi.

Sodiq o‘rtoqlarning so‘zi bilan o‘zining ko‘rgan-  
bilganlarini chog‘ishtirdi: ularning gapida jon bor. Jamoa  
uni xush ko‘rmaydi, to‘g‘risi, u jamoaga qo‘shilmaydi, bir  
pog‘ona yuqori yuradi. Shuning uchun uning nuqsonlari  
bo‘rtibroq ko‘rinsa ham ajab emas.

Sodiq Mirsalimdek eski muallimning aravadan tushib  
qolishini istamasdan, turli tadbirlar o‘yiab yurarkan, uning  
kelganini eshitdi. Uyga qaytsa Adolat xola: Mana buni  
Mirsalim o‘rtog‘ing berib yuboribdi – deb oldiga ikkita katta  
sur to‘sh qo‘ydi. Tuzi yuziga tegib, moyi sarg‘ayib ketgan  
to‘sh issiqdan yiltillardi. «Buni mening og‘zimni moylash  
uchun yuborgan, albatta», deb o‘yladi Sodiq va o‘zini  
juda noqulay ahvolda his qildi. Qaytarib yuboray desa,  
onasi bilan Musharrafga nima bahona topadi-yu, Mirsalim  
qanday tushunadi? Olib qolsa, eshitgan quioqqa xunuk.  
O‘qituvchilarning yuziga qanday qaraydi?

Bu orada Musharraf luqma tashlab qoldi:

– Qayoqdan toparkin bunaqa tansiq narsalarni? Tunov kungi qazisini qarang: og‘zingga tushmay eriydi-ya!

Bu luqma Sodiqning tilini bog‘lagan edi: – Bir chetga olib qo‘y, nima qilib bu yerda yotibdi, – dedi ijirg‘anib.

– Ayting, tunov kuni uyida oldimizga qo‘yganiga o‘xshagan qazidan bir-ikkita topib bersin. Keldi-kettiga juda yaxshi-da! – dedi Musharraf sur to‘shni olib ketar ekan. Bu chipqon ustiga darddek, Sodiqdan juda o‘tib ketdi:

– Avval shuni yeb turing!

– Ha, muncha! Keladigan mehmon bitta menikimi? Sizning obro‘yingiz.

– Men obro‘yimni dasturxon bilan emas, mehnatim bilan topaman!

– Mehnat... mehnat... Mehnat bilan topguncha bellaringiz qayishib ketadi. Hozir kishilar serdasturxon, sersovg‘a bo‘lib ketgan. Tunov kuni ham shunaqa deb bir o‘rto‘g‘ingiznikiga tuzukroq sovg‘a qildirmadingiz.

Kishi uyaladi axir, pesh qilganga o‘xshab...

– Yurt-el shunaqa, nimasidan uyalasiz! – dedi Musharraf.

Sodiqning xayolida hamon Mirsalim va sur to‘sh edi. Nega yubordi? «Birdan qaytarib yuborsam, uning hech narsadan xabari bo‘lmasa, ko‘ngliga yomon gap kelib elburundan orani buzib qo‘ymayin. Zo‘r kelsa, haqini oladi, qaytaga qazisining pulini ham qo‘shib beraman!»

Mirsalimning hamma gapdan xabari bor edi. Esini tanibdiki, uning qulog‘i boshqalarning gapigagina emas, o‘zi to‘g‘risidagi so‘zlarga ham ayg‘oqchilik qilardi. U garchand «yaqin jigarim to‘satdan vafot etibdi, yo‘lga chiq, degan telegramma oldim», deb vaj ko‘rsatgan, ketish oldidan xotiniga yaxshilab tayinlagan bo‘lsa ham, masala boshqa yoqda edi. Telegramma olgani va unda xunuk

xabar borligi rost, lekin xabar kishining vafoti haqida bo'lmay, oldini olmasa bir emas, bir necha kishini, shu jumladan, Mirsalimni ham mayib qilishi mumkin bo'lgan tashvishli bir xabar edi. Uning yashirin savdo sheriklaridan biri qo'lga tushgan edi. Uning kasri Mirsalimga ham tegishi, uni munkillatib yuborish xavfi bor edi. Shuning uchun Mirsalim xabar topishi bilan hech narsaga qaramay yo'lga tushdi. Ish ancha chuvalgan edi. Birini aka, birini uka, deb ming eshikka kirib chiqdi, zimdan ish tutdi, mablag' sovurdi. Xullas, o'pqonning oldini oldi, xotirjam bo'ldi. Lekin ish bitgach, qaytaverishga, birinchidan, «bir kelib qolibsiz» deb yoru do'stlari qo'ymadi, ikkinchidan, o'zining ham «oyog'ini bemalol uzatib» uch-to'rt kun maishat qilgisi kelib qoldi.

Uyiga qaytsa, maktabda duv-duv gap. Oldiniga ishonmadi, Sodiqni orqa qildi, u uchun tuzgan dasturxonlarini esladi, keyin bilsa to'g'onning boshida turib, suvni loyqalatayotgan Sodiqning o'zi! Ochiq ko'krak kerib, maydonga chiqishga kuchi yetmaydi. Sodiqdan xafa bo'lishi befoyda, u tepada, bu pastda. U qo'lining tirsagiday, yonida bo'lganida ham baribir tishi olmaydi! Yaxshisi alamni ichga yutish – zaharni dilda-yu, shakarni tilda tutgan ma'qul. Shu qarorga kelganidan keyin, hech narsadan xabarsiz kishidek, ikkita sur to'shni savatchaga solib yubordi.

Uning ishi sal o'ngidan kelmay qolsa, tahorat qilib namoz o'qiydigan odati bor edi. Shuning uchun, ertalabki namoz qazo bo'lganidan peshinga tahorat oldi, ichkari uyga kirib joynamoz ustida uzoq o'tirdi, tilovat qildi. Kechki ovqatni barvaqtroq qildirib, shom bilan xuftonni qo'shib o'qidi. Bu orada o'qishdan qaytgan Aziza radioni qo'ymoqchi bo'lgan edi, diqqinapas bo'lib turgan onasi qaytardi:



– Otang noxush, ertaga qo'yarsan, qizim!

Mirsalim noxushligida uyda qadamlar sanab bosilar edi. Aziza oyoq uchida boshqa xonaga o'tib ketdi.

Mirsalim yon soatini shimining lipa cho'ntagidan olib qaradi. Keyin uzoq fotiha tortib, o'rnidan turdi, joynamozni yig'di. Xotiniga achchiq choy damlatib bir piyola ichdi-da, «bir joyga borib kelaman» deb chiqib ketdi. Ketma-ket Aziza radioni qo'yib yubordi:

– Dadamni shunaqa ko'rsam biram yuragim siqiladiki! Nima qilibdi? Nega xafalar?

– «Ichimni top» dadang aytarmidi! – dedi onasi o'ksib. Aziza onasiga dalda bermoqchi bo'ldi.

– Ha, o'ziari ham unar-unmasga quruq xazondek gurillab yonaveradilar!

Mirsalim Sodiqning eshigini xursand kishidek, dadil qoqdi. Eshikni ochgan Qodir salom berib, ichkariga taklif etdi. Mirsalim Qodir bilan so'rashib, beparvo odamdek gap qotdi:

– Xo'sh, inim, o'qishlar yaxshimi? Qiynalayotganingiz yo'qmi? Nima yangiliklar? – undan javob olmay, hovlida duch kelgan Adolat xola bilan so'rasha ketdi: – Ha, ona, bardammisiz, tetikkina yuribsizmi? Musharrafxon qo'lingizdan ishingizni olib, yayrab qoldingizmi?

– Shukur? O'zinglar tinchmisizlar?

– Shukur! Shukur! Bundoq kelinni boshlab bormaysiz, qadrdonlik shunaqa bo'ladimi?

– Boramiz, vaqti-soati bilan, bolam! Tinch bo'lsanglar bo'ldi!

– Tinchmiz, tinch.

Ularning tovushini eshitgan Sodiq «o'zi ham kelib qoldi-ku» deb ko'ngli allanechuk bo'lganicha, Mirsalimning qarshisiga chiqdi. Mirsalim ancha vaqt ko'rishmay sog'inib

qolgan qadrdonlardek sal bukilib ikki qo'llab ko'rishdi, quyuq so'rashdi. Mezbon ko'rsatgan yerga o'tirgandan keyin kutilmaganda ikki o'rtaga jimlik cho'kdi. Sodiq uni hamma gapdan xabardor deb gumon qilar va so'z boshlashini kutardi. Mirsalim esa, undan eshitmoqchi, hech kim yo'q joyda arz-dodini aytib, yolvormoqchi, lekin ikkala tomon ham gap boshlamadi, Sodiqning boshlash niyati yo'q, masalani maktabda keng muhokama etmoqchi, boshqalarga ibrat qilib, bundan foydalanish istagi bor. Shuning uchun unga masalaning bu yerda ochilishidan ochilmagani ma'qul. O'rtaga dasturxon yozilib, choy kelsa ham gap bu masala tomonga burilmadi. Mirsalim «vafot etgan» qarindoshlarining fazilatlarini aytib, ko'ziga yosh oldi:

– Beshta sag'iri shomdagi chumchuqdek chirqillab qoldi. Xotini o'tli-shudli bo'lsa ham go'rga edi. Topib-tutib turgan eri o'libdi-yu, yig'lashni bilmaydi!

Shundan keyin Mirsalim gapni maktabga aylantirib kelib, Sodiqning nosinashta jamoa bilan ishlashi naqadar og'ir bo'lishini alohida ta'kidladi. Nomini aytmadan ba'zi o'qituvchilarning noshudligidan, ishidan, qilmishidan nolidi. Sodiq gapning keraksiz joyda chuvab ketishidan cho'chib, ularning nomini so'ramadi.

– Sizga nihoyatda qiyin, juda qiyin. Sizni adashtirishlari mumkin. Lekin siz tajribali, ko'pni ko'rgan tadbirli kishisiz. O'ringizda men bo'lsam bormi? Do'stni o'zimga dushman qilib qo'yardim. Siz ziyraksiz, tadbirlisiz, yetti o'lchab bir qirqasiz. Kishining qadriga yetasiz, mehnatni ulug'laysiz. Mana shuningizga qoyilman, qandingizni uring!

– Hali nima ish qilibmiz, qandimizni uramiz? – g'ashi keldi Sodiqning. «Eshitbdi», dedi ichida.

– Yo‘q, unaqa demang. Zoologiya kabinetiga yana uchta eksponat yasab beribsiz, shu kichkina gapmi? Shu vaqtgacha birov qilganmidi? Yo‘q!

– Biladigan odam bo‘lmagan, bo‘lmasa...

– Yo‘q, bilganda ham qilmas edi. Boshqa biladigan ishlaridan nimani qilishdi. Hech...

Sodiq so‘zini bo‘ldi:

– Duradgorlik-chi? Tarix kabineti-chi? Gulzor-chi! Hech biriga pul sarf qilganimiz yo‘q.

Mirsalim bo‘sh kelmadi.

– To‘g‘ri... Lekin sizniki boshqacha. Xuddi tirik bo‘rining o‘zini qilib qo‘yibsiz-a!

Mirsalimning kuyib ketgani yaqqol ko‘rinib turardi, u bir vaqtdagi chaqqon va tadbirli kishiga o‘xshamas, juda sayozlashib qolgan edi.

Maktabda, o‘zi yo‘g‘ida boshlangan gap-so‘zning oldini olish niyatida kelgan Mirsalim shuncha til chaynab ham, murodiga yetolmadi, «shunchaki gap shekilli, tinch yotgan ilonning boshini qimirlatib nima qilaman» degan qarorga kelib, o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

Sodiq uni kuzatib, kabinetiga qaytib kirar ekan, German Gamberi kitobi bilan «Boburnoma»ga ko‘zi tushdi, shu kitoblarning Mirsalimda bo‘lganiga ishonmadi, u bunday kitoblarni o‘qiydigan kishiga hech ham o‘xshamas edi.

– Voy, Mirsalim akam ketib qoldilarmi, savatchalarini berib yubormoqchi edim, – deb kirib kelgan Musharraf erining orqasidan u o‘qiyotgan kitobga ko‘z tashlab, burnini jiyirdi. – Haligi aytganimni Mirsalim akamga tayinladingizmi?

– Nimani? – hayron bo‘ldi Sodiq.

– Siz shunaqasiz, mening gaplarim quiog‘ingizda turmaydi, xayolingiz qayoqda edi? Qazi demadimmi?

«U nima dardda yuribdi-yu, sen nima orzuda» degan fikrni ko'nglidan o'tkazdi Sodiq, gapni qisqa qilish uchun:

– Aytdim! – deb qo'ya qoldi.

Sodiq Mirsalim ustidan tushgan raport va o'qituvchilarning fikrlarini darrov o'rtaga solib naridan-beri bir yoqlik qilib tashlamoqchi emas, o'sha faktlar asosida kuzatish olib borib, keng muhokamaga qo'yish maqsadida arqonni uzun tashladi. Bu gaplardan xabar topgan Mirsalim besh-o'n kun faol bo'ldi, o'zi rahbar bo'lgan sinfning majlisini o'tkazdi, ota-onalarni chaqirib suhbatlashdi, hatto ikkitasining uyiga borib dars tayyorlash sharoiti bilan tanishdi, maktab devoriy gazetasining navbatdagi sonini chiqarishda bosh bo'ldi. Buni ko'rgan ilmiy mudir, «direktor suhbatlashib, tanobini tortib qo'yibdi», deb tushundi, o'qituvchilar orasida «Kesakdan chaqmoq chiqdi» degan ibora tarqaldi. Mirsalimning insofga kelib qolganidan xursand Sodiq, «qani endi bir darsiga kirib ko'ray», deb qo'ng'iroqdan o'n besh minut keyin sinfiga kirdi, bir chetga o'tib o'tirdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, Mirsalim dars o'tmas, sinfni boshiga ko'tarib daftar muqovasidagi suratlar orasidan siyosatga qarshi so'z yoki belgilar qidirtirar edi. Bu ish juda katta ahamiyatga ega narsadek Sodiq kirgandan keyin ham to'xtamadi, balki «mana-mana, men topdim», deb allaqanday belgini ko'rsatgan bolani yelkasiga qoqib, ziyraklikda maqtadi, boshqalarni ham shunday hushyorlikka chaqirdi. Sodiqning ensasi qotib, chiqib ketdi. Qo'ng'iroq chalingach, Mirsalimni kabinetiga takiif qildi.

– Bu qanaqa bo'ldi, Mirsalim aka, bir haftalab darsning qolib ketgani yetmagandek, yana bunaqa bemazagarchilik.

Mirsalim chumchuqdek bir silkinib oldi:

– Bu hushyorlik darsi, o'rtoq Qo'chqorov? – dedi Mirsalim o'zining haqligiga shak keltirmagan kishidek rasmiy ohangda.

– Hushyorlik? Qo'ying bu bema'nigarchilikni! Dars o'ting! Kechagina programma katta, vaqt kam deb nolib yurgan edingiz, bugun...

Sodiqning zardasi qaynab boshqa so'z aytolmadi. Qo'lidagi qalamni stol ustidagi oynaga keti bilan «chiq» etib urib, o'rnidan turdi:

– Shunday bo'lsin, Mirsalim aka! – deb yumshatdi.

Mirsalim, nima, uchundir, bu gal ko'ksiga tushib ketgan boshini arang ko'tarib, eshikdan chiqdi.

Navbatdagi pedagoglar kengashida Sodiq uning kamchiliklarini tilga olib, o'rtoqlik maslahatlari berdi, daftar muqovasidagi suratlar orasidan qandaydir so'z yoki belgilar qidirish hushyorlik emasligini ta'kidlab kuldi, shunda bir o'qituvchi:

– Mirsalim akamning xurofotga qarshi kurash metodlari ham alohida! – deb luqma tashiagan edi, hamma kulib yubordi. Keyin ma'lum bo'ldiki, ro'zada Mirsalim papkasida non olib kelib bolalarga bir tishlamdan berib yurganmish. «Ha, bu nimasi?» deyishsa, «ro'zaga qarshi kurashyapman!» deb astoydil kerilgan emish.

Yorilishi lozim bo'lgan bu yaraning sitilganidan maktab jamoasi xursand bo'ldi. Lekin Mirsalimning boshi egilgan bo'lsa ham cho'ntagida qo'lini mushtlagan, ko'ksida kek uyg'ongan edi. Hammasini Sodiqdan ko'rardi.

## 11. QAYG'U TIZGINIDAGI SEVINCH

O'n besh yil farzand orzusida o'rtangan yurakning o'n oltinchi yili ota bo'lishini bilgandagi sevinchini, hayajonini tasavvur qila olasizmi? Albatta, yo'q. Boshidan kechirgangina biladi!

Musharraf bir kuni Sodiqni juda xursand kutib oldi, yosh qizchalarday erkalanib, qo'lini uning bo'yniga tashladi:

– Bir xushxabar aytsam, nima olib berasiz? Xotining bachkana qiliqlarini yoqtirmagan Sodiq:

– Aytganing! – deb qo‘ya qoldi, ortiqcha parvo qilmadi.

– Yo‘q, otini aytasiz, – yana yopishdi Musharraf.

– Aytganing dedim-ku.

– Rostmi? Aytganim bo‘lsa, yigirma qator yirik dur marvarid olib berasiz. Kechadan beri ko‘nglim nordon narsa tusaydi!

– Rostmi? Rostingni ayt, rostmi? – Sodiqning tili boshqa so‘zga kelmas, ko‘zida yosh yiltillar edi. Sevinch tizzalaridan darmonini zulukdek so‘rib, u bo‘shashib stulga o‘tirdi. Bu dunyoda undan baxtli odam yo‘q edi!

Musharraf homilador bo‘lganidan keyin ochilib ketdi. Jindek bag‘baqa soldi. Oqqa moyil yuzlari tarang tortib, qo‘sh bilaguzukli momiq bilaklari, bo‘g‘in oralari bo‘g‘irsoq, go‘shtdor uzun barmoqlari po‘rsildoq, lablari o‘zga chiroy kasb etdi. Ayniqsa to‘shi tirsillab, har qanday ko‘ylak kiysa ham o‘zining viqorini namoyish qilib turardi. Sodiq Musharrafning butun go‘zalligi va latofatini tug‘iladigan bolada ko‘rar, uning zavqi bilan xushnud, havasi bilan mast edi. Mana shu nozik torning pardalarini Musharraf yaxshi tushunar, unga qo‘l kelgan, uni vaqti-vaqti bilan istaganicha chertib turar, har chertishi esa Sodiqning tinchligini buzardi.

Musharrafning ko‘ngli g‘o‘ra tusagan kundan boshlab Sodiqning tizgini xotiniga o‘tib qolgan edi. G‘o‘radan boshiangan erkalik qo‘sh oltin bilaguzuk buyurtirishga, marvarid xarid qilishga, ketma-ket ko‘ylak tiktirishga, paltoning sonini uchtaga yetkazishga borib yetdi. Oyoq kiyiminingku soni yo‘q. Boshlab «figuramni saqlayman», deb baland poshna oldirdi, keyin «doktorlar aytdi, baland poshna bo‘lmas ekan», deb past poshna tikirdi, «yozlik»,

«qishiik», «uylik», «kishilik», deb yana injiqlik qildi, bu orada «tuqqanimda kiyaman», deb baland poshnali satang amirkon etik ham tiktirib qo'ydi. Tish doktorining «hozir sizning tishingizni arralab bo'lmaydi, bo'shalganingizdan keyin o'zim yaxshilab qo'yib qo'yaman», deb yolvorishiga ko'nmasdan, bitta so'yloq tishini bahona qilib yana to'rttasiga tilla qoplatdi. U bir hafta amirkon tuflisini g'archillatib tanish-bilishiarinikida ko'z-ko'z qilib yurdi. Olma urug'ini ivitib, uning shirasi bilan chekkasidagi kelinlik gajagini qarmoq nusxa qilib yelimiadi... Oy-kuni yaqinlashgan sari uning fe'li-atvorida shu vaqtgacha yashirinib yotgan nuqsonlari ko'zga tashlana boshladi. Bu nuqsonning har biri bir injiqlik, bir ko'ngilsiziik yoki bir ortiqcha xarajat boshlab kelardi. Sodiq aytganiga quloq solmasa, avvaliga «ha, bilib qo'ying, bolangizning qulog'i chinoq bo'lib qolsa mendan emas, o'zingiz men aytgan narsamni olib bermayapsiz», deb erkalana, «xotin homiladorligida siqilsa, kam-ko'stlik tortsa nuqsoni bolaga uradi», deb eshitgan Sodiq qarshilik qilmas, u boshiagan ko'chaga yurib, u ochgan eshikdan magazinga kirdi. Ko'ngli tusagan narsani yedirdi, havas qilgan libosni kiydirdi. Avvaliga havas va zarurat bilan boshlangan bu ishlar keyinchalik zug'umga, dag'dag'aga aylandi. Bunday paytda Musharraf yer tepinar, hali tug'ilmagan bolani ming baloga giriftor qilar, karavotga o'zini otib soatlab yig'lar edi.

Bugun ertalab ham Musharraf nimanidir bahona qilib dili siyohlikni boshiamoqchi bo'lgan edi, Sodiq aytganini og'ziga tutdi-yu, u qayoqqadir chiqib ketdi. Orqasidan hayron qarab qolgan Sodiq onasiga nolidi:

– Bu qanday bo'ldi, oyi!

– Qo'y, jon bolam, xafa qilma! U hozir ikki yo'lning o'rtasida o'tiribdi, – dedi Adolat xola Musharrafning oy-kuni

yaqinligiga ishora qilib.– Aslida «ayb o‘zingda, boshida mahkam tutmading, menga farzand tug‘ib berar ekan, deb og‘ziga qarading, erkalab, suyiltirib yubording», – demoqchi edi, lekin damini ichiga yutdi. Shundoq ham dili vayron bo‘lib o‘tirgan o‘g‘liga rahmi keldi, misol keltirib, insofga chaqirdi:

– Kishi turadigan uyning to‘rt burchagi bor, bolam, ikki burchagidan bol, ikki burchagidan zardob oqadi. Bolidan lazzat ko‘rgan zardobiga ham chidashi kerak, jon, bolam. Hamma Jannat bo‘lavermaydi. Gulni deb, tikanni ham sug‘aradi, kishi. Betashvish uy qayda bor, jon bolam. Ko‘zi yorisa, bola bilan o‘ralashib, tinchib qolar. Qattiq gapirma.

– Keyin ham...

– Yo‘q, jon bolam, hudo xohlasa keyin yaxshi bo‘lib ketadi. Ba‘zi xotin ikkiqatligida shunaqa injiqroq bo‘ladi. Omon-eson qutulib olsin.

Sodiq uning ko‘zi yorigandan keyin yaxshi bo‘lib ketishiga ishonmasdi. Chunki uning tantiq va injiqligi homiladorligidan emas, xarakterida edi. Adolat xola kelinining yonini olib, qanchalik mehribonlik qilmasin, Musharrafning ortiqcha xarajatlaridan xursand emas edi. Shuning uchun sotib kelingan ota hovli pulining cho‘g‘i o‘chishini ko‘rib, «qo‘li ochiq» o‘g‘lidan o‘pkaladi, bu bilan ham qanoat qilmay: «Qodirning hissasini bu yoqqa ber», deb bir qismini olib qo‘ydi. Buni eshitgan Musharrafning joni-fig‘oni chiqib ketdi:

– Dod, kundoshdan battar qaynana dastidan! Kiysam go‘ringa orqalab ketamanmi, o‘g‘lingning obro‘yi! Direktorning xotini bo‘la turib, sarpoychan yuraymi! Bo‘z kiyaymi!

– Bo‘zni siz bilmaysiz, bo‘z nimaligini bizdan so‘rang, jon bolam!



Bu oilaning tinch qo'rg'onidan ilk g'isht ko'chishi edi, keyinchalik g'isht emas, butun-butun devorlari larzaga kela boshladi. Adolat xolaga tushgan ilk og'irlik, keyinchalik Sodiqning bo'yniga ag'darildi. Ikki gapning birida erining noshudligidan, tizginini onasiga berib qo'yganidan, erkak bo'lib orzu-havasi yo'qligidan, ishdan boshqani bilmasligidan, hatto yoniga o'tirsang kitob-daftar hidi kelishidan nolidi.

Musharraf o'lgudek kunchi edi. Bir tomondan qaraganda kunchilikka ham o'xshamas, bu erining yelkasiga minib olish uchun bir bahonaday ko'rinardi. Umrida qizg'anish nimaligini bilmagan, begona xotin bilagini tutmagan Sodiq uchun bu juda alam qilar, aybsiz ayb-langandek vijdonini qiynardi. «Nahot ko'cha ko'rgan xotin ham shunaqa ko'r bo'lsa», deb kufuri oshardi. Sodiqning kech qolishdan yuragi bezillardi. Bugun ham rayon maorifi bo'limida yillik imtihonlarga tayyorgariik masalasi muhokama qilinar ekan, so'zga chiquvchilarning ba'zilari majlisni cho'zib yubordi. Uyni ogohlantirib qo'ymagan Sodiqning yuragi g'ash, tabiati xira edi. Keyingi notiq-larning so'zini deyarli eshitmadi. Undan so'zga chiqishini so'rashgan edi, soatiga qaradi. Qorong'i tushgan dera-zani ko'rsatdi. Majlisning cho'zilgani yetmagandek, maorif mudiri ishi borligini aytib uni olib qoldi. Ishi o'sha majlis-ning davomidek bo'ldi, Sodiqning yangiligini ta'kidlab, hammaga ma'lum yo'l-yo'riqni berdi. Majiisu yo'l-yo'riqdan xunobi chiqqan Sodiq burnidan tortsa yiqilgudek sillasi qurib uyiga yetib kelganida vaqt allamahal bo'lgan, Musharraf qovog'idan qor yog'ib o'tirardi. Uning avzoyini ko'rdi-yu, yana doston boshlanadigan bo'ldi, deb ichkarl uyga indamasdan o'tib ketdi. Yechinib Musharrafning

boshlaydigan «diydiyosi»dan yuragi bezillar, unga o'zicha javob tayyorlar edi. «Ey, tavba, qanday kunga qoldim?» deganicha yemakxonaga chiqib keldi.

– Tuzukroq ovqat qiluvdilaringmi? – dedi stolga o'tirayotib ko'zlari kirtayib ketgan Sodiq.

Sodiq kutganidek erining kech qolishidan ming xayolga borib, har xotinni g'ar, har juvonnini o'ynash tutib o'tirgan Musharraf o'smadan qora ayyor qoshlarini chimirib, bijg'idi:

– Mehmoni qilgan boyvuchcha osh damlab bermadimi?

Bir ochga, bir kasalga tegma degandek, Sodiqning zardasi qaynadi, titrab turib achitdi:

– Mening quchog'imdan chiqib borguncha tagiga olib ketibdi, yeyolmadik.

Musharraf bu achchiq bilan aytilgan gap ekanini bilsada, po'rsildoq lablari ko'karib, to'nini teskari kiyganda Adolat xola kirib qoldi. Uning salobati Musharrafning og'ziga qopqoq bo'ldi-yu, labini qiyshaytirganicha oshxonaga o'tib ketdi. Ovqatni «taq» etib eri oldiga qo'ydi. Lekin Sodiqning ishtahasi bo'g'ilib bo'lgan edi, qo'lini ham urmadi.

–Ol, jon bolam, sovib ham qolgandir. Ishing ko'payib ketdimi, kech qolding bugun?

Sodiq boshi bilan tasdiqiyadi, oshni oldidan surib o'rnidan turdi. Uning gapirishga ham majoli kelmas edi.

«Oh bolalarim-a, bolalarim, umrning qadriga yetmagan bolalarim», deganicha Adolat xola o'z bo'lmasiga kirib ketdi. «Shamol kelini»ning fe'li unga ma'lum edi.

Sodiq shu kuni divanda yotib qoldi. Uning farzand ko'rish sevinchi qayg'u tizginida edi.

## 12. TIRNOQ OSTIDAN KIR QIDIRIB...

Pedagóglar kengashidagi gaplar Mirsalimga o'rma qamchi bo'lib tekkan edi. Uning suyak-suyagigacha zirqirab, uzoq vaqtgacha alamdand titrab yurdi. Bu ishni Sodiql boshiab berganiga sira chidamas edi. «Sodiq kim? Kechagina ko'chini orqalab kelgan kelgindi! Paytava boshga chiqib, bugun direktor. Shunday shahri azimda o'sib-ungan kishilarga aql o'rgatadi, yo'l boshlaydi. Nahot shu yerdan bironta tagi-taxtii, achchiq-chuchuk totigan bir odam topilmas edi! – deb o'ylay boshiadi Mirsalim shuncha soyasiga ko'rpacha solib, qarshisiga peshvoz chiqdim, dasturxon yozib, konyak quydin, baribir «kelgindi»ligiga bordi, qadrimga yetmadi. Yaxshi odam bo'lganingda, xo'p, shu xatolik mendan o'tgan ekan, sekin chaqirib, o'z qulog'imga aytib qo'ya qolmaysanmi? Uyingga-ku katta boshimni kichik qilib egib bordim, gap boshiadim – shu yetmasmidi! Do'st-dushman o'rtasiga olib chiqib nima qilasan, nodon? Sen shoximga oshkor boita ursang, men zimdan ostingga suv quyaman. Mening ham shunaqa yo'llarim borki, bir kuni peshonangga «oh!» deb urganingda bilasan! Mayli, qilmish-qidirmish! Boshladingmi, javobini ham kut!»

Mirsalim ana shundan boshlab Sodiqning iziga tushdi, qildan qiyiq, tirnoq ostidan kir qidirdi. Avval unga Sodiqning Jannat bilan bolasiz bo'lsa ham tinch-totuv yashashi g'ayirlik qurtlarini qimirlatib qo'ygan bo'lsa, endi bir «kelgindi»ning obro'yi orttirib, maktab direktori bo'lib o'tirishi, kundan-kun mavqei oshib borishi, yo'lidagi xascho'plarni berahmlik bilan sidirib tashlashi uning g'ashini nafratga, alamini g'azabga aylantirar edi. U payt poylab; chalishni mo'ljallab, zahrini dilida, shakarini tilida olib

yurdi. Tashqaridan ko'rgan odam bu ikki do'st orasidan qora mushuk o'tganini payqamas edi. Sodiq esa, bu gaplarga ish yuzasidan bo'ladigan tanqid deb qaragan ertasidan unutilib, boyagi-boyagicha muomalada bo'lib ketavergandi.

Buni Mirsalim o'zicha tushunib, birinchi bosqichi o'tdi, endi ikkinchisiga zamin hozirlayapti, deb hadiksirab yurdi; o'zicha tadbirlar ko'ra boshladi. Zarur topgan bir-ikki idoraga Sodiqning «ishlari»dan anonimka yozdi, haddi siqqan kishilar orqali turli mish-mishlar tarqatib turdi. Maktab ishiga boshi bilan sho'ng'igan bo'lib, Sodiqning qadamini sanaydi, har so'zidan boshqa bir ma'no izlaydi. Sodiq tashabbus ko'rsatib boshlagan har ishning oxirida «voy»i chiqishini to'rt ko'z bo'lib kuzatar, ketidan quvardi, lekin «pichoqqa ilingudek» tuzuk narsa qo'liga kirmas, bu esa uning battar jahlini» chiqarar, asabini qaqshatar edi. Ammo Sodiq bilan avvalgidek ahilga o'xshar, uni ba'zan uyiga taklif ham qilib turardi. Aslida uning munosabatida qori ketib, muzi qolgan edi.

Bahor chiqishi bilan Sodiq boshlagan tashabbuslardan biri maktabning orqasidagi bekor yotgan, kattagina maydonni obod qilish bo'ldi. Botanika muallimni chaqirib: «Tajriba bog'i qilsak qalay bo'larkin? degan edi, u «qani edi!» deb yashnab ketdi. Bu fikr shu vaqtgacha o'zining xayoliga kelmaganidan sal xijolat tortgandek ham bo'ldi. Shanbalik qilib boshiangan bu ezgu ish jamoaning qo'llashi bilan yaxshi natija berdi. Maydonga turli meva ko'chati, xonadonlarda kam bo'ladigan gul va chechaklar ekildi, tajriba stansiyasidan nozik dekorativ o'simliklar keltirildi. Bolalardan navbatchilar tayinlanib, har sinfga uchastka bo'lib berildi.

Bu harakatni eshitgan Mirsalim «Zora bir narsa chiqib qolsa», degan umidda hovlining burchida zang bosib yotgan ketmonini naridan-beri tozalab, ish boshiga keldi.

– Keling, Mirsalim aka, – dedi Sodiq va yonidan joy ko'rsatdi. – Shu yerga bir juft anjir ekamiz.

«Anjir» so'zi Mirsalimning «ilm do'lana emas, o'zi gullab, o'zi pishsa, u anjir, parvarish talab qiladi» degan o'z so'zini yodiga tushirdi. Tushirdi-yu, xayolini allaqayoqlarga bevosh yetaklab ketdi: «Demak, Sodiq mening payimga tushgan, yana ish chiqarmoqchi, aks holda shu vaqtda menga anjirni pisanda qilmagan bo'lardi».

Mirsalim avaylab yurgan yarasini urib olgan kishidek bo'lib ketdi va hech narsa demasdan Sodiq ko'rsatgan yerga chuqur qaziy boshladi. Vaholanki, Sodiqning xayoliga hech qanday fikr kelmagan, chindan ikki tup anjir ekish mo'ljallangan edi. O'sha ikki tup anjirning bittasini keltirib, o'zi tayyorlagan yerga sal yonboshlatib o'tqazdi, ikkinchisini Mirsalimga uzatdi: Bu sizga!

Sodiq ikkita g'ishtni ustma-ust qo'yib o'tirdi, bir kaft nam tuproqni olib qo'lida ezg'iladi, undan bahor hidi kelardi. Hashar qaynab turgan atrofiga qaradi: har jonda bir uyg'onish, bir zavq. Bahor har qalbga kirib borgandek, bahor havosi yoshlikni esga solgandek yoqimli va yumshoq. Endi bo'rtgan kurtaklarning ko'rki bir olam. Bir juft qaldirg'och osmonda charx uradi: «Yur, biz bilan binafsha ko'zi miltillagan bog'larga, chuchmoma, lola kekkaygan qirlarga, malla rang soch bo'ylariga!» degandek, xuddi boshining ustida vijirlaydi, allaqayoqlarga uchib ketib yo'l ko'rsatgan bo'ladi.

Sodiqning bahor zavqiga mast xayolini maydondagi yuqori sinf bolalarining qiy-chuvi buzdi. Ular nimanidir talashar edilar. Sodiq yetib bordi. Maydonning chetida

qachonlardir otxona vazifasini o'tagan eski bostirma bo'lib, uni buzish mo'ljallangan edi. Buzishayotib uning bir burchida qaldirg'och uyasini ko'rib qolishibdi. Bir shaddodrog'i:

– Hech narsa qilmaydi, boshqa joyga qurib oladi uyasini, – desa, boshqasi:

– Uvol! Shuncha mehnat sarf qilgan! – deb qarshilik bildirardi.

– Bahorni yomon ko'rgan odam qaldirg'och uyasini buzadi! – dedi bir bola va «mening qo'lim bormaydi» degandek ketmonini bir chetga uloqtirdi.

Bolalarning kuyib-yonib tortishuvlariga zavq bilan quloq solib turgan Sodiq shoir tabiatli bola bilan yana birining yelkasiga qo'lini qo'yib kuldi. Ularning fikrini quvvatladi:

– To'g'ri, bahorni yomon ko'rgan qush uyasini buzadi!

– Gulxonani qayerga quramiz bo'lmasa? – dedi boyagi shaddod bola hayron bo'lib. Uning kuyganicha ham bor edi. Bu nuragan bostirmanini olib tashlab, o'rniga xonaki gul va giyohlar uchun joy qilish mo'ljallangan edi.

– Bizning gulxonamiz shahrimizning general planida yo'q. Narigi tomonga olib qursak ham bo'ladi, – dedi Sodiq kulgiga olib, g'olib chiqqan tomon chapak chalib quvondi.

Bularning barchasidan xabardor bo'lib turgan Mirsalimning yuragi ezilib ketdi: «Bir parrandaga rahmi keladi-yu, meni shu qaldirg'ochcha ham ko'rmaydi, tinchimga chang solgani solgan!». Shunda yana bir boshqa qabih fikr xayoliga keldi. «Ha-ha, – dedi ichida u, – nima uchun qaldirg'och uyasini buzdirmaganingni bilaman. U Makkadan kelgan! Bolalar o'rtasida dinni yashirin tashviqot qilyapsan». Xuddi shunday, deb bir idoraga yozishni ko'ngliga olib qo'ydi.

Mirsalimning qora niyatidan xabari yo'q Sodiq uning yonidan o'tar ekan:

– Shunday ajoyib qushning uyasini buzishmoqchi-ya, bolalari tushkur! – dedi.

– Makka qushi deng! – deya tegishgan bo'ldi Mirsalim, maqsadi esa «Makka» so'zini odamiar og'ziga tushirib qo'yish, kerak bo'lganda Sodiqqa to'nkash edi.

– Gap Makkadanmi, boshqa yoqdanmi kelganida emas, umuman, bolalarda parrandaga mehr uyg'otish kerak.

Tushlik juda ko'ngilli o'tdi. Har kim olib kelgan narsasini o'rtaga tashlab, boqqa tok ochishga chiqqan bog'bonlardek yayrashib o'tirib, tamaddi qilishdi.

– Ikrom otamni charchatib qo'ydik! – dedi bir yosh o'qituvchi qarshisida terlab tamaddi qilayotgan kekxa o'qituvchiga tegishib.

– Otamiz, chinor, – dedi u kishining ko'nglini ko'tarib Sodiq. – Ming yil yashagan chinorlar ham har yili bir barg yozib, ildiz otadi. Ikrom otamku...

Boshqa biri uning so'zini bo'ldi.

– Otamning iliklari to'q.

– Siz chiqmasangiz ham bo'ladi, devdim, yo'q, rozi bo'lmadilar! – deb gapga aralashdi ilmiy mudir.

– Bir ezgu ish qilib, kayfini surish ham o'zi bir davron, bolam! – dedi Ikrom ota, o'z ishidan mamnun ekanini bildirib.

– Shu gapdan keyin bir kekxa bog'bonning hikoyasi esimga tushdi. Ko'nglinglarga olmasanglar aytib beraman, – dedi Sodiq piyolasidan so'nggi qultum choyni ho'plab.

– Aytib bering, Sodiqjon, do'string achchiq so'zidan nodon xafa bo'ladi!

Ikrom otaning bu xolis so'zi «ishtonsizning cho'pdan hadigi bor» degandek, Mirsalimga tegib ketdi, ichida «menga kesak otmagan sen sassiq chol qoluvding», deb tishini tishiga bosdi.

– Shunaqa bahor kezi ekan, – gap boshladi Sodiq.  
– Soch-soqoli oppoq bir mo'ysafid ko'chat o'tqazayotsa, og'ziga kuchi yetmagan bir boyvachcha o'tib qolibdi.

– Ota, qariganingizda ko'chat ekyapsizmi? – dedi.

– Ha, yaxshi nav edi.

– Hali mevasidan ham umidvorman deng!

– Bo'lmasam-chi!

Mo'ysafidning javobi boyvachcha yigitning ensasini qotirib, jahlini chiqaribdi, ichida: «Nahotki shu munkillagan chol ko'chati meva berguncha yashasa» deb o'ylabdi-yu, boyvachchalarga xos g'urur bilan otani mensimay: Shu ko'chatingizning mevasini o'zingiz totisangiz xotinim taloq bo'lsin! – debdi va otiga qamchi bosibdi. Bechora chol orqasidan «hoy-hoy bolam, qasam ichma!» deganicha qolaveribdi. Yillar o'tibdi. Ko'chat ulg'ayib hosilga kiribdi, mevasining dong'i atrofni tutibdi. O'sha boyvachcha yigit bu bog'ning ta'rifini eshitib kelibdi. Qarasa, o'sha munkillagan chol hali tirik, yigitni tanimabdi, oldiga dasturxon yozibdi, mevã uzibdi.

Takabbur yigit mevadan totib turib:

– O'zingiz ham oling, ota, taom egasi bilan shirin, – debdi.

– Yo'q, bolam men yeyolmayman.

– Nega? Sabab?

– Sababi shuki, – debdi chol, – shu mevaning ko'chatini o'tqazayotgan yilim bir yigit o'tib ketaturib «mevasini yeyishga umringiz yetsa xotinim taloq bo'lsin», degan. Shu yigitga jabr bo'lmasin deb yemayman, bolam.



– Olavering, ota, o'sha yigit men bo'laman. Uyga borib xotinimni qayta nikohlab olaman! – deb uzr so'ragan ekan. Shunaqa, birodarlar, ko'chat kishini umrini cho'zadi. «O'limni o'ylagan imorat solmaydi» degandek, noumid kishi ko'chat o'tqazmaydi.

Hammaga yoqqan bu ibratli hikoya Mirsalimga yana bir fakt bo'ldi: «Yoshlarga taloq haqida axioqsiz hikoyalar aytib beradi!»

Mirsalim bunday ikir-chikirlarni yashirin imzo bilan yoza berib charchadi, qarasa sezilarli natija yo'q. Kuta berib toqati toq bo'ldi. Bu orada Musharrafning ko'zi yorib, Sodiqning boshi osmonga yetdi!

Shu o'tda yonib butun yozni o'tkazdi. Imkon boricha Sodiqning soyasi bo'lib, ajralmasiikka urindi, u bilan bir-ikki ovga ham chlqdi, o'zi boshlab qishloqdagi do'stlarinikiga mehmonga olib bordi. Nimaiki, sal qaltis yoki qaltislikka bursa bo'ladigan so'z og'zidan chiqsa, yoki voqea bo'lsa qog'ozga oldi, qo'shdi-chatdi, «material»ga aylantirdi. Baribir bular uni qanoatlantirmas, kuya bo'lib yemirish emas, gurzi bo'lib boshiga tushishini, qoqintirishni emas, umbaloq oshtirib yiqitishni – orzu qilardi. O'ylab-o'ylab uning xatti-harakatidan ko'z-qosh chiqarish emas, to'g'ridan-to'g'ri tuhmat qilishga jazm etdi. «Oldini olmasam, bu la'nati, orqamga qoqib turib, ketimga tepganini ham bilmay qoladiganga o'xshayman. Yo'q, u tepgunicha, men uni qulatishim shart!» – dedi Mirsalim o'ziga-o'zi va bunga qattiq kirishdi. Bunga Musharraf juda qo'l kelardi.

Ming bor reja tuzib, Musharrafning yo'lini poyladi. Shu kunlarda o'zicha turli xayollarga borib, har tanish xotinni eriga o'ynash tutib, fig'oni osmonga chiqib yurgan Musharraf Mirsalimning so'ziga bo'ynini egib, quloq soldi.

Ilonning oyog'ini sanagan Mirsalim uzoqdan sipolik bilan aylantirib kelib, dedi:

– Birinchi xotinini qo‘yib, seni olgan, seni qo‘yib, boshqasini ololmaydimi! Hozir oshig‘i olchi turgan payt: o‘n yetti yasharga sovchi qo‘ysa yo‘q demaydi, xudo haqi yo‘q demaydi! Bola ham ko‘ziga ko‘rinmaydi. Hali kech emas, oldini ol... Bu beparvoligingda undan ajralib, ikki qo‘lingni burningga tiqib qolasan.

Mirsalimning so‘ziga laqqa uchgan Musharraf shoshib qoldi:

– Qanday qilib?

Mirsalim jo‘rttaga o‘ylab qoldi. Juda mushkul ishdek manglayini ishqaladi.

Eringni unaqa-bunaqa kuch egolmaydi. Maktab, maorifga borib yurishingning foydasi yo‘q. To‘g‘ri raykomga kir. Bo‘lgan, bo‘layotgan voqeaning hammasini ayt, yaxshiroq ta‘sir qilish uchun bir oz qo‘shib-chatsang ham bo‘ladi. Nimaki desang – foydang. Tezda qayirib berishadi.

– Rostdanmi? – dardiga davo topgandek Musharraf yashnab ketdi. Keyin birdan ikkilandi:

– Tag‘in...

Mirsalim uning nima demoqchi ekanini darrov fahmlab, gapirtirgani qo‘ymadi:

– Bu yog‘idan xotirjam bo‘l, hech narsa qilmaydi. Shunaqa qilib, erini qayirib olgan qancha xotinlarni bilaman. Mana, meni aytdi dersan keyin xursand bo‘lasan. Keyin evaziga... – Mirsalim shilqimlik qildi. Musharrafning yuragiga bunaqa gaplar sig‘mas edi, uning engagiga cho‘zgan qo‘lini qayirib tashladi.

– Muncha, – dedi Mirsalim o‘tgan kunlarni eslab, – endi begona bo‘lib qoldikmi?!

Mirsalim niyati buzilib kelayotgan bo‘lsa ham, hozir mavridi emasligini eslab, asl maqsadga qaytdi.

– Birdan-bir yo‘l shu – raykom. Yana o‘zing bilasan. Er menga emas, senga kerak. Undan ajrab qolsang, bunaqa erni endi tushingda ko‘rasan.

Musharrafning nazarida, Sodiq uni halizamon tashlab ketib qolayotgandek bo‘ldi. Oldini olishi shart bo‘lib qoldi, hayitdan keyin xinani achangga ber!

Musharrafning laqqa tushganini ko‘rgan Mirsalim unga yo‘l-yo‘riq berdi, hatto raykomga gapni nimadan boshlab, qanday tamom qilishgacha hammasini uqtirdi.

Musharraf ertasigayoq Mirsalim aniqlab bergan soatda sekretarning eshigini qoqdi. Zarur ishi bo‘lishiga qaramay sekretar ko‘zida yosh bilan kirgan bu ma‘yus xotinni qabul qildi, hatto kreslosidan turib kelib, uning ro‘parasiga o‘tirdi:

– Keling, singlim? – dedi sekretar «arzingizni eshitishga tayyorman» degan ma’noda. Musharraf o‘pkasi to‘lib turgan kishidek entikdi, burnini tortdi, pastga engashib ko‘z yoshini artgan bo‘ldi.

– O‘lar bo‘lsam o‘ldim, turmush shunaqa bo‘ladigan bo‘lsa toq o‘tganim yaxshi. Na uyquda, na yegan-ichganimda halovat bor; qo‘lim kosov, sochim supurgi. Eshikda oyog‘i tovushini eshitsam, azroil kelayotgandek dir-dir titrayman. Gap eshitmagan soatim, kaltak yemagan kunim yo‘q.

– Eringiz kim? Qayerda ishiyaydi?

– Voy, siz bilasiz, deb o‘yiabman. Sodiq Qo‘chqorov, 113-maktabning direktori. Men ikkinchi xotiniman, baxti qaro bo‘lmasam xotin qo‘yganga tegamanmi! Avvalgi xotini bechora ham qonzardob yutib o‘tgan ekan.

Sekretar stolidan qog‘oz olib, nimalarnidir yozib qo‘ydi, keyin so‘radi.

– Siz o‘zingiz ishlaysizmi?

– Ishlardim, kutubxonada ishlardim. Ishlatmay qo‘ydi: «Chiqqanimda choponimni tutib, kirganimda qo‘limdan olib tursang bo‘ldi, qachon xotindan payg‘ambar chiqibdi!» – dedi.

Sekretar «himm» deb yana nimadir yozdi qog‘ozga. Buni ko‘rgan Musharraf yana labi-labiga tegmay bidirlab ketgan edi, sekretar to‘xtatdi:

– Tuzuk odam deb eshitgan edim-ku, uni... – dedi sekretar, xayol surgan kishidek.

– Tashqariga shodu xandon, bir-ikki ko‘rgan odam ichini bila qolmaydi. Men o‘lgur ham, shunaqaligini bilmanman, shirin so‘ziga uchib, mana endi bosh urgani joy topolmay, yoshimni oqizib yuribman.

Sekretarning ishi tig‘iz bo‘lsa kerak, soatiga qarab, irg‘ib o‘rnidan turdi.

– Xo‘p, singlim, siz boravering, bu yog‘ini o‘zimiz gaplashib qo‘yamiz, turmushingiz yaxshi bo‘lib ketadi, xafa bo‘lmang.

Musharraf yana «o‘lar bo‘lsam o‘ldim!»ni takrorlab eshikdan chiqdi.

Bu ig‘voning zahri Sodiqqa bir haftadan keyin bilindi.

Bu vaqtda Sodiq yuqori sinf bolalari bilan shahar chetidagi kolxozda paxta terar edi. Bir hafta burun shivalab o‘tgan yomg‘ir va ketidan boshiangan sovuq paxtakorlarni shoshirib qo‘ygan, shaharga yordam so‘rab, iltimos qilishga majbur etgan edi. Sodiq har yilgiday bolalarni muallimlarga qo‘shib chiqarishdan ko‘ngli tinchimay, o‘zi olib chiqdi. Ularni issiq joylarga o‘rnashtirdi, kolxoz rahbarlari bilan gaplashib issiq- sovug‘ining g‘amini yedi.

Shu kunlarning birida «tuman rahbariyati shahardan chiqqanlar hayoti bilan tanishib yurganmish» degan gap tarqaldi. Ertasiga Sodiq o‘quvchilar bilan hasharga

chiqqan kolxozga keldi. Bolalarning turgan yerlarini, tergan paxtalarini ko'zdan kechirgach, Sodiqni qo'ltiqlab bir chetga olib o'tdi. Sodiq uning xatti-harakatlaridan xavotir olmasa ham, sekretarning bugun o'zi bilan avvalgidek ochilib so'rashmaganidan, qovog'i soliqroq yurganidan hayron bo'ldi, «charchagan bo'lsa kerak» deb o'yiadi, parvo qilmadi. Lekin sekretarning qovog'i soligligining siri ular bir chetga o'tgandan keyin ochildi. Sekretar gapni aylantirib kelib, Musharrafning arziga shama qildi.

– Hech narsa tushunmayapman, o'zi nima gap? – dedi Sodiq hayron qolib.

– O'zingizni go'llikka olmang, o'rtoq Qo'chqorov, hech ham yarashmayapti. Sizdan buni kutmagan edik! Yaxshimas! Yaxshimas! Tarbiya o'chog'ining boshidasiz-a!

Sodiqning o'limdan xabari bor, lekin bu tuhmatdan xabari bo'lmaganidan kaltaklab tashlangan kishidek gangib qoldi.

Sodiq kutilmagan bu zarbadan shunday holatga keldiki, sekretarning xayrlashgan-xayrlashmaganini keyin o'yiab, eslolmadi. Barchasi mudhish tushga, oxiri yo'q tushga o'xshar, undan hech uyg'onib ketolmayotgandek qiynalardi. U juda shoshib qoldi. «Nahotki Musharraf ustimdan arzga chiqqan, tuhmat qilgan bo'lsa!» deb o'yladi.

Sodiqning Musharrafdan shubhalanishga qittay o'rni bor edi. U Musharrafning ko'zi yorigandan keyin kishining g'ashini keltiradigan bachkana harakatlaridan qayirish maqsadida bir-ikki koyigan, to'g'risi, maslahatlar bergan edi. «Nahot shu xolis niyatim Musharrafga mushukning junini teskari silagandek yoqmaganu, kovushini sudrab arzga chiqqan bo'lsa!» – Musharrafning bunday tuhmatlar bilan rayon partiya komitetining sekretariga chiqishi

hech miyasiga sig'mas edi. – «U bo'lmasa kim bo'ladi? Sekretar ichidan to'qimaydi-ku»

Sodiq kechgacha gangib, qilar ishini bilmay yurdi, muallimni deb, boshqani cha'qirdi, idoraga deb, xirmonga ketib qoldi. Axiri bolalar daladan qaytgach, ovqatlarini yedirib, shaharga tushib chiqmoqchi bo'ldi. Ammo saldan keyin bu fikridan qaytdi. Bugun tushib borsa yaxshi emas, alamdand yonib turibdi. Jahl ustida xotinini xafa qilib qo'yishi mumkin. Buni u istamas, lekin masalani ochdi qilishi kerak. Hozir esa, asabim bardosh berolmay qoladi, deb qo'rqardi u. Ana shu narsa uni yo'ldan qaytardi, bir-ikki kun obdon tanasiga o'ylab, Musharrafga qanday qilib bildirishning silliq yo'lini topishga qaror berdi. Itining fe'li egasiga ma'lum bo'lgandek, Musharrafning payrahadek gurillab yonib ketishini u yaxshi biladi, axir.

Uchinchi kuni Sodiq uyiga tushdi. Eshikdan kirib borishi bilanoq hammasi ko'ziga yozib qo'yilgandek xotining ko'ziga boqdi. Qay ko'z bilan ko'rsinki, unda hech qanday o'zgarish yo'q edi: Musharraf erining yuzidagi bezovtalikni payqab:

– Tinchlikmi? – dedi. Bu shundoq ham o'z harakatidan xijolat tortib turgan Sodiqni yolg'on gapirishga majbur qildi:

– Kecha sal tobim qochdi.

– Shamollagansiz. Issiq kiyinib keting demadimmi! Doktorga ko'rindingizmi?

– Ha, dori berdi, bugun tuzukman, – oxirigacha yolg'on gapirishga qaror qildi. Ammo yolg'on cho'zilib ketsa uddalolmasligini bilib, o'g'li Maratni qo'liga oldi, lo'ppi yuzlaridan o'pdi, «meni sog'indingmi, o'g'lim?», deb unga gap qotdi. Bola ham dadasining gapiga tushungandek baliqnikiga o'xshagan tishsiz og'zini ochib kuldi, talpindi. Arzanda o'g'lining bu shirin qiliqari ham uning xayolidan

mudhish tushga o'xshagan lavhani chiqarolmas edi. U hamon xotining har bir harakatini kuzatar, ko'nglida «u hali meni bexabar, deb bilsa kerak» degan fikrda edi.

Erining bevaqt kelganidan tashvishlangan Musharraf qaynanasining «suyuq ovqat qiling, tanamiz yayrab ichaylik» deb qaynattirgan ovqatini oshga aylantirmoqchi bo'ldi.

– Barvaqtroq kelganingizda ikki qozon osib yurmas edim! – deb o'pkaladi Musharraf.

– Borini qaynataver! O'zi nima edi?

– Suyuq. Moshxo'orda. Oyimlar qatiqlab ichaylik, degan edilar. Rayhon ham kertib qo'yganman.

Sodiq toshkentlik bo'lmasa ham moshxo'rdani yaxshi ko'rar, hatto ariqqa solib qo'yib, sal achitib ichardi. Shuning uchun oshga aylantirishga rozilik bermadi.

Ovqat o'tdi. Musharraf choy damlab kelib, piyolani uch marta chayqab tashlagandan keyin, quyib eriga uzatdi. So'ngra «konsert vaqti bo'libdi» deb radio qulog'ini buradi. Yig'lagan bolasining og'ziga ko'krak solib o'tirib, radio tingladi. Konsert tamom bo'lgach, uni past qilib, Maratni Sodiqqa uzatdi:

– Bor, dadangga borib turgin, o'g'lim, dadang ertaga yana ketib qoladilar, gaplash, nimalar ko'rib keldingiz, degin. Men qozon-tovog'imni yuvib olay, – dedi Musharraf va: «Erim xabar topibdi» degan o'y bilan tilyog'lamalik qildi: «Nega odamga bunaqa qilib qaraysiz! Bunaqa odatingiz yo'q edi-ku, yo jinday tortib kelganmisiz?»

Chindan ham Sodiq xotinidan ko'zini olmas, qalbini o'rtab yotgan gumoniga dalil qidirar edi, ilojini topsa, yuragiga nazar tashlashga ham tayyor edi.

U o'g'lini qo'lga oldi. O'g'li qo'lida-yu, xayoli sekretar-ning ta'nalarida edi. «Ajabo! Hech qanday belgi yo'q-ku!

Nahot Musharraf shunday ustalik bilan bu rolni o'ynayaptiki, men uni payqab ololmasam! Mumkin emas!» – deb o'yladi va xotini oshxonadan kelgandan keyin, tasmollab bir-ikki tosh otib ko'rdi. Bundan ham bir ish chiqmadi. Lekin xotiniga oshkora aytib, podadan oldin chang chiqarishni lozim topmadi. Bir oz sabr qilishga, ipning o'zi chuvalab qolishini kutishga qaror qildi.

Musharraf esa, go'yo hech narsadan xabari yo'q kishidek, og'zidagi «Buxoriy» saqichni qarsillatib chaynar, Sodiqning «qo'y, uyat bo'ladi» deyishiga kulib «tishni tozalaydi, buvalarimizdan qolgan tish cho'tkasi», derdi:

Lekin Mirsalim sekretarning Sodiq bilan qilgan ko'ngilsiz suhbatidan xabar topgan, bu ishi samara bera boshlaganidan quvonib, bag'riga shamol tegib qolgan edi. Sekretar orqali qilingan tazyiq yuqoridan tushgan musht, endi ostidan ham suv quyishi zarur edi. Buni Mirsalimning o'zi boshladi. Paxta terimi vaqtida qolib ketgan darsiarni qanday qilib o'tishga bag'ishiangan pedagoglar kengashida so'zga chiqdi. Direktorni bolalardan kam xabar oldi, shu payt ichida maktabda ham intizom susayib, davomat pasayib ketdi, paxtadan qochgan bolalarga chora ko'rmadi, deb aybladi.

– Direktorimizning bir oyog'i u yoqda, bir oyog'i bu yoqda bo'lib, oqibat yaxshi bo'lmadi. Biz paxtadalgimizda to'qqizinchi sinfdan bir qiz erga uzatilibdi. Bunga boshiab direktor, qolaversa, biz aybdormiz. O'qishni bitirgandan keyin tegsa, boshi tuynukdan chiqib ketmas edi.

Majlis oxirida Sodiq o'z adresiga aytilgan so'zlarni samimiyat bilan qabul qildi, jamoani o'ziga yordam berishga chaqirdi. Lekin u Mirsalimning shuncha gapni dadil aytganiga ajablanardi. U shu maktabga kelganidan beri Mirsalimning tik turib, jur'at bilan aytgan ilk tanqidini



eshitishi edi. Bundan quvondi, demak, kishilarda tashabbus, jonkuyarlik uyg'onib kelyapti. Bu yaxshilikka!

Lekin o'zi haqidagi yaxshi fikrni Mirsalim Sodiq bilan birga qaytayotganda uch pul qildi.

– Ko'nglingizga olmaysiz-da, Sodiqjon, – dedi u, – ishning nafini ko'zlab bir oz tovoningizni bosib qo'ydim, ibrat bo'lsin, dedim.

– Juda to'g'ri qildingiz. Har kim o'z aybini bilsa qorni yorilib o'ladi, degan gap bor. Ko'rsatdingiz, mana endi ko'plashib tuzatamiz.

– Shundayku-ya... lekin ba'zilar tanqidni noto'g'ri tushunishadi. Qani hamma ham sizdek oq ko'ngillik bilan qabul etsa... Do'stning yuziga tanqid qilmaslik, raqib bo'lib cho'ntakda musht ko'rsatish bilan barobar,– dedi katta bir ishni boshlab bergan kishideq, bir yo'sinda Mirsalim. Lekin uning bir ko'zi: «Sen mening tinchimni buzding, oromimni olding. Izingga tushganim-tushgan!» – desa, bir ko'zi: «Boshliqlarni tanqid qilish arslonni o'pishga o'xshaydi, dahshati ko'p, rohati yo'q!» – derdi. Tun bo'lgani uchun Sodiq uning ko'zlarini ko'rmas, g'arazli fikrlarini uqa olmas edi.

Muyulishga borganda quyuq xayrlashishdi, hatto Mirsalim «oyim bilan kelin poshshaga salom deng, o'g'ilchani o'pib qo'ying!» – dedi.

Sodiq minnatdorchilik bildirdi.

Bu xilda sustkashlik ko'rsatib boraversa, erta-indin Sodiq yana sopqonga olib shunaqa otishi mumkinki, unda yo o'nnglanib oladi, yo yo'q. Nima qilish kerak? Bu mushkul savol edi. Bu mushkul savolning javobida yonib yurar ekan, birdan Faxriddin Shukurov esiga tushdi. Past bo'ylik, oqsariqdan kelgan bo'lsa ham zardasi tez Shukurov aravaga endi kirgan otdek o'ynoqlab, har

tomonga o'zini urib, nima qilishini bilmay yurardi. Mirsalim uni uchratib, qo'yniga qo'lini soldi, peshonasini siladi, «o'zingni o'tga, suvga urma, akasi, buning yo'li bor», dedi, etaklab ketdi. Bunday paytda kishining ko'ngli bir og'iz iliq so'zga muhtoj bo'ladi. Shu iliq so'zni Mirsalimdan eshitgan alamdiyda Shukurov oidi-ketini surishtirmay uning yetovida bo'ldi-qoidi. Mirsalim uning etini asta-sekin o'ldirib borib ishonchiga kirdi, dardkashiga aylandi. – Peshonamiz sho'r bo'lmasa, – dedi bir kuni unga, – bir kelgindi to'rga chiqib, siz bilan biz poygakda qolarmidik!

– Ana shunisiga men ham chidamayman! – deb yubordi to'lib turgan Shukurov.

– Balli! Lekin nolish bilan ish bitmaydi. Buning yo'li bor.

– Yo'li bor? – kosovi qisqalik qilib turgan Shukurov bit ko'zlarini hamsuhbatiga tikdi.

– Men uning ko'p sirlarini bilaman. Qalinlik paytlarimizda kayf aralash og'zidan g'ullab qo'ygan. Lekin mening bir o'zim bilganim kifoya emas. Ba'zilarni siz ham ko'rib yuribsiz, masalan, yaxshi o'qituvchilarni quvg'in qilyapti. Ilgarigi maktabida xotin-qiziar ozodligiga qarshi chiqqan, ataylab yosh qiziarni erga berdirib yuborgan ekan. Bu nima degan gap? Bu siyosatga qarshi ig'vo.

– Bo'lmasam-chi! – laqqa tushdi to'lib turgan hamroh.

– Eshitishimcha, o'z shahrida bular bir nechta bo'lishgan. Ish chuvaladigan paytda bu yoqqa qochgan. Bu yer serodam-da, to'daga aralashib ketaman degan. Ko'rib turibsizki, yana o'sha g'ayriqonun ishini qilyapti.

– Xo'sh, endi nima qilamiz deysiz!

– Fosh etish kerak. Bu burchimiz axir.

Bit ko'z Shukurov «qanday qilib?» degandek ko'zini lo'q qilib oldi. Mirsalimga ayni shu narsa kerak edi.

– Albatta oshkora qarshi chiqib bo'lmaydi, uning yiltiroq so'ziga ishonganlar bizga gap bermaydi. Buning bitta yo'li bor – zimdan ish tutish.

– Zimdan?

– Ha, zimdan. Organga ikki enlik qilib yozib tashlansa kifoya.

Shukurovning cho'chinqiraganini sezgan Mirsalim darrov to'nini o'zgartirdi:

– Bu bizning burchimiz! Nahot shunday ishlarini bilib-ko'rib turib, lom-mim deyishni lozim topmasak. Uyat! Juda uyat!!

Shukurov bo'shashib tushdi, Mirsalim yana uning qo'ltig'iga suv purkab, tayyor qilib oldi.

Bular yoniga ko'mir o'g'irlab qo'lga tushgan maktab xo'jalik mudiri qo'shildi. Mirsalim uni ham «bir arava ko'mir odamning xunimi! Kishilarda hukumatga qarshi norozilik tug'dirish uchun ataylab qilyapti» deb o'ylab yurgan edi. Uch bosh qovushdi. Bir o'tirishda Mirsalimning kotibligida yozib tashlandi. NKVDga yozilgan bu xat Mirsalim kutganidan ham yaxshi, to'la chiqqan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, imzolar chekilib bo'lgach, ta'kidlab qo'yidi:

– Hammamiz ham o'z xohishimiz bilan qo'l qo'y-yapmiz-a, yana keyin aynab yurmaylik. U idora hazilni yomon ko'radi: naq boshiaring ketadi!

– So'z bitta! Hezalak tonadi! – dedi dadillanib Shukurov. Lekin xo'jalik mudiri xomush edi.

### 13. KO'NGILSIZLIKLAR

Ikkinchi chorak tugab, bolalar qishki ta'tilga chiqqandan beri Sodiqning ko'ngli juda g'ash, ishi hech rivoj topmaydi, rivoj topsa ham qadr topmaydi. Bo'lmasa ozmuncha ishlar qilib qo'ydimi!

Uning o'rnida boshqa odam bo'lsa rayonga bayroq bo'lardi: maktab remontini muddatidan avvai sifatli qilib tugatdi. Tejab qolgan puliga sport maydonchasi qurdi, ming yoqqa yelib-yugurib tarix kabineti bilan fizika kabinetini ko'ngildagidek qilib jihozladi. Zavxozning qaquir-ququri bilan band bo'lib yotgan katta yerto'laning yarmini remont qildirib, bufetga berdi-da, bufet o'rnini kutubxonaga qo'shdi, uning yonini qiroatxona qildi. Yuqori sinf bolalarining kuchi bilan g'isht quyib, turli to'garakiarning ishlashi uchun hovlining bir chetiga alohida ikki-uch xona qurdi. O'zi loy kechib ishladi. Yoshroq o'qituvchilarni ham safarbar qildi. Bu ishlarni samarali tugatgani haqida rayon rahbarlariga o'z vaqtida raport berdi. Kelib ko'rishib, ma'qullab ketishdi, rayon maorifi bo'limining mudiri: «Qani endi sizga o'xshagan tashabbuskor direktordan ko'proq bo'lsa!» – deb qo'lini siqdi. Lekin... lekin shundan bir oz vaqt o'tgach, rayon o'qituvchilar konferensiyasida na uning nomi, na maktabi tilga olindi. So'z so'ragan edi, ro'yxatga yozishdi-yu, so'z berishmadi. Sababini so'rab, rayon maorifi bo'limining mudiriga murojaat qilgan edi, «navbat kelmadi, yozilganlar ko'p edi», deb tund javob qildi. Sodiqqa uning javobidan ham o'ziga ro'yxushlik bermasdan gapirishi qattiq botdi. «Xayoli boshqa yoqda shekilli», deb o'ziga tasalli berdi. Konferensiya tugab, endi ko'chaga chiqqanida uning maktabini yaqinginada maqtab gazetaga yozgan kishini ko'rib qoldi. U Sodiqning qo'lini siqib ko'rishdi-da, shunday ilg'or maktab haqida konferensiyada bir og'iz ham gap-so'z bo'lmaganidan ajablanganini bildirdi.

– Ha, rostanam, – dedi gazeta xodimi nimadir birdan esiga tushganda bo'ladigan shoshinquirash bilan, – mana, dokladda ham sizning maktabingiz bilan nomingiz, nima uchundir, qizil qalam bilan o'chirilgan.

Xodim gazetada beradigan hisobotida foydalanish uchun olgan rayon maorifi mudiri dokladining o'sha sahifasini ochib ko'rsatdi. Chindan uning maktabi va nomi qizil qalam bilan bosib o'chirilgan, lekin o'qish mumkin. «Kim o'chirgan, nimaga o'chirgan?» degan fikr Sodiqning xayoliga keldi va muxbirdan so'radi:

– Kim o'chirgan bo'lishi mumkin?

– Kim dokladni qizil qalam bilan ko'rib chiqqan bo'lsa, o'sha bo'ladi-da, – dedi muxbir mujmalgina qilib. Bu uning chin javobimi yoki hazil qilyaptimi – bilib bo'lmas edi. Uning hazil qilishi mumkin emas, chunki kechagina maqtab yozgani uchun dokladda tilga olinmaganligidan redaksiyada unga so'z tegishi mumkin.

Pedagogika jurnalida Sodiqning «O'zbekistonda bosmachilarga qarshi kurash davrini qanday o'tish kerak» degan maqolasi bosilayotgan edi.

Bir kuni redaksiya telefon qilib, korrekturasini ko'rib berishni iltimos qildi. Korrekturani ko'zdan kechirib, qo'lini qo'yib, redaksiyaga minnatdorlik bildirib chiqib kelayotganida muharririga yo'liqib qoldi. Muharrir uning maqolasidan juda xursand bo'lganini aytib, faol qatnashib turishini iltimos qildi:

– Jurnal sizlarniki, o'zinglar faol qatnashmasanglar kim g'amxo'rlik qiladi! – dedi u va bundan keyin yozmoqchi bo'lgan maqolalarining mavzui bilan qiziqdi. Sodiq boshi ko'kka yetib uyiga qaytdi. Uning jurnalda unchalik faol qatnashuv niyati yo'q edi, muharrirning iltimosidan keyin imkoniyatlarini xayolidan kechirdi. Bir-ikki maqolaning taxminiy rejasini tuzdi; o'z tajribasidan misollar esladi. Uning ruhi yengil, o'zi xursand edi. Lekin bu xursandlik ham uzoq cho'zilmadi: jurnalning o'sha soni chiqdi-yu,

Sodiqning maqolasi chiqmadi. Sodiq hayron bo'lib, redaksiyaga telefon qildi. Kotib:

– Men bilmadim, muharrir olib qolibdi, – degan javobni aytdi. Payt topib muharrirga uchrashdi, o'tgan gai qadrdon do'stlardek samimiy gaplashgan muharrir bu gai notanishdek sovuq kutib oldi. Uning so'rog'iga beparvolik bilan:

– Kelasi sonlardan birida beramiz, joy yetmay qoldi, – dedi. «Gap tamom, chiqib ketishing mumkin» degandek o'z ishiga tutindi. Sodiqning «xayr» deyishiga o'tgan galdagiga sira ham o'xshamagan bir tusda javob qaytardi. Sodiq chiqib ketgach, ketidan kelib eshikni qattiqroq yopib qo'ydi. Lekin maqola kelasi sonlarning birida ham chiqmadi, keyinchalik ham unga «joy topilmadi». Bir yig'inda shu jurnal kotibini uchratib qoldi. Undan:

– O'zi nima gap?– desa, u ham o'z navbatida:

– O'zi nima gap?– dedi. Ikkisi hech narsa bilmas edi. Muharrir «beramiz» dermishu, mundarija tuzayotgan vaqtda esiga solsa, «tura tursin» deb orqaga siltarmish, sababini aytmasmish.

– Unga ham biron telefon qilganmikan? – dedi kotib redaksiyasi uchun xijolat tortgandek iymanib.

Xullas, maqola bosilmay qolib ketdi. Boshqasini yozishga Sodiqning qo'li bormadi. Bu orada rayon partiya komitetining sekretari bilan anavi ko'ngilsiz uchrashuv bo'lib o'tdi.

Bularning hammasi Sodiqning asabini egoviar, tashabbusini bo'g'ar, ruhini tushirar edi. Bularning hammasi bug'doyga tushgan mitaday vaqt o'tgan sari bilinardi. «Omadi ketgan kishining ataladan tishi sinadi» degandek, u nima ish qilsa ketiga ketardi, burunlari qo'llab qo'ltiqalaydiganlar chetga chiqib turadigan bo'lib qoldi. Bu orada hamqishloq o'rtog'i Boltaqulning qamalganini

eshitdi. Uni xalq dushmaniga chiqarib, rayon partiya konferensiyasida rosa qoralashibdi. Bu xabar Sodiqni yana shoshirib qo'ydi: nahot, bosmachilar bilan kurashda uch bor o'q yegan Boltaqul dushman bo'lsa!

U hech narsa tushunmas va tushuntiradigan ham yo'q edi. O'ylab o'yiga yetolmas edi.

Shunday dilxitlik bilan ikkinchi chorakni tugatdi. Uning ko'ngli g'ash va xira, chiroq yoqsa yorishmaydi. Tilab-tilab topgan arzanda o'g'lining goh emaklab, goh yiqila-qo'pa tetapoya qilib kelib erkalanishlari ham ba'zan yuragiga sig'masdi.

Erining ko'ngil g'ashligini pisand qilmagan yoki fahmiga yetmagan Musharraf ertalab barvaqt turib, naridan-beri nonushta tayyorladi-da, Maratni uning qo'liga tutdi:

– Bola bitta menikimi, mang siz ham boqing! – dedi karashma bilan, – ko'ylagimdan xabar olib kelay. Bola deb kinoteatrlardan qolganim-qolgan, modadan ham qolamanmi? Kecha kelgan o'rtog'ingiz xotining ko'ylagini ko'rdingizmi, bitta kostyum puliga tiktiribdi, yana seniki qimmatga tushdi, deysiz.

Sodiq indamay bolani tizzasiga oldi. Musharrafning yengiltakligiga «o'rganib» qolgan edi. Agar hozir qarshilik qilgudek bo'lsa, ana unda ko'rasiz! Piyolani choynakka, laganni kosaga urib, ayyuhannos soladi, ko'z yoshi qiladi. Lekin baribir Sodiq bugungi to'polondan qutulmadi. Uyni naridan-beri yig'ishtirib, nima uchundir ko'ylagidan xabar olgani hamon ketmayotgan Musharraf, bir mahal ishshayib kelib, erining qulog'iga shivirladi:

– Pul bermaysizmi, bitimga olib kelamanmi?

– O'tgan kuni olganing-chi, nimaga sarf qilding?

– O'ynashimga olib borib berdim. – Birdan qaynab ketdi Musharraf. U shunday baland kelishi bilan erini bosib

olishga o'rganib qolgan. Og'ir tabiatli Sodiq har galgidek adi-badiga borishga yuragi yo'q, shunday bo'lsa ham, achchiq haqiqatni aytishga majbur bo'ldi:

– O'sha tortmadagidan boshqa pulim yo'q. Uning kerak joyi bor. Podpiskadagi kitoblarimni olmaganimga ancha bo'ldi.

– Ha, olarsiz, shu mullaligingiz ham yetadi.

– Yo'q-yo'q, u pulga tegma! Ro'zgo'rga zarur bo'lib qoladi.

Ana shundan keyin Musharraf to'nini teskari kiyib oldi. Uyni boshiga ko'tardi:

– Yaxshi ko'rganingiz bor, xudo ursin, bor. Bo'lmasa meni bunaqa xor qilmas edingiz. Qani endi o'sha manjalaqini bir tutib olsam edi, har bitta mo'yini bittalab yulardim.

– Hay, uyat, sekin! – dedi qo'shnilar oldida nomusdan Sodiq.

– O'ynash tutish uyatmasu, gapirsa uyatmi! Uyalmayman. Nega uyalar ekanman! Siz uyaling. Dod, bu qanday bedodlik, ko'chada ayshini qilib kelib, uyda xotiniga zug'um qiladi.

Sodiq bardosh qilolmadi:

– Bas, shallaqlik qilma, tutganingda gapirgin!

– Tutaman, tutmasdan qo'ymayman ham. Mana ko'rasiz, tutaman.

Bu Musharrafning birinchi janjali emas edi. Uning maqsadi bitta: nima bo'lsa bo'lsin buyurtirilgan ko'ylagini bugun olib kelishi kerak, hozir Sodiqdan pul undirishi shart.

Bunday paytlarda Sodiqning ko'ziga hech narsa ko'rinmaydi. Qo'ni-qo'shnilar eshitishidan nomus qiladi. Sharmandaga shahar keng, degandek Musharrafga baribir, u battar baland keladi.



Sodiq «vaysasani vaysab o'l» dedi-da, ko'chaga chiqib ketdi. Uning orqasidan ham Musharraf shallaqilik qilib qoldi:

– Xudo olsun o'sha manjalaqini!!!

Eri chiqib ketgandan keyin ham «manjalaqi» ancha vaqtgacha Musharrafiing og'zidan tushmadi. Zahrining qolganini qaynanasiga sochdi. U bechoraning aybi, Musharrafnings yoniga tushib, Sodiqni koyimagani! Janjalni yomon ko'rgan bechora qaynana ko'rpa bo'lib ikkalasini yopmoqchi, ko'prik bo'lib tinchitmoqchi bo'ldi:

– Jon bolam, yosh emassiz, bir bolaning onasisiz. Og'ir bo'ling, eshitgan quloq nima deydi, bu uydan yig'i tovushi chiqqan emas.

– Ha, o'sha tug'mas qisir keliningizni maqtamay qo'ya qoling, uning tili qisiq edi. Shuning uchun o'g'lingiz nima desa, sigirdek bo'ynini solib turavergan. Men Jannat bo'lmayman. Men Jannat emasman. Er-xotinning huquqi barobar. Bolaga zor edi, mana tug'ib berdim, endi u ham mening aytganimni qilsin. Nega qilmaydi?

– Aytganingizni qilmay nima qilyapti, jon bolam!

– Uyda o'tirib hech narsani ko'rmaysiz. Mundoq ko'chaga chiqing, odamlarning kiyinib yurishlarini ko'rib og'zingiz ochilib qoladi.

– Sizniki ham kam emas, shu yaqindagina ikkita ko'yiak tiktirdingiz, bu modadan qoldi deb yangi tufli oldingiz. Bolam bechoraning bitta o'zi topgani nimaga ham etsin.

– O'g'lingizga ayting, ruxsat bersin, ishlayman,— dedi Musharraf go'yo ishlasa eriga qaram bo'lmaydigan kishidek kibrlanib.

– O'g'lim bechora ishlamang deyayotgani yo'q. Shu vaqtgacha ishlatmovdimi! Bola sal o'zini tutib olsun deyapti, xolos.

– Bu bir bahona. Meni uyga oyimqiz qilib o‘tqazib qo‘ymoqchi! Bir manjalaqini topgan-da, yurganimni ko‘rib qolmasin, deydi. Ko‘rmay bo‘pman, yerning tagida bo‘lsa topib olarman.

– Hay, jon bolam, bu nima deganingiz, yaxshi gapga ham farishta omin deydi, yomon gapga ham. Eringizning obro‘yini to‘kmang, obro‘yini to‘kib yana shu er bilan yashaysizmi? Boshingizni olib chiqib ketasizmi? Chiqib ketsangiz mayli-ya, bo‘lmasa qo‘ni-qo‘shnining ko‘ziga qanday qaraysiz? Uyat-ey! Qo‘ni-qo‘shnidan nomusga o‘ldim. Kunda janjal, kunda to‘polon. Bir kun urish bo‘lgan yerdan qirq kun baraka ko‘tariladi, deyishadi.

– Ha, ming qilsa ham o‘g‘lingiz-da, joningiz achiydi, yonini olasiz. Men yetim... oyoq ostidan chiqqanman... – Musharraf ho‘ngrab yig‘lab yubordi. O‘zining gapiga o‘zi chidolmasdan yer tepinardi. Bo‘lmasa bechora qaynana uning yetimligini pesh qilarlik biror so‘z aytgani yo‘q.

– Yetim ham Xudoning bandasi, jon bolam, tavba deyish kerak. Hech kim sizning yuzingizga solayotgani yo‘q. Men qo‘sh yetim boqqanman, kiymaganimni kiydirib, yemaganimni yedirib boqqanman. Shukur qiling, hammasi orqa etakdek orqada qoladi. Yarashganini kiyib, xohlaganni yeb yuribsiz. Sizni hech kim yetim deyayotgani yo‘q.

– Basharamga qarang, kuyaverib-kuyaverib, it-mushugi oshiqdek bo‘lib ketdim. Xo‘rlik xotinni, xaroblik hayvonni xunuk qiladi, deb shuni aytadi-da. Chinchalog‘imga taqadigan uzugim o‘rta barmog‘imdan tushib qolyapti, – Musharraf ip o‘rab barmog‘iga taqib qo‘ygan uzugini ko‘rsatdi. «Mana-mana!»

– Aybi yo‘q, jon bolam, yaqinginada bo‘shalgansiz, emizikiisiz, hamma biladi. Bir terida qo‘y necha semirib, necha ozadi, jon omon bo‘lsin, – dedi qaynana. U yosh

bolalik xotinning oromi bo'imsiigini juda yaxshi bilar, keliniga achinardi ham: axir nevarasi juda seryig'i. Ba'zan tuni bilan yig'lab chiqadi, Musharrafni uxlatmaydi, buning ustiga onasidan ajralmaydi, og'zimdan ko'kragingni olma» deydi. O'ynasa ham onasining oldida o'ynaydi, Musharraf sal ko'zdan jildi deguncha, yig'laydi. Adolat xola ba'zan ichida «onasining xuddi o'zi, lo'li» deb qo'yadi.

Adolat xola kelinining yig'idan qizarib ketgan ko'ziga, yuzlariga chaplashib ketgan surmasiga, upa-eligiga, to'zigan sochiga qaradi. Ichida «tavba, xotin degan ham shunaqa bo'ladimi» deb qo'ydi. Shunda birdan ko'z oldiga Jannat kelini keldi. «Farishta ekan, bechora; bilmagan ekanman» degan fikr o'tdi xayolidan. Mundoq o'ylab karasa, Jannat shuncha yil turmush qilib, eriga biror marta tiklanib kelmapti-ya! Bundoq xotin ham bo'lar ekan-ku, dunyoda! Har to'kisda bir ayb degandek, xudo bechorani tirnoqdan siqdi. Bittagina qulini o'sha mushtipardan ayamasa, nima qilar ekan. Dunyoning zap ishlari bor-da.

Adolat xola o'ylariga yakun yasagandek «yaxshl juvon edi Jannat» degan fikrni ko'nglidan o'tkazib, o'z xonasiga o'tib ketdi. Shu orada Marat yig'lab qoldi. Adolat xola, «menga ergashdi shekilli» deb, qo'liga olgan edi, battar big'illadi. U bir narsa chaqqandek yomon yig'lardi.

– Hay, kelinposhsha, bolangizga qarang, o'pkasi uzildi, – dedi Adolat xola Maratni eplolmay.

Musharrafning ichkari uydan tovushi keldi, lekin xola uni tuzuk eshitilmadi. «Chiqib qolar hozir» degan o'y bilan barcha erkalash so'zlarini ishiata boshladi. Nevara quloq solmas, hamon bo'g'ilib yig'lardi.

– Ha, bolam, muncha bo'g'ilasan, birov uryaptimi seni. Hozir onang chiqadi!

Ona chiqmasdi. Adolat xola shoshib qoldi. Maratni ko'tarib, derazadan keliniga qaradi: u uyning to'ridagi tosh

oyna oldida bamaylixotir pardoz qilardi. Hali-beri chiqish niyati ham yo'qday edi.

– Ha, bas endi, qolganini keyin qilarsiz, bolaning o'pkasi uzilib ketdi, – dedi jahli chiqqan qaynana yumshoqlik bilan o'zini bosib. Musharraf eshitmagan kishidek beparvolik bilan pardozini qilardi. Ana shunda Adolat xolaning zardasi qaynab ketdi: – Hoy, oyisi, sopol tovoqni keyin bezarsiz!

Musharraf nimadir deb g'o'dirlandi-yu, o'rnidan qo'zg'almadi. Marat qanotini yozib talpinar edi. Adolat xolaning sabr kosasi to'idi. Musharrafning joyidan qo'zg'almasdan g'o'dirlanishi to'lgan kosani'toshirdi:

– Hoy, noinsof, sizga gapiryapman, bola qiynalib ketdi. Shu mahalda pardoz qistalon bo'lmay, o'lsin!

Musharraf qorni to'q odamning dasturxonga kelishidek hafsalasizlik bilan derazaga yaqinlashdi: chekkasidagi mayda sochlar jingalak qilish maqsadida o'rab-o'rab bog'lab qo'yilgan, qoshga tortilgan qalam quioqqa biror g'iybatni aytishga shoshilgandek tilini cho'zib turibdi, lab ustidagi xol yana ham qoraytirilgan, yuz o'rtasi qizartirilib, rosa upalangan.

Buni ko'rib Adolat xolaning ensasi qotdi: shu vaqtda pardoz o'lgurga balo bormi! Hali ko'rsang go'sala, hali ko'rsang...

Musharraf derazaning yopiq bir qanotini ochib, o'g'lini olar ekan, to'ng'illadi:

– Ha, muncha o'dag'aylaysiz, o'g'lingizniki ham yetadi.

– O'g'lim bechora hech o'dag'aylamaydi-ku, o'zi yo'qning muncha orqasidan tosh otasiz. Yolg'on gapirgani uyalsangiz bo'lmaydimi, jon bolam.

– Ha, siz bilmaysiz, siz ko'rmaganda qiladilar, – dedi Musharraf yolg'onni ham do'ndirib.

– Sodiqjon quvlik, shumiikni bilmaydi, – deganicha Adolat xola orqasiga qaytib ketdi. Musharraf Maratning og‘ziga ko‘krak solar ekan, qaynanasiga tegizib achitdi:

– Sen o‘lgur ham muncha yig‘laysan, bolalarga o‘xshab mo‘ltayib yotsang bo‘lmaydimi?

– Siz ham onalarga o‘xshab to‘yg‘izib emizsangiz ekan, lik etib unga turasiz, lik etib bunga turasiz.

– Ha, men shunaqa yengilman.

Adolat xola uning pichingiga indamadi. Shuning o‘zi yetarli edi. Musharraf ancha vaqtgacha jig‘ibiyron bo‘ldi, Maratni siltadi, «nega tishlaysan, juvonmarg» deb atayin qaynanasi eshitgudek baland ovoz bilan qarg‘adi. Xola indamadi-yu, ichida «norastani qarg‘amay, qarg‘ishing o‘zingga ursin» deb qo‘ydi. Bu Musharrafning birinchi qarg‘ishi emas, eri sal kechikib kelsa ham shu bolaga yopishadi, eri bilan urishsa ham shu bola gunohkordek ming baloga giriftor qiladi. Bolani turtkilab erining g‘ashiga tegadi, «hay!» deguday bo‘lsa baloga qoladi, «ishingiz nima, sizning joningiz og‘rib tug‘ibsizmi?» deb yuziga chopadi. Sodiq indamay qoladi, gap qaytarish befoyda ekanini biladi. Adolat xola shunday paytda o‘g‘lining og‘irligiga qoyil qoladi, lekin ichidan zil ketayotganini sezib «bu qanday bedodlik!» deb yuborgisi keladi. Tilabtilab olgan nevarasining bunchalik xor bo‘lishiga asti chidamaydi. Mana hozir ham Musharrafning qarg‘ishini eshitib ko‘z oldi tumanlashib ketdi. «Ey xudoyim, shu bolani Jannatga bera qolganingda nima qilardi», deb nolidi. Lekin og‘izdan bexos chiqib ketganidan tashvishlanib, uy tomonga qaradi: xayriyat eshitmadi!

Adolat xola katta o‘g‘li Sodiq bilan nevarasi Maratning qismatidan achinib ko‘ziga yosh oldi. Xotining janjalidan bosh olib qochgan o‘g‘li qayoqqa ketdi ekan? Maktabda

ishi yo'q, bugun uyda dam olmoqchi edi. «Buncha peshonang sho'r bo'lmasa, bolam!» deya Adolat xola qo'lga ishini oldi.

Kecha Adolat xola «shamol kelinimning shu bemehrligi bo'lsa nevaramni kasal qilib qo'yadi», deb Maratga paxtali nimcha boshiagan edi. Musharraf: «Kimning eskisi! Mening bolam bunaqa eski-tuskini kiymaydi» deb jirkangan va bu so'z xolaning ko'ngliga og'ir botib: «Mayli jon bolam, kiymasa kiymasin, birovning eskisimas, Qodir amakisining nimdoshgina kostyumini buzgan edim, amakisidek katta yigit bo'lib yursin, deb yaxshi niyat qilib tikayotgan edim. Yana o'zinglar bilasizlar», deya yig'ishtirib qo'ygan edi. Adolat xola mundoq o'ylab qarasa, burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydiradigan. Kecha o'g'li ham eshitib ma'qui topdi. Kelini, ba'zi bir kelinlardek chevargina emas, igna-igga qo'li qovushmaydi. Kelin bo'lib tushibdiki, yirtiq-yamoq xolaning qo'lida. Uyalmasdan erining paypoqlarini olib chiqib to'qib-yamashni ta'kidlaganiga o'lasan kishi. Xola «to'qib-yamash qanaqa, jon bolam?» desa qo'li bilan ko'rsatib, tili bilan tushuntiradi-yu, ignaga qo'li kelmagandi. «Yamoq-yasqoqqa o'rganing, bolam, meni sizga bog'lab berib qo'ygani yo'q, pishgan oshdek narsaman, bir kuni liq etib o'taman-ketaman» desa, «bo xudo, bir kamim yirtiq-yamoqmidi», deb kekkayadi, tilini bermaydi.

Adolat xola shularni o'yiab nimchani tikar ekan, yoshdan ko'zoynagi xiralashdi. Uni olib, doka ro'molining uchiga artdi. Sal o'tmay yana xiralashdi, yana artdi. Xola o'pkasini tutib ololmas edi. Shunday bo'lsa ham, bir amallab o'zini chalg'itib, ishga berilib ketdi. Qancha vaqt o'tganini bilmaydi, bir mahal mundoq qarasa tepasida Musharraf turibdi: yasan-tusan, labida soxta tabassum. Qo'lida ming bir to'polon bilan o'tgan hafta eriga oldirgan tivit ro'mol. Chakkasining mayda sochlari jingalak-jingalak.

U, «ko'ylagim ezilmasin, kigizning gardi yuqmasin» degandek ehtiyot bilan engashib Adolat xolaning tizzasidan nimchani oldi. U yoq-bu yog'ini ko'zdan kechirdi:

– Bu kechagi emas, shekilli, – dedi soxta tabassumini buzmasdan Musharraf. Adolat xola uning tilyog'lamaligini tushunib, indamay qo'ya qoldi – Musharrafga ham xuddi shu kerak edi. U chaqqonlik bilan qaddini rostlab, ko'cha tomonga burildi. Lekin odob yuzasidan bo'lsa ham qaynanasidan ijozat so'rashga bo'yni yor bermadi, faqat ketayotgan yerini bildirdi:

– Mashinachiga borib kelaman!

Bu so'zda «Maratga qarab tur» degan farmoyish ham bor edi. Qaynanasi indamadi. Faqat ko'nglidan o'tdi: «Qiz xotin – uy xotini, juvon xotin – yo'l xotini!»

Musharraf shu ketganicha kechki ovqat mahalida keldi. Adolat xola o'choqqa olov yoqqan, Sodiq Maratni o'ynatib o'tirardi. Musharraf qo'ltig'idagi qog'ozga o'rog'lik buyumi bilan to'g'ri uyga o'tib ketdi. «Marat yig'lamadimi, yaxshi o'tiribdimi?» deyish xayoliga ham kelmadi. Birpasdan keyin birov uyning derazasini asta-asta taqillatdi. Sodiq o'girilib qarasa, yangi ko'ylakda Musharraf turibdi. Tabassum bilan shivirladi:

– Yarashibdimi?

Sodiq ertalab to's-to'polon qilgan xotining munchalik yengiltaklik bilan ishshayib turishidan uyalib ketdi. «Oyim ko'rmayaptimi» degandek xijolatda oshxona tomonga qaradi; xayriyat, onasi ichkarida ekan!

Sal o'tmasdan Musharraf uy ko'ylagida chiqib kelib, ertalab hech narsa bo'lmagandek qaynanasiga eshitirmasdan eriga uqtira ketdi:

– Hozir shu fason moda bo'lgan. Etagini ko'rdingizmi? Bitirmaguncha mashinachining ham holi-joniga qo'ymadim.

Zarurligini bildi shekilli, xazon bo'lgur, o'n so'm ortiqcha bersam, rozi bo'lmay yana besh so'mimni olib qoldi. Mayli, yesin-ichsin to'ymasin, shu besh so'mimga rozi bo'lmadim. Baribir buyurmaydi.

Sodiq yelga sovurilgan o'n besh so'mga achinmas, onasining eshitib qolib, kulishidan uyalar edi. Ichida «bas qila qolsa-chi!» derdi-yu, aytishga botinmas edi. Sodiq gap chalg'itdi:

– Men kelsam Marat biram yig'layapti. Kasal bo'lib qoldimi, deb qo'rqib ketdim. Oyim pecheneni suvga ivitib berib zo'rg'a ovutdilar.

– Hech narsa qilmaydi. Ko'p yig'lagan bolaning ko'zi qora bo'larmish. Ko'zi qora bo'lsa yomonmi! O'zingizniki ham qora-ku, men qora ko'zni yaxshi ko'raman.

Musharraf juda xursand edi. Sodiqning ko'nglidan «kayfi yo'qmi?» degan fikr o'tdi.

– O'zing qayerda eding?– xayolidan yomon fikr o'tib so'radi Sodiq.

– Mashinachinikida.

– Shuncha vaqt-a?

– Yo'q, – deya erkalandi Musharraf ko'zini suzib, – undan chiqib bir qiz o'rtog'imnikiga kirdim. Anchadan beri ko'rishmagan edik. U yoqdan-bu yoqdan gaplashib o'tirdik.

Sodiq ana shunda Musharrafning kayfi borini payqab qoldi. Ko'ziga qon quyildi, uzatilgan oyog'ini yig'di.

– Shu kayfing bor-ku! – dedi g'azabdan titrab.

Musharraf erining gapidan hayiqmadi, aksincha, o'zga-cha bir nozu karashma bilan qix-qixlab kulib:

– Shariat-ku xotinlarga ichishni man qiladi, qonun ham man qiladimi! – dedi. Erining o'zgarganini ko'rib, yana yalpangladi:



– Xafa bo'lmang, jonim, jinday vino ichdim. Kechasi orqalaringizni yaxshilab silab qo'yaman!

Sodiq xotinini tanimas edi!

Sodiq ertalab xotini bilan astoydil gaplashmoqchi bo'lib, payt poylab turganda qishloqdagi tog'asining vafot etgani haqida telegramma kelib qoldi. Besh tog'asi ichida eng kichigi va seviklisining birdan vafot etgani uni shoshirib qo'ydi. U shu tog'asini juda yaxshi ko'rar edi, o'qish yillari undan xabar olib turgan ham shu tog'asi edi.

Avvaliga Adolat xola bilan Sodiq yo'lga chiqmoqchi bo'lishdi. Lekin Sodiq onasining nafas siqish kasali sovuq tushgandan beri tez-tez takrorlanib turganidan rozilik bermadi. Ona «bormasam uyat, eshitgan quloqqa xunuk» deb turib oldi. Sodiq nima qilishini bilmay ikki o't o'rtasida hayron ekan, onasidan xabar olib turgan qo'shni vrach joniga oro kirdi, «kechagina o'tgan yurak pristupidan keyin uzoq safarga chiqishingiz hech ham mumkin emas, o'zingizni, o'g'illaringizni o'ylang», deb shaxtini qaytardi. Chor-nochor dami qaytgan ona bir-ikki achchiq-achchiq yig'lab, indamay rozi bo'lgandek bo'ldi.

Onasining o'ksib qolayotganini ko'rgan Sodiq yana bir nozik pardani chertib, unga dalda berdi, ko'nglini ko'tardi.

– Keliningizning shu turqi bo'lsa, bolani kasal qilib qo'yadi! Sizning shu yerda bo'lganingiz yaxshi, – dedi.

Ona yig'lab-siqtab o'g'lini eshikkacha kuzatib chiqdi. Maratni unga tutib:

– Og'ziga tupurib ket buni, kelguningcha ichikib qolmasin! – dedi.

Sodiq onasining so'zini qaytarmaslik uchun o'g'liga engasharkan, u meni oladi, deb qanotini yozdi, talpindi. Irimini qilib qo'yaqolmoqchi edi. Musharraf gap qotdi:

– Ola qoling, hali qachon kelasiz! Sog‘inishni biladigan bo‘lib qoldi.

Sodiq xo‘mrayib xotiniga qaradi. Gapni cho‘zmaslik uchun Maratni qo‘liga olib o‘pdi. Bolani xotiniga uzatar ekan, Musharraf erining qarashiga bardosh berolmadi, ko‘zini chetga olishga majbur bo‘ldi. Nima uchundir, Maratning onasiga borgisi yo‘q, hamon Sodiqqa talpinar edi. Er-xotin o‘rtasidagi bu sovuq manzarani payqagan Adolat xola:

– Dadangga ergashadigan bunaqa odating yo‘q edi-ku, bolam, senga nima bo‘ldi? – deya nevarasini o‘g‘li qo‘lidan o‘zi oldi.

Marat, go‘yo dadasini bundan keyin uyida hech ko‘rmasligini sezayotgandek hamon unga talpinar, qo‘lini cho‘zar, qo‘lini qaytarsa, o‘zini otgundek bo‘lar edi, dadasi bilan keta qolgisi kelardi.

Sodiq uni onasi qo‘lida yana bir o‘pib, shoshganicha yo‘lga tushdi.

– Ko‘rganlarga salom degin! – gapirib qoldi ona.

Oh, bechora ona, bolangning bundan keyin kimlarni ko‘rishini bilsang edi, ularga balki salom aytmagan bo‘larding!

## 14. KUTILMAGAN QORA KUN

Poezdada bora-borguncha Sodiqning xayolini goh xotining kechagi qilmishi, goh tog‘asining yetim qolgan besh bolasining taqdiri o‘ib qochdi. Tog‘asi nimadan vafot qildi ekan? Kasal bo‘lsa eshitgan bo‘lardiku! Eng katta bolasining yoshi nechada edi? Oilasi qiynalib qoladigan bo‘ldi-da. Uncha qiynalmas, kelinoyim pishiq, yumishkor, kuydi-pishdi. Bir hunarning boshini tutib oladi. Sovxo ulardan xabar olib turar, kelinoyimga tuzukroq ish topib

berar. Tog'amning obro' yaxshi edi-ku. Sovxozim deb kunni kun, tunni tun demas edi, bechora!

Musharraf nega bunday o'zgarib qoldi? Biror alam o'tgan eri bormi? Yo birov yo'ldan urdimi? Men uni xafa qilguday birorta gap qilganim yo'q, u arzimagan narsadan o't chiqarardi. Kecha ham xuddi shunday bo'ldi. Mana bugun yo'lga qo'shnisidan qarz ko'tarishga majbur bo'ldi. Xotini shunday bo'lmasa qo'shnisiga sarg'ayib pul so'rab chiqmas edi. Erning ahvoliga ham nazar sol-da, nodon. Bor bo'lib sendan ayasam, bu boshqa gap. «Erka qilib boqilgan tekis yerda qoqilar» deb shuni aytsa kerak-da. Nega men uning shunaqa tantiqligini avval bilmadim? Hammasini qildi-qildi shu Mirsalim qildi. Shu o'rta tushmaganida bunchalik shoshqaloqlik ish bo'lmas edi. Ko'zimni bog'lab qo'ydimi, nima balo. Yo'q, o'zimdan o'tdi!

Sodiq shunday so'nggi yo'q o'ylar bilan joyiga cho'zildi-yu, xayol surdimi yoki tush ko'rib uxladimi – farqiga bormadi. Lekin kupesidan chiqsa, qo'shnilar nonushta qilishyapti, uni taklif etishdi. Shundan u kecha kechqurun hech narsa yemasdan yotib qolganini esladi, qorni ochganini sezdi. Yuvinib kelib qo'shnilarining nonushtasiga qo'shildi. Ammo ishtahasi bo'g'ildi. Qo'shnilar oila haqida suhbat boshlashdi. Yapasqi burunli biri bahsga yakun yasagandek dedi:

– Sharq donosi yaxshi aytgan, bundan o'tkazib bo'lmaydi: yaxshi xotin, jon ozig'i. Yomondan o'zi asrasin! Xotining yomon bo'lsa, sening jahannaming shu dunyoda!

Sodiq, suhbat uning oilasi haqida ketayotgandek bahschilarga nazar tashlab chiqdi. Hech kimning u bilan ishi yo'q... «Mendan boshqa ham xotin jabriga uchragan bor ekan. Qaysi biri ekan? Shu yapasqining o'zimi? Yo anavimi? Ikkisiga ham o'xshamaydi. Xotinidan jabr

ko'rganning rangi bunaqa xushro'y va tiniq bo'lmaydi. Anavi chiroyli, qiltiriq mo'ylovlidir. Xotini qizg'ansa kerak-da!»

Sodiq poezddan tushib, tog'asinikiga yetib kelguncha kun peshindan og'ib, o'lik chiqarilib bo'lgan edi. Faryod urib, qarshisiga ilk chiqqan kelinoyisi bo'ldi. Uning sochlari to'zg'igan, boshyalang, beliga qora shol ro'molini ikki aylantirib o'ragan, rangida qon yo'q.

– Tog'angizdan ajralib qoldik, Sodiqjon! Sho'rimiz qurib qoldi, Sodiqjon! – deb uning yelkalariga qo'lini tashlab yig'lardi. Uning tovushi xirillar kechadan beri faryod uraverib bo'g'ilgan bo'lsa kerak.

Sodiq kelinoyisini ovutmoqchi bo'lardi-yu, o'zi o'pkasini bosib ololmas edi.

U tog'asining ta'ziasida uch-to'rt kun qolib ketdi. Yoshgina qo'shni yigit har kuni shinelda chiqib Sodiq bilan eshikda turdi. Ismi Qobiljon ekan. Oyog'ida harbiycha kirza etik. Boshida manglayidan yulduzi olingan shapka. O'zi qizday muloyim va xushmuomala, kelgan-ketganga bukilib salom beradi. Sodiq uni harbiydan yaqinda bo'shab kelgan faraz qilib, mehribonlik bilan:

– Biror ishga joylashganingiz yo'qmi hali? – degan edi, u yigit harbiy xizmatdan otpuskaga kelganini aytdi:

– Yana bir yil bor.

– Xizmat qayerda?

– Uzoq. Juda uzoq. Olatog'dan ham ko'rinmaydi, – deb kulgiga oldi yigit.

Qobiljon Sodiq kelganidan beri o'zini unga yaqin olib yurardi. Fotihaga kelganlarni kutishda ham uning yonida, nonushta yoki ovqatda ham uning yonida. Shuning uchun Sodiq undan so'rashga jur'at etdi:

– Sir deng! Aytib bo'lmaydimi!

Asiida Sodiqqa yigitning qayerda xizmat o'tayotganining qizig'i yo'q edi. Nima uchundir, bir-ikki kundan beri uning ko'ngil g'ashligi, yurak siqilishga aylandi. Kimgadir nimalarnidir gapirgisi keladi, allanimalardan hikoya eshitishni ko'ngli tusaydi, birov yuragini sandiqqa qulflab, kalitini olib ketib qolganga o'xshaydi.

Qobiljon keluvchilar oyog'i tovsilgandan keyin uyiga chiqib ketib, qosh qorayganda farg'onacha beqasam choponga o'ralib kirib keldi. Salom berib, Sodiq ko'rsatgan o'ringa o'tirdi. Sodiq uzatgan choyni ho'plab, gap boshladi:

– Boya siz mening xizmat yerimni so'radingiz. Odamlar oldida aytishga bo'lmay, qiziqchilik qilib qo'ya qoldim. Asiida sir. Hammaga gapirib bo'lmaydi. Siz ziyoli odamsiz, tushunasiz, sizga aytsam bo'ladi. – Xizmatim shimolda, o'n ikki oyi qishu qolgani yoz. Arestantlarni qo'riqlaymiz, siyosiy arestantlar, dushmanlarini.

Sodiqning ularga joni achimadi. Dushman bo'lganidan keyin yelkasiga qoqib, boshini silaydimi! Ketmonning damini bosmasa, sopi peshonasiga tegmas edi.

Sodiq kechasi bilan uxlolmadi. Mudhish tush ko'rdi.

Sodiq ertalab yuvinib mehmonxonaga chiqsa, bolalikda ko'cha changitib birga o'sgan, bosmachilarning dodini bergan bir o'rtog'i o'tiribdi. Uni ko'rib ancha ko'ngli yorishdi. Fotihaga kelgan bu o'rtog'i Sodiq bilan qo'l siqishib ko'rishgan bo'lsa ham, «azada yarashmaydi, bell bog'liqning dili bog'liq» deb o'yiadimi, ochilib gapirishmadi. «Odamlar oyog'i tovsilishi bilan eshikka bor, kutaman» deb ketdi. Sodiq va'da berib qoldi. Fotihaga keluvchilar oyog'i tiyilishi bilan, yo'l oldi.

Ona qishlog'ining har bir giyohi tanish. U suqlanib atrofga nazar tashlab borardi. Yakka cho'p ko'prikdan o'tib, endi so'lga burilishi bilan xayolini yoshlik o'ylari olib qochdi.

U xuddi ana shu yerda ilk marta Jannatni uchratgan. Sochvonini qo'liga olib kelayotgan o'yinqaroq yosh qiz qarshisida paydo bo'lib qolgan kishidan yuzini bekitaman, deganda allaqayoqdan quvalashib chiqqan ikkita it uni qo'rqitib yuborgan, sochvon emas, boshidagi qizil satin paranjisi ham tushib ketgan edi. Shu mahal yetib kelgan yigit, chetlab o'tib ketish o'rniga yerda yotgan paranjini olib, qizga uzatgandi.

– Voy, o'lmasam, qanaqa kishisiz o'zi! – degan Jannat yuzini bekitish o'rniga qip-qizarib, hayo aralash boqib turardi. Sodiq ham bo'sh kelmadi:

– Ko'rib turganingiz kishiman-da, endi mendan qochmasangiz ham bo'ladi, singlim! – dedi.

– Nega qochmas ekanman, qo'ying-e! – degan Jannat yuzini sal chetga burib, boshiga paranjisini ildi.

– Paranjingizni ko'rsa kuchuklar yana qaytib keladi, – tegishdi Sodiq.

– Qaytib kelsa siz bor-ku. Nahot meni itga talatib, kap-katta odam qarab tursangiz?

– Unday bo'lsa eshigingizgacha qo'riqlab bora qolay.

Qiz bu kutilmagan taklifdan cho'chib:

– Yo'q-yo'q! O'zim ketaman, – dedi.

Qiz sapchib ikki-uch qadam qo'ydi-yu, yana odimini sekinlatdi. Ana shunda Sodiqning yuragi allanimani sezgandek gup-gup urib, uning ortidan undadi. U yuragining amriga bo'ysunib, qizga yetib oldi... Ana shunda ikki yoshning ko'zi beixtiyor to'qnashdi. Shunchalik jur'at bilan ketidan yetib kelgan Sodiq tildan qolgandek bir so'z aytolmas, umrida birinchi marta begona yigitning yuziga tikilib qaragan qiz ham o'zini bir necha lahzaga unutdi... Keyin yana bir xilvat topib uchrashishdi... Keyin Sodiq uning paranjisini olib tashiatib, o'qitdi, qaynab turgan hayot

qo'yniga tortdi... Ana u ishlagan bog'cha. Oppoq bo'lsa ham botayotgan quyoshning nurida qizil tortib turibdi. Uning o'zi-chi? Hozir qayerda ekan?

Shu lahzada, ajralganidan beri ilk marta Jannatga astoydil rahmi keldi. O'ziga-o'zi yomon ko'rinib ketdi.

Qanday bedavo xatoga yo'l qo'yganini butun vujudi bilan his etdi...

O'rtog'i uni ochiq yuz bilan qarshi olib, ichkariga taklif etdi. Oldiga dasturxon yozar ekan, gap qotdi:

– Obbo do'stim-ey, shundaqa qilib poytaxtlik bo'lib oldim degin? Ishiaring yaxshimi? Uylanibsan, farzand ko'ribsan deb eshitdim. Farzand muborak! To'yingga ham aytmading, endi birato'lasini «farzand qutlug'» qilib borar ekanmiz-da.

– Marhamat, bosh ustiga.

Sodiqning xomushligini ko'rgan o'rtog'i avvaliga bu hoini tog'asining vafoti tufayli deb tushundi. Keyin suhbat qizib, ancha yozilishib o'tirgandan keyin ham royish bermaganidan ajablendi. Uning ko'nglini ochmoqchi bo'lib, rayon yangiligini aytdi.

– Bizdagi yangilikni eshitganmisan?

– Qaysi birini? Yozmasang qaydan eshitay.

Dilovarxo'ja qo'rboshining qo'lga tushganini!

– Qachon? Yo'g'-e! Hali ham tirik ekanmi, la'nati? – birdan tetikiandi Sodiq. – Qaysi kavakda yotgan ekan? Men uni o'lib ketgandir, deb yuruvdim.

– Men ham! Esimdan chiqib ketgan ekan. Bir kuni idorada o'tirsam telefon qilib qolishdi. Men ham senga o'xshab ishonmadim. «La'natining basharasini bir ko'rib qo'yay, toza bizni ovora qilgan edi», deb borsam, yo'q markazga yuborishgan ekan.

– Bu yoqqa nima qilib daydib kelib qolibdi? – yana qiziqdi Sodiq.

- Buni bilmadim. Tug‘ilgan yerini sog‘inganmi.
- Bunaqa odamiar sog‘inishni biladimi!
- Bo‘lmasa ajal quvib kelgandir-da!
- Bu boshqa gap. Otishsa kerak.
- Bo‘lmasam-chi!
- O‘sha yillar esingda bormi? La‘natilar bilan o‘zimiz ham toza quvalashdik-da. Haftalab otdan tushmas edik-a.
- Shunday qilmasak bo‘lmas edi - da!

Ikki jangovar o‘rtoq qilich o‘ynatishgan yillarni uzoq eslashib o‘tirishdi. Dilovarjo‘ja nomini eshitib chehrasi biroz yorishgan Sodiq, osh suzilish oldidan yana xomush tortib qoldi. Buning sababiga o‘rtog‘i tushunmasdan, yana sog‘lig‘ini, ishlarini so‘radi. Ma‘qul javob olgandan keyin, dedi:

– Nima uchundir seni organ surishtirib yuribdi. Tinchmisan?

– Nima deb surishtiradi? – parvo qilmasdan dedi Sodiq, – organ qiziqadigan biror g‘alat ish qilib qo‘yibmanmi?

– Bilmasam, men ham hayron bo‘ldim. Ishlaring yaxshimi o‘zi? Yaxshi bo‘lsa bo‘pti-da. Organning sen bilan menga dahshat soladigan yeri yo‘q.

– Albatta, – dedi ishonch bilan Sodiq. – Balki Dilovarjo‘janing ishi yuzasidan kerak bo‘ldimmi?

– Ehtimol, – uning fikriga qo‘shildi o‘rtog‘i.

– Shunday bo‘lsa kerak, Sodiq Boltaqulning taqdiri bilan qiziqib, hamsuhbatidan surishtirgan edi, u ham hech narsa aytolmadi, yelkasini qisdi.

– Organ qo‘lga olgan. Bir narsa deb bo‘ladimi!

Ikki jangovar o‘rtoq qo‘l siqib xayrlashganda hulkar oqqan, tun salqini etni chimchilardi.

Sodiq ertasiga qiy-chuv bilan xayrlashib yo‘lga chiqdi. Lekin oyog‘i uyiga tortmas edi. Poyezdga chiqsa ham, orqasiga qaytgisi kelaverdi. Musharraf bilan bo‘lgan



dilsiyohlikdanmi... yolg'iz o'g'lini xayoliga keltirib ko'rsa ham, dili yorishmadi. «Tavba, o'zi nima gap? Bu nimaning belgisi?» – dedi o'ziga-o'zi. Keyin bu jinni hisdan kulgisi qistadi, o'zicha masxaralangandek qah-qah urib qo'ydi. Poezdga kechasi chiqqani uchun uzoq fikr yuritishga vaqti bo'lmay, uxlab qoldi. Ertasiga poezddan tushdi. Mashina kira qildi.

Sodiq ko'ziga tanish-bilishlar bir necha yil ko'rmandek chiroyli, fayzli ko'rinardi. Azim teraklarni endi ko'rayotganga o'xshaydi. Kutmaganda ko'ziga yarqirab, ajoyibot to'la mo'jizadek bo'lib diqqatini tortadi. Ana, tanish, necha marta sayr qilib yurgan xiyobonlari. Yalang'och daraxtlarda qarg'alar uchib-qo'nadi, yerda qor yo'qqigidan osmonga nola qiladi. Osmon bulut. Ana, shamol bulutni yirtib, undan quyosh ko'zi bilan birpasgina mo'raladi. Yana bulutni allaqayeridan yirtish niyatida xira ko'zi malla bo'z parda orqasidagi chiroqdek yondi.

«Shaharni aylanmaganimga ancha bo'ldi o'zi ham», deb qo'ydi ichida. Shunda Musharrafga uylanish oldidan tez-tez shu tomonlarga chiqib turgani yodiga tushdi. Ana, ular o'tirgan skameykada boshqa bir juft o'tiribdi. Ularning yelkalarigina ko'rinadi. Shu mahal kimdir uning otini aytib chaqirib qoldi. Xuddi Musharraf chaqirgandek yuragi orqasiga tortib, «shuv» etib ketdi. Tovush kelgan tomonga qaradi. Mashina endigina burilgan tor ko'chaning yo'lkasida Sodiqqa notanish bir oriq yigit turardi. Uning yonida – qachon Sodiqni ko'rsa og'zi to'la oltin tishini yiltillatib, ajoyib tish doktori topganini maqtaydigan bir ezma muallim. Oriq yigit u bilan xayrlashib, mashinaga yaqinlashdi. U oddiygina kiyimda, galstuk taqqan.

– Milisiyaga kirib chiqsak, – dedi u rangi oqarinqirab. Sodiq gap kim haqida ketayotganligini bilmay aniqlamoqchi bo'ldi:

– Menimi, shofyormi? Shofyor bo'lsa men qolay.

– Yo'q, siz bilan birga kirib chiqamiz.

Mashina Sodiqqa ko'pdan tanish ko'chalardan o'tib borib, temir darvoza oldida to'xtadi. Mashinaning signaliga ichkaridan harbiy formadagi kishi chiqib, shofyor yonida o'tirgan oriq yigitga qaradi. U, o'zlari tushunadigan biror imo qildi shekilli, tezda kirib ketib, darvozani ochdi. Uni kutib olgan komandir, ikki harbiy yigit bilan tor koridordan borib, bir xonaga olib kirdi. Uni o'tqazib, yonida ikki harbiyni qoldirdi. O'zi chiqib ketib, unvon jihatidan o'zidan kattarog'i bilan kirib keldi. Yangi kirib kelgani qo'lidagi papkada bir qog'oz olib, Sodiqqa uzatdi:

– O'qing, qo'l qo'ying.

Sodiq qaysi ko'zi bilan ko'rsinki, bu respublika prokurorining uni qamoqqa olish haqidagi sanksiyasi edi. U bo'shashib, nima qilishini bilmay qoldi, harbiy kishi yana eslatdi:

– Qo'l qo'ying.

Yarim soatdan so'ng Sodiq botinkasining iplari olingan, shimining temir ilgagi kesilgan, begalstuk holda o'tirardi. Tushimi, o'ngimi...

## 15. YIG'IGA AYLANGAN ALLA

«Danagidan mag'zi shirin» degandek, Adolat xola nevarasiga butun mehrini to'kib, erkalab o'tirardi, unga qo'shiq aytardi:

*Maratjonim xon-xoni,  
Ko'kalamzor maydoni,  
Hamma yomon ko'rsa ham,  
Buviginasining joni!*

Hozir Maratning dadasi keladi. Qani Maratga nimalar olib kelarkin dadasi: jajji oyoqlariga etikchami, beliga

qiyiqchami, yo boshiga telpakchami? Dadangga «ash-shalom alaykum, dadajon, sizni sog'indim», deysanmi? Achalom qilasanmi?

*Shirin bolam, shakar bolam,  
Asqar tog'da bitgan lolam,  
Yondan chiqqan yon qozig'im,  
Shirin-shakar jon ozig'im.*

Qani, qani, bitta kulsin, buvijonini bitta achom qilsin! Buvisi aylansin bo'ylaridan, azamat o'g'lim! To'yu tomo-shalaringni ko'ray, iloyim! Kam bo'lma!

Adolat xolaning tili tiliga tegmas, nevarasini goh quchoqiab bag'riga bosar, nafasi qaytib, tovush berguncha qo'yib yubormas, goh lo'ppi yuzlaridan o'pib «qiynardi», goh ko'kka otib kuldirardi.

Kechki ovqatga olov yoqqan Musharraf oshxonadan chiqib kelib, qaynanasining qarshisida to'xtadi. Xolaning zavq bilan nevarasini erkalashiga havasi keldi.

– Bugun Maratni juda boshqacha erkalab qoldingiz, oyi, yaxshi tush ko'rib turdingizmi?

– Ha, bolam, xursand bo'lmay nima qilay, mana kuta-kuta nevarali ham bo'ldim. Endi Qodirjonning boshini ikkita qilib olsam edi, go'rimda oyog'imni uzatib, tinchgina yotardim. Hay, aylanay kelin, eringiz kelganda yana eski daftarni ochmang. O'tgan o'tdi, orqadagi gap – oxurdagi nishxo'rd. Ochilib-sochilib qarshi oling. Xudoga shukur, bolali bo'ldingiz; urning qo'lida-yu, uyning to'ridasiz. Ha, shunday qiling, jon bolam! Voy, chuking kesilgur, hamma yog'imni rasvo qilding-ku! Bu izzatlarga siymoq kerak dedingmi, bolam tushmagur! Mana, oling, boshqa ishton kiygizib bering. Darrov kiygizib bering.

Adolat xola Maratni Musharrafga berib, ko'ylagining ho'l bo'lgan yerini chayqash uchun tutamlaganicha chiqib ketdi. Vaqt o'tishi bilan gina-kudurat esidan chiqqandek,

Musharraf erini sog'ingan, kechadan beri tiq etsa ko'zi eshikda edi. Shuning uchun qaynanasining nasihatlari ba'zi vaqtdagidek g'ashini keltirmadi. Maratni undan olar ekan:

– Uyati yo'q bola, buvingga ham gunoh qilasanmi! – dedi erkalab va urish o'rniga bag'riga bosib, yuzidan o'pdi. Tashqaridan Adolat xolaning tovushi keldi:

– Musharrafxon, bu yoqqa qaravoring!

Musharraf chiqqanda mahalla komissiyasining kotibi bilan ikki kishi hovli o'rtasida turardi. Kotibning rangi sal oqarinqiragan, qarashlari tashvishli, u ikki kishining biri tomlarga qarar, bittasi qo'lini cho'ntagiga tiqqancha Musharrafning yetib kelishini kutayotganga o'xshardi. Musharraf salom berdi, yuragi allaqanday baxtsizlikni sezayotgandek gurs-gurs urib, eti jimirlab ketdi, «nima gap?» degandek kotibga qaradi. Kotib noxush xabarni aytishga tili bormadi shekilli, yonida turganlarga imo qildi:

– Bular kelishgan ekan...

Qo'lini cho'ntagiga solib turgani kelish maqsadini aytib, uyni tintuv qilishga hujjat ko'rsatdi.

– O'zlari qani? – dedi titrab Musharraf.

– O'zi ham kelib qoladi, – dedi novchasi.

– Bo'lmasa, o'zlari kelsinlar, siziar choy ichib tura turinglar.

– Yo'q, rahmat, biz boshlayveramiz. Vaqt dedi bittasi muloyimlik bilan va Musharrafning yo'l boshlashini kutib ichkariga qarab yurdi.

«O'zi tinchlikmi, bolam?» deganicha Adolat xola eshik oldida toshdek qotib qolgan edi.

«O'zi hozir kelib qoladi» bilan boshlangan tintuv tun oqqanda tugadi. U ikki kishi Sodiq belgi qo'ygan, chetiga yozgan, ostiga chizgan, varag'ini qayirgan kitoblarning hammasini bir bo'g'cha qildi. Uning konspektlarini ham olib ketmoqchi bo'lgan edi. Musharraf:

– Buni bermayman, erta-indin darslari boshlanganda nima qiladilar? – deb turib oldi. Novchasi:

– Kelishda o‘zi bilan olib keladi! – dedi va sherigiga «qoyil qildimmi?» degandek ko‘zini qisdi.

U biri o‘rta bo‘y, oq-sariqdan kelgani (keyinchalik Qodir aktdan ismini bilgan Pushkaryov) bir chetda rangi bo‘zdek oqarib tashvishda o‘tirgan Adolat xolaga tez-tez qarab qo‘yardi. Uning nazarida kampir juda holdan toyib borayotganga o‘xshar, halizamon qo‘lidan bola tushib ketib, o‘zi ham mukkalab yiqiladigandek ko‘rinardi. U Qodirni sekin yoniga chaqirib:

– Valerianka yo‘qmi, kampirga ozgina ichirib qo‘ysangiz, – dedi.

Qodir shundagina onasining juda o‘zgarib ketganini, madorsiz qo‘llarining titrayotganini payqadi, bir piyola muzday suv tutdi.

– Ha, bolam onang endi dardda adoyi tamom bo‘ladigan bo‘ldi, bularning kelishi yaxshilikka emas, – dedi ona va ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Onaning ko‘z yoshlari marjon bo‘lib qo‘lidagi Maratning ko‘ksiga tomardi.

– Yig‘lamang, ena! – dedi Pushkaryov fotosuratlarni bir yerga yig‘ib, gazetaga o‘rar ekan. – Qo‘chqorov bugun-erta keladi, unda ozgina gapimiz bor.

Sodiq bugun ham, ertasiga ham kelmadi, bir hafta, bir oy o‘tgach ham kelmadi...

Shu kuni Adolat xolaning oqqan ko‘z yoshi to umrining oxirigacha tinmadi!





## II QISM

### 1. AYBSIZ AYBDOR

Sodiq quioch yozsa devorlarga qo'li yetgundek boksdan nima gapligiga fahmi yetmay o'tirar edi. Boshiga kelgan birinchi fikr «qayerda va qachon jinoyat qilgan edim?» degan savol bo'ldi. Hayotida bitta-yarimta nuqson yoki ishida kamchiliklar o'tgan bo'lishi mumkin, lekin bularning hech biri jinoyat emasligiga amin. Shunday bo'lsa ham, butun hayotini xayolidan bir-bir o'tkazdi. Bu eng to'g'ri yo'l edi.

Esini tanibdiki, qo'li qattiq, dili yumshoq otasi yil o'n ikki oy Omil qori yuzboshinikida chorikor ishlardi. Kuz kelganda yuzboshi cheti qayrilgan chervonlarni tekislasa, otasining cho'ntagida har vaqtdagidek shamol o'ynardi. Ularning suprasidan sichqon hazar qilardi. Tekinning minnati ko'p, mehnatning ziynati, deb hech nolimas, butun umidini o'z bilagi bilan, o'z tilagidan kutar, juda mo'min-qobil odam edi.

Hazilkash o'rtoqlari ikki bo'yra yerga ariq tortib tut ekan, ko'karib chiqmaganda xafa bo'lgan sodda kishi shu Qo'chqor aka, deb hazillashar, ba'zan Sodiqni ham «tut ekaning o'g'li» deb yurishar edi. Lekin uning to'ng'ich o'g'li Sodiq unaqa sodda chiqmadi. «Mehnatning ziynati birovga-yu, minnati bizgami, yo'q, ketmaydi», – dedi u. Otasining ketida yurib Omil qorining mollarini boqqan

kunidan boshlab, o'z hayot yo'lini qidirdi. Otasining ochgan yo'li, onasining bichgan to'ni torlik qilib qoldi unga. Tomchi toshni teshadi, deb kerak bo'lgan joyda o'z haqini talab qildi, qo'rqmadi. Uning eng birinchi «isyoni» Omil qori otiga minganda, jilovini ushlab, oyog'idan olib yubormasidan boshladi.

Otasi:

– Unday qilma, bolam! – deganda:

– Uddalasa minsin! Men ot minganimda jilovini birovga ushlatmayman! – deb javob qildi. Buni eshitgan yuzboshi: «Ostonamga oyoq bosmasin!» – dedi. Sodiq uning aytganini qildi. Ko'rsa salom bermadi. Bir kuni Omil qori:

– Saloming qani, badbaxt, yeb qo'ydingmi? – degan edi:

– Aybi yo'q, taqsir, yesam yeb qo'ygandirman, kambag'alchilik... – deb kuldi. Qori uning bunchalik hozir-javobligiga ichida tan bersa ham, jerkidi:

– Zumrasha! Beodob!

Sodiq indamay uning orqasidan kulib qoldi. Qorining bo'yni barglari sidirib tashiangan toi novdaga o'xshardi. «Nega u sira semirmaydi? Birov yetiltirib berganni yeyish yengiu, hazm qilish og'ir bo'ladi shekilli-da», degan xulosaga keldi o'zicha Sodiq. U aqlini bot tanigan edi. Omil qori kutganidek, otasi iltimos qilganidek, yuzboshining eshigiga bosh urib bormadi. Ko'chada kesak tepib, tuproq changitib ham yurmadi. Bo'sh qolganda baliq ovlashga berilib ketdi. Tutgan balig'ini o'zlaridan ancha narida bo'lgan temir yo'l raz'ezdidagi o'rislarga berib yurdi. Ular ham Sodiqni quruq qo'yishmadi.

– Mehnatning qadriga o'ris yetadi! – derdi u. Shunday qilib, o'sha raz'ezddan ish topib oldi. Oldiniga bir rus strelkachining atrofida o'ralashib yurdi. Keyin maoshli

rabochiy bo'lib qoldi. Bo'sh kunlari ular bilan tez oqar Qorasuvda baliq tutishdi, to'qayda tustovuq otishdi. Sodiq bu atrofni yaxshi bilganidan, rus tiliga ancha tushunib qolganidan, keragida tarjimonlik qilishidan raz'ezddagilar ham uni yoqtirib qolgan edilar. Omil qori uning «o'ris bo'lib ketgani»ni bir-ikki marta otasiga ta'na qilib, bir ko'rganda o'ziga ham aytdi, xuddi uning achchiq gapiga ko'zi uchib turganday, Sodiq bir o'ris o'rtog'ining kepkasini o'yin qilib kelmoqda edi. Qori uni to'xtatdi:

– Bu nimasi!

Sodiq Omil qori so'zini tugatguncha ma'nosiga tushunib, gapni bo'ldi:

– Shapka, taqsir, shapka!

– Musulmon bolasiga o'ris shapkasini kiyish uyat!

– Karmoningizdagi pul-chi, taqsir, u o'risniki emasmi? Podshoh-chi? Nomini har kuni xutbaga qo'shib o'qiysiz, bu maylimi?

– Podshoh, podshoyi a'zam... – dedi duduqlanib qori, keyin fikrining kalavasini zo'rg'a topib oldi. – Oq podshoh hazratlari boshqa, shapka kiyadigan bu o'rislarning boshqa.

— To'g'ri, taqsir, bu shapkani kiyadiganlar ham shunaqa deyishadi.

Chindan ham bir-ikki yildan keyin oq podshoh bilan bunaqa shapka kiyadigan o'rislarning boshqa-boshqa kishilar ekani hammaga ayon bo'ldi. Shunaqa shapka kiyganlar avvaliga oq podshohni, keyin oq podshohsiz oq podshoh yo'lini tutadiganlarni taxtdan ag'darib tashladi. Shunda Sodiq engiga qizil bog'lagan, ko'kragiga qizil lenta taqqan kishilarni ko'rdi. Ular qiziq narsalar to'g'risida gaplashardi. Bunaqa gaplarni Sodiq avvallari ham eshitgan, lekin u vaqtda allakimdan qo'rqa-pisa sekin-sekin gaplashar edilar. Endi bo'lsa barchasi!



Sal vaqt o'tmay g'arbi-shimoldan esgan shabada Sodiq turgan yerlarning mog'orini ham tozaladi. Sho'rolar o'z hukmiga kirdi. Lekin uning hukmidan bo'yin tovlaydiganlar ham topilib, xuruj qila boshlashdi. Omil qori yuzboshi malla rang sallasini chor qirra taqdo'ziga almashtirdi. O'zi bosmachilarga chiqib ketmasa ham, to'rtta otini berib yubordi. Namozni qavm bilan machitda emas, o'z uyida o'qiydigan bo'ldi. Xutbaga oq podshohning muborak nomini qo'shmasa ham, oq podshohchilarni duo qiladi, pinhon duo qiladi.

Ana shunda Sodiq raz'ezddagi ruslar va ko'kragiga qizil lenta taqqan chavandozlari bilan birga bosmachilarga qarshi kurashga chiqib ketdi.

– Biz yetimlarning holi nima kechadi? – deb bo'yniga osilib yig'lagan onasiga: Yetimligimizni bildirmaslik uchun, boshqalar yetim qolmasligi uchun ketyapman! – dedi. Uning otasi oq podshohning buzilgan ko'prigiga yog'och kesish uchun bir necha yil ilgari mardikorlikka olib ketilgan, ketganidan beri suvga otilgan toshdek bedomu darak edi. Ba'zilar qaytdi. Lekin qaytmaganlar ko'p. Qaytmaganlarga qishloq aza ochdi, qora kiydi, lekin Adolat xola aza ochtirmadi, axir quruq yo'talishga ham kuch kerak. «Kafan kiygan ketadi, kapalak kiygan keladi» deb turib oldi, hamon umid qiladi. Bir oq yaktagini kelsa kiyadi, deb tishida tishlab yurdi, har bahor chiqqanda bir qoqib, shamollatib, dadasi qizligida qilgan nursizgina sandiqqa yana solib qo'yardi. Ammo Sodiq dadasidan umid qilmaydi: tirik bo'lsa daragi chiqib qolardi. «Ko'prigini tuzataman deb, tegirmonga tushib ketgan. Uning tegirmonidan omon chiqmaganlar ozmi!»

Oq podshohning qora dumi bo'lgan bosmachilarga qarshi qonli kurashga otianib, yoniga qilich taqqanida Sodiq yerga ursa, ko'kka sakraydigan yigirma yashar

olov yigit edi. Ot yeldirib, qilich o'ynatdi. «Komandir» nomini oldi. Mustaqil bo'linma olib, Dilovarxo'ja qo'rboshini quvdi. Yigitlarini tumtaraqay qilib tor-mor keltirdi-yu, o'zini tutolmadi... Bir necha yil davom etgan bu kurashdan u uig'ayib qaytdi.

Yurt tinchib, ariqlardagi suvlarning rangi tiniqlashgandan keyin turli lavozimlarda ishladi. Bundoq qarasa, amal har kim minib ketaveradigan ot. So'ngra u qunt bilan o'qidi. Uqib-o'qib, o'qituvchi bo'ldi. Kitobsiz uy, chiroqsiz tun. Har uyga bir emas, bir necha chiroq kerak, chiroqqa chirog'bon kerak. Hali yoritilishi lozim bo'lgan talay uylar bor.

Eshikning sharaqa-shuruq qilib zarb bilan ochilishi Sodiqning xayolini bo'ldi. Chegara qo'shini formasidagi askar ostonada turar edi: soqol-mo'ylovini toza qirgan, gimnastyorkasiga oppoq ichki yoqa tikkan, kamarining mis to'qasi, furajkasining yulduzi qiya tushgan chiroqda ko'zni olgudek yiltillardi. U Sodiqni boshlab, yuqoridagi xonalardan biriga yelib kirdi-da, o'zi chiqib ketdi.

Oddiygina bir xona. Kunga teskari tomonda italyancha deraza. Eshikdan kiraverishda, chapda stol. Unda telefon, siyohdon. Boshqa hech narsa yo'q. Stol yonida o'tirgan leytenant Sodiqni olib kirgan askarning qo'lidagi qog'ozga qo'l qo'yib berdi. U yigirma besh yoshlardagi gavdali, yelkasi keng, baland bo'yli yigit edi. Sochi to'kilib bitganmi yoki kam qolganidan qirdirib yuradimi, taqir boshi derazadan tushgan yorug'da jez qalpoqdek yiltillardi. U avval Sodiqni burchakdagi taburetkaga o'tirishini buyurib, uni boshdan-oyoq ko'zdan kechirdi. Sodiq lablarini qisib, termilib turardi. Leytenant Sodiqning bardoshini sinamoqchi, ko'zlari bilan qalbining tubiga tushmoqchi, uni titmoqchi, unda nima borligini bilib olmoqchiga o'xshar, kiprik qoqmas edi.

– Men sizning tergovchingiz Chuxanovman. Ishingiz mening qo‘limda, ishonamanki, ortiqcha gojlik qilmasdan, hammasini o‘zingiz gapirib berasiz.

«Ishingiz mening qo‘limda» jumlasini «taqdiring mening qo‘limda» bo‘lib eshitildi Sodiqqa. Nahotki shu yoshgina yigit uning taqdirini hal qilsa!

Tergovchi qo‘y ko‘zlarini undan olmasdan yana salmoqladi:

– Tushunarlimi?

– Tushunarli-ku, o‘rtoq Chuxanov...

Chuxanov sapchib tushdi:

«O‘rtoq Chuxanov» emas, grajdanin tergovchi!»

Sodiq bunga hayratda qoldi-yu, indamadi, so‘zini tuzatdi:

– Grajdanin tergovchi...

Chuxanov soxta jilmaydi.

– ...men hech narsaga tushunmayapman: o‘zi nima gap?

– Tushunib qolasiz! Qisqa qilib aytganda, sizni Davlat xavfsizligini saqlash organi qamoqqa olgan. Buni tushunarsiz?

– Tushunarli. Lekin qanday jinoyatim uchun!

Tergovchi uning so‘zini ilib ketdi:

– Bunisini o‘zingiz aytib berasiz. Qancha to‘la ayt-sangiz, shuncha yaxshi...

– Tushunmadim.

– Bu yerda tushunmaydigan hech narsa yo‘q. Gap birov haqida emas, o‘zingiz haqingizda, ya‘ni Sodiq Qo‘ch-qorov haqida. Nahot o‘zingizning ishiaringizni o‘zingiz bilmasangiz. Qiziq.

Sodiq sovuq suvga sho‘ng‘igandek bo‘ldi. Yakkama-yakka qilichbozlik qilib turgan paytda qo‘lidan quroli uchib

ketgan kishidek bo'shshib tushdi: qarshilik ko'rsatish uchun qo'lida quroli yo'q, taslim bo'lishni esa asti istamaydi.

Uning har bir harakatini sinchiklab kuzatib, tahlil qilib turgan tergovchi, soatiga bir qarab qo'ydi-da, bugungi suhbatga yakun yasadi: – Boring, sizga joy tayyorlab qo'yishgan bo'lsa kerak, yaxshilab o'yang, hammasini o'yang. O'ylashingizga istaganingizcha vaqt beramiz, shoshmaymiz.

Chindan ham unga joy tayyorlab qo'yilgan ekan. Uni tergovchi oldidan olib tushgan askar to'g'ri kameraga boshiab bordi. Bu kamera kunduziari ham chiroq yoniq turadigan uzun va tor koridorning eng oxirida, o'ngda edi.

Sodiq karavotga o'tirdi. Boshini ikki qo'li orasiga olib, o'yga toldi. Iniga cho'p tiqib to'zutilgan aridek, o'yining tartibi yo'q, biri tugamasdan ikkinchisi bosadi. Uchinchisi ikkinchisini quvib chiqaradi, yana biri kelib unga qorishib ketadi.

Tergovchi Chuxanov, o'zi aytganidek, kechasi ham, ertasiga ham chaqirmadi, go'yo Sodiqqa o'yiash uchun imkon bergan edi. Dam olish kunidan keyin esa nonushta o'tar-o'tmasdanoq, chaqirib qoldi. Kursiga o'tirishga ruxsat berishi bilan:

– Xo'sh, yaxshi dam oldingizmi? – dedi. U piching qilyaptimi yoki chindan ahvol so'rayaptimi – Sodiq tushunmadi. O'ylab bo'lgandirsiz, albatta. Qani endi boshlaylik. Cho'zganingizning foydasi yo'q.

– Nimani boshlaymiz, mening sizga aytib beradigan hech qanday jinoyatim yo'q.

– Yana foydasi yo'q gapni boshlayapsiz, o'zingizni qiynayapsiz. Jinoyati yo'q odam bu yerda nima qiladi!

– O'rtoq... kechirasiz, grajdanin tergovchi, siz qanday tushunsangiz, tushuning, lekin bu yerda nohaqlik bor. Men

norozilik bildiraman. Ruxsat bering, Markazga murojaat etaman.

Sodiq kutmaganda tergovchi o'rnidan turdi:

– Boring, yana yaxshilab o'ylang, hali vaqtimiz bor.

Chuxanov uni yana joyiga tushirib yubordi va bir necha kun chaqirmadi.

Sodiq tergovchining bunchalik jim bo'lib ketishini o'zicha tushundi: qo'llarida yetarli hujjat yo'q, nima qilishni bilishmaydi, chiqarib yuborgani esa gap-so'zdan qo'r-qishadi yoki ularni to'g'ri yo'ldan toydirgan tuhmatchining ta'zirini berish bilan bandmikan?

Bu fikr qorong'i uyga chiroq olib kiritilgandek, Sodiqning ko'nglini yoritib yubordi. U bugun-erta chiqib ketadi. Dushman uchun mo'ljallangan bu kamerada chin dushman yotadi. Dushman uchun bu ham kam.

Sodiqning o'yiga o'g'li keldi. U hamon yo'lga chiqish oldidagidek eshik bo'sag'asida qulochini yozib talpinib turibdi, go'yo bola dadasining hali-beri qaytib kelmasligini bilganu, so'nggi marta dadasining mehriga to'yib, nafasini, isini, hidini olib qolmoqchi bo'lib intilganga o'xshardi. Aslini olganda yolg'iz o'g'li bilan orasi olis ham emas. Bir soat kelar-kelmas yo'l. Ehtimol, onasi uni etaklab shu devor orqasida yurgandir. Ana, bola yig'isi eshitilgandek bo'ldi. Sodiqning qulog'i dikraydi. Yig'lagan o'g'li, uning o'g'li, yolg'izi, arzandasi! Nega yig'ladi? Ayb onasida, unar-unmasga bolani turtaveradi. Shunday sevimli o'g'lining Musharrafning qo'lida bo'lganidan yuragi ezilib ketdi. Tomog'iga nimadir kelib tiqildi, achchiq bir narsa dimog'ini yondirdi, achitdi.

Necha yillab orziqib yetishilgan farzandini bir ko'rishga, bir lahzagina lo'ppi yuzlari, munchoq ko'zlariga boqishga muhtoj. Go'yo taqdir uni eng shirin orzusiga erishtirib

qo'yib, keyin atayin jazolayotgandek, beshafqat. Uning butun orzu-umidi shu bolada edi. Hayoti u bilan go'zal, u bilan mukammal edi. Endi-chi! O'ylasa o'yida, uxlasa tushida. Hech xayolidan ketmay qoldi. Sog'mi? Salomatmi? Ishqilib, omon bo'lsin. Albatta, ko'rishadi, yaqinda ko'rishadi. Unga o'zi tarbiya beradi. Mehnatdan hayiqmaydigan, qora ishdan jirkanmaydigan qilib ta'lim beradi. Marat ajoyib yigit bo'ladi, ota kelajagini o'z qo'li bilan unga topshiradi. Yangi hayotda shular, farzandlar yashaydi. Ular boqiy ekan, otalar barhayot. Ehtimol, Sodiq ham u chog' nevaralarini etaklab, bog'larga, xiyobonlarga chiqar, suratli kitoblar ko'rsatib o'qib berib o'tirar. Ular otalar ko'rgan qiyinchiliklarni faqat kitobdan bilajaklar. «Bosmachi nima? U unsur qanaqa maxluq? Nega nonni tarozida tortib berishgan?» deb so'rab qolishsa ajab emas! Ular nohaqlik, tuhmat, yolg'on, manmanlik, laganbardorlik, munofiqlik nima ekanini bilmaydilar. Bular bari u vaqtgacha bahor qoridek erib bitadi, tong ufqidagi tumandek yo'qolib ketadi. Sodiqning bu ko'rganligi esa, biror tuhmatchining ishi. Uzoqqa bormaydi. Haq joyini topadi.

U shunday shirin o'ylar bilan o'zini ovutar, yaxshi kunlarini eslab ko'nglini ko'tarardi. Axir kuyganining foydasi yo'q. Sodiqdek kishiga yarashmaydi ham. Hali qiladigan ancha ishlari bor! «Bo'sh o'tirgan» vaqtlarida beayb o'tgan umrini ko'zdan kechirib boqsa, ancha ishlari hali qilinmagan, qilinganlari ham ko'ngildagidek emas. Maktabda ham ancha imkon bor ekanu, qilmabdi. Hammasini taroziga solib, o'lchab, mo'ljallab qo'ydi. Chiqdi deguncha, shu ishlarga kirishadi. Maktabini rayon emas, shaharda namunali qilmasa asti hisobmas!

Shunday shirin orzu va umidlar bilan bugunni ham o'tkazdi. Yengil tortib, o'rniga yotdi. O'rin ham har

kundagidan yumshoqqa o'xshardi. Ertalab nonushtadan keyin soqolini olishdi. O'sha engil ruh bilan sartaroshga gap qotgan edi, u «kimga gapiryapsan?» ham demadi. «To'xtab tur, ko'chada ko'rganimda bir qizartiray» deb qo'ydi ko'nglida Sodiq. Undan keyin hammomga tushirishdi. «Bular hammasi chiqarib yuborishga tayyorlik bo'lsa kerak, degan fikr ko'ngliga keldi uning. Qachon chiqarisharkan? Kunduzimi, kechasimi? Qachon bo'lsa ham baribir. Lekin qoidalarini buzishmagani yaxshi!»

Shu payt og'ir eshikning tambasi tortilib, keyin qulfiga kalit solindi. «Mana ketdim» – dedi yuragi sapchib Sodiq va irg'ib o'rnidan turdi. Nazoratchi eshikni ochib:

– Kiyining! Yuring, – dedi.

## 2. QIZ ISYONI

Odam bolasi kimga tilyog'lamalik qilishga majbur bo'lsa, o'shani yomon ko'radi, ter to'kib, qo'lga kiritgan muvaffaqiyati unda hasad uyg'otadi.

Mirsalim ham xuddi shunday. Sodiqni har ko'rganida bir salom berib, muvaffaqiyatlaridan yonib yurganida, uning «birdan» gamalib qolishi sal cho'chitdi uni, o'zi qazigan chohning bunchalik dahshatli ekanini endi fahmlagandek bo'ldi, uch-to'rt kun tahorat olib, namozga zo'r berdi. O'zini odamlardan chetroq tutdi. Har ko'rgan odam «o'rtog'ing gamalib qolibdi-ku, oranglar juda qalin edi» yoki «boshini yegan o'zing emasmisan, jilla bo'lmasa sababini bilarsan axir, bir qoshiqdan osh ichardinglar» deyayotgandek ko'rinardi. Lekin hech kim hech nima demadi. Faqat keyingi vaqtlarda aktiv bo'lib qolgan maktabda ba'zi birovlar undan o'zini chetga oldi, birga yo'lga chiqib qolsa, bir narsani bahona qilib chapga burilib ketishardi,

hatto bir kuni kekxa o'qituvchi Ikrom otaning «g'alamis» deganini ham o'z qulog'i bilan eshitdi, ammo botinib javob qaytarolmadi. Shunda bildiki, bu xilda og'ziga so'k olib yashashi yaxshi emas, tiqilib qolishi mumkin. O'ziga xos chaqqonlik bilan to'nini o'zgartirdi, qayerda to'rtta odam bo'lsa orasiga suqilib, to'daga o'zini urib, gapga aralashdi, o'zini sofdil ko'rsatib, Sodiqning sag'anasiga tosh qaladi, hatto bir majlisda so'zga chiqib uni obdan qoralab bo'lgach:

– Mendan poraga qazi bilan sur to'sh olgan! – dedi.

– Qassoblik ham qilasizmi! – dedi kimdir pastdan. Sokin tunda otilgan o'qdek kulgi ko'tarildi. Kutilmagan bu luqma Mirsalimni shoshirib qo'ydi; qazi bilan sur to'sh keladigan joydagi uning yashirin savdo ishi ochilib qolayotganga o'xshardi. – Nega-nega! – dedi o'zini o'nglab Mirsalim, – topib bering degan edi, ming mashaqqat bilan topib bersam...

– Zo'rlab olibdi-da! – yana o'sha tanish tovush qichqirdi.

– Yo'q, o'zim yuborganman... Zo'rlab berganman.

Uning chuldirab qolganidan yana kulgi ko'tarildi.

Yana birov:

– Zo'rlab bergan hisobga kirmaydi, majbur qilib olsa ekan! – dedi.

– Majbur qilgan... yo'q... majbur qilganman... Mirsalimning duduqlanishi uzoq cho'zilmadi. U gapni boshqa yoqqa burishi bilan kalavasining yo'qotgan uchini topib oldi. Dastro'mol bilan peshonasi va qizishib ketgan bo'yinlarini artib, balanddan keldi.

– Siz menga luqma tashlab so'zimdan adashtirmang. Men sizning maqsadingizni ham bilaman, xalq dushmani Sodiq bilan birga oshxonaga kirganingizni o'z ko'zim bilan ko'rganman, beshta kabobning uchtasini unga bergansiz.



Men bo'lsam uning zulmini tortib keldim. Talabalar ro'zasini non berib ochtirganimda meni masxaralab, ro'zani himoya qilgan kim? Sodiq! O'qituvchilarni hushyorlikka chaqirib, daftar muqovasidan har xil tamg'a, so'z qidirtirganimda mendan kulgan kim? Sodiq! Pedsovetlarda kim mening obro'yimni to'kkan? Sodiq! Men bu xalq dushmanining hazilakam jabru jafolarini tortganim yo'q! Lekin men uning kirdikorlarini ichimga yutib ketavermadim, qarshilik ko'rsatdim. Kim boshlab uni pedsovetda tanqid qildi? Men! Boshlab uni men fosh qildim, men sinfiy hushyorlik ko'rsatdim. Esiaringda bormi, u bolalarga «qaldirg'och Makkayi mukarraman kelgan muqaddas qush, uyasini buzib bo'lmaydi, buzmanglar» deganda ham, taloq haqida o'quvchi bolalarga axloqsiz hikoyalar aytib berganida ham sizlar indamadinglar. Men, yo'q unday emas, dedim, uning yovuz niyatini fosh qildim.

Zaldagi sukunatni keksa o'qituvchi Ikrom otaning zaharxandasi buzdi:

– Kerakli joyga ham borib aytganmisan?

Ota so'zini tugatmasdan Mirsalim shoshqaloqlab ketdi:

– Aytganman... yo'q, borib aytishim mumkin. Aytaman...

– Aytmagan bo'lsang, tezroq borib ayt, yana chiqarib yubormasin!..

Kimdir piqirlab kuldi, kimdir yo'talib qo'ydi.

– «O'rtoq Qo'chqorov ikki kun ko'rinmasa, maktab soqolsiz kishiday bo'lib qoladi», deb soyasiga yakandoz solib yurgan kim edi? – dedi yana bir o'qituvchi.

– Deganman! Deganim rost, lekin bu gapni to'g'ri tushunish kerak. Soqol eski odamlarda bo'ladi. Sodiq bo'lmasa maktab yigitlardek yashnab ketadi, deganman. Bu mening unga qarshi olib borgan kurashimning bir xili edi, zamon aravasidan ketda yurmasdan hushyor bo'lish kerak, o'rtoq...

Mirsalim luqma tashlaganning nomini topolmadi, ensasi qotib hech kim aytmadi. Unga-bunga: «nima edi familiyasi?» degandek javdiragancha qolaverdi...

Mirsalim bunday so'zlarni majlislarda necha bor takrorlab yurdi, keyin rayon doirasida bo'lgan bir katta yig'ilishda ham yozib kelib, o'qib berdi. Uning bu fosh qiluvchi nutqi kimgadir yoqdi-yu, u obro' topib qoldi. Shu majlisning o'zidayoq rayon rahbarlaridan biri uni tilga olib, qo'ltig'iga suv purkab qo'ydi. Sal vaqtdan keyin uning maktab direktori qilib tayinlangani haqida maorifning buyrug'i chiqdi. Bu Mirsalimning kutganidan ham ortiq edi. Darrov o'ziga sipolik berib maktabda «hushyorlik»ni kuchaytirib yubordi. Sodiqning vaqtida e'tibor topgan kishilarni cho'qiladi. Ikrom otani «o'z arizasiga ko'ra» ishdan bo'shatdi. Zoologiya kabinetida Sodiq yasab bergan kalxat, bo'ri, yumronqoziq chuchelolarini «bu xalq dushmanining yovuz niyatli ishi, aks holda yirtqich bo'ri bilan olg'ir kaixat, kemiruvchi yumronqoziqni yoshlarimizga ibrat qilmas edi» deb oldirib tashladi, Sodiqni eslatadigan har bir narsani qirib-qirtishladi, hatto «botanika bog'i» deb nom olgan maktab orqasidagi maydonni tekislab yuborishiga sal qoldi, ko'pchilik «biz obod qilganmiz» deb qalqon bo'lgani uchungina qoldi. Oz muddat ichida maktabni o'z rasamatiga solib oldi. Haddi siqqanlardan ayg'oqchi tayinlab, kishilar orqasiga qo'ydi. Izmidan chiqqanlarni kabinetiga chaqirib, bigizini tiqdi. Sodiqqa hamtovoqlikda ayblab do'q urdi, xalq dushmanini fosh qilishdagi o'z xizmatlarini pesh qildi, mo'ylov siladi. Endi hech kim maktabning kamchiligi haqida gapirolmas, gapirgan kishi ming baloga giriftor bo'lardi! Bu vaqtda Mirsalim surma rang do'ppini furajkaga, ko'yiakni gimnastyorka bilan eni enli charm kamarga almashtirgan edi.

Mirsalim maktabni «tozalab», o'z qolipiga solib olgandan keyin, o'zining uy ichini begumon qilib qo'yishga qaror berdi. Qizi Azizaning Qodir bilan hamon uchrashib turishini bilar, bu narsa bir kun emas, bir kuni o'ziga putur yetkazishi mumkin. «Xalq dushmani»ning ukasini kuyov qilishi o'zini yonib turgan olovga tashlash emasmi? Mirsalim ming qoqilib, necha yil orzu qilib endi mingan amaliga joni-jahdi bilan yopishib olgan edi.

Ichida u Qodirning yomon yigit emasligini bilardi. Qizi bilan uning aloqasini boshlab sezganda o'zini bilib, bilmaslikka olgan, orqavarotdan kuzatgan qizining dididan mamnun bo'lgan edi. Buning ustiga, Qodirning akasi ham chakki obro'ga ega emas edi-da. Endi-chi? Endi bu oila qora qozon, yaqinlashganga qorasi yuqadi. Buning ustiga, Mirsalimning o'zi ham kutmagan baxt qushi boshiga qo'ngan payt. Nahot ikki bolaning qandaydir sevgisini deb, mavqeidan ajralsa. Nahotki omad narvonining ilk pochalariga endi oyoq qo'yganda ko'ra-bila turib sirg'anib yiqilsa! Yo'q, bunga yo'l qo'ymaydi! Otalik mavqei bilan bir siltab, qizini qantarib oladi, keyin mansabida bexavotir o'nashib o'tiradi, omadi bardosh bersa, yana yuqoriga ko'tarilish niyati ham yo'q emas.

Mirsalim bu masalani bir necha kun o'ylab yurgach, oxiri xotini orqali ish ko'rishga qaror qildi. Ishdan qaytib kelsa, qizi hamon o'qishdan kelmagan, xotini hoviini supurib bo'lib, axlatni xokandozga olayotgan edi.

– To'plab nima qilasan, ariqqa oqiz qo'y-da.

– Voy, axiat-a! Kishilar ichadi, yuz-qo'l yuvadi...

– Kishilar... kishilar... Uni oldirib tashiashning o'zi bo'ladimi, mullajiring kerak! Yo dadangizdan meros tegdimi! – dedi Mirsalim, lekin bugungi niyati esiga tushib darrov yumshadi. – Ke, mayli, to'play ber, maktab ara-

vasiga aytsam olib ketar. Qani, bu yoqqa kel, maslahatli ish chiqib qoldi.

Hech mahal bunday maslahatlashib ish tutmagan erining bu so'zi xotini quloq'iga allanechuk eshitildi. «Ishqilib xayrli bo'lsin» deganicha naqshli jez obdastada suv olib keldi. Har kungiday erining oyog'iga oz-oz quyar, eri terlagan barmoqlarini bitta-bittalab orasiga qo'lini tiqib yuvar ekan, gap boshladi:

– Qizingga ayt, Qodir bilan uchrashuvni bas qilsin, oxiri yaxshi bo'lmaydi. U dunyo-yu bu dunyo kosasi oqarmaydi, oqartirishmaydi. O'ziniki oqarmagani oqarmagan, bizga ham kasri uradi. Yopiq qozon yopiqigicha qolsin, ayt, tayinlab ayt qizingga.

Muhabbat nimaligini bilmagan, muhabbatga ishi tushmagan, hatto uning borligiga shubha qilgan Mirsalim Aziza bilan Qodirning uchrashuviga yoshlik havasi deb qaragan, ikki og'iz so'z bilan ajralib ketishiga ishonchi komil edi. Shuning uchun xotiniga yo'l-yo'riq berib, uyga kirib ketdi. «Bir oz dam olay» deb yotib, ko'zi ilinibdi. Bir vaqt Azizaning yig'i aralash baqirib, kimgadir gap uqtirayotganidan cho'chib uyg'ondi, tashqariga quloq soldi.

– Bas, dadang uyda, eshitib qoladi! – derdi xotini.

– Eshitsa eshitar. Men dadamnikini eshitdim, dadam ham menikini eshitsa eshitar, – dedi Aziza cho'rt kesib, Mirsalimning eti jimirlab, nafasi tiqilib keldi, ustiga yopgan choponini irg'itib tashlab, dir-dir titraganicha hovliga chiqib bordi. Dadasini ko'rib, ayvon chetida turgan Aziza boshini quyi soldi, xotini «endi baloga qoldim!» degandek, pastki labini tishiab, yuzini chetga o'girdi.

– Nima gap? Nima lo'lilik? – dedi Mirsalim xuddi hech narsa bilmagan kishidek o'zini bosib.

Bir oz jimlikdan keyin xotini qiziga yer ostidan qarab olgach, dedi:

– Haligi gaplingizni aytgan edim...

– Xo’sh, nima deydi, noma’qui maslahatmishmi! – dedi Mirsalim jo’rt taga qizi emas, xotiniga qarab. Lekin javobni xotini emas, Azizaning o’zi qildi:

– Akasi uchun u javobgar emas!

– Javobgarmi, yo’qmi, mening ishim yo’q. Unut uni, vassalom!

– Endi yomon bo’lib qoldimi? Qo’rqyapsizmi? Gap tegadimi!

Mirsalim bunday javobni kutmaganidan, yalt etib qizining yuziga qaradi. Azizaning ko’zlarida o’t chaqnar, lablari asabdan qisq, «men o’zimni, o’z sevgimni himoya qilyapman» degan iroda butun vujudidan barq urib turardi. G’azabdan Mirsalimning panjasi mushtga tugildi, bo’yni cho’zilib, ko’ziga qon quyildi.

– Ha, qo’rqaman! O’sha mishiqli deb obro’yim to’kilishini istamayman!

– U mishiqli emas, halol yigit, mehnatkash yigit! Akasining kimligini bilmaymanu, lekin uning sof, vijdonli kishi ekaniga boshim bilan javob beraman.

– Akasi ham shunaqa, tili biyron, usti yiltiroq odam edi.

– Dada, akasini bilmayman!

– Zato men bilaman! – dedi o’dag’aylab Mirsalim. Lekin birov «Ha, to’g’ri, sen uni yaxshi bilasan, boshini egan ham o’zingsan» deyayotgandek cho’chib ketdi. Darrov qarorini ayta qoldi: – Gap shu: xalq dushmanining ukasini kuyov qilmayman!

– Men sizdan so’rab o’tirmayman!

– Nima?!

Aziza javob o’rnida boshini mag’rur ko’tarib chaqnab turgan ko’zini otasiga qadadi. Uning ko’zida haqsizlikka

qarshi nafrat, iztirob va o'z ishiga ishonch, fidokorlik yonar, dadanikida esa o'jarlik, manmanlik va g'araz, xusumat aksi bor edi.

Mirsalim Azizaning bu tikilishiga bardosh berolishini, o'z mag'lubiyatini baqiriq bilan yashirdi:

– Yo'qol! Diydingni ko'rmay, mening senday qizim yo'q!

Xotini faryod bilan boshini changallab, Mirsalimning oyog'iga tashlandi. Aziza vazmin qadamiar bilan Mirsalimning yonidan o'tib, so'riga ilib qo'ygan portfelini oldi. Ohista, vazmin qadamiar bilan eshikka qarab yurdi.

Ertasiga onasini bezovta qilmaslik uchun yotoqqa joylashganini aytib, odam yubordi.

Mirsalim esa, bir haftadan keyin Sodiq oilasi bilan turgan va bir vaqtlar havasi kelib yurgan to'rt xonali hovlini Adolat xolaning ko'z yoshlariga qaramasdan bo'shattirib olib ko'chib kirdi. Munkillab qolgan, g'am-g'ussadan sochlari oqarib ketgan Adolat xola ko'chaga uloqtirib tashiangan yuklari ustida o'tirib: Bu qora kunlar o'tar-ketar, yuzingizning kuygani qoladi, Mirsalim! Sodiqjon kelsa nima deysiz? Uyat! – degan edi, Mirsalim eshitmaganday bo'lib darvozani xolaning yuziga tarsillatib yopib kirib ketdi.

### • 3. ISHONCHGA KIRGAN TUHMATCHILAR

So'ngsiz shirin orzular og'ushida ekan, nazoratchi eshikni zarb bilan ochib, «Kiyin! Yur!» deganida quvonchdan ichida «ana, uyga ketdim» deb apil-tapil kiyingan Sodiq, sal o'tmay o'zini yana Chuxanov kabinetida ko'rdi.

Tergovchi o'z o'rniga o'tirib, stol tortmasidan oq qog'oz olib ko'zdan kechirdi. Keyin boshini ko'tarib, Sodiqqa qaradi:

– Demak, iqror bo'lmoqchi emassiz? Foydasi bo'lsa davom ettiravering, o'zingizga qiyin.

Sodiq churq etmadi. Tergovchi o'z joyiga borib o'tirdi. Telefon qilib bir kishini o'rniga vaqtincha kirib turishga taklif etdi. Sal o'tmay u odam eshikda ko'rindi. Yangi kirgan leytenant Sodiqning salomiga alik olib, Chuxanovning o'rniga o'tirdi. U tunov kuni ham bir-ikki kirib-chiqib ketgan edi. Shunda kimdir uni Pushkaryov, deb chaqirganda, familiyasini bilib olgan edi. U muloyim kirib, Chuxanov bilan qo'l olib ko'rishadi-da, Sodiqqa yumshoq nazar tashlab qo'yadi, salomiga bosh chayqab alik oladi.

Pushkaryov hozir ham Sodiqqa qarab bir-ikki og'iz juftiadi-yu, gapirmadi. Yana qo'lidagi kitobini varaqladi, qiziq suratga ko'zi tushdi shekilli, miyig'ida kulib qo'ydi. Keyin yumshoqlik bilan uning ahvolini so'radi, ko'nglini ko'targan bo'ldi.

Sodiq Pushkaryovning bu mehribonligidan kurortga bepul putyovka olgan kishidek quvondi va ayni vaqtda xo'rligi kelib ketdi. Insonning ko'nglini olish, uni mamnun qilish uchun axir ko'p narsa kerak emas-da!

Pushkaryov buni tushundi, o'rnidan turib kelib, yupatish ohangida gapirdi:

– Xafa bo'lmang, keragi yo'q.

U nimalardir deb yupatmoqchiga o'xshardi-yu, lekin jur'at etolmagani ko'rinib turardi. Sodiqning fahmicha, Pushkaryov bu yerda ro'y berayotgan ba'zi nohaqliklarni o'z ko'zi bilan ko'rib turibdi, ichidan kuyadi, ammo biror ish qilishga, bir ish qilish emas, hatto aytishga ham ojiz!

– Yuragingiz kasal emasmi? – dedi bir ozdan keyin.

– Yo'q, – bosh qimirlatib javob qildi Sodiq.

– Unda hech narsa qilmaydi, o'tib ketadi, sal toliqibsiz.

Sodiqning ko'zi shu kichik suhbatdan keyin charaqlab ochildi. Ko'ziga shu leytenant dunyoda eng mehribon

kishi bo'lib ko'rindi. Boshini ko'tarib, Pushkaryovga qaradi. Nazarida juda o'zgachadek bo'lib tuyulgan bu yoshgina yigit oq-sariqdan kelgan, ko'zlari ko'm-ko'k, qoshlari sezilar-sezilmas kulrang, burnining uchi birov chertib qo'ygandek to'mtoq, uchli, labi cho'g'dek qizil ekan. Bunaqa oddily rus kishilarni u ko'p ko'rgan. Ulardan qanchadan-qancha o'rtoqlari bor edi.

U Pushkaryovning ko'ziga termilib qoldi. Bu ko'zlar unga hayot, istiqbol va'da etardi, bu ko'zlar umid va ishonch baxsh etardi, bu ko'zlarda odamiylik va haqiqat yonardi.

– Siz ham shu yerda ishlaysizmi? – dedi jur'at qilib Sodiq.

– Ha, – dedi Pushkaryov va ko'zini kitobdan olib kulimsiradi. Bu tabassum Sodiqda yana jasorat tug'dirdi.

– Siz ham tergovchimisiz?

– Bunisi sir, – dedi u yana kulib, lekin saldan keyin qo'shib qo'ydi: – Sizcha kimman?

– Bilmasam.

– Men ham tergovchiman, albatta.

Sodiqning fikri ravshanlanib, o'yiay ketdi: Chuxanov ham tergovchi, bu ham tergovchi. Ikkalasi ikki dunyo. Biridan kishining ko'ngli suv ichadi, ikkinchisidan ensang tosh qotadi. Pushkaryovga o'xshaganlar bo'lgani holda nega Chuxanovlar bunaqa ish tutadi ekan?

Sodiqning Pushkaryovga rahmi keldi. Unga ishlash juda qiyin bo'lsa kerak. Axir uning mana hozir Sodiqqa qilayotgan rahmdilligini Chuxanovga o'xshaganlardan birontasi ko'rib qolsa, indamay turmaydi-da!

Pushkaryov kitobni bir chetga surib qo'yib, Chuxanov tez-tez ko'zdan kechirib turadigan papkani ochdi. Har qog'ozni o'qiganda yuzi o'zgarib turdi. Bu Sodiqning



delosi. U anchagina qalin, kepak rangidagi muqovasi uringan. Sodiq uning o'z delosi ekanini birinchi marta ko'rganda ishonmagan, shuncha material qayoqdan yig'iladi deb o'yiagan, Chuxanov muqovasini ko'rsatib, uning familiyasini o'qib berishga majbur bo'lgan edi. Baribir halq ham uning ichidagi materialning hammasi o'ziga taalluqli ekaniga ishonmaydi.

Pushkaryov deloni o'qiyverib zerikdi shekilli, xo'rsinib undan boshini ko'tardi. O'rnidan turdi. Og'ir qadamlar bilan Sodiq o'tirgan burchakka keldi. Rostini ayting, siyosatdan norozi bo'lgan yillaringiz bo'lganmi? Hech jinoyatga qo'l urganmisiz?

– Mutlaqo! Xayolimga ham kelmagan. Buning uchun asos ham yo'q: badavlat xonadondan chiqmaganmanki, otamning hukumat tufayli qo'ldan ketgan mol-mulkini eslab, xumori tutsa; chet elda bo'lganim yo'qki, uning usti yaltiroqligiga uchsam, o'shanday hayotni orzu qilsam; birorta mafkurani buzuq odamda o'qiganim yo'qki, u meni yo'ldan urgan bo'lsa!

Sodiqning astoydil kuyib-pishib gapirishi Pushkaryovning diqqatini tortdi. U tushundiki, qarshisida uyqudan qolib, holdan tolib o'tirgan kishi hayotga befarq qaraydiganlardan emas, bundaylar komil ishonch bilan yashaydi, ikkiyuziamalikni bilmaydi.

Pushkaryov ana shu xulosasini yana bir tasdiqlab aniqlab olmoqchi bo'lgandek, Sodiqni boshdan-oyoq ko'zdan kechirdi, horg'in ko'ziga boqdi, soqoli o'sib ketgan yuzlaridan nimalardir izladi. Keyin yana o'z joyiga o'tib, deloni ko'rdi. Yelkasini qisib qo'ydi.

– Qiziq, juda qiziq...

Shundan keyin oraga uzoq jimlik cho'kdi. Ancha hushyor tortgan Sodiq fikran bir necha marta uyiga borib

keldi, sevgan maktabini aylandi, darsga kirdi, ovga chiqdi. Shirin orzular og'ushida mast bo'lib o'tirar ekan, Chuxanov kirib keldi. Qo'lida bir varaq qog'oz, Pushkaryov chiqib ketdi.

Chuxanov stuliga o'tirib, Sodiqni oldiga chaqirdi.

– Mana buni o'qib, qo'l qo'ying.

Sodiq Chuxanov uzatgan qog'ozni o'qidi-yu, ustidan sovuq suv quyilgandek hushyor tortdi. Qog'oz uning partiya biletini shahar partiya komitetiga topshirilgani haqida edi.

– O'chdimmi? – deya oldi o'zini bu dahshatli xabardan arang o'nglab Sodiq.

– Bo'lmasam-chi!

Sodiq shundan keyin qanday qilib joyiga kelib o'tirganini, qog'ozga qanday qo'l qo'yganini, qachon uni kameraga olib tushganlarini esiy olmaydi. Partibileti haqidagi to'rt enlik qog'oz ko'z oldidan ketmay qoldi...

Sodiq o'z o'limiga o'zi aza ochgandek, ho'ngrab yig'lab yubordi, bu uning umrida balki birinchi marta ho'ngrab yig'lashi edi.

Bir necha kun o'tgach uni yana tergovchi chaqirdi. Sodiq kirib borganda Chuxanovning xonasida Mirsalim o'tirgandi. Sodiqni ko'rishi bilan sal bezovtalandi, lekin tezda o'zini o'nglab, yutinib oldi. «Bu nima qilib yuribdi?» – Sodiqning miyasiga kelgan ilk fikr shu bo'ldi. Xayolida bunga javob topguncha, nechundir yuragi orqasiga tortib ketdi.

Mirsalim qandaydir soxta ishshayish bilan o'rnidan qo'zg'alib, salomlashgan bo'ldi.

Sodiq o'tirar-o'tirmas tergovchi so'z tashladi:

– Tanish bo'lsanglar kerak?

– Ha, birga ishlardik, – dedi Sodiq bo'shgina. Mirsalim boshi bilan tasdiqladi.

– Tanish ham gapmi, sirdoshlar-ku. Qancha-qancha shishalarni birga bo‘shatishgan, – gapga aralashdi Chuxanovning yonida o‘tirgan qorachadan kelgan, yuzlariga husnbuzar toshib ketgan novcha yosh yigit. Sodiq bu yigitni biladi. Familiyasi Saydullayev. Buni ilk bor eshitganda nahotki familiyasining noto‘g‘ri ekanini bilmasa, asli Sa‘dullayev-ku, deb ko‘nglidan o‘tkazgan edi. Uning talaffuzidan Samarqand shevasi yaqqol sezilib turardi. U ba‘zan-ba‘zan kirib Chuxanovga ko‘maklashadi. Hatto bir kuni Sodiq bilan yolg‘iz qolib, «bo‘yningizga oling-quying-da, o‘zingizni qiynab nima qilasiz, siz kuch bergan to‘nka endi ko‘karmaydi», – degan edi. Shu-shu yigitni yomon ko‘rib qolgandi.

Chuxanov «barvaqt luqma tashlading!» degandek Saydullayevga qarab, avvalgi yumshoq tovush bilan yana so‘radi:

– Bir-biringizga shaxsiy adovatlaring yo‘qmi?

Boshlab Mirsalim javob berdi: Yo‘q.

– Xizmatdagi ba‘zi bir to‘qnashuvlarni hisobga olmasak, albatta, yo‘q.

Sodiq shunday deyishga dedi-ku, ammo ichidan sovuq yel o‘tgandek bo‘ldi. Yuragi qandaydir ko‘ngilsizlikni sezayotgandek hapriqib ketdi.

– Xizmatda bunaqa gaplar bo‘ladi, adovatga kirmaydi!

– cho‘rt kesdi Chuxanov.

Ana shundan keyin Sodiq yetti uxlab tushiga kirmagan gaplar boshlandi.

Mirsalim guvohlikka kelgan ekan. U shunaqa ayblarni Sodiqqa taqadiki, uncha-muncha odamning tiligacha muzlab ketadi. Sodiq o‘z tug‘ilgan qishlog‘ida bir necha maslakdosh kishilari bilan siyosatga qarshi ishlar qilgan emish. Maqsadi – yoshlarni yo‘ldan urish bo‘lgan emish.

Shu niyatda maorif sohasiga ko'chgan, qamalgan Boltaqul uning o'ng qo'li ekan. O'z faoliyatini kengaytirish maqsadida markazga ko'chib kelgan, Mirsalimni verbovka qilishga uringan, u yon bosmagandan keyin turli yo'llar bilan qisa boshlaganmish.

– Yolg'on! Tuhmat! – bardosh berolmadi Sodiq.

– Baqirmang! Qo'l ostingizdagilarga baqiradigan direktorlik vaqtingiz o'tib ketgan. Men bu gaplarni o'z og'zingizdan eshitganman.

Mirsalimning bu surbetligidan Sodiq yana tutaqib ketdi:

– Tuhmatchi! G'alamis! Bo'hton qilgani uyalmaysizmi! Uni Saydullayev qayirib tashladi.

– Sovet kishisini haqorat qilmang, grajdanin Qo'chqorov.

Sodiq tergovchilarning tanbehiga parvo qilmay, ig'vogarning o'ziga tashlandi:

– Sening-ku tilyog'lama, ichidan pishganligingni bilardim, lekin yuragi qora, iflos, ig'vogarligingdan bexabar ekanman. Mayli, gapir, og'zingga siqqancha gapir, vijdonsiz!

Chuxanov ishning buzilib ketishidan qo'rqdimi, nima uchundir, og'irlik bilan oraga tushdi:

– Qo'chqorov! Yengillik qilmang! Haqiqat doim shunaqa achchiq va zalvorli bo'ladi. Shularning barchasini shu vaqtgacha o'zingiz tartibi bilan aytib berishingiz mumkin edi. Birovning og'zidan eshitish va fosh bo'lish, albatta, og'ir! Nachora!

Mirsalim xizmatlari evaziga mukofot olayotgan odamdek bemalol o'tirardi. Lekin qandaydir bezovtalik yuziga sharpa solib turardi. U Sodiqning yuziga boqolmas edi: yo bardoshi yetmaydi, yo tuhmatining sezilib qolishidan cho'chirdi. Sodiq esa, aksincha, uning qarashini oviar,

ko'zini uchratib, ichiga nazar tashlamoqchi bo'lardi, payt poylardi. Oxiri bunga muyassar bo'ldi, uning ko'zini uchratdi: Mirsalim bir necha lahzaga bardosh beroldi, xolos! Sodiq uning bu behayolarcha boqishidan g'alamislik, ig'vo, tuhmatchilik qon-qoniga singib ketgan, kishilar boshiga qora kun solishdan zavqlanadi bu odam, degan ishonchga keldi. «Eh, attang, nega avval bilmagan ekanman» deb o'kinib qo'ydi.

Sodiq qanchalik qattiq turib o'zini himoya qilmasin, Mirsalim shunchalik bezbetlik bilan unga tuhmat toshlarini yog'dirar edi.

Sodiq bu yerda haqligini isbot qilishga qurbi yetmasligini bildi. Ishi sudga oshsa, o'sha yerda uzil-kesil g'alaba qozonishga umid bog'lab, o'ziga dalda berib turganda yana boshqa biri paydo bo'ldi. Bu bir vaqtlar darsga ichib kelgani uchun Sodiqdan dakki yegan o'qituvchi Shukurov edi. U Mirsalimga o'xshash surbetlarcha gerdayib o'tirmagan, shartta-shartta gapirmagan bo'lsa ham, Mirsalimning aytganlarini ba'zan to'ldirdi, ba'zan tasdiqladi. Sodiqni maktabdagi halol o'qituvchilarni quvg'in qilish, ta'qib ostiga olish, talabalar orasida diniy targ'ibot olib borish (qaldirg'ochni Makkayi mukarramadan kelgan degan, taloq haqida odobsiz latifa aytib berganmish), maishiy jihatdan buzilib yosh xotinga uylanish, ochilgan xotin-qizlarni tahqirlashda aybladi. «Hukumat xotin-qizlarni erkaklar bilan teng qilaman, deb bekor urinadi, yigirmata xotinning aqli bir tovuqnikicha yo'q. Bir ayolning g'iybati qirqta eshakka yuk bo'ladi», degan emish.

– Qachon? Qayerda? – so'radi ajablanib Sodiq.

– Maktabda, koridorda. Mavjuda Abdurahmonova nomzodi deputatlikka ko'rsatilganda.

Sodiq Shukurovning bu tuhmatidan yoqa ushladi: – Yo tavba! – saldan keyin o'zini tutib oldi. – Shukurov, sizning tuhmatchiligingizga emas, it yeganini qusadi-ku, lekin qo'lingizga tarbiyalash uchun ishonib topshirilgan bolalarga jonim achlyapti. Esiz bolalar! Esiz tarbiya! – Siz o'zingizning g'amingizni yeyavering, – uni cho'qiladi Saydullayev. Uning ko'krigidagi osig'liq nishoni qiyshayib, o'ng ko'zi ostidagi qora xoli yiltillab ketdi.

– Mening vijdonim pok. Itning tili tekkani bilan daryoning suvi harom bo'lmaydi. Yolg'onning oyog'i qisqa, uzoqqa borolmaydi, bir kuni misi chiqadi. Lekin sizlarning bunday g'alamislar gapiga ishonganlarga hayronman.

– Xalq dushmani Boltaqul sizning masiakdoshingiz ekanini unutmang! – cho'rt bo'ldi Chuxanov.

– U dushman emas!

– U sizdan ko'ra aqlli ekan: o'zini qiynagani yo'q, hammasini aytib berdi, – dedi Chuxanov.

«Nahot, shu gaplar to'g'ri bo'lsa! Boltaqul dushman, o'zi iqror! Yo'q, mumkin emas!» – dedi ichida Sodiq va yana ajablandi.

Sodiq gangigancha kamerasiga kirib keldi. U mudhish tushdan uyg'onolmagan odamga o'xshardi.

#### 4. YUZMA-YUZ

Shunday vaqtlar bo'ldiki, tergovchi haftalab uni chaqirmadi. Bir kuni yana bir kishi bilan yuzma-yuz qildi. U bosmachilarga qarshi kurashish chog'ida unda askar bo'lgan ekan. Uni Sodiq tanimadi, so'ngra bilsa, bir oz kungina xizmat qilgan ekan. Ancha yoshlarga borib qolgan, soqol qo'ygan, so'yloq tishli, bir ko'zi ko'r, novcha bir kishi edi. U Sodiqni bosmachilarga qurol yetkazib berishda aybladi.

Sodiq mana shu nayranglarni xayolidan o'tkazib, yangi kameraga kirib keldi. Bu kamera avvalgidan kengroq va qo'sh karavotli edi. U bittasiga o'rnini yozib, ikkinchisiga qaysi «baxtiyor» kelar ekan, deb ko'nglidan o'tkazdi, kiradigan odamning qanday bo'lishi uni qiziqitirmaydi. U odam zotini ko'rishga, so'zlashishga muhtoj. Avvalgi kamerada yolg'iz yotganida haftalab og'zidan biror so'z chiqmagan vaqtlari bo'ldi-da, axir.

Uchinchi kun progulkadan qaytsa, bir odam o'tiribdi, Sodiqning kirganini ko'rib, boshini ko'tardi. Salomlashdi. Qamoqda bir-birovga beriladigan odatdagi so'roqlar bo'lib o'tdi: qachon qamalgansiz? Nimaga? Qaysi kameradan chiqdingiz? Kimlarni ko'rdingiz?

Sodiqning boshlab ko'ziga tashlangan narsa, ham-suhbatining xumkalla, do'ng peshonaligi, qoshining qoshdan ko'ra mo'ylovga o'xshashligi va ro'parasidan sochma o'q yegandek cho'tirligi bo'ldi. Sodiq uning ismini so'ragan edi, nima uchundir, ismini emas, familiyasini aytdi: Badalxo'jayev ekan.

U boshlab suhbatga moyillik ko'rsatmadi. Nimadandir hadiksirashi, o'zini ehtiyot qilayotgani, yuragida esa, to'fon hayqirig'i yotgani yaqqol ko'rinib turardi, Sodiqning:

– Nima ish bilan yotibsiz? – degan savoliga:

– Eski narsa. Yoshlik xatosi, – deb qo'ya qoldi. Bu xato nimadan iborat ekanini aytishni istamadi. Sodiq uni o'z gazi bilan o'lchab, «bu ham tuhmat qurboni shekilli» deb qo'ydi ichida va uning yuragini ham o'zi nikidek lovillab yonayotgan hisoblab, unga tuz seplashni lozim topmadi.

– Tuhmat yomon! Tuhmat – toshni yoradi, – dedi unga achinib va o'z guvohlarining tuhmatini gapirib berdi. – Men bosmachiga qurol etkazib bergan emishman. Tuhmatni qarang: halok bo'lgan askarimning miltig'ini olishga ruxsat

etmaganmishman. Miltiq Dilovarxo'ja qo'rboshining yigitlari qo'lga tushganmish, shu qurol yetkazib berish emish.

O'zining tashvishli o'ylari bilan band, suhbatga loqayd quloq solib o'tirgan Badalxo'jayev, «bosmachi» so'zini eshitishi bilan boshini ko'tardj, Dilovarxo'ja ismi qulog'iga kirishi bilan yalt etib Sodiqqa qaradi.

– Kim dedingiz? Dilovarxo'ja qo'rboshi?

– Ha, Siz uni taniysizmi?

– O'sha yillari qulog'imga chalingandek bo'lgan edi.

– Siz ham o'sha tomonlardanmisiz?

– Ha, siz-chi?

– G'ir-g'ir shamol qishlog'idan.

Badalxo'jayev yana qiziqib qoldi. Xayol bilan qisq ko'zlari charaqlab, mo'ylovga o'xshagan baroq qoshlari qovog'i ustiga uyulib keldi.

– Sizni-ku tanimayapman, otangizning nomlari nima edi? Balki u kishini tanirman.

– Bosmachilik yillari «musulmon komandir», «Sodiq komandir» deganni eshitganmisiz?

– O'sha kishi sizning otangiz edimi?

Sodiq kuldi:

– Yo'q, o'zim.

– O'zingiz? Yo'g'-e! – Badalxo'jayev irg'ib tushdi. Cho'tir basharasi oqarinqiradi, chap ko'zi piri-pirab ketdi. Darrov o'zini bosib, gapni bo'ldi: – Unda necha yoshda bo'lasiz?

– Ayni yigit chog'im, sherning og'ziga kirib chiq desa, qaytmaydigan chog'im edi.

– Ha, davr surgansiz, nomingizni ko'p eshitganmiz. Xo'sh, bu yerda nima qilib yuribsiz?

Sodiqning yoshlik – jangovar yillari esiga tushib, ruhi ko'tarilib ketgan, quloq soluvchi bo'lsa ertalabgacha gapirishga tayyor edi. Ana shu ko'tarinkilik bilan javob qaytardi:



– Bir aylanib kirib qoluvdik, chiqib ketish qiyin bo'lyapti, eshigi qo'sh qulflik ekan.

– Qo'shqulfligi-ku, mayli, – uning kulgisiga qo'shildi Badalxo'jayev, – to ko'chaga chiqquncha yetti eshigi borligini aytmay sizmi!

– Sanadingizmi?

– Meni-ku bu shaharga umrim bino bo'lib, birinchi kelishim, shu yerlik bittasi aytgan edi.

– Sanabdi deng? Shunday qilib, bizning tomondan ekansiz-da. Nima, ishingiz bosmachilik bilan bog'langanmi?

– Zo'rlab bog'lashyapti, – dedi Badalxo'jayev boyagidek gap-so'zga mayli bo'lmay. Sodiq boshqa titkilamadi, suhbatdoshi ham tafsilotini aytmadi. Ikkisi o'z o'rnida xayol og'ushiga singib ketdi. Yotish oldidan o'rnini tuzata turib, Badalxo'jayev so'rab qoldi:

– Dilovarxo'ja qo'rboshi qochib qutulib ketgan deyishadi, shu rostmi?

– Rost. Uch kun quvib uddalolmaganmiz. Yaqinda qo'lga tushgan deb eshitgandim.

Badalxo'jayev yana jim bo'lib qoldi. Ko'rpasining bir chetini qayirib, yotish hushtagini kutardi, go'yo uning yuragida portlab ketishi mumkin bo'lgan zo'r tug'yon yotibdi-ku, uni ko'rpa bilan bekitib, uyqu bilan bosmoqchidek bezovta.

Hushtak chalinib, u yoshiga yarashmagan shoshma-shosharlik bilan o'ringa kirar ekan, yana dedi:

– Ushlanmagandir. Ushlansa eshitib qolardik. Chaqqon bo'lgan deyishadi.

– Qo'y turib, echki imomlikka o'tadimi, degandek, bir narsasi bo'lmasa, qo'rboshi bo'larmidi?

Badalxo'jayev yana indamay qoldi. Endi u gapini taroziga solayotgandek, shiftga tikilib yotar edi. Sodiqqa orqasini qilib, o'girilar ekan, luqma tashladi:

– Shu kunda ushlahsa nima qilisharkin?

– Bilmadim.

– Otishadimi?

– Otishlari ham mumkin, – dedi Sodiq gap ro'yobga chiqmaydigan narsa haqida borayotgandek beparvogina.

Badalxo'jayev yana jim bo'lib qoldi. Uning mushukmijoz, uxlamay xurрак otadigan odati bor shekilli, ko'zi ochiq xurрак tortdi.

Badalxo'jayev o'z savolidan o'zi rozi bo'lmadi. Kechasi bilan ajriqqa ag'anab chiqdi. Mijja qoqqani gumon. Sodiq bir uyg'onib qaraganda ham ko'zi shiftda edi.

– Uxladingizmi? – dedi Sodiq.

– Xayol olib qochdi.

Sodiq boshqa hech narsa demadi. Bunaqa kechalar unga tanish, qanchasini toqi sanab o'tkazgan.

Ertalab Badalxo'jayev so'lib turdi. Tez-tez silab turaldigan mo'ylovsifat qoshi bilan ham ishi bo'lmadi, u bolalarning tepadigan lankasiday, qovog'i ustida yopishib yotibdi. U og'ir kasaldan turgandek, bemajol, kamgap edi. Choy tomog'idan quvurdan suv o'tgandek, qult-qult qilib o'tdi. Shu kuni uni tergovga chaqirdilar. Kechasi yana, indiniga kuni bilan tergovda bo'ldi. Keyin yana... Ana shu keyingisidan faryod urib qaytdi:

– Meni xudo urdi! Tamom bo'ldim! – dedi eshikdan kira solib. Dunyoda Sodiqdan boshqa mehriboni yo'qdek, uning yelkasiga o'zini tashladi. Sodiqning: «Nima gap o'zi?» – deyishiga quloq solmas, nuqul peshonasiga mushtlar, «Xudo urib qoldi meni!» – der edi.

Sodiq katta odamning bunday yig'isini birinchi marta ko'rayotganidan, shoshib qoldi. Bechoraning boshiga bironta nomard tuhmat toshi yog'dirib ketdimi? Oqni qora qilish uchun ko'p bo'yoq kerak emas-da!

– Sabr qiling, noumid shayton.

– Yo‘q, siz bilmaysiz. Men tamom bo‘ldim.

Badalxo‘jayev faryod urib, o‘z joyiga o‘tib o‘tirdi, boshini uzun barmoqiari orasiga olib qattiq changalladi, terisini shilib olgudek changalladi. Shu o‘tirganicha kuni bo‘yi qilt etmadi. Kechasi uxladimi, yo‘qmi – Sodiq bilmadi, lekin ancha tetik tortib turdi. Uning boqishi alamzada, labi qisiq, qoshlari chimirilgan.

– Bilasizmi, Sodiqjon, kim bilan birga o‘tiribsiz?

– Yo‘q.

Badalxo‘jayev kechagi Badaixo‘jayev emas edi, uni birov tunda almashtirib ketganga o‘xshardi. U chovut solishga tayyor, ovchidan hurkkan tulkidek hushyor edi.

– Endi yashirishimning foydasi yo‘q. Ishim kecha tamom bo‘ldi, sudga oshdi. O‘ladigan ho‘kiz boltadan tonmas, degandek, mening qo‘rqadigan yerim qolgani yo‘q, hammasi ochilib bo‘ldi, hammasini ochdilar, organga qoyilman. Shu besh yillik ishni xatm qilmasdan tasbeh donalaridek bir ipga tizib chiqishdi. Bularda hunar katta. O‘sha siz aytgan Dilovarxo‘ja men bo‘laman.

– Yo‘g‘-e! – barmog‘ini tishladi Sodiq.

– Ha, men, ishoning! Endi talashadigan hech narsamiz yo‘q. Siz ham bu yerda bekorga o‘tirmagandirsiz. Bir sababsiz shudgorda quyruq yotmaydi.

Sodiq uning so‘zini eshitmas, qarshisida o‘tirgan odamning o‘sha Dilovarxo‘ja qo‘rboshi ekaniga hali ham ishongisi kelmas edi.

Dilovarxo‘ja esa, shu vaqtgacha o‘g‘irlik molni yashirib kelgan kishidek, ichida yig‘ilib yotgan, yig‘ilib yotaverib, tayyor hikoyaga aylanib qolgan yurak sirlarini bir chekkadan aytmoqda edi. Endi yashirishning foydasi yo‘q, jinoyat iyulga tikilgan edi.

Islom bayrog'ining sopiga o'q tegib, shart sinib tushgandan keyin, ikkita jilovdori bilan Tojikistonga qochibdi. Bir jilovdori yo'lda jarga yumalab ketibdi. Ikkinchisi bilan g'aribona kiyitib, bir chet qishloqda, tog'da musofir umr kechirib turibdi. Bir kuni qarasa, jilovdori yashirib qo'ygan qurolini olyapti.

– Ha? – debdi.

– Qishlog'imga ketaman. Nima bo'lsa peshanamdan ko'rdim, bola-chaqamni sog'indim.

– Hoy, bola, sho'rolar bilan o'ynashma, qoziq qilib qoqib yuboradi, – desa:

– Men kambag'aldan chiqqanman, pichoq o'z sopini kesmaydi, – debdi.

Mundoq qarasa, bolasini to'qimi o'zgarib qolgan, so'zga kiradigan emas.

– Mayli, bor! – debdi. Lekin bir kuni qo'lingni uzatsang, olmayman, xafa bo'lmaysan o'shanda.

– Xafa bo'lmayman! Bir yeganim ham bo'g'zimda turibdi.

– Ruxsat beribdi. Ruxsat beribdi-yu, uning qorasi ko'zdan o'chguncha vahima bosibdi. «Mening shu yerdaligimni hukumatga borib aytsa-ya!»

– Bu tagi pastga nima, men va'da qilgan botmon-botmon yerdan endi umidi uzilgan, kim boshini silasa mushukdek o'shaning tizzasiga chiqib yotadi, – debdi Dilovarxo'ja harom narsadan jirkanayotgan kishidek labini burishtirib. – Chaqirsam, qaytmaydi, bunga aqlim yetadi. Quvsam qochadi. Qo'shnimning otini bir kunga so'radimu, oldidan to'sib chiqmoqchi bo'lib, boshini qo'ydim. To'rdan chiqqan bedanaday yo'rg'alab, ancha yerga borib qolgan ekan. Yo'lini to'sdim. Hech kimga hech narsa demasligi haqida qasam ichirdim, xudoni o'rtaga soldim. Bundan

keyin mening ismim Dilovarxo'ja emas, Toshmat ekanini, biror yerda uchratib qolsa, shu nom bilan atashini ta'kidiydim. Hammasiga xo'p dedi. Og'a-inidek xayrlashib qoldim, birov ko'rsa gumon qilmasin deb, yonidagi farg'onacha pichog'ini ham olib qoldim. Sal nari borgandan so'ng orqasidan qarab, yana ko'nglim o'rniga tushmadi. Bularga qasam nima! To'xta, pichog'ingni ola ket, yo'lda kerak bo'ladi, deb oldiga bordim-u, qorniga solib yubordim. Ichak-chavog'i ag'darilib tushdi. Hammaning joni o'ziga kerak. Bir yalangoyoqni deb qachongacha jon hovuchlab yuraman.

– Keyin nima bo'ldi?

– Keyin nima bo'lardi. U qishloqdan ham boshimni olib ketdim. Yana ismimni o'zgartirdim. Tunov kuni siz ismimni so'raganingizda qaysi birini aytishni bilmay familiyamni aytgandim. Unda ko'p narsalar hali tergovda ochilmagan edi. Endi... bari-bir... Men tepkisi bosig'liq to'pponcha qarshisida turibman, «qars» etishi qolgan, xolos.

Sodiqqa endi bu gap ta'sir qilmadi. Uning qarshisida oddiy jinoyatchigina emas, qotil o'tirardi. Shunday bo'lsa ham, bu xunrezning butun hayotini bilgisi kelib qoldi. Qiziq, nima bilan tugar ekan?

– Qanday qilib shuncha ehtiyotkorlikdan keyin yana qo'lga tushib qoldingiz?

Dilovarxo'ja qo'rboshi shu savolga muhtoj bo'lib turgandek, g'azabi qaynab, kufuri oshib, gapira ketdi:

– Men o'zim ahmoqman, o'zim! It hidlab topmas yerda yurgan edim. Nima bo'ldi-yu, onamning kasalligini eshitib qoldim: onam meni bir ko'rishga zor emish. «Shuncha yil o'tib ketdi, kim ham taniydi. Bir borsam borib kelay» dedim. Yo'lga chiqdim. Kelsam, chindan Azroil onamni bir qo'lidan ushiab turibdi quvondi, yig'ladi, tuzalgandek bo'ldi. «Endi

men ketay» desam, ertaga o'ladigan kishidek: «Senga ilhaq edim, o'z qo'ling bilan yerga qo'y!» – dedi. Nima deyishimni bilmay, labimni tishiab qoldim. Shu kuni bir yomon tush ko'rgan edim, tushimga qaraganda, ketishim shart edi. Noiloj qoldim. Onam o'lmay o'lsin, ertasiga meni ushlab oldilar. Mana, o'kinchimdan o'kirib, besh oydan beri shu yerdaman. Onamning so'ziga quloq solib nima qilar ekanman, o'lgandan keyin men ko'mdim nima-yu, boshqa ko'mdi nima! Ona ham xotin kishi-da, ahmoq bo'ladi. Ahmoqligi mening boshimni yeb o'tiribdi. Endi bularning panjasidan qutulib bo'bman! Qo'lga tushibmanki, onamni so'kaman. Ha, la'nati, intizor ekansan, ko'rding, bo'ldi-da, yo'ldan olib qolib nima qilasan!

O'z farzandi la'natiga qolgan noma'lum onaga Sodiqning rahmi keldi:

– Bechora ona sizni ushlab olishlarini tush biladimi!

– Nega bilmaydi! Shuncha yildan beri pista chaqib, yong'oq o'ynab yurganmidim. Vatangadoligimni bilardi! Endi nima bo'ldi!

Sodiq qarasa, Dilovarxo'ja oq sut berib katta qilgan o'z onasini yana behurmat qiladigan, o'ligining ustiga chiqib tepadigan ko'rinadi. Onaning nima gunohi bor: ot mindirib, qilich tutib, bosmachi bo'lgin debdimi! O'zingdan ko'r.

Sodiq bildiki, qo'rboshi hozir xudosini ham tanimaydi, o'z jonidan boshqa narsa ko'ziga ko'rinmaydi, «Onasidan uzoqlashib mehri sovib ketgan bo'lishi mumkin. Bola-chaqasi bo'lsa, ularni sevar, axir ota-ku» degan xayol bilan Sodiq gapni chalg'itmoqchi bo'ldi.

– Onangiz oldida bola-chaqangiz yo'qmidi?

– Bir qizcham bor edi. Hovuzga cho'kib o'lganini eshitgan edim.

– Fotihasiga bormaganmidingiz?

– Be! O'lsa o'libdi-da. Azamat o'g'il bolamidiki, uyimning chirog'i desang. Qiz bola – qush. Qanot chiqarguncha qo'lingda, keyin tuzoq qo'yib ushlab ololmaysan.

Uning bu javobi yana Sodiqning ta'bini tirriq qildi. Dunyoda qiziq odamiar bor: sigiri urg'ochi tug'sa sevinadi-yu, lekin xotini qiz tug'sa ensasi qotadi. Qiz tug'ilmasa, senga onayu, xotin qayoqda!

Sodiq bu bilan gaplashmay desa, yolg'iz o'tiraverib yuragi siqiladigan bo'lib qolgan. Odam tovushi sandiqqa quiflab, kalitini tashqariga uloqtirilgandek, dimiqqan yuragiga tekkan engil shamol edi. Bu hol uni yana gapirishga majbur etdi:

– Xotin-chi? Xotin kutib o'tirgan ekanmi?

– Yo'q. Qizdan keyin uy qilib ketgan ekan. Kolxozda mishig'ini oqizib yuribdi. Nomahram deb, mendan loytovoqdek yuzlarini bekitdilar.

Sodiq uni yana beva qolgan ekanmi, deb o'yladi.

– Eri qayoqda ekan?

– Shu yerda. U ham kolxozchi ekan. Bir ko'zim tushdi, tizzasigacha loy, elkasida ketmon.

Sodiqning ko'nglidan o'tdi: o'sha tizzasigacha loy, yelkasida ketmon bo'lgan mehnatkash eri ming chandon sendan yaxshidir. Begonaligida orqasidan shuncha gap qilyapsan, xotinligida sendan nima ro'shnoqlik ko'rdi-yu, kutib o'tirganda nima ko'rardi. Esli xotin ekan! Mehnat bilan topilgan non beminnat bo'ladi!

– U tomonlarda ham bola-chaqa qilgandirsiz, albatta.

– Ha, qilganman. Xotin emas, cho'chqa olganman. Yiliga ikki marta tug'adimi-ey! Hamma yoqni churvaqa bostirib yubordi. Uyga kirgani yurak bezillaydi: vaqirvuqur. «Bas, bo'ldi!» desam, xudo bersa nima qilaman, deydi. La'natiga barim tegib ketsa, tug'adi-ya! Mana endi nima bo'ldi!

Sodiqning ko'z oldiga yolg'iz o'g'li Marat keldi, u hamon so'nggi marta xayriashganidek eshik oldida qanotini yozib, unga talpinadi. Bundoq o'ylasa, uni juda sog'inibdi, bir eslashidayoq ko'zidan yosh chiqib ketay dedi. Dilovarxo'janing ham bolalarini sog'ingan faraz qilib so'radi:

– Bolalaringizning chag'ir-chug'urini sog'ingandirsiz?

– Esimni tanibmanki, sog'inish nimaligini bilmayman. Ko'rsam, esimga tushadi-yu, ikki kun uzoqlashsam, yodimdan ko'tariladi.

Sodiq ajablandi: o'z bolasini sog'inmaydigan ota ham bo'ladimi! Demak, u odam isini yoqtirmaydi. Bu odam hatto o'z tuqqan onasini ham sog'inishga qobil emas.

– Bolalaringizga jabr bo'libdi, – dedi Sodiq bir uy bolani ko'z oldiga keltirishga harakat qilib.

– Bolalar... bolalar... Bolalarga nima! Bir kunini ko'rib ketadi. Menga jabr bo'ldi, menga! Eh, attang, bu tomonlarga kelib nima qilardim-a!

Sodiq bir mahal o'qigan sharq ertagini esladi. Tabiat odamni yaratganda, bundoq qarasa, yangi hayot ko'rgan murg'ak uchun kun juda uzun ekan. Qisqartirish maqsadida unga uyquni hamroh qilibdi. U kamolga yetgandan keyin ko'rsa, bir uyquning o'zi inson uchun juda kam, juda zerikarli. U zerikmasin, yegan taomining ta'mini bilsin, qadriga yetsin deb mehnatni buyuribdi. Mehnat uning bahrini ochadi, chiniqtiradi. Hayotiga ma'no kirgizadi. Lekin bu ham u uchun yetarli emas. So'ngra unga qarshi dushmani yaratibdi. Dushman esa uning mehnati samaralarini himoya qilishga majbur etadi, maydonga chaqiradi, kurashga otlantiradi. Ana shundan beri uyqu, mehnat, dushman insonning hamrohi emish. To'g'ri, dushmansiz hayot yo'q. Lekin men dushmanmi?



To'g'ri, dushmanlik qilgan kishilarim bor. Ular meninggina emas, butun bir sinfning, ulkan bir jamiyatning dushmanlari. Ularga qarshi kurashdim, ko'p qatori g'alabam bilan quvondim. Mening bu kurashim mehnatimning oliy turi edi: kurash – mehnat, mehnat – kurash! Nahot endi men o'sha qarshi kurashganim kishilar safiga o'tib qolsam. Hammasidan ham Dilovarxo'janing gapi alam qiladi: «Keladigan yerimiz bitta ekanu, joningizni munchalik jabborga berib nima qilardingiz o'sha yillari!»

Dilovarxo'ja qo'lga tushgan bo'lsa ham, shu o'tirishdan mamnun. Bir mahallar nomini eshitsa bir cho'chib tushgan «komandir» bugun u bilan yonma-yon o'tiribdi, bir qozondan atala ichib, bir hushtak bilan yotib turadi. «Aslida u ham bizga o'xshagan sho'rolarga toqati yo'q ekanu, zamona zayli bilan yoshlik qilib, ot, qilich, «urra»ga qiziqib yurgan ekan. Bo'lmasa uni hukumat qamarmidi!» deb o'ylasa kerak.

Dilovarxo'ja qo'rboshi o'z fikriga yakun yasagandek salmoqjadi: – Sizga o'xshagan ola ichimizdan chiqmaganda, balki...

– Siz bilan «bitta-yarimta ola» emas, xalq kurashgan, butun xalq. Xalq nima ekanini bilasizmi? Dovul! Har qanday to'siqni yo'lidan olib tashlashga qodir! Hali ichimizdan ola chiqib yengilganmiz, deb yuribman deng?

Dilovarxo'ja bu so'zlarga ishonmas, ishongisi ham kelmas edi. Uning o'z fikri salkam yigirma yildan beri tinchlik bermaydi. Bu uning metin ishonchiga aylangan, bu fikrni zanglagan mixdek sug'urib olish qiyin.

– Ha, xo'p, xalq kurashgan ekan, xalq bilan birga ekansiz, nega endi bu yerda o'tiribsiz?

Sodiq necha oydan beri ana shu savolga javob berolmay qiynalar edi. Endi bunga nima desin.

Tuhmat desa, ishonmaydi. Tushunmovchilik desa, shuncha vaqt davom etadimi?

Chindan ham Dilovarxo'jadan ko'ra, unga qiyin edi. Qo'rboshi qilgan jinoyatini biladi, nimaga o'tirganidan xabardor. Lekin taqdirga tan bermaydi: goh onasiga yopishadi, goh qonunning uzoq kek saqlashiga.

Sodiq-chi? Sodiq hayron. Yetti uxlab tushiga kirmagan ayblar unga taqalipti. Rad etsa, hech kim ishonmaydi. Hatto uni Dilovarxo'ja qo'rboshidan ham xavfli qilib ko'rsatishyapti. U ongsizligidan bosmachi bo'lgan emish. Sodiq esa, ongli, oliy ma'lumotli, atayin sho'rolarga qarshi kurashga otlangan va kurashini esini tanigandan beri to'xtatmagan yot unsur, xavfli dushman emish. Sodiq hammasidan shunisiga chidamas edi.

Dunyoda halok bo'lishiga iqror kishidan tili o'tkir va uzun odam bo'lmaydi. Dilovarxo'ja xuddi shu ahvolda edi. U hech narsadan hayiqmas, butun dardini to'kmoqda edi:

– Hammamiz bir bo'zning uchi bo'lamiz, uka, boy-kambag'al – nimasi, musulmon-kofirni ajratish kerak. Din oyoq osti bo'lib ketdi. Buxoroyi sharifdan nima qoldi! Amir arkida bolalar sigir boqib yurishganmish. Ichimizdan ola chiqib, «voy sochimni bosib olmang!» deydigan erkaklar ko'payib ketdi. O'sha vaqtda ham «andoq qilodurmiz, mundaq qilodurmiz» deydigan ko'p edi. Vaqti kelganda o'ntasi bitta pichoqqa sop bo'lmaydi. Ko'rganman bu hezimbakshlarni, oshga qo'li, gapga tili uzun, xolos. Menda bitta bedana tomoq, soqolligi bor edi, jadid. Sal holimiz tang bo'lishi bilan «yumushi» chiqib qoldi, sichqonning inini ijaraga oldi. Ular tushida sher minadi, o'ngida mushukdan qo'rqadi. Siz mening gaplarimdan ajablanmang, Sodiqjon, men o'lgan qo'yman. O'lgan qo'y bo'ridan qo'rqmaydi. Ichimda yig'ilib yotganini aytyapman. Ichimda qolib ketganidan foyda yo'q. Hech bo'lmasa siz eshitib qoling.

Chindan ham u shuncha yil ichida, hatto o'zidan ham sir saqlab kelgan, kimga aytishini bilmay yonib yurgan, hech kimga ishonmagan fikriarini gapirib qolishga shoshilayotgan edi. U kurashib murodiga yetolmagan, yashirib uddalolmagan alamzada edi.

Sodiq uni qattiq qayirib tashlashi mumkin edi. Lekin nima foyda, baribir unga kor qilmaydi, qo'ndoqda tekkan. Sodiq qanchalik g'ijinmasin, quloq solishga majbur bo'ldi. Boshqa joyda bo'lganda-yu, o'zi bilardi: tug'ilganiga pushaymon qildirib qo'yardi! Undan keyin, Sodiqning tili qisq joyi ham bor: birga, bir kamerada o'tiribdi, axir ishtoni yo'qning tizzasi yirtiqdan kulishini qarang, deyishi, juda bo'lmaganda otdan tushsangiz ham, uzangidan tushmas ekansiz, inim, bu yer minbar emas, deb u ham qayirib tashlashi mumkin.

Sodiq Dilovarxo'janing mo'ylovga o'xshagan qoshiariga boqdi. Bu – chin dushman. Otilishiga ko'zi yetib qolgandan beri Dilovarxo'janing ichida hech narsa qolmadi, hammasini axlat idishini ag'dargandek to'kdi. Ichidan bo'shatib, go'yo ko'ngli tinchidi. Bo'sh qoldi deguncha, Qur'on tilovat qiladi, namoz o'qiydi. Jahli chiqsa, joynamoz xizmatini o'tab turgan ro'molchasini bir chetga uloqtirib qoladi, haligina junlari olingan ukkidek ko'ziarining shosoqqasini o'ynatib, bir nuqtaga tikiladi. Soatlarcha shunday o'tiradi. Ana u hozir ham, joyiga o'tira turib, baroq qoshini asabiy silab qo'ydi.

Sodiq shu mo'ylov sifat qoshlarga qarab turib, o'yga toldi: qo'rboshiligida bu qoshlarning bir chimirilishi qanchadan-qancha odamning yostig'ini quritgandir!

Sodiq uning qo'rboshilik davrini, kiyim-boshini, yurish-turishini o'zicha tasavvur qilib ko'rdi: boshda chaqmoq telpak, burama qalin mo'ylovning uchi qulog'i tagida, ko'krak ochiq, yoqasiga pilta o'ralgan yaktak ustidan

beqasam to'n, belda qo'sh-qo'sh belbog', oyog'ida ag'darma, baland poshna etik, qo'lda kumush qoplangan irg'ay sopli qamchi. «Hayt desa, bulutni nishon oladigan qorabayir doim egarlog'lik. Minsa qo'sh jilovdor yonida. Chilim tutgan boshqa-yu, may tutgan boshqa. U soyasida o'tirgan daraxtning shoxiga \*beijozat qush qo'nolmaydi. U o'tirgan yerda qadamiar sanab bosiladi. Ana shunda ko'rsang edi, bu qoshlarni! Endi bo'lsa cho'ltoq supurgidek osilib yotibdi.

Sodiq ana shularni o'ylab, o'zini unga teng ko'rilganiga, u bilan bir daraxtning mevasi hisoblanganiga chidolmadi. G'azab bilan tufurib, o'rnidan turib ketdi.

– Og'ir bo'ling, Sodiqjon, sizni otishayotgani yo'q-ku, – dedi Dilovarxo'ja.

– Nimamga otadi, qaysi qilgan jinoyatimga otadi!

– Agar men sho'ro hukumati bo'lsam, sizni bunday kameraga qo'yish emas, bu yerga otingizning go'ngini to'ktirmas edim. Har mo'yingizga bir gavhar osardim. Bularning ana shunisi biz alamzadalarga yoqadi. G'umay bilan bug'doy aralash o'roq soladi.

Dilovarxo'ja jilmayib qo'ydi, cho'tir yuzlari yiltilladi, do'ng peshanasi ostidagi qattiq ko'zlari qisildi.

Sodiq bir narsa deyishdan ojiz edi...

Uch kun o'tgandan keyin Dilovarxo'jani sudga chaqir-dilar. Kechqurun uning o'rin-boshlarini so'rab oldilar. Sodiq hukm chiqibdi, deb o'ylab, uni otilganga chiqardi.

Lekin rahmi kelmadi.

## 5. O'LGANNING USTIGA TEPGAN...

Sokinlikning ham o'z tovushi bor. Buning nimaligini qalin devorli, temir eshikli, deraza o'rnida kichik tuynukli kamerada o'tirgan odamgina yaxshi biladi, bu shunaqa

tovushki, qulog'ingdan zing'illab o'tib, butun asablaringni qaqshatib, qalbingga elektr tokidek chirsillab tegib turadi.

Tun. Ertaga bahor bayrami. Ariqlar labi barra o't, binafshalar o'tgan yildan qolgan quruq shoxlar ostidan munchiq ko'zlarini yiltillatib turgandir. Yo sho'x bolalar bayramga olib chiqamiz deb, terib ketishdimikan? Ertagacha yana bodroqdek ochilib qoladi. Lola ham chiqqandir. Qizil gul-chi? Markaziy maydon rosa yasatilgandir. Ko'chalar-chi?

Sodiq shunday xayollar og'ushida o'tirganida, o'zining qayerdaligi yodiga tushib qoldi-yu, uh tortdi. O'tirishga sabri chidamay, o'rnidan turib, asabiy bir tarzda u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Keyin yana o'tirdi. Tashqariga quloq soldi. Har tovush uni qiziqtirar edi, ma'nosini anglamasa ham, inson tovushi qulog'iga kirib tursa bas. U shunday diqqat bilan quloq solardiki, go'yo o'ziga tanish yo'l yoqasidagi daraxtlarda tunagan qushlarning ham yurak urishini eshitishga qodirdek ko'rinardi. Ertalab uyg'onsa bayram ovozasi hamma yoqni tutgan – ko'chalarga katta radiokarnaylar qo'yilgan bo'lsa kerak. Ba'zan o'tkinchilarning tovushi eshilib qoladi. Kishilar shodu xandon. Yurtda, jonajon shaharda bayram. Bu bayramni shahridek sevardi u. Hozir o'g'lini ko'tarib, bir quchoq gul bilan ko'chalardan o'tmasmidi!

Radiodan goh musiqa yangraydi, goh shior. Parad boshlandi. Askarlarning shaxdam qadamidan keyin, tanklarning yerni larzaga solgan guldurosi eshitildi. Keyin jimlik. Keyin birdan yana orkestr yangradi. Bolalar tovushi ko'chalarni to'ldirdi. Ehtimol, uning maktabi o'tayotgandir. Odatda, maktabini o'zi boshlab o'tardi. Kundalik hayoti va bayramini maktabsiz tasavvur qilolmas edi. O'rtoqlari: «Onang maktabda tuqqanmi?» – deb kulishardi, Sodiq

esa: «Men tugʻilgan choqda maktab anqoning urugʻi, kitoblar bizga oʻxshaganlarga gapirmas edi», – deb mamnun javob berardi. Qani oʻsha kunlar? Tushmidi bari? Kishilar uning haqida nima deyishayotganikin?

Hamon radio yangraydi. Shu radio qayerda ekan? Qaysi koʻchada? Nega avval uni hech eshitmapti! Bu koʻchalardan koʻp oʻtar edi-ku!.. Havo yaxshi. Odamlar rosa yasanishgandir. Musharraf nima kiydiykin? Onam-chi? Marat, Maratjon-chi? Unga biror bayram sovgʻasi olib berishdimikin yoki boʻz koʻylakka sadaf tugma yarashmas deb, uyda diqqat boʻlib oʻtirishibdimi? Shunday qilishgan boʻlsa yaxshimas! Nega xafa boʻlishadi, erta-indin chiqib boradi-ku. Musharraf oʻz qilmishlariga rosa pushaymon boʻlayotgandir. Erkalab boqilgan tekis yerda qoqilar, deb shuni aytadi. Mayli, unga saboq boʻldi, endi qatiqni ham puflab ichadi.

*Koʻlda yurgan qoʻngʻir gʻoz choʻl qadrini bilmaydi,  
Choʻlda yurgan tuvaloq koʻl qadrini bilmaydi.*

Juda toʻgʻri aytilgan. Ey tentak, tikan boʻlib oyoqqa kirguncha, gul boʻlib yoqaga sanchilgin edi! Endi nima boʻldi! Izimga zordir.

Sodiq hamon oʻzi-oʻzi bilan gaplashar, goh onasining qariganda qora kunga qolganidan oʻkinar, goh yolgʻiz oʻgʻlini sogʻinib; xoʻrligi kelar, goh Musharrafning yengiltakliklarini kechirib, insofga chaqirar, koʻrgisi kelar, goh Qodirga gap tegib qolishini oʻylar edi. Tashqarida esa, bayramning shukuhini radio karnaylari olamga taratmoqda.

Bugun bayram, shuning uchun bu yerdagilarga progulka yoʻq. Sodiqning koʻngli allanechuk boʻlib ketdi. U sevgan yurt, u sevgan kishilar bayram qiladi, lekin unga

xalq bayrami kuni yigirma daqiqalik progulkani ham ravo kò'rmaydilar.

Sodiq qancha yonib-kuymasin, uning ignasi siniq, ipi uzun edi.

\* \* \*

Sodiqning tergovni tugadi. Lekin uning na «sovetlarga qilgan faoliyati», na «yashirin tashkilotga a'zoliqi» isbot etildi.

Shu kuni peredacha oldi. Palov, yog'liq patir, qand, piyoz va besh dumaloq maxorka. Ichida biror narsa yashirilmaganmikin, deb patir ushatilgan, piyoz kesilgan edi. Sodiq dunyoning shunchalik nozu ne'mati borligini ilk marta ko'rayotgan kishidek baqrayib qoldi. Dami qaytib qolgan palovning totli hidi dimog'ini yorib yuborgudek anqir, og'zining suvini tiyib ololmas edi. Oshdan nafasi bir oz orom olgach maxorkaning nimaga kiritilganini bilmay qoldi. «Diqqinapas bo'lganda chekar, xumorini tarqatar!» deb kiritishgan. Bu kimning fikri ekan: onamningmi yoki Musharrafning?

Sodiq shularni o'ylar ekan, xayoli o'rgatilgan kaptardek o'z uyiga, xonadoniga uchdi, ular bilan g'oyibona suhbat qurdi. Suhbat qurdi-yu, ularning Sodiqqa emas, Sodiqning ularga rahmi keldi: onasi oriqlab ketgan. Sochini bitta ham qorasi qolmagan. Yuzining ajini yana ham chuqurlashgan, yoniga yangilari qo'shilgan. Musharraf ham xafa, «qilmishlarimga ming bor pushaymonman» deb uzr so'raydi. Marat esa, yurib ketgan, parvoyi falak. Yog'och ot minib, hovlini gir aylanadi. Qodir uyda yo'q. Kutubxonada dars tayyorlayotgan bo'lsa kerak.

– Maxorkadan bir chekaylik, birodar.

Hamxonalariga maxorka taklif qilish Sodiqning esiga kelmagan ekan. Chuvalib ketgan xayolini yig'ib, uch bo'la-

gini bo'lib olinglar, deb uzatdi. O'zi ham o'rab chekdi. Badani yayragandek bo'ldi. Maxorkaning shunchalik «karomati» borini endi sezishi! Shunday huzur narsadan bebahra bo'lib yurganidan ajablandi. Bosib-bosib tortdi. Yarim soatlardan keyin xumori tutib, yana chekdi, kechga yaqin yana chekdi... Ko'zi birovning chekkaniga tushsa, qo'li maxorkaga yugurdi. O'rgandi!

Chekishga hech narsa qolmay, xumori tortib o'tirgan kunlarning birida Sodiqni yuqoriga chaqirib qolishdi. Qaysi ko'z bilan ko'rsinki, Chuxanov kabinetida Musharraf o'tiribdi. Uni yolg'iz ko'rishi bilan yuragi orqasiga tortib ketdi.

– Marat qani? Sog'mi?

– Sog'-salomat, – dedi bo'shgina qilib Musharraf.

– Nega olib kelmading? Oyim qani? Tinchlikmi?

Musharraf javobini uchinchi savoldan boshlab, birinchisiga javob bermadi:

– Tinchlik. Birdan ruxsat berib qolishdi. Oyingizni olib kelolmadim.

Nega «oyimni» demasdan, «oyingizni» deydi, u uydan ketib qolgan – shekilli, deb o'yladi Sodiq.

– Uydamisan?

– Ha, uyda. Ko'rgan kunim qursin.

– Nima, oyim bilan urishdingmi?

Musharraf asl maqsadiga zamin tayyorlab yolg'on to'qidi:

– Gulim ketdi, tikanim undan nari, deydilar nuqul. Marat bilan ikkalamizni ko'rgani ko'zlari yo'q.

– Yo'g'-e, – onasining fe'lini bilgan Sodiq ishonmadi.

– Ko'zingiz bilan ko'rib, qulog'ingiz bilan eshitmagandan keyin ishonmaysiz-da. Qachon menga ishonuvdingiz...



Sodiq o'zi qamalgandan keyin uning kuyib et yo'qotganini yoki ruhiy azob chekkanini ko'rsatadigan birorta belgi topolmadi. «Oldin kuyganu, keyin taqdirga tan berib, o'zini tutib olgan, degan fikr bilan o'zini bosdi Sodiq. Lekin Musharraf, nima uchundir, Sodiqning yuziga tikilib boqolmas, nimadir ichini tirnayotgandek nuqui kaftlarini bir-birining orasiga olib uqalardi.

– Qiynalib qolgandirsizlar. Ishlayapsanmi?

– Kim meni ishga olar edi, xalq dushmanining xotinini!

– A?

– Hamma o'rtoqlaringiz yuz o'girib ketgan. Mirsalim-ku.

– Nima, Mirsalim?

Tergovchi Chuxanov ularning so'zini uzdi:

– O'z oilaviy ishinglardan gaplashinglar. Besh minut qoldi.

Musharraf tergovchining so'zini o'ziga berilgan tanbeh hisoblab, asl maqsadga ko'chdi:

– Mening... sizning oldingizga kirishimning... kirishimdan maqsad... mening talog'imni bering.

Sodiq o'z quloqlariga ishonmay, angrayib qoldi. Musharraf pinagini buzmay o'tirardi. Demak, bu fikrini chiyrab, pishitib kirgan, dedi Sodiq ko'nglida, yo birortasi o'rgatdimi?

Bu kutilmagan gapdan Sodiqni sovuq ter bosdi, kaftigacha sovib ketdi.

– Menga qara, – dedi u, – men seni zo'rlab olganim yo'q edi, zo'rlab ham xotin qilmayman. Lekin shartim bor.

Boyadan beri yerga qarab o'tirgan Musharraf yarq etib unga ko'zini tikdi. Sodiq unga ko'zini bigiz qilib qadadi:

– Shartim shuki, bolani tashlab ketasan.

– Haqqingiz yo'q! Bola onaniki.

– Yo‘q, haqim bor. O‘gay otanikiga yetakiab borishIngni istamayman. Onamda qoldir! Gap shu! – Sodiq tergovchiga boqdi: – Meni joylimga tushirib yuborishingizni so‘rayman.

Sodiq o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Musharraf ham irg‘ib turdi:

– Yo‘q, mening javobimni berib ketasan! Menga sendaqa xalq dushmani kerak emas! Sen bilan turmayman! Javobimni ber! Javobimni berib ket!

– Javobing o‘zingda, shart o‘sha! – og‘irlik bilan dedi Sodiq.

– Yo‘q, bolani bermayman. Endi qaytib kelmaydigan bo‘lganingizdan keyin o‘g‘ligizni... o‘g‘limning qayerda bo‘lishining sizga qanchalik farqi bor.

– Qaytib kelamanmi, yo‘qmi, endi buning senga daxli yo‘q. Talog‘ingni oldingmi, ketaver.

Musharrafning taloq so‘rab kelishi Sodiq uchun darz kosaning sinishidek bo‘ldi. Lekin Maratning taqdiri xayolidan ketmay qoldi.

...Yangi oyning boshida tergov bo‘limi Sodiqni chaqirib, maxsus kengashning qarorini o‘qib eshittirdi. U o‘n yilga hukm etilgan edi!

«Haqiqat zo‘ldir emas, nishabga dumalasa, u qirg‘iy qo‘nmas qiyadan ham o‘z joyini topadi!» – dedi Sodiq ishonch bilan o‘ziga-o‘zi.

## 6. MUSHARRAFNING HIRSI

Sodiq voqeasining butun dahshatini Musharraf uch kundan keyin bildi.

Boshiga tushgan taqdir gurzisining naqadar og‘ir ekanini his etdi. Dilsiyohlikka yo‘l qo‘ygan oylari uchun achinib o‘kindi. Endi Sodiqning oyoqlariga yiqilib uzr so‘rashga tayyor edi-yu, lekin Sodiqning o‘zi yo‘q, so‘zi yo‘q, ko‘zi yo‘q edi.

Musharraf bir hafta ichida ozib-to'zib ketdi, atir-upa, ulama soch ordona qoldi, baland poshna amirkon etik, atlas lozim esiga kelmadi. Har kuni kechasi bilan xayolning ming bir ko'chasiga kirib chiqadi, ba'zan yolg'iz yotgani qo'rqib, Adolat xolani olib kirib yotadi.

Shunda hayot tazyiqiarini ko'p ko'raverib, irodasi pishib ketgan Adolat xola dalda beradi:

– Baloga sabr, qazoga shukur kerak, jon bolam. O'zingizni o'tga, suvga urganingizning nafi yo'q. Sodiqjon-ginam, igna topsa egasiga topshirmaguncha ko'ngli tinchimaydigan halol yigit edi. Chiqib qoladi. Tushimda rahmatli dadasi ot egarlab yuribdilar. Mang, Maratjonni emizing, juda qorni ochib ketdi.

– Bir oz soviy, terlab turibman.

Adolat xola kuni bilan qo'lidan qo'ymagan arzanda nevarasini onasiga uzatib, o'rnidan turdi. Nima ish bilandir Sodiqning xonasiga kirdi-yu, uning qoziqdagi chust do'ppisiga ko'zi tushdi. Tobutga yopilgan choponni ko'rgan kishidek allanechuk bo'lib ketdi. Sodiq uni har kuni ishdan qaytganda kiymasmidi! Dam olish kuni boshidan qo'ymas edi. Qani o'sha o'g'li! Yolg'izgina farzandini sog'ingandir. O'zi salomatmikin? Ochin-to'qin qolmayotganmikin?

Xola do'ppini qoziqdan oldi, toza bo'lishiga qaramay qoqdi, o'g'lining isi keladigandek burniga tutib hidladi. Go'dakligidan o'ziga tanish Sodiqning isidan rohat qilayotgandek ko'zini yumdi, ochganida yoshi duv to'kildi:

– Ishqilib, o'zing kelib kiygin, bolaginam!

Musharraf ertasiga Sobiraxonning maktabiga bordi. Uning baxtiga Sobiraxon o'zida ekan. Uni «ha, singlim, suyangan toling omonat ekan», deb achingandek kutib oldi. Lekin ochilib gaplashmadi, kecha qattiq charchab, bugun bo'shashib o'tirgan kishidek bir-ikki esnadi, nimanidir stoli

g'aladonidan qidirdi, siyohdonning qopqog'ini yopib qo'ydi. Musharraf uning «kel, singlim, ahvollaring yaxshimi, eringdan darak bormi?» deyishini kutardi – axir opa-singil tutingan-ku. Lekin Sobiraxon bunday qilmadi, hamon nima bilandir parishonhol shug'ullandirdi, «qo'li tegmas» edi.

– Sobiraxon opa, – deb gap boshladi Musharrafning o'zi – otpuskada yurib bo'ldim, endi ishimni boshlasam.

Sobiraxon shuni allaqachon kutgan, javobini ham tayyorlab qo'ygan kishidek ohista unga qaradi. Uning ko'zlari Musharrafga begonaga o'xshab ko'rindi.

– Ie, hali xabaring yo'qmi, men seni bilasan deb yuribman. O'z hisobingdan necha oyga otpuskaga chiquvding? Ha-a, – dedi Sobiraxon yasama xayol surib, – aytmovdimmi? U shtat qisqarib ketgan.

Gapning tubiga tushunmagan Musharraf:

– Yaqinginda kimdir ishlab yuruvdi shekilli! – dedi.

– Ha, kechagi hafta qirqishdi. Shuncha qildim bo'lmadi.

– Voy... – bo'shshdi Musharraf, – endi nima qildim?

Bir tomoni ro'zg'or...

Sobiraxonning «Bilmasam, o'zing bilasan» deyishga tili bormadi, «falonchiga uchrash» desa, o'zini yolg'on gapirib, chetlatib turgan xalq dushmanining xotinini boshqa odam peshonasini silarmidi! Bahona topdi:

– Men bir surishtirib ko'ray, biror ish toparmiz.

– Shunday qiling, opajon! – yolvordi Musharraf.

Sobiraxonning so'ziga ishongan Musharraf bir oy ichida ikki-uch xabar oldi. Ishdan darak bo'lmadi, Sobiraxon «yo'q» demas, nuqul va'da berardi, birovning oldida bo'lsa, xo'mrayibroq, hech kim bo'lmasa, sal dilxushlik bilan gaplashardi. Shunday qatnashlarning birida bir ayol o'qituvchi uni chetga imladi. Musharraf qulog'ini tutgan edi, u ayol:

– Ovora bo'lmang, singlim, Sobiraxon istasa o'ringiz joyida turibdi, – dedi. Musharrafga hamma narsa oydin bo'ldi-qo'ydi: demak Sobiraxon ham qora qozondan o'zini chetga olib qochyapti!

Musharraf butun gapni Adolat xolaga aytdi.

– Banda qilsa malomat, xudo qilsin salomat, jon bolam. Qish yozsiz bo'lmaydi, bu kunlar ham o'tib ketadi, olaqarg'aning qag'illagani qoladi, – dedi. Adolat jon keliniga choy uzatayotib, – oling, bir piyola choy bilan ikki burda non yeb oling, darmon bo'ladi. Ko'chadagi gap-so'zga hadeb kuyib-yonavermang, do'st kuyib gapirsa, dushman oshirib gapiradi. Birorta ko'r bo'lgurning ig'vosiga qoldi bolam bechora! Siz hammadan xafa bo'lavermang, doim yomondan yaxshi ko'p, haromdan halol. Ichida bizga kuyib, «jabr bo'ldi» deb yurganlar qancha! Tili bilan aytishga hayiqsa, nima qilsin, bechoralar!

Ana shunday tili bilan ham aytishga hayiqmaydiganlardan biri – Ikrom ota shu kuni kechqurun eshik qoqib kelib qoldi. Eshik ochgan Qodir bilan quyuq so'rashdi-da, ichkariga kirdi, ko'rsatilgan yerga o'tirib, hol-ahvollarini so'radi. Sodiqni tilga olib, «Azamat, pokdomon yigit edi!» deb qo'ydi. Ancha gapdan keyin Adolat xolaga picha pul uzatdi:

– Sodiqjondan olgan edim, vaqtida jamg'arib berolmadim, – dedi uzr so'ragan bir tarzda.

– Birovda olarim bor demovdi-ku, yo sizga aytuvdimi, Musharrafxon? – dedi Adolat xola xijolat tortib.

– Yo'q, yo'q! Menda bor edi, kelganda o'zidan so'rarsiz, – yana shoshib izohga kirishdi Ikrom ota. Gapni chalg'itdi: – Ishga kirmoqchi ekansiz, kelin, men bir joy bilan gaplashgan edim, xo'p desangiz, ertaga borib uchrashing, kichik qizim o'sha yerda ishlaydi.

Ikrom ota qayerda va qanaqa ish ekanini batafsil aytib berdi. O'rnidan turar ekan, Sodiqning devordagi suratiga qarab «qarchig'ay edi» deb qo'ydi yana. Keyin Sodiqning chiqishini aniq biladigan, bunga sira gumoni yo'q kishidek ishonch bilan dalda berib ketdi.

Musharraf ertasiga Ikrom ota aytgan yerga borib uchrashdi va ishga kirdi.

Ish Musharrafni ovutgandek, so'ngsiz mudhish o'ylar girdobidan chetga olib, nafasini rostlagandek bo'ldi. Vaqt qalbidagi achchiq alam iztiroblarini asta-sekin yelga sovurib, o'rnini yashash ishtiyoqi bilan to'ldirib bormoqda edi. Bora-bora erining qamalishiga ko'nikkanidek, nomini eshitsagina bir entikib, boshqa vaqtda xayoliga ham keltirmay, hayotning keng og'ushiga kirib ketdi. Uyning allaqaysi burchagida yotgan ulama soch yana yuzaga chiqdi, asta-sekin upa-elik asl holiga keldi, qoshga o'sma, ko'zga surma tortildi, ko'ylak kuniga almashtirilib, navbat baland poshna amirkon etikkacha borib yetdi. Ayniqsa bahor tabiatnigina emas, eri qamalgandan beri sokin uyquga kirgan Musharrafning his-tuyg'ularini ham uyg'otdi, etiga et, husniga husn qo'shdi. Kerishsa erining quchog'ini sog'inib, ko'ziari suziladigan bo'ldi.

Bir dam olish kuni ertalab Ikrom otaning Musharraf bilan birga ishlaydigan kenja qizi keldi. Oyisining tayinlab yuborganini aytib, Adolat xolani olib ketmoqchi bo'ldi:

– Yuring! Oyimlar «xolang diqqinapas bo'lib o'tirgandirlar, gaplashib yotib ketsinlar» dedilar. Yuring! Uyda hech kim yo'q, dadamlar ammamlarnikiga qishloqqa ketganlar.

Uni Musharraf quvvatladi:

– Boring, uyda o'tira berib siqilib ketdingiz, bag'ringizga shamol tegib keladi.

O'tgan hafta ham Ikrom otanikidan odam kelganda Adolat xola: «Ha, jon bolam, menga o'ynab-kulishni kim

qo'yibdi», – deb rad etgan edi. Shunda ularning ko'ngli ancha olinganini keyinchalik Musharrafdan eshitgan edi. Shuning uchun xolaning qanchalik borgisi kelmasa ham, yo'lga tushdi.

– Shu uydan xavotir olmang, hech qayoqqa bormaymiz, – dedi Musharraf Qodirni ham qo'shib. Ayvonda dars tayyorlab o'tirgan Qodir boshini ko'tarib tasdiqladi:

– Ha uydaman. Ishim yo'q!

– Uyda bo'l, jon bolam, huvillatib chiqib ketma, kennoying cho'chiydi, – dedi Adolat xola nevarasini o'pib xayrlashar ekan. – Sen ham to'polon qilmay o'tirgin?

Musharraf Adolat xola yo'lga chiqmasidan oldin boshini yuvmoqchi bo'lib qatiq chaplab qo'ygan edi, u ketgach yuvгани o'tirdi. Qodir ayvonda o'z mashg'uloti bilan band, bir vaqt boshini chertyojidan ko'tarib qarasa, kelinoyisi yarim to'shini ochib, kir o'ra og'zida boshini yuvyapti, eti jimirlab ketdi. Kelinoyisi sezib qolsa, xijolat tortishidan hayiqib, hovli tomonga yonini qilib oldi. Uning bu harakatini fahmlagan Musharraf, ko'kragi yarim ochiq, sochini oxirgi marta jomga shalop-shalop solib chayqar va qo'li bilan suvini sidirar ekan, erkakning havasini keltiradigan bir ohangda dedi:

– Qodirjon, soch o'rishni bilasizmi? Bilib qo'ying, Azizaxon kelganda kerak bo'ladi.

– Akam siznikini o'rarmidilar? – dedi Qodir hazil tushunib.

– Akangiz o'rishdan ko'ra kechasi silashni yaxshi ko'rar edilar. Yo siz ham shunaqa qilasizmi?

Qodir oxirgi jumla o'zigami yoki Azizagami tegizib aytilganini ajratolmagan bo'lsa hamki, quiog'igacha qizarib ketdi.

Musharraf sochini ho'l tarab, boshiga omonatgina ro'molcha bilan tang'ib qo'ygach, uyga o'tar ekan, dedi:

– Boshini yuvgandan keyin xotin kishining sochini hech hidlaganmisiz? Xushbo‘y bo‘ladi shekilli-da, akangiz yaxshi ko‘rardilar. Siz-chi? Yomon ko‘rmassiz! Yo yomon ko‘rasizmi?

Qodir indamadi. Musharraf uyga o‘tib ketdi. Oyna oldida o‘ziga oro berib, sochini taradi, pardoz qildi. Chakkasidagi mayda soch tolalarini erinmasdan jingalak qildi. Yupqa harir ko‘ylagini kiydi, o‘zlni oynaga solib ko‘rdi, shundoq ham butun ko‘ksiga husn baxsh etib, tirsillab turgan to‘shini ostidan ko‘tarib yanada bo‘rttirib boqdi, ulama sochini serkillatib, uying u boshidan bu boshiga yurdi, oynadan o‘zini kuzatdi. Keyin hovliga chiqib, ish bilan yurgan kishidek Qodirning oldidan bir-ikki u yoq-bu yoqqa satang yurish qilib o‘tdi. Adolat xola tushda qozon osganidan Musharraf kechqurunga choy qaynatib qo‘ya qoldi. Qodirni taklif etdi. U qorong‘i tushib qolganidan chertyojni yig‘ib, kitob mutolaa qilardi. Kelinoyisining taklifiga ikki marta: «Hozir! Hozir», dedi-yu, kitobdan boshini ko‘tarmadi. Musharrafga xuddi shu kerak bo‘lgandek, bo‘ydoqlarning hirsini uyg‘otadigan bir maqomda yurib bordi. Qodirning o‘qiyotgan kitobini ko‘rmoqchi bo‘lgan kishidek, orqa tomondan o‘tib, atir anqitib turib:

– Kitobingiz muhabbat to‘g‘risida shekilli, boshingizni ko‘tarolmay qoldingiz, – dedi. Qodir kitobini kelgan yerida shart yopib, o‘rnidan turdi, dasturxonga yurdi.

Musharraf goh qoshini, goh ko‘zini suzib, uning orqasidan gapirib borar edi, uning nozu karashmasi hatto tovushidan ham sezilib turardi.

– Dunyo shunaqa ekan, Qodirjon, yigit qiz debu qiz yigit deb o‘larkan. Qariganda bunaqa bo‘lmas-a?

– Bilmasam, qarib ko‘rganim yo‘q, – dedi noxushlik bilan Qodir.



– Qarilik qursin! Yoshlikka ne yetsin! Yoshsiz, o'ynab qoling, aysh qiling. Keyingi afsus bekor. Azizaxon bilan tez-tez uchrashib turasizmi? Akangiz bunaqa bo'lib ketmaganlarida shu kunda to'y harakatiga tushib qolar-midik. Bahordagisi yaxshi bo'ladi.

– O'qishni tugatmaguncha...

– Musharraf Qodirning so'zini bo'ldi, choy uzatdi:

– Yana uch yil! Ungacha zerikib qolarsiz.

Qodir javob qaytarishga iymanib, non tishladi.

– Siz erkaklarga maza! Ayshingizni qilib yursangiz birov bilib o'tiribdimi, misqoli kamayadimi! Azizaxonga qiyin, qiz bola...

Ayol bilagini ushlab biror marta xilvatga tortmagan tajribasiz Qodir Musharrafning bu gaplarini yaxshi fahmlamas, fahmlaganda ham nima qilardi. Begonamaski, «ket, beting qursin», deb siltab tashlasa! Undan keyin, kelinoyisining og'zi bachkanaligini biladi, bu haqda akasi necha marta koyiganini eshitgan. Gapiradigan og'iz uniki ekan, Qodirga nima, vaysaybermaydimi! Shuning uchun u naridan-beri choyni ichib, turib ketdi. Musharraf esa, uning har bir harakatini ochko'zlik bilan kuzatar, baquvvat bilaklariga suqlanib boqar edi. Bahor qonini o'ynatib, ko'zini tindirib, hatto donlashib yurgan bir juft musicha ham uning havasini keltirardi...

Kech kirdi. Ufq anordek qizardi. Tom chetiga kelib qo'ngan «Adolat xolaning musichasi» birdan quvalashib, Musharraf ro'parasida tars-tars tepishdi, «Achomlashib o'ynasanglar-chi, juvonmarglar», – deb o'tib ketdi u.

«Bo'ydoqning aqli ikki ko'zida bo'ladi, ayniqsa, bahor kezi. Jon deydi. Nega jon demasin! Kimdan kamligim bor. Bir o'rgatib olsamu... Birov bilib o'tiribdimi!» – dedi Musharraf o'rniga kirib yotgach, uyqusi o'chib. Eti

uvushgandek, shirin kerishib o'rnidan turdi. Uning vujudi o't bo'lib yonar, yuragi eshitilgudek gurs-gurs urar edi. Deraza oldiga kelib, Qodir yotgan uyga ko'z tashladi. Chirog'i o'chgan. «Qachon yotibdi? Nega chirog'i o'chganini bilmadim? Sezdi. Atayin chirog'ini barvaqt o'chirdi. Balo!» – o'yladi Musharraf va hirs bilan hovliga chiqdi. Ko'cha eshikdan xabar olmoqchi bo'lib, Qodirning uyiga quloq soldi. Jimjit. «Poylab yotibdi», deb o'yladi, yana badani jimirlab ketdi. U o'g'ridek oyoq uchida borib, Qodir yotgan uyning eshigini asta ochdi. Shippagini shu yerda yechib, ichkariga yalangoyoq kirdi. Qodir hech narsadan xabari yo'q, bemalol uxlab yotardi. Derazadan tushgan oy yorug'i uning azamat ko'kragini yoritardi. Qodirni jo'rttaga o'zini uyquga solib yotibdi, deb gumon qilgan Musharraf hirs to'lg'og'ida titrab borib, cho'g' bo'lib yongan lablarini uning labiga bosib, jon-jahdi bilan quchoqladi. Cho'chib uyg'ongan Qodirni yeb qo'ygudek bo'lib, der edi:

– Men... Qodirjon... O'zim aylanay! Jonim qoqindiq... Hech kimga aytmayman...

Qodir irg'ib o'rnidan turib o'tirdi. Musharraf hamon unga yopishib, «men... men... o'zim aylanay!» derdi, dir-dir titrar edi. Qodir shoshib qolgan, tiliga so'z kelmas edi. Nomus kuchi bilan kelinoyisini itarib tashlab, hovliga o'qdek otildi. Saldan keyin ko'cha eshigining ochilib yopilgani eshitildi.

Musharraf turgan yerida qotib qolgan edi. Bir tomondan murodiga yetolmaganini alam qilsa, ikkinchi tomondan ko'z oldiga qaynanasi lip-lip kelar edi. Hammasidan ham maqsadiga yetolmaganiga chidolmas edi, yig'lab yubordi, o'zini Qodirning karavotiga zarb bilan otdi!

Ertalab u ishiga ketgunicha, «yaxshi yotib-turdinglarmi?» deb yetib kelgan qaynanasiga Qodirdan ginaxonlik qildi:

– O'g'lingizning boradigai joylari bor ekan, shuncha qilsam ham meni yolg'iz tashlab ketdilar. Kechasi qo'rqib o'ldim.

Nima deyishini bilmagan Qodir:

– Ha, sizga aytish esimdan chiqqan ekan, oyi, bormasam bo'lmaydigan ish edi! – dedi duduqlanib. Musharraf «qoyil qildimmi!» degandek unga ko'z qirini tashlab qo'ydi.

O'z tadbirining muvaffaqiyatli chiqqanidan quvongan Musharraf ishiga jo'nadi. Kechqurun shoshib kelib, nari-dan-beri ovqatlandi-yu, «majlisim bor» deb pardoz-andoz bilan chiqib ketdi. Uch kun o'tgach yana... Kelinining avzoyi buzuqligini sezgan xola yotig'i bilan nasihat qilgan edi.

– Uyga tiqilib o'l, deysizmi! – dedi.

Xola gapni boshqa aylantirib kelib, etini o'ldirmoqchi bo'ldi:

– Mayli, bolam, yoshsiz, o'ynab-kulsangiz yarashadi, uyda tuxum bosib o'tiring demayman. Lekin bolangizga jabr bo'lyapti. Ochin-to'qin qolyapti. Ba'zi bolalarga o'xshab berganni yeb ketavermasa.

– Ha, hech narsa qilmaydi!

– Unday bo'lsa ko'krakdan ajratib qo'ya qoling, zora ovqatga o'rgansa.

– Haliyam shunday qilmoqchiman, hammaning joni o'ziga kerak: kunduzi ishlasam, kechasi bu so'rsa!

– Mayli bolam, lekin sal haqi bor edi hali.

– Haqi!.. Haqi!.. O'lar bo'lsam o'ldim. Kech qolsam siz xo'mrayasiz, majlisiga bormasam idora... – dedi Musharraf va bu ishiardan juda norozi kishidek kosani tovoqqa, choynakni piyolaga urib, dasturxonni naridan-beri yig'ishtirdi-da, uyiga kirib ketdi. Yarim soatlardan

keyin qaynanadan so'rov yo'q, istov yo'q ulama sochni serkillatib ko'chaga chiqib ketdi. Tun og'ganda qaytdi. Eshik tiqillaganini Adolat xola eshitsa ham, atayin allamahalgacha «sarg'ayib o'!» deb ochmadi. Buni payqagan Musharraf eshikdan kirishi bilan o'dag'ayladi:

– Nega muncha tosh qotib uxiamasalarining.

– Ha, uyqu o'likka teng, bolam, – dedi elagini teshib ketgan sichqonga ham ozor bermaydigan Adolat xola.

Musharraf qiya ochilgan eshikdan yonboshlab kirar ekan, ichkilikning achchiq, qo'lansa hidi Adolat xolaning dimog'ini yorgudek anqib ketdi. Xolaning sabr kosasi to'lib, uyga kirishgach, dedi:

– Ichib turgan oshimga ko'z yoshiarim to'kilgani yetmasmidi, kelin! Bu nima qiliq? Uyatmasmi!

– Imeninada edim, ichmasam qo'yishmadi.

Adolat xola uning izohiga muhtoj emas edi, u nevarasini bag'riga bosganicha olib chiqib ketdi. Musharraf ham astoydil «qayoqqa olib ketyapsiz?» demadi. Shu kundan boshiab Musharraf boshvog'ini qaynanasi qo'lidan bo'shatib oldi. Bu ham yetmaganidek, «allakimlar»ning maslahati bilan Sodiqning oldiga talog'ini so'rab kirdi.

Begona erkakning qo'lidan uning badani seskanmaydigan bo'lib qolgan edi.

Uch oydan keyin Musharraf Aziza praktikada bo'lgan kasalxonaga uni yo'qlab borib qoldi. Aziza uyidan ketgandan beri Musharrafni ko'rmagan, faqat Qodir orqali bu oilaning boshiga tushgan baxtsizlikdan xabardor edi. U Musharrafni ochiq yuz bilan kutib oldi, lekin pardozini ko'rib hayron bo'ldi: nahot boshiga qora kun tushgan xotin shunaqa yursa!

Aziza Musharrafga yaxshilab nazar soldi: o'zini ham oldirmapti, faqat qovoqlarining ostida xaltum va chuqur

chiziq paydo bo'libdi. U Azizani bir chekkaga boshlab o'tdi. Jilpanglab kulib qo'ydi.

Azizaning g'ashi kelib, so'radi:

– Ish bilan kelganmidingiz?

– Avvalam sizni sog'indim, keyin... keyin bir maslahatli ish ham bor edi...

– Marhamat!

– Aybga qo'shmaysiz... – Musharraf uyalganga o'xshasa ham, lekin yengiltaklik bilan jilpanglashini qo'ymas edi: Sodiq akangiz unaqa bo'lgan kezlari gumonim bor edi. Qattiq kuyganimdan o'smay qoldi shekilli, mana endi yana sezyapman. Shuni bir narsa qilsam devdim.

Azizaning surishtirishidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Musharraf Sodiqqa taqayotgan bola u aytgandan ko'ra yosh, buning ustiga Azizaning qulog'iga kirgan gaplar uning gumonini tasdiqlardi. Shunday bo'lsa ham tanish doktorini iltimos qilib, unga Musharrafni ko'rsatdi. Doktor ochiq aytib qo'ya qoldi.

– Bola ikki-ikki yarim oylik.

Bu oshkora gap Musharrafni Aziza kutganidek shoshirib qo'ymadi, ishshayib qo'ya qoldi. Bu ishshayish Azizaning shunchalik nafratini qo'zg'adiki, haydab chiqarishiga sal qoldi. Bu yetmagandek Musharraf:

– Endi nima qildik, Azizaxon? – deb qoldi, – yordam bering.

– Nimaga? – dedi Aziza o'zini arang bosib, – bizda abort qilinmaydi.

– Tanish-bilishingiz bordir, xafa qilmasman, xizmati uchun mana shu bilaguzugimni berardim.

Bu so'z yonib turgan olovga quyilgan bir chelak moy bo'ldi, Azizani tirnog'igacha larzaga keltirdi:

– Dadasiga bersangiz, abortchi ham topib beradi! Uyatsiz! Sharmanda!

Bir haftadan keyin shaharning kam qatnov ko'chalaridan birida xotin kishining murdasi topildi. Hamma hayron: qo'lida qo'shbilaguzuk, sumkasida anchagina pul, biror yeri chaqa bo'lmagan.

Keyinchalik ekspertiza aniqlashicha, shu atrofda kimdir uyida yashirincha abort qilgan. Homilador abortdan omon chiqmagach, kechasi o'ligini ko'chaga chiqarib tashlagan. Bu Musharraf edi.

## **7. «SIZNI DEGANIM DEGAN, QODIRJON AKA!»**

Mirsalim qizining tashlab ketganiga sira chidolmas edi!

Avval u Azizaning bunchalik ko'ngli qattiq deb o'ylamagan, yolg'iz ota-onasiga rahmi keladi, qiz boshl bilan qayoqqa ham boradi, bugun bironta o'rtog'i yoki qarindoshinikida yotib qolsa, ertaga suvga tushgan mushukdek boshini egib kirib keladi, deb o'ylagan edi. Shuning uchun ortiq tashvislanmasdan, hatto xotini u chiqib ketgach, ko'z yoshi bilan:

– Dod, bu qanday noinsoflik! Qaytaring-chi, qaytaring! – deb yolvorganda ham pinagini buzmagandi. Hammadan unga Azizaning: «Qo'rqasizmi? Amaldan tushib qolasizmi?» – degani alam qilar, o'z qizining, yakkayu yolg'iz qizining og'zidan chiqqan bu so'z uning eng nozik yeriga borib tekkan.

– Qizingning tomoni bo'lsang, sen ham bor ketidan, bor! Menga bunaqa qiz kerak emas! – deb turib oldi. Ayvon chetida turgan chovgumni tepib yubordi, qoziqda ilig'liq turgan sochiqni olib yerga otdi, uyga kirib ketdi. Lekin uyda o'tirolmadi. Boshini qayoqqa urishni bilmas, uyning shifti past va o'zi torga o'xshar, havo yetishmasdan bo'g'ilayotgandek bezovtalanar edi. Bir yerda o'tirishga

sabri chidamas edi. Agar shu choq Aziza eshikdan kirib kelsa, yana haydab yuborishga tayyor edi. Nahot shu gaplarni o'z qizi, bino qo'yib, puf-puflagan qizi aytgan bo'lsa!

Vaqt o'tgan sari Mirsalim sovib, asliga qaytdi, lekin Azizaning so'zi va shiddat bilan eshikdan chiqib ketishi ko'z oldidan ketmadi.

Qizining fe'lini eridan ko'ra yaxshi bilgan xotini tuni bilan yig'lab chiqdi, tiq etsa quiog'i eshikda bo'ladi, hatto shiftning qayeridadir sichqonning qitirlatishi yoki eshikning taqillashiga o'xshab eshitildi. Eriga bir og'iz so'z demadi. Ertalab nonushtasini dasturxonga qo'yib, o'zi o'tirmadi.

Mirsalim uning xotinigiga borib ortiqcha tashvishlanishiga parvo qilmay, ishiga ketdi. Kelgunicha Azizaning uyida bo'lishiga shubha qilmas edi. Lekin u uyga qaytganda Azizaning o'zini emas, u yuborgan xabarni eshitdi: u bundan keyin institut yotog'ida yashar emish!

Bu Mirsalim uchun kutilmagan yangilik edi. Qizining bunchalik bir so'zligiga endi ishongandek bo'ldi, jahl ustida yonida turgan xotinini:

– Mana, o'stirgan arzandangning qilgani! – deb tarsaki bilan qo'yib yubordi. Kutilmagan tarsakidan gangigan xotin hatto yig'lashini ham bilmay:

– Urmay qo'lingiz sinsin, – dedi chakkasini ushlab. Uning yuzida shapaloqning izi qolgan edi.

Mirsalim qizining ketib qolganidan ko'ra, mahalla-ko'yning ta'nasidan ko'proq qo'rqar edi. Ertaga bittasi chiqib, «bitta qizini eplab ololmagan odam, direktor bo'lib qayoqqa bordi!» deyishi mumkin. Shu gap maorifda qo'zg'ab qolsa bormi, unda, vassalom!

U shu payt qizini o'ninchi sinfni bitirgandan keyin uyga o'tqazib qo'ymagani, joyi chiqqanda oyoq-qo'lini bog'lab

bo'lsa ham erga berib yubormaganidan pushaymon bo'ldi. «O'qisin, o'g'il o'rnini bosadigan qiz», deganlarning hammasini ming baloga giriftor qilib qarg'adi, payti kelganda o'ch olishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Ular do'stligidan emas, go'yo shu'day kunning uning boshiga tushishini oldindan bilib, atayin qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirgan bo'lib ko'rinardi.

Endi nima qildi? «Uzoqlik qildi, yotoqda yotib o'qiyapti» desa, kishilar ishonarmikin? Kerak bo'lsa bundan ham yaxshi vaj-karson topadi. Lekin Azizaning tilini bog'lab qo'yolmaydi. Uyini, ota-onasini tashlab ketgan qizdan har narsani kutish mumkin. Oldini olish kerak!

Chora topdi: «Onasini yuborish kerak. Bu la'natilarning tili bitta. Yig'lab-siq'tasa qaytib kelishga unashi mumkin».

Aziza onasini quchoqlab qarshi oldi, bir oz ko'z yoshi ham qilishdi. Lekin uyga qaytmasligini qat'iy aytdi:

– Albatta, ota bezorilik yaxshi emas. Lekin boshqa ilojim yo'q. Bir tomondan, bilmagan ekanman, yotoq yaxshi, dars tayyorlashga quiyay ekan.

Qiz onasining og'ir ahvolda qolganini yaxshi fahmiar, unga jabr bo'lganidan xafa edi. Ne choraki boshqa yo'l tutishi esa, vijdonini qiynar, qorani oq, yolg'onni rost, sovuqni issiq deb o'zini aldash bo'lar edi. Bu onasining qiynalishidan ham og'ir bo'lar edi. Shuning uchun onasini quchoqlab:

– Oyijon! Men sizdan xafa emasman. Kelib turing, sog'intirib qo'ymang, – dedi.

– Dadang meni tirikiayin go'rga tiqadi-ku, qizim! Bu yo'lingdan qayt! Qaysi ota qizini koyimagan!

Bu koyish emas, oyijon, haqorat, ostida katta gap bor. Qodirni sevganim yoki u yomon odam bo'lgani uchun, emas, o'zining amalini, nafsini qizg'anib, mendan



uzoqlatmoqchi. Bundan o'tar pastlik bormi! Agar Qodir yomon bo'lib men uni fahmiamay yurgan bo'lsam, dadamning bu gapiga rahmat derdim. Hozir Qodirning qanday ahvolda ekanini bilsangiz edi! Bu gaplarni men unga bildirganim yo'q, bildirib ham bo'lmaydi. Unga shu kunlarda madad bo'lmagan kishi do'stmi? Yo'q, Qodir halol yigit. Ko'nglingiz mendan to'q bo'lsin!

Qizining javobi uzil-kesil ekaniga ishongan ona bo'shashib uyiga qaytdi. Eriga yumshatib: «yotoqqa kelib qoldim, endi besh-o'n kun tura turay, dars tayyorlashga yaxshi bo'lar ekan» deyapti deb yetkazdi. Mirsalim bu javobga uncha ishonmasa-da bir oz ko'ngli taskin topdi. Demak, Aziza odamlarga ham shunday deydi, bu javob esa, Mirsalimni gap-so'z bo'lishdan asraydi. Lekin Mirsalim bir haftadan keyin yana kuz havosiday birdan aynib qoldi; ko'ngliga bir fikr keldi: Azizaning Qodirdan uzil-kesil umidini uzib qaytarib keltiradigan birdan-bir yo'l – Qodirni institutdan haydatish. Shunda u la'natidan ko'ngli soviydi.

Mirsalimga bu fikr juda yoqib ketdi, o'zining aqliga qoyil qolib, «qichqir xo'rozim»ni g'ing'illaganicha uyga kirib ketdi. Qurib qolgan siyohdonga suv quydi, qog'ozni naycha qilib, uchi bilan siyohdonni kovlashtirdi. Nim ranggina siyoh bo'ldi. Oldiniga «Shu ham yaxshi. Siyohga kam ishi tushadigan mehnatkash odam yozibdi», deb o'ylaydi, ko'nglidan o'tkazdi u, keyin quriganda yana ham rangsiz bo'lib, o'qish qiyinlashuvidan qo'rqib, binafsha rang qalamdan tarashlab soldi, haligi qog'oz naycha bilan aralashtirdi. Yaxshi erisin, degandek, bir oz qo'yib berdi, yana «qichqir xo'rozim»ni xirgoyi qilib, uyning u boshidan bu boshiga yurdi. O'z suratining naqshin ramkasiga o'tirgan changni qo'li bilan artib, «yoshiikda ham chakki bo'lmagan ekanman, telpakni chakkaga qo'ndirishni ko'r!»

deb faxrlandi, yo'q mo'ylovini silab qo'ydi. Derazadan hovliga qaradi. Xotini o'zicha nimanidir pichirlab, ivirsib yuribdi. Qizi ketgandan beri shunaqa o'zi bilan o'zi pichirlab gaplashadigan bo'lib qolgan, ba'zan yonidagi kishi bemalol eshitadigan qilib ham so'zlab yuboradi. Mirsalim xotining bu ahvoli qattiq xafaligidan ekanini bilsa ham, biron marta ko'nglini ko'tarib qo'ymaydi, ikki og'iz shirin so'zini hayf ko'radi.

U siyohni yana bir aralashtirib, o'tirib yozishga kirishdi. U hammaga ma'lum dastxati bilan emas, uni buzib, harflarga turli shokilalar ulab, boshqa tomonga qiyshaytirib yozar edi. Xat Qodir Qo'chqorov xalq dushmani Sodiq Qo'chqorovning tug'ishgan ukasi ekani, bir hoviida turib, bir qozondan osh yeb, bir choynakdan choy ichgani, uning ham «sevimli hukumatimizga» xayrixoh emasligi to'g'risida borar edi. «Bunday yot unurning qo'li qadoq, choponi yamoq mehnatkash xalq bolalari bilan bir partada o'tirib o'qishi biz sof vijdonli kishilarni ajablantiradi. Bunday unsurga bilim o'choqlarimizda o'rin bo'lmasligi kerak!!!» degan so'zlar bilan tamomlandi.

Mirsalim xatni qayta o'qirkan, o'zi zakovatiga qoyil qolib, ishshayib qo'ydi, ehtiyot bilan buklab, konvertga soldi. Birov yo'lda ochsa seziladigan qilib, yaxshilab yelimpladi. Ustiga Qodir o'qiydigan institutning adresini yozib, direktor nomiga yubordi.

Bir haftadan keyin Qodirni institut direktori chaqirdi. U yuragi orqasiga tortib kirib bordi. U direktor bilan hech vaqt qamti kelmagan, faqat ko'rganidagina salom berib o'tardi. Kabinetda direktordan tashqari yana o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari, dekan va Qodir lavozimini bilmaydigan yana ikki kishi o'tirar edi.

Qodir o'rtada to'xtadi. Gapni direktorning o'zi boshladi:

– Bizga ma'lumot tushdi. Shuni aniqlamoqchimiz.

Sodiq Qo'chqorov sizga kim bo'ladi?

– Qodirning yuragi «shuv» etdi: – Akam.

– Tug'ishganmi?

– Ha.

Hozir qayerda?

– Qamoqda.

Komsomol komitetining sekretari oraga suqildi:

– Nega shu vaqtgacha yashirib keldingiz? Direktor unga, men hali savolimni tugatganim yo'q ediku, degandek norizo qarab qo'ydi.

Qodir bunday savol tushishini allaqachon kutgan va bunga javob hozirlab qo'ygan edi:

– Bola ota uchun, uka aka uchun javobgar emas, degan gap bor.

– Men sizdan kim uchun javobgar ekanligini so'rayotganim yo'q, nima uchun institut kollektividan yashirib keldingiz?

Sekretarning baland kelishi Qodirni cho'ktirdi, tovushi titradi:

– Yashirganim yo'q.

– Bu yashirish bo'lmay, nima?

– Hech kim so'ramasa, kimga aytaman.

– Xabar qilsangiz, albatta, yaxshi bo'lardi, – dedi direktor vazmin bir tarzda va sekretar tomonga «Sizdan kattalar ham bor bu yerda, ko'p shataloq otavermang», deganday nazar tashlab, boshqalarning ham o'z fikriga diqqatini tortdi. – Ehtimol, siz atayin bekitib kelmagandirsiz. Lekin natijasi yashirganga o'xshab qolibdi, shunday deb shubha qilishga o'tirganlarning haqi bor.

G'amxo'rlik bilan boshlangan bu salmoqli gap o'pkasi to'lib turgan Qodirning tik boshini egdi, ko'ziga yosh quydi.

Direktor undan yana oilasiga doir savollar so'rab bo'lgach, dekanga yuzlandi:

– Qanday o'qiydi? Axioqi?

– O'qishi a'lo, odobi ham yaxshi, ammo mana shu tomoni sal yaxshi bo'lmapti-da... – dedi til chaynab dekan. Studentlar ichida «Ajoyib odam, studentning ustiga tog' quiasa tutib qoladi», deb shuhrat topgan dekanning bunday latta chaynashi, hatto suyak turgan direktor tomoniga o'tishga ham yuragi betlamayotgani Qodirning ixlosini qaytardi.

Komsomol komitetining sekretari so'z olib, Qodirga shunaqa sifatlar berdiki, Qodirning o'zi ham «gap mening haqimda ketyaptimi?» deb yoqa ushlab qoldi. Oxiri sekretar institutdan haydashni talab qildi. Dekan yana ezmalanib, gapni aylantirib-aylantirib sekretarning taklifiga qo'shilganga o'xshash mujmal bir xulosa chiqardi.

Eng so'ngi Qodirning o'ziga so'z berildi, lekin u shunchalik shoshib qolgan ediki, dilidagi gapini tuzatib aytib berolmadi. O'qishni joni-dilidan sevishini, ikki yil armiyada shuni o'yiab kuni-tunini o'tkazganini aytib, yig'lab yubordi, o'qishda qoldirishlarini yainib iltimos qildi.

Direktor o'rnidan turib, kabinetining o'rtasiga tushdi. Boshini quyi egib, yoshini marjon qilib to'kayotgan yigitga otalarcha qarab qo'ydi. Boshini ko'tarib yoshini artib qo'yish ko'nglidan o'tgan bo'lsa ham, jur'at etmadi. Oldiga borib, yelkasidan sal ushlab, chiqib ketaverishi mumkinligini aytdi.

Qodir eshikni orqasidan yopar ekan, «tamom bo'ldim, o'qish ham o'ldi» deb ko'nglidan o'tkazdi. Tramvayga tushsa yuragi siqilib ketadigandek piyoda jo'nadi... Uyiga yetib borgunicha hammasini muhokama qildi: akasining qamalganidan tortib, Aziza bilan bo'ladigan bundan keyingi munosabatigacha, institutga kirishga ariza berishdan

tortib, haydalishi (nahotki!), undan keyin qiladigan, qilishi mumkin bo'lgan ishigacha – hammasini bir-bir o'yladi, taroziga soldi, o'lchadi, qirqdi. Lekin haydalishi haqida buyruq chiqquncha, hatto buyruq chiqqandan keyin ham o'qishga qatnay bermoqchi bo'ldi. Baribir shu institutga bir kuni yana kiradi, uni bitiradi, bu uning ahdi, orzusi.

Qodir ertasiga barvaqt kelib, buyruq va e'lonlar yopishtiriladigan taxtaga yugurdi. U yerda hech narsa yo'q, ertasiga ham, indiniga ham hech narsa chiqmadi. Lekin haftaning boshida chiqqan devoriy gazetada uning po'stagi toza qoqilgan edi. Uning auditoriyada xo'mrayib o'tirishidan tortib, kutubxonaning kitobini ataylab kechikib topshirishigacha, o'z biografiyasini yashirib, xalq dushmani akasi bilan hamon aloqa tutishigacha tilga olingan edi. Studentlar yopirilib o'qir, bir-biriga pichirlab nimalarnidir tushuntirishar, yana boshqatdan o'qishar edi. Qodir gazeta oldida turolmadi, tashqariga chiqib ketdi. Kasalga o'xshab uyiga qaytdi. Bir hafta yotib qoldi. Tuzalib, institutga kelganda, uning haydalgani haqidagi buyruqning bir cheti allaqachon yirtilgan, o'tgan-ketganning shamoli uni hilpiratardi.

\* \* \*

Aziza bilan hamyotoq bir qizning oldiga o'rtoqlari kelishdi. Ular ham studentlar ekan. Gapdan gap chiqib, qizlar institutlarida kechagina bo'lib o'tgan voqeani so'zlashib qolishdi. Bir studentni avval devoriy gazetada do'pposlashibdi, keyin komsomoldan o'chirib, institutdan haydashibdi!

– Juda qobiliyatli student edi! – dedi biri.

– Baodoblighi-chi! – dedi boshqasi.

– Sovuq ham mevali daraxtni uradi, – dedi Azizaning hamyotog'i notanish studentga achinib.

– Himoya qilmadinglarmi, ammanning buzog'iday ko'zlaringni lo'q qilib turaverdilaringmi!

– Akasi xalq dushmani ekan, – dedi birinchi qiz.

– Yoniga tushganlar ham bo'ldi, – dedi boshqasi.

«Xalq dushmani» so'zi qizning ham nafasini ichiga tushirib yubordi. Lekin bu gaplar Azizaning yuragiga tashvish soldi – o'zini bosib so'radi:

– Kim degan?

– Qo'chqorov. Ismini bilmadim. Sen bilasanmi? – sherigi ham ismini bilmadi.

– Qo'chqorov? – dedi o'z quloqlariga ishonmay Aziza, tirnog'igacha muzlab. – Yo'g'-e! Akasi qamalgan bo'lsa, unga nima!

– Siz uni taniysizmi? – dedi qizlardan biri.

Azizaning quiog'i ostida to'pponcha otilgandek tom bitgan, hech narsani eshitmas edi. Mehmon qizlar ketgach, u hamyotog'iga asta:

– Familiyasi Qo'chqorov bo'lsa Qodir-da, – dedi og'ir kasaldan endi turgan kishidek inqillab. – Yo'g'-e, boshqadir! – dedi hamyotog'i Azizani xafa qilgisi kelmasdan.

– Koshki edi! Lekin yuragim sezishicha, o'sha!

Aziza soatiga qaradi. Hamma yerda mashg'ulot tugagan, «Qodir qayerda ekan? Boshiga shunday og'ir kun tushsa-yu, men bexabar qolsam! Nega o'zi ham aytmadi» yoki «endi nima qildik?» deb kelmadi? Qiziq! Yo boshqa Qo'chqorovmikin? Boshqadir! U bo'lsa kelardi, dardini o'rtoqlashardi! Yo'q, u emas! Boshqa, notanish odam!» deb o'yladi Aziza va o'sha notanish studentga ham achindi. «Bechora! Endi nima qiladi? Nahot odamlar bir- biriga shunaqa berahm: akasi uchun ukasini o'qishdan

mahrum qilishsa! Nahotki, yomonning ukasi yoki o'g'li, qizi ham yomon bo'lsa! Bu juda g'alati-ku! Noinsoflik, bag'ritoshlik-ku! Bunday bo'lmasligi kerak. Kishilarga ishonish, ertasidan umidvor bo'lish kerak. Axir inson baliq emaski, zo'ravoni o'jizini yutib, hayot kechirsa!»

Xayoli uzoqiarga qanotlab ketib, qalbiga tushgan tashvishni sal unutgan Aziza, yana bir ozdan keyin qattiq bezovtalanib qoldi: uning yuragiga tashvish solgan student begona emas, o'z kishisi, o'z seviklisi Qodir! Yuragi shunday derdi.

– Men bilan birga bo'lsangiz, – dedi hamyotoq dugonasiga. U Qodirnikiga bormoqchi, eshikni o'zi taqilatgani uyalib, u qizdan iltimos qilmoqchi edi. Qiz rozi bo'ldi. Lekin bu rejasi Azizaning o'ziga juda erish ko'rinib ketdi: «Nahot shunday paytda ham uyatni tiqib qo'ygan bo'lsa!» deb o'yiadi va o'zi yolg'iz borishga qaror qildi.

– Mayli, kechirasiz, o'zim boraman, – dedi u va eshikka o'qdek otildi.

Bu shaxti Qodirlarnikiga yaqinlashgan sari pufakdek bo'shagan bo'lsa ham, ancha dadillik bilan eshik qoqdi. U Qodirning o'zi chiqishini istardi. Yo'q, Adolat xola ko'rinish berdi:

– Keling, bolam?

Aziza salom berib, yelkasini tutdi. U dardini qanaqa qilib aytishni bilmay turgan edi, «Kim, oyi?» – deb Qodirning o'zi chiqib qoldi.

Azizaning eshik qoqib kelishiga majbur etgan narsa nima ekanini darrov tushungan Qodir:

– Oyi, men hozir kelaman! – deganicha Azizaning oldiga tushdi.

– Voy, ichkariga kirmadingiz-a, qizim, choy tayyor edi!  
– deganicha Adolat xola qolaverdi.

Ikkisi yonma-yon borar, ikkisidan ham nido chiqmas edi. Qodir shu hafta ichidayoq so'lib tushgan, ko'zlarida avvalgi chaqnash, yurishlarida dadillik, turishida g'urur yo'q. Xayol va tashvish bilan o'tgan shu kunlar uning qadam olishidan tortib, nigoh tashlashigacha – hammasigacha o'z tamg'asini bosgan. Go'yo o'zga bir olam kishisi bo'lib qolgan edi. Hayotdan o'z ulushini olishga qodir, shu ulushi umididan qaytmagan, lekin shu umidini qanday qilib ro'yobga chiqarish dardida yonayotgan azamat bir vujud Azizaning yonida borardi. Bu vujud butun qalbi, kuch-quvvati, orzu-ehtirosi bilan Istiqbol ishqida yonardi, unga o'z hissasini halollik bilan qo'shish ishtiyoqida edi. Lekin intilish yo'lida to'siq paydo bo'lgan, bu to'siq uni vaqtincha to'xtatgan, lekin ketidan qaytarmagan va qaytarolmas edi.

Buning barchasini aqli bilan ko'rib, qalbi bilan sezib borayotgan Aziza tafsilotini so'rashga botinmadi... Faqat bu ko'ngilsiz voqeani o'zidan sir saqlaganining sababini bilmoqchi bo'ldi:

– Nega mendan yashirdingiz, Qodir? Ishonmadingizmi? Qo'rqdingizmi?

– Yo'q, Aziza, yashirmadim, yashiradigan yeri yo'q. Ishning bunchalik ters bo'lib ketishini o'zim ham kutmagan edim. Gangib qoldim. Keyin sizning o'z tashvishingiz o'zingizga yetadi. Qo'ying, o'zimnikini o'zim tortay! Sizga tekkan kasrim ham etadi.

– Yo'q, shunday emas! Demak mening yelkamga tushgan og'irlikdan sizning belingiz qayishmagan ekan-da, mendan yashirasiz!

– Yo'q, Aziza, siz to'g'ri tushuning! Faraz qilaylik, men sizga barchasini aytdim, alamingizga alam qo'shdim, birga xafa bo'ldik. Xo'sh, bundan nima chiqadi, mening ishim o'nnglanmaydi-ku. Shuning uchun jilla bo'lmasa, bittamiz



ortiqcha tashvishdan xoli bo'lib turaylik, dedim. Boshqa maqsadim yo'q.

– Shunday qiisam eshitmaydi, deb o'yladingizmi?

– ...Kishi tashvishli xabarni kechroq eshitgani yaxshi! – dedi Qodir o'zini zo'rlab kulib.

Ular qayerga borishlarini aniq bilishmas, ko'z tushib, oyoq yurgan tomonga ketishmoqda edi. Oldilaridan xiyobon chiqishi bilan Qodir, shu yerga o'tirmaymizmi, degan ma'noda:

– Qayoqqa ketyapmiz, – dedi.

Aziza indamadi. Qodir boshlagan tomonga yurib, chetroqdagi skameykaga o'tirishdi. Bu yerda odam kam, o'tkinchilar siyrak. Daraxt orasidagi chiroqlar ho'l o'tining olovidek nursiz.

Azizani Qodirning javoblari qanoatlantirmay bu voqeaning ostida boshqa bir sir borgan o'xshab tuyulardi. Aks holda nahotki, shuncha voqea bo'lsayu, bir marta dardiashgani bormasa! To'g'ri, Aziza yotoqqa kelgandan beri ular kam va'dalashib uchrashar, Qodir o'zi istagan paytida kirib kelaverar edi. Aziza oy sari og'irlashayotgan darsi bilan bo'lib, Qodirning so'nggi hafta ichida kelmagani ham unutgan ekan. Yo shundan xafa bo'lib, o'zing xabar olmading demoqchimi? Har holda uning yuragida nimadir bor. Buni Aziza bilishi kerak. U gapni asosiy masaladan boshladi:

– Endi nima qilmoqchisiz?

– Nima qilardim: ishiayman, oyimni boqaman. Ish ham topib qo'ydim.

– Darrov-a? Qayerdan? Nima, azasini tutishim kerakmidi? Qo'shni rayondagi MTSdan. Elektro-mexanik vazifasi bor ekan. Kimman, qanaqaman – hammasini direktoriga aytdim. «Bizga yaxshi ishlangiz bo'ldi», – dedi. Og'ir-engilni ko'rgan odamga o'xshaydi.

– Endi o‘qishdan umidingizni uzdingizmi?

– Men-ku, uzganim yo‘q... Kim biladi tag‘in... Bu to‘zonli shamol o‘tsin-chi!

– Hech kimga uchrashmadingizmi!

– Kimga uchrashaman? Avval akamning ishi bir yoqlik bo‘lsin.

– Kesvorgan deyishadi-ku!

– Kesishga kesgan. Sigir qora sut beradi desa, ishonaman, lekin akamning siyosiy jinoyati boriga ishonmayman. Mutlaqo ishonmayman! Jinoyatchi emas, pokiza kishi tomonida ekanimdan, vijdon azobi tortayotganim yo‘q. Faqat nohaqlikning oqsoq oyog‘i bunchalik tez yurishidan hayratdaman. Lekin buni ham birovga aytib bo‘lmaydi. Mana shunisi og‘ir!

Ular uzoq o‘tirib qolishdi. Tun qorong‘iligi chiroqlar rangini ravshanlashtirdi. O‘tkinchilar siyraklashdi. Ko‘rshapalak charx urib, daraxtlar orasida izg‘iydi, kutilmagan chaqqonlik bilan shoxlar orasidan sho‘ng‘ib chiqib qoldi. «Qaldirg‘ochday chaqqon-ku, nega kishilar uni yoqtirishmas ekan-a? Kechasi uchgani uchunmi?» Aziza ko‘rshapalakni ko‘zidan qochirmay, izidan kuzatib turdi yo‘q, imkoni bo‘lmadi, ikkinchisi uning ko‘zini chalg‘itib ketdi.

– Aziza, – dedi Qodir kaftlarini bir-biriga yopishtirib, ikki tizzasi orasiga qisar ekan, yerga qarab, bu narsalar hammasi o‘tib ketadi, haq joyini qachondir topadi. Lekin...

Aziza yalt etib unga qaradi.

– Aziza, ochig‘ini aytaymi? Sizdan xavotirim bor. Sizdan ajralib qolish oldida bu tashvishlar bari...

– Nima deyapsiz, Qodirjon aka?

– Yo‘q, Aziza, mendan yashirmang. Endi men sizga teng emasman. Siz uch yildan keyin vrach bo‘lasiz? Men-

chi, men... Yo'q, meni qo'ying! Hozir bo'lmasa ham, baribir bir kuni o'kinasiz, yaxshisi hozir orani ochib... Keyin menga juda og'ir bo'ladi, hozir chidayman, shuncha qiyinchiliklar orasida o'tib ketadi.

– Yo'q menga qarang, nima deyapsiz?

– Aziza, shunda to'g'ri bo'ladi. Baribir keyin armon qilasiz.

– Hoy, sizga bir narsa bo'ldimi? Birovdan biror gap eshitdingizmi?

– Yo'q, eshitganim yo'q! Axir bu ko'rinib turgan narsa-ku, Aziza.

– Hali shuning uchun sendan chetda yuribman, deng!

– Rost, yashirmayman. Buyruq institutdan haydalisim uchun emas, sizdan ajralish uchun chiqqanga o'xshaydi, shu buyruq bilan hamma narsa tamom bo'ldi,

Qiz unga o'girilib, birdan yelkasiga qo'lini tashladi.

– Qodirjon aka, – dedi u, – men sizni injener bo'lishingizni emas, o'zingizni yaxshi ko'rganman. Sizni deganman, sizni deyman o'la-o'lgunimcha.

– Rostmi? Rostdanmi, Aziza?

– Rost, Qodirjon aka! Sizni deganim degan!

Qodir ko'zida yosh bilan Azizani bag'riga bosdi.

Aziza bu gal uning bag'ridan chiqib qochmoqchi emas edi.

Qodir bilan Azizaning muhabbati chiylangan ipga o'xshardi, uzaman deganning qo'lini qiysa qiyardiki, uzilmas edi!

Ko'rshapalak hamon daraxtlar orasida charx urardi. Tun oydan, yorug'...

\* \* \*

Bir haftadan keyin Aziza kasal bo'lib qoldi. Uning kasalxonada yotganini eshitgan Qodir nafasi og'ziga tiqilib

yetib borganda, ko'richakni operatsiya qilib bo'lishgan ekan. Rangi o'chib kirib borgan Qodirni Aziza tabassum bilan qarshi oldi:

– Yaxshiman, qutuldim, – dedi va sevgan kishisining bunchalik kuyib kirib kelganidan boshi osmonga yetdi. Chindan ham Qodir juda qo'rqib ketgan edi. Shuning uchun hadeganda tiliga so'z kelmadi. Azizaning qon qochgan yuziari hamon tashvishda.

– O'zingizni ancha oldirib qo'yibsiz, – dedi.

– Yengil bo'lsa ham operatsiya-da! – yana kuldi Aziza, – uch-to'rt kunda oyoqqa turib qolaman.

– Men ertaga yana kelaman.

– Ovora bo'lmang, Qodir aka, bir-ikki kun o'tkizib kelsangiz ham bo'ladi. Yaxshiman, ruhim yengil, oyimiar kelib-ketdilar. Xabar olib turadilar.

– Dadangiz-chi, keldilarmi?

– Yo'q. Qo'li tegarmidi u kishining, amallariga putur yetadi! – «oramizni bilasiz-ku», degandek Qodirning kaftidagi qo'lini siqib qo'ydi.

Qodirning uzoq o'tirgisi kelsa ham, hamshira «bo'ldi, kasalni urintirmang», deb qarshilik bildirdi. Nochor qolgan Qodir muhabbatdan mast, xomush ko'zlarini Azizadan uzolmay, zo'rg'a tashqariga chiqqanda birdan Mirsalimga ro'baro' kelib qoldi. Qodirning kimning oldidan chiqib kelayotganini yaxshi bilgan Mirsalimning tepa sochi tikka bo'ldi. U keyingi vaqtlarda paydo bo'lgan dimog' bilan, Qodirni mensimagan bir ohangda:

– Siz bu yerda nima qilib yuribsiz? – dedi. Qodirga gapining ana shu ohangi juda malol keldi. «Ming qilsa ham Azizaning otasi» deb turgan edi, keyin birdan andishani shartta yig'ishtirib, uning o'z ohangida javob qaytardi:

- Men sizdan so‘ramoqchi edim, siz nima qilib yuribsiz?
- Men qizimni ko‘rgani...
- Men ham sevgan kishimdan xabar olgani keldim!
- Bilasizmi, yigitcha, bu tentaklikni qo‘ysangiz, Aziza sizning tengingiz emas.

– Qachondan beri? Akam qamalmasdan ilgari ham shunaqamidi?

Mirsalimga bu ta‘na tikan bo‘lib botdi, zardasi qaynadi:

– Akam... akam! Akang nima? Akangning kimligini bildik! Gap shu: oyog‘ingni tiy!

– Aziza kelma, demas ekan, oyog‘imni tiymayman!

– Yo‘q, uning ixtiyori menda: otasiman!

– Amalim deb uni uydan haydagan otasi sizda! Men sizni yaxshi taniyman.

Qodir nozik joyidan olgan edi. Mirsalim shoshib qoldi:

– Men uni quvganim yo‘q, o‘qishga qulay deb o‘zi yotoqqa ketgan.

– Shunaqami! Juda yaxshi javob topib qo‘yibsiz-ku! Uyaling oqni qora degani! Bo‘lmasa siz ham bilib qo‘ying: Aziza sizning qizingiz bo‘lgani bilan ixtiyori o‘zida. Men uni, u meni sevadi – qo‘lingizdan nima kelsa shuni qilishingiz mumkin, osmon qo‘lingizda bo‘lsa tashlab yuboring.

Qodir shu gapni aytdi-yu, shart burilib chiqib ketdi. Qo‘lida paketini quchoqlagancha Mirsalim qolaverdi.

U uchrashishning bunchalikka borib yetishini kutmagan edi: u xivich hisoblab yurgan Qodirning egib bo‘lmas yo‘g‘on chinor ekanidan hayratda qoldi. Qodirning so‘zlari unga shunaqa alam qildiki, Azizaning oldiga kirishdan ham voz kechib, qo‘lidagi sovg‘asini yerga urdi-da, orqasiga qaytdi:

– Bundan beshbattar bo‘l.

## 8. MARATNING AYASI

Nima bo'ldi-yu, Jannatning yo'li shaharning bu tomoniga tushib qoldi.

Kuz. Daraxtlarning mo'rt bo'lib qolgan tillarang yaproqlari sal shamol bilan duv to'kiladi. Yuqori shoxlari allaqachon yalang'och bo'lib bo'lgan, ularga mezonning unpar iplari ilingan.

Havo yaxshi, iliq. Ertalablari sal salqin bo'lmasa, kunduziari «chivinsiz yoz» ertalab kiygan kiyiming tushga borib og'irlik qilib qoladi. Hozir ayni tush chog'i bo'lganidan Jannat jaketini bilagiga solib olgan. Avvalgidan sal to'lishgan yuziari bo'g'riqqan ko'rinadi.

Ha, u o'zini tutib olgan. Garchand Sodiqqa «O'zingizni qiynamang, men rozi» deb, uylanishiga rozilik bergan bo'lsa ham, bu o'rtada Musharrafning darrov tiqilib qolishi, hademay homilador bo'lib hamma yoqqa ovoza tarqatib yuborishi Jannatga pishmagan yarani yorishdek azob berdi. Shundan keyin bu uyda turolmadi, endi orqa eshikdan kirib-chiqib yurish ham unga malol kelib qoldi. Buning ustiga, bir kuni Musharrafning Sodiq bilan bo'lgan ko'ngilsiz to'qnashuviga, to'g'risi, janjaliga beixtiyor guvoh bo'lib qoldi, «Oh, bechora erim, ko'mir deb olovni changallagan ekansan», – deb yuragi achidi. U Sodiqni hamon astoydil sevardi. Uning ozor chekishiga asti chidamas edi.

Adolat xolaning «jon bolam, endi siz qizimsiz, qayoqqa borasiz, ruxsat bermayman», deyishiga qaramay, ko'chib ketdi. Garchand «kelib turaman, oyi, sizdan boshqa kimim bor bu shaharda» degan bo'lsa ham, keyinchalik kelolmadi. Musharrafdan hayiqdi. «O'zi janjalni pulga sotib oladigan, labi yupqagina ekan, tag'in ko'ngliga

boshqa narsalar kelib tinchligimni buzayotgan kundoshim deb yurmasin», degan andisha bilan kelmadi. Sog'inchini, alamini ichiga yutdi. Bu orada Musharrafning ko'zi yoridi, Sodiqning og'zi qulog'iga yetib, quvonib yurdi. Buning hammasini orqavoratdan eshitib, Sodiqning orzusi ushalganidan g'oyibona sevingan bo'lsa ham, yuragining allaqayerini sovuq shamol yelpib ketdi, badani zirqiradi. O'sha zirqirashni insof kuchi bilan yengib, «ha, mayli, dunyoda bitta baxtsizning kamaygani yaxshi», dedi ichida.

Lekin Sodiqning bu kechikkan baxti uzoqqa cho'zilmay, bahorning munavvar kunlarida birdan bo'ralab qor yoqqaniday, uning boshiga kutilmagan qora kun tushdi. Yetti uxlab tushiga kirmagan bu voqea Jannatni shoshirib qo'ydi, sababini bilmay gangiradi. Axir uni Jannatdan ortiq kim yaxshi biladi! Sodiq ba'zi erkaklar singari ishlarini «bu ayollar ishi emas, ular bilmasa ham bo'ladi», deb undan sir tutmas, balki oshkora o'rtoqlashar, maslahatlashar edi. Yoki Jannatdan keyin biror g'alati ishga qo'l urdimikin? Yo'q, Sodiq unaqa darrov o'zgarib qoladigan irodasi mo'rt kishilardan emas edi! Biror ig'vogar, g'alamisning kasriga qoldimikan?..

Ana shunda Jannat Sodiqning o'z yuragiga juda chuqur o'rtnashganini, uni hech qachon begona hisoblay olmasligini, uning yelkasidan bosgan og'ir yukdan o'z tizzasi titrashini qalbi-qalbi bilan his qildi. Unga rahmi keldi. Shunday og'ir kunida unga hech qanday ko'mak qo'lini cho'zolmasligidan o'kindi. Voqeani zimdan kuzatdi: hech kim hech narsa demas, Sodiq go'yo suvga otilgan tosh edi.

Jannat muyulishda burilishi bilan kichikkina ariqchaga duch keldi. Ombordan sharillab oqib chiqqan suv ko'cha bo'yiab ancha yergacha borardi. Ariqchada bir bola qog'oz

qayiqcha oqizib, ketidan yugurar, tovushining boricha qiyqirib quvonar, endi devor ostiga kirib ketay deganida ushlab olib, oqimning yuqorisiga chopardi. Shunday chopib borayotganida o'zini Jannatga urib oldi. Uni yiqilishdan ushlab qolgan Jannat:

– Sekinroq yugur, o'g'lim! – dedi.

– Men sizning o'g'lingiz emasman, dadamning o'g'liman, – dedi u biyron till bilan, ba'zi harflarni yamlab. Keyin, omborga qarab yelib ketdi. Bolaning chaqnab turgan ko'zi Jannatga allakimni eslatgandek bo'ldi. U bolaning orqasidan boqib qoldi. Keyin ketidan yugurib borib, bag'riga oldi, yana o'sha kimnidir eslatgan ko'zlariga boqib, yonidan ikkita konfet olib qo'lga tutdi. Bola yana o'sha biyron tili bilan rahmat aytib, qayig'ini suvga qo'ydi.

– Qayig'ing odam ko'taradami?

– Bo'lmasam-chi!

– Qani bo'lmasa meni tushir-chi.

– Yo'q! Avval dadamlarni olib kelaman.

– Dadang qayoqda?

– Uzoqda. Juda uzoqda. Tomdan ham ko'rinmaydi.

Jannatning yuragi «jig'» etib ketdi. Xayoliga juda yaqin kishining ismi keldi. Nahotki...

→ Oting nima?

– Marat Sodiqovich Qo'chqorov, – dedi pishiq qilib bola.

Jannatning ko'zidan yosh tirqiradi, bolani bag'riga bosib, u yuzidan, bu yuzidan o'pdi, o'zidan sal uzoq tutib ko'zlariga boqdi, yana o'pdi, yana ko'ziga, bo'ylariga boqdi. Marat hayron bo'lib turardi. Birdan Jannatning bag'ridan chiqib chopdi:

– Voy, qayig'im ketib qoldi.



Jannat bundoq qarasa, Marat qayig'iga yetib borolmaydigan, o'zi yugurib borib, endi narigi omborga kirib ketay deganda ushlab olib berdi. Bola rahmat o'rniga:

– Yaxshi chopar ekansiz-a? – dedi quvonib, keyin qayig'ini bir chetga qo'yib konfetni ochdi.

Jannat bu oilaning boshiga tushgan kulfatdan xabardor, Musharraf fojiasini ham eshitgan edi. Lekin bola bu tomonda nima qilib yuribdi? Ular shaharning narigi tomonida yashaydi-ku! Biror yerga mehmonga kelishganmikin? Bolaning o'zidan so'radi, boyadan beri biyron-biyron gapirib turgan Marat bu savolga javob berolmadi.

– Uyimiz shetda! – deyishdan nariga o'tmadi.

Jannat hayron bo'lib, Maratdan buvisi bilan Qodirni so'radi. Turgan hovlilarini ko'rib oldi. Lekin hozir kirishga botinmadi. Bo'lmasa u tuqqan onasiday mehribon, o'z fe'liga yarasha «jonbolam xola» laqabini olgan Adolat xolani ko'rishga juda-juda mushtoq edi. Boshqa bir kuni, albatta, kelishini ko'ngliga tugib, lunjini shishirib konfet shimayotgan Maratni yana bag'riga bosdi, bir-ikki o'pib, xayrlashdi. Uzoqlarda tuhmat qurboni bo'lib yurgan jabrdiyda Sodiqqa, qariganda qaddini g'am bukkan Adolat xolaga, ne-ne umidiar bilan dunyoga kelganida ota mehriga qonmay yo'lga mushtoq Maratga achinib, yuragi ezilib ketdi.

Saldan keyin nevarasidan xabar olib ko'chaga chiqqan Adolat xola Maratning qo'lidagi konfetni ko'rib, kim berganini so'radi.

– Hu, anavi yaxshi xolam berdi, – dedi Marat ancha yerga borib qolgan Jannatni orqasidan ko'rsatib, Adolat xola peshonasiga kaftini qilib qancha termilmasin «yaxshi xola»ni taniyolmadi.

– Kim bo'lsa ham, xudo xayrini bersin, umridan baraka topsin! – deb duo qildi.

– O'sha xola-chi, buvi, – dedi Marat, – meni quchoqiadi, yuzimdan o'pdi, keyin men indamasam ham o'zi yig'ladi.

Ana shunda Adolat xolaning yuragi «shuv» etib, «kim bo'ldi ekan», deb ko'ngli ezildi, o'yiab o'yining oxiriga yetolmadi, «Sodiqning birorta o'rtog'ining xotinidir», deb o'ziga tasalli berdi. Lekin xayoliga Jannat, farzandidan yaqin bo'lgan Jannat, nima uchundir, kelmas edi.

Adolat xola uchun sir bo'lib qolgan bu mehribonlik oktyabr kunlarida ochildi. Ko'chada o'ynab yurgan Marat paket quchoqlab yugurib kirdi:

– Buvi! Buvi! Huv anavi konfet bergan xolam kel-yaptilar. Ana!

Bo'sag'ada Jannat ko'rindi, qo'ltig'ida bir quchoq sovg'a-salom. Musichalarga ayvonda non uqalab berib turgan Adolat xola «Voy, sizmi?» – deb qarshisiga peshvoz chiqishi bilan, Jannat qo'lidagi narsalarni bir chetga qo'yib, bag'riga tashlandi. Ikkisi ham tovush chiqarmay mungli yig'ladi, bir-birlariga uzoq suyanib turib qoldilar.

Marat hech narsa tushunmay hayron edi.

Adolat xola Jannatni qo'yarda-qo'ymay ayvon to'riga o'tqazdi. Jannatning ovora bo'lmang, deyishiga qaramay, samovarga olov tashlab yubordi.

Keyin Jannatning hol-ahvolini badastir so'radi:

– Shukur, yomon emas, o'sha boqchamda ishlab turibman. Bu yerga ko'chib kelib qolibsizlar? – dedi Jannat bo'g'otlari nurab qolgan ayvon tomiga qarab. – Bu yerda Mirsalim aka turardi shekilli?

Mirsalim nomi tilga olinishi bilan, unut bo'layozgan dardining og'rig'i tutib qolgandek Adolat xola allanechuk bo'lib ketdi.

– Hech narsadan hech narsa yo‘q, bir kuni Mirsalim yonida bir yugurdagi bilan kirib keldi. Na salom bor, na alik. Qo‘lida ikki enlik xat. Menga uzatib, o‘qing, dedi. Menda savod bormi! Keyin bilsam, bu hovlimizning qora xati ekan. Shu kuniyoq ko‘chimizni ko‘chaga uloqtirib tashladi. «Hoy, Mirsalim, sizga nima bo‘ldi? O‘rtog‘ingiz kelganda qay yuz bilan qaraysiz?» – desam, nima deydi deng, umring qisqa bo‘lgur, «Mening unaqa o‘rtog‘im yo‘q. U endi kelmaydi». «Voy juvonmarg bo‘lgin, tillaring lahadda chirisin», dedim ichimda. Qarg‘adim-yig‘ladim... Shu-shu, mana bu yerga kelib qoldim. Tuproqdan tashqarida bir amallab yuribman.

Bu nohaqlikdan Jannat iztirobga tushdi.

– Qora bosgur, birinchi ko‘rishimdayoq iqimga o‘tirmagan edi-ya! O‘g‘lingizga, «shu odamdan yaxshilik chiqmaydi, yumshoq supurgi bo‘lmay o‘lsin, ko‘p pash-shaxo‘rda qilmang», deb necha marta aytgandim.

Bolam bechora sodda, halol-da, hammani o‘ziga o‘xshatadi.

– Endi nima bo‘ldi? Jabr jabr o‘zlariga bo‘ldi. Shu ishlarda Mirsalim munofiqning harom qo‘li yo‘qmikin? Bordir? El oldida shuncha xunuk ishlardan tap tortmagan, zimdan xiyonat qilishdan toyarmidi! Mana meni aytdi dersiz, bir kuni hammasi ochilib, shu xazon bo‘lgurning qo‘li bor bo‘lib chiqadi.

Birovga tuhmat va xiyonat qilishni hazar bilgan Adolat xola, qo‘li bilan ushlab, ko‘zi bilan ko‘rmaganidan Mirsalimga to‘nkashni o‘ziga ep ko‘rmadi:

– Bilmadim, qaysi bir umring qisqa bo‘lgur qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan bolamga cho‘h qazidi. O‘ziga ham atalgani bordir. U emas, bu emas, ko‘rgilik, keldi. Ko‘rmaganim shu g‘am qolgan ekan!

Adolat xola uh tortib o'rnidan qo'zg'aldi. Samovarning qorniga chertib, keyin o'txonasiga o'tin tashladi.

– Bekorga ovora bo'lyapsiz, oyi, men haligina nonushta qilgan edim.

– Siz uchun emas, o'zim uchun, kelin. Xudo yorlaqab bir kelib qolibsiz, hasratlashib o'tiramiz.

«Bir kelib qolibsiz» so'zi Jannatning qulog'iga «siz ham meni unutib yubordingiz» bo'lib eshitildi. Yalt etib xolaning yuziga qaradi. Uning yuzini keksalikdan ko'ra, shu keyingi yillarning ko'rgilikiari g'ijimlab tashlagan edi. «Temirni zang, odamni g'am chiritadi», dedi ko'nglida Jannat. Lekin xolaning ko'zida yongan umid uchquni ko'rib, o'ziga tasalli berdi: «Chinor, xuddi keksa chinor. Shoxiari qurisa ham, ildizi butun. Qirsillaydi-yu, sinmaydi».

Ayvonning narigi boshida Marat jajji barmoqlarini o'ynab ashula aytardi. Harakatlari ashulasining ohangiga juda mos tushardi:

- Buvi,buvi! Dadam keldi.
- Qani? Qani?
- Mana! Mana!

\* \* \*

– Omonmisan-esonmisan!

– Tilginangdan buving aylansin, – dedi Adolat xola samovarni olib kelgani o'tib borar ekan va bag'riga bosib manglayidan o'pdi.

– Kelganda ishi qistalang, halizamon ketgudek bo'lib turgan Jannat choydan keyin ham qo'zg'almadi. Kechgacha qolib ketdi. Samovarda qolgan suvga xolaning jomashov oldiga ertalab olib borib qo'ygan kirini yuvib berdi. Xolaning: «Qo'ying, bolam, keyin o'zim yuvib olaman, yilda bir kelganingizda ishlatishim uyat», deyishiga

quloq solmadi. Maratni dahiizga olib kirib cho'miltirdi, kiyimini almashtirdi.

– Yaxshi bola bayramga toza bo'lib chiqadi, – dedi uning tugmalarini qadar ekan Jannat. – Yuz-qo'llarini iflos qilmasdan yurgin, xo'pmi? Kiyimiaringni ham toza tut.

– Undan keyin nima qiladi? – dedi Marat go'yo toza yurishning oqibatida yana bir narsa bo'ladigandek qiziqib.

– Hamma, yaxshi bola ekan, deydi.

– Bayramga dadam keladilarmi?

Ehtimol. Bu bayramda kelolmasa, yanagisiga keladi. Bundan keyin ham tag'in bayram bo'ladi.

– Nega bu bayramda kelmaydila?

– Dadangning ishi ko'p.

– Hammaning dadasi ishdan keyin har kuni uyiga keladi-ku.

Bu savolga javob berishdan qiynalib qolgan Jannat gap chalg'itdi:

– Vizvizak qilib beraymi?

– Qanaqa vizvizak?

– Mana hozir ko'rasan.

Jannat Maratni chalg'itish va so'zining ustidan chiqish uchun Adolat xolaning ishpechidan ip olib, karton qirqib vizvizak yasadi. Uni qanaqa qilib o'ynashni o'rgatdi. Qalb ezadigan savollar birpasda Maratning esidan chiqib, vizvizak bilan ovora bo'lib ketdi. Jannat esa ayvondagi shoxiarni olib o'choqbop qilib kerti-da, samovar tarasha qildi bir chekkaga tez quriydigan qilib taxladi.

– Oyi, o'tiningiz ho'l ekan, qishi bilan esingiz ketadi-da.

– Qodirjonning yozi bilan qo'li tekkani kechagi hafta bo'ldi. Shuni ham birovdan tushirib yuboribdi. Kelasi hafta borib o'zim maydalab beraman degan ekan, nima uchundir, kelmay turibdi.

– Ishlari yaxshimi? – qiziqdi Jannat.

– Shukur, yomonmas. Birovdan oldin, birovdan keyin yashab turibdi. Bir kunimiz o‘tyapti. Quyug‘iga bo‘lmasa ham, suyug‘iga qornimiz to‘q. Yaxshi ham shu bola bor ekan, bo‘lmasa holim nima kechardi? Lekin boyaqish o‘qishdan qolib ketdim, deb ba‘zida o‘kinib qo‘yadi. Yomon hamma yerda bor. Maktabida «akang falon ekan» deb chiqishtirishmadi. Bo‘lmasa bolamning o‘qishga ixlosi baland edi.

– Hali yosh, o‘qisa bo‘ladi, – xolaning ko‘nglini ko‘tardi Jannat.

– O‘zi ham, akam keldi deguncha o‘qishga kirib ketaman, deb yonib yuribdi.

– MTSda nima ish qiladi?

– Elektrlarga qarar ekan. Obro‘yi yaxshimish. Bayramda mukofot berishdi. Bolam o‘tli-shudli, ushlagan yerini ombirdek tishlaydigangina.

– Ishqilib yaxshi bo‘lsin, – dedi Jannat ham quvonib.

– Har bandayi mo‘minning bolasi yaxshi bo‘lsin, – uni quvvatladi xola.

Uning ko‘ngli Jannatni ko‘rib, hasratlashib ancha yozildi. Qayg‘ularini unut qilgandek, ruhi yengil tortdi. «Buning ham eshikdan kirib borganda «kel» deb kutib oladigan mehriboni yo‘q, issiq tatib ketsin», deb kechki ovqatga vaqtliroq qozon osdi. Shu mahal cho‘ntagini «yaxshi xola» olib kelgan turshakka to‘ldirib chiqib ketgan Marat bir kaft danak bilan kirib keldi, buvisiga iltimos qildi:

– Buvi, o‘rikning suyagini chaqib bering.

– Suyak emas, danak, bolam, – nevarasining gapini tuzatdi buvisi va yonida turgan havoncha toshi bilan chaqishni o‘rgatdi. Jannatga Maratning tili chiqish tarixidan gapira ketdi.

– Bolam tushkurning tili juda bot chiqdi. Tili bot chiqqan bolaning yurishi kechroq bo'ladi. Yurib-ketganlarga havasi keldimi yoki botinkamni kiysam yurib ketaman deb o'yladimi, bir kuni botinkasini qo'lga ushlab olibdi. «Kiygizib qo'ying» deyishni bilmay, nuqul «Botinkamga oyog'imni solib qo'ying» deydi. Tunov kuni salqin tushganda «Shapkamning dumini bog'lab qo'ying», – deb ko'chadan chopib keldi. «Eshikni qanaqa qilib ochding?» – desam, «Qo'lidan ushlab tortdim», – deydi. Ko'ylagini yuvsam guli ketinqiradi, uni ko'rib: «Ko'ylagimning guli xafa bo'ldi» deb yuribdi. Kecha ko'chadan kelib, «Fattoh kitobining paltosini yirtib qo'ydi», – deb biram kuyib-pishadi, asti qo'ying. Surishtirsam, kitobning qalin muqovasi yirtilgan ekan. Siz kelmasingizdan sal ilgari vodoprovod jildirab oqsa, «Suv charchab qolibdi!» – deb yuribdi. Omon bo'lgur bolamning tili juda shirin, hali sizdan uyalib turibdi. Qani shu tillarini dadasi eshitsa! Sevinganidan yuragi yorilardi!

Boyadan beri xushnud o'tirgan Adolat xola ko'ziga yosh oldi. Jannat boshini quyi soldi.

Kechga yaqin Jannat qaytar ekan, Adolat xola: «Qoling, gaplashib yotamiz», – deb qistadi, Marat bariga yonishdi. Uning tilini qilib, xola dedi:

– Ketmang ayajon, degin!

Marat ham:

– Ketmang, aya, – dedi.

Umri bo'yi eshitmagan «aya» so'zidan Jannatning vujudi titrab ketdi. Ana shu lahzada Adolat xola bilan ko'zi uchrashdi. Adolat xolaning xira tortgan ko'zlarida: «Ko'rdingizmi, bolam, sizni nima deb atayapti? U sizni yaxshi ko'rib qoldi, baringizni qo'yib yubormoqchi emas. Rahmingiz kelsin, shu tirik yetimning boshini silang»,

degan ma'no bo'lsa, Jannatning ko'zi «Dunyoda meni ham «aya», deydigan bor ekan-ku! Bu so'z menga juda yoqadi, men shuning gadosiman!» – deb yonardi.

Jannat Maratni qo'liga oldi, javdirab turgan ko'zlariga boqib, yuzlaridan o'pdi:

– Endi tez-tez kelib turaman, o'g'lim. Seni sog'intirib qo'ymayman. Uyimga olib ketaman.

– Uyingizda o'g'lingiz bormi? – birdan so'rab qoldi Jannatning bo'ynidan quchoqlab turgan Marat. Xola Jannatni mushkul ahvoldan chiqardi:

– Sen-da o'g'illari. Ayangning sendan boshqa o'g'li yo'q.

Jannat ma'qullab bosh irg'adi.

Jannat uzoq xayriashib ko'chaga chiqqanda, ufq ezilgan anordek qip-qizil, ko'cha gavjum edi, kech salqini bilan boshlangan izg'irin daraxtlarning so'nggi yaproqlarini shirt-shirt uzib yerga otardi.

Jannat sal yurgandan keyin shaharni ikkiga bo'lib o'tadigan anhorning yoqasiga chiqdi. Anhor to'lib oqar, tubi ko'rinmasa ham, suvi qaymog'i olingan sutga o'xshaydi. Sokin. U izg'irinda jimirlaydi, baliqning sirtini eslatadi. Yuzida qalqib borayotgan barglar banoras to'nning mal'ta yamog'iga o'xshab ko'rinadi.

Jannat anhorning jimir-jimiriga mahliyo bo'lib endi ko'prikdan o'tgan ham edi, qayoqdandir paydo bo'lgan so'xtasi sovuq Mirsalimga qamti kelib qoldi. Bu kutilmagan uchrashuv ikkisini ham to'xtatdi. Kunduzi xolanikida bo'lgan suhbat Jannatning esiga tushib, ensasi qotdi, o'tib ketmoqchi bo'ldi. Lekin Mirsalim nimadir demoqchi bo'lib, uni bir chetga oldi. Ana shunda Jannat unga nazar soldi. Mirsalim avvalgidan ancha o'zini qo'ygan, chala oshgan xamirdakkina qorin ham paydo qilibdi. Pidjagi ostidagi



uchi popukli oq ipak tizimcha kamarining fason tuguni uning savlatini yaqqol namoyish qilib turibdi. Ko'ylagi pidjagidan ikki enlik uzun, yoqasi qiyshiq ochilgan. Boshida furajka, oyog'ida etik. Burnining ostida nos tufurib qo'ygandekkina mo'ylov.

Mirsalim yaqinda martabaga mingan kishilarga xos g'ururda Jannat bilan so'rashdi, uning yuzidan kishining g'ashini keltiradigan tabassum arimas edi. O'zining odamshinavandaligi, mehribonligi bilan Jannatni minnatdor qilib qo'yimoqchi, ko'nglini ovlamoqchi:

– Men sizning ziyrakligingizga qoyilman, juda qoyilman. Hammamizdan ham hushyor ekansiz. Sodiqning javobini vaqtida berganingizni qarang. Ayni vaqtida-ya! Xotinlardan payg'ambar chiqmagan deyishadi. Noto'g'ri! Chiqqanu, erkaklar tan olmaydi. Bir payg'ambarning bashorati siznikicha bo'lar-da! Ortiq bo'lmas! Men sizga qoyilman, hamma qoyil. Buni qarang, odamning olasi ichida bo'ladi, deb shuni aytadi-da, bo'lmasa, Sodiqni shunaqa odam deb kim o'ylabdi. Siz o'yiabsizmi – yo'q, men o'ylab manmi – albatta, yo'q.

– Nima ish qilgan ekan? – dedi Jannat, ensasi qotib tursa ham jo'rttaga.

– Ey, qo'ying, siz so'ramang, men aytmay.

– Xo'sh? Xo'sh?

– Hukumatimizga qarshi shunaqa ishlar qilgan ekanki, tunov kuni bittasidan eshitib tepa sochim tikka bo'ldi, tilimgacha muzlab ketdi. Avval turgan shahrida qilgani yetmagandek, bu yerga kelib ham avj oldirgan ekan. Tavba, nega shunaqa qiladi bu odamlar! Bizning hukumatdan yaxshi hukumat bormi dunyoda! Qonunimizning bittadan ortiq xotin olishga ruxsat bermagani unga yoqmaganmi? Nafsi g'olib erkak-da, xo'rozga o'xshab to'rtta-beshtasini

boshlab yurgisi keladi. Ey, attang! O'ziga jabr qildi. Bitta Sodiq bo'lmagani bilan davlatimizning murvati bo'shab qoladimi? Albatta, yo'q!.. Men sizga qoyilman, xotin kishi bo'lsangiz ham o'nta erkakdan hushyor ekansiz. Men nodon hech narsani fahmimasdan ulfatchilik qilib, qancha gap-so'zga qoldim.

– Gap-so'zga qoldim? – ajablendi Jannat.

– Ha, bo'lmasam-chi! Eshitmadingizmi? Go'r og'zidan qaytdim. Siz vaqtida talog'ingizni olganingizdan, tinch qoldingiz-da, bo'lmasam...

– Bo'lmasa, Adolat xolaga o'xshab hovli-joydan ajralib qolarmidim!

Mirsalim buni kutmagan, Jannatni Sodiqning qamalib ketishidan xursand, «o'l, ajab bo'libdi» deb yurgan o'ylab, oldiga poxol solayotgan edi. Ataladan suyak chiqib, esankirab qoldi. Shunda ham bo'sh kelmadi, yotig'i bilan:

– Bu da'vongiz g'alat, – dedi. – Men tortib olganim yo'q. Kattalar, ko'chib kir, deb qo'yishmadi. Menda nima ayb? Aytganlarini qildim. Baribir boshqa birov olib qo'yardi.

– O'sha boshqaning ko'chib kirgani yaxshi edi.

Mirsalim javob to'qiguncha Jannat xayrlashmay jo'nab qoldi. Uning ichi nafratdan lov-lov yonar edi.

Mirsalim bezrayib qoldi. Kutilmagan zarba uni gangitib qo'ydi. O'ziga kelib, alamdand: «Bu qisirning ham tili tagida til bor ekan-ku!» deya oldi va peshonasining terini barmog'i bilan sidirdi...

\* \* \*

Uch kun o'tmay, Maratning sog'inib «aya» degani Jannatning qulog'ida jaranglay boshladi. Bog'chasidagi har bola Marat bo'lib ko'rinar, «aya» deb chaqirayotganga o'xshardi. Kechasi tush ko'rdi. Maratni emizayotgan

emish. Marat hech ko'krakka to'yasmish. Bu tushni o'zicha ta'birladi, birovg'a aytgani botinmadi. Ertasiga ishdan chiqib Alolat xolaning oldiga o'tdi. Tushini unga aytgan edi, xola.

– Maratning mehri sizga umrli bo'lib tushibdi, jon bolam. Yaxshilikka ko'rinsin! – deb ta'kidladi.

Buni tasdiqlagandek, ketgunicha Marat undan ajralmadi, «aya-chi, aya» deb yalab-yulqadi. Yig'ib qo'ygan gaplari sira ado bo'lmas edi. Keyin uni ancha yergacha qo'lidan ushlab borib qo'yib qaytdi. «Ertasi ham keling», – deb yalinib qoldi. Uning yuzidan o'tolmagan Jannat bayram kuni kechqurun yana kelib, Adolat xolaning yonida yotdi, ertalab turib Maratni namoyishga olib chiqdi. Pufak, «eskimo» olib berdi.

– Ichiga yax qamab qo'ygan ekan, tilim sovuq yedi. Issig'i yo'qmi, aya, – dedi Marat. Uning bolacha mantig'i Jannatni kuldirdi, mehrini toviadi.

– Sovuq bo'lsa yemay qo'ya qol.

– Yo'q, isitib yeyman.

Jannat yana kuldi. Eskimoning ustki qog'ozini pastroq surib berdi:

– Kiyimingga oqizmasdan egin, xo'pmi?

– Xo'p!

Ularning eshikdan boshlashib kirib kelishini ko'rgan xola, ich-ichidan quvonib:

– Ko'z tegmasin, bir-birlaringga juda yarashibsizlar! – dedi. Keyin yana qo'shdi: – Siz keladigan bo'lgandan beri bolam yayrab qoldi, kelin. Ko'chada sizni qiynamadimi? Bolam tushkur, juda sergap, har narsani surishtiraveradi.

– Yo'q, yaxshi yurdik. Bolalar bu yoshda shunaqa bo'ladi, – murabbiyalarga xos mantiq bilan javob qaytardi Jannat.

Jannat yana bir-ikki marta kelib ketgandan keyin: – Siz yo‘g‘ingizda Marat o‘g‘lingiz ichikib qolyapti, ayasi, – deya bir nimaga ishora qildi xola. Buni Jannat darrov payqadi, tushunganicha javob qildi:

– Olib ketib turardim-ku, qyjion, sherigimga yoqadimi, yo‘qmi, deb istihola qilyapman. Yuragi torroq juvon.

Adolat xola otgan o‘qining nishonga tekkanini payqadi. Chunki Jannatning kelib-ketib yurganidan beri ko‘nglida o‘zgarish boshlanganini keksalarga xos ziyraklik bilan sezib yurgan edi. Lekin Jannat o‘z niyatini ochiq aytishga botinolmasligini ham yaxshi bilar edi. Mana ikkisi ayni muddao eshigidan kelib chiqishdi. Bundan xursand bo‘lgan xola ochig‘ini aytib qo‘ya qoldi.

– O‘zingiz shu yerga kelib qo‘ya qolsangiz nima qiladi. Men ham yolg‘izman... Qodirjonning ahvoli bir oyda bir kelsa keladi, kelmasa yo‘q. Bir-birimizga hamroh bo‘lardik.

Jannat o‘ylab qoldi, ming xayolga bordi. Uning bu hovliga kelib-ketadigan bo‘lganidan beri o‘z rejasi bor edi: agar Qodir MTSda kvartira olsa (u hozir traktorchilar tayyorlash kursining yotoqxonasida turardi), xolani, albatta, ko‘chirib olib ketadi, shunda u Maratni iltimos qilib olib qolmoqchi. Sodiq kelguncha o‘zi tarbiya qilmoqchi, keyin yana bir gap bo‘lar, deb o‘ylab yurardi. Lekin xolaning hozirgi taklifi unikidan ham naqd chiqdi. Buni o‘yamagan ekan u. Endi bundoq fikr qilib qarasa, xolaning takiifida jon bor. Bag‘riga quloq solsa, Maratgagina mehri tushib qolmay, Sodiqqa bo‘lgan mehri-muhabbati ham avvalgicha. Garchand Sodiqning ko‘nglini bilmasa ham, sevgisi haqqi-hurmati uning shunday qora kunida tirgagi bo‘lishni o‘z burchi hisobladi. Qolaversa, bu dunyoda Adolat xoladan mehribon kimi bor? Soyasiga ko‘rpacha soladi. Uning ustiga, bechora, qarib qoldi, boshi yostiqqa tekkuday bo‘lsa, issiq-sovug‘idan kim xabar oladi?

Jannat shularni o'ziyab, o'zicha aniq bir fikrga kelgan bo'lsa ham, darrov rozi bo'lib qolishdan iymandi, istihola qildi, bo'shshibgina dedi:

– Eshitgan quloqqa xunuk. Chiqib ketgan joyim...

– Avvalo siz bu uydan chiqib ketmagansiz, – dedi xayoli Jannatning yon bosganini sezib, hazil qilib. – U uy boshqa, bu uy boshqa. Orqadagi uzunquloq gapga quloq solmagan yutadi. Og'ziga kuchi yetmaganlar nimalar demaydi!

Jannat indamadi: xola haq. Undan keyin ko'ngli chopib turgan ishga ortiqcha «goj»likning nima keragi bor? Sinamagan joyimi!

Shu fikrga borgan Jannat, uch kun o'tgach, kvartirasini sherigiga qoldirib, Jannat xolaning yoniga, Marat o'g'lining bag'riga ko'chib keldi. Marat esa, ertasidan boshlab ayasi bilan uning bog'chasiga qatnaydigan bo'ldi.

## 9. KUTILMAGAN UCHRASHUV

Sodiq o'n yil muddat olib lagerga jo'natilganda ayni bahor edi.

Uning so'nggi marta oigan peredachasiga Adolat xola to'rttagina ismaluq somsa bilan oshiga besh-oltita dovuchcha solgan edi. Sodiq ana shundan, tashqarida qay fasl ekanini tasavvur etgan bo'lsa, yukini orqalab etapga chiqayotganda esa, vokzaldagi g'uj daraxtlarning ko'm-ko'k shoda barlariga ko'zi tushdi. Lekin uni o'sha haftadan keyin poyezddan tushirgan yerlarida esa bir metr mo'l qor bor edi. Sovuq qirq gradus atrofida-yu, daraxt zoti qilt etmas, butun borliq sukunat ichida gung qotib uxlayotgandek. Etapda Sodiq bilan kelganlardan biri:

– Bu yer ham o'z yurtimiz! – deb qo'ydi. Lekin Sodiq uning nima demoqchiligini tushunmadi.

Bir oy karantinda tutganlaridan keyin, quioqchin, paxtali shim, telogreyka, bushlat va piyma berib, lagerga chiqardilar. Garchand bu kiyimlar yangi bo'lmasa ham, hali issig'i ketmagan, bu yerning sovug'iga dosh berishi mumkin edi. Hammadan ham Sodiqqa piyma erish ko'rindi. Umrida kiyimaganidan unda yurolmas, qo'nji taqimiga tegib g'ashini keltirardi.

Goh-goh ko'zga tashlanib qoladigan kishini hisobga olmasa, lagerda hech kim yo'q. Allaqaysi barakdan chiqqan tutun og'ir taraladi. Kun sovuq, ignali. Sodiqni pakana baraklardan biriga boshlab kirgan soqchi navbatchi mahbusni chaqirib:

– Mehmonni qabul qil, – dedi.

Barakka kiraverishda tumbochka oldida o'tirgan qotma navbatchi indamadi. Faqat, Sodiq ko'tarib kirgan ko'rpa-yostig'ini yerga qo'ymoqchi bo'lganida qarshilik bildirdi:

– Yuring, birato'lasini joyingizga qo'ya qoling.

– U boshlab ketdi. Barak katta bir saroyga o'xshaydi. O'rtasida yo'l, ikki tomonida ikki qavatli yog'och karavotlar, ularning orasida tumbochka. O'rinlar bir xilda bo'lmasa ham ancha tartib bilan tuzatilgan. Barak qorong'iligidan odeyallarning rangini ajratib bo'lmaydi. Lekin navbatchining yaqinda barakni supurib-sidirib chiqqani, narsalarni sarañjom qilgani sezilib turibdi.

– Sizning brigadangiz shu yerda turadi.

Sodiq bir bo'sh joyga o'rin-boshini irg'itdi. Naridan-beri o'rnini tuzatib, ustiga o'tirdi. Ana shunda barakdan erkak teri hidiga qorishgan zaxlikni payqadi. Bu yerda kimlar turadi-yu, nima ish qilishadi? Nahot shu yerda o'n yil hayot kechirsa? Ichidan kelgan bir nido uni ovutdi: odam ko'p. Odam odamning hovrini oladi, ochiq havo, sovuq bo'lsa ham toza. Undan keyin, bu yerdan turib istagan yeriga arz

qilishi, huquqini talab qilishi mumkin. Bir kunda o'nta ariza yozsa birov yo'q deydimi? Biri bo'lmasa, biri nishonga tegib, ijobat topishi mumkin.

U, kechiktirmasdan, shu bugundan boshlamoqchi bo'ldi. Bir chetda o'tirib, prokurorning o'ziga shikoyatnoma yozdi. Qamalishidan tortib bo'lgan hamma voqeani marjon qilib tizdi, tug'ilishidan tortib, qilgan hamma ishlarini bir-bir bayon qildi. Grajdandlar urushida olgan, nomi yozilgan qilichini pisanda qilgandek, bir yeriga tirkab qo'ydi...

Shikoyatnoma ancha uzun bo'ldi. Uni oqqa ko'chirar ekan, navbatchi mahbus kelib qoldi:

– Uyga xat yozyapsizmi! Uzun bo'lib ketibdi-ku! Nimalarni yozdingiz? Uncha-buncha gap senzurning me'dasiga botmaydi. Bu yerda xatning qisqasi yaxshi – tez boradi.

Shuncha mehribonlik qilib turgan navbatchi mahbus yozilgan narsaning nimaligini bilgach, miyig'ida kulib qo'ydi, «Ey g'ofil banda, nimadan umid kutyapsan?» degandek, salmoqlab qadam bosib joyiga ketdi.

Bir mahal tashqaridan odamlarning olag'ovuri eshitilib, keyin barak eshigi taraqlab ochildi. Duvillab, bir narsaga shoshgandek odamlar kirdi. Ular bilan sovuq havo kirdi. Odamlarning usti boshi bugun Sodiqqa berganlariga o'xshagan qalin va qo'pol. Quloqchinlar ilgakda bog'log'liq. Ba'zi birovi barakka kirdi deguncha ustidan qalin po'stinini yechib, o'rniga-yotar, sochig'ini olib qo'shni xonaga otilar edi. Ba'zi birovini hech narsa bilan ishi yo'q, kira solib o'rniga o'zini og'ir tashlaydi.

Bu ishdan qaytish g'uvuri sal o'tmay bosildi. Barakda yangi odam paydo bo'lganini shundagina payqab, Sodiqni o'rab olishdi. Lager odaticha savolga ko'mib tashlashdi. O'zi kim? Qayerdan? Nimaga? Necha yil?

Xuddi shu paytda kimningdir juda tanish tovushi Sodiqning quioq'iga challdi:

– Bizning tomondan? Kim ekan baxti qora?

Tovush egasi odamlar orasini yorib, oldinga o'tdi.

Hammadan oldin uning baroq qoshi ko'rindi, keyin hayron bo'lib og'zini ochganda so'yioq tishi ko'rinib ketdi. U Sodiqni ko'rishi bilan bir lahzagina hayratomuz boqib turdi-yu, keyin eski qadrdonini nogahon uchratib qolgan kishidek: «Sodiqjon, iye, sizmi?» – deganicha quiochini ochdi: Sodiq tanib, indamay turaverdi.

– Ana xolos, ana shunday joylarda ko'risharmiz, deb hech-hech o'wiamagan edim!

Bu Dilovarxo'ja edi. Sodiq hayratda edi. Nahot qarshisida turgan o'sha Dilovarxo'ja! Sodiq, uning faryod urib yig'laganicha bor, jinoyati og'ir ekan, otishdi shekilli, deb o'yiab yurardi. Uni bu yerda ko'rishi, o'lgan odamning tirilishidek, juda g'alati tuyuldi. Dilovarxo'ja ham Sodiqning qamalishi bir xatolik oqibati, bir ozdan keyin chiqib ketadi, deb o'ylagan, uning bu tomonlarga kelishini hech xayoliga keltirmagan edi. Shuning uchun ikkalasi ham hayron tikilib qolishdi.

Kiyim-boshining boshqaligini hisobga olmasa, Dilovarxo'ja o'sha-o'sha: baroq qosh, so'yloq tish, ro'paradan sochma o'q yegandek cho'tir yuz. Lekin u endi ancha oqargan, ko'zi uhfasini haligina oldirgan ukkinikidek chaq nab turibdi.

– Siz ham shu yerdamisiz? – dedi Sodiq nihoyat. U hamon o'z ko'zlariga ishonmayotgandek edi.

– Ha, shu yerda... Sovuq yalab yotibmiz. Otilib ketgan deb o'ylovdigizmi? Yo'q, otmadilar. Xudo ko'ngillariga rahm soldi. Undan keyin, ochig'ini aytganda, o'zi ham o'n besh yil avvalgi ishda. Eskiligini ham nafi tegdi. Qonunda



ham «shu yeriga bir oz egilib qara, sudya» degan joyi bor shekilli-da! Xullas, nasibamiz shu yoqlarga sochilgan ekan, terib yeb yuribmiz.

Dilovarxo'ja Sodiqni qo'yarda-qo'ymay o'z karavoti tomonga boshlab ketdi. Allaqayerdan qaynagan suv topib kelib, kotelokda choy damladi, dasturxon yozdi. Bisotida bor narsani to'kib soldi. – Oling, yo'ldan toliqib kelgansiz.

Dilovarxo'ja juda mehribon edi. Shu o'tirishlarini ko'rgan kishi ularning bir-biriga ashaddiy dushman ekaniga, bir vaqtlar bir-birining payiga tushib, o'q otishganiga sira ishonmas edi.

– Sodiqjon! Men sizni bu gadoy topmas tomonlarga sira ham kelmassiz deb o'ylagan edim.

Axiyri qo'yishmabdi-da. Nima jinoyat qila qolgan edingiz, xizmatlaringizni ham hisobga olishmabdi.

– Tuhmat. Tuhmatning zarbi yomon bo'larkan.

Dilovarxo'ja ishonmadi. U organning kuchini yaxshi bilardi: axir uning o'n besh yil avval qilgan ishlarining ipidan-ignasigacha ochib tashladi-da. Shunday faktlarni topdiki, hatto o'zining ham esidan chiqib ketgan ekan. Nahot shunday organ tuhmatni bir yoqlik qilolmasa, jez bilan tillani ajratolmasa? Yo'q, mumkin emas. Sodiqning sirli jinoyati boru, aytishga botinmayapti.

Dilovarxo'ja hazilga oldi:

– Sizning bir baloyingiz bor, mendan yashiryapsiz, mayli. Endi foydasi yo'q, aytaversangiz ham bo'lardi.

– To'rga tushgan baliq qarmoqdan cho'chimaydi, nimasini yashiraman. Tuhmat!

– To'g'ri, chivin birlashsa, filni holdan toldirarkan. Tuhmatchining kimligini biloldingizmi?

– Bilganim ham bor, bilmaganim ham – yongan olovning tutunini yashirib bo'ladimi?

– Qani endi o‘shalar qo‘limga tushsa-yu, giribonidan tutib burda-burda qilib tashlasam, deb yurgandirsiz.

– Tuhmatning oyog‘i qisqa, uzoqqa bormaydi. Haqiqat to‘q danak, ko‘msa ham ko‘karib chiqadi.

– Shular birovga tuhmat qilmasa yasholmaydimi?

– Yasholmaydi, ko‘ngildagidek yasholmaydi! Birovning baxti g‘ashini keltiradi. Aqli, mehnati bilan istagan baxtiga erisholmagandan keyin tuhmat bilan, xushomad bilan orqa eshikdan to‘rga chiqib olmoqchi bo‘ladi.

– Chiqib ham oladi deng.

– Ha, chiqib olgani bo‘ladi. Lekin uzoq yashamaydi, bahorda paxsa devor ustida ungan o‘tning xuddi o‘zi, yomg‘ir nami ketguncha ko‘karib turadi, xolos!

– Quruq tuhmatdan o‘zing asra, deb mashoyixlar bekor aytmagan.

Dilovarxo‘janing gapi oxir bo‘lmaguncha kimdir Sodiqning brigadasini aytib kechki ovqatga taklif qilib qoldi. Dilovarxo‘ja ham unutgan narsasi esiga tushgandek irg‘ib turdi:

– Ey, gap bilan bo‘lib, obiravonni boy berib qo‘yay debmiz-ku. Turing, ovqatga boring. Yana ko‘rishamiz.

Sodiq uni ko‘rgisi kelmasa ham to yangi tanish-bilish orttirguncha, uchrashganda uch-to‘rt og‘iz gaplashib turdi.

Dilovarxo‘ja lagerni o‘ziniki qilib olgan, tuynugidan kirib, eshigidan chiqar, qozonida suzib, cho‘michida o‘ynar edi. Uning o‘zini oldirmaganligi sababini Sodiq endi tushundi. U ba‘zi birovlariga o‘xshab, hayotdan noliybermas ham edi. Balki bu otilmay tirik qolganidandir, axir u hayotdan umidini uzib qo‘ygan edi-da. Tekinga qolgan hayoti esa, bu yerda yomon kechmas edi. Lagerga tushishi bilan ochofat mushuklarday sezgirlik bilan atrofni hidladi, o‘ziga o‘xshagan olg‘irlar bu yerda ham topilib qoldi. Ular bosh

biriktirdi. Bundaylar haromdan hazar qilmas, xiyonatdan qaytmas, «dunyoni o't olsa, mayli, lekin mening kabobim pishsa bo'ldi», degan aqida bilan yashar edilar. Chunki bu to'dadagi mahbuslarning ozodlikdan umidi kam, ular o'z jinoyatlariga iqror, ularning vijdoni hech narsadan qiynalmaydi, hayoti o'tsa bas.

Lekin Sodiqqa qiyin. U umrida birovga botinib qattiq gapirmagan, luqmai halolini faqat mehnat bilan topib yeb yurgan bo'lganidan Dilovarxo'jalar to'dasiga qo'shilmas, ulardan jirkanar, ulardan ko'ra og'irroq hayot kechirar edi. U faqat qorni uchungina qayg'urmay, tuhmatga qolgan qadri uchun ham yig'lardi, bu yerda o'zini tutishi, vijdoni qiynaladigan biror ishga qo'l urmasligi kerak. Ishga chiqishi bilan eng halol zahmatkashlardan biri bo'ldi. Uning brigadasi qurilishda har xil ishlar qilar edi. Unda yaxshi g'isht teruvchi, armaturachi, suvoqchilar bilan bir qatorda, dastyorlar ham bor edi. Ular ana shu ustalarga g'isht, qorishma olib berib turadi, suv keltiradi. Sodiqning bu yerga mos keladigan birorta hunari bo'lmaganidan brigadir uni har kuni har xil ishga qo'yadi. U goh g'isht teruvchiga yordamchi, goh aramura sudrab qolar, goh yer kovlab quvurlarga joy tayyorlar, goh vagondan sement tushirar edi. U hech biridan hazar qilmadi, qilinishi lozim bo'lgan zarur ish deb qaradi.

Bir kuni ochiq vagondan g'isht tushirar edi. Sodiq bundoq qarasa, yonidagi sherigi g'ishtni duch kelgan tomonga irg'ityapti, ko'pi sinib ketyapti. Vaholanki, brigadir vagon eshigiga taxta qo'yib, shundan sirg'antirib tushirishni tayinlab ketgan, g'ishtga joni achigan Sodiq sherigiga: «Ko'pi nobud bo'lib ketyapti-ku!» – dedi. Sherigi unga shunday xo'mrayib qaradiki, Sodiqning yuragi orqasiga tortib ketdi:

— Joning achiyaptimi? Tushib tur, men irg'itaman, ilib olib, boshini silab yerga qo'yasan! Patriot! Ana shunda Sodiq bildiki, bu yerda ehtiyot bo'lish kerak. Kuydi-pishdilik ketmaydi. Lekin baribir, u vijdonini qiynab, xo'jako'rsinga ishlamadi. Biladiki, bu ko'rgilik unga vaqtinchalik, ertami-indin hammasi bartaraf bo'ladi. Shuning uchun o'zini ruhan tetik tutishga urinar, ba'zi birovlarga o'xshab faryod urmas edi. Modomiki, sinfiy kurash borar ekan, turma va lager bo'lishi kerak, unda dushman o'tirishi kerak. Dushman bilan bo'ladigan muomala aniq: uni ma'lum rejim bilan ishiatishi, to'g'ri yo'lga solish kerak. Sodiq esa, bu dargohda vaqtincha, u yerdagi kun adolatining tantanasidan umidvor, uni kechayu kunduz sabrsizlik bilan kutganlardan biri. Agar uning qalbida shu umid mash'ali porillab yonib turmaganida, uning ertasini yorqin ko'rsatib turmaganida, balki Sodiq bu kutilmagan va ko'nikish og'ir bo'lgan hayotga bunchalik bardosh berib yasholmas edi. Ertagi kun umidi ishonchiga aylangan, ishonch esa unga bardamiik bag'ishlardi. Ertaning tongi qanchalik sust otmasin, bugunning shomidan nurli va umidbaxsh edi.

U tashqaridan kelgan har bir xabarni chanqoq kishining suv simirishidek besabrlik bilan kuzatar, u kuchli shamoldek umid cho'g'ini alangalatib yuborar edi. Bu xabarlar turli reja va taxmin tug'dirar, oqibati yana o'sha muqaddas erkinlikka borib taqalar edi. Erkinlik esa, ba'zida, uzoqdagi sarobdek betinim yonardi-yu, unga yetib borish umidi amri maholdek, juda mushkuldek ko'rinib ketar edi. O'rtada qalin va baland devor, qator-qator tikanli simlar bor. Lekin, baribir, uning yuragi shu to'siqlar orqasida, o'z oqimi bilan tinmay kamol topib borayotgan, go'zallik kashf etayotgan katta hayot qo'ynida, uning bir zarrasi bo'lganligi uchungina yashardi, undan bir lahza bo'lsin uzuqlik

sezmas edi. Mehnatining samarasi ulkan hayot daryosiga qo'shilgan jonli irmoq ekanini sezib, shu og'ir kunida ham inson va yurt uchun nafi tegayotganidan ichida mamnun edi. Faqat mehnatni qadrlab tashqaridagidek «balli, ofarin!» deb yelkasiga qoquvchi yo'q, ikki og'iz shirin so'z bilan ko'nglini ko'tarib qo'yuvchi yo'q. Mana shunisi juda og'ir, o'tmas pichoqdek og'ir botar edi.

Sodiq faqat badnom bo'lib o'lib ketishdan qo'rqadi. Bo'lmasa, o'lim hayot qonuni, tug'ilgan kishi bir kuni albatta o'ladi. Lekin tuhmat sirtmog'ida o'lish juda dahshatli. Agar urush yillarida halok bo'lganda «umrini sharaf bilan tugatdi, grajdanlik burchini o'tab ketdi» deyishardi. Undan keyinroq vafot etganida ham yomon bo'lmas edi, «bir odamcha yashab o'tdi», deb esiashardi. Endi-chi? Pok oilaga isnod keltirib, qora nom bilan umrini tugatish naqadar dahshat! Yo'q! Bu chidab bo'lmas katta dog'. Nima bo'lsa ham qutulishi kerak.

Sodiq halol ishlar, turli-tuman gaplarga quioq solmas, to'g'ri kelgan yerda g'alamislarni siltab tashlardi, og'ziga urardi. U o'z erkini faqat haqiqatning tantanasidan kutardi. Lekin ko'nikmagan iqlim va mehnat uni kundankun yengandek bo'lib, tez charchaydigan bo'lib qoldi. Endi kechqurun toliqib yotib, ertalab yengil tortib turmas, kechagi kunning hordig'i hamon tanasidan arimagandek, karaxtlik sezardi butun badanida, u bugun ham xuddi shunday bo'lib ishga chiqdi. Kechqurun qaytganida Dilovarxo'jaga yo'liqib qoldi. U bilan ko'rishmaganiga biror hafta bo'lgan, ikkisi ikki yerga ishga qatnardi. Ancha o'zini oldirib qo'ygan Sodiqni ko'rib, u mehribonlik qildi.

– Iye, o'zingizni oldirib qo'yibsiz-ku?

– Sal tobim qochib turibdi.

– Tobingiz qochgan bo'lsa bu yerda nima qilib turibsiz? Yuring doktorga.

Sodiq unga noiloj ergashdi.

Tibbiy bo'lim baraklardan ancha chetda, uch xonali alohida binoda. Ular kirib borganida anchagina odam bor edi. Bu yerning poli baraknikiga o'xshamas, devorlari oppoq. Devorida tibbiyotga xos plakatlar bor.

Sodiq bu yerga birinchi kirishi bo'lgani uchun tartibni bilmas edi. Dilovarxo'ja esa, bu yerning havosini oigan, kirishi bilan odamlarning orasini yorib oldinga o'tdi. Navbati kelib qolgan bittasining oldiga imo-ishora bilan suqilib, Sodiqni yoniga oldi. Navbat kelib, Sodiqga shisha bankadan termometr olib berdilar. Uning issig'i deyarli joyida edi. Doktor uning basharasiga qarab:

– Yangimisiz? Toliqibsiz, – dedi, lekin uni ertagi ishdan ozod qilmadi, dori-darmon berish bilan kifoyalaniq bo'ya qoldi. Gap-so'zlari o'qdek, tetik Dilovarxo'janing issig'i 38,5 chiqdi. Doktor u bilan ancha gaplashdi. Dilovarxo'ja o'z kasali o'ziga ayonga o'xshab, doktorga izohlar berardi. U ertagi ishdan ozod bo'ldi. Sodiq hayron qoldi: soppa-sog' odam-ku!

– Issig'ingiz bormi? – ajablanib so'radi.

– Bo'lganda qanday! Ko'rdingiz-ku.

Sodiq ishonmadi. Uning javobi ham kasal odamnikiga o'xshamas edi. Dilovarxo'janing iltimosi bilan uning peshonasiga qo'lining orqasini qo'ydi.

– Sezmadim.

– Siz doktor emassiz-da, – xixilab kuldi u. Sal yurgandan keyin u cho'ntagidan bir narsa olib otdi. U narsa qorga qiziq temirdek big'illab tushib, eritib kirib ketdi.

– Nima u? – so'radi Sodiq.

– Issig'im!– xandon soldi Dilovarxo'ja. Keyin birovga aytmaslik sharti bilan qulog'iga asta pichirladi:

– Ko‘mir shlagi. Dastro‘molga o‘rab qo‘ltig‘imga qisgan edim.

Ertaga ishga chiqmasligidan mamnun bo‘lgan Dilo-varxo‘janing tili biyron, dili xush edi.

– Shunaqa ishiar, Sodiqjon, bu yerda fidokorlik emas, ustomonlik kerak. Jonni saqiyash kerak. Sho‘rolar joningizni jabborga berganingiz bilan minnatdor bo‘lmaydi. Buni boshingizdan kechirib, bilib turibsiz, shunda ham ko‘zingiz ochilmas ekan-da. Sizga qiyin, juda qiyin! Jilla bo‘lmasa, shu yerda o‘zingizni tiying, bunchalik jon koyitib ishlashning hojati yo‘q.

– Nega? Ish el-yurtniki. O‘sha el-yurtda onam, ukam, o‘g‘lim yashaydi. («Xotinim» deb yubormoqchi edi, Musharraf esiga tushib, tilini tiydi.) Nafi menga bo‘lmasa, o‘shalarga tegadi. Har kim o‘zi ekan daraxt soyasida o‘ti-ravermaydi.

Dilovarxo‘ja Sodiqning bu gapidan kuldi. Krujkadagi suvni olib uzatdi:

– Mana buni ichvoring, bo‘lmasa tiqilib qoladi! Naf! Shuncha nafingiz tegib nima baraka topdingiz. Shu yergacha yetib keldingizmi? Ertaga o‘lsangiz, uyingizga ikki enlik xat bilan xabar qilmaydi! Tentak bo‘lmang. Shuncha yil tentakiik qilganingiz bas! Qaysi gunohiarimizga shuncha azob chekamiz. Axir xudoning bizga atagan yorug‘ kuni ham bordir, shunday qo‘ymas.

Dilovarxo‘ja nimadan yoki kimdan umidvor ekanini ochiq aytmadi, to‘g‘risi, aytishga botinmadi. Lekin Sodiq uning yolg‘iz xudodangina madad kutishiga ishonmas, uning majruh ko‘ngliga dalda berib, sarobdek ko‘rinayotgan nimadir bor edi. Bu haqda sinashta bo‘lgan, maslakdosh mahbuslar xilvat topib ochiq gaplashishadi. Buni Sodiq ham ba‘zan eshitib qoladi. Dilovarxo‘ja Sodiqni yaxshi sinab bo‘lmaganidan faqat qarmoq tashlab ko‘rardi.

Sodiq ularni bu umidi nimadan ekanini taxminlardi. Ularning umidi Yevropada och bo'ridek izg'ib yurgan urushdan edi!

## 10. OLIJANOBLIK

Irodasi metin kishini molu muikidan, bola-chaqasidan mahrum qilish mumkin, biroq esankiratish, yo'ldan to'ydirish qiyin.

Sodiq lagerga yangi kelgan kezlari endi o'tqazilgan ko'chatdek sal yelga egilib yurgan bo'lsa ham, keyin o'zini tutib oldi. Bu yerda ham inson hayoti bor. Bu yerda ham insoniy xisiat bilan yashash kerak. Uning nazarida bu yerga yana bir katta imtihondan irodasi, bardoshi, asabi, ishonchi, e'tiqodini imtihondan o'tkazish uchun yuborib qo'yganga o'xshaydilar.

Endi u kelgan kunidagidek nima ishga buyursalar shuni qilib yurgan hunarsiz ishchi emas. Oldiniga suvoqchilikka o'rgandi, keyin katta mis tozalash fabrikasi qurilishi boshlanishi bilan g'isht teruvchilikka o'tdi.

Tabiatan serzavq va har narsaga qiziquvchi bo'lgan Sodiq uchun har hunar bir zavq baxsh etar, ko'nglini ko'tarar, sog'ligini saqlardi... Nega o'tgan oy yozgan arizasiga haligacha javob yo'q. Yo'lda yo'qolib ketdimikan? Adresi to'g'ri edi, shekilli.

Shu xayol bilan o'rniga kirgan Sodiq, kechasi allanima balo tushlar ko'rib, ertalabki yurak ezar qo'pol signal bilan uyg'ondi. Uyg'ondi-yu, tushiariga parvo qilmay, o'zining ikkinchi qavatdagi o'rnidan sakrab pastga tushdi.

– Xo'sh, do'stim – dedi qo'shnisi bugun, – biror falsafiy fikr topdingmi?

Sodiq gap nima haqida borayotganini darrov payqadi. Bugun mis tozalash fabrikasining bir qanotidagi maydonga



tushayotgan imoratning devori ko'tariladi. Kecha poydevor qo'yilib bo'ldi, Bogun bilan turkman yigiti Jurmenek o'zlarining taqdirlari haqida xat yozib, shu imorat ostiga bostirib yuborish to'g'risida maslahatlashishgan edi.

– Bu yerda falsafaning keragi yo'q. Rost gapni puxta qilib qog'ozga tushirsak bo'ldi, – dedi Sodiq.

Nonushta paytida oshxonada uchrashgan Jurmenek ham «Yodlaringdan chiqmadimi?» – deb esiatib qo'ydi.

Ular ishlaydigan joy ikki-uch kilometrlik masofada edi. Sodiq Bogun bilan yonma-yon borar, ularning taqdirida qandaydir o'xshashlik bor edi. U ham avval o'qituvchi bo'lib, keyin MTS siyosiy bo'limiga safarbar qilingan ekan. «Menga-ku balo ham urmaydi, erta-indin chiqib ketaman, lekin jo'jabirday jon bilan xotinimga jabr bo'ldi: besh bolaya! Bir-biridan sal katta – bo'ysira qilib qo'ygandek», deb ertayu kech uyidagilarni o'ylagani-o'yiagan. Hozir ham uyidan kecha olgan xatining mazmunini Sodiqqa hikoya qilib borar:

– O'rtancha o'g'lim, dadam ovga ketgan, ayiqpolvon otib keladi, dermish.

– Bilmagani yaxshi. Bilsa ko'ngli o'ksiydi, – deya tasalli berdi Sodiq. – Bu kunlar ham o'tib ketadi.

– O'tarmikan?

– O'tadi! O'tishi shart. O'tmasligi mumkin emas. Men ishonaman: bu ahvolning uzoq davom etishi hech mumkin emas. Bunda sen bilan men tushunmaydigan murakkab bir sir bor. Bir kuni tagiga yetiladi. Men bunga aminman.

– Qaysi ahvolga tushib qolmaylik, indamaslik – ko'rnamaklik bo'ladi. Bu haqda gap bo'lishi mumkin emas. Shaxsan mening ishonchim komil. Lekin ahvoinl o'ylab, ba'zan yoqamni ushlayman: o'zi nima gap?

Ular hayotlari, ko'rgiliklari haqida suhbatlashib, qizishib, sovuqning achchiq zahrini ham sezishmas, hatto qayerdaliklarini ham unutayozgandilar.

Bugun ham kela solib ovchilarga xos chaqqonlik bilan gulxan qalab, o't tutashtiradi\*. Unga bag'rini ochar ekan, «Toshkent issig'ini esga soladi-ya!» – deb kulib qo'ydi. Shu bilan Sodiqning diqqatini o'ziga tortdi.

– To'g'rimi, do'stim? – Bogun uning yelkasiga qo'lini qo'ydi, – hozir sizda necha daraja sovug'ikin?

– Sovuq nima qiladi, hali palakda qovun bor.

– Yo'g'-e!

Sodiq bir oz oshirib yuborganini sezib sal past tushdi:

– Hozir bog'bonnikiga kirsang, ishkomdan uzmasa ham, oldingga oltindek sap-sariq husayni qo'yadi.

Bu gapdan o'zining ham og'zining suvi keldi.

– Ajoyib yurtlaring bor. Lekin bizning Ukraina ham chakki emas.

– Ona yurtning yomoni bo'lmaydi, do'stim. Ona yurtini yomonlagan xor bo'ladi, odamning pachog'i yurtiga til tegizadi.

– Lekin shunaqa odam ham bo'lar ekan! – dedi Bogun, keyin bir tarixni hikoya qilib berdi.

– Unaqalar «Yurtimga nima nafim tegdi» deyish o'rniga «Yurtim menga nima qilib berdi» deb qarashadi. Ular uchun dunyoda hech narsa muqaddas emas, qorin tashvishidan boshqa ilinjiari yo'q.

– Hayvon degin.

– Farqi – gapirishida, – qat'iy dedi Sodiq.

Gulxan chirs-chirs uchqun sachratib yonar, yolqin tili sovuq havoda jilpanglar, goh izg'irin bilan bir tomonga salom berib olardi. Qarshidagilar: «Qoch, o't ketdi», – deb

tegishardi, yana o'tin qalashardi. Qishning guli – olov, ham o'zingni, ham ko'zingni yashnatadi.

Yo'lda uvushgan badanini gulxanda bir oz yayratgach, Sodiq Bogunni bir chetga imiadi:

– Haligini qilaylik, hozir ish boshlanib qoladi. Ana, Jurmenek ham kelyapti.

Uch o'rtoq bir xilvatga o'tib, bino ostiga bostirib yuboradigan «kelajakka xatlar»ini masiahatlashib yozishdi. Hammaga manzur bir tekst tayyor bo'lgandan keyin, uni tush bilan oqqa ko'chirishni husnixat Sodiqqa topshirishdi. Sodiq mahbus injenerlar ishiaydigan chertyojxonaga kirdi. O'sha yerda hammasini to'g'rilab chiqdi. Injenerlardan ham bir nechtasi imzo chekishga xohish bildirdi. Xat imzolanib bo'lgandan keyin, nam o'tmas mumli qog'ozga o'rab temir bankaga solishdi. Kecha betonlashtirish paytida atayin qoldirilgan kavakka joylab, ustidan g'isht terib yuborishdi.

O'z ishlaridan mamnun o'rtoqlar bir-biriga ma'noli kulishib, kundalik xizmatlariga tarqalib ketishdi. Sodiq esa, ana shu xat ko'milgan devorga g'isht qo'yardi. Navbatdagi qator ustiga yotqizilgan, qorishmasi muzlab qolib g'isht tishlamayotganidan, dam o'tmay yordamchisini shoshirar, «Ha, bo'l, qani!» deb turardi. Yonidan qiyalab qarab, o'z san'atiga mahliyo bo'lardi. Reja ipini yana yuqoriga surar ekan, narigi boshdan g'isht terib kelayotgan Bogunga gap qotdi:

– Qoyilmi?

– Qoyil! – kuldi Bogun.

– Ishiagandan keyin, astoydil ishiash kerak.

– Bo'lmasam-chi!

– Bir xil odamning guruchdan kurmak tergandek imilab ishiashini ko'rsam paq yorilib ketay deyman. Atayin

shunaqa ishlarmikin o'shalar, yo bo'lgani shumikin? – Sodiqning o'zi javob qildi: – Atayin qilishadi. Menimcha, qalbi bilan yonib mehnat qilmagan kishi, sevinganida ham xandon urib kulolmasa kerak. Mehnat samarasi sevinch, sevinch axir samimiy tabassum va xandon kulgi tug'diradi.

– Qaibi pok kishigina samarali mehnat qila oladi, – dedi gapni yakunlagandek Bogun.

Ikkalasi ham fikrlarini mehnatda isbot qilmoqchi bo'lganday, ishga astoydil kirishib ketdilar. Sodiq g'isht ustiga qorishma to'kib, andava bilan tekislarkan, yordamchisiga tayinladi:

– Nuqul butunini uzata bersang, siniqiarini nima qilamiz, birodar? Aralashtirib uzat, ishiatilib ketsin. Qani, bo'l, tez qimirla!

Sodiqning qora terga tushib, jon kuydirib ishlayotganini ko'rgan qorishma tashuvchi mahbus dimog'ida ping'illab qo'ydi:

– Ishla-ya ishia, nachalnik minnatdor bo'ladi! Kuching uzilganda bir kosa obiravonni ortishib berarmikin!

Bu gap Sodiqning qulog'iga pashshaning g'ing'ilashidek bo'lib kirdi. U indamadi. «Ko'ramiz, kim: oldin oyog'ini uzatadi: mehnatdan qochgan senmi yo menmi?» degandek ko'zining qirini tashlab qo'ydi. Bunaqalar lagerdagina emas, «tashqarida» ham topilib turadi.

Sodiq, tushiik ovqatga zang urilgandagina manglay terini artib, devordan tushdi. Ko'p qatori idishini ko'tarib tushlik beradigan darchaga navbatda turdi. Saldan keyin sovuqda qalin bug' chiqarayotgan so'k bo'tqani olib gulxan yoniga keldi. To'rvadagi noni bilan yedi. Ustidan bir krujka qaynagan suv ichdi. U endi tanaffus oxirigacha biror yerda sal mizg'ib olmoqchi edi. O'z qadrini bilganlar shunaqa qiladi. Uyqudan ko'ra yaxshi dam beradigan narsa bormi kishiga!

U taxlab qo'yilgan eshiklardan bittasini yerga yotqizib, endi ustiga cho'zilgan edi, birovning chaqirgani eshitildi. G'ujanak qilgan oyog'ini yozib, bushlatining yoqasini tushirdi, tovush kelgan tomonga qaradi. U Jurmenek edi.

– Haligini bopladik-a? Devorini ancha ko'tarib qo'yibsan-ku!

Havoning ochiqiigini ham bilib bo'lmas edi. Boya ufqning anavi etagidan qalin xom surp orqasidagi chiroqdek bir narsa chiqib, o'sha atrofni bir nafasgina sarg'aytirib turdida, keyin beriroqqa botib ketdi. Bu yerning quyoshi shu.

Sal o'tmay xurrak eshitildi. Ikkalasi bir-birini quchoqlab, g'ujanak bo'lib yotardi. Sovuq esa, «qayerdan ichingga kirib, sal orom olsam ekan?» degandek, atrofda izg'irdi. Saldan keyin uyquning ayni shirin paytida qoqilgan zang ularni irg'ib turishga majbur etdi.

Yana ish... to navbatdagi zang qoqilguncha...

Sodiq ishdan qaytib, darvozadan kirishi bilan soqolining o'sgani esiga tushdi. «Bugun oldirish kerak, juda uyat bo'lib ketdi», – deb tezroq yuvinib, sartaroshxonaga chiqish niyatida yelib ketdi. Egnidagi bushlatini yechmasdanoq tumbochka ustidagi xatga ko'zi tushdi.

Dastxatni tanidi-yu, yuragi hapriqib, ko'zi tinib ketdi: nahotki undan?

Bu fikr o'ziga erish ko'rinib xat ushlagan qo'lining asta titrayotganini sezdi. Xatni qanday qilib ochganini bilmadi. Birov qo'lidan tortib olib qo'yayotgandek shoshib xatga ko'z yuritdi. Yuritdi-yu, butun a'zoyi badanini muzday ter bosdi. Pichirlab o'qiyotgan lablari asabdan titradi, ko'ngli buzilib, ko'ziga yosh keldi.

Kutmagan odamingizdan xat olish nimaligini bilarsiz, albatta. Lekin o'sha odamingiz bir mahallar taqdirning zayli bilan uzoq vaqt azob chekib yurgan bo'lsa, buning

ustiga siz o'tkinchi his-tuyg'ular tizginiga erkingizni berib, unga yana ozor yetkazsangiz, uyingizdan ko'zida yosh bilan chiqib ketishga majbur etsangizu, u hammasini unutib, kechirib, sizning boshingizga mushkul, qora kun tushganda, baland himmat bilan shafqat qo'lini cho'zsa, buning ustiga, o'sha chekkan azoblari haqida lom-mim demay, sizning sog'lig'ingizni so'rab, ko'nglingizga tasalli bersa, kishi qanday holatga tushishini tasavvur qila olasizmi?

Sodiq ana shunday holatda edi!

Xat Jannatdan edi. Sodiq uning bunchalik olijanoblik qilib onasining bag'riga kelishini, Maratning boshini silashini hech xayoliga keltirmagan ekan, xatning oxiriga yetguncha entikib ketdi. Quioqlariga Jannatning o'sha so'nggi kechada ko'zida yosh bilan titrab «o'zingizni qiy-namang, men roziman, uylaning» degani eshitilib turdi. Qanday muqaddas ma'sumiik!

Jannatning xati ta'sirida gangrab, qilar ishini bilmay qolgan Sodiq goh atrofga javdirar, Jannatning o'zi kirib kelayotgandek barak eshigiga qarar, goh hech narsani ko'rmay bir nuqtaga tikilib qolardi. Anchadan keyingina o'ziga keldi. O'ziga keldi-yu, nega javob yozmay turganidan ajablandi, axir bunday maktubga tezda javob qaytarish kerak-ku! Kechiktirishning o'zi juda bo'lmaganda noinsoflikka kiradi!

Sodiq Jannatga uzr so'rab, butun bo'lib o'tgan ishlardan o'zi ham pushaymon ekanini, pushaymonini kimga aytishni bilmay yurganini bayon qilib, uning olijanobligi uchun qalbidan minnatdorlik bildirib javob yozmoqchi bo'ldi. Keyin bu niyatidan qaytdi. Birov «xoling shu ekan-ku, xotin qo'yib nima qilarding, bechora», deb ta'na qilayotgandek, Jannatning o'ziga ham bu mazmundagi

xat malol keladigandek tuyuldi. «Bitgan yarani tirnashdan nima foyda. O'tgan gap – bo'z ko'ylak, et qichitadi. Mehribonim ketsa ham, mehri dilimdan ketmadi, deb turgan odamga pisandaning nima keragi bor. Keyin sal bachkanalik ham bo'ladi, birovning qo'liga tushsa, quiog'iga chuchmal eshitaladi» degan mulohazaga borgan Sodiq, o'ylab-o'ylab oddiygina bir maktubcha yubormoqchi bo'ldi. Mabodo u qalbidagi so'zini, andishaga bormay, ro'yirost aytishini lozim topganida shunday deb yozgan bo'lar edi:

«Azizam! O'ksuk ko'nglimga umid chirog'ini yoqib, qanchalik minnatdor va baxtiyor qilganingizni bilsangiz edi! Nahot, nahot meni kechirdingiz! Sizning oldingizdagi gunohim kechirilmas, kechirib bo'lmas gunoh. Men yengiltak hislar ketidan ergashib, sizdek odamning yuziga oyoq tiradim, iztirobga soldim. Siz bo'lsangiz hammasini unutib, oramizda hech narsa bo'lmagandek xat yozibsiz, ta'na ham qilmabsiz. Yuragingiz buncha keng! Sizning bu olijanobligingiz qarshisida boshimni egaman».

Jannatning xati Sodiqning oila haqidagi mudroq fikrlarini uyg'otib yubordi. U bir necha kun Jannatning xayoli bilan yurdi. Yuborgan xatining javobini sabrsizlik bilan kutdi. U xatning mazmunini o'zicha taxmin qildi. Lekin xat hadeganda kelevermadi. Shunday bo'lsa ham, Sodiq umidini uzmadi, uning xayoli bilan yashab, ruhini tutib yurdi. Keyingi kunlar yengil o'tayotganga o'xshardi.

Axiyri xat keldi. Bu xat birinchi xatdan ham ko'ra samimiy, hayotbaxsh edi. Jannat o'zining ishi, onalarining sog'ligi, Qodirjonning obro' bilan MTSda ishlashini aytib, Maratning biyron-biyron gaplarini keltirgan edi.

Sodiq bu xatni tuzlab qotirilgan go'shtdek chaynab, chaynagan sari yana ta'mi chiqib, og'zi maza qilgan kishidek qayta-qayta o'qib yurar ekan, birdan posilka ham kelib qoldi. Uni ham Jannat yuborgani aniq edi.

Posilka beradigan joy darvozaning yonidagi xonada bo'lib, bu xona ikki bo'lakdan iborat edi. Biri kiyim-boshlarni remontga oladigan joy. Ikkinchi xona undan ko'ra kichikroq. Bu yerda posilka soqchi-askarning kuzatuvida ochilar, so'ng egasiga berilar edi. Bundan tashqari, bu xona olingan posilkalarni saqlash uchun ham qulay va xavfsiz zdi. Posilkani tumbochkada – asrab bo'lmas, «tuya qilib qo'yuvchi»lar doim topilib turardi. – Sizga ham posilka kelganmi? – dedi soqchi-askar. U Sodiqning ko'ziga issiq ko'rinib ketdi. Xuddi tanishga o'xshaydi. Kim bu? Biror yerda ko'rganmi? Askar ham unga boshdan-oyoq qarab qo'ydi, nimanidir eslagandek qoshini chimirdi.

Sodiq posilkani ochganda ham kuzatib turdi. Qutidan kishmish, bargak, turshak, bir idishchada sariyog', besh-o'n bosh sarimsoq piyoz, uning ostidan bir talay g'alvir yong'oq chiqdi. Uning bir chekkasida bir-biri ning ustiga qo'yilgan besh quti papiros. Ikkita qazi.

Qutichadan gazetaga avaylab o'ralgan fotosurat ham chiqdi. Unda Adolat xola, Jannat, Marat. Marat Jannatning tizzasida o'tirardi.

Askar Jannatni ko'rsatib:

– Xotiningizmi? – dedi. O'z siri o'ziga ayon Sodiq nima deyishini bilmay qoldi.

– Ha, xotanim, – dedi keyin o'zini tutib. Lekin bu ehtiyotkorlik bilan sekin qaytargan javobini Jannat eshitib, «Nega til uchidagina aytyapsiz? Malol kelsa, to'g'risini ayta bering!» deyayotgandek bo'lib ketdi, shundan so'ng qat'iy qilib takrorladi:

– Ha, xotanim! Bunisi o'g'limiz. Mana bu onamiz... Juda qarib qolibdilar.

– G'am bukkani! – dedi yonida turgan bir mahbus.



Sodiq narsalaridan saxiylik bilan askarga tutdi.

Agar o'sha Sodiq o'ylagan kishi bo'lsa, uning taxminicha jilla bo'lmaganda, odamgarchilik yuzasidan, birikkitasini og'ziga solib, rahmat aytishi kerak edi. U olmadi. Demak, u yigit emas, boshqa, Sodiq adashibdi.

Sodiq barakda choy damlab, olib kelgan meva-chevasini shu yerda orttirgan do'st-yorlari oldiga qo'ydi. Chekishni tashlab yuborganidan papirosni taqsimlab berdi.

– Ey Sodiqjon! – dedi mehmonlardan biri, – ovora bo'lib nima qilardingiz? Asrab qo'yib o'zingiz eyavermaysizmi?

– Tansiq. Yurtdan kelgan nozu ne'mat! – dedi Sodiq.

O'tgan hafta posilka olib, isini ham chiqarmagan Dilovarxo'janing ensasi qotdi, bir chetga qaradi. Bu yerda o'tirganlarning ko'pchiligi takaburligi, har narsaga chovlisini solib aql o'rgata berganidan Dilovarxo'jani yoqtirmas, «Kishiga voy bo'lmaydi, to'ymasa imonini sotib yeydi», – deb yurishardi.

Ertasiga Dilovarxo'ja posilkasidan bir kaft bargak, bitta qattiq patir kulchani qo'ltig'iga tiqib yana kelib qoldi.

– Biznikidan ham totib ko'ring, Sodiqjon. Bizning mevalarning ta'mi boshqa, obaki o'rnida shimisa bo'ladi.

Dilovarxo'ja og'ziga solgan bargak ustidan suv ho'pladi, maza qilayotgandek tamshanib qo'ydi. Faqat ketish oldidagina asl maqsadiga ko'chdi:

– Sodiqjon, – dedi hazilomuz kulib, – qazini ham kechagi singari xom talash qilib, o'rtaga tashlay bermang, uvul ketadi. O'zimiz dam olish kuni rezalab ermak qilamiz, men jinday spirt topaman, – feldsher bilan imo-ishora qilishib qo'ydim. Undan keyin anavi barakda o'zimizga o'xshagan ikki-uchta azamat ham bor. Bittasi oq generallardan.

Sodiqning ensasi qotdi, g'azabi qo'zg'adi. Bu so'z Dilovarxo'janing maza-bemaza gaplarini eshitib, bema'ni

qiliqlarini ko'rib, to'lib yurgan Sodiqning sabr kosasini toshirgan so'nggi tomchi bo'ldi. «Hamma ayb o'zimda, vaqtida qayirib tashlamadim» deb o'zidan o'pkaladi Sodiq. Lagerga yangi kelgan kezlari xomlik qilib, og'ziga urmadi, mana bugun uni o'zi bilan bir torga qo'yib, qandaydir oq generalga ulfat qilmoqchi, ilojini topsa, yo'l chizib, shundan yurgizmoqchi. Uning nazarida Sodiq ham alamzada, nima desa shunga ko'nadi. Mana shunisiga Sodiq chidolmay qoldi.

– Menga qarang, qo'rboshi, meni qayoqqa boshlamoqchisiz? Siz bilan mening yo'lim boshqa-boshqaligini bilasizmi o'zi?

Dilovarxo'ja bu gapni hazil tushundi, kuldi:

– Haliyam-a? O'n yilni bo'yningizga bo'yinturuq qilib osib olsangiz ham-a?

– Ha!!! Nima, siz bilan bir lagerga tushgan bo'lsam oramizdagi tafovut yo'qolibdimi! Yo'qolmaydi, imoningiz komil bo'lsinki, mening qonimni qaynatganda ham siznikiga, sizga o'xshaganlarnikiga qo'shilmaydi. Ming qiling, siz yurgan ko'chadan men yurmayman va yurolmayman. Mening yo'lim boshqa. Bu yo'ldan siz tugul, sizdan zo'rrog'i ham qaytarolmaydi.

– Xo'p-xo'p! – o'sal bo'lgan Dilovarxo'ja ko'ksiga qo'lini qo'yib, orqasi bilan chiqib ketdi.

Sodiq shu mahal qamalganidan emas, Dilovarxo'ja bilan birga bo'lib qolganidan afsus qildi. Ana shunaqa «tuzliq bulg'arlar» bilan bir qozondan ovqat yeb, bir eshikdan kirib-chiqqaniga asti chidolmas edi.

Lekin, baribir, Dilovarxo'ja oyog'ini tiyib ketmadi. Uch kun o'tgach, «O'sha kuni rosa xafa bo'lib turgan ekansiz-a?» – deb ishshayib yana kirib keldi.

Posilka olishda kuzatib turgan askar ertasiga kelib o'zini tanitmaganda, Sodiq uni tog'asining o'limiga borganda tanishgan yigit Qobiljon ekanini bilmas edi.

Ertasiga odatdagicha Sodiq ovqatga zang urilishi bilan havozadan sakrab tushdi, idishni olib oshxonaga yugurdi. Oshxonada odam tiqilib ketgan, tik turgani joy yo'q. Tashqarida xoliroq joyni ko'zi bilan mo'ljallab turar ekan, birov:

– Yaxshimisiz, Sodiq aka, – deb qoldi. Bunday o'girilib qarasa, o'sha askar yigit. Kulib turibdi. «Hali ovqatingizni yeb bo'lganingiz yo'qmi?» – dedi-yu, bir chetga boshlab o'tdi. Sodiq uning Qobiljon ekaniga endi shubha qilmadi. Lekin uning kechagi tundiigi hamon ko'nglini xijil qilib turardi. Xuddi shuni Qobiljonning o'zi ham bilgandek yupatdi:

– Kechagi uchrashuvimizdan, gap-so'zlarimdan toza hayron bo'lgandirsiz?

Sodiq rostiga ko'chdi.

– Avvalam yaxshi tanimadim, keyin...

– Sharoit shunaqa, Sodiqjon aka, – uning gapini ilib ketdi Qobiljon. – Shunaqa qilmasa bo'lmaydi. Bizning ham murvatimizni qattiq burab qo'ygan.

Sodiq Qobiljonning gapiga darrov tushundi: demak, bu soqchi yigitlarga ham qiyin. Ular aslida mahbusiar o'ylagandek, tund kishilar emas. Shu yerga kelib shunaqa bo'lib qolishadi, to'g'rironi shunaqa qolipga solishadi.

– Siz nima qilib bu qarmoqqa ilinib qoldingiz? – ajablanib so'radi Qobiljon.

– Ilinmadim, ilintirdilar! – dedi Sodiq va qisqacha qilib aytib berdi.

– Shunaqa sizga o'xshab, chirqillab qolganlar ko'pmi bu yerda?

– Anchagina bor.  
– Shikoyat yozdingizmi?  
– Ko'p yozaman, javob yo'q.  
– Men sizga bir sirni aytaymi, Sodiq aka? Arizalaringizning hammasi shu yerda qoladi!

– Shu yerda qoladi?  
– Ha! Eski qadrdon bo'lganimiz uchun sizga aytyapman, – bo'lmasa mumkin emas. Shu yerda qoladi. Ochib ko'rganlarida olib qoladilar.

– Bekorga javob kutib yuribsan deng? Eh, attang! – Sodiq qo'lidagi idishni ovqati bilan uloqtirib otdi, – bu qaysi qonunda bor!!

– O'zingizni bosing, foydasi yo'q, – yerdan idishni oldi Qobiljon. Qonunni buzib, o'zingizni shu yerga keltirib qo'yganlaridan keyin shikoyatingizni o'tkazmasiik nima bo'пти? O'sha katta zanjirning bitta halqasi, xolos. Undan ko'ra, keling, men sizga bir yaxshilik qilay. O'sha shikoyatlaringizning nusxasi bormi?

– Xo'sh? – jonlandi Sodiq. Shundan bitta mukammalini menga yaxshilab ko'chirib bering. Men uyimga yuboraman. Uyimdagilar tog'angiznikiga chiqarib beradi. Ular tayinlangan joyingizga yo yetkazadi, yo yuboradi. Bizning xatni bu yerda ochishmaydi.

Sodiq yashnab ketdi.

– Rahmat, uka! Bormisiz! Bizga ham shafqat qo'lini cho'zadigan inson topilar ekan-ku!

– Lekin hech kim bilmasin.

– Albatta!

Qobiljon Sodiq bilan xayrlashar ekan:

– Hamma gaplarimiz o'z oramizda qolsin-a, Sodiq aka! – deyishni unutmadi.

Sodiq ertasigayoq o'z shikoyatnomasini Qobiljonning qo'liga tutdi.

## 11. SOG'INIB

Jannat Adolat xolanikiga ko'chib kelgandan beri, Sodiqni o'ylaydi. Uning nazarida Sodiq hayotida ro'y bergan baxtsizlik bir tush, uzoqqa cho'zilmaydigan mudhish tush. Halizamon tong otib uyg'onadi-yu, hammasi tugaydi. Nazarida Sodiq odatdagidek ishidan horib qaytadi, dadasini ko'rishi bilan bo'yniga osilgan Maratni ko'tarib oladi. Shunda Jannat: «Tush, o'g'lim, dadang charchab keldilar», – deydi, uning qo'lidan Maratni o'zi oladi. Ha, Musharraf «tarixi» ham bir tush. U ham o'tib ketib bo'lgan. Osmondan tushgandek oilada bir o'g'il paydo bo'lib qolgan. Faqat shu mudhish tush tezroq tugasa-yu, Sodiq kelsa bas!

Lekin, afsus, bu «tush» hamon tugamas, tong otmas, Jannatning dili munavvar bo'lmas edi.

U Sodiqqa muntazam xat yozib turar, ko'nglini ko'tarar, sog'ligini so'rardi. Uning maslahati bilan bir-ikki idoraga bosh suqdi, yordam so'radi. Lekin bundan hech narsa chiqmadi. Bu ishga hech kimning aralashgisi kelmas yoki aralashishga jur'at etmas edi. Shunga qaramasdan, Jannat, hatto Moskvaga borishni ham niyat qilib qo'ydi. Bu niyatini boshlab Qodirga bildirdi.

– Nafi bo'larmikin? – dedi Qodir. U o'z vaqtida toza harakat qilgan, ne-ne kishilarga murojaat etgan, foyda chiqmagan edi. To'g'ri, ulardan birontasi «urinma, bola, befoyda» demadi, ko'krigidan itarmadi, eshikni orqasidan tarsillatib yopmadi. Arziga boshini qiya egib yoki qalam ketini stoldagi oynaga asta urib o'tirib yoki kabinetda u yoqdan-bu yoqqa yurib quloq solishdi. Lekin javoblari biror xulosa chiqarib olish qiyin bo'lgan darajada sochiq, parishon edi. Qodir borib-borib shu xulosaga keldiki,

bu odamlar nimadandir, kimdandir hadiksiraydi, dilidagi maslahatini berishga ham jur'at qilmaydi. Bo'lmasa, ularning Sodiq taqdiriga achinayotganliklarini ko'zlaridan, ba'zan so'zlaridan payqab olish qiyin emas edi. Qodir bu harakatini charchaganidan yoki akasining jinoyatchi ekaniga iqror bo'lganidan emas, balki ishining ko'payib ketgani, shahardan chetda turganidan va qolaversa, natija chiqavermaganidan sal kamaytirgan edi. Kelinoyisinning bugungi maslahati uni yana jonlantirdi. «– Butun boshli bir odam suvga otilgan toshday jim ketaveradimi? Bechoraga juda jabr bo'lib ketdi, juda uvol bo'ldi, – dedi Jannat. – Sizning ishdan qo'lingiz tegmasa, men indamasam... Yo'q, bu insofdan emas. Shu otpuskamda Moskvaga boraman. Oqni oq, qorani qora qilaman...

– Xarajatingizga men ham qarashardim... – dedi Qodir dilida umid uchqunlanib.

– Xarajati bo'lsa bir gap bo'ladi. Ko'rpa-yostig'imizni sotsak ham borishim kerak. Siz bormang. Sizga bir gap tekkani yetadi. O'zim boraman. Men xotiniman, bir yong'oqning yarim pallasiman, meni hech jin urmaydi!

Jannatning so'zlari Qodirning nafsoniyatiga tekkandek bo'ldi: go'yo uni qo'rqqoqlikda ayblardi. U izoh berishga majbur bo'ldi:

– Akam tufayli gap tegishidan cho'chisam allaqachon undan tonib, o'qishimni davom ettirgan bo'lardim. Otasidan tongan, eridan chiqqanlar kammi? Bittasi Musharrafmidi? – «kelinoyi» deyishga tili bormadi, – Yo'q! Akamning yomon odam ekaniga meni ishontirmaganlaricha men ham tinchimayman. Afsus, bu yilgi otpuskam o'tib bo'lgan. Bo'lmasa o'zim borardim. Endi ishdan javob berishiari qiyin. Butun qishioqni shu yoz elektrlashtirib, har uyga radio tushirishimiz kerak. Ish ko'p. Qo'l tegmaydi. Hali oydinda ham ishiamasak deb yuribman.

– Xafa bo‘lmang, Qodirjon, sizni ayblayotganim yo‘q. Qani hammaning ham ukasi sizga o‘xshagan bo‘lsa! Akangizga jabr bo‘lganidan kuyib aytdim. – Jannat uzr so‘ragandek muloyim gapirdi.

– Mayli, kelinoyi, siz boring. Men bir yaxshi advokat topib maslahatlashay, lozim topsa bir ariza ham yozdirib olay, zora akamning ishi o‘ngidan kelsa.

– Zora! Olma pish, og‘zimga tush, deb o‘tirishimizdan foyda yo‘q, vaqt o‘tadi.

Jannat bu fikrni Qobiljon orqali Sodiqqa yozdi. Sodiq Moskvaga arz qilib boruvchining o‘z qo‘liga beradigan «maslahat kaliti» borligini uyga ma‘lum qildi. Demak, Jannat avval uning oldiga borib shu kalitni olishi kerak. Jannatning Sodiq oldiga borishini eshitgan Adolat xola: «Jon bolam, meni ham olib keting, besh kunim bormi, yo‘qmi, Sodiqjonni ko‘rib kelaman»,– deb turib oldi.

– Xarajat ikki bo‘ladi-da, oyi.

– Yo‘q, jon bolam, unday demang. O‘limligimni sotsam ham boraman, qarz-havola qilsam ham boraman, bolamni juda sog‘indim. Ko‘rmay ko‘zimni yumsam, go‘rimda tik turaman. Zomin bo‘lmanglar!

«Jonbolam xola» masalani shunday ko‘ndalang qo‘ygan ediki, uni na Qodir, na Jannat rad eta oldi. Rozi bo‘lishdi.

Unda Maratni ham ola ketamiz, dadasini ko‘rib keladi, – dedi Jannat, keyin Maratga tegishdi: – Dadangni taniysanmi?

Marat «ha» deb yugurganicha uyga kirib ketdi, saldan keyin dadasining suratini olib chiqdi:

– Mana dadam! Men xuddi dadamning o‘ziman. Katta bo‘lganimda men ham dadamga o‘xshab ko‘p soch qo‘yaman, shunaqa galstuk taqaman.

Marat ko'zi uyquga ketguncha dadasini qanaqa qilib quchoqlashi, nimalar deyishini gapiraverib, hammaning miyasini qoqib qo'liga berdi. Uxiadi-yu, og'zi tindi.

– Bugun Sodiqjonning quiog'i toza qizidi, – dedi Adolat xola, – bola bechora, sen ham biziarni toza sog'ingandirsan. Maratning biyron tilini eshitib, sevinchdan yuragi yorilib ketadi bolamning. Xuddi dadasining o'zi Marat! Dadasi ham tez tilga kirgan edi. «Yumshoq»qa tili kelmasdan «hushmoq», «hushmoq non bering» deb yurardi. Yumshoq non tanqis ekan-da o'sha vaqtda. Ha, bolam, mana endi qayoqlarda yuribsan: tilingdan qoqildingmi, oyog'ingdan qoqildingmi – bilmasam! Senga qasd qilganning o'zi past bo'lsinu, sen toychaday kishnab eshikdan kirib kel, ilohim.

Sodiq oldiga borishiarini eshitgan Ikrom ota dam olish kuni Maratga teng kenja nabirasi bilan kelib, uzoq o'tirdi. «Yo'l xarajatiga» deb bir oz pul tashlab ketdi. Adolat xola yoki Jannatning qarshilik qilishini bilib, oldini oldi:

– Bu o'zimning omonat kassadagi pulimdan. U yerda ham turadi, sizlarda ham, yeb ketarga emas. Sodiqjon kelganda qanaqa qilib olishni o'zim bilaman: prosentli bilan! Qo'limni qaytarmang!

– Ilohim aytganingiz kelsin, Sodiqjon kelib, o'z qo'li bilan qaytarsin. Bolam albatta qaytaradi. Birovning haqidan hayiqadigan yigit.

– Qaytarmayam ko'rsinchi, naq... – yana kulgiga oldi ota.

– Urasizmi? – birdan gapga aralashdi Marat.

– Ha, bo'lmasam-chi, qulog'ini kesib olaman.

Ikrom ota xayriashib, eshikdan chiqar ekan, qo'lidagi nevarasiga dedi.

– Oyog'ingiz bilan yurmaysizmi, o'g'lim?

– Ho, botinkam kiy bo'sinmi.



Kulishib xayrlashdilar. Ikrom ota to muyushdan burilib ketguncha Adolat xola, Jannat va Marat uchalasi orqasidan qarab turishdi.

– Baraka topkur, tuqqandan afzal, – dedi xola ko'cha eshikni yuziga yopayotib.

Ertasiga Sodiqdan xat keldi. U sog'lig'i yaxshiligini bayon qilgandan keyin, turgan yerining yozi besh kunlikkina ekanini, hademay sovuq boshlanib, izg'irini g'ashga tegadigan bo'lib qolishini yozardi. Jannat buni, yo'lga chiqsanglar tezroq otlaninglar, bo'lmasa sovuqda qiynalib qolasizlar, deb tushundi, yo'l hozirligini tezlatib yubordi.

Vokzalda Adolat xola o'g'liga: «Qodirjon, bor-yo'g'ingni bizga shilib berib qo'yding, issiq-sovuqdan qiynalib qolasanmi, bolam!» – deb bag'riga bosib o'pdi, hali esini tanimagan boladay allanimalarni tayinladi. Poezdga kuzatib chiqqan Ikrom ota bilan Qodir uzoq qo'l siltab turishdi. Poezd jilishi bilan, Adolat xolaning bag'rida nimadir uzilganday bo'ldi, sababsiz yig'ladi. Ertasiga o'zini tutib olib, nevarasini dadasi bilan ko'rishishga tayyorlab, turli so'zlar uqtirib, kun o'tkazdi. Hamma narsaga qiziqaveradigan Marat poezd oynasidan ko'rgan, odamlardan eshitgan narsalarini so'ray berib, buvisi bilan ayasining enka-tinkasini chiqardi. Uning savoli hech tamom bo'lmas edi.

– Sen ham charchaysanmi o'zi? – dedi kulib Jannat. Charchash nima, aya?

– Charchaganda kishi jim o'tiradi, yonboshlab dam oladi.

– Ana, bo'lmasa buvim charchabdilar, – u yotgan buvisini ko'rsatdi. – Buvi, nega charchadingiz?

Marat bo'lmaganda shuncha kunlik yo'lda qaynana-kelin diqqinapas bo'lib ketishardi. Marat ermak bo'lib,

kunlar o'tganini bilmay qolishdi. Marat uxlaganda kupe bolalari tarqagan sinfga o'xshab qolardi.

Kunlar o'tgan sari poezdda odam siyraklashdi. Marat bilan o'ynashib kelgan hamkupelar ham tushib qoldi. Biri esdalik qilib o'qib kelayotgan «Krokodil»ini tashlab ketdi. Quvonib olib qolgan Marat, o'sha zahoti:

– Voy, bundagi odamlarning hammasi qiyshiq-ku, bunaqa kitob menga kerakmas, – deb egasiga qaytarib berdi. Jannat tarjimasidan uning gapini tushungan qo'shni qah-qah solib kuldi, «Molodes, malchik! To'g' ri aytasan, bundagi odamlar yaramaydi», – deb, o'rniga yon cho'ntagidan «Ogonyok»ni chiqarib berdi:

– Bu-chi, yaxshimi?

Marat tezda ikki-uch betini ochib, boshi bilan ma'qulladi.

Poezd yettinchi kuni ertalab serdaraxt o'rmonni ikkiga yorib kirib ketdi. Manzilga yetganda ular bilan tushgan to'rt-besh kishidan uchtasi harbiy formadagi edi. Jannat ulardan biriga murojaat etib, qo'lidagi adresni ko'rsatdi.

– Hozir mashina bo'ladi, birga olib ketaman, – dedi bir harbiy. Keyin kulib.

– Xo'sh, yigitcha, bu yoqlarda nima qilib yuribsan? Oq ayiqni ko'rging keldimi?

Marat yotsirab buvisining etagiga yopishdi. Xijolat tortgan Jannat:

– Nega qochasan, – dedi qo'lidan ushlab, – dadangning komandiri-ku bu kishi!

Jannat garchand o'ylamasdan aytib yuborgan bo'lsa ham aslida bashorat qilgan edi. U harbiy chindan ham o'sha lagerda ishlardi. Shuning uchun ularni o'ziga kelgan usti yopiq yuk mashinasida lager darvozasigacha olib kelib tushirdi. Mehribonlik qilib, keluvchilar uchun ajratilgan maxsus xonaga joylashtirdi. Keyin ichkariga kirib ketib, anchadan keyin bir askar bilan chiqib keldi:

– Endi sizlar dam olinglar, yoʻlda charchagansizlar. Mana bu yigitchani issiqroq kiydirib qoʻyinglar, shamollab qoladi, dedi u Maratni koʻrsatib. Men ham borib nafasimni rostlay. Qoʻchqorov ishda ekan, kechqurun qaytadi. Nima ishinglar boʻlsa mana shu navbatchiga aytinglar. Xayr! – harbiy orqasiga burilar ekan, navbatchi askarga alohida tayinladi: – Siz bulardan xabar olib turing. Men u yogʻini gaplashib qoʻydim.

– Xushfeʼl odam ekan! – dedi uning orqasidan Adolat xola ishlarining yengil koʻchganini koʻrib. Axir kela-kelguncha «Hali qanday topamiz? Qayerda sarson boʻlamiz? Kimnikida turamiz?» deb, ozmuncha tashvish tortganmidi!

– Bolamning obroʻyi bu yerda ham yaxshiga oʻxshaydi, Jannatxon. Yelib-yugurishlarini koʻring.

Axiyri Sodiq ham keldi. Kolonna oldida kelayotgan Bogun mehmonlarga koʻzi tushdi-yu, qandaydir ichki bir his bilan, ularning kimligini fahmiadi, orqada kelayotgan Sodiqqa xabar qildi: Kelishibdi!

Sodiqning yuragi birdan gursillab urib, odamiar orasidan oldinga oʻtdi.

– Ana dadasi! – dedi boshlab payqagan Jannat.

– Qani? Qani? – deb shoshib qolgan «Jonbolam xola» oʻgʻlini ayirib ololmas, olazarak boʻlib qidirardi.

Sodiq Adolat xolalar nazarida yil boʻlib koʻringan yarim soat ichida kiyim-boshlarini almashtirib, kulganicha chiqib keldi. Quvonchini ham, yigʻlashini ham bilmay titrab turgan onasining bagʻriga oʻzini otdi. Ona «Bolaginam!» deyishdan boʻlak soʻz aytolmasdi. Oʻgʻli bilan uzoq koʻrishdi, yelkalariga qoqib, peshonasidan qayta-qayta oʻpdi. Navbat Jannatga kelganda bir zumgina sokinlik roʻy berdi. Sodiq shoshib qolgan, qanday koʻrishuvini bilmas,

quchoqlashay desa oyisidan iymanadi, qo'lini berib qo'ya qolay desa, Jannat go'yo, «Hali oqibat shumi? Balli!» deb o'ksiyotganga o'xshaydi, yo'q, bu mushkulotdan Jannatning o'zi qutqardi. Onasi quchog'idan bo'shagan Sodiqning ikkilanmay yelkasiga qo'lini qo'ydi, ko'zi yoshli bo'lsa ham tetik so'rashdi.

Marat bir chetda tortinib turardi. U hayron, nima bo'layotganini tushunmas edi. Buvisi «Bolaginam!» deb yig'lab ko'rishayotgan kishi uning shu kungacha xayolida suratini chizib kelgan odamga o'xshamas edi. Unda dadasining rasmini kunda ko'rardi. Unda dadasining sochlari tekis qilib taralgan, bo'ynida chiroyli galstuk, egnida yangi ko'ylak, kostyum. Buvisi, ayasi bilan ko'rishayotgan kishi esa butunlay boshqacha.

Jannat Sodiq yelkasidan qo'lini olish bilan Adolat xola hamon bo'zrayib, etagiga yopishib turgan Maratga:

– Ana dadang! Ko'rishmaysanmi? Achom qilmaysanmi? – dedi va Maratni o'zidan ayirgan edi, u Sodiqning bag'riga otilish o'rniga, «Ayal» deb Jannatga yopishdi, yuzini bekitdi, zum o'tmay hurkovchi kiyikday qiyalab qaradi.

– He, uyati yo'q! Kishi dadasidan shunaqa qochadimi?

Sodiq arzanda o'g'lini ortiqcha xijolatda qoldirmaslik uchun bir qadam oidinga yurib, uni bag'riga oldi, yuzlaridan yoshli sho'r lablari bilan o'pdi, tik turg'izib barchadek bo'ylariga boqdi, yana bag'riga bosdi. Endi Marat o'zini chetga olib qochmas, dadasining sog'inchi – mehrini bolalik idroki bilan his etib, o'z ixtiyorini unga berib qo'ygan edi. Dadasi esa, tilab olgan o'g'lining diydoriga to'ymas, terisi qalin tortgan qo'llari bilan boshini silar, bu siypash horg'in qalbiga orom baxsh etardi. Bularning barchasi uning uchun kamdek, ingichka, yoqimli tovushini eshitgisi kelib qoldi:

– Qani o‘g‘lim, «dada» degin.

Marat dadasinikiga o‘xshagan ko‘zlarini javdiratib goh buvisiga, goh ayasiga qaradi, Jannat ayasi unga yördamga keldi:

– Ayt, o‘g‘lim, qani bir dadajon degin.

– Ayt, bolam, ayta qol, o‘zingning dadang-ku! Kunda suratga qarab tavob qilgan dadajoning-ku.

Sodiqqa o‘g‘lining yotsirashi og‘ir botmadi. Chunki uning qarshisida bo‘yi cho‘zilgan, kiyim yarashgan, hatto uyalishni ham biladigan o‘g‘li turar u bir vaqtda ham o‘kinch baxsh etardi. Oxirgi marta eshik oldida xayrlashgani ko‘z oldiga keldi: bundan keyin uzoq vaqt ko‘risholmasliklarini sezgandek, shu o‘g‘li mitti qo‘llarini qanot qilib yozib, unga talpingan edi.

Sodiq Maratning boshini silab turib, ko‘zi Jannat bilan uchrashdi.

Jannatning ham chehrasida Sodiq hech qachon ko‘rmagan shunday joziba bor ediki, bunday joziba odatda odam baxtini topganda paydo bo‘ladi. Jannat hozir buni yashirishga qanchalik urinmasin, baribir, shamol yelpigan shamdek lopillab, yorqinroq ko‘rinardi. Bu husn ta‘nadek tuyulib, Sodiq mana shu ma‘sum ayol bilan bir qancha yil hayot kechirganini, keyinchalik qandaydir o‘tkinchi hisga berilib yo‘ldan adashganini, oqibatda shu pokiza xotin aziyat chekkanini xayolida bir-bir tikladi. Qarshisida boshini sal quyi solib o‘tirgan ma‘suma xotinning ko‘z yoshlari, achchiq alamlari, iztirob alangalari evaziga, o‘zining poymol bo‘lgan fayzi-halovati, asabiy titroqlari evaziga orttirgani Maratni hisobga olmaganda, ilojini topsa, o‘sha adashgan damlarini umri hisobidan jon deb o‘chirib tashlardi. Eslasa yuragi orqaga tortib ketadigan o‘sha kunlarning shirin yodgori shu azamat Marat. Badbaxt

onadan tug'ilgan bu begunoh farzand, ana shu bir parcha et, bir dona tirnoq uchun necha yillab zahmat chekkan, qayg'urgan, qon yutgan bir mehribonning, beg'araz, chin bir mehribonning tizzasida osuda o'tiribdi. «Kim meni orzu qilib zardob yutgan edi-yu, kimdan dunyoga keldim, hozir meni erkalayotgan, mehrini daryo qilib oqizayotgan bu xotin kim!» deyish uning esiga ham kelmaydi. Tabiatning mo'jzasini qarangi, bola Jannatga tortib, unga o'xshab ketibdi. Bu uning mehri tufayli emasmikin?

Sodiq shu xayollar og'ushida ekan, mahallasida bo'lgan bir g'ayritabiiy voqea esiga tushdi.

Uning dungan qo'shnisi bor edi. O'zi mo'min-qobil, befarzand edi. Ko'chaning narigi boshida yoshgina bir kelinning ko'zi yoridi, sal o'tmay o'zi nobud bo'ldi. Omon qolgan murg'akni er-xotin dungan ikki oyligida olib asradi. Bola yig'loqi edi, rahmi kelgan qo'shni kampir «so'rg'ichingiz o'lsin, ming qilsa ham rezinka, undan ko'ra ko'krak soling, har narsa bo'lsa ham ona to'shi» deb maslahat berdi. U shunday qildi. Bir kuni qarasa, qizi cho'lpillatib emyapti, ko'kragiga sut kelibdi! Qizchadan xabar olib turgan vrach tabiatning bu mo'jzasidan hayron qoldi. Shunda o'sha maslahat bergan kampirning o'zi: «Bu mehrdan, aylanay, yaxshilar, astoydil mehr qo'yganidan», – degan edi. Qizcha yurib ketgandan keyin bundoq qarashsa, xuddi uning o'zginasi, dungan qiz bo'libdi-qo'yibdi.

Sodiq bir lahzada shularning barchasini xayolidan nur tezligida o'tkazib, Maratning Jannatga o'xshab ketganligining boisini ham xuddi o'sha dono kampir aytgan hikmatda ko'rdi. Kishi qahri toshni yorganday, mehri xamirni eritadi!

Jannatning mehribonligidan shu lahzada quvonib ketgan Sodiq hazillashdi:

– Oyi, nevarangiz Jannatga o'xshasa ham, lekin qulog'i o'zirniki, supradakkina. Uni qarang, orqasidagi chiroq ko'rinyapti.

– Bolaning qulog'i bevaqt ko'chirib qo'yilsa, shunaqa shalpangroq bo'ladi. Sal et qo'ysa bilinmay ketadi. Bu yil bo'yiga o'sdi, shuning uchun oriqqa o'xshab turibdi, – dedi Adolat xola Maratning quioqlariga qarab. Ikrom ota peshonasining kengligini senga jo'yadi. Ha, rostdan ham Ikrom otadan oladiganing bor ekan, keltirib berdi. O'sha qamalgan keziaringdayoq bergan edi.

– Hech qanaqa qarzi yo'q edi! – dedi Sodiq hayron bo'lib, keyin tagiga tushundi: demak shunday yo'sin bilan ko'mak bergan! Sodiq ma'noli qilib boshini chayqadi. Buni ona ham, Jannat ham payqadi.

– Qarzi bo'lmasa, yaxshi kunlarida qaytararsan, bolam. Shu kelishimizda ham «yo'l xarajatlaringga» deb, bir oz pul berdi. Qachon bo'lsa «elning yukini yengil qilib yurgan azamat edi!» deb seni tilga oladi. Ko'p mehribon odam.

– Dada-chi, dada, o'sha kishi sizning qulog'ingizni kesib olarmish, – birdan gapga aralashdi Marat.

– Nega? – kuldi Sodiq.

Xola bo'lgan voqeani o'g'liga aytib berdi. Maratning shirin tilidan iyib ketgan dadasi uni yana bag'riga olib erkaladi:

– Qulog'imni kestirmayman, o'g'lim, qarzini albatta beraman. Birovning pulini yeb ketgan, yomonlik qilgan kishining qulog'ini kesadilar. Sen bilan biz yomonlik qilmaymiz, to'g'ri yashaymiz.

– Nega sochingizni oldirib tashladingiz, dada? – bu savolni Sodiq eshitmadi. Uning xayoli yomon kunida yaxshilik qo'lini cho'zgan Ikrom otada edi. Uni juda yaxshi eslaydi: soddagina kiyinib yuradigan, kamgap,

serfikir odam edi. Qomatli cho'qqi soqoli o'ziga shunaqa yarashar ediki, noshud sartarosh sal kemptik tarashlasa, husni buzilayotgandek bo'lardi. O'zi ham xushfe'l, vazmin chol. Qo'sh-qo'sh azamat o'g'illari, qizlari bor. Farzandlari: «Bo'ldi, dada, endi ishlamang, oyog'ingizni uzatib yoting», – deganda, «Tinch turgan suv buziladi, oqib turgani yaxshi!» – deb ko'nmagan, havasga dars berardi. Maktabga ham piyoda kelib, piyoda ketardi. Bir kuni Sodiq:

– Tramvayga tushsangiz bo'lmaydimi? – deb tegishsa.

– Buni nimaga berib qo'yibdi? – dedi kulib va ikkala oyog'ini ko'rsatdi, buni hozir minmasam, qachon minaman.

– O'lguday xasissan-da! – tegishdi tengdosh o'rtog'i.

– Ha, men pulga, sen sog'lig'ingga xasissan. Tuppatuzuk yurib tungan yo'rg'ani qantara berib, oyog'ingga yod turib olding, – dedi Ikrom ota o'rtog'ining hassaga suyanganiga ishora qilib, – yurishda gap ko'p, do'stim.

– Azroil eshiging turmini qoqib turganda-ya?

– Azroil... Men podachiman, hammadan keyin boraman, – dedi yana kulib Ikrom ota. – Azroil senga o'xshab o'tirganni ushlaydi, menga yetib bo'pti!

– Ikrom ota shunaqa chol edi.

Sodiq shularni esiab turib so'radi:

– Ikrom ota ancha qarib qolgandirlar.

– Yo'q, hali tetiklar, – dedi Jannat.

– Ishlab turibdilarmi?

Buni Jannat bilmas edi, ona javob qildi: – Be qayoqda, bolam! Sendan keyin Mirsalim o'lgur maktabga sig'dirmadi, bo'shab ketganlar.

– Ishlayaptilar shekilli? – gapga aralashdi Jannat.

– Boshqa maktabda.

Mirsalim ismining gapga aralashuvi xolaning tilini qichitdi:



– Laycha deb qopag'on ko'ppakning boshini silab yurgan ekansan, bolam!

Shu bilan Mirsalim to'g'risidagi gap tugadi, hech kimning u haqda gapirgisi kelmas edi. Sodiq mavzuni yana Ikrom otaga burdi:

– Yana keyin esimdan chiqib qolmasin, mendan Ikrom otaga ko'pdan-ko'p salom aytinglar.

– Aytaman, jon bolam, albatta aytaman. Tez-tez kelib turadilar. Ko'chada ko'rsalar ham to'xtab hammani so'rab chiqadilar, boshlab seni so'raydilar. Innaykeyin, kechasi qorong'ilatib kelib-ketadigan bitta-ikkita o'rtoqiaring ham bor, ismlarini bilmayman.

– Hammasini borganimda ko'rsatasiz.

– Albatta ko'rsataman, bolam.

– O'shanda ismlarini so'rab beraman, bilib olasiz, – hazil qildi Sodiq.

– Ismlarini bilmasam ham, baraka topishsin. «Xafa bo'lmay o'tiring, kampir», deb ko'nglimni ko'tarishadi. O'tgan kuz-ku, bittasi bir mashina saksovul yuboribdi. Maza qilib qishi bilan yoqib chiqdim, bechorani shundoq duo qildimki... Ishqilib, bolam, bir kunimiz o'tib turibdi, nolisam noinsoflik bo'ladi. Faqat sen yo'q. Har kuni dasturxon ustida bir yig'lab olaman.

Shunday azamat o'g'li turganda hech kimi yo'qdek birovlarining ko'magidan minnatdor bo'lganidan o'pkasi to'ldimi, xolaning ko'zlaridan ikki qatra yosh silqib chiqib, yuzini chizib tushganicha labining tepasidagi chuqur ajinda turib qoldi.

– Qo'ying, yig'lamang! – o'zini zo'rlab kuldi Sodiq.

– Mana oldingizda o'tiribman-ku. Yaqinda bo'shab qolaman. Jannat Moskvaga o'taman deyapti ishqilib...

Jannat pastki labini qattiq tishiab o'tirardi. Uning bu odati Sodiqqa tanish, buni u yuragi juda siqilib ketganda qiladi.

Xola o'pkasini bosib yana gap boshladi, – Innaykeyin, – Jannatni ko'rsatdi, – mana bu umringdan baraka topkur, kechayu kunduz biz bilan. Qizimdan a'lo. Bu bo'lmaganda g'am meni yeb, adoyi tamom qilardi.

Xijolat tortgan Jannat boshini quyi soldi. Sodiq tishini tishiga bosdi. Onasi gapirgan bu gaplarni u xatda o'qigan bo'lsa ham, shu mahal Jannatning qarshisida allanechuk bo'lib ketdi. Axir bir mahal qattiq gapirib, diliga ozor bermagan bo'lsa ham, uni qo'yib, yosh xotin olgan, o'z orzusini o'yiab, uni qattiq o'ksitgan edi-da! Mana o'sha xotin onasiga mehribonlik qilib, tirik yetim o'g'lining boshini siladi. Mana bugun bo'lsa ularni boshlab kelib o'tiribdi.

Sodiq gapni chalg'itmoqchi bo'lib, onasining musichalaridan gap ochgan edi, suhbat yana Mirsalimga borib taqaldi.

– Mirsalim juvonmarg bo'lgur hovlimizni tortib olgandan beri u tomonlarga kim o'tibdi deysan. Shu kunlarda yana ikkitasi ayvonga qo'nib, uyga kirib yuribdi. O'shalarmi – bilmadim.

– Xuddi o'shaning o'zi, oyi, – tasdiqladi Jannat.

– Bo'lsa bordir. Mirsalim tulkinikida musicha turadimi!

Yana suhbat qovushmadi, Mirsalim nomi aralashgan sari oxiri dilxitlikka borib taqalardi.

Lekin saldan keyin gap qovushib ketdi. Qodirning ishi, Musharraf fojiasi, turgan shaharlarining obod bo'lishi, ob-havo, narxi navo – hammasi haqida gaplashdilar.

Ana shunda sog'inchning hovri bir oz ko'tarilgandek bo'ldi. Marat ham endi Sodiqdan yotsiramas, dadajonining tizzaşida oyoqlarini likillatib o'tirardi.

Jannat gapni o'z shaxsiy ishlaridan chetga olib qochmoqchi bo'lsa ham, baribir, Sodiqning ko'ngli hamon xijil, hamon o'rniga tushmas edi. Agar ko'nglidagini ochiq-oydin aytib, yuragini bo'shatib olmasa, armon bo'lib qolib, yanagi ko'rishgunlaricha ich-etini eb yurishini bilardi. Uni qo'rquv aralash shodlik bosardi. Qo'rquvi shundan ediki, Jannatning ma'zurini eshitgani yo'q, balki ma'zur tutmas. Bu qora kunlar o'tgandan keyin, «men o'z insoniy burchimni o'tab, haq joyini topishda sizga yordam berdim, lekin o'sha gunohingizni kechirolmayman» deyishi mumkin. Jannatga o'xshagan xotinlar qo'lidan bu ish keladi. Bu esa, Sodiqqa o'limdan og'ir, to so'nggi damigacha ko'nglini xijil qilgan, qalbini ezgan armon bo'lar edi.

Bu fikr Sodiqning xayolidan ketmadi, soatlar o'tgan sari parma bo'lib chuqurroq kirib bordi. Ana shundan keyin Jannat bilan albatta gaplashishga qaror qildi. O'g'lining xuddi shu fikrini ko'zidan uqqan Adolat xola nevarasini yetaklab, «shamollagani» chiqib ketdi. Jannat qaynanasi oldidagina o'zini dadil tutayotgan ekanmi yoki shu gapning ochilib qolishidan ehtiyot chorasi ko'rayotgan ekanmi, u chiqib ketishl bilan xomush tortib, boshini quyi soldi. Sodiq uchun bundan qulay vaqt yo'q edi, butun kuchini qalbiga yig'ib, uning yoniga surildi, lekin betiga qarolmadi.

— Jannat, sen meni kechirasanmi, yo'qmi bilmayman. Lekin sening bu yaxshiliklaringni qaytarishga umrim yetmasligini bilaman. Men sendan o'la-o'lguncha minnatdorman. Bu olijanobliging haqqi-hurmati, o'g'lim Marat seniki. Omon qaytib borsam, qabul qilsang o'zim ham...

Jannat bundoq qarasa, Sodiqning o'pkasi to'lib boryapti, halizamon yig'lab yuborishi mumkin. U umrida erkak yig'isidan qo'rqadi, erkak bag'ri suv bo'lib ezilib

oqqanda yig'laydi. Buni esa, Jannat sira ham istamas edi, ayniqsa Sodiqdek kishining ko'z yoshini ko'rish unga o'limdan qattiq. Shuning uchun o'zini tutib, hazilga oldi:

– O'zingizni qabul qilmasam, o'g'lingizni olib qo'ya-sizmi?

Sodiq buni jiddiy tushundi, shu paytda hazil bo'lishiga u ishonmasdi:

– Yo'q! Yo'q, bunday deb tushunma! Marat seniki, umrbod seniki! Ota bo'lib unga nima qildim. Uni tarbiya qilayotgan sen. Men sening oldingda aybdorman. Biror narsa deyishga haqqim yo'q. Hatto kechirim so'rashga tilim bormaydi.

– Yo'q, – dedi Jannat, go'yo o'tgan hamma gaplarga yakun yasagandek jiddiyat bilan, – men bu yerga sizning gunohingizni kechirsammikin-kechirmasammikin deb kelganim yo'q. O'tgan-ketgan gapni qo'ying. O'zingizni o'ylang, tezroq qutulishni o'ylang. Mening nima yordamim kerak bo'lsa, ayting, tortinmang, kerak eshikni qoqay, turmi buzilguncha qoqay!

Qolgan vaqt ichida ular shu haqda kelishdilar.

Oradan uch kun o'tgach, Adolat xola o'g'li bilan xayriashar ekan:

– Bolam, endi ko'rishamizmi, yo'qmi, kim biladi. Ko'rishmasak, bergan oq sutimga mingdan-ming roziman, – deb ko'ziga yosh oldi.

– Nima deyapsiz, oyi, albatta, ko'rishamiz. Mana, keliningiz Moskvaga tushadi. Moskvaga borish degan so'z, haq joyini topadi degan so'z!

– Ilohim shunday bo'lsin... – o'zini tutib olib dedi xola. Keyin Sodiqni bir chetga tortdi. Endi nima qilganda ham men qarib qoldim, bolam, kuzakdagi sariq yaproqman, sal shamol tursa chirt etib uzilib ketishim hech gapmas. Shuning uchun senga bitta iltimosim bor.

- Xo'sh, xo'sh! – jon quiog'ini tutdi Sodiq ham shivirlab.
  - Jannatni endi xafa qilma. Unga tez-tez xat yozib tur.
  - Xo'p, oyijon, xo'p!
  - Umridan baraka topkur, topilmas juvon. O'g'lingni ham uning ixtiyoriga berib qo'yganman.
  - Mayli! Mayli!
  - Onasidan a'lo. Shirin so'zingni undan ayama.
  - Xo'p, oyijon, xo'p.
- Ikki kundan keyin Jannat Adolat xola bilan Maratni provodnikka tayinlab, o'zi Moskva poezdiga o'tib o'tirdi.

## 12. QOCHOQLAR

Ikki haftadan keyin Sodiqni etap ro'yxatiga tirkadilar.

Lagyerdan lagerga ko'chirib turish aslida odat, lekin u ko'chadigan odam uchun tashvish: hech kim «issiq joyini» sovutgisi kelmaydi!

– Qayerga ekan, eshitmadingmi? – papiros tutatayotib so'radi Bogun. Uning ham miyasida Sodiqniki singari o'ylar kezib yurgani ko'zidan ayon edi. Sodiq yelkasini qisdi. Shu mahal yana ko'ch ko'targan kishilar ko'rindi. Ular boshqa brigada boshqa baraklardan edi. Ular orasida Dilovarxo'ja ham bor ekan, Sodiqni ko'rди-yu, qoqilsam, tutib qoladigan bor ekan, degandek, yashnab ketdi. Etap bo'lishini eshitgandan beri yuragini bosgan vahimani unutdi.

– I-ye, Sodiqjon. Siz ham shu yerdamisiz? Mayli, mayli, yaxshi bo'libdi, bir-birimizga hamroh bo'lamiz.

Sodiq javob bergunicha yo'q edi:

– Yuklaringni qo'llaringga olinglar! – degan buyruq bo'ldi.

Bir soatdan keyin etapga chiqqanlar ikki vagon bo'lib, poezd jo'nashini kutardi, Sodiq, Bogun, Dilovarxo'ja bir kupega tushdi. Dilovarxo'ja mamnun edi.

– Omadni qarang, Sodiqjon, niyatimiz bir-da, yana birgamiz. Qayoqqa olib borishar ekan, bilmadingizmi? Uzoq emasmikin?

– Bilmadim. Yurtimizdan chiqib ketmaysiz.

– Chiqaradi deysizmi!

– Rozi bo'lsa chiqib ketarmidingiz? – o'smoqchiladi Sodiq. Dilovarxo'ja sir boy bermadi:

– Siz-chi?

– O'zini bilgan odam uchun muhojirlik ham lagerday gap. Begona qo'raga kirib qolgan itdek doim duming qisiq.

Dilovarxo'ja tili bilan hech narsa demagan bo'lsa ham, Sodiqning bu javobiga dilida qo'shilmadi. U chet el deganda Afg'oniston bilan Turkiyani tushunardi, xolos. O'zi ko'rmagan bo'lsa ham, eshitgan, o'sha o'q otib yurgan yillari eshitgan.

– Siz shunaqa deysiz-ku, chetda jilla bo'lmaganda, mana bulari bo'lmaydi, – Dilovarxo'ja soqchilarni ko'rsatdi.

Sodiq xandon solib kuldi, bu yerdagisini ko'zingiz ko'rmaydi, xolos, bo'lmasa har qadamingizni shunaqa sanab yuradiki, asti qo'yavering!

– Be! – hayron qoldi Dilovarxo'ja.

– Undan keyin, begona yurtga ko'nikish uchun mushukdan battar bo'lish kerak kishi. Axir mushukni ham begona uyga eltib qo'ysangiz qochib keladi-da!

– Qochadi! Qaytib keladi! – gapning tagiga tuzuk tushunmay unga qo'shildi Dilovarxo'ja. Bolaligimda bir mushugim bor edi, adashtirolmay o'lganman, oxiri o'raga tashlab qutulganman.

«Toshbag'irlik qo'ndoqda tekkan kasal ekan senga», degandek Dilovarxo'janing mo'ylovga o'xshagan baroq qoshiga qarab qo'ydi Sodiq.

Poyezd shu ketganicha manzilga yetib bora qolmadi, ikki yerda uzoq to'xtab qoldi. Boradigan yerlari noma'lum va qistalang bo'lmasa ham, mahbuslarning xitini chiqarib yubordi.

– Etapning mana shunisi yomon, qoningga tashna qiladi! – dedi Bogun irg'ib o'rnidan turib. «O'zi bu yer qayer?» deganday, tashqariga qaradi, ko'rmadi, joyiga o'tirdi.

– Yuragingni keng tut, do'stim. Yetib borarmiz ham, u yer ham jonga tegar. Oyog'igni uzatib damingni ol! – dedi Sodiq.

Bogun Sodiq tabaqasidan, aybsiz aybdor. Yuragi toru, o'zi haqqo'y. Sodiq bilan inoqlashib qolgan. Hammadan uning so'zini ma'qui ko'radi. Jahli chiqib turganda ham moviy ko'zlarini pirillatib uning xohishiga ko'na qoladi. Hozir ham shunday bo'ldi. Alamini maxorkadan oldi.

– Hey, do'stim, bu chekishingda meni yeltib qo'yasan-ku, sal evi bilan chek-da!

– Mazasini bilmaysan, bir tortgin, butun dardingni ichingdan sug'urib oladi.

– Rahmat! O'zingga buyursin.

– Ana shu-da, ishonmaysan. Mana, bir tort! La'natini aqlli odam topgan.

– Keling, qo'lingiz qaytmasin! – dedi Dilovarxo'ja va Bogunning qo'lidan o'rta barmoqdek qilib o'ralgan maxorkani chilimga o'xshatib uzoq tortdi. Tutunini bur-nidan burqsatib chiqardi: – Bay-bay-bay! O'zimizning jaydari tamakiga o'xshaydi. Qayoqdan oidingiz bunaqa bir tortganda quiatarini?

– Xotinim yuborgan. O'zi ekibdi.

– Erim ko'p tajang bo'lavermasin, xumorini yozib tursin degan-da, – dedi Sodiq tutunni haydab.

– Xatida ham, sening uchun ekdim, debdi.

– Qani shunga jinday nashadan ham qo'shsang, oromijon-da! – Dilovarxo'ja o'tgan kunlarini – mis qoplagan chilimiga nasha solib chekkan kunlarini eslab, ko'zini suzib qo'ydi.

– O'ldiradi-ku kishini!

– Aksincha, o'pkadagi qurtlarni o'ldiradi.

– Ie, dorining bunaqa xili ham bor deng! – mazax qildi Sodiq.

– Men-chi, – dedi Bogun, – xotinimning shu olijanobligi uchun qaytib borsam besh yil qo'lini sovuq suvga urdirmas edim!

Sodiq Bogunning erib ketganidan hazilga oldi:

– Ovqatni ham o'zing pishirarmiding?

– O'zim pishirardim!

– Bolalaringni ham o'zing yuvib-tararmiding?

– Yuvib-tarardim!

– Kir ham yuvarmiding?

– Yuvarдим!

– Ana shu yerda sal oshib ketding.

– Nega?

– Erkak yuvgan kir ochilmaydi.

– Ochilguncha yuvarдим.

– Qo'shnilaring ta'nasiga qolib o'lar ekansan.

– Nega endi! Xotinim mening o'rnimda yer chopib, ariq olganda indamagan qo'shnim. Men uning o'rnida ishlasam kuladimi! Kulsin, naq tishiarini qoqib olarman!

– U xotin, siz erkak, – chertdi Dilovarxo'ja.

– Ana shuning uchun jo'rttaga kirini ham yuvaman.

– Baribir xotining yo'l qo'ymaydi, – dedi Sodiq.

– Mana bu boshqa gap! Buningga ishonaman! Lekin, ochig'ini aytsam, xotinimga jabr bo'lib ketdi. Biror durustroq



hunarga o'qitmaganimga achinaman. Men topib kelibman, u shirin qilib pishiribdi, shunga mast bo'lib yuravergan ekanmiz.

Dunyoda mana bunaqa chigal hangomalar bo'lar ekan-ku! Ha, aytganday, keyingi arizangga ham javob bo'lmadimi?

– Yo'q, xotinim Moskvaga tushib o'tadigan bo'ldi.

– Agar seniki shu yo'l bilan o'ngidan kelsa, men ham xotinimni senikining izidan yuboraman. Lekin, Sodiq, bilib qo'y, qora kunda topishgan do'stlar ajralmas bo'ladi. Tag'in o'zing bilasan-ku.

– Gap bitta, Mikola, agar men oldin chiqsam, ishing bilan o'zim shug'ullanaman. To qiyomat bir-birini unutgan nomard!

Ikki do'st qo'l olishdi, bunga qanoat qilmagan Bogun Sodiqning bo'yniga qo'l solib labidan o'pdi:

– Men oldin chiqsam ham xuddi shunday qilaman!

Gap maromiga borib taqalgan edi. Ikki do'st jim qoldi, faqat yo'lga chiqqan poezdning «Haq gap! Haq gap!» degandek g'ildirak tovushi eshitilardi. Yomonga kun ham qorong'i, tun ham, degandek, ikki o'rtoqning samimiy qasami Dilovarxo'janing g'ashini keltirdi. «Ming qilsa ham Sodiq o'risparastligiga boradi!» deb qo'ydi ichida. Ko'ziga Bogun xunuk ko'rinib ketdi.

Poyezd shu yo'lga chiqqanicha faqat katta stansiyalardagina to'xtab, mahbuslar vagoni hech qayerda uzib olib qolinmadi. Bundan xotirjam bo'lgan Sodiqiar, endi manzilga yetib oladigan bo'ldik, deb qorong'i tushishi bilan uyquga ketishdi. Sodiq bir uyg'onib, ikkinchi yonboshiga ag'darilganda ham hali tim qorong'i, kimdir pixillab, kimdir chiyillab xurрак otib, hamma miq etmay uxlab yotardi. Lekin Sodiq tong yaqinligini uyqusi pishib qolganidan bildi,

shunday bo'lsa ham ko'zini yumdi. Endi ko'zini uyqu eltishi bilan samolyotlarning juda past uchganini eshitdi. Shu tovush bilan uyg'ongan bo'lsa ham, hech narsadan xavotir olmay, «qayerda to'xtab turibmiz?» degan fikrni xayolidan o'tkazdi, xuddi shu payt samolyotlarning sho'ng'igani, ketidan ustma-ust portlash eshitildi.

Bu portlash shunday yaqinda ediki, ularning vagonini larzaga soldi, oynalari chilparchin bo'lib ketdi. Hamma birdan uyg'onib, nima gap ekanini fahmlagunicha bo'lmay, yana portlash, qars-qurs hamma yoqni tutib ketdi. Sal o'tmay yana qaytalandi. Shu qaytalanishida bir bomba ular vagonining shundoqqina yoniga tushib, uni izdan ag'darib, parchalab yubordi. Sodiq ana shundagina stansiyada betartib qiy-chuv boshlanganini, allaqayer yonib, allanilmalar ag'darilib tushayotganini ko'rdi. Tutundan ko'z ochib bo'lmas edi. Sodiq avvaliga nima qilishini bilmay ko'zi tushgan tomonga qochdi. Jonni saqlash kerak edi. Stansiyadan chopib chiqqach, ko'zi tushgan chuqurga o'zini otdi. Bu yer nazarida uni xavfdan saqlay olardi. Shunday bo'lsa ham o'lim quvib kelayotgandek orqasiga qarab qo'ydi. Qorong'i tun edi. Faqat vagonlar va shu atrofdagi ba'zi binolarning burqsab yonishi tevarakni yoritib turadi. Hamon stansiya ustida samolyotlar doira yasar, payti-payti bilan sho'ng'ib, bomba tashlab turardi. Har safar portiash atrofni larzaga keltirib, temir yo'l iziarini yer bag'ridan ichakdek sug'urib olib uloqtirar, vagonlarni parcha-parcha qilib tashlar, yondirar, yangi bir qiy-chuvni avjga chiqarar edi.

Sodiq o'ylar girdobida ekan, kimningdir o'ziga tomon yiqila-yiqila chopib kelayotganini ko'rdi. «Chasovoy meni qidirib yuribdi, shekilli!» degan o'y miyasiga kelib, mahbusiigini, vagon qulashi bilan bu yoqqa qochganini esladi. Astoydil qochish niyati yo'qligi, faqat jonini saqlab

bu yerga kelgani uchun, xavotir olmay joyida tura berdi. Lekin yelib kelayotgan u odam chasovoy bo'lib chiqmadi.

– Kim u? – nido berdi Sodiq.

– Sodiqjon, sizmi! – deya orqasiga qaytdi Dilovarxo'ja. U yetib kelib, Sodiqning oyog'iga o'zini tashladi. Bu yerda nima qilib turibsiz? Qochmaysizmi?

– Ha, aytgandek, Bogun qayoqda?

– Birga edik. Hu anavi yerga kelganimizda bomba gumburlab qoldi-yu, bir-birimizni yo'qotdik.

– Satqayi odam keting! – koyidi Sodiq. – Kishi shunaqa vaqtda ham sherigini tashlab qochadimi!

– To's-to'polonni ko'rmaysizmi, sichqonning ini ming tanga bo'lib ketdi.

– Xo'p, mayli, siz shu yerda turing, men darrov xabar olib kelaman.

– Ey, ushianib qolasiz.

Sodiq uni eshitmadi. Elib ketdi. Oldida birdan bomba portladi. O'zini yerga otdi, yana turib, Dilovarxo'ja ko'rsatgan tomonga engashganicha yugurdi.

Sodiqning bu kuydi-pishdiligi Dilovarxo'jaga hech ham yoqmadi, uni qidirib nima qiladi? Hozir birovni izlaydigan vaqtmi? Mendan ko'ra, o'sha senga aziz ekan, u bilan qolaver. Men ketdim. Har kimning go'ri boshqa, to'ri boshqa. Daryo bo'lsang oyog'imni yuvmadim.

Shu xayollar bilan Dilovarxo'ja to'sh berib yotgan yeridan irg'ib turdi. Barini qoqib, chuqurlikdan chiqdi. Bir oz yelib ketdi. Lekin birdan to'xtadi, qayoqqa borishini bilmay qoldi. «Xo'p, hozir-ku, qochaman, bir kavakdan boshpana toparman. Keyin-chi! Keyin nima bo'ladi. Bu tomonlarni bilmasam. O'zi qayerdaman hozir? Ko'rgan kishi o'sha zahotiyuq hiqildog'imdan xippa bo'g'ib, duch kelgan milisiyaga berib ketadi. Keyin nima?

Dilovarxo'ja shaxtidan tushib orqasiga qaytdi. Bogunni ming baloga giriftor qilib qarg'adi. Sodiqning unga mehri tushib qolganidan xafa bo'ldi. Shu vaqt oshna qidiradigan paytmi! O'zingni bil, o'zga bilan nima ishing bor? Sening boshingga qor yog'sa, Bogun kuyarmikin! Till boshqa, dini boshqa bo'lsa...

Uzoqda ikki sharpa ko'rindi. Bular Sodiq bilan Bogun edi. Bogunning kiyim-boshlari yirtilgan, bosh kiyimi qayerdadir tushib qolgan. Dilovarxo'jani ko'rishi bilan achitdi:

– Qoyilman! Quyondan ham oyog'ingiz yengil ekan. Ustimga tushgan taxtalarni olib tashlang, deb shuncha baqiraman...

Dilovarxo'ja Bogunning chaqirganini eshitgan bo'lsa ham, o'z joni ko'ziga shirin ko'rinib, juftakni urib qolgan edi. Lekin u qasam ichdi. Til tortmay o'lay, eshitgan bo'lsam!

Barcha sofko'ngil kishilardek, Bogun bilan Sodiq ham bunga ishonishdi.

Dilovarxo'ja, xayriyat, ishontiroldim, deb yengil nafas oldi.

Bogun qo'lining shilingan erini dastro'moli bilan bog'ladi. Shunga ham shukur qilgandek:

– Ancha odam nobud bo'ldi, – deb qo'ydi.

– Nimasini aytasiz, mening yonimda ikkitasi «mama» deganicha yer tishlab qoldi. Jon holatda ustidan hatlab bu yoqqa o'tsam, yana bittasi qop-qora qoniga belanib yotibdi. Odam narxi arzon bo'lib ketdi. O'zi nima gap?

Bogun ham, Sodiq ham Dilovarxo'janing bu savoliga javob berishdan ojiz edi. Vagon qulab, esini o'nglab olgan lahzadan beri ularning ham o'ziga bergan savoli shu edi.

Ular tun qorong'iligida jadallab stansiya atrofidan ancha chetlab olishdi. Ularning baxtiga, stansiya shaharning

chetrog'ida bo'lib, tong yorishguncha toshloq dala yo'lga chiqishga uigurishdi.

Tong yorishi bilan ularning ko'nglidagi savolning javobi ham ravshan bo'ldi: Gitler shartnomani buzib, urush ochgan!

Jumboqning yechilishi uch qochoqning endi nima qilishini ham belgilab berdi. Qiziq ustida qochishga qochib qo'yib, «bu yog'i endi nima bo'ladi?» deb ming bir xayolda borayotgan Sodiqning fikrini tizginladi, qat'iy qarorga keltirdi:

– Modomiki urush boshiangan ekan, biz uchun yo'l bitta: front! Ertaga yalpi safarbarlik boshlanib, har odamning joyi front bo'lib turganda orqaga qaytib lager panjarasidan tomosha qilish ham, qochoq bo'lib bir kavakda mog'or bosib yotish ham men uchun malol keladi. Arg'amchiga qil quvvat, men frontni tanladim.

Bu fikr, yurtimiz keng bo'igani bilan bu qochoqlikda hech qayerga sig'maslik kerak, deb kelayotgan Bogunga ham ma'qul tushdi, u ikkilanmay:

– Sen nima bo'lsang, men ham shu! – dedi.

Faqat Dilovarxo'ja ikki o't o'rtasida edi. Mabodo yo'q desa, qayerga boradi? Endi nima qildi? Tikanli simdan qochib, o'tga kirishga hech toqati yo'q edi. «Hozircha rozi bo'laveray-chi, keyin yo'limni topib ketarman», dedi-yu, iljaydi:

– E, Sodiqjon, mendan so'rab nima qilasiz, men qo'lingizda bir parcha loyman, istasangiz zoldir qilib dumalatasiz, istasangiz sopqonga solib otasiz. Siz nima desangiz, shu-da!...

Lekin halimday bo'lib tilyog'lamalik qilgan bu «bir parcha loy» harsang bo'lib Bogunning boshini yedi.

Yo'lda bir tepalikdan oshib, jarlikka tushishdi. Bogun dumalab ketib oyog'ini mayib qildi. Oldiniga arzimagan bo'lib ko'ringan bu og'riq kechga borib alamga kirdi, shunaqa alamga kirdiki, tuni bilan ajriqqa ag'anab chiqdi. Ertalab bundoq qarasa do'mbira bo'lib ketgan. Keyin ma'lum bo'ldiki, o'ng oyog'ining to'pig'i chiqib, undan sal yuqorisi singan ekan. Oldiniga Sodiq, ketidan Dilovarxo'ja «tabiblik qildi». Hech narsa chiqmadi. Ertalab cho'g'dek yonib turgan oyoq tushga borib mo'mataloqqa aylandi. Shu shishib borishida kechga qolmay paqillab yoriladigan ko'rinardi.

Bogunning bardoshi tugab, o'limiga rozi bo'ldi, bir tomondan og'rig'iga chidamasa, ikkinchidan, u tufayli hamrohiari yo'ldan qolyapti. Uning bu yotishi ayniqsa Dilovarxo'jaga malol kelayotgani ko'rinib turibdi. Sodiq sokin. Uning dardi ichida.

Bogun sheriklarini yoniga chaqirdi:

– Mening ishim tamom. Oyoqqa turganim bilan ham baribir frontga yaramayman. Siziar ketaveringlar. Men bir amallab biror qishloqqa yetib olamanu, u yog'ini baxtimdan ko'raman.

Sodiq sakrab tushdi: – Seni tashlab-a!

– Boshqa qanday iloj bor? Meni deb sizlar ham nobud bo'lmanglar, deyman-da! Gojlik bilan toshni tepsang, oyoq og'riydi, xolos.

Sodiq ko'nmadi.

– Yo'q, – dedi u, – kuchimiz yetgancha olib boramiz. Juda bo'lmaganda biror tayinlik yerga qoldirmaguncha men hech qayoqqa ketmayman. Gap shu!

Sodiqning fe'lini bilgan Dilovarxo'ja qanchalik g'azablanmasin, bir narsa deyishga ojiz, degan chog'ida ham gapi yerda qolishiga ishonardi.

Cho'ntagida qo'lini musht qilganicha baqrayib turaverdi.  
– O'zingiz bilasiz, serkamiz siz, – dedi u pichingnamo.  
– Uning o'rnida siz bo'lsangiz, tashlab ketsak xursand bo'larmidingiz?

Dilovarxo'ja yalatma javob qildi:

– Men sizga tashlab keting deyaqmanmi! Men mayib qilganday gapirasiz-a?

– Aslida Sodiqning bu gapi Dilovarxo'janing u-bu yog'idan o'tib ketgan, qani endi avvalgi vaqt bo'lsa-yu, bir imo bilan ikkalasini tavbasiga tayantirsa! Tishini tishiga bosdi, qo'lini cho'ntagida qattiqroq musht qildi. Inqillab yotgan Bogunga qarab g'azab bilan baroq qoshini chimirib qo'ydi.

Sodiq o'yiab o'yining so'ngiga yetolmas edi. Albatta Bogunni bu yerga tashlab ketolmaydi, tashlab ketishi insofdan emas, hatto pastlik. Bu uning qo'lidan kelmaydi. Ming xil reja bilan bu kun ham o'tdi. Ertalab Sodiq barvaqt uyg'onib, chaqqonlik bilan jardan chiqdi.

– Xo'sh, yo'l bo'lsin? – dedi ko'zi ochiq yotgan Dilovarxo'ja. U Sodiqni o'z gapi bilan yolg'iz qochib ketyapti, deb o'ylagan edi. Atrofnı bir aylanib kelay, zora Bogunga biror joy topsam. Bechora kechasi bilan isitmasidan alahlab, bola-chaqasi bilan gaplashib chiqdi.

– Bildim, – dedi Dilovarxo'ja achingandek, – yomon bo'ldi.

Sodiq ketishi bilan Dilovarxo'janing' mudhish g'azabi yana to'lqin urdi. «Agar shu la'natining oyog'i lat yemaganda, ancha yerga borib qolardik. Xudo ko'rsatmasin, qidirib qolsalar bormi, ish rasvo! Shundoq qo'ltig'ining tagida yotibmiz-a! Ikki tug'ishib, biri qolgandek joni achiydi Sodiqning. Tavba, manglayidan oy ko'rdingmi! Mana hozir yana shuni deb, jonini tikib allaqayoqqa ketdi. Hali ketidan

birorta shumoyoq ayg'oqchini ergashtirib kelib ishning rasvosini chiqarmasa edi! Yo'ldan tutilib qolishimizga ham, xavf ostida kechadan beri o'tirishimizga ham mana shu inqillab yotgan Bogun sabab. Shu o'ladi-yu, biz qutulamiz. O'larmikin? O'zi kichkinagina bo'lsa ham, joni itnikidan qattiqqa o'xshaydi. Bizning boshimizni yeb, o'zi omon qolmasa edi! U tirik ekan, Sodiq undan ajralmaydi».

Dilovarxo'ja birdan ko'zlarini chaqchaytirib, mo'ylovga o'xshagan qoshini kerdi. Ro'paradan o'q yeganday bujur yuzi yiltillab ketdi. «Joniga Azroil chang solishini kutib o'tirmasdan... o'zini uning bag'riga itarib qo'ya qolish kerak...»

Dilovarxo'ja qat'iy bir qarorga kelgan kishidek Sodiqning orqasidan chiqib, asabiy alanglab uning uzoqlashuvini kutib turdi. Pastga shoshilinqirab tushdi. Bogunning boshiga keldi. Basharasidan bir narsaning izini qidira-yotgandek, bir lahza qarab turdi. Bogun kechasi bilan qiynalib, tongga yaqin uyquga ketganicha hali qimir etmay yotardi. Og'riqning zo'ridan sarg'ayib ketgan oriq yuziari, mayin kipriklari qilt etmas, mayib oyog'ining tizzasini murg'akdek quchoqlab olgan, dunyo tashvishlaridan xoli kishidek sokin yotardi.

Uning za'faron yuzi, ozib-to'zib ketgan chakaklari rahmini keltirmadi. U rahm qiladigan alpozda emas edi. Unda o'sha bosmachilik yillarining yovuz hirsu uyg'ongan, ko'ziga qon to'lib ketgan edi, u shunday yovuzlik, tajribali qotilga xos sovuqqonlik bilan ish tutardi, hatto qo'li titramas edi. Shunday bo'lsa ham yana jardan chiqib, atrofga alang ladi. Sodiqning uzoqlashib ketishiga qanoat hosil qilgach, barini orqasiga siltab tashlab pastga o'zini urdi, to'g'ri kelib, och qashqirdek Bogunning tomog'iga chang solib, ustiga o'zini tashladi. Jon talvasasida tipirchilashlari tingan, hatto



mayib oyog'i uzatilib qolgan bo'lsa ham, Dilovarxo'ja uning o'lganiga gumon qilib ancha vaqtgacha qo'lini bo'g'zidan olmadi. Lekin o'rnidan turganida qora terga botgan, tizzasi titrar edi. Bushlatining bariga yuzlarining terini artdi.

Bogunning ko'zlari ochiq qolgan edi. Bu qotil Dilovarxo'jani titratib yubordi, u ko'zlarni yopishga jur'at yetmay, Bogunning qalpog'ini yuziga tortib qo'ydi. Bir oz o'zini tutib olgandan keyin, Sodiq bilan bo'ladigan savol-javobini bir karra ko'nglidan o'tkazib qo'ydi. Agar Sodiq Bogunning o'zi o'lganiga ishonmay, gumonsiraydigan bo'lsa, u bilan ham hisob-kitob qilishni mo'ljallab, hujumga hozirlik ko'rdi.

Sodiq esa, qaytmas edi. Shu payt Dilovarxo'janing yuragi siqilib, achchiq chilim chekkisi, o'sha «dovruqli yillari» qo'lidan tushmagan mis qoplama chilimining olovini bir qarich gurillatib chekkisi keldi. Qani u chilim? Sarxanasi uchib, qayerlarda pachoqianib qolib ketgan! Shunda Bogunning vagonda bir tortib bergan achchiq tamakisini esladi.

U asta bosib jarga, murdaning oldiga bordi. Bogun bir qo'li bilan tuproq changallaganicha yotardi. Qotil uning cho'ntagiga qo'l solib, bo'g'ma to'rvadagi tamakisini oldi, o'rab chekdi, to'rvachani esa, og'zini yaxshilab bog'lab o'z yoniga solib qo'ydi.

Sodiq anchadan keyin qaytdi. Uning qaytishini jar yoqasida mo'ralab kutib o'tirgan Dilovarxo'ja egasini tanigan itdek qarshisiga yugurdi. Nafasi og'ziga tiqilib, gapira ketdi:

– Bogun o'lib qoldi. Uyg'ondi-yu, tomog'ini bo'g'ib, tipirchiladi, suv so'radi. Suv tamom bo'lgan ekan, chopib ketdim. Olib kelgunimcha olamdan o'tibdi. Endi nima qildik, yaxshi yigit edi rahmatli! Oldiga tushgani yuragim betlamay, boyadan beri sizni poylab shu yerda o'tiribman.

Sodiq «o'lib qoldi»dan boshqasini eshitgani yo'q, chopib ketdi, go'yo Bogun hali o'lib qolmaganu, tezroq borsa olib qoladigandek, yelib ketdi. Dilovarxo'ja undan uzilmay, oldinma-keyin chopib, o'lim tafsilotini aytib kelardi. Sodiq jarga o'mbaloq oshib ketgudek yelib tushdi, bir-ikki toshga qoqilib, dumalatib yubordi. Uning bittasi xuddi Bogunning yoniga borib to'xtadi. Bogunga tegib, ozor yetkazadigandek Sodiqning yuragi shig'illab ketdi.

Sodiq entikkanicha kelib, do'stining yuziga yopib quyilgan qalpog'ini oldi, go'yo shu qalpoq Bogunning nafasini qaytarayotgandek tuyuldi Sodiqqa. Bogunning ochiq qolgan bir ko'zi «qayoqqa keta qolgan eding? Senga so'nggi marta boqish va mudhish voqeadan senga guvohlik berish uchun yumilmay turibman. Mana seni ko'rdim, endi o'zing meni yopib qo'y!» degandek tosh qotib turardi. Kutilmagan bu fojidan gangib qolgan Sodiq do'sti qoshida gir aylanar, tomirini ushlab ko'rar, ko'ziga boqardi. Uning badani soviy boshiaganini sezsa ham, o'lganiga ishongisi kelmas edi. Dilovarxo'ja esa murdadan qo'rqadigan kishidek bir chetda turar, boshini quyi solib Sodiqni «achinish» bilan kuzatardi.

– Juda qo'rqib ketdim, Sodiqjon, yuziga qarashga yuragim yo'q. Ko'zini yopib qo'ysangiz-chi!

Sodiq indamay, uning aytganini qildi. Shundan keyin-gina Dilovarxo'ja Bogunga yaqinroq keldi:

– Ikki marta sizni so'radi. Xayriashmoqchi bo'lgan ekan-da bechora. Aksiga olib, so'nggi damida boshida bo'lmadingiz. Qadrdo'ningiz edi, og'ziga o'zingiz suv tomizar edingiz. Mendan buyurdi.

– Qayoqdan bilaman bunaqa bo'lishini! – dedi sodda Sodiq, uning gapiga ishonib. U o'zini Bogun o'limida gunohkordek his qildi. Buni payqagan ayyor Dilovarxo'ja yonlatib hujumga o'tdi:

– Axir kechasi alahlab chiqqanini o‘zingiz gapirib turgan edingiz, yana ketib qoldingiz.

– Qiziqmisiz, alahlagan o‘laveradimi! Dardi bor har qanaqa kasal ham kechasi bezovta bo‘ladi-da!

Dilovarxo‘ja Sodiqning qarshilik bildirganini ko‘rib, darrov yon bosdi:

– Ha, rost. Bundoq bo‘lishini tush ko‘ribsizmi! Bizning qishloqda bittasi qirq kecha alahlagan ekan. Shundan keyin tuzalib, evara-chevara ko‘rgan. U emas, bu emas, ko‘rgilik, yetgan ajal. Issiq jonning ishi shunaqa. Yutgan nafasing qaytib chiqish-chiqmasligi xudoyi taoloning o‘zidan boshqa hammaga sir. Bandaning ishi shu, Sodiqjon, lip etib chiroqdek o‘chadi-qoladi.

Sodiq hech narsa demas edi. Kutilmagan bu musibat uning idrokini shol, fikrini o‘tmas qilib qo‘ygan edi. U faqat murdaning atrofida aylanardi...

Dilovarxo‘ja ko‘rdiki, Sodiq shoshib qoldi. Uni yo‘lga solmasa, o‘lik atrofida girdikapalak bo‘lib vaqtini o‘tkazadi.

– Sodiqjon! Tepasida yosh to‘kib turishingizning endi foydasi yo‘q, – u o‘pkasi to‘lib, ko‘ziga yosh quyilib kelgan kishidek entikib, dastro‘molini ko‘ziga tutdi, dimog‘ini ustma-ust chuqur tortdi, – nachora, qismati shu ekan! Vaqti soatida joyiga qo‘yaylik, bir kaft tuprog‘i shu yerdan olingan ekan. Nachora!

Quyosh jar ichiga qiyalab boqib, uning ingichka irmog‘ini pichoq damidek yiltillatganda Bogunni yerga qo‘yishdi. Sodiq qizarib ketgan ko‘zlaridan yoshini artib, do‘sti ustiga shag‘al aralash ho‘l tuproq tortardi...





### III QISM

#### 1. EL BOSHIGA ISH TUSHGANDA

Xotini urush boshlanganini aytgani kirganda Mirsalim dong qotib uxlab yotardi. Xotining yig'lab:

– G'aflat bosmay o'lsin, turing, dunyoga o't ketdi! – deganini ham eshitmadi. Xotin jon holatda yelkasidan silkigan edi, arang ko'zini ochib:

– Yuz gramm bormi? – dedi.

– Yuz gramm ham o'lsin! Urush boshlanibdi!

– A.

Mirsalimga ana shundagina yetib bordi. Irg'ib turib, o'rniga o'tirdi. Qovog'i shishib, mijjalarining cheti yopishib qolgan ko'zlarini ishqaladi. «Nima deyapsan?» – degandek xotiniga boqdi. Xotiniga ham faqat erini uyg'otish, unga urushning boshlanganini bildirishgina kerak ekan shekilli, indamasdan chiqib ketdi. Eshikni yopa turib:

– Kap-katta odam... – deb qo'ydi.

Xotin bu bilan yarim kechada ichib kelib, shu vaqtgacha uchib yotgan eriga «achib suyilmagan, qarib quyilmagan» deb ta'na qildimi, yoki uyning bir chetiga qayt qilib qo'ygan «kap-katta odamdan» nafratlandimi, bilib bo'lmas edi.

«Urush» so'zi Mirsalimning ko'zini ochirgan bo'lsa ham, hushiga keltirmadi, paxtavon o'qdek pang yetdi-yu, jarohati ko'rinmadi. Erinibgina o'rnidan turib, ikki qadam

qo'ydi. Boshi karaxt, og'zi elim edi. Xotini kechasi boshiga qo'ygan choynakdan muzday suvni simirish oldidan bir kavshanib, keyin tufurdi: milklari qonab ketibdi!

Muzday suv bir necha lahza ko'zini moshdek ochdi, ana shunda o'yiab ketdi: kecha «tagi ko'rgan» bir o'rtog'inikida mehmonda edi. Anor suvini zakuska qilib ancha ichdi. Qazini parraklagani esida. Dumba-jigardan olib turdi. Yonida o'tirgan gap-so'zidan juda tayyorga o'xshab turgan bir so'rqildoqqina beva o'qituvchining soniga qo'l yuborgan edi, qo'lini ombirdek chimchilab oldi, bunga ham izzat-nafsi qonmadimi, «turqing qursin, bit ko'z» deganday shunaqa bir xo'mraydiki, Mirsalim joyini o'zgartirishga majbur bo'lib qoldi, hovliga chiqib kelib, o'sha xotin ko'zi tushmaydigan tomonga o'tib o'tirdi. Sherigi:

– Ha, u yerdan mix chiqdimi? – degan edi.

– Stul noboproq ekan, yana sindirib tovoniga qolmay, – degan bahonani qildi. Yana ikki ryumkadan keyin xotindan yegan dakkisi esidan chiqdi. «Sen, to'nka, mendan hazar qilib o'tiribsan, hali mening shunaqa hunarim borki, kokil yoyib o'zing kelasan oldimga», deganday tanburni olib mashq qildi, birining ketiga boshqasini uladi. Kuyning oxirini oliftagarchilik bilan chertib, tanburini yoniga olib qo'yarkan, hammadan rahmat yog'ildi. Haligi chimchilagan xotin ham ko'p qatori qisqagina qilib tashakkur aytdi. Buni payqagan Mirsalim: «O'l-a! Yoningdan ketganimga endi achinayotgandirsan!» – deb qo'ydi ichida. U xotinning ko'ngli suv ichib qolganiga endi hech shubha qilmas edi.

Sho'rva tortilib, ichkilik qizigandan keyin xotinlar boshqa uyga chiqib ketishdi. Xotining «bas, bo'ldi!» deb tirsak turtishidan qutulgan erkaklarning «biti to'kildi». Norinni qanaqa qilib qorganini Mirsalim elas-elas eslaydi, lekin norin tortilganini bilmaydi. Bir-ikki oshamni og'ziga

solganini sal-pal xotirlaydi, lekin uni yutdimi, qaytib tashladimi, hozir aytolmaydi. Bir mahal ko'chaga chiqsa, hali tegishgan xotini ham kishilar bilan xayr-xo'sh qilib ketyapti. Ketidan ergashdi. Bir-ikki gap tashladi. Xotin indamadi. Mirsalimning nazarida, xotin boyagi qilgan madaniyatsizligidan xijolatda, Mirsalimning boshqa yerga qo'yib chalgan tanburidan erib ketgan, qo'rg'oshindek qalqib turibdi, istagan qolipga solib olsa bo'ladi!

Xotin uning luqmalariga og'irlik bilan javob qilib bordi. Mirsalim bilib bilmaslikka olib biqiniga tegib ketgan edi, bunga ham indamadi. Mirsalim yana bir pog'ona ko'tarildi. Xotinning bir juft qamchidek uzungina, baquvvat sochini ushlab tegishdi:

– Ulamamasmi?

– Yo'q, ulamani siz olib berasiz-da.

– Jonim bilan! O'zi qayerda sotadi?

– Olib beradigan odam, sotadigan yerini bilmaydimi? – xotin jilpangladi. – Yangamga qayerdan xarid qilgan edingiz?

– Yangangizni qo'ysangiz-chi, jonginam, sharti ketib, parti qolgan. U kishiga ulamani kim qo'yipti.

– Hamma erkaklar ham shunaqa: begona xotinni ko'rganda, uyidagini yomonlaydi.

– Yo'q, rost gapni aytyapman. Shu mahal oldingizdan chiqib qolsa bormi, naq labingizga uchuq toshib ketadi!

Xotin indamadi. Mirsalim, eritdim, qo'lga oldim, deb shilqimlikka ko'chdi. Bu mahal xotin uyiga yetib qolgan edi. To'xtadi. U pastki labini tishlab turar, ko'zi nimadandir chaqnab yonardi.

– Men yetdim, – dedi u. Keyin sun'iyroq kuldi. Kayfdan ko'zi qisilib borayotgan Mirsalim buni payqamadi, u changakdagi go'sht ostida «sapchisam olamanmi, yo'q-mi?» degan mushukday, labini yalab, suqlanib turardi.

– Ulamani endi qachon olib beradigan bo'ldingiz? – so'radi boyagiday yasama kulib xotin.

– Istasangiz ertaga-da, jonim! – yalpangladi Mirsalim va xotinning bag'riga qo'l yubormoqchi bo'ldi.

– To'xtang! Hali tashlab ham qocharsiz, – dedi xotin bir qadam orqaga tisarilib. – Hu anavi ko'rinib turgan eshigim. O'g'ilcham bilan ikkimlz turamiz. Erimdan ajraganimga bu yil besh yil to'ladi.

Bu gaplarni eshitgan Mirsalimning «naqdiga yo'liqdim», deb ko'zlari lo'q, xayolida oppoq to'shalgan sim karavot edi.

– Yo'lda yolg'iz kelgani cho'chirdim. Kuzatib kelganingiz uchun rahmat. Men sizni yaxshi bilaman, Mirsalim aka, xotiningizni ham taniyman. Boring uyingizga, har ko'ringan juvonga ergashib, tilingizni osiltirib yurmang. Ulamaning pulini yangamga berib qo'ying, ertalab o'sha kishidan olaman.

Xotin istehzoli kulib, shart orqasiga burilib ketdi. Mirsalim turgan yerida shalvirab qolaverdi. Uning qimirlashga madori yo'q edi. Faqat milisionerning hushtagi va «kim u?» degan nidosi unga jon kiritdi. U gandraklab, ikki bor ariqqa yiqilib, uyiga yetib kelganda qo'shnisining babaq xo'rozi tong yulduzini qanot qoqib qutlamoqda edi...

Mirsalim bir piyola muzday suvning daldasida ana shularni eslab, yuragi orqasiga tortib ketdi. Urushdan ham tundagi ahvoli ko'ziga dahshatli ko'rindi, chunki ming qilganda ham urush uzoqda, bu sharmandalik esa, chaqirsa eshitilgudek joyda, halizamon sharmandasini chiqarishi mumkin. «La'nati nima qilib yonimga o'tira qolgan ekan, – o'zicha pushaymon bo'ldi, – men ham xotinimni olib borganimda-ku, olam guliston edi. Lekin xotin bilan yayrab bo'ladimi! O'zi kim edi shu xotin? Qaysi

maktabda ishlardi? Ortiqcha shilqimlik qilganim yo'qmi? Shu vaqtda «ulamaning pulini bering» deb kirib kelib qolsa-ya! Ana sharmandaligu, mana sharmandalik!»

Shuning vahimasi bilan Mirsalim naridan-beri kiyinib ko'chaga chiqdi. Ko'cha har kuni ko'rgan ko'chasiga o'xshamas edi. Odam qaynaydi. Odamlar xomush, lablar qisiq. Qadamlar zarvorli, ko'zlar tashvishli. Radio karnaylari bor ovozi bilan gitlerchi Germaniyaning jinoyat-korona urush boshlagani haqida olamga jar soladi. Odamlar to'p-to'p bo'lib jon qulog'i bilan eshitishadi. Ana, bir kampir yig'lab, doka ro'molining uchini himarib, ko'zini artidi. Boshqa biri Gitlerni «to'ng'iz qo'pdiradi», asabdan soqolini hadeb tutamlayotgan chol Gitlarning sag'anasiga tosh qalaydi, yosh juvon erini qo'ltiqrab turish g'animatday, erta-indin shunga ham zor bo'lib qoladiganday uning qo'ltig'iga kirib ketgudek bo'lib, ikki qo'llab ushlab turibdi, boshqa biri tashvishdan yonida yig'lab kelayotgan bolasini eshitmaydi, har kuni kulgisi bilan ko'chani to'ldirib yurgan yoshlar bugun sokin, kulgi o'rniga allanimani kuyib-pishib gaplashadi, bir-biriga ma'qullaydi. Xullas, mamlakat boshiga zo'r tashvish tushgani yettidan yetmish yoshgacha hammaning fikri-zikrida. Faqat Mirsalimgina katta daryoning, to'lqinli daryoning bir chetida oqimdan uzilib, bir joyda aylanayotgan cho'pdek baqrayib turardi. Bu uzoqqa cho'zilmadi, to'lqin uni ham qamrab ketdi. Ana shundagina u kechagi xotinning «ulamaning pulini bering!» deb odamiar orasidan chiqib qolishi, uni sharmanda qilishi mumkin emasligi, yurt boshiga tushgan mushkulot oldida o'zining tashvishi urvoqqa ham arzimastligini fahmlab, ancha yengil tortdi, «shunday paytda janjal ko'targani keladimi» deb o'zini yupatdi. Uyiga qaytib, yuz grammni xotinidan o'g'rincha yutib, o'rniga o'zini tashladi. Xotining:



– Ha, yana uyqumi? – deganiga.

– Boshimni sal remont qilib olay, – dedi va orqasini o‘g‘irib oldi.

– Kamroq iching, sizni biron zo‘rlamagandir. Yo zo‘riadimi?

«Zo‘rlash» so‘zi Mirsalimning xayoliga ichkilikni emas, tundagi xotinni keltirdi. «Obbo la’nati, ertalab kelgan ekan-da!» deb yuragi shuvillab, ko‘z oldi jimirlab ketdi. Xotini tomonga birdan ag‘darildi.

– Kimni zo‘rlabman? – balanddan keldi Mirsalim. Bu kutilmagan dag‘dag‘adan cho‘chib ketgan xotin past tushdi:

– Birovni zo‘rlabsiz deyapmanmi! Ichkilikni...

– Ha, bunday demaysanmi! Mening qulog‘imga.

Mirsalim yana orqasiga ag‘darildi. Xotini piching qildi:

– Ha, endl bir kamingiz birovni zo‘rlash qoluvdi. O‘tgan yil Qayum qo‘noqning to‘yida o‘yinchi qizga pul qistira turib, tomog‘idan ushlaganingizni to‘rtta xotin yig‘ilishsa hali-hali gapirishadi.

– Buni ham yigitning yuragida o‘ti bor, qoni o‘ynab turgani qiladi! – chiranishnamo hazil qildi Mirsalim.

– Sizning qoningiz qaynoqmi? Men sezmayman-ku! – rashk bilan achitdi xotini. Bu gap chiranchiq Mirsalimning erlik nafsoniyatiga tegib, sirini fosh qilib qo‘ygandek bo‘ldi. Boshini ko‘tarib, xotinigaga yelkasi osha sigir qarash qildi: uning ko‘zlari qinidan chiqib ketay derdi.

– Qaynog‘ini ko‘chada sovitib kelaman!

Ering astoydil jahli chiqqanini ko‘rgan xotini indamadi, faqat chiqib keta turib, chimchilab oldi:

– Ehtimol...

Bu gap Mirsalimga boyagidan ham alam qildi. Lekin tundagi xotin kelgan bo‘lsa, yana «oltin to‘rva»ning og‘zi

ochilib ketmasin, degan xayol bilan achchig'ini ichiga yutdi. Agar shu tomondan xavfi bo'lmaganda xotiniga «biror bo'yni yo'g'onini topgan bo'lsang, ketaverishing mumkin» degan bo'lardi.

Urushning butun dahshatini Mirsalim ertasiga maktabga borganida sezdi. Kechagi kunni uyda xotini bilan adi-badi aytishib, bachkanalashib o'tkazganiga hayron bo'ldi.

Mirsalim o'zi shunaqa: bir narsaning ta'mini ham, dahshatini ham o'tib bo'lganidan keyin biladi, biladi-yu, vaqtida payqamaganidan ajablanadi, yomon narsaning o'tganidan xursand bo'lsa, shirinini sezmaganidan achinadi. Hozir ham shunday bo'ldi. Kechagi eng dahshatli kun vahimasini shunday yengil-yelpi o'tkazganidan mamnun.

Bir haftada maktab yoshiardan bo'shab qoldi, maktab tugul shahar bo'shab qoldi. Voenkomat eshigida odam tirband. Kuniga vokzaldan kolonna-kolonna harbiy eshelon jo'naydi. Bugun ko'rgan odamingdan bir haftadan keyin allaqaysi shahardan «frontga ketyapman» yoki «harbiy tayyorlikdaman» deb xat keladi. Bu yerda qolganlarning ham butun xayoli frontda. Frontdan esa kuniga aholi yashaydigan qandaydir punkt, ba'zan esa butun bir shaharning «qattiq janglardan keyin tashlab chiqilgani» haqida ko'ngilsiz xabarlar keladi.

– O'ho', qadam olishi tez-ku! – dedi Mirsalim ertalab radioga quloq solib. Keyin tishini ko'rsatmay sal ishshayib qo'ydi.

Yana bir hafta o'tdi.

Mirsalim yuzini yuvmayoq radio yoniga keldi. Eshitmay qoladigandek qo'lini qulog'i orqasiga hovuch qildi. Yana noxush xabar.

– Zo'r! Kelishi yomon, – dedi, keyin toychaday o'ynoqlab yuvingani ketdi. «Qichqir, xo'rozim» ashulasini xirgoyi

qilib yuvindi. Ichidan sevinchi to'liq urib chiqardi. Xotiniga ham umrida bir marta kulib qaradi:

– Ishlaring yaxshimi, xotin?

Xotin hayron: «Bu nima degani bo'ldi?» Eriga qarab, kayfi bormi o'zi, deb o'yiadi. Unday desa hozirgina o'rnidan turgan. Kecha hech qayoqqa borgani yo'q.

Nonushtadan keyii surma rang do'ppini furajkaga, qora beqasam to'nini gimnastyorka bilan enli kamarga almashtirgan Mirsalim eshikdan chiqishi bilan yuziga jiddiy tus berdi. Yurt boshiga tushgan tashvishni birga tortishayotgan kishidek boshini sal quyi solib ketdi. Xuddi shunday alpozda kabinetiga kirib bordi. Bugun darsga kechikib kelgan o'qituvchini zud bilan chaqirtirdi:

– Hozir qanday vaqt ekanini bilasizmi? – dedi zug'um qilib.

O'qituvchi vaj ko'rsatdi:

– Qizimiz tuni bilan isitmalab, ertalab uxlab qolibman.

– Vaj qidirmang. Hozir vaj qidiradigan payt emas. Men bunga yo'l qo'yolmayman, bolalarimizning tarbiyasiga putur yetishiga, ayniqsa shu mas'uliyatli kunlarda yo'l qo'yolmayman. Bu jinoyat.

Sodda o'qituvchi jinoyat qilganini endi anglagan kishidek gangib qoldi, shoshib o'zini oqlashga kirishdi.

– O'zingizni oqlamang, – uning so'zini bo'ldi Mirsalim, – bu yomon odat. Yaxshisi, aybingizga iqror bo'ling, tuzatishga urining. Men, albatta, buni pedsovetga qo'ymayman.

Bu «olijanoblik»dan yuki yengillashgan o'qituvchi unga rahmat aytib chiqib ketdi. Mirsalim o'zi tutgan yo'ldan mamnun edi. Burnining ostidagi tuflangan nosdek kichkina mo'ylovini ko'rsatgich barmog'i bilan silab qo'ydi. «Qichqir, xo'rozim»ni beixtiyor xirgoyi qilayotganini sezib qolib, birdan to'xtadi: bu uyda aytiladigan ashula! Bu yerda

o'zini rahbarona tutishi lozim. Knopkani bosib, kotib qizni chaqirdi, yo'l-yo'riqlar berdi. So'ngra har qachongidan sal yumshab, o'zi haqida, maktabi haqida kollektivda qanday gap-so'z yurganini surishtirdi.

– Jimjit, – dedi qiz qizarinqirab, – faqat Qurbonovni yoqtirmaganidan direktorning o'zi telefon qilib, frontga yubordi, deyishyapti.

– Masalan, siz shuni kimdan eshitdingiz? – qattiq qiziqdi Mirsalim, lekin muloyim qilib surishtirdi.

– Hamma shunaqa deydi, – qiz duduqlandi. Aslida u kimdan eshitganini eslolmas edi.

– Menga hammaning keragi yo'q. Bittasini ayting. O'sha bittasi kerak.

Qiz «o'sha bitta»ni aytolmadi. Mirsalimning qanchalik jahli chiqqan bo'lmasin, o'zini bosdi: qizni xafa qilishdan foyda yo'q! Hali ko'p kerak bo'ladi. Lekin Qurbonov masalasidagi «sir»ni kollektiv bilib qolganidan hayratda edi. Axir u juda ehtiyot bilan ishlagan edi-ku! «Mayli, – deb qo'ydi ichida Mirsalim, – bundan buyon shunga qarab ish tutaman. Shart shu: maktabda mening oyog'imni bosadigan hech kim bo'lmasligi kerak. O'sib chiqqanini chekanka qilib, kemtib turaman».

Mirsalim xijolatdan barmoqlarini qirsillatayotgan kotiba qizni asta kuzatdi.

– Kishi bunaqa beparvo bo'lmaydi, qizim. Pishiq bo'ling, chiyratma bo'ling. Hali men sizni direktorlikkacha tarbiya qilaman deb yuribman-ku...

Qiz birdan qizarib ketdi. Mirsalim unga yana bir-ikki shirin so'z qilib chiqarib yubordi. Bu tadbiridan ham o'zi mamnun bo'lib qo'ydi.

Shu kunlarda u yana bir odat chiqargan. Ishga sal barvaqt kelib, hammadan keyin ketadi. Maqsad: mamlakat

Jannat gapni o'z shaxsiy ishlaridan chetga olib qochmoqchi bo'lsa ham, baribir, Sodiqning ko'ngli hamon xijil, hamon o'rniga tushmas edi. Agar ko'nglidagini ochiq-oydin aytib, yuragini bo'shatib olmasa, armon bo'lib qolib, yanagi ko'rishgunlaricha ich-etini eb yurishini bilardi. Uni qo'rquv aralash shodlik bosardi. Qo'rquvi shundan ediki, Jannatning ma'zurini eshitgani yo'q, balki ma'zur tutmas. Bu qora kunlar o'tgandan keyin, «men o'z insoniy burchimni o'tab, haq joyini topishda sizga yordam berdim, lekin o'sha gunohingizni kechirolmayman» deyishi mumkin. Jannatga o'xshagan xotinlar qo'lidan bu ish keladi. Bu esa, Sodiqqa o'limdan og'ir, to so'nggi damigacha ko'nglini xijil qilgan, qalbini ezgan armon bo'lar edi.

Bu fikr Sodiqning xayolidan ketmadi, soatlar o'tgan sari parma bo'lib chuqurroq kirib bordi. Ana shundan keyin Jannat bilan albatta gaplashishga qaror qildi. O'g'lining xuddi shu fikrini ko'zidan uqqan Adolat xola nevarasini yetaklab, «shamollagani» chiqib ketdi. Jannat qaynanasi oldidagina o'zini dadil tutayotgan ekanmi yoki shu gapning ochilib qolishidan ehtiyot chorasi ko'rayotgan ekanmi, u chiqib ketishi bilan xomush tortib, boshini quyi soldi. Sodiq uchun bundan quiyay vaqt yo'q edi, butun kuchini qalbiga yig'ib, uning yoniga surildi, lekin betiga qarolmadi.

– Jannat, sen meni kechirasanmi, yo'qmi bilmayman. Lekin sening bu yaxshiliklaringni qaytarishga umrim yetmasligini bilaman. Men sendan o'la-o'lguncha minnat-dorman. Bu olijanobliging haqqi-hurmati, o'g'lim Marat seniki. Omon qaytib borsam, qabul qilsang o'zim ham...

Jannat bundoq qarasa, Sodiqning o'pkasi to'lib boryapti, halizamon yig'lab yuborishi mumkin. U umrida erkak yig'isidan qo'rqadi, erkak bag'ri suv bo'lib ezilib

oqqanda yig'laydi. Buni esa, Jannat sira ham istamas edi, ayniqsa Sodiqdek kishining ko'z yoshini ko'rish unga o'limdan qattiq. Shuning uchun o'zini tutib, hazilga oldi:

– O'zingizni qabul qilmasam, o'g'lingizni olib qo'yasizmi?

Sodiq buni jiddiy tushundi, shu paytda hazil bo'lishiga u ishonmasdi:

– Yo'q! Yo'q, bunday deb tushunma! Marat seniki, umrbod seniki! Ota bo'lib unga nima qildim. Uni tarbiya qilayotgan sen. Men sening oldingda aybdorman. Biror narsa deyishga haqqim yo'q. Hatto kechirim so'rashga tilim bormaydi.

– Yo'q, – dedi Jannat, go'yo o'tgan hamma gaplarga yakun yasagandek jiddiyat bilan, – men bu yerga sizning gunohingizni kechirsammikin-kechirmasammikin deb kelganim yo'q. O'tgan-ketgan gapni qo'ying. O'zingizni o'ying, tezroq qutulishni o'ying. Mening nima yordamim kerak bo'lsa, ayting, tortinmang, kerak eshikni qoqay, turmi buzilguncha qoqay!

Qolgan vaqt ichida ular shu haqda kelishdilar.

Oradan uch kun o'tgach, Adolat xola o'g'li bilan xayrlashar ekan:

– Bolam, endi ko'rishamizmi, yo'qmi, kim biladi. Ko'rishmasak, bergan oq sutimga mingdan-ming roziman, – deb ko'ziga yosh oldi.

– Nima deyapsiz, oyi, albatta, ko'rishamiz. Mana, keliningiz Moskvaga tushadi. Moskvaga borish degan so'z, haq joyini topadi degan so'z!

– Ilohim shunday bo'lsin... – o'zini tutib olib dedi xola. Keyin Sodiqni bir chetga tortdi. Endi nima qilganda ham men qarib qoldim, bolam, kuzakdagi sariq yaproqman, sal shamol tursa chirt etib uzilib ketishim hech gapmas. Shuning uchun senga bitta iltimosim bor.

- Xo'sh, xo'sh! – jon quilog'ini tutdi Sodiq ham shivirlab.
  - Jannatni endi xafa qilma. Unga tez-tez xat yozib tur.
  - Xo'p, oyijon, xo'p!
  - Umridan baraka topkur, topilmas juvon. O'g'lingni ham uning ixtiyoriga berib qo'yganman.
  - Mayli! Mayli!
  - Onasidan a'lo. Shirin so'zingni undan ayama.
  - Xo'p, oyijon, xo'p.
- Ikki kundan keyin Jannat Adolat xola bilan Maratni provodnikka tayinlab, o'zi Moskva poezdiga o'tib o'tirdi.

## 12. QOCHOQLAR

Ikki haftadan keyin Sodiqni etap ro'yxatiga tirkadilar. Lagyerdan lagerga ko'chirib turish aslida odat, lekin u ko'chadigan odam uchun tashvish: hech kim «issiq joyini» sovutgisi kelmaydi!

– Qayerga ekan, eshitmadingmi? – papiros tutatayotib so'radi Bogun. Uning ham miyasida Sodiqniki singari o'ylar kezib yurgani ko'zidan ayon edi. Sodiq yelkasini qisdi. Shu mahal yana ko'ch ko'targan kishilar ko'rindi. Ular boshqa brigada boshqa baraklardan edi. Ular orasida Dilovarxo'ja ham bor ekan, Sodiqni ko'rdi-yu, qoqilsam, tutib qoladigan bor ekan, degandek, yashnab ketdi. Etap bo'lishini eshitgandan beri yuragini bosgan vahimani unutdi.

– I-ye, Sodiqjon. Siz ham shu yerdamisiz? Mayli, mayli, yaxshi bo'libdi, bir-birimizga hamroh bo'lamiz.

Sodiq javob bergunicha yo'q edi:

– Yuklaringni qo'llaringga olinglar! – degan buyruq bo'ldi.

Bir soatdan keyin etapga chiqqanlar ikki vagon bo'lib, poezd jo'nashini kutardi, Sodiq, Bogun, Dilovarxo'ja bir kupega tushdi. Dilovarxo'ja mamnun edi.

– Omadni qarang, Sodiqjon, niyatimiz bir-da, yana birgamiz. Qayoqqa olib borishar ekan, bilmadingizmi? Uzoq emasmikin?

– Bilmadim. Yurtimizdan chiqib ketmaysiz.

– Chiqaradi deysizmi!

– Rozi bo'lsa chiqib ketarmidingiz? – o'smoqchiladi Sodiq. Dilovarxo'ja sir boy bermadi:

– Siz-chi?

– O'zini bilgan odam uchun muhojirlik ham lagerday gap. Begona qo'raga kirib qolgan itdek doim duming qisiq.

Dilovarxo'ja tili bilan hech narsa demagan bo'lsa ham, Sodiqning bu javobiga dilida qo'shilmadi. U chet el deganda Afg'oniston bilan Turkiyani tushunardi, xolos. O'zi ko'rmagan bo'lsa ham, eshitgan, o'sha o'q otib yurgan yillari eshitgan.

– Siz shunaqa deysiz-ku, chetda jilla bo'lmaganda, mana bulari bo'lmaydi, – Dilovarxo'ja soqchilarni ko'rsatdi.

Sodiq xandon solib kuldi, bu yerdagisini ko'zingiz ko'rmaydi, xolos, bo'lmasa har qadamingizni shunaqa sanab yuradiki, asti qo'yavering!

– Be! – hayron qoldi Dilovarxo'ja.

– Undan keyin, begona yurtga ko'nikish uchun mushukdan batar bo'lish kerak kishi. Axir mushukni ham begona uyga eltib qo'ysangiz qochib keladi-da!

– Qochadi! Qaytib keladi! – gapning tagiga tuzuk tushunmay unga qo'shildi Dilovarxo'ja. Bolaligimda bir mushugim bor edi, adashtirolmay o'lganman, oxiri o'raga tashlab qutulganman.

«Toshbag'irlik qo'ndoqda tekkan kasal ekan senga», degandek Dilovarxo'janing mo'ylovga o'xshagan baroq qoshiga qarab qo'ydi Sodiq.



Poyezd shu ketganicha manzilga yetib bora qolmadi, ikki yerda uzoq to'xtab qoldi. Boradigan yerlari noma'lum va qistalang bo'lmasa ham, mahbuslarning xitini chiqarib yubordi.

– Etapning mana shunisi yomon, qoningga tashna qiladi! – dedi Bogun irg'ib o'rnidan turib. «O'zi bu yer qayer?» deganday, tashqariga qaradi, ko'rmadi, joyiga o'tirdi.

– Yuragingni keng tut, do'stim. Yetib borarmiz ham, u yer ham jonga tegar. Oyog'igni uzatib damingni ol! – dedi Sodiq.

Bogun Sodiq tabaqasidan, aybsiz aybdor. Yuragi toru, o'zi haqgo'y. Sodiq bilan inoqlashib qolgan. Hammadan uning so'zini ma'qul ko'radi. Jahli chiqib turganda ham moviy ko'zlarini pirillatib uning xohishiga ko'na qoladi. Hozir ham shunday bo'ldi. Alamini maxorkadan oldi.

– Hey, do'stim, bu chekishingda meni yeltib qo'yasan-ku, sal evi bilan chek-da!

– Mazasini bilmaysan, bir tortgin, butun dardingni ichingdan sug'urib oladi.

– Rahmat! O'zingga buyursin.

– Ana shu-da, ishonmaysan. Mana, bir tort! La'natini aqlli odam topgan.

– Keling, qo'lingiz qaytmasin! – dedi Dilovarxo'ja va Bogunning qo'lidan o'rta barmoqdek qilib o'ralgan maxorkani chilimga o'xshatib uzoq tortdi. Tutunini bur-nidan burqsatib chiqardi: – Bay-bay-bay! O'zimizning jaydari tamakiga o'xshaydi. Qayoqdan oidingiz bunaqa bir tortganda qulatarini?

– Xotinim yuborgan. O'zi ekibdi.

– Erim ko'p tajang bo'lavermasin, xumorini yozib tursin degan-da, – dedi Sodiq tutunni haydab.

– Xatida ham, sening uchun ekdim, debdi.

– Qani shunga jinday nashadan ham qo'shsang, oromijon-da! – Dilovarxo'ja o'tgan kunlarini – mis qoplagan chilimiga nasha solib chekkan kunlarini eslab, ko'zini suzib qo'ydi.

– O'ldiradi-ku kishini!

– Aksincha, o'pkadagi qurtlarni o'ldiradi.

– Ie, dorining bunaqa xili ham bor deng! – mazax qildi Sodiq.

– Men-chi, – dedi Bogun, – xotinimning shu olijanoblighi uchun qaytib borsam besh yil qo'lini sovuq suvga urdirmas edim!

Sodiq Bogunning erib ketganidan hazilga oldi:

– Ovqatni ham o'zing pishirarmiding?

– O'zim pishirardim!

– Bolalaringni ham o'zing yuvib-tararmiding?

– Yuvib-tarardim!

– Kir ham yuvarmiding?

– Yuvardim!

– Ana shu yerda sal oshib ketding.

– Nega?

– Erkak yuvgan kir ochilmaydi.

– Ochilguncha yuvardim.

– Qo'shnilaring ta'nasiga qolib o'lar ekansan.

– Nega endi! Xotinim mening o'rnimda yer chopib, ariq olganda indamagan qo'shnim. Men uning o'rnida ishlasam kuladimi! Kulsin, naq tishlarini qoqib olarman!

– U xotin, siz erkak, – chertdi Dilovarxo'ja.

– Ana shuning uchun jo'rttaga kirini ham yuvaman.

– Baribir xotining yo'l qo'ymaydi, – dedi Sodiq.

– Mana bu boshqa gap! Buningga ishonaman! Lekin, ochig'ini aytsam, xotinimga jabr bo'lib ketdi. Biror durustroq

hunarga o'qitmaganimga achinaman. Men topib kelibman, u shirin qilib pishiribdi, shunga mast bo'lib yuravergan ekanmiz.

Dunyoda mana bunaqa chigal hangomalar bo'lar ekan-ku! Ha, aytganday, keyingi arizangga ham javob bo'lmadimi?

– Yo'q, xotinim Moskvaga tushib o'tadigan bo'ldi.

– Agar seniki shu yo'l bilan o'ngidan kelsa, men ham xotinimni senikining izidan yuboraman. Lekin, Sodiq, bilib qo'y, qora kunda topishgan do'stlar ajralmas bo'ladi. Tag'in o'zing bilasan-ku.

– Gap bitta, Mikola, agar men oldin chiqsam, ishing bilan o'zim shug'ullanaman. To qiyomat bir-birini unutgan nomard!

Ikki do'st qo'l olishdi, bunga qanoat qilmagan Bogun Sodiqning bo'yniga qo'l solib labidan o'pdi:

– Men oldin chiqsam ham xuddi shunday qilaman!

Gap maromiga borib taqalgan edi. Ikki do'st jim qoldi, faqat yo'lga chiqqan poezdning «Haq gap! Haq gap!» degandek g'ildirak tovushi eshitilardi. Yomonga kun ham qorong'i, tun ham, degandek, ikki o'rtoqning samimiy qasami Dilovarxo'janing g'ashini keltirdi. «Ming qilsa ham Sodiq o'risparastligiga boradi!» deb qo'ydi ichida. Ko'ziga Bogun xunuk ko'rinib ketdi.

Poyezd shu yo'lga chiqqanicha faqat katta stansiyalardagina to'xtab, mahbuslar vagoni hech qayerda uzib olib qolinmadi. Bundan xotirjam bo'lgan Sodiq, endi manzilga yetib oladigan bo'ldik, deb qorong'i tushishi bilan uyquga ketishdi. Sodiq bir uyg'onib, ikkinchi yonboshiga ag'darilganda ham hali tim qorong'i, kimdir pixillab, kimdir chiyillab xurрак otib, hamma miq etmay uxlab yotardi. Lekin Sodiq tong yaqinligini uyqusi pishib qolganidan bildi,

shunday bo'lsa ham ko'zini yumdi. Endi ko'zini uyqu eltishi bilan samoiyotlarning juda past uchganini eshitdi. Shu tovush bilan uyg'ongan bo'lsa ham, hech narsadan xavotir olmay, «qayerda to'xtab turibmiz?» degan fikrni xayolidan o'tkazdi, xuddi shu payt samoiyotlarning sho'ng'igani, ketidan ustma-ust portlash eshitildi.

Bu portlash shunday yaqinda ediki, ularning vagonini larzaga soldi, oynalari chilparchin bo'lib ketdi. Hamma birdan uyg'onib, nima gap ekanini fahmlagunicha bo'lmay, yana portlash, qars-qurs hamma yoqni tutib ketdi. Sal o'tmay yana qaytalandi. Shu qaytalanishida bir bomba ular vagonining shundoqqina yoniga tushib, uni izdan ag'darib, parchalab yubordi. Sodiq ana shundagina stansiyada betartib qiy-chuv boshianganini, allaqayer yonib, allanimalar ag'darilib tushayotganini ko'rdi. Tutundan ko'z ochib bo'lmas edi. Sodiq avvaliga nima qilishini bilmay ko'zi tushgan tomonga qochdi. Jonni saqlash kerak edi. Stansiyadan chopib chiqqach, ko'zi tushgan chuqurga o'zini otdi. Bu yer nazarida uni xavfdan saqlay olardi. Shunday bo'lsa ham o'lim quvib kelayotgandek orqasiga qarab qo'ydi. Qorong'i tun edi. Faqat vagonlar va shu atrofdagi ba'zi binolarning burqsab yonishi tevarakni yoritib turadi. Hamon stansiya ustida samolyotlar doira yasar, payti-payti bilan sho'ng'ib, bomba tashlab turardi. Har safar portlash atrofni larzaga keltirib, temir yo'l izlarini yer bag'ridan ichakdek sug'urib olib uloqtirar, vagonlarni parcha-parcha qilib tashlar, yondirar, yangi bir qiy-chuvni avjga chiqarar edi.

Sodiq o'ylar girdobida ekan, kimningdir o'ziga tomon yiqila-yiqila chopib kelayotganini ko'rdi. «Chasovoy meni qidirib yuribdi, shekilli!» degan o'y miyasiga kelib, mahbusligini, vagon quiashi bilan bu yoqqa qochganini esladi. Astoydil qochish niyati yo'qligi, faqat jonini saqlab

bu yerga kelgani uchun, xavotir olmay joyida tura berdi. Lekin yelib kelayotgan u odam chasovoy bo'lib chiqmadi.

– Kim u? – nido berdi Sodiq.

– Sodiqjon, sizmi! – deya orqasiga qaytdi Dilovarxo'ja. U yetib kelib, Sodiqning oyog'iga o'zini tashladi. Bu yerda nima qilib turibsiz? Qochmaysizmi?

– Ha, aytgandek, Bogun qayoqda?

– Birga edik. Hu anavi yerga kelganimizda bomba gumburlab qoldi-yu, bir-birimizni yo'qotdik.

– Satqayi odam keting! – koyidi Sodiq. – Kishi shunaqa vaqtda ham sherigini tashlab qochadimi!

– To's-to'polonni ko'rmaysizmi, sichqonning ini ming tanga bo'lib ketdi.

– Xo'p, mayli, siz shu yerda turing, men darrov xabar olib kelaman.

– Ey, ushianib qolasiz.

Sodiq uni eshitmadi. Elib ketdi. Oldida birdan bomba portladi. O'zini yerga otdi, yana turib, Dilovarxo'ja ko'rsatgan tomonga engashganicha yugurdi.

Sodiqning bu kuydi-pishdiligi Dilovarxo'jaga hech ham yoqmadi, uni qidirib nima qiladi? Hozir birovni izlaydigan vaqtmı? Mendan ko'ra, o'sha senga aziz ekan, u bilan qolaver. Men ketdim. Har kimning go'ri boshqa, to'ri boshqa. Daryo bo'lsang oyog'imni yuvmadim.

Shu xayollar bilan Dilovarxo'ja to'sh berib yotgan yeridan irg'ib turdi. Barini qoqib, chuqurlikdan chiqdi. Bir oz yelib ketdi. Lekin birdan to'xtadi, qayoqqa borishini bilmay qoldi. «Xo'p, hozir-ku, qochaman, bir kavakdan boshpana toparman. Keyin-chi! Keyin nima bo'ladi. Bu tomonlarni bilmasam. O'zi qayerdaman hozir? Ko'rgan kishi o'sha zahotiyoy hiqildog'imdan xippa bo'g'ib, duch kelgan milisiyaga berib ketadi. Keyin nima?

Dilovarxo'ja shaxtidan tushib orqasiga qaytdi. Bogunni ming baloga giriftor qilib qarg'adi. Sodiqning unga mehri tushib qolganidan xafa bo'ldi. Shu vaqt oshna qidiradigan paytmi! O'zingni bil, o'zga bilan nima ishing bor? Sening boshingga qor yog'sa, Bogun kuyarmikin! Tili boshqa, dini boshqa bo'lsa...

Uzoqda ikki sharpa ko'rindi. Bular Sodiq bilan Bogun edi. Bogunning kiyim-boshlari yirtilgan, bosh kiyimi qayerdadir tushib qolgan. Dilovarxo'jani ko'rishi bilan achitdi:

– Qoyilman! Quyondan ham oyog'ingiz yengil ekan. Ustimga tushgan taxtalarni olib tashlang, deb shuncha baqiraman...

Dilovarxo'ja Bogunning chaqirganini eshitgan bo'lsa ham, o'z joni ko'ziga shirin ko'rinib, juftakni urib qolgan edi. Lekin u qasam ichdi. Til tortmay o'lay, eshitgan bo'lsam!

Barcha sofko'ngil kishilardek, Bogun bilan Sodiq ham bunga ishonishdi.

Dilovarxo'ja, xayriyat, ishontiroldim, deb yengil nafas oldi.

Bogun qo'lining shilingan erini dastro'moli bilan bog'ladi. Shunga ham shukur qilgandek:

– Ancha odam nobud bo'ldi, – deb qo'ydi.

– Nimasini aytasiz, mening yonimda ikkitasi «mama» deganicha yer tishlab qoldi. Jon holatda ustidan hatlab bu yoqqa o'tsam, yana bittasi qop-qora qoniga belanib yotibdi. Odam narxi arzon bo'lib ketdi. O'zi nima gap?

Bogun ham, Sodiq ham Dilovarxo'janing bu savoliga javob berishdan ojiz edi. Vagon qulab, esini o'nglab olgan lahzadan beri ularning ham o'ziga bergan savoli shu edi.

Ular tun qorong'iligida jadallab stansiya atrofidan ancha chetlab olishdi. Ularning baxtiga, stansiya shaharning

chetrog'ida bo'lib, tong yorishguncha toshloq dala yo'liga chiqishga ulgurishdi.

- Tong yorishi bilan ularning ko'nglidagi savolning javobi ham ravshan bo'ldi: Gitler shartnomani buzib, urush ochgan!

Jumboqning yechilishi uch qochoqning endi nima qilishini ham belgilab berdi. Qiziq ustida qochishga qochib qo'yib, «bu yog'i endi nima bo'ladi?» deb ming bir xayolda borayotgan Sodiqning fikrini tizginladi, qat'iy qarorga keltirdi:

- Modomiki urush boshlangan ekan, biz uchun yo'l bitta: front! Ertaga yalpi safarbarlik boshlanib, har odamning joyi front bo'lib turganda orqaga qaytib lager panjarasidan tomosha qilish ham, qochoq bo'lib bir kavakda mog'or bosib yotish ham men uchun malol keladi. Arg'amchiga qil quvvat, men frontni tanladim.

Bu fikr, yurtimiz keng bo'lgani bilan bu qochoqlikda hech qayerga sig'maslik kerak, deb kelayotgan Bogunga ham ma'qul tushdi, u ikkilanmay:

- Sen nima bo'lsang, men ham shu! - dedi.

Faqat Dilovarxo'ja ikki o't o'rtasida edi. Mabodo yo'q desa, qayerga boradi? Endi nima qildi? Tikanli simdan qochib, o'tga kirishga hech toqati yo'q edi. «Hozircha rozi bo'laveray-chi, keyin yo'limni topib ketarman», dedi-yu, iljaydi:

- E, Sodiqjon, mendan so'rab nima qilasiz, men qo'lingizda bir parcha loyman, istasangiz zoldir qilib dumalatasiz, istasangiz sopqonga solib otasiz. Siz nima desangiz, shu-da!...

Lekin halimday bo'lib tilyog'lamalik qilgan bu «bir parcha loy» harsang bo'lib Bogunning boshini yedi.

Yo'lda bir tepalikdan oshib, jarlikka tushishdi. Bogun dumalab ketib oyog'ini mayib qildi. Oldiniga arzimagan bo'lib ko'ringan bu og'riq kechga borib alamga kirdi, shunaqa alamga kirdiki, tuni bilan ajriqqa ag'anab chiqdi. Ertalab bundoq qarasa do'mbira bo'lib ketgan. Keyin ma'lum bo'ldiki, o'ng oyog'ining to'pig'i chiqib, undan sal yuqorisi singan ekan. Oldiniga Sodiq, ketidan Dilovarxo'ja «tabiblik qildi». Hech narsa chiqmadi. Ertalab cho'g'dek yonib turgan oyoq tushga borib mo'mataloqqa aylandi. Shu shishib borishida kechga qolmay paqillab yoriladigan ko'rinardi.

Bogunning bardoshi tugab, o'limiga rozi bo'ldi, bir tomondan og'rig'iga chidamasa, ikkinchidan, u tufayli hamrohlari yo'ldan qolyapti. Uning bu yotishi ayniqsa Dilovarxo'jaga malol kelayotgani ko'rinib turibdi. Sodiq sokin. Uning dardi ichida.

Bogun sheriklarini yoniga chaqirdi:

– Mening ishim tamom. Oyoqqa turganim bilan ham baribir frontga yaramayman. Sizlar ketaveringlar. Men bir amallab biror qishloqqa yetib olamanu, u yog'ini baxtimdan ko'raman.

Sodiq sakrab tushdi: – Seni tashlab-a!

– Boshqa qanday iloj bor? Meni deb sizlar ham nobud bo'lmanglar, deyman-da! Gojlik bilan toshni tepsang, oyoq og'riydi, xolos.

Sodiq ko'nmadi.

– Yo'q, – dedi u, – kuchimiz yetgancha olib boramiz. Juda bo'lmaganda biror tayinlik yerga qoldirmaguncha men hech qayoqqa ketmayman. Gap shu!

Sodiqning fe'lini bilgan Dilovarxo'ja qanchalik g'azablanmasin, bir narsa deyishga ojiz, degan chog'ida ham gapi yerda qolishiga ishonardi.



Cho'ntagida qo'lini musht qilganicha baqrayib turaverdi.

– O'zingiz bilasiz, serkamiz siz, – dedi u pichingnamo.

– Uning o'rnida siz bo'lsangiz, tashlab ketsak xursand bo'larmidingiz?

Dilovarxo'ja yalatma javob qildi:

– Men sizga tashlab keting deyapmanmi! Men mayib qilganday gapirasiz-a?

– Aslida Sodiqning bu gapi Dilovarxo'janing u-bu yog'idan o'tib ketgan, qani endi avvalgi vaqt bo'lsa-yu, bir imo bilan ikkalasini tavbasiga tayantirsa! Tishini tishiga bosdi, qo'lini cho'ntagida qattiqroq musht qildi. Inqillab yotgan Bogunga qarab g'azab bilan baroq qoshini chimirib qo'ydi.

Sodiq o'ylab o'yining so'ngiga yetolmas edi. Albatta Bogunni bu yerga tashlab ketolmaydi, tashlab ketishi insofdan emas, hatto pastlik. Bu uning qo'lidan kelmaydi. Ming xil reja bilan bu kun ham o'tdi. Ertalab Sodiq barvaqt uyg'onib, chaqqonlik bilan jardan chiqdi.

– Xo'sh, yo'l bo'lsin? – dedi ko'zi ochiq yotgan Dilovarxo'ja. U Sodiqni o'z gapi bilan yolg'iz qochib ketyapti, deb o'ylagan edi. Atrofni bir aylanib kelay, zora Bogunga biror joy topsam. Bechora kechasi bilan isitmasidan alahlab, bola-chaqasi bilan gaplashib chiqdi.

– Bildim, – dedi Dilovarxo'ja achingandek, – yomon bo'ldi.

Sodiq ketishi bilan Dilovarxo'janing mudhish g'azabi yana to'lqin urdi. «Agar shu la'natining oyog'i lat yemaganda, ancha yerga borib qolardik. Xudo ko'rsatmasin, qidirib qolsalar bormi, ish rasvo! Shundoq qo'ltig'ining tagida yotibmiz-a! Ikki tug'ishib, biri qolgandek joni achiydi Sodiqning. Tavba, manglayidan oy ko'rdingmi! Mana hozir yana shuni deb, jonini tikib allaqayoqqa ketdi. Hali ketidan

birorta shumoyoq ayg'oqchini ergashtirib kelib ishning rasvosini chiqarmasa edi! Yo'ldan tutilib qolishimizga ham, xavf ostida kechadan beri o'tirishimizga ham mana shu inqillab yotgan Bogun sabab. Shu o'ladi-yu, biz qutulamiz. O'larmikin? O'zi kichkinagina bo'lsa ham, joni itnikidan qattiqqa o'xshaydi. Bizning boshimizni yeb, o'zi omon qolmasa edi! U tirik ekan, Sodiq undan ajralmaydi».

Dilovarxo'ja birdan ko'zlarini chaqchaytirib, mo'ylovga o'xshagan qoshini kerdi. Ro'paradan o'q yeganday bujur yuzi yiltillab ketdi. «Joniga Azroil chang solishini kutib o'tirmasdan... o'zini uning bag'riga itarib qo'ya qolish kerak...»

Dilovarxo'ja qat'iy bir qarorga kelgan kishidek Sodiqning orqasidan chiqib, asabiy alanglab uning uzoqlashuvini kutib turdi. Pastga shoshilinqirab tushdi. Bogunning boshiga keldi. Basharasidan bir narsaning izini qidira-yotgandek, bir lahza qarab turdi. Bogun kechasi bilan qiynalib, tongga yaqin uyquga ketganicha hali qimir etmay yotardi. Og'riqning zo'ridan sarg'ayib ketgan oriq yuzlari, mayin kipriklari qilt etmas, mayib oyog'ining tizzasini murg'akdek quchoqlab oigan, dunyo tashvishlaridan xoli kishidek sokin yotardi.

Uning za'faron yuzi, ozib-to'zib ketgan chakaklari rahmini keltirmadi. U rahm qiladigan alpozda emas edi. Unda o'sha bosmachilik yillarining yovuz hirsu uyg'ongan, ko'ziga qon to'lib ketgan edi, u shunday yovuzlik, tajribali qotilga xos sovuqqonlik bilan ish tutardi, hatto qo'li titramas edi. Shunday bo'lsa ham yana jordan chiqib, atrofga alang ladi. Sodiqning uzoqlashib ketishiga qanoat hosil qilgach, barini orqasiga siltab tashlab pastga o'zini urdi, to'g'ri kelib, och qashqirdek Bogunning tomog'iga chang solib, ustiga o'zini tashladi. Jon talvasasida tipirchilashiari tingan, hatto

mayib oyog'i uzatilib qolgan bo'lsa ham, Dilovarxo'ja uning o'lganiga gumon qilib ancha vaqtgacha qo'lini bo'g'zidan olmadi. Lekin o'rnidan turganida qora terga botgan, tizzasi titrar edi. Bushlatining bariga yuzlarining terini artdi.

Bogunning ko'ziari ochiq qolgan edi. Bu qotil Dilovarxo'jani titratib yubordi, u ko'zlarni yopishga jur'at yetmay, Bogunning qalpog'ini yuziga tortib qo'ydi. Bir oz o'zini tutib olgandan keyin, Sodiq bilan bo'ladigan savol-javobini bir karra ko'nglidan o'tkazib qo'ydi. Agar Sodiq Bogunning o'zi o'lganiga ishonmay, gumonsiraydigan bo'lsa, u bilan ham hisob-kitob qilishni mo'ljallab, hujumga hozirlik ko'rdi.

Sodiq esa, qaytmas edi. Shu payt Dilovarxo'janing yuragi siqilib, achchiq chilim chekkisi, o'sha «dovruqli yillari» qo'ldan tushmagan mis qoplama chilimining olovini bir qarich gurillatib chekkisi keldi. Qani u chilim? Sarxanasi uchib, qayerlarda pachoqlanib qolib ketgan! Shunda Bogunning vagonda bir tortib bergan achchiq tamakisini esladi.

U asta bosib jarga, murdaning oldiga bordi. Bogun bir qo'li bilan tuproq changallaganicha yotardi. Qotil uning cho'ntagiga qo'l solib, bo'g'ma to'rvadagi tamakisini oldi, o'rab chekdi, to'rvachani esa, og'zini yaxshilab bog'lab o'z yoniga solib qo'ydi.

Sodiq anchadan keyin qaytdi. Uning qaytishini jar yoqasida mo'ralab kutib o'tirgan Dilovarxo'ja egasini tanigan itdek qarshisiga yugurdi. Nafasi og'ziga tiqilib, gapira ketdi:

– Bogun o'lib qoldi. Uyg'ondi-yu, tomog'ini bo'g'ib, tipirchiladi, suv so'radi. Suv tamom bo'lgan ekan, chopib ketdim. Olib kelgunimcha olamdan o'tibdi. Endi nima qildik, yaxshi yigit edi rahmatli! Oldiga tushgani yuragim betlamay, boyadan beri sizni poylab shu yerda o'tiribman.

Sodiq «o'lib qoldi»dan boshqasini eshitgani yo'q, chopib ketdi, go'yo Bogun hali o'lib qolmaganu, tezroq borsa olib qoladigandek, yelib ketdi. Dilovarxo'ja undan uzilmay, oldinma-keyin chopib, o'lim tafsilotini aytib kelardi. Sodiq jarga o'mbaloq oshib ketgudek yelib tushdi, bir-ikki toshga qoqilib, dumalatib yubordi. Uning bittasi xuddi Bogunning yoniga borib to'xtadi. Bogunga tegib, ozor yetkazadigandek Sodiqning yuragi shig'illab ketdi.

Sodiq entikkanicha kelib, do'stining yuziga yopib quyilgan qalpog'ini oldi, go'yo shu qalpoq Bogunning nafasini qaytarayotgandek tuyuldi Sodiqqa. Bogunning ochiq qolgan bir ko'zi «qayoqqa keta qolgan eding? Senga so'nggi marta boqish va mudhish voqeadan senga guvohlik berish uchun yumilmay turibman. Mana seni ko'rdim, endi o'zing meni yopib qo'y!» degandek tosh qotib turardi. Kutilmagan bu fojidan gangib qolgan Sodiq do'sti qoshida gir aylanar, tomirini ushiab ko'rar, ko'ziga boqardi. Uning badani soviy boshlaganini sezsa ham, o'lganiga ishongisi keimas edi. Dilovarxo'ja esa murdadan qo'rqadigan kishidek bir chetda turar, boshini quyi solib Sodiqni «achinish» bilan kuzatardi.

– Juda qo'rqib ketdim, Sodiqjon, yuziga qarashga yuragim yo'q. Ko'zini yopib qo'ysangiz-chi!

Sodiq indamay, uning aytganini qildi. Shundan keyingina Dilovarxo'ja Bogunga yaqinroq keldi:

– Ikki marta sizni so'radi. Xayriashmoqchi bo'lgan ekan-da bechora. Aksiga olib, so'nggi damida boshida bo'lmadingiz. Qadrdoningiz edi, og'ziga o'zingiz suv tomizar edingiz. Mendan buyurdi.

– Qayoqdan bilaman bunaqa bo'lishini! – dedi sodda Sodiq, uning gapiga ishonib. U o'zini Bogun o'limida gunohkordek his qildi. Buni payqagan ayyor Dilovarxo'ja yonlatib hujumga o'tdi:

– Axir kechasi alahlab chiqqanini o‘zingiz gapirib turgan edingiz, yana ketib qoldingiz.

– Qiziqmisiz, alahlagan o‘laveradimi! Dardi bor har qanaqa kasal ham kechasi bezovta bo‘ladi-da!

Dilovarxo‘ja Sodiqning qarshilik bildirganini ko‘rib, darrov yon bosdi:

– Ha, rost. Bundoq bo‘lishini tush ko‘ribsizmi! Bizning qishloqda bittasi qirq kecha alahlagan ekan. Shundan keyin tuzalib, evara-chevara ko‘rgan. U emas, bu emas, ko‘rgilik, yetgan ajal. Issiq jonning ishi shunaqa. Yutgan nafasing qaytib chiqish-chiqmasligi xudoyi taoloning o‘zidan boshqa hammaga sir. Bandaning ishi shu, Sodiqjon, lip etib chiroqdek o‘chadi-qoladi.

Sodiq hech narsa demas edi. Kutilmagan bu musibat uning idrokini shol, fikrini o‘tmas qilib qo‘ygan edi. U faqat murdaning atrofida aylanardi...

Dilovarxo‘ja ko‘rdiki, Sodiq shoshib qoldi. Uni yo‘lga solmasa, o‘lik atrofida girdikapalak bo‘lib vaqtini o‘tkazadi.

– Sodiqjon! Tepasida yosh to‘kib turishingizning endi foydasi yo‘q, – u o‘pkasi to‘lib, ko‘ziga yosh quyilib kelgan kishidek entikib, dastro‘molini ko‘ziga tutdi, dimog‘ini ustma-ust chuqur tortdi, – nachora, qismati shu ekan! Vaqti soatida joyiga qo‘yaylik, bir kaft tuprog‘i shu yerdan olingan ekan. Nachora!

Quyosh jar ichiga qiyalab boqib, uning ingichka irmog‘ini pichoq damidek yiltillatganda Bogunni yerga qo‘yishdi. Sodiq qizarib ketgan ko‘zlaridan yoshini artib, do‘sti ustiga shag‘al aralash ho‘l tuproq tortardi...





### III QISM

#### 1. EL BOSHIGA ISH TUSHGANDA

Xotini urush boshlanganini aytgani kriganda Mirsalim dong qotib uxlab yotardi. Xotining yig'lab:

– G'aflat bosmay o'lsin, turing, dunyoga o't ketdi! – deganini ham eshitmadi. Xotin jon holatda yelkasidan silkigan edi, arang ko'zini ochib:

– Yuz gramm bormi? – dedi.

– Yuz gramm ham o'lsin! Urush boshianibdi!

– A.

Mirsalimga ana shundagina yetib bordi. Irg'ib turib, o'rniga o'tirdi. Qovog'i shishib, mijjalarining cheti yopishib qolgan ko'zlarini ishqaladi. «Nima deyapsan?» – degandek xotiniga boqdi. Xotiniga ham faqat erini uyg'otish, unga urushning boshlanganini bildirishgina kerak ekan shekilli, indamasdan chiqib ketdi. Eshikni yopa turib:

– Kap-katta odam... – deb qo'ydi.

Xotin bu bilan yarim kechada ichib kelib, shu vaqtgacha uchib yotgan eriga «achib suyilmagan, qarib quyilmagan» deb ta'na qildimi, yoki uyning bir chetiga qayt qilib qo'ygan «kap-katta odamdan» nafratlandimi, bilib bo'lmas edi.

«Urush» so'zi Mirsalimning ko'zini ochirgan bo'lsa ham, hushiga keltirmadi, paxtavon o'qdek pang yetdi-yu, jarohati ko'rinmadi. Erinibgina o'rnidan turib, ikki qadam

qo'ydi. Boshi karaxt, og'zi elim edi. Xotini kechasi boshiga qo'ygan choynakdan muzday suvni simirish oldidan bir kavshanib, keyin tufurdi: milklari qonab ketibdi!

Muzday suv bir necha lahza ko'zini moshdek ochdi, ana shunda o'ylab ketdi: kecha «tagi ko'rgan» bir o'rtog'inikida mehmonda edi. Anor suvini zakuska qilib ancha ichdi. Qazini parraklagani esida. Dumba-jigardan olib turdi. Yonida o'tirgan gap-so'zidan juda tayyorga o'xshab turgan bir so'rqildoqqina beva o'qituvchining soniga qo'l yuborgan edi, qo'lini ombirdek chimchilab oldi, bunga ham izzat-nafsi qonmadimi, «turqing qursin, bit ko'z» deganday shunaqa bir xo'mraydiki, Mirsalim joyini o'zgartirishga majbur bo'lib qoldi, hovliga chiqib kelib, o'sha xotin ko'zi tushmaydigan tomonga o'tib o'tirdi. Sherigi:

– Ha, u yerdan mix chiqdimi? – degan edi.

– Stul noboproq ekan, yana sindirib tovoniga qolmay, – degan bahonani qildi. Yana ikki ryumkadan keyin xotindan yegan dakkisi esidan chiqdi. «Sen, to'nka, mendan hazar qilib o'tiribsan, hali mening shunaqa hunarim borki, kokil yoyib o'zing kelasan oldimga», deganday tanburni olib mashq qildi, birining ketiga boshqasini uladi. Kuyning oxirini oliftagarchilik bilan chertib, tanburini yoniga olib qo'yarkan, hammadan rahmat yog'ildi. Haligi chimchilagan xotin ham ko'p qatori qisqagina qilib tashakkur aytdi. Buni payqagan Mirsalim: «O'l-a! Yoningdan ketganimga endi achinayotgandirsan!» – deb qo'ydi ichida. U xotinning ko'ngli suv ichib qolganiga endi hech shubha qilmas edi.

Sho'rva tortilib, ichkilik qizigandan keyin xotinlar boshqa uyga chiqib ketishdi. Xotining «bas, bo'ldi!» deb tirsak turtishidan qutulgan erkaklarning «biti to'kildi». Norinni qanaqa qilib qorganini Mirsalim elas-elas eslaydi, lekin norin tortilganini bilmaydi. Bir-ikki oshamni og'ziga

solganini sal-pal xotirlaydi, lekin uni yutdimi, qaytib tashladimi, hozir ayto olmaydi. Bir mahal ko'chaga chiqsa, hali tegishgan xotini ham kishilar bilan xayr-xo'sh qilib ketyapti. Ketidan ergashdi. Bir-ikki gap tashladi. Xotin indamadi. Mirsalimning nazarida, xotin boyagi qilgan madaniyatsizligidan xijolatda, Mirsalimning boshqa yerga qo'yib chalgan tanburidan erib ketgan, qo'rg'oshindek qalqib turibdi, istagan qolipga solib olsa bo'ladi!

Xotin uning luqmalariga og'irlik bilan javob qilib bordi. Mirsalim bilib bilmaslikka olib biqiniga tegib ketgan edi, bunga ham indamadi. Mirsalim yana bir pog'ona ko'tarildi. Xotinning bir juft qamchidek uzungina, baquvvat sochini ushlab tegishdi:

– Ulamamasmi?

– Yo'q, ulamani siz olib berasiz-da.

– Jonim bilan! O'zi qayerda sotadi?

– Olib beradigan odam, sotadigan yerini bilmaydimi? – xotin jilpangladi. – Yangamga qayerdan xarid qilgan edingiz?

– Yangangizni qo'ysangiz-chi, jonginam, sharti ketib, parti qolgan. U kishiga ulamani kim qo'yipti.

– Hamma erkaklar ham shunaqa: begona xotinni ko'rganda, uyidagini yomonlaydi.

– Yo'q, rost gapni aytyapman. Shu mahal oldingizdan chiqib qolsa bormi, naq labingizga uchuq toshib ketadi!

Xotin indamadi. Mirsalim, eritdim, qo'lga oldim, deb shilqimlikka ko'chdi. Bu mahal xotin uyiga yetib qolgan edi. To'xtadi. U pastki labini tishlab turar, ko'zi nimadandir chaq nab yonardi.

– Men yetdim, – dedi u. Keyin sun'iyroq kuldi. Kayfdan ko'zi qisilib borayotgan Mirsalim buni payqamadi, u changakdagi go'sht ostida «sapchisam olamanmi, yo'q-mi?» degan mushukday, labini yalab, suqlanib turardi.



– Ulamani endi qachon olib beradigan bo'ldingiz? – so'radi boyagiday yasama kulib xotin.

– Istasangiz ertaga-da, jonim! – yalpangladi Mirsalim va xotinning bag'riga qo'l yubormoqchi bo'ldi.

– To'xtang! Hali tashlab ham qocharsiz, – dedi xotin bir qadam orqaga tisarilib. – Hu anavi ko'rinib turgan eshigim. O'g'ilcham bilan ikkimiz turamiz. Erimdan ajraganimga bu yil besh yil to'ladi.

Bu gaplarni eshitgan Mirsalimning «naqdiga yo'liqdim», deb ko'ziari lo'q, xayolida oppoq to'shalgan sim karavot edi.

– Yo'lda yolg'iz kelgani cho'chirdim. Kuzatib kelganingiz uchun rahmat. Men sizni yaxshi bilaman, Mirsalim aka, xotiningizni ham taniyman. Boring uyingizga, har ko'ringan juvonga ergashib, tilingizni osiltirib yurmang. Ulamaning pulini yangamga berib qo'ying, ertalab o'sha kishidan olaman.

Xotin istehzoli kulib, shart orqasiga burilib ketdi. Mirsalim turgan yerida shalvirab qolaverdi. Uning qimirlashga madori yo'q edi. Faqat milisionerning hushtagi va «kim u?» degan nidosi unga jon kiritdi. U gandiraklab, ikki bor ariqqa yiqilib, uyiga yetib kelganda qo'shnisining babaq xo'rozi tong yulduzini qanot qoqib qutlamoqda edi...

Mirsalim bir piyola muzday suvning daldasida ana shularni eslab, yuragi orqasiga tortib ketdi. Urushdan ham tundagi ahvoli ko'ziga dahshatli ko'rindi, chunki ming qilganda ham urush uzoqda, bu sharmandalik esa, chaqirsa eshitilgudek joyda, halizamon sharmandasini chiqarishi mumkin. «La'nati nima qilib yonimga o'tira qolgan ekan, – o'zicha pushaymon bo'ldi, – men ham xotinimni olib borganimda-ku, olam guliston edi. Lekin xotin bilan yayrab bo'ladimi! O'zi kim edi shu xotin? Qaysi

maktabda ishlardi? Ortiqcha shilqimiik qilganim yo'qmi? Shu vaqtda «ulamaning pulini bering» deb kirib kelib qolsa-ya! Ana sharmandaligu, mana sharmandalik!»

Shuning vahimasi bilan Mirsalim naridan-beri kiyinib ko'chaga chiqdi. Ko'cha har kuni ko'rgan ko'chasiga o'xshamas edi. Odam qaynaydi. Odamiar xomush, lablar qisiq. Qadamlar zarvorli, ko'zlar tashvishli. Radio karnaylari bor ovozi bilan gitlerchi Germaniyaning jinoyat-korona urush boshlagani haqida olamga jar soladi. Odamlar to'p-to'p bo'lib jon qulog'i bilan eshitishadi. Ana, bir kampir yig'lab, doka ro'molining uchini himarib, ko'zini artdi. Boshqa biri Gitlerni «to'ng'iz qo'pdiradi», asabdan soqoiini hadeb tutamlayotgan chol Gitlerning sag'anasiga tosh qalaydi, yosh juvon erini qo'ltiqiab turish g'animatday, erta-indin shunga ham zor bo'lib qoladiganday uning qo'ltig'iga kirib ketgudek bo'lib, ikki qo'llab ushlab turibdi, boshqa biri tashvishdan yonida yig'lab kelayotgan bolasini eshitmaydi, har kuni kulgisi bilan ko'chani to'ldirib yurgan yoshlar bugun sokin, kulgi o'rniga allanimani kuyib-pishib gaplashadi, bir-biriga ma'qullaydi. Xullas, mamlakat boshiga zo'r tashvish tushgani yettidan yetmish yoshgacha hammaning fikri-zikrida. Faqat Mirsalimgina katta daryoning, to'lqinli daryoning bir chetida oqimdan uzilib, bir joyda aylanayotgan cho'pdek baqrayib turardi. Bu uzoqqa cho'zilmadi, to'lqin uni ham qamrab ketdi. Ana shundagina u kechagi xotinning «ulamaning pulini bering!» deb odamiar orasidan chiqib qolishi, uni sharmanda qilishi mumkin emasligi, yurt boshiga tushgan mushkulot oldida o'zining tashvishi urvoqqa ham arzimasligini fahmlab, ancha yengil tortdi, «shunday paytda janjal ko'targani keladimi» deb o'zini yupatdi. Uyiga qaytib, yuz grammni xotinidan o'g'rincha yutib, o'rniga o'zini tashladi. Xotining:

– Ha, yana uyqumi? – deganiga.

– Boshimni sal remont qilib olay, – dedi va orqasini o'girib oldi.

– Kamroq iching, sizni birov zo'rlamagandir. Yo zo'rladimi?

«Zo'rlash» so'zi Mirsalimning xayoliga ichkilikni emas, tundagi xotinni keltirdi. «Obbo la'nati, ertalab kelgan ekan-da!» deb yuragi shuvillab, ko'z oldi jimirlab ketdi. Xotini tomonga birdan ag'darildi.

– Kimni zo'rlabman? – balanddan keldi Mirsalim. Bu kutilmagan dag'dag'adan cho'chib ketgan xotin past tushdi:

– Birovni zo'riabsiz deyaqmanmi! Ichkilikni...

– Ha, bunday demaysanmi! Mening qulog'imga.

Mirsalim yana orqasiga ag'darildi. Xotini piching qildi:

– Ha, endi bir kamingiz birovni zo'rlash qoluvdi. O'tgan yil Qayum qo'noqning to'yida o'yinchi qizga pul qistira turib, tomog'idan ushlaganingizni to'rtta xotin yig'ilishsa hali-hali gapirishadi.

– Buni ham yigitning yuragida o'ti bor, qoni o'ynab turgani qiladi! – chiranishnamo hazil qildi Mirsalim.

– Sizning qoningiz qaynoqmi? Men sezmayman-ku! – rashk bilan achitdi xotini. Bu gap chiranchiq Mirsalimning erlik nafsoniyatiga tegib, sirini fosh qilib qo'ygandek bo'ldi. Boshini ko'tarib, xotinigga yelkasi osha sigir qarash qildi: uning ko'zlari qinidan chiqib ketay derdi.

– Qaynog'ini ko'chada sovitib kelaman!

Erining astoydil jahli chiqqanini ko'rgan xotini indamadi, faqat chiqib keta turib, chimchilab oldi:

– Ehtimol...

Bu gap Mirsalimga boyagidan ham alam qildi. Lekin tundagi xotin kelgan bo'lsa, yana «oltin to'rva»ning og'zi

ochilib ketmasin, degan xayol bilan achchig'ini ichiga yutdi. Agar shu tomondan xavfi bo'lmaganda xotiniga «biror bo'yni yo'g'onini topgan bo'lsang, ketaverishing mumkin» degan bo'lardi.

Urushning butun dahshatini Mirsalim ertasiga maktabga borganida sezdi. Kechagi kunni uyda xotini bilan adi-badi aytishib, bachkanalashib o'tkazganiga hayron bo'ldi.

Mirsalim o'zi shunaqa: bir narsaning ta'mini ham, dahshatini ham o'tib bo'lganidan keyin biladi, biladi-yu, vaqtida payqamaganidan ajablanadi, yomon narsaning o'tganidan xursand bo'lsa, shirinini sezmaganidan achi-nadi. Hozir ham shunday bo'ldi. Kechagi eng dahshatli kun vahimasini shunday yengil-yelpi o'tkazganidan mamnun.

Bir haftada maktab yoshlardan bo'shab qoldi, maktab tugul shahar bo'shab qoldi. Voenkomat eshigida odam tirband. Kuniga vokzaldan kolonna-kolonna harbiy eshelon jo'naydi. Bugun ko'rgan odamingdan bir haftadan keyin allaqaysi shahardan «frontga ketyapman» yoki «harbiy tayyorlikdaman» deb xat keladi. Bu yerda qolganlarning ham butun xayoli frontda. Frontdan esa kuniga aholi yashaydigan qandaydir punkt, ba'zan esa butun bir shaharning «qattiq janglardan keyin tashlab chiqilgani» haqida ko'ngilsiz xabarlar keladi.

– O'ho', qadam olishi tez-ku! – dedi Mirsalim ertalab radioga quloq solib. Keyin tishini ko'rsatmay sal ishshayib qo'ydi.

Yana bir hafta o'tdi.

Mirsalim yuzini yuvmayoq radio yoniga keldi. Eshitmay qoladigandek qo'lini qulog'i orqasiga hovuch qildi. Yana noxush xabar.

– Zo'r! Kelishi yomon, – dedi, keyin toychaday o'ynoq-lab yuvingani ketdi. «Qichqir, xo'rozim» ashulasini xirgoyi

qilib yuvindi. Ichidan sevinchi to'liqin urib chiqardi. Xotiniga ham umrida bir marta kulib qaradi:

– Ishlaring yaxshimi, xotin?

Xotin hayron: «Bu nima degani bo'ldi?» Eriga qarab, kayfi bormi o'zi, deb o'yladi. Unday desa hozirgina o'rnidan turgan. Kecha hech qayoqqa borgani yo'q.

Nonushtadan keyii surma rang do'ppini furajkaga, qora beqasam to'nini gimnastyorka bilan enli kamarga almashtirgan Mirsalim eshikdan chiqishi bilan yuziga jiddiy tus berdi. Yurt boshiga tushgan tashvishni birga tortishayotgan kishidek boshini sal quyi solib ketdi. Xuddi shunday alpozda kabinetiga kirib bordi. Bugun darsga kechikib kelgan o'qituvchini zud bilan chaqirtirdi:

– Hozir qanday vaqt ekanini bilasizmi? – dedi zug'um qilib.

O'qituvchi vaj ko'rsatdi:

– Qizimiz tuni bilan isitmalab, ertalab uxlab qolibman.

– Vaj qidirmang. Hozir vaj qidiradigan payt emas. Men bunga yo'l qo'yolmayman, bolalarimizning tarbiyasiga putur yetishiga, ayniqsa shu mas'uliyatli kunlarda yo'l qo'yolmayman. Bu jinoyat.

Sodda o'qituvchi jinoyat qilganini endi anglagan kishidek gangib qoldi, shoshib o'zini oqlashga kirishdi.

– O'zingizni oqlamang, – uning so'zini bo'ldi Mirsalim, – bu yomon odat. Yaxshisi, aybingizga iqror bo'ling, tuzatishga urining. Men, albatta, buni pedsovetga qo'ymayman.

Bu «olijanoblik»dan yuki yengillashgan o'qituvchi unga rahmat aytib chiqib ketdi. Mirsalim o'zi tutgan yo'lidan mamnun edi. Burnining ostidagi tuflangan nosdek kichkina mo'ylovini ko'rsatgich barmog'i bilan silab qo'ydi. «Qichqir, xo'rozim»ni beixtiyor xirgoyi qilayotganini sezib qolib, birdan to'xtadi: bu uyda aytiladigan ashula! Bu yerda

o'zini rahbarona tutishi lozim. Knopkani bosib, kotib qizni chaqirdi, yo'l-yo'riqlar berdi. So'ngra har qachongidan sal yumshab, o'zi haqida, maktabi haqida kollektivda qanday gap-so'z yurganini surishtirdi.

– Jimjit, – dedi qiz qizarlarqirab, – faqat Qurbonovni yoqtirmaganidan direktorning o'zi telefon qilib, frontga yubordi, deyishyapti.

– Masalan, siz shuni kimdan eshitdingiz? – qattiq qiziqdi Mirsalim, lekin muloyim qilib surishtirdi.

– Hamma shunaqa deydi, – qiz duduqlandi. Aslida u kimdan eshitganini eslolmas edi.

– Menga hammaning keragi yo'q. Bittasini ayting. O'sha bittasi kerak.

Qiz «o'sha bitta»ni aytmadi. Mirsalimning qanchalik jahli chiqqan bo'lmasin, o'zini bosdi: qizni xafa qilishdan foyda yo'q! Hali ko'p kerak bo'ladi. Lekin Qurbonov masalasidagi «sir»ni kollektiv bilib qolganidan hayratda edi. Axir u juda ehtiyot bilan ishlagan edi-ku! «Mayli, – deb qo'ydi ichida Mirsalim, – bundan buyon shunga qarab ish tutaman. Shart shu: maktabda mening oyog'imni bosadigan hech kim bo'lmasligi kerak. O'sib chiqqanini chekanka qilib, kemtib turaman».

Mirsalim xijolatdan barmoqlarini qirsillatayotgan kotiba qizni asta kuzatdi.

– Kishi bunaqa beparvo bo'lmaydi, qizim. Pishiq bo'ling, chiyratma bo'ling. Hali men sizni direktorlikkacha tarbiya qilaman deb yuribman-ku...

Qiz birdan qizarib ketdi. Mirsalim unga yana bir-ikki shirin so'z qilib chiqarib yubordi. Bu tadbiridan ham o'zi mamnun bo'lib qo'ydi.

Shu kunlarda u yana bir odat chiqargan. Ishga sal barvaqt kelib, hammadan keyin ketadi. Maqsad: mamlakat

boshiga shunday og'ir kun tushgan kezlarda o'zini qattiq ishiyotgan qilib ko'rsatish. Biror yerga ketsa, albatta, kotib qizga tayinlab, keladigan soatigacha aytib ketadi. Vaqtida qaytsa-ku mayli, lekin sal kech qolgudek bo'lsa, eshikdan terini artib, allakimdan nolib, shu kunlarda ish ko'payib ketganini ta'kidlab kirib keladi. Bu yerda u talay ishi qolib ketgan kishidek darrov kabinetga o'zini uradi. Biroq... kabinetda bo'lmag'ur xayollarni surib, haddi sig'adigan kishilariga telefon qilib, hirlingashib o'tiradi, uncha-buncha bozor-o'char ishlarini ham shu yerda bitkazib oladi. Lekin stolning ustida doim turli qog'ozlar bo'ladi.

Yana bir oy o'tdi. Mirsalim yana odatdagidek radio yoniga keldi, qo'lini qulog'i orqasiga hovuch qilib tinglad. Hamon frontdan xushxabar yo'q, hamon dushman bosib kelardi. Miyasiga kelgan fikri shu bo'ldi:

– Sho'ro tamom! Nari borsa yana bir oyga chidaydi, keyin ichi po'kak daraxtday ag'dariladi.

Yana «Qichqir, xo'rozim»ni aytib, o'tgan davrlarni esladi. O'tgan kunlar ko'ngliga chiroq yoqdi. Bu chiroq taftida bir vaqtlar go'shtga tushgan qurtdek g'imirlagan, keyinchalik zamona zayli bilan uxlatib qo'yilgan boyvachcha orzulari uyg'ona boshladi, ha, xayolini olib qochdi. Bu orzular inqilobdan u yoqqa olib o'tar, o'n yoshidayoq boshiga shohi salla o'ragan totli yillarini eslatardi. U bobosining qorabayiriga mingashib rastaga tushardi, bejirim do'konlarda o'tirgan, ko'krak cho'ntagidan soat zanjiri chiqib turgan jujun kamzul, duxoba do'ppilik boyvachchalar o'rinlaridan irg'ib, turib bobosiga salom berishar, otining jilovini ushlab, xushomad bilan gap qotishar, bir piyola choyga taklif etishardi. Bobosi viqor bilan kulib, barchasiga o'ziga yarasha muomala qilardi. Keyin karvonsaroyga kirib, karvonidan xabar olardi,

uyga qaytib, mehmonxonada ancha mahalgacha cho't solardi. Ovqatdan keyin Mirsalim choy olib kirganda bobosi cho't qoqib o'tirgan bo'lardi. Mirsalimni ko'rishi bilan mehribonlarcha kulib, qo'lidan choynakni olardi va mehmonxona oxiridagi hujradan goh bir kaft xandonpista, goh pashmak olib unga berardi.

Bu davlatning bir qismini dadasi bobosidan keyin qimorga boy bergan bo'lsa ham, qolganini ichki-tashqi hovli bilan inqilob olib qo'ydi. Vaqtning g'animat bilgan dadasi bir kechadayoq Pishpakdan sho'ng'ib, Mirsalim hozir turgan shahardan chiqdi. Bir oz vaqt o'tgach, oilasini chaqirtirib oldi, «tuya ko'rdingmi? Yo'q» deb to'nini o'zgartirdi, fuqaro bo'lib oldi.

Mirsalim hozir ana shularni o'yiab turib, dadasi o'limi oldida chaqirib, mana buni olib, xufiya yerga qo'y, bir kuni kerak bo'ladi, degan to'rvani allaqayerdan topib chiqdi. Undan o'sha Pishpakdagi uy-joy va yer-suvlarning sarg'ayib ketgan vasiqasini olib, zavq bilan ko'zdan kechirdi, yombi topgan odamdek quvonib, ko'zlariga surtdi, changini qoqib yana joyiga solib qo'ydi. Uning u boshidan-bu boshiga hayajonlanib yurdi. Shu payt uning ko'ziga hamma narsa chiroyli, hamma narsa kulib qarayotgandek ko'rindi. Shunda birdan ko'ngliga bir gap keldi: u nemis tilini bilmaydi-ku! Jilla bo'lmaganda salom berishni, «xush kelibsiz», «Biznikiga tashrif buyursalar g'oyat xursand bo'lardim!», «Qanday taom ko'ngillariga xush keladi?», «Shu arzimas sovg'ani olib qo'yasiz-da» deyishni bilishi kerak-ku. Azizaning o'rta maktabda o'qigan nemis tili kitobini eslab, uni allaqayerdan topib olib, changini qoqib varaqladi... Jon-jahdi bilan o'rganishga kirishdi.

Erining har kuni ishdan keldi deguncha uyga qamalib olib, allaqanday so'zlarni hijjalashi, tillarini burab talaffuz



qilishi xotining g'ashini keltirdi; unga bachkana bo'lib ko'rindi. Bir-ikki kun indamay yurdi, bundoq qarasa, eri bu «qilig'ini» hali-beri tark qiladigan emas. Bitta-yarimta odamning ko'zi tushib qolsa, nima deydi!

Xotin deraza ostidan bir oz quloq solib turdi. Mirsalim kichkina bloknot-daftarning orasiga bir barmog'ini solib, ushiab olgan, ikki ko'zi uyning burchagida, u yoqdan-bu yoqqa borib kelib, har xil so'zlarni qiroat qiladi, esidan chiqib qolganini to'xtab, o'sha bloknotdan ko'rib oladi. «Tavba, hech bunaqa odati yo'q edi-ku, – deb o'yladi xotini, – buncha astoydil kirishmasa. Ertalab namoz o'rniga ham shuni qiroat qiladigan bo'lib qoldi».

Erining bu ishi xotiniga yoqmadi.

– Bu nima bachkanalik, kap-katta odamga! – dedi eshikdan kirib borib, – «Gutin tag», «gut, gut»dan boshqa ishingiz qolmadimi?

Bu Mirsalim uchun kutilmagan tanbeh edi, jahli chiqdi:

– Kiringga suv tashib beraymi!

– Qachon tashib beruvdingiz, endi tashib berasiz. Yoshingizga yarasha ish tuting, biram yarashmayaptiki...

– Nima desam yarashadi, tomog'ingni tut, bir o'pay desammi? – Mirsalim suyuqlik qilib kelib, xotining engagidan ushiadi. Xotini uning qo'lini siltab olib tashladi. Mirsalim salmoqladi:

– Nodonsan, xotin, nodonsan!

– Ha, siz donosiz!

Mirsalim uning gapiga parvo qilmadi:

– Hali sen to'xtab tur, yaqinda mening kimiigimni bilib qolasan.

– Quruq kekirdak! Puch yong'oqning narxi necha puldan bo'ldi? Hali yoshrog'ini ham ko'nglingiz tusab qolar.

– Tusaydi!

– Yo‘l qo‘yib bo‘libman!

– U vaqt men ham sendan so‘rab bo‘libman!!

– Nima podshoh yangi bo‘lib, taxtga xon o‘tirasizmi?

Xotining og‘zidan beixtiyor chiqqan bu so‘z uni cho‘chitib yubordi, zotan, unga xush yoqqan bo‘lsa ham, og‘ziga urdi:

– Tsss! Devorning quiog‘i bor-a!

Xotin xandon solib, masxaraladi:

– Hali shu yurak bilan yurt so‘ramoqchimisiz! Qoching. Tom bosib qoladi.

– Ahmoq! Bor, qozoningni yuv, mushuk yalab ketadi!

Mirsalimga bu suhbat chalib turgan tanburning ipi uzilgandek ta‘sir qildi. Bag‘rini erkalab, ruhini allalayotgan ajoyib kuy chala qoldi. Mana shunday orombaxsh onlarni fahmiamagan xotinidan ranjidi. Bu nima dardda yonyapti-ku, xotini nima deb yuribdi, ming qilsa ham xotin xotinligiga borar ekan-da! Lekin Mirsalim burgaga achchiq qilib, ko‘rpa kuydirib o‘tirmasdan, yana mashqini davom ettirishga kirishdi. Axir kun emas, hatto soat g‘animat! Faqat derazadan xotiniga qarab ichida yanib qo‘ydi: «Shu qilganingga o‘sha vaqt ustingga «bossam yer zaxa bo‘ladi» deb nozu karashma qilib turgan bir do‘ndiqchasini olib seni kuydirmasam, Mirsalim emasman!»

## 2. ELGA QO‘SHILGAN ER BO‘LADI...

Sodiq qora kunda orttirgan do‘sti Bogunni ko‘mib, jordan chiqqanda kun allamahol bo‘lib qolgan edi. U yo‘l biladigan, boradigan yeri aniq kishidek boshiab ketdi. Qishioq chetidagi bir qo‘rachaning eshigini ochib, ichkariga kirib bordi. Unga peshvoz chiqqan, luchchak shaftolidek

bejirim kampir Sodiq orqasida xomush kelayotgan Dilovarxo'jani ko'rib:

– Yurib ketibdi-ku, shu kishimidi? – dedi.

Sodiq boshi bilan qandaydir imo qildi shekilli, kampir boshqa so'rab-surishtirmay xonaga yo'l boshladi. G'aribgina xonaning to'ridagi karavot shu yaqin orada ko'zdan kechirilib, allakimga tayyorlab qo'yilgani yostig'i to'g'rilab, odeyalining bir cheti qayrilib qo'yilganidan ma'lum edi.

– Mana shu yerga joy qildim, bolam... Bu xona xoli, – dedi kampir xona to'riga o'tib.

Sodiq javob bermay, xona o'rtasidagi stol atrofiga qo'yilgan taburetkalardan biriga og'ir o'tirdi.

– Rahmat, ona, – dedi u oxir. – Himmatingizga rahmat! Endi unga hech narsaning keragi yo'q. Kampir sapchib tushdi:

– Voy, o'lmasam, nima qildi, vafot etdimi?

Sodiq javob o'rnida bosh qimirlatdi. Kampir ko'zidan yosh to'kkanicha, munkayib qoldi, piq-piq yig'ladi. Sodiq ham boshini quyi soldi. Dilovarxo'ja unga taqlid qildi.

Kampir o'zi bir umr ko'rmagan Bogunga joni achib, uning vafoti tafsilotini kuyinib so'radi, ketidan gapirib yurib dasturxon tuzatdi, hatto uning sheriklariga dalda berdi:

– Kishi umri bir quitum suv, quit etdi – vassalom, adoyi tamom. Qani, dasturxonga qaranglar. Olinglar.

U birpasdan keyin bug'i chiqib turgan borshch olib kirdi. Sal titragan qo'li bilan idishiarga suzar ekan, indamay o'tirgan Dilovarxo'jaga gap qotdi:

– Ha, sen nega juda xomushsan? Tobing qochdimi? Qo'rqib ketdingmi?

Shoshib qolgan Dilovarxo'ja kampirning gapiga qo'shilib qo'ya qoldi:

– Yolgʻiz edim...

– Shunaqa boʻladi: kishi oʻlikdan qoʻrqadi, eng yaqin kishing boʻlsa ham qoʻrqasan. Ming qilsa ham jon chiqqan tana-da! Qani, mana buni xoʻrillatib, non bilan ichib olgin, oʻzingga kelib qolasan. – Kampir limmo-lim toʻldirilgan tareikani uning oldiga arang surdi.

Dilovarxoʻja qorni toʻyishi bilan, Sodiqning oyogʻini bosib, endi yoʻlga chiqaylik, degan imoni qildi. Kampir ham ularni tutmadi. Bir buxanka non bilan dokaga oʻralgan mushtumdek tuzlangan choʻchqa yogʻini ular qoʻliga berdi:

– Oziqlik ot horimaydi, olinglar, – dedi.

Kampir yonida turgan Dilovarxoʻja nonni oldi-yu, yogʻiga kelganda undan hazar qilgandek ogʻrindi, yuzi burishdi. Kampir oʻzicha tushundi:

– Qolgani shu ekan, ola qol, bolam.

Shunday kunda ham irim qilib yurgan Dilovarxoʻjadan ijirgʻangan Sodiq, ikki qadam bosib, yogʻni oʻzi oldi:

– Rahmat, ona!

Xayriashayotib, kampir dedi:

– Oʻrtogʻinglar qabridan oʻzim xabar olib turaman, sham ham yoqaman. Bu tomonidan koʻnglinglar toʻq boʻlsin!

Ikki qochoq uzun-qisqa boʻlib yoʻlga tushdi. Sodiqning koʻngliga qoʻrquv kelmas, faqat olgan yoʻlining toʻgʻrimi ekanligi uni tashvishlantirardi. Yoʻlda birov ushiab olishi, yana lagerga tushish dahshati goʻyo Bogun bilan birga oʻsha jarda qolgan, Bogun birga boʻlgandagina qoʻrqish mumkinga oʻxshab tuyulardi.

Dilovarxoʻja nima sodir boʻlsa ham avval Sodiqqa yoʻliqsin deganday undan ikki-uch qadam orqada, yetib ololmayotgan odamdek borardi. U bezovta edi. Bogunni bevaqt oʻldirganidan bir lahzagina afsusiandi. «Joy tayyor ekan, oʻsha yerda qolardi-qoʻyardi» deb koʻnglidan

o'tkazdi. Lekin sal o'tmay bu fikridan qaytdi. «Qolishga-ku, issiqqina yer ekan, qolardi, ammo birov surishtirib qolsa nima bo'lardi? Sharmandamiz chiqardi. O'zining boshi ketsa mayli, bizga zomin bo'lardi. O'la qolsa, ularni bilmayman, demasdi! Jon shunaqa shirin narsaki, oshna-og'ayni tugul ota-onadan tondiradi!»

Ana shu mulohazaga borgan Dilovarxo'ja bu tomondan ko'ngli to'q edi. Biroq yo'l xavotirligi, ertagi kun taqdiri, bundan keyin qiladigan ishlari temir zangi bo'lib ich-ichini kemirar, uchragan har kishi uning joniga qasd qilgan bo'lib ko'rinar, har qishloq bir qopqondek tuyular edi. Sodiqning ishonch bilan borishini ko'rib, unga havasi kelar, hatto: «Shu serka bo'lmaganda, bu tomonlarda yo'l topish mening uchun o'zi bo'larmidi!» deb ko'nglida mamnun bo'lib qo'yardi, unga orqa qilib, uning daldasi bilan dadilroq borar, bo'lmasa shu vaqtgacha allaqaysi kavakka urib ketgan bo'lardi.

Bir hafta deganda ular qishlog'i ko'rinib turgan o'rmonning bir chetida tunashga qaror qilishdi. Sodiqning taxminiga ko'ra, front endi juda ham olis bo'lmasligi kerak edi.

– Endi bu yog'i nima bo'ladi, Sodiqjon? – dedi Dilovarxo'ja xavotirlanib va kursidakkina bo'lib turgan to'nkaga o'tirdi.

– Bu yog'i haqida ertalab bosh qotiramiz. Hozir dam olish – uxlash kerak, – dedi Sodiq rejasini allaqachon tuzib, qanoat hosil qilib qo'ygan kiygidek, so'ngra xazondan naridan-beri joy tayyorlab, ustiga cho'zildi.

– Kishi yuragi shunaqa ham daryo bo'ladimi! – deganicha Dilovarxo'ja uning yonidan noiloj joy oldi. Uning taxminicha Sodiqning yuragini daryo qilib, keng tuttirayotgan narsa hamon o'z gunohiga iqormasligi

va endi qochib bo'lsa ham yana hayotdan o'z o'rnini topayotganiga bo'lgan ishonchi edi. Bu narsa uning yuragiga yurak, ishonchiga ishonch qo'shadi, uni xotirjam tutadi. Xuddi shuni tasdiqlagandek, sal o'tmay Sodiq bemalol xurрак otib uyquga ketdi. Dilovarxo'ja ham ko'zini yumdi, lekin hadeganda uxlolmadi, xayol tizginsiz otdek har tomonga sudrab ketdi, bir yerda to'xtamadi. Uning yurmagan toshlog'i, kirmagan ko'chasi qolmadi, oxiri xayolining keti tushsa ulangandek bo'ldi-yu, uxlab qoldi. Qancha vaqt o'tganini bilmadi, birdan oyoq tovushlari keldi. «Bo'ri qulog'i ovda» bo'lib, qush uyqusida yotgan Dilovarxo'ja, albatta, birinchi bo'lib payqadi. Dik etib boshini ko'tardi, quloq soldi: chindan oyoq tovushlari...

– Sodiqjon! Sodiq! Bizni qurshab olishdi. Turing! – dedi nafasi bo'g'zigacha tiqilib u.

Sodiq qattiq uyquda edi, uning quiog'iga «turing»dan boshqa so'z kirmadi. U alan-qalan boshini ko'tarib:

– Uxlasangiz-chi! Muncha shoshasiz, achangizning palovi qirmoch olib ketadimi! – dedi. Dilovarxo'ja uning gapi tugamasdanoq boyagi gapini takrorladi. Sodiq ishonqiramay ko'zini uqaladi:

– Sizning nimangizni qurshaydi. Qanoti singan qushday cho'zilib yotibsiz-ku, kerak bo'lsa bosadi-qoladi.

Shu payt besh-olti kishining sharpasi ko'rindi. Ular to'g'ri shu tomonga kelardi: harbiy formada, qo'llarida miltiq.

«Bular kim bo'ldi?» deb ko'nglidan o'tkazib, Sodiq yoniga qarasa, Dilovarxo'ja yo'q: ancha narida engashganicha pildirab ketyapti. «Qayoqqa qochasan, nodon» deya kulib ko'nglidan o'tkazdi Sodiq. Buni go'yo eshitgandek Dilovarxo'ja qo'shaloq o'sgan daraxtning orqasiga o'zini olib, uning ayrisidan quyon mo'ralash qildi. Bu orada

miltiqli kishilar Sodiq oldiga yetib kelishdi. Sodiq ularni ko'rib juda hayron bo'ldi: kiyim-boshlari kir-chir, soqolmo'ylovlari o'sib ketgan, poygadan qaytgan otdek yuzko'zlari horg'in, miltiqlarining qo'ndog'iga loy tekkan.

Ular Sodiqning kimligi bilan qiziqmay, uning qarshisida to'xtashdi. Bittasi manzilimizga yetdik, degandek kecha Dilovarxo'ja o'tirgan to'nkaga og'ir cho'kdi. Boshqalar ham o'tirishdi. To'nkada o'tirgani hech narsaga parvo qilmay:

– Bir chektiring! – dedi Sodiqqa. Sodiq «yo'q» deyishga tili bormay, hamon butoq ayrisidan «qani, Sodiqni nima qilishar ekan?» deb ko'zi olma-kesak terib turgan Dilovarxo'jaga qo'li bilan «bu yoqqa keling deb ishora qildi. Hurkib daraxt orqasidan zo'rg'a ayrilgan Dilovarxo'ja uch-to'rt qadam qo'yib, yana xavotirsirab to'xtab qoldi.

– Tamakidan olib keling! – dedi Sodiq. Ana shundagina Dilovarxo'jaga jon bitib, qadamini tezlatdi, yuzida kulgiga o'xshagan bir narsa paydo bo'ldi.

– U kim? – qiziqdi miltiqlilardan biri.

– Sherigim. Sizlarni nemis gumon qildi shekilli. O'zinglar qayoqdan kelyapsizlar?

– Qurshovdan chiqdik. O'n kun deganda zo'rg'a yorib o'tdik. Ko'plar qolib ketdi. La'natining minomyoti nafas oldirmaydi. Soldatini tankka o't qazib, qo'liga avtomatu, minomyot berganga o'xshaydi.

Bu orada qo'lida tamaki to'rvasini ushlab Dilovarxo'ja yetib keldi. Uning qo'rqqani hali ham qo'llarining titrab turishidan va asabiy boqishidan ayon edi. U tamakini kir-chiri, o'sgan soqollari bilan o'zini hayratga solgan askarlarga emas, nima uchundir, chekmaydigan Sodiqqa tutdi. Sodiq:

– Ularga bering! – dedi boshi bilan askarlarni ko'rsatib.

Askarlar donga yopirilgan tovuqdek tamaki to'r-vani qurshab olishdi. Sal kechikishsa kayfi tarqab keta-

digandek shosha-pisha o'rab chekishdi. Kayfini badanga singdirayotgandek gap-so'zdan qolib, ko'zlarini suzib o'tirishdi, achchiq tutun ham ularni tashlab ketgisi kelmagandek davrada halqa-halqa bo'lib aylanardi. Papiroslar chekilib bo'lganidan keyingina ular astoydil tanishdilar. Sodiq o'zlarini a'skarlikka chaqirilib, bombardimonda qolgan qilib ko'rsatdi.

– Endi nima qilmoqchisizlar? – dedi to'nkada o'tirgani.

Sodiq hali bir fikrga kelmagan kishidek yelkasini qisdi.

– Bu kunlarda qismlinglarni topish amrimahol. Ista-sanglar, biz bilan bo'linglar.

Sodiq umrida bir marta yolg'on ishlatdi. U askarning taklifini jon deb eshitib turgan bo'lsa ham, «siz nima deysiz, yo o'z qismimizni qidirib topamizmi?» degandek Dilovarxo'jaga qarab qo'ydi. Dilovarxo'ja bu harakatning ma'nosini tushunmay hayron edi.

– Mayli, jang qiladigan frontimiz bir, dushmanimiz bitta bo'lgandan keyin qaysi qismda bo'lishimizning nima farqi bor, – dedi Sodiq.

– To'ppa-to'g'ri! – unga qo'shildi askar. Lekin boshqa biri hadeb surishtiravergan edi, o'sha to'nkada o'tirgani siltab tashladi, Sodiqlar yonini oldi:

– Buncha surishtiraverding, onang tergovxonada tuq-qanmi? Sendan osh-non so'rab, o'q tovushi kelmaydigan joyga olib borib qo'ying deyatgani yo'qku, birga jang qilmoqchi. Yo senga fashist kamayib qoladimi? Xotirjam bo'l, sen emas, og'a-iningga ham yetadi!

– Hushyorlik... – deb gap boshlagan edi u, yana to'nkada o'tirgan og'ziga urdi:

– Yonini tit, yana radioperedatchigi bo'lmasin!

Birdan kulgi ko'tarildi. Shu bilan gap-so'z tugadi.

Sodiq, garchand o'sha hushyorlik haqida gapirgan askarning fikriga qalban qo'shilsa ham, o'zining yaxshi niyat



bilan noiloj shu qaltis yo'lni tutayotganidan, shu lahzada uning turqi sovuq ko'rinib ketdi. «Bir baloni boshlamasaydi keyin», deb ko'nglidan o'tkazdi. Dilovarxo'ja ham o'sha askardan cho'chiyotgan bo'lsa kerak, uning xatti-harakatidan ko'zini olmasdan, ba'zan mana bunisining gaplari iimoqli-ku, keyin taxiri chiqmaydimi?» degandek, Sodiq bilan ko'z urishtirib olardi. .

Vahima bilan boshlangan bu tasodifiy uchrashuv ularning joniga ora kirdi.

Ular uch kundan keyin qurshovdan chiqqanlardan tuzilgan qismda, forma kiyib safda turishardi. Ishning bunchalik yengil ko'chganidan mamnun Sodiq «qalay, endi xursandmisiz?» degandek, Dilovarxo'jaga ko'zini qisgan edi, u ham «oxiri xayrli bo'lsin» deb jilmayib qo'ydi.

– Do'stlar bilan birga jang qilishdan yaxshi narsa bormi, – dedi Sodiq kechqurun o'rniga cho'zilar ekan, – halok bo'lsang bir chuqurda, tirik yursang bir tepada bo'lasan!

Yonida yotgan Dilovarxo'ja uni eshitsa ham, o'zini uxiaganga solib, indamadi.

### 3. YOVUZ NIYATLI KISHI

Mirsalim qancha urinmasin, yo'lini qilolmadi – frontga ketadigan bo'ldi. Garchand maktabga «el boshiga tushgani – er boshiga tushgani» deb maqol aytib, mamnun kirib kelgan, «o'zim borib, yo'lini to'smasam bo'lmaydiganga o'xshaydi», deb kerilgan bo'lsa ham, ostonadan hatlab uyga kirdi deguncha, butun zahrini xotiniga sochdi:

– Mana, xotin, bachkanalik qiladagan erdan qutulib qolding. Quruq kekirmaydigan birorta bo'yni yo'g'onni topib olasan endi.

Xotin gapning nima haqida borayotganini darrov fahmiadi. Boshqa vaqt bo'lsa haqini yubormagan bo'lardi.

Ne choraki, u frontga ketyapti, qaytib kelishi gumon yerga ketyapti. Bu albatta eri uchun emas, o'ziga ham og'ir edi. Lekin xotin erining turqini ko'rib, o'zini tutib oldi, tiqilib kelgan achchiq yoshni zo'rg'a qaytardi. Agar u shunday qilmasa, bu yig'i yo erining yana achchiq ta'nasiga duchor qilar yoki uning faryodiga sabab bo'lar edi. Xotin ikkisini ham istamas, juda bo'lmaganda, shu oxirgi kuzatuv kunlarida o'zini tutishga, shu bilan eriga ham dalda berishga qaror qildi.

– Yurtga kelgan to'y, dadasi. O'zingizni bunaqa diqqinapas qilib, kuyib-yonishingizning foydasi yo'q. Xudo nasib qilsa to'rt ko'z tugal ko'rishamiz. Qirq yil qirg'in bo'lsa ajali yetgan o'ladi.

– Bordi-yu, mening ajalim yetgan bo'lsa-chi... – Mirsalimning ko'zida yosh qalqidi.

– Niyatingizni yaxshi qiling! Har ish niyatga yarasha bo'ladi.

Mirsalim kechasi bilan bezovtalanib, ag'anab chiqdi. Surmagan xayoli, ko'rmagan tushi qolmadi, ertalab shunday bo'lib o'rnidan turdiki, tushi bilan xayolini ajratolmay qoldi. Kechasi ikki marta yig'ladi. Xotining qilmagan tadbiri qolmadi. Shirin gapirdi, dalda berdi, orqalarini uzoq silab yotdi, oyoqlarini uqalab qo'ydi. Agar boshqa vaqt bo'lganda Mirsalim xotining qo'lidan shunchalik mehribonlik kelishini bilib quvongan bo'lardi. Lekin u hech birini hozir qadriamas, buning barchasi kasalning o'limi muqarrar bo'lganda doktor «endi parhezning keragi yo'q, ko'ngli nima tusasa, beraveringlar» degandek tuyulardi.

– Mana, meni aytdi dersiz, kipriyingizga gard yuqmay omon-eson qaytib kelasiz, – dedi xotini erini xayoldan chalg'itish uchun.

– Yo'q, xotin, yo'q... sen bilmaysan, – dedi Mirsalim shiftga qarab, toqi sanab yotganicha. Lekin xotini nimani

bilmasligini aytishga tili bormadi, yuragini och mushukdek timdalab yotgan dardi uni ming baloga muhtalo qiyardi, unga tinchlik bermas edi: u frontga borsa, bekorga o'lib ketsa, nemis g'alabasidan keyin davri davronni kim suradi? U orzu qilganicha, dard chekib yotganicha ko'zini yumib ketaveradimi! Yo'q, bunga u asti chidolmas edi, chidagisi kelmas edi.

Bu alamini Mirsalim xotiniga aytmoqchi emas, aytgani bilan u tushunmaydi, basharti tushunganda ham qo'lidan nima ish keladi? Mirsalimdan keyin «voy erimiab» ming faryod cheksin, bir yil emas, besh yil qora kiyib azasini tutsin – bundan unga nima naf bor? U o'zi o'sha kunlarni ko'rmoqchi, o'zi davron surmoqchi!

Mirsalim ertalab barvaqt uyg'ondi. Tahorat olib, uzoq namoz o'qidi, ko'zidan yosh oqizib, allanarsalarni joynamoz ustida niyat qildi. Ixlos bilan o'rnidan turib, qizargan ko'zlari bilan ikki yoniga salom berdi. Eshikdan nonushta ko'tarib kirgan xotiniga ochiq yuz bilan qarab, «bismillo» aytib dasturxonga o'tirdi. Odob bilan non ushatib, bir burdasini og'ziga olar ekan, qizi Azizani so'radi:

– Kelmadimi?

– Kelib qoladi, kecha tayinlab aytib yuborganman.

Aziza dadasi bilan Qodir tufayli o'sha gapga borishib qolgandan beri bir qancha vaqt o'tgan bo'lsa ham, hamon yara bitib, izi yo'qolmagan, qori ketib, muzi qolgan edi. U hamon yotoqda turardi. Lekin ilgarigidek dadasi bilan «po'm» emas, onasining iltijo-iltimosi bilan dadasining biroz tobi qochgan bir kezi salom berib kelgan, holini so'ragan, shundan beri uyga kelib-kelib turardi. Ha, rostdan ham, o'sha birinchi to'qnashuvdan keyin Aziza yana dadasini bir achitib olgandi. Bu Mirsalimning surbetlik bilan Adolat xolalarning uyini bo'shatib olganidan keyin sodir bo'lgandi.

Bu gal Aziza dadasiga tik turib, basharasiga ochiq aytmagan bo'lsa ham, unga eshittirib, onasiga bunday dedi: «Bir dasturxondan non yeb, bir piyoladan choy ichgan odamning hoviisini tortib olgani uyalminglarmi? Ertaga eshik qoqib kirib kelsa, qaysi yuz bilan basharasiga qaraysizlar? Mayli, boshqa qadam olsin edi, o'sha yaxshi edi. Lekin sizlar emas! Bu pastkashiik! Qaysi bola-chaqanglarga joy yetmayotgan edi. Men o'lsam ham bu hovlida turmayman, ilgari qaytib kelish fikrim bo'lsa ham endi qaytmayman. Kishilardan nomus qilaman, uyalaman. Uyat».

Aziza o'z so'zida turdi. Bu hovliga qaytib kelmadi – kelib-ketib turdi, el-yurt oldida «ota bezori, ona zori» bo'lib ko'rinmaslik uchun onda-sonda kelib turdi. Lekin g'isht qolipidan ko'chgan, muomalalar juda «o'ta rasmiy» edi. U dadasiga bukilib peshvoz chiqmaganiday, dadasi ham egilib «kel qizim» demas, deyishga izzatnafsi yo'l qo'ymas edi. Shunday bo'lsa ham Mirsalim frontga ketishi aniq bo'lgandan keyin, uni aytib yuborishni xotinidan iltimos qildi.

Aziza, ularning taxminicha, nonushtaga yetib kelishi kerak edi. Chindan ham nonushta oxir bo'lib qolganda kirib keldi. Orada hech narsa o'tmagandek ular bilan so'rashib:

– Siz xavotir olmang, – dedi u Mirsalimga, – oyim yolg'iz qolmaydilar, xabar olib turaman.

– Ko'chib kela qolsang-chi!– mayingina qilib dedi Mirsalim.

– Buni bir o'ylab ko'rish kerak. Ehtimol kechalari oyimni yolg'iz qo'yib, cho'chitmaslik uchun ko'chib kelarman. Lekin hozir emas. Sal imtihonlarimdan qutulib olay.

Bu gap shu bilan tamom bo'ldi. Endi nima haqda gap borishini hech kim bilmas, har kim shunday paytlarda bo'ladigan o'y-xayol bilan band edi.

Oxirgi qultum choyini ho'plab, piyolani bir chetga surib qo'yar ekan, Mirsalim Azizaga qarab hazin tovush bilan salmoqladi:

– Nima qilsam, senlar uchun qildim, nima desam, senlarga jonim achigandan dedim. Mana endi frontga ketyapman. Front borsa kelmasday joy. Seni bir ko'ray deb chaqirtirgan edim, qizim...

Azizaning nazarida dadasini birov almashtirib ketganga o'xshardi! Nahotki, aytganini qildiradigan, ushiaganini kesadigan dadasi shu kishi bo'lsa!

Azizaning o'zgarib qolgan dadasiga rahmi keldi, uni «bag'ritosh, diydasi qattiq» deb yurganidan hozir ajablandi. Dadasining ko'zida qilt-qilt qilib turgan yosh uning ham ko'ziga yosh chiqardi, lekin uni to'kishdan Aziza o'zini ehtiyot qildi. Qandaydir bir so'z aytib, o'limi oldida xayrlashayotgan kishidek ko'zida yosh bilan ezilib turgan dadasining ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldi-yu, shunday ta'sirli bir so'z topolmadi. Faqat: «Unday demang, dada, frontga ketayotgan bitta siz emas», – deya oldi xolos.

– Ularning yo'li boshqa, meniki boshqa, – dedi beixtiyor Mirsalim va bundan chiqadigan ma'nodan cho'chib, boshqa bir ta'rifga burdi: – Mening yoshim ulg'ayib qolgan...

– Yoshingiz katta bo'lsa ham, sog'lomsiz, baquvvatsiz.

– Ajal sog'liq surishtirmaydi, qizim, uchgan o'qning aqli yo'q.

Aziza endi bildiki, shu vaqtgacha qamchisidan qon tomib, so'zidan ilon po'st tashlagan va botir ko'ringan dadasining ichi po'k ekan. Frontga borgisi yo'q, har qancha botirlik kerak bo'lsa, shu yerda qilmoqchi.

Mana shularni o'yiab turib, Aziza ko'zida paydo bo'lgan achinish yoshlarining qayoqqa ketib qolganini sezmedi. Uning o'rnini qandaydir boshqa bir his olgan edi. Bu rahm

hissi emas, balki bo'lak bir narsa edi. Shuning uchun ham u yig'lab turgan dadasi bilan sovuqqina xayrlashib qoldi. Keyinchalik onasi:

– Buncha diydang qattiq, qizim, ko'zingga yosh ham kelmadi-ya! Dadang o'gay emas edi-ku! – degan edi, Aziza:

– O'zim ham bilmayman, nega shunaqa bo'ldi, oyijon, – deyishdan boshqa javob qilolmadi va nima uchundir ko'zidan duv yosh to'kildi.

Mirsalimning rejasi bo'yicha, u to'g'ri frontga tushmasligi kerak. U bilan birga ketayotganlarning barchasi toylanmagan paxtadek bo'sh, xom kishilar. Umrida qo'liga miltiq ushlamaganlar ham bor. Demak ularni biror yerga olib borib o'rgatishlari, mashq qildirishlari shart. Bu mashg'ulot kamida uch oy, bo'lmasa yarim yilga cho'ziladi. Bu muddat qisqa fursat emas. Bu orada urush tugashi, jilla bo'lmasa, «yarash-yarash» bo'lishi mumkin.

Poezdga ketayotgan Mirsalimning fikriga shu xayollar keldi-yu, ko'ngli ravshan tortdi. «Saranjomingizni oling, falon kuni ketasiz» deb buyruq olgandan beri bo'g'ilgan ishtahasi ochildi. Hammanikidan ko'ra kattaroq safar qopini oldiga surdi. Unda nimalar yo'q edi: shakar aralashirilgan talqon, yaxna go'sht, patir, meva-cheva, shirinliklar, bir qutichada choy, choynak-piyola, ikkita qoshiq (bittasi zapas), zarur bo'lganda bironta komandir bilan «otamlashish»da juda o'ng keladigan xom qazi (pishiriladigan joy doim topiladi!), issiq paypoq...

Mirsalim ko'ngli tusagan narsalarni olib, oldiga qo'ydi...

Uchinchi kun kechqurun Mirsalimni yana tashvish bosdi: nega haligacha biror yerga tushishmaydi? Bu ketishda hademay frontga yetib qolishadi-ku! Yo'g'-e! Mashq qildirmasdan-a!

Mirsalimni mashq, harbiy tayyorgarlik emas, shu orada o'tadigan vaqt qiziqtirardi, albatta.

U frontga tushish, yog'ilib turgan o'qiar, portlab turgan mina va snaryadlar orasida jang qilishni tasavvur etolmas edi. Uning nazarida urush tugab qoldi, vaqtdan yutish kerak, xolos. Lekin poezdning hamon yelib borishiga tushunmasdi.

– To'ppa-to'g'ri frontga olib borib tushiradilar, shekilli, – dedi Mirsalim jo'rttaga hamrohining fikrini bilish uchun. Qorachadan kelgan, do'ng peshona hamrohi uning bu qiziq savolidan «buning o'zi sog' odammi?» degandek miyig'ida kulib qo'ydi.

– Bo'lmasam-chi! – dedi qat'iy qilib u, – dalaga chiqib «hommopish» o'ynamoqchimingiz? Mirsalim ichida «to'nkaga o'xshab qo'pol bo'lmay o'l» degan bo'lsa ham:

– Axir mashq-pashq degan narsa bo'ladi. Hali miltiq olganimiz yo'q, – dedi yotig'i bilan.

– Xavotirlanmang, yoqalashtirgani emas, jang qilgani olib ketishyapti. Hali qurol ham berishadi, qanaqa qilib urushishni ham o'rgatishadi.

– Men ham shuni so'rayapman-da, elat, – dedi ko'ngli bir oz tinchib Mirsalim. – Yuzingda ko'zing bormi, demasdan, kishini siltab gapirishingiz yaxshimas.

Do'ng peshona yana kulib qo'ydi, uzr so'ragan bo'ldi:

– Ko'nglingizga olmang-ku, qo'shni, savolingizning o'zi yo'nmagan tayoqdek beso'naqay edi. Qancha tez frontga tushsak, shuncha yaxshi emasmi! Dushman mamlakat ichkarisiga qancha ko'p kirsa shuncha yomon, axir uni quvib chiqarishning o'zi bo'lmaydi. Uning yo'liga tezroq g'ov tashlab, to'xtatish kerak. Buni siz bilan men qilmasak, kim qiladi!

– Keyin orqasiga qaytarish-chi? – uning gapini bo'ldi qarshida o'tirgan qosh-ko'zlariga surma qo'ygandek chiroyli yigit. – Hali qiladigan ishimiz ko'p, birodar.

– Ehtimol, siz bilan biz anavi do'stim aytganidek, g'ov bo'lib dushmani to'xtatgancha o'sha yerda ko'z yumarmiz, boshqalar uni ketiga surib ketar. Sher hamlasiga qarshi tashlangan kishi o'limini ham bo'yniga olib qo'yishi kerak. Biz sayilga emas, jangga ketyapmiz, – dedi Mirsalimning yonida o'tirgan suyaklari buzuq, yelkasi keng lo'linamo o'rta yosh kishi.

– Albatta! Albatta! – dedi juda o'ng'aysiz ahvolda qolgan Mirsalim. Lekin u bu kishilarning yonib gapirishiga ishongisi kelmas edi: nahotki kishilar o'limga keta turib, anavi lo'linamo aytgandek, sher hamiasiga qarshi bora turib, shunchalik dadil bo'la oladi, biror yerda besh-olti oy tinchgina mashq qilib yotishdan ko'ra tezroq qiyomat qirg'in bo'lib turgan frontga tushishni afzal ko'radi. Yo'q, bu odamlar yo men ko'rib yurgan kishilardan emas yoki o'shalarning o'zi-yu, faqat tilini sal qayrab olgan va yo bo'lmasa, ular birdan o'zgarib qolgan, men tushunib bo'lmaydigan, mening aqlim yetmaydigan darajada o'zgarib qolgan. Bu yog'i endi dushman bilan qamti kelganda ma'lum bo'ladi, deb ko'nglidan o'tkazdi Mirsalim, ammo yana ichida, bular ham frontga tushishga ko'zi yetmaganidan shunaqa demayapti. Nahotki bularning joni savil, deb qo'ydi. Payti bilan ularni bir-bir ko'zdan kechirdi. Do'ng peshonaning biror firibgarlik qiladigan turqi yo'q, boya gapirayotganda qanday bo'lsa hozir ham shunday: xotirjam, boshini sal bir tomonga tashlab poezd tebratishida allalanib bormoqda. Na xomush ko'zida bir quviik bor, na o'tirishida. Qosh-ko'ziga surma qo'ngandek chiroyli



yigit suhbat tugashi bilan yana qo'liga kitobini olib zavq bilan o'qib ketyapti. Hatto chiroyli ko'zi, kam go'shtgina yuzida kulgi alomatlari ham kezadi. Tashvishli, quv, tili bilan dili boshqa odam bunaqa safarda o'zini bunchalik erkin va bemalol tutolmaydi. Har qanday ichidan pishgan bo'lganda ham, soxtaligi ochilib, misi chiqib qoladi. Anavi suyaklari buzuq lo'linamo-ku, ikki dunyo menga bir qadam. Yashashni bilardim, o'lishni ham bilaman, kurashni-ku qoyil qilaman. Onam asli shunga tuqqan, degandek og'ir jangda o'ziga teng keladigan yo'ldosh qidirgandek hammani bir-bir ko'zdan kechirib, o'zicha xulosa chiqarib, ishonch bilan yonboshlab o'tiribdi. Uning xatti-harakati va so'zida biror yasamalik bo'lishiga kishi ishonmaydi. «Mening bo'lganim shu. Menga ishonsang mana, ishonmasang achangning arvofiga» degandek, yuziga nisbatan kichkina ko'zlari sokin yiltillaydi. Uning nimasidir Mirsalimga Sodiqni eslatdi. Lekin nimasi o'xshashligini topib ololmadi. Sodiqning esga tushishi esa, Mirsalimni tuni bilan uxlatmadi: urush erta-indin tugasa, Sodiq qaytib kelsa, unda nima bo'ladi? Butun sirlarimdan voqif bo'lmaganida ham, u o'tirgan hovlini tortib olganimning o'zi baxtimni qora qilish uchun kifoya emasmi? Ey, kaltafahm Mirsalim! Boshini yeyishgaku yeding, shu hovliga changal solishning senga nima keragi bor edi! Mana endi nima bo'ldi? Arzimagan o'sha hovlini deb, tiling qisiq, yuzing shuvut. Shirinso'zlik bilan bo'shatib oigan bo'lsang ham mayli edi. Adolat xolaning oppoq sochlari bilan qon yig'lagani esingdami? Nimalar deb chirqillamadi, nimalar deb iltijo qilmadi – hech biriga quloq solmading, «davring keldi, sur begim» deb orqa-o'ngingga qaramading. Endi-chi. Endi nima bo'ladi?

Ertalab turganda Mirsalimning miyasi bu tashvishlardan ancha xoli edi, hatto kechasi behudaga shuncha iztirob surganidan miyig'ida kulib qo'ydi: nodon boshim!

Poezd esa hamon kilometrlar tanobini tortib, ufqqa bigizdek sanchilib borardi. Kechasi sahro tugab, o'rnini rus erining manzaralari: yam-yashil qarag'ayzor, bug'doyzor, ko'm-ko'k o'tloq, tomi nish, yog'och uylar almashgan edi. Ana, shapkasini bostirib olgan rus bola o'flatib yurgan sigiri yonida turib poezdga qo'l silkiyapti.

– Bu yerlarning havosi boshqacha, – dedi qosh-ko'zi surma qo'ygandek chiroyli yigit. – Hu anavi o'rmonlarni qarang: ichi rohatijon!

– Bo'lganmisiz? – so'radi do'ng peshona.

– Yo'q, o'qiganman.

«Yosh-da, o'qiganining hammasini rost deb yuradi», deya ko'nglidan o'tkazdi Mirsalim uni eshitib. Yigit esa butun umri rus o'rmonida o'tgandek, og'zidan bol tomib ta'rifini qilardi.

– Shundan ozginasini bizning tomonga bermaganda! – deya o'kinish bilan so'zini tugatdi yigit. Do'ng peshona esa, O'zbekiston tog'laridagi archazorlarni maqtab, turli-tuman mevalari bilan rus o'rmonidan qolishmaydi, degan fikrni aytdi. Suhbat tabiat boyliklari haqida ketib, ancha vaqtni oldi. Lekin Mirsalim frontga, tish-tirnog'igacha qurollangan dushman bilan jang qilgani ketayotgan bu odamlarning yuragiga shu gaplar sig'ganiga ajablanardi. Bu ham yetmagandek, chiroyli yigit kitobi ichiga gazetadan qirqib solib qo'ygan bir parchani olib:

– O'qib beraymi? Eshitasizlarmi? – dedi.

– Xo'sh? Xo'sh? Qani! – dedi suyaklari buzuq lo'linamo kishi gavdasiga yarashmagan bir qiziqish bilan.

Yigit, sizlar nima deysizlar, malol kelmaydimi, degan kabi ko'zlarini atrofga yugurtirib chiqdi, keyin o'qidi. Bu sevimli o'zbek shoiri Maqsud Shayxzodaning «Kurash nechun?!» degan otashin she'ri edi. Yigit bu she'rni ilgari ham katta davralarda o'qigan yoki yaxshi mashq qilgan bo'lsa kerak, rasmiyat uchungina qo'lida ushlab turardi, asiida yod o'qirdi.

*Bu kurash istiqbol mash'ali uchun,  
Tarixning mujassam haykali uchun,  
Bu – elning go'dagi, choli, go'zali,  
Navoiy «Xamsa»si, Bobur g'azali,  
Dutorning muloyim unlari uchun,  
Ijodning muhtasham kunlari uchun.*

*Shu uchun kurashmoq bizga farz bo'ldi,  
Yuraklar otashin nafratga to'ldi.  
Ey vatan, ey dunyo, ey inson, qardosh,  
Xalqlar erki uchun beramiz bardosh.  
Zafarning nash'asin totigan erlar:  
«Erk desang, urushda yengib chiq!» derlar.*

– Shoirlar ham o'lmasin, do'ndirib aytadi, dilingdagini topib aytadi, – zavqianib ketdi do'ng peshona.

– Do'ndirsa yozsing-da! O'likning nafasiday sovuq she'rning kimga keragi bor! – dedi she'r zavqidan keyin o'rniga o'rnashib o'tirar ekan suyagi buzuq lo'linamo kishi.

Mirsalim bu gaplarga aralashmadi, to'g'risi, bu gaplar uning yuragiga sig'mas edi. Poyezd yurgan sari uning ko'ziga ko'lob bo'lib yotgan frontdagi qon, murdalarni bosib-yanchib kelayotgan nemis tanklari, o'zining jonigina ko'rinardi. U bu xayollardan o'zini zo'riab ham ajratib ololmas, boshi zirqirab og'rib, chakkalariga birov bigiz

sanchayotgandek azoblanar, qovog'i og'irlashib, mudroq bosardi. Uyqusida ham boshi-ketini tushunib bo'lmaydigan allambalolarni ko'rar, ko'zini ochganda birortasini eslab lolmas edi. Yonida ketayotgan, o'zi bilan safari bir, taqdiri bir kishilarga o'xshashni ba'zan istar, ularning suhbatiga goho aralashardi-yu, bari bir qo'shilib ketolmas edi. Boshqalar esa kundalik hayotini yangi bir sharoitda davom ettirayotgan, bundan keyin ham har qanday sharoitda davom ettirishi mumkin va qo'lidan keladigan kishilardek borishardi. Ular uchun front Mirsalim tushunganidek dahshat emas, balki bular frontga, frontdagi dushmanga dahshat solish uchun ketayotganga o'xshaydi. Mana shunisi Mirsalimga yana ham qiziq tuyulardi.

Poyezd beshinchi kun kechasi bir stansiyada to'xtadi. Mirsalimning vagondan chiqishi bilan qilgan ishi atrofga quloq solish bo'ldi: o'qiar ovozi kelayotgani yo'qmi? Bu tomondan xotirjam bo'lganidan keyin stansiyani ko'zdan kechirdi. Bu yerda uning diqqatini tortadigan hech narsa yo'q edi. Dala joylarda bo'ladigan oddiy stansiya: ikki qavatli bir bino.

Narsalarni mashinaga solib, o'zlari saf tortib, yo'lga tushdilar. Sokin tun. Osmon to'la yulduz, lekin yorug'i yo'q. Yo'l bo'yidagi daraxtlar hurpaygan tovuqqa o'xshab ko'rinadi, qop-qora. Saf yarim soatcha yurgandan keyin o'rmonga kirib ketdi. O'rmon ichi boyagidan ham jimjit, faqat balanddan daraxt boshlarini tebratib o'tgan shamolning pixillashga o'xshash bo'g'iqlik tovushi bir tekisda keladi. Askarlar ham bu o'rmon tinchligini buzgisi kelmagandek churq etmay borishardi, faqat ba'zida starshinaning «Sochilmasdan yuring!» degan tovushi yangrab qoladi, chopib oidinga o'tgani ko'rinadi. U kolonna etagidagilar yetib olib, saf tartibga tushgunicha, saf oldida o'zi sekin boshlab boradi, keyin yana yoniga o'tib ketadi.

Bir mahal palatalar tikilgan kattagina maydonga chiqdilar. Bu yerda avval ham askarlar bo'lgani birinchi qarashdanoq ko'rinib turardi. Yangi kelganlarni otdelenielari bilan palatalarga bo'ldilar...

Qosh-ko'zi surma tortgandek chiroyli yigit ertalab yuvinib kelishi bilan:

– Poyezdda menga «o'zing o'rmonni ko'rganmisan?» deyayotgan kim edi? Qani, o'sha odam aytsin-chi, o'rmon yomon ekanmi? Rohatijon-ku! Anavi daraxtlarni qarang, safga tizib qo'yganga o'xshaydi-ya. Adlligini ko'ring, – deya o'rmon sayliga kelgan kishidek quvonch bilan kunini boshladi.

– Shuning o'ndan biri meva daraxti bo'larmidi! – gapga aralashdi kecha O'zbekiston tog'larini maqtagan do'ng peshona.

– Bog'bonga o'xshaysiz-a, daraxtning mevasizini tan olmaysiz.

– Yo'q, dehqonman, paxtakor. Daraxtning husni bo'yida emas, inim, mevasida.

Mirsalim ularning gapiga quloq solib turib, ularning hamon yo'ldagidek bu yerda ham betashvish, bexavotir, har kungidek oddiygina hayot boshlayotganlariga hayron bo'ldi.

Shu mahal otdelenie komandiri yordamchisi bilan non va qand olib kelib qoldi. Ularni palata o'rtasidagi «qo'l bola» stolda taqsimladi. Ehtiyot bilan, imkon boricha baravar qilib bo'lingan non ustiga bir necha chaqmoqdan qand qo'ydi. Keyin hammani to'pladi. Mirsalim kutganidek o'zi ulashib qo'ya qolmadi.

– Qani, kim chaqiradi? – dedi atrofqa qarab. Hech kimdan sado chiqmadi. Bitta askarni tayinladi. U askar orqasini o'girib turdi. Otdelenie komandiri taqsimlangan

nondan qandi bilan bittasini qo'liga olib: – Kimga? – dedi, orqasini o'girib turgani unga qaramasdan bir askarning familiyasini aytdi, nonni nomi chiqqanga uzatdi. Xuddi shunday Mirsalim ham o'z hissasini olib tumbochkasi ustiga qo'ydi. Hamma tarqalib bo'lgandan keyin yonida qolgan suyaklari buzuq lo'linamo kishiga:

– Bu nima bachkanalik? – degan edi:

– Ko'rinishdan-ku, bachkanalikka o'xshaydi, asiida yaxshi narsa: begidir bo'ladi. Finlyandiya urushida menga ham avval sizga o'xshab g'alati ko'ringan edi...

Mirsalim uning so'zini bo'ldi:

– Finlyandiya urushida bo'lganmisiz?

– Bir haftagina.

– Ko'zi pishganlardanman deng. Baxtli ekansiz sog'-salomat qolibsiz.

– Urushga borgan o'laveradimi, birodar, urushning boshidan oxirigacha qatnashib, gard yuqmaganlar bor.

– Yo'g'-e! – ajablandi Mirsalim.

– O'z ko'zim bilan ko'rganman. Odamiar o'qning aqli yo'q deydi, bu bekor gap. O'q aqli. O'q avvalam qo'rqqoqni qidiradi, keyin boshqaga tegadi. Bobolarimiz, qirq yil qirg'in bo'lsa, ajali yetgan o'ladi, deb bekorga aytishmagan. O'sha ajal yovqurligi, dovyurakligidan, o'limni o'ylamaganidan yetmagan, ha, botirligidan yetmagan, xo'p deyavering! – uning gavdasiga nisbatan mayda bo'lgan ko'ziari, ishonavering, bu odam yolg'on gapirmaydi, degandek chaqnab ketdi. Lekin baribir, Mirsalim ishonqiramadi. Mirsalim har narsani o'z qolipiga solib, o'z gazi bilan o'lchardi. Bularning qolipi ham, gazi ham unikiga o'xshamaydi, o'xshataman desa ham o'xshamayapti.

Birinchi kun hammomga tushish, kiyim-bosh – forma olish, gimnastyorkaga ichki yoqa tutish, qurollar olish, uni

kishilarga biriktirish bilan o'tdi. Ertasi tong qorong'isidan boshlab siqsa suvi chiqmaydigan pishiq qilib tuzilgan jadval bilan mashg'ulot boshlandi.

Mirsalim murodiga yetgan kishidek ko'krak kerib, mamnun nafas oldi. Mashg'ulotlar qanchalik og'ir bo'lmasin, frontda qon to'kish, har lahza o'lim kutishdan yengil edi. Soldat kamarini qanday qilib bog'lashdan tortib, dushmanga qay vaqtda qanday o'q uzishgacha, bir-birovga chest berishdan tortib, yaralangan jangchiga yordam ko'rsatish, uni quroli bilan bir chetga olib chiqib ketishgacha, poxodda qancha va qay vaqtda suv ichishdan tortib, okop qazish, mudofaa tutish, keyin shiddatli hujumga o'tishgacha – hamma-hammasi haqida «bilmasang o'rgatamiz, istamasang majbur etamiz» dungan qattiq shior bilan mashg'ulot borardi. Hammadan ham Mirsalimga komandirning: «Bu yerda qancha ko'p ter oqizsak, frontda shuncha kam qon to'kiladi», – degani yoqib tushdi. Ko'nglida «qani endi shu yerdagi ter to'kishning o'zginasi uzoqroq cho'zilsa!» deb qo'ydi. Lekin hech kim bu mashg'ulotlarning qancha vaqt cho'zilishini bilmas edi. Birov «Etigimizning g'archi ketib, miltig'imiz nishonga tegadigan, o'zimiz har qanday quifga tushadigan kalit bo'lgan kuni ketamiz», – desa, boshqasi: «Hall zambarakdan otishni ham o'rgatishadi», – deb, muddatni orqaga surar, yana biri: «Ha, senlarni boquvga olib kelgan, semirib qolinglar», – deb piching otardi. Bu orada Kiyevga dushman kirdi. Rota komandirining siyosiy ishlar bo'yicha o'rinbosari shu kuni o'tkazgan mashg'ulotida: «Bu juda noxush xabar, lekin bizni vahimaga solmasligi kerak. Kiyevni vaqtincha bosib olgan dushmanni ham tor-mor keltirishga ishonch bilan harbiy texnikani o'rganib, mahorat bilan jang qilishga har soat tayyor turishimiz kerak», –

dedi. Politruk bu gaplarni frontga ketish muddatini bilib aytgan, batalon ikki kundun keyin frontga kelib tushdi. Ertasiga jangga kirdi.

Batalon dushmanning ikki hujumini qaytardi. Birida suyagi buzuq lo'linamo jangchi bir tankni yondirib, komandirning tashakkurini oldi. Qosh-ko'zi surma tortgandek chiroyli yigitning tankka ergashib kelayotgan fashistlarni juda yaqinga kelgunicha qo'yib berib, keyin qo'l pulemyotidan tutdek to'kkanini o'z ko'zi bilan ko'rgan Mirsalimning ko'zi o'ynab ketdi. Lekin bir vaqt qarasa, u yigit yaraianibdi, zambilda olib o'tib ketishyapti, bu unga boyagidan ham ta'sir qildi. Do'ng peshona jangchi esa, ikkinchi marta dushman hujumi boshlanishi bilan oq nobud bo'ldi. U Mirsalimning ko'zi oldida manglayidan o'q yedi, miltilg'i dushmanni nishonga olganicha Brustverda qolaverdi. Sherigi okop ichiga olib yotqizdi. Bu dahshat ichida Mirsalim hech narsani fahmlamaydigan devonasifat angrayib o'tirar, har gal snaryad tushgandagina ko'zini pipiratib qo'yardi. Dushman bugun kechagidan uch baravar ko'p kuch bilan hujumga o'tib, batalonni chekinishga majbur etdi. Batalon tushga borib chekindi.

Lekin Mirsalim o'tirgan okopida qolaverdi...

#### **4. QOTIL YANA QON ISTAB QOLDI...**

Bundan sal kun avval birov «front shunaqa bo'ladi» desa, Dilovarxo'ja asti ishonmas, «vahima ham sal evi bilan-dal» degan bo'lardi.

Nahotki, yaqinlashib kelayotgan front qarshisiga yurib, kattagina bir shahar bo'sag'asida mudofaa tutishganidan beri nemis ko'zlarini ochirmasa! Goh osmondan kelib bombalaydi, goh uzoqdan mina tashlab betinch qiladi.



Dilovarxo'ja front deganda o'sha o'zi ko'rgan paq-puq bilan qilichbozlikni tasavvur qilib yurgan ekan. Bombalar urning halqumidan tutib, changini minora qilib, osmonga otishini, quiochga sig'mas azim daraxtiarni ildizi bilan qo'porib tashiashini, g'ishtin imoratlarni qumdek to'kishini, ne-ne tepalikiarning qansharini sal vaqtda pastga tushirib yuborishini hech xayoliga keltirib ko'rmagan edi. Hammadan qizig'i shu bo'ldiki, ertalab boshiangan shuncha to's-to'polondan keyin ham odamiar tirik qolibdi. Dilovarxo'ja shuncha bomba va mina portiaganini, hamma yoqning o'ydin-chuqur bo'lib ketganini ko'rib, «Faqat men xudo yorlaqab tirik qoldim shekilli» deb o'tirgan ekan. Bir mahal bombalashuv, mina tashiash tugab, guvillagan bo'g'i q tovush keldi. Bu notanish tovush uning hurkib qolgan miyasiga bir fikr keltirgunicha bo'lmay, kimdir tomog'i yirtilgudek bo'lib «Tank!» deb baqirdi. Bu tovush xo'roziarning tongdagi qichqirig'iday mudofaa bo'ylab ketma-ket takrorlandi. Okoplarda avval miltiqlar nayzasi yiltilladi, ketidan jangchilarning boshi ko'rindi. Ayniqsa, atayin oldinga tashlangan brontesharning harakati teziashib ketdi. Soy tomondan ketma-ket o'shqirib chiqib, darrov ochiq maydonga sochilib ketgan, to'shida ikkita oq ilonni bir-biriga ko'ndalang qo'ygandek fashist belgisi bor tanklar «bu maydon o'zirniki, bu atrofda odam zoti qolmagandir, qolgani bo'lsa mening yemim» degan viqor bilan mudofaa qarshisiga o'rmalab qoldi. Lekin mudofaa liniyasiga yaqinlashuvi bilan shunaqa olatasir o'qqa duchor keldiki, oldindagi ikkitasi cho'g' tushgan xazondek guvillab yondi, ketidagilar esankirab qolgandek bir zum to'xtadi, keyin shartta orqasiga burilib, yelib ketdi. Nariroq borib yana bittasi yondi. Ichida ekipaji lyukni ochib chiqishi bilan

kimningdir avtomatdan bergan sidirg'a o'qi yer tishlatdi, hatto bittasi tank ustidan umbaloq oshib tushdi.

Dilovarxo'ja, oldinda bitta-ikkita mergan qolgan ekan-da, deb unga ahamiyat bermadi. Dushman uchta tankning alamiga chidolmadi shekilli, bir piyola choy ichguncha, vaqt o'tmay, mudofaani shunaqa to'pga tutdiki, Dilovarxo'ja, endi ajalim yetdi, boya xudo bir asragan ekan, deb yubordi. Okopning tubiga tushib, boshini yelkari orasiga olganicha g'ujanak bo'lib, har yer silkinishda bir qalqib, jonini hovuchiab o'tirdi. Turli katta-kichiklikdagi snaryadlar bechora yerni ming ohangga solib, qo'porib yotar, zarralari quyun bo'lib ko'kdan yog'ilar edi. Uning nazarida boyagisi ham halovat ekan. Bu ham yetmagandek nemis yana tankini maydonga chiqardi. Ular kelayotganda ham to'pdan otishni to'xtatmadi. Yana tanklar o'sha yerga kelganda qarshilikka uchradi. Bittasi yondi. Lekin bunga ular bu gal parvo qilishmadi. Tankiar yo'l-yo'lakay o'q uzib kelar, har o'q uzganda qattiq yo'talgan kishidek butun vujudi bilan bir silkinib tushardi. Ular mudofaaning oldingi qatoriga kelib, okoplarni chir aylanib izg'iladi. Ana shunda tankiarni panohtutib ularning orqasida kelayotgan avtomatchilarning chag'ir-chug'uri eshitilib qoldi. Dilovarxo'ja bundoq qarab, hangu mang bo'ldi. Baqa rang kiyimdagi bu kishilar kalta avtomatlarini qorinlariga tirab, ba'zan qisqa-qisqa o'q uzib yiqila-qo'pa kelardi.

Dilovarxo'ja bu yog'i nima bo'lganini bilmadi, okop ichida allanimalarni pichirlab, esi ketib qolibdi. Bir vaqt ko'zini ochsa, qo'shni okopdagi Sodiq qo'l pulemyotini okopi chetiga qo'yib olib, tarillatib o'q uzyapti. O'qi tugul, ko'zlari bilan o'qqa tutayotgan kishilarini yeb yuborguday bir holatda edi. Turgan okopi torlik qilib qolgandek,

pulemyotini ko'targanicha chopib ketdi, undan o'ngroqda bo'lgan boshqa biriga sakrab tushib, yana o'q yog'dirdi.

Dilovarxo'ja ko'zi Sodiqda bo'lib, payqamagan ekan, uning bu yonidagilar ham, umid bilan kelibsan, nasibangni ol, degandek holi-qudrat o'q uzib turibdi. Tanklardan bittasi undan sal narida zanjirlari uzilib to'xtab qolibdi. Lekin u hamon o'q uzardi. Dilovarxo'ja ichida, bu nima qilgani, ishdan chiqsa ham, tavba qilmaydi-ya! Toza ashaddiysi ekan-ku, deb turgan edi, o'rmonda uchrashganda hadeb Sodiqqa savol berib, kimligini surishtira bergan, keyinchalik «hushyor» laqabini olgan jangchi (ismi Shubin edi) okopidan chiqarib emakiab ketdi. U xuddi suv ostida suzib borayotgandek boshini quyi egib borar, ba'zan to'xtab, yon-beriga qarab olar, terlab ketgan yuziga qurum o'tirgan, ko'zida o't yonardi. Bo'yniga osib olgan avtomati emaklashga xalaqit berdi shekilli, uni bir qo'li bilan siltab, orqasiga o'tkazib yubordi. Xuddi shu payt tank ichidagilar uni payqab qolishdi shekilli pulemyotdan o'q uzishdi, chumchuq galasiday chiyillagan o'qiar boshidan bir qarich balanddan o'tib ketdi. Endi o'qlar pand berishiga ko'zi yetgan Shubin chittakdek chaqqonlik bilan oldinga sapchib o'tdi, yana atrofga olazarak qarab emakladi. Tankka besh metrcha qolganda chalqancha yotib yonidan, nemis ta'biricha, «Stalin kokteyli» nomli yonilg'ili shishani olib, yana qorniga ag'darildi. Avtomatini bir qo'lida ushiab turib, shishani tankka irg'itdi. Dilovarxo'ja uning tankka tegib singanini eshitmadi, lekin «gup» etib olov ko'tarilganini ko'rib cho'chib ketdi. Ammo nima uchundir Shubin orqasiga qaytmay, hamon o'sha yerda avtomatini o'qtalib yotardi. Dilovarxo'ja uni qotib qolgan faraz qildi. Yo'q, unday bo'lib chiqmadi. Shubin tirik, atayin sichqon poylagan mushukdek bo'lib yotgan ekan. Bir mahal

gulxan bo'lib yonayotgan tank jon talvasasiga tushib qoldi shekilli, to'pidan ustma-ust ikki-uch o'q uzdi. Shu o'q bilan nafasi ichiga tushib ketdi. Shubin tank juda gurillab yonayotganidan hafsalasi pir bo'lgan kishiday orqasiga xomush emaklab qaytdi. Dilovarxo'janing yonidan o'tar ekan, chiqmadi la'natilar. Ichida kuyishni afzal ko'rdi, deb qo'ydi va qurum bosgan yuzidagi terini yengil artdi. Dilovarxo'ja shunda bildiki, u tankni yoqib yuborganidan keyin ham ko'ngli to'lmay, ichidan ekipaj chiqishini poylab yotgan ekan.

«Bu odamlarning joni buncha savil», degan Dilovarxo'ja nemislarning shunga o'xshash hujumidan kechgacha yana ikkitasiga guvoh bo'ldi. Kechgacha o'nga yaqin tank yondi, uning orqasidan kalamushday o'rmalashib kelgan soldatlarning kamida yarmi maydonda qolib ketdi. Ammo mudofaani yorib o'tolmadi. Ertasiga ilk shu holat takrorlandi. Ertalab barvaqt uchgan ikki samolyot qandaydir qog'ozlar tashladi. Ular yerga tushguncha, komissarning buyrug'i okoplarda paydo bo'ldi: «Varaqalarga tegilmasin! Agitatorlar yig'ib olib, kuydirib tashlasin!»

Odatda nimaniki mone tutilsa, qiziquvchilar ko'p bo'ladi. Xuddi shunday Dilovarxo'ja qiziqdi-yu, qo'lga tushirolmadi. Okopidan sal nariroqqa tushgan bittasini ko'zi ostiga olib turgan edi, Shubin payqab qoldi. Dilovarxo'ja, qani o'qirmikin, agar o'qisa men ham so'rab ko'raman, deb turgan edi u, hattò basharasiga qaramadi, yerdan ola solib qiyma-qiyma qilib yirtib tashladi. «Chiyratma, la'nati bu «hushyor» deb qo'ydi Dilovarxo'ja va bu orzusi armon bo'lib ichida qoldi.

Bir mahal sal to's-to'polon tinganda zarurat bilan soyga tushsa, bir narsa ko'ziga oqarib ko'rindi. Qo'lga olsa, o'shanaqa qog'oz. Darrov qo'yniga tiqib, o'z ishiga ketdi. Xilvatga o'tib ko'z yugurtdi. Ko'z yugurtdi-yu, ko'ngli

yorishgandek bo'ldi. Nemis raqib jangchilariga murojaat etib, Dilovarxo'janing ko'ngliga xush yoqadigan gaplarni yozar, o'z xohishi bilan nemis tomoniga o'tganlarga oltin tog' va'da qilardi.

Bu varaqa Dilovarxo'janing yuragida ustini kul bosib yotgan o'limtik umid uchqunini yallig'latib yubordi. U qayta tug'ilgandek bo'ldi. Varaqadagi gaplarga yuz foiz ishondi. Agar o'zinikilarning qurbi yetganda shuncha yergacha chekinib kelarmidi! Demak sho'ro urushda yutqizdi, bugun bo'lmasa ertaga yutqizadi. Shunday ekan, esi borida etagini yopib qolishi kerak. Hammadan ham varaqaning «urush tugashi bilan har kim o'z yurtiga jo'natiladi» degan yeri Dilovarxo'jaga yoqib tushdi. Varaqada qurolni ham o'zi bilan olib o'tish alohida ta'kidlangan edi. Shunisiga u bir oz hayron qoldi. «Qurol unga nimaga kerak bo'ldi, shu qurol bilan yana urushga solmaydimi?»

Shunday fikrlar bilan Dilovarxo'ja bir haftacha o'y surib yurdi. Bu orada polk, yaxshi qarshilik ko'rsatib turgan bo'lishiga qaramay, tunda chekindi. Yangi mudofaa tutgan tepalikda ham uzoq turolmadi, endi o'rnashib olishganida chekinish haqida buyruq keldi: nemis o'ng tomondagi qismni yorib, bularni yonlab o'tib ketibdi, qurshovda qolish xavfi tug'ilibdi. Uch kunlik poxod – chekinishdan keyin polk yana mudofaa tutdi. Ularga yangi kuch kelib qo'shildi. Lekin Dilovarxo'ja bularning barchasiga endi ishonchsizlik bilan qarar, propusk o'rnida o'tadigan, yomon ko'zdan xoliroq qilib «o'g'ri cho'ntagi»ga solib qo'ygan nemis varaqasini ba'zan «joyida turibdimi» degandek ustidan ushlab qo'yardi. Uni jon deb ishga solmoqchi bo'lardi-yu, yo'lini topolmas, topgan yo'lining oqibati «voy», bo'lib chiqayotganga o'xshab ko'rinardi. Nazarida hamma ham holdan tolgan, hatto Sodiq ham

varaqani ko'rsatsa «bormisiz birodar, juda uvol bo'lib ketdik-ku» deyayotgandek! «O'zim shu yergacha boshlab keluvdim, bu yog'iga ham o'zim boshchilik qilaman. Lekin shartim bor, u yoqqa borganda mening «qizil komandir», bo'lganimni hech kimga aytmysiz, o'tgan ishga salovot» deya yolvorayotgandek tuyuldi.

Chindan ham bu mudofaa janglari Sodiqni hamma qatori holdan toldirgan, ruhan juda ezib yuborgan edi. «Ko'ngil uchun bir qadam olg'a siljishmasa-ya! Jonni jabborga berib jang qilishadi-yu, bari bir chekinishadi, bu la'nati nemislarning texnikasi buncha ko'p ekan, qirgan bilan ado bo'lmaydi, o'zidan oldin texnikasi o'rmlaydi. Soldatining ham kuchi shu texnikada, texnikasini majaqlading deguncha, o'zi quyon bo'ladi, yana texnikasini oldiga solib o'rmalab keladi, yana texnikasi bardosh bergunicha urushadi. Bo'lmasa soldati uncha yurakii emas. Qani bizda ham shuncha texnika bo'lsa!

Bizning shuncha harbiy manevriarda qatnashgan, ta'rifi olamga yoyilgan texnikamiz qani, qayoqda? Dushmanni bir qarich ham yerimizga kiritmaymiz, degan edi-ku! Qani o'sha kuch?»

Yerto'la og'zida Dilovarxo'ja paydo bo'ldi. Mo'ylovga o'xshagan baroq qoshi qovog'iga uyulib tushgan, bujur betlari battar qorayib ketgan. Qovog'idan qor yog'adi. Birov bilan urushib, bir-ikki musht ortiqcha yeb alamda qolgan kishidek salom-alikni ham unutib, bir chetga og'ir cho'kdi. Sodiq unga qo'l uzatar ekan tegishdi:

– Muncha qo'lingiz sovuq, yilingiz qurbaqami? Salom-alikni ham yeb qo'ydingizmi?

– Janozaga borgan odamga «xush kelibsiz» deyilmaydi.

– Tag'in nima gap? – tushunmadi Sodiq.

Dilovarxo'ja aytadigan gapi ko'pu, bir og'iz so'z bilan ifodalab qo'ya qolishga qiynalayotgan odamdek og'zini bir-ikki juftlab yana jim qoldi. Oxir boshini quyi solib:

– Sodiqjon, biz yutqizdik, urushda yutqizdik, – dedi. Keyin varaqani uzatdi. – Mana bunga qarang.

Sodiq varaqadan hazar qilgandek qo'liga ham olmadi.

– Oltin tuvak va'da qilyaptimi? – dedi u, so'ngra so'ziga yakun yasagandek hijjaladi: – Oltindan bo'lsa ham, bari bir tuvak!

– Avvalo siz buni bir o'qing, boshqa gap bor.

– Bilaman, o'qiganman. Bizni kafanga o'rab qo'yibdimi? Ishonmang, yolg'on! Tushga nimalar kirmaydi, dushman nimalar demaydi.

– Yolg'on? – ajablandi Dilovarxo'ja va Sodiqqa tikilib qoldi.

– Sabr qiling, toy mingan, ot ham minib qoladi, nemisni qanaqa qilib qiyratayotganimizni ko'ryapsiz. Ko'plashsa chivin filni holdan toydiradi deyishadi. Biz-ku arslonlarmiz. Shunaqa qila-qila mukkalatamiz.

Dilovarxo'ja g'ayritabiiy hikoya eshitayotgan odamdek bo'lib turdi-yu, birdan g'ashi kelib po'ng'illadi:

– Ungacha suyaklarimiz chirib ketmasa deng.

– Chirimaydi. Bahorda loy kechgan kuzda moy chaynaydi. Tarixda bunaqa faktlar ko'p.

Dilovarxo'ja ochig'iga ko'chdi:

– Bo'lsa bordir. Lekin bunisini, yutqizdik, chuv tushdik. Bordi-yu, chuv ham tushmadik, sho'roning qaysi qilgan yaxshiliklari uchun loy kechishim, egar quchoqlab o'tirib ot minishni orzu qilishim kerak? Atala ichirib tergov qilgani, bundan keyin vatanning betini ko'rmaysan deb, o'n yil bergani uchunmi? Yo'q, Sodiqjon, shularni eslaganda kishiga juda malol keladi.

Dilovarxo'janing bu gapidan Sodiqning choyiga pashsha tushgandek ta'bi xira bo'ldi. Uning avvalgi so'zlari yonidan o'tgan bo'lsa, bunisi jonidan o'tib ketdi.

– Bo'lmasa boring, katta xolangiz palov damlab turibdi! Uyatmasmi! Shu gaplarni menga gapirgani uyalmadingizmi! Qaysi yuzingiz bilan gapirdingiz! Kishida jinday nomus ham bo'lishi kerak. Bir marta tuzlig'ingizni bulg'ab, o'zingiz suv ichadigan quduqqa tuf lab, azobini tortgan edingiz-ku.

Dilovarxo'ja bundoq qarasa, Sodiq uni devorga taqab qo'yadigan. Birdan tusini o'zgartirib, qahqah solib kuldi.

– Yashang, puxta ekansiz, Sodiqjon! Bir sinamoqchi bo'lgan edim.

– Meni sinamagan endi siz qoluvdingiz.

– Aslsiz! Juda asl, – bo'sh kelmas edi Dilovarxo'ja, – ming marta aytaman-ku, sho'ro sizni qamab xato qilgan, o'z oyog'iga o'zi bolta urgan. Qani endi barcha ham sizga o'xshab jonini tiksa. Afsus, sizdaqalar...

– Kam demoqchimisiz?

Dilovarxo'ja xuddi shundoq demoqchi bo'lsa ham, gapni boshqa yoqqa burdi:

– Yo'q! Ko'pi qamoqda yotibdi demoqchiman.

– Ochiqda ham ko'p. To'xtab turing, hali kuchini ko'rasiz!

– Aslsiz! Asl aynamas, oltin zanglamas, deganlari shu. Lekin... avval jinoyatingiz bo'lmasa ham, endi xiyonatga qo'l urib qo'ydingiz.

Dilovarxo'ja suhbatdoshiga yer ostidan mug'ambirona qaradi. U, bu gapni Sodiqning tilini qisib qo'yish uchun atayin boshladi. Axir Sodiqning boyagi hujumi hazilakam bo'lmadi, agar hazilga yo'yib, kulib qutulmasa, xudo biladi, yana nima kunlar boshiga tushardi. Sodiq, o'sha



avvalgi Sodiq, shuncha azob chekib ham e'tiqodiga kuya tushmapti!

Dilovarxo'janing nimaga ishora qilayotganiga tushungan Sodiq yana aniqlab olmoqchi bo'lib so'radi:

– Qochibmi?

– Ha, bo'lmasam-chi! – Dilovarxo'ja yana uning yuzidagi o'zgarishni ko'rmoqchi bo'lib zimdan kuzatdi. Sodiq parvo qilmadi. Cho'chish o'rniga yuzida tabassum paydo bo'ldi. Bu tabassum uzoq cho'zilmadi, o'rnini ishonch to'liqini almashdi:

– Yaxshilik yo'lidagi yolg'on ayb emas!

– Shunday bo'lsa ham...

– Bo'lmasa borib ayting! – piching qildi Sodiq.

Dilovarxo'ja murodiga yetolmadi: nainki Sodiqni o'z niyati yo'lga burish, uning tilini qisib qo'yishni ham uddalolmadi. Shu gaplarning chin ekanini bilib qolsa-ya, degan xayol miyasiga keldi-yu, uning yuragi siqilib ketdi, chekmoqchi bo'lib tamaki to'rvasini qo'lga oldi. Hafsala bilan papiros o'rar ekan, Sodiqning hayron bo'lib qo'lga qarab turganini payqab qoldi. Avvaliga uning bunchalik termilishi sababini bilmadi, keyin uning ikkala ko'zi tamaki to'rvasida ekanini ko'rdi-yu, yuragi «jig'» etib ketdi. Qo'lidagi tamaki to'rva Bogunniki edi. U esini yig'ib olguncha Sodiq:

– Bogunning to'rvasimi? – deb so'rab qoldi.

– Iye, hali sizga aytmo'vdimm? Yo'g'-e! Aytgandirman! Yodingizdan ko'tarilibdi, – o'zini tutib, o'smoqchiladi Dilovarxo'ja. Undan qat'iy «yo'q» javobini olgach, birov «yolg'on, gaping yolg'on» deyotgandek izohlab ketdi: – Rahmatli, bir mahal to'rvasini uzatib, «o'rang, bir chekaylik» deb qoldi. Shundan dardiga davo izlayapti shekilli bechora, dedimu, qo'lidan oldim. O'raganimcha yo'q, suv so'rab qoldi, bu

yog'ini aytuvdim shekilli, bir vaqt nafasim bo'g'zimga tiqilib suvni olib kelsam, bechora dunyodan o'tibdi. Qo'li men tomonga uzatig'liq qolibdi: suvga uzatganmi, tamakigami – bilmadim. Shu-shu to'rva menda qolib ketdi. Rahmatlini eslab yodgorlik qilib olib yuribman. Yo sizga beraymi?

– Yo'q-yo'q! Rahmat! – g'alati bo'lib ketdi Sodiq. Bunday holat kishi qo'li qorong'ida shilimshiq narsaga tegib ketsa yoki jonli narsani nogahon bosib olganda paydo bo'ladi. Uning xayoli chuvaldi: nega shu vaqtgacha ko'rmaganman yoki yashirib yurganmi? Yashirsa, nega yashiradi? O'zining boshqa to'rvasi bor edi shekilli. O'rmonda askarlarga tamaki so'rab olib berganimda shu to'rvamidi? Yo'q, boshqa edi! Agar shu bo'lganda tanigan bo'lardim. Demak yashirib yurgan! Bir balosi borki, mendan yashirgan. Bogunning o'lishi haqida o'sha kuni hikoya qilganida uning chekmoqchi bo'lganini aytmagan edi. Rost, aytmagan edi. Endi nega bunaqa deyapti? Rangi ham o'zgarib ketdi. Uni hech mahal shunday ko'rmaganman. Bogunning murdasi tepasida ham xuddi shunga o'xshagan holatda ko'ringan edi. Mayli, unda qo'rqan bo'lishi mumkin. Hozir nega o'zgardi? Nimadan o'zgardi? Bu yerda u qo'rqadigan hech narsa yo'q-ku. Demak to'rvaning tagida bir sir bor! Ana, papiros o'rayotgan barmoqlari ham sal titrayapti. Ko'zini yerdan ololmayapti!

Sodiq o'z hayajonini bildirib qo'yishdan qo'rqib, birpas Dilovarxo'jani kuzatib turdi-da, bir bahona bilan yerto'ladan tashqariga chiqdi. Ufqqa bosh qo'ygan quyoshdan barkashdagi olovdek yallig' ko'tarilib turibdi. Unga yaqin turgan uvada bulutning etagi titilgan qizil lattadek tovlanadi. Sal o'tmay, ufq to'q qizildan to'q sariqqa o'tdi, keyin sariqning tubi qoraga yaqin tus oldi, borib-borib nimmalla rangga aylandi. Unga yaqin turgan uvada bulut

esa, bir parcha qora dog'dek joyida qotib qoldi. Sodiq shu ufqdan ko'zini olmas, xayoli hamon o'sha tamaki to'rvada, qulog'ida Bogunning vagondagi gapi: «Bu, xotinimning o'zi ekkan tamakidan. Atayin men uchun ekibdi... To'rvasi ham o'zining hunari... Jabr bo'ldi bechoraga, bolalarimiz bir-biridan kichik... Borsam, qo'lini sovuq suvga urdirmayman...».

Sodiq bir narsa esiga tushgandek, shart orqasiga burildi, qo'lida xayol bilan ezg'ilab o'tirgan kesakning bir bo'lagini zarb bilan kukun qilib, sochdi. Yerto'laga o'zini bosib kirib bordi. Uni ko'rib xomush o'tirgan Dilovarxo'ja birdan tetikiandi. Qayoqqa chiqib kelganini so'radi. Birov chaqirganday bo'ldi, deb bahona ko'rsatdi Sodiq. So'ngra Dilovarxo'janing ikki barmog'i orasidan buralib chiqayotgan tamaki tutuniga qarab qoldi. Yerto'laning nishiga qo'yilgan «jinchiroq»ni oldi, uning piligi uchidagi so'xtasini ikki barmog'i bilan uqalab tushirdi, keyin yoqdi. Atayin qilganday uni o'rtaga qo'yib, yerto'laning og'ziga tutib qo'yilgan plash-palatkani tashqariga yorug' o'tmaydigan qilib to'g'riladi. Joyiga o'tirayotib, Dilovarxo'jadan so'radi:

- Bogun uyg'onganda siz tepasidamidingiz?
- Ha, shundoq yonida cho'zilib yotgan edim.
- Cho'chib uyg'ondimi?
- Yo'talib uyg'ondi-yu, tipirchilayverdi.
- Unda tamaki to'rvani sizga qachon berdi?
- Shunda-da! Ishonmayapsizmi? Xudo haqqi shunda berdi.

Dilovarxo'janing qasami Sodiqning shubhasini oshirdi. «Nahotki uni... Yo'g'-e! Nima uchun, nima uchun uni o'ldirishi kerak. Bir to'rvachayu bir kaft tamakigami? Lagerda emas edi-ku! So'rasa, Bogunning o'zi ham berardi, saxiy, tanti yigit edi. Yo u o'lganidan keyin ochko'zlik qilib, yonidan

oldimi? Cho'chimasdan-a! Yo'q, gap tamakida emas. Bu chiroyli tamakidonda ham emas, bu yerda boshqa bir sir bo'lishi kerak. Aks holda Dilovarxo'jaday odam asabiy titrab, qasam ichmas edi».

Sodiqning qo'li murdaning sovuq badaniga tekkandek seskanib ketdi.

Dilovarxo'ja Sodiqning yomon o'yga borganini sezib turardi-yu, uni ochiq rad etishga qurbi yetmas edi. Shuning uchun ginaxonlikka ko'chdi.

– O'likning yonidan uyalmasdan to'rvasini olibdi, deb gumonsirayapsiz-a, Sodiqjon? O'zim ham shunday dersiz deb o'ylovdim. Aytganim keldi. Ko'nglim begidir odamman-da, bo'lmasa, tamakisini olib, o'zini bir chetga uloqtirganimda bilib o'tiruvdingizmi? Ayb o'zimda, o'zim ahmoqman. Bu vaqtda odamiar to'g'ri gapga ishonmaydi, yolg'onni yoqtiradi. Yolg'on chin bo'lib, chinga chechak chiqqan. Mana bittasi siz. Echkiga salla o'ratib imomlikka o'tkazyapsiz. Nahotki men murdaning yoniga qo'l solsam, qo'lim sinib, ko'zim sitilib oqsa bo'lmaydimi!

– Nega qasam ichib, o'zingizni qarg'aysiz! Sizni birov bir narsada ayblayaptimi?

– Savollaringizni ko'rmaysizmi, tergovchidikidan o'tib tushadi, go'yo men Bogunni o'ldirib, tamakidonini yonidan olganday zug'umli.

Sodiqning ko'ngliga «ha, senga gumonim bor. Gumonim faqat tamakidongagina emas!» degan so'z kelgan bo'lsa ham, o'zini tutdi. U og'ir ahvolda qolgan edi. Da'vo-ku qilish mumkin, lekin isbotiga qo'lida nima bor? Hech narsa! Mana shu narsa tilini bog'lab, shaxtini qaytarardi.

– Shu to'rvachani siz olib qo'ying, Sodiqjon, xudo xayringizni bersin. Rahmatli, mendan ko'ra sizga yaqin edi.

Dilovarxo'ja Sodiq qo'lini uzatguncha to'rvachani unga irg'itdi. To'rva Sodiqning qo'lga «pap» etib tushishi bilan tamaki hidi anqidi, uning burnini qichitdi. Bir qo'li bilan dimog'ini ezg'ilab, to'rvachaga ko'z soldi: «shaytonteri»dan tikilgan, ustiga Bogun ismi va familiyasining bosh harflari ip bilan qayd etilgan, oddiygina tamakidon. Og'zini bo'g'ib qo'ygan chiyratma ipining uchlarida binafshadek popugi bor.

Sodiq tamakidonni olgisi kelib turgan bo'lsa ham, Dilovarxo'janing shubhasini oshirmaslik uchun qaytarib berdi:

– Men chekmasam, nima qilaman.

– Do'stingizdan esdalik.

– Sizing qo'lingizda ko'rib yurganim ham bo'ladi.

– O'q tegishi bor, frontdamiz...

– Menga tegmaydimi? – kuldi Sodiq.

– Tegishga-ku, hammamizga tegishi mumkin. Ko'ng-lingizga gap kelgani uchun...

– Olsam kelmaydimi? – yana o'sha alfozda dedi Sodiq.

Shu bilan gap uzildi. Dilovarxo'ja yana bir tamaki o'rab chekdi. Qoldig'ini yerga tashlab, tuproqqa qorishib ketgunicha oyog'i bilan ezg'iladi. U shu bilan Sodiqning shubhasidan ko'ngli olinganini bildirmoqchi edi. Chiqib keta turib:

– Nima bo'lsa ham bosmachi o'tganmiz, Sodiqjon, bizlarga shubha bilan qaramasanglar bo'lmaydi. Odatda, igna o'g'irlagandan yo'qolgan sigirni ham gumon qilishadi, – dedi. Sodiq bir so'z deguncha u yerto'ladan chiqib bo'lgan edi, shuning uchun pardani chetlab orqasidan qaradi: u suvga tushib borayotgan odamdek qorong'ilikka singib borardi.

U ketgach, Sodiq nima qilishini bilmay qoldi: o'tirsa o'rni, yursa yo'li kuyardi!

Dilovarxo'ja ichidan yonar edi. Garchand u Sodiqning oldidan piching bilan arazlagandek bo'lib chiqqan bo'lsa-da, aslida o'zining butunlay qarmoqqa ilinib qolishidan qo'rqqan, asablarining qaqshab borishi bunga guvohlik bermoqda edi. U ortiqcha o'tirolmadi, o'tirishi ham endi mumkin emas edi. Uning nazarida Sodiq butun sirdan voqifu, tamakidon shuni chuvatib ochishga bir vosita bo'lmoqda. Bo'lmasa u shu vaqtgacha bunaqa tilda birov bilan gaplashgan emas, xuddi tergovchining o'zi-ya! Avvalam mening o'zim ahmoqman. Uning gumon qilganicha bor. Bu la'nati lattani nimaga ham olgan ekanman. Ha, yaxshi, tamaki-ku senga kerak ekan, to'rvachasi bilan olib nima qilasan, cho'ntagingga bo'shat, qo'y. Yo teshib chiqarmidi! Teshib chiqmasdi! Mana endi shu arzimagan narsa bitgan yarani gazak oldirib, unut bo'lganni esga solib o'tiribdi. Hali boshingni yemasa go'rga edi! Ey Dilovarxo'ja, shuncha qoqilganing yetmaganiday, yana g'adir-budur ko'chadan yurasan-a! Hech aqling kirib, tavbanga tayanmas ekansan-da! Zora shu ham o'tib-ketsa! O'tib ketarmikin? Shu Sodiq bo'ladigan bo'lsa bosti-bosti bo'lib ketishiga qo'yarmikin? Qo'ymas, sira ham qo'ymas! Turqi buzuq. Yaxshi ham shubha qilyapti, mabodo anig'ini bilib qolsa bormi, naq o'sha yerning o'zida qoziq qilib qoqib yuboradi. Xo'sh, ayt-chi, Dilovarxo'ja, sen nima qilib, uning ketida laychadek ergashib yuribsan: o'sha stansiyaning o'zida yo'lingni ters solib ketaversang bo'lmasmidi? Mayli, uchratishga-ku uni uchratib qolibsan, bu yoqqa yur, deganda «taqdirimiz bir tushgan bo'lsa ham, endi yo'limiz boshqa! Sen o'z yo'lingdan boraver, men ham joyimni topib olaman» deganingda «qayoqqa,

xo'jam?» deb yoqangdan bo'g'ib sudrarmidi? Hech hamda! Axir u ham sendek ishtonsiz, cho'pdan hadigi bor edi! Uch-to'rt oy biror kavakda jon saqiab turarding. Nemisning shu bosib kelishi bo'lsa, unchaga ham bormaydi. Ey, rejasini bilmagan xomkalla! Endi nima bo'ldi?.. Ha, mayli, stansiyada, bombalash paytida uchratganingdaku xom eding, endi ko'zing ochilgan ko'rdek qayoqqa borishingni bilmasding. Keyin-chi? Keyin nega aqling kirmadi, Sodiqning senga esh bo'imasiigini, qaynatsa qoni qo'shilmasiigini bilmasmiding. Yo u ham alam ko'rdi, endi boshqa bo'lib qoldi deb o'yladingmi? Uning aynimasligi o'sha lagerdayoq ko'rinib turgan edi, biror marta g'ing degani yo'q. Aksincha, uncha-muncha g'ing'illaganni og'ziga urib yurdi. Shunday bo'lgandan keyin, yalang'och xanjarning yonida yurishning nima keragi bor edi. Juda bo'lmaganda Bogundan keyin, uning ham janozasini o'qib qo'ya qolgin edi. Bir lahzaning ishi edi-ku. Uxlab yotganda bo'g'ib ketish qo'lingdan kelmaganda, birorta temir yoki so'yil topilmasmidi? Tosh-chi? Kattaroq bir tosh bilan uxlab yotganida miyasiga o'xshatib solish kifoya edi. U mahalda bu yoqlarga kelib, har uchgan o'qdan ko'zingni chirt yumib, mina portiaganda astag'firullo aytib, «hozir ustimga tushadi, hozir ustimga tushadi» deb jon hovuchlab o'tirmas eding. O'zingdan ko'r, xo'ja! Ahmoq bosh oyoqqa tinchlik bermaydi, deb shuni aytadi. Aslida Dilovarxo'ja frontga Sodiqning maslahati bilan emas, o'z rejasi bilan kelganini hozir eslamas edi. Axir Sodiq frontga borish masalasini aytganda, Dilovarxo'janing xayoliga jang qilish emas, mana shu yaqin yo'l bilan o'z maqsadiga yetish ya'ni bir amallab nemis tomonga o'tib olib, jonini saqiash uchun kelgan edi. Imkoni bo'lishi bilan bir mahallar kishilar

orqali aloqa qilib turgan, Turkiya yoki Afg'onistonga safar qilmoqchi edi. Uni taniydiganlar ham topilib qolsa ajabmas edi. Ana unda dorilamon hayot boshlaydi. O'ldimiki, hali ham biror ellik kishiga sarkorlik qilolmasa. Nemisning shu kelishi bo'lsa sho'rolarning boshini yeyishi muqarrar. Unda yana yaxshi, sho'rodan aziyat chekkan, bir mahallar unga qarshi kurashgan sifatida kirib keladi, haq-huquqini oladi, ehtimol bir shaharga hokim bo'lsa! Qani ana shunda Sodiqli qamti kelsa-yu, u bilan gaplashsa. Gaplashib, adi-badi aytishib ham o'tirmas edi. Bir barmog'i ishorasi bunga o'xshagan yuzta yalangoyoqning tovoniga mix qoqardi.

Dilovarxo'ja hozir bu orzularini unutgan, hamma aybni Sodiqli qo'yib, taqdiridan nolib o'tirardi, ich-ichidan yonardi. Ilojini topsa, uning etini bir burdadan qilib tashlashga tayyor edi-yu, beilojigidan yana battar o'rtanar edi. Asabdan sonidagi qichitmasini qichib, qop-qora qonga beladi! Yotmoqli bo'lib o'rniga cho'zildi – bo'lmadi, bir piyola choy ichmoqli bo'ldi – tomog'idan o'tmadi, papiros chekdi – diqqatini yozmadi. Tamaki to'rvacha mudhish daqiqalarni yana butun dahshati bilan esiga soldi, jahl bilan uni yerga otdi, so'kindi, yana borib oldi – tamakini ko'zi'qiyadi. Yana o'rab chekdi, barmog'ini kuydiradigan bo'lgunicha chekdi.

Bari bir alamdanda chiqmadi. To'ppa-to'g'ri Sodiqlining oldiga borib: «Xo'sh, menda nima alaming bor, ochiq ayt. Qasding bo'lsa, maydonga chiq, juda jonimdan to'yib ketdim!» – demoqli, hatto tik borib, tomog'idan olib bir yoqli qilmoqli, keyin nemis tomoniga o'tib ketmoqli bo'ldi. Shunda qandaydir ichki bir tovush «bu nodonlik. Osmonga tufilasang betingga tushadi! O'zingni



bos, modomiki, qasding bor ekan, o'ylab ish tut. Uni o'ldiraman, deb o'zingni sirtmoqqa tutib berma. Bir mahal u bilan olishib, o'qing toshga tekkani esingdan chiqdimi? Nodon bo'lma. Uni shunday ham birorta o'q g'ajib ketadi. Sen ahmoq bo'lib u bilan olishib yurmasdan, o'z ishingni bil: etagingni qoqu, hayyo-hu deb narigi tomonga o't-ket. Shundan yaxshisi yo'q» desa, boshqa bir alam o'tgan, asabiy tovush – «Yo'q, hezimbash shunaqa qiladi. Sen bu yo'ldan bormasliging kerak. Avvalam uning boshini yeyishing shart. Nahotki uni tirik tashlab ketib, tinchgina yashay olasan! Yasholmaysan, yashatmaydi. O'sha ot o'ynatib, o'q chaqnatib yurgan kezdagi jur'atlaringni esla-yu, yana bir mardlik qil, xudo o'zi madadkor bo'ladi, savobiga qolasan. Sen uchun birdan-bir to'g'ri yo'l – shu!» deya uni talvasaga solardi, qo'lini musht qildirardi.

Dilovarxo'ja ana shu keyingi tovushga quloq soldi, Sodiqning joniga qasd qildi: buning uchun frontda ozmuncha imkoniyatlar bormi!

Shu lahzadan boshlab, itning xayolidan yog'liq suyak ketmaganidek, Dilovarxo'janing fikri-o'yi Sodiqning joni bo'lib qoldi.

## 5. QODIRNING QORA KUNLARI

Omading kelmagandan keyin qiyin, tekis yerda qoqilasan.

Qodir xuddi shunday bo'ldi. Urush boshlanadigan kun kechasi qo'yarda-qo'ymay Azizani o'zi ishlayotgan qishloqqa olib chiqdi. Shu kechasi u elektrini qurgan qishloqqa yalpi tok berildi. MTS klubida shunga bag'ishlangan kecha bo'ldi, shahardan artistlar chiqib konsert qo'yib berdi. Ziyofat bo'ldi. Ziyofatda jinday qizib

oigan Qodir, o'tirish oxirida Azizaga zo'rlab bir oz vino ichirdi. «Raqiblarimizning ko'zi kuysin», deb qo'ltiqlab, qishloqning charog'on ko'chalarini aylandi, kechasi o'ziga tekkan bir xonali kvartirasida olib qoldi.

– Eshitgan quloqqa xuruk, meni kuzatib qo'ying! – degan Azizaga:

– Hayiqadigan odamingiz bormi? Siz uchun suvga ham, o'tga ham kiraman, deganingiz yolg'on ekan-da! – deb xafa bo'ldi. O'zining injener bo'lolmaganini eslab, shundan bahona topdi.

– Siz doktorga men chorva albatta teng emas! – deb Azizani ham xit qildi. Kayf aralash yig'ladi.

– Hoy Qodirjon aka, sizga nima bo'ldi, birov bir narsa deyaptimi? Ichkilik ham o'lsin! Kishini xursand qiladi deyishar edi, turgan-bitgani g'urbat ekan-ku, – deb, Aziza Qodirning ma'yus boshini tizzasiga oldi. Qodir shu o'tirganicha «uchib» qoldi.

Bir vaqt uyg'onib ko'zini ochsa, tomog'i qaqrab, bir piyola muzday suvga muhtoj. Stol ustida turgan choynakka qo'lini cho'zib, divanda yotgan Azizani ko'rib qoldi-yu, vujudi titrab ketdi. Suv ichishni ham unutdi. Boshiga kelgan birinchi savol «meni kim yechintirib yotqizdi?» bo'ldi. Azizani esladi-yu, badanidan muzday ter chiqib ketdi, kayfidan asar ham qolmadi. Soatiga qarasa, tong yaqin. Boshi lorsillab turishiga qaramay, irg'ib o'rnidan turdi, naridan-beri kiyindi, yuzini devorga qilib yotgan Azizaning orqasidan yaiangoyoq asta tashqariga chiqdi, qo'lidagi tuffisini kiyib, orqasidan birov quvayotgandek yo'rg'alab qoldi. Salqin shamol taptini olib, esi o'ziga keldi. Gogolning «Uylanish»i yodiga tushib «Aziza uyg'onsa, nima deb o'ylaydi» degan andisha bilan orqasiga qaytdi.

Lekin baribir xonasiga kirolmay, kichkina xat yozib, ochilganda yerga tushadigan qilib, eshik tutqichiga qistirib qo'ydi. Xatda shunday deyilgan edi: «Azizaxon! Men badbaxtning bu beodobligini kechirasizmi, yo'qmi, lekin mening boshim qarshingizda majnuntoldek egik. Sizdan uzr so'rab Q.».

Qodir «Azizaning ko'ziga qaysi yuz bilan qarayman endi!» deganicha ming bor istihola bilan MTSga keldi. Ustaxonasini ochib, biror ish qilmoqchi bo'ldi-yu, qo'li hech narsaga bormadi. Xayoli chiroqqa yopishgan kapalakday kechasi bo'lib o'tgan gap-so'zlardan nari ketmas edi. «Bunaqa ichish odatim yo'q edi-ku. Nima jin tegdi menga! Aziza «mendan chet, bu yoqqa chiqib olib, shunaqa ichadigan bo'lib ketgan ekan-ku, men bilmasdan yurgan ekanman», deb o'ylasa-ya! Ana sharmandaligu, mana sharmandalik!»

Qodir peshonasini kaftiga olib, zo'r berib ezg'ilardi.

Kimdir buradi shekilli, MTS hovlisidagi radio karnayi tilga kirdi. Undan berilgan mudhish xabar oldida Qodirjonning tashvishi urvoq bo'lmay qoldi. U «Urush!», «Urush boshlanibdi!» deganicha ustaxonasidan chiqib, kimgadir xabar berishi juda zarur kishidek uchib ketdi. Endi uning ko'ziga na tundagi ko'ngilsizlik, na Aziza oldidagi xijolat ko'rinardi. U kvartirasiga kirib borganda Aziza yuvinib-taranib, uy o'rtasida sochini boshiga turmak qilayotgan edi. Bu mudhish xabarni eshitdi-yu, qo'lidan sochlari yelkasiga ilondek to'lg'anib tushdi, o'zi hang-mang bo'lib qoldi.

Uch kun o'tgach, Qodir voenkomatning hovlisida ketishga shay bo'lib turar, unga Aziza nimalarnidir uqtirar edi. Marat esa etagiga o'ralashib qilich olib kelishini iltimos

qilib, qayta-qayta takrorlar edi. Devor ostidagi skameykada o'tirgan Adolat xola bilan Jannat Qodirdan ko'zini olmas, ba'zan «Jonbolam xola», «yigitlarning joniga ko'z tikmay, ko'zing teshilsin» deb Gitlerni ming baloga giriftor qilardi, ba'zida qariganda shox-shābbasidan ajralgan daraxtdek sho'ppayib o'g'illarisiz yolg'iz qolayotganidan o'ksinib yig'lardi. «O'g'lim ko'rmasin, eslaganda ko'z oldiga ko'zimda yoshim bilan kelmayin» deganday yuzini chetga o'girib yoshlarini artardi, o'zini tetik tutardi.

Qodir bu yerdan hamma bilan xayrlashib ketgan bo'lsa-da, ertasiga ham hali shahardan jo'namagan edi. Uning qayerdaligini topib kelgan Aziza, u frontdan g'alaba bilan qaytgandek bo'yniga qo'lini tashlab quchoqladi, yuziaridan o'pdi. Yana xayrlashar ekan:

– Mendan ko'nglingiz to'q bo'lsin, toshlar erib, daryolar qurib ketguncha kutaman. Sizni deganim degan, – dedi. Ana shunda Qodir ko'nglida dog' bo'lib yotgan dardini ochdi:

– Azizaxon, o'sha kuni kechasi...

Aziza uni gapirtirgani qo'ymadi:

– O'sha ham o'zingizga yarashdi. Boshqa odamga ham shunaqa qiling-chi! Sevgiga ishonib, beparvo bo'lgandan, undan xavotir olib, ardoqlab turgan yaxshi. Siz shunaqa emasmikansiz deb qo'r qar edim, yo'q, kutganim keldi. Xursandman.

– Shunaqami, Azizaxon! – yashnab ketdi Qodir, – O'shandan beri ko'nglim g'ash edi.

– Ha, aytganday, frontda ham ko'nglingizni unar-unmasga g'ash qilavermang.

Shu orada daraxtda o'monat o'tirgan musichalarni cho'chitib, signal yangradi. Bu safga chaqiriq edi. Qodir

shoshganicha, Azizani bag'riga bosib, iablaridan chalachulpa o'pdi. Yo'l-yo'lakay qo'lini silkigancha chopib ketdi. Ko'zi mo'ltillaganicha Aziza qoldi.

Bu ularning oxirgi uchrashuvi bo'ldi.

Ertasiga poyezdga chiqqanlarida o'ylab qarasa, Qodirning Azizaga aytadigan ancha-muncha gaplari qolib ketgan ekan, shuncha birga bo'lib, aytishga vaqt topmabdi!

Poezd yo'lda ikki marta osmondan dushman hujumida qolib, oxirgi front bo'sag'asida ularni tushirdi. Osmon to'la yulduz bo'lsa ham, tun qop-qorong'i edi. Uzoqlardan tun sokinligida yer ostidan kelgandek bo'g'iq gumburlash eshitilardi.

Ular tuni bilan qandaydir past-baland daraxtzorlardan o'tishdi. Tunning qorong'iligidanmi yoki dahshat va qon ufurib turgan front vahimasidanmi, safda hech kim churq etmas, go'yo hamma o'zining ichki dunyosi bilan yashar, bu dunyo sirlarini tashqariga chiqarishni istamas edi. Faqat ba'zan oldinda boshlab borayotgan komandirning «chuqurlik», «ko'ndalang yog'och», «chapda botqoqlik» deb safni ogohlantirgan tovushigina eshitilardi.

Qism ertalab ochiq maydonga chiqib, o'zini o'nglab olguncha bo'lmay, jang boshlanib ketdi. Bu jang Qodir ikki yil xizmat qilganida o'rgatilgan mashqlarga o'xshamas, juda ham «betartib» edi. Dushman o'zi ko'rinmaydi-yu, hamma yoq gumbur-gumbur. Osmonga chiqqan uchta samolyoti tosdagi suvga solib qo'yilgan baliqchalarday jilpang-jilpang qilib, istaganicha o'qqa tutdi. Ular shunchalik pastlab bemalol uchardiki, qorniga yopishgan tutun izlari, qanotidagi ilon nusxa kresti, ba'zan bir tomonga yonboshlaganda uchuvchisining jigarrang shlyomi ham aniq ko'rinardi. Ba'zan na bir o'q uzar, na bir bomba

tashlar, faqat qandaydir chinqiroq bir asbobini asabga tegadigan qilib chinqirtirganicha okoplarga qanotini urib olguday bo'lib o'tib ketardi. Jangchilar jon holatda quiog'ini berkitadi, asabi butunrog'i esa, mashqda o'rgatilganidek ketidan paq-puq qilib miltig'idan o'q uzib qoladi. Qodir ham bir sho'ng'iganida nishonga oldi, lekin ulgurmadi. Sho'ng'ib kelayotgan samolyotning ostidan xuddi uning tepasiga kelganda ikki-uchta zulukka o'xshash qora narsa ajralib, yerga tusha boshladi. Qodir ularning mayda bombalar ekanini bilib, ko'zini chirt yumdi va o'zini okop ichiga oldi. Bombaning o'zidan qancha nariga va qachon tushganini bilmaydi, faqat saldan keyin yerning gumburlab silkinib ketganini elas-elas esiydi. Bir mahal ko'zini ochsa tuproqqa ko'milib yotibdi, lekin hech yerida qon yo'q, yaralanmaganidan, yolg'iz bombaning shamoli yelpib, okopini buzib ustiga ag'darganidan bir qadar xursand bo'lib, yon-veriga qarasa, baqa rang kitelli, kamarining to'qasida burgut naqshi bor nemis soldatlari yuribdi. Boshqatdan ko'z oldini qorong'ilik bosdi. Ko'zini ochib, o'zidan bir qadam narida kimningdir tirsagidan uzilib tushgan qo'lini ko'rdi. Uzuq bilakdagi soat hamon chiqillab yurib turardi. Yuragi orqasiga tortib, bir zum shoshib qoldi: o'zini o'lganga solib yotaversinmi yoki o'q uzsinmi? Hali bir qarorga kelmay, ustidagi tuproqni sal sidirishi bilan orqasidan unga birovning notanish tilda nimadir degani eshitildi. Orqasiga qarab, avtomat o'qtalib turgan nemisni ko'rdi. Qismning chekingani ma'lum bo'ldi.

Shu kuniyoq uni maydonda qolib ketgan boshqa yaradorlar bilan harbiy asirlar lageriga keltirib tashlashdi. Qodir shunda bildiki, uning boshiga nimadir qilgan, qulog'i yomon eshitib, hamon g'uvillaydi. Miyasida bo'shliq paydo bo'lib, u qandaydir havoga to'ladek tuyuladi.

Qodir qo'li, boshi bog'liq yoki hali yarasini bog'iashga ulgurmagan, kiyim-boshi qon askarlar bilan lagerga kirganda u yerdagi kishilarni ko'rib, yana dahshatga keldi: usti boshlari kir-chir, soqol-mo'ylovlari o'sib yovvoyilashtirgan, faqat ko'zlarigina miltillab inson boqishidan darak beradi, bechora yaradorlarning qachonlardir oppoq bo'lgan dokasiga qarab bo'lmaydi, qoradan o'tib, yiltiroq qozonsochiq tusiga kirgan edi. Bularning ham o'zi kabi harbiy asirlar ekanini bildi-yu, vahimaga tushdi. Erta-indin o'zining ham o'shalar ahvoriga tushishi mumkinligini o'yiab, tirik qolganiga pushaymon qildi: nega o'sha kungi bomba o'ldirib qo'ya qolmapti!

Yangi kelganlarni «tomosha» qilib turganlarning orasida bir kishi ko'ziga issiq ko'rinib ketdi. U odam ham Qodirni ko'rdi, bir zungina bir narsani xotirlagandek termilib turdi. Keyin orqasiga shart o'girilib keta boshladi. Bu vaqt Qodir uning kimligini eslagan edi. Bu bir vaqt akasi qamoqqa olingandan keyin uylarini tintuv qilish uchun kelgan NKVD xodimidan biri edi. Uni Qodir yana bir ish bilan telefon qilganida ham ko'rishgan, ikki og'iz gaplashgan ham edi. Adashmasa uning familiyasi Pushkaryov edi. Qodir Pushkaryovning orqasiga burilib ketish sababini bildi: u o'zini ehtiyot qilyapti. Axir nemislar uning NKVD xodimi ekanini bilsa tirik qo'ymaydi-da! Shunda birdan xayoliga keldi: u bu yerda nima qilib yuribdi? Urush boshlanganiga hali hech narsa bo'lgani yo'q-ku, bu qachon asir tusha qolibdi.

Garchand Qodir Pushkaryovni yomon kunlari guvohi sifatida eslasa ham, undan shaxsan yomonlik ko'rmaganidan, o'sha qabul qilgan kuni mehribonlik bilan suhbatlashganidan, buning ustiga mana shunday dahshatli yerda birinchi uchratgan tanish kishisi bo'lganidan uning

ko'nglida qandaydir shafqat uyg'ondi. U bilan gaplashgisi keldi. Ketidan borib:

– Salom, o'rtiq Pushkaryov! Meni taniyapsizmi? – dedi. Pushkaryov uni birinchi marta ko'rayotgan kishidek yelkasini qisdi. Bu yo'li edi. Aslida u ham boya qarashidayoq Qodirni tanigan, tanib turib, «yana bir baloni boshlamasin bu» degan fikr bilan o'zini olib qochgan edi. Qodir uning lagerga tushganidan beri uchratgan birinchi tanishi edi. Tag'in qanaqa tanish! Uning NKVDda ishlashinigina emas, balki akasining qamalishida, tergovini olib borishida bevosita ishtirok etgan kishi sifatida biladi. Qodirning bir og'iz so'zi uning boshini yeydi.

Bu dahshatli xayol Pushkaryovning yuragiga nishtar bo'lib qadalib, dunyoni ko'ziga qorong'i qilib ko'rsatgan, nima qilishini bilmay, ikki o't o'rtasida qolib kelmoqda edi. U o'yiardi: ishqilib tanib qolmasin! Taniganda tanishdan boshqa choram yo'q. La'nati tasodif!

Mana o'sha «ishqilib, tanib qolmasin» degan odami u kutganidan ham tezroq ishga kirishib, ketidan quvib kelib, yo'lini to'sdi. Demak uning yuragida akasining alami qat-qat bo'lib yotgan ekanu, frontga tushishi bilan asir tusha qolibdi. Endi esa, uning omadini berib, qarshisidan men laqqa go'shtdek tayyor chiqib turibman.

Shunday bo'lsa ham Pushkaryov o'zini yo'qotmadi. Hatto bunday ishlarda chiniqib ketgan odamlarga xos og'irlik bilan befarq qarab turib:

– Yo'q, tanimayapman. Siz kimsiz? – dedi.

Bu Qodir uchun kutilmagan javob edi: nahot uni tanimasa? Yo'q, yo'lini qilyapti. Ko'zidan ko'rinib turibdiki, yo'lini qilyapti. Ha. Iloji qancha! Nahotki meni xoinlik qiladi, deb o'ylasa.



Xoinlik haqidagi fikrni o'ylab yuragi orqaga tortib ketdi. Birov uni xoinlikda ayblayotgandek, seskanib tushdi. Vaholanki, uning Pushkaryov tugul, boshqa birovga ham yomonlik qilish xayoli yo'q. Faqat shu og'ir daqiqada tanishini, uning juda uzoqda qolgan ona shahrini, Aziza bilan birga yurgan ko'chalarini, yayrab nafas olgan bog'larini ko'rgan tanishini uchratganidan ko'ngli suv ichib ketidan kelgan edi. Bu bo'lsa, ko'zini lo'q qilib, o'zini chetga olib turibdi!

– Qo'rqmang, sotmayman! – dedi uning sariqqa yaqinroq yuzlariga, tikan bo'lib yotgan malla soqoiiga dadil qarab.

– Nimadan qo'rqaman? Qiziq gapni gapirasiz-a!

Pushkaryov bo'sh kelmas edi. Lekin shu bilan baravar uning oldidan qo'rqqan kishidek shosha-pisha jo'nab ham qolmoqchi emas, «yana nima demoqchisan, gapiraver!» degandek bamaylixotir turardi, o'zini tutishidan qilayotgan ishiga ishonchi mahkamligi ayon edi. Qodir askarlik tamakisini olib, papiros o'radi va hurmat bilan unga tutdi:

– Cheking!

Pushkaryov rahmat aytib, bir chimdimgina oldi.

– Ko'proq olavering, tamom bo'lsa birga xumorlashamiz.

Pushkaryov indamadi, olganini o'rayverdi, shu payt ularning atrofida uch-to'rtta kashanda paydo bo'lgan, biri qo'lini cho'zib, so'rab turardi.

– Saxiy bo'lsangiz ana ularga bering! – dedi

Pushkaryov o'rayotgan papirosidan boshini ko'tarmas-danoq.

Qodir papirosini og'ziga qistirayotib:

– Tamaki odamdan aziz bo'libdimi? – dedi va atrofdagilarga bo'lashib berdi.

Buralib chiqqan tutunni ko'ribmi yoki xumor dimog'lariga hidi darrov borib urdimi, ularning atrofini bir talaygina asirlar o'rab oldi. Bir xili so'lakayini oqizib, chekayotganlarning og'ziga ko'zini lo'q qilib qarab turgan bo'lsa, boshqa birlari, aqlli odamning o'zi biladi, degandek o'zlarini nima bilandir mashg'uldek qilib ko'rsatardi. Boshlab Pushkaryov yarmiga borib qolgan papirosini ustma-ust bir-ikki tortib, yonida turgan biriga uzatdi, Qodir ham shunday qildi.

Sal o'tgach, Qodirdan so'rab olgan kishi ham boshqaga uzatdi. U undan nariga uzatdi. Papiroslar qo'lma-qo'l o'tdi. Lekin eng birinchi so'rab olgan chinoq asirni bir chetga qilib, yolg'iz o'zi chekardi. Pushkaryov uning tirsagiga turti:

– Uyalmaysanmi bir o'zing chekkani!

Chinoq asir hech narsa demasdan, yana bir uzun so'rib, qo'shnisiga uzatgan edi, u olmadi:

– Avval o'zing to'y. O'zi to'ymaganning sarqiti yurak og'rig'i qiladi! – deganicha burilib ketdi. Chinoq o'sal bo'iganicha qoldi.

Kechqurun Pushkaryov mudrab qolgan Qodirni uyg'otib:

→ Ovqatga yuring! – dedi. Uyquga to'ymagan Qodir telba buzoqdek unga ergashdi.

Uzun navbat turib, ming qiy-chuv bilan idish-oyoq yetishmasdan, pachòq kotelokda ikkalalariga olgan narsani boshqa nom topisha bilmaganidan «ovqat» deb atashsa kerak. Suv borligi suyuqligidan aniq, ammo ichida undan boshqa nimalar suzib yurganini, uning rangini allambalo notayin tusga kirlitgan narsa nimaligini bilib bo'lmas edi.

Erkinlikning shirin taomi dimog'idan ketmagan Qodir qorni och bo'lsa ham, ko'ngli tusamadi, irganganga o'xshab, navbati kelganda bir-ikki ho'pladi. Bir gal uning qo'lansa hididan ko'ngli ag'darilib keldi-yu, ishtaha bilan ichayotgan Pushkaryov oldida nomus qilib, o'zini kuch bilan zo'rg'a tutdi. Pushkaryov bilib tursa ham, o'zini bilmaslikka soldi. Lekin Qodir men «to'ydim, o'zingiz ichib qo'ya qoling» degandan keyin, qo'lidagi nonni taklif qilishga majbur bo'ldi, chunki uning nima sababdan «to'yganini» yaxshi bilardi: yangi kelgan kezlari o'zi ham bir haftagacha og'ziga ololmagan.

Avvaliga rozi bo'lmay, og'rinib olgan Qodir nonni ham tuzuk yeyolmadi. Undan nondan ko'ra, boshqa bir narsaning ta'mi kelardi, chaynasa og'zida u yoqdan-bu yoqqa o'tib, tomog'iga ketmas edi.

«Ha, shu yerda ochimdan o'lar ekanman-da» deb vahimaga tushgan Qodir, bir haftadan keyin bu «ta'mli ovqat»ni talashib-tortishib eydigan bo'ldi. Lagerda karavot, ko'rpa-yostiq yo'qligini ham unutib, «it yotish, mirza turish»ga ham ko'nikib qoldi. Endi u haqini talab qilib, mushtlashishdan ham toymas, kerak yerda engagini cho'zib ham borardi. Uning yosh, qiziqqonligini bilgan Pushkaryov bu yo'ldan qaytarib, dakki berib turardi. Nima uchundir uning so'zi Qodirga darrov ta'sir qila qolardi. Sababini o'zi ham ochiq bilmas edi.

Bir kuni ertalab Qodir ko'zini ochsa, yonida qorachadan kelgan, qoshi-ko'zi chiroyli, burni to'mtoq, engagi uch burchak bir yigit turibdi. Yigit shosha-pisha salom berdi. Qodir alik oldi. Yigit g'ayritabiiyroq bir ishshayish bilan:

– Meni tanimadingiz, a? – dedi.

– Yo'q! – deb rostiga ko'chdi Qodir. Garchand uni avval ko'rgan bo'lganda ham, hozir tanishi qiyin edi. Uning

losdek qop-qora soqollari to ko'zining ostigacha yuzini qoplab olgan, past tomoni ko'kragining junigacha ulashib ketgan edi. Peshonasidagi ikki qalin ajinga o'tirgan kir qora ip yopishgandek bo'lib ko'rinardi. Ko'kragiga qo'yib turgan qo'llarining kiriga-ku, qarab bo'lmas edi: tirnog'i qoshiq bo'lib ketgan, osti to'la kir.

Yigit o'sha qalbaki ishshayganicha o'zini tanishtirdi:

– Siz Sodiq akaning ukasisiz, shundaymasmi? Men u kishida o'qiganman. Zab muallim edilar-da, bunaqasi bo'lmaydi. U kishi sinfga kirganda biron bola qilt etmas edi. Darsni ham kiydirib yuborardilar. Lekin imtihonni ham toza olardilar. Meni juda yaxshi ko'rardilar. «Sendan ajoyib tarixchi chiqadi» deb, nuqui «besh» qo'yardilar. O'zim ham toza tayyorlardim.

Tabiati xushchaqchaq bo'lib ko'ringan bu yigit Qodirni qiziqtirib qoldi:

– Sizniki qayerda edi o'zi?

– Shundoqqina maktabning yonida. Direktor bo'lib turgan yerlarida qamalib ketdilar-ku. O'shanda men to'qqizinchi sinfdan edim. U kishidan keyin Mirsalim aka direktor bo'ldi. Ikkovlari juda qalin edilar, lekin Sodiq aka qamalgandan keyin Mirsalim aka darrov to'nini o'zgartirib oldi. U kishining yozdirgan konspektlarini, «xalq dushmaniniki yaramaydi» deb yig'dirib oldi, maktab hovlisiga gulxan yoqtirib, o'zi tepasida turib, kuydirib tashladi. Lekin konspektlarida xato yo'q edi. Bitta o'rtog'im bekitib olib qolgan ekan, o'shani o'qib imtihon berdik hammasi to'g'ri chiqdi.

Akasining sha'niga aytilgan bu so'zlar Qodirga xush yoqdi, uning mehrini tovladi. Bu yoqimtoy yigitning kimiigini yaxshi bilib qo'yish, vaqti-vaqti bilan o'tgan kunlar haqida suhbatlashib turish uchun uning ismi-sharifini

so'radi. Shunda yigit nima uchundir juda o'ng'aysizlanib, yuzida boyadan beri barq urib turgan kulgilarini yig'ishtirib oldi, allanechuk bo'lib ketdi. Qodir, buning bir balosi bor shekilli, deb sabr qilib turdi. Bir oz jimlikdan keyin jur'at etib, og'zini gapga juftladi:

– Sizga to'g'risini aytmasam bo'lmaydi: asli ismim Mo'rdaxay, lekin Mardon bo'lib ketganman, hamma Mardon deydi. Siz ham shunday deyaving. Shu ism yaxshi, shuni o'zim ham yaxshi ko'raman: akangiz ham «Shu ism senga yarashadi» derdilar. Rost! Bir necha marta aytganlar.

Qodir bu yigitning ismini aytishdan oldin nega bunchalik bezovta bo'lganini endi tushundi. Hozir ham, aytib bo'lgandan keyin ham, ko'ngli joyiga tushmaganini, balki avvalgidan ko'ra beshbattar tashvishda ekanini ham fahmiab turardi. Uni shunday nozik joyda «buxor yahudiyimisiz» deb, ko'ngliga battar g'ulg'ula solishni istamasdan:

– O'qchilikman deng! – dedi.

Mo'rdaxay ham tushundi, darrov javob qildi:

– Lekin o'zbek bo'lib ketganman. Uyda ham nuqui o'zbekcha gaplashardik. Dadam rahmatli, o'zbekdan bag'ri keng xalq yo'q. Jahli chiqqanda ham kulib turganday gapiradi, gapi og'ir botmaydi, der edilar. Shuning uchun meni o'zbek maktabiga berganlar. Tilimdan bilinmaydi, a?

Uning talaffuzida buxor yahudiyiligi sal-pal sezilib tursa ham, Qodir uning yuragiga vahima solgisi kelmadi:

– Sira sezilmaydi.

– Rahmat! Katta rahmat! Men bilinib qoladimi, deb qo'rqib yurgan edim. Endi sizdan bitta iltimosim bor.

– Xo'sh? Xo'sh?

– Mabodo birov surishtirib qolsa «uni taniyman, o‘zbek» deb yuborsangiz. Jon aka, shunday deysizmi?

Mo‘rdaxay halizamon birov tomog‘idan xippa bo‘g‘ib olib ketadigan-u, Qodirning bir og‘iz so‘zi olib qoladigandek uning og‘ziga iltijo bilan termilib turdi.

Qodir uning javdirab turgan ko‘ziga qarab «bu bechoralarga bizdan ham qiyin. Bildi – besud, betergov otib tashlaydi. Xalqning ham yaxshi, yomoni bo‘ladimi?» – dedi-yu, unga rahmi keldi.

– Xavotirlanmang! – dedi.

Mo‘rdaxay tashakkur aytganicha yuzida o‘sha tanish tabassum bilan turib ketdi. Bir soatlardan keyin to‘rt chaqmoq qand olib kelib, Qodirga uzatdi. Qodir bu yaqin orada qand betini ko‘rmagan edi, shunday bo‘lsa ham bittasini oldi.

– Rahmat! Qolganini o‘zingiz eng, Mardon! – dedi.

U tabiati yorishib tashqariga chiqdi. Kuz osmonida tivitsimon bulut suzib boradi. Etagi lagerni o‘rab turgan tikan simlarga ilinib qolgudek past. Eh, bu tikan simlar! Shu zang bosgan tikan simlarga, vishkalarda tez-tez almashib turadigan baqa rang kitelli soqchilarga ko‘zi tushganda Qodirning butun a‘zoyi badani jo‘shga kelib faryod qilgisi, ana shu hayqiriq bilan soqchilarning tilka-porasini chiqarib, tikanli simlarni burda-burda qilib tashlagisi kelardi. Lekin buning mumkin emasligini tanasiga o‘yiab, yurak-bag‘ri ezilib, bosh urgani joy topolmay qolardi.

Hozir ham u xuddi ana shunday diqqinafaslik bilan har yer-har yerda behol-bedarmon cho‘zilib yotgan, kiyimboshlari u yoqda tursin, basharalariga ham odam qarab bo‘lmaydigan kir-chir asirlarga ma‘sum nazar tashlab kungay yerga o‘tib borar ekan, o‘zining ham bora-bora bir kuni shu ahvolga tushishi mumkinligini o‘yiab, yuragi

orqasiga tortib ketdi. «Yo'q, bunga yo'l qo'yish o'zimni o'zim o'iimga mahkum qilishdir» degan fikr bilan yana o'ziga dalda berdi va kungayga o'tib o'tirdi. Kuz bo'lishiga qaramay, quyosh badanini isitdi. Qo'ltig'i ostida bir nima g'imirlab, etini qichitdi. Qodir beixtiyor qo'lini yuborib asta qichinar ekan, yonida o'tirgan chinoq asir luqma tashladi:

– Tortinmay qichina bering, u o'zimizning bit bo'ladi, – dedi.

– Yo'g'-e! Bit emasdir! – deya Qodir gimnastyorkasini boshidan chiqararkan, chinoq uning yoniga surilib keldi va Qodirdan avval ko'zi sinashta bo'lib qolgan chok orasiga nazar tashlab:

– Bu-chi? Mana bu nima? – dedi u. Keyin Qodirning soddaligidan kulib bittasini kaftiga oldi, uning ko'zi oldiga tutib, yana tegishdi:

– Taniyapsizmi? Anchagina semirtirib qo'yibsiz.

Bitlash u yoqda tursin, umrida bit zotini ko'rmagan Qodir nomusdan qizarib ketdi.

– Mana, ertaga yana kelisharmish. Rozi bo'lsangiz bu azoblarning hammasidan qutulib qolasiz. Qodir hech narsa tushunmay, chinoqqa boqdi. Chinoq boshqa gapirmadi. «Jonga tegdi bu hayot, o'lik bo'lib go'rda, tirik bo'lib to'rda yo'qsan. Onam o'lsin meni shu kunlarga tug'may!» deganicha to'ng'illab turib ketdi, sal nari borib yana qaytib keldi:

– Shu ham umr bo'ldimi! Itdan suyak qarz bo'lib yashagandan... Yo'q, men bundan ortiq chidolmayman.

– Axir bu ahvolga tushgan bitta sizmi! – uni yupatmoqchi bo'ldi Qodir.

– Har kimning go'ri boshqa, birodar, falonchi ham yuribdi-ku, deb ajal yoqamdan tutganicha poylab o'tirishim

kerakmi? Avvalambor urushda biz yutqazdik. Xo'sh, endi nimani kuzatamiz? Bas, o'z jonim o'zimga kerak.

Qodir uning fikriga qo'shilmasa ham, shu payt biror nima deb uni epaqaga keltirishiga ishonmadi. Bir tomondan uning nemislar tomonidan qo'yilgan ayg'oqchi ekanidan cho'chib:

– Juda ham qisqa o'yiamang! – deyish bilan kifoyalandi.

Chinoq «shu ham gap bo'libdimi!» degandek qo'lini siltab, jo'nadi.

Qodir uning bunchalik iztirob bilan nimaga tayyorlik ko'rganining sirini ertasiga bildi.

Ertasiga tush paytida O'rta Osiyo respublikalaridan asir tushgan «musulmon» askarlarni bir yerga to'pladilar. Ular qarshisiga lager idorasidan uch erkak, bir xotin chiqib keldi. Bir erkak grajdan kiyimida bo'lib, boshida shlyapa, egnida dazmoli buzilmagan jigarrang kostyum, yoqasi kraxmallangan ko'yiak, bo'ynidagi bejirim qilib taqilgan qora galstukning tugilgan yerida nemis fashizmining krest belgisi. O'zi bug'doy rang oriqqina, boshiga nisbatan engagi juda kichkina va uchi nishli. Xotinchalish yurish bilan u hammadan oldinda kelar undan o'ngda nemis ofiseri, chap tomonda esa, yaxshi kiyingan bo'lishiga qaramasdan istarasi sovuq xunuk bir xotin. Orqada esa, avtomat taqqan soldat.

Kostyumlik kishi saf tortib turgan asirlar oldiga kulimsiragan bir alfozda xotinchalish qadamlar bilan kelib, hezalak tovush bilan o'zbekchalab so'rashdi. Asirlarning yurish-turishi «hol ko'r, rang so'r» bo'lsa ham, ularning hol-ahvolini so'radi. Ularga achingan bo'ldi. Uzoq gapirdi. Kimnidir qarg'ab, allakimni ko'klarga ko'tarib maqtadi, nemis qurolining kuchiga hasanot o'qib; «jahongir, muzaffar fyurer»ga tashakkur bildirdi. O'zining musulmonligini pesh



qilib, ularga «himmat va muruvvat qo'lini cho'zishga jazm etib, fyureri a'zamdanda fatvo olganini» ta'kidladi. Yana allanimalarni uzundan-uzoq gapirib, «barcha musulmon bolalarining bir bayroq ostiga to'planish payti kelganini» uqtirdi. Shu niyatda fyureri a'zam qanoti ostida muzaffar musulmon qo'shin tuzmoqchiligini, bu qo'shin o'zagini mana shu ro'parasida turgan azamat yigitlar tashkil etajagini, bu qo'shinga hazrat Amir Temurning ruhi-poklari madadkorligini goh g'urur bilan, goh hazin bir yolvorish bilan aytib chiqqach, yonida turgan nemis ofiseri bilan bir oz nemischalashib, keyin kiyim-boshiari titilib ketgan, ochlikdan rangi-ro'yiga odam qarab bo'lmaydigan g'arib asirlarga murojaat etdi.

– Mana shu qo'shinga yozilishga xohish bildirgan musulmon farzandi bir qadam oldinga chiqsin!

O'zini Ali Naimxon deb tanishtirgan kostyumiik kishi, «men bularni o'z nutqim bilan moydek eritdim, bu ochyalang'och hayotdan albatta voz kechishadi, hammasi guv etib oldinga qadam qo'ysa, yana meni bosib ketishmasin» degandek ikki-uch qadam orqaga chekindi. «Bu zaifa mening xotim, nemis farzandi bo'lsalar ham, Turkistonga nisbatan bo'lgan hurmat va ehtiromlari sababli musulmonlikni qabul etganlar!» – deb bundan sal avval tanishtirgan yonidagi xunuk xotinga nazokat bilan ishshayib, chap qo'li bilan uning bilagini qisib qo'ydi. Bo'lajak askarlarining safdan chiqishini kutib turdi u. Ochyalang'ochlar safi bu kutilmagan komandadan bir qalqib, keyin shunday sokinlik cho'kkan ediki, osmondan o'tgan qushning qanot qoqishi eshitildi. Ali Naimxon safni kuzatib turar, toza qirib upa surtilgan bo'lsa ham, soqolining iziari shundoq qorayib ko'rinib turgan yuziari tagida qandaydir shumiiik yashiringan tabassum kezardi. Vaqt o'tgan sari

bu tabassum ustiga kul o'tirgan cho'g'dek so'nib borar, o'rnini asabiy bir holat olmoqda edi. Bu o'zgarish oxiriga yetmasdan, uning ko'zi birdan chaqnab, tishining oqi ko'rindi. U Qodirdan o'n odimcha nariga qarab:

– Borakallo, azamat! – dedi va barchaning diqqatini o'ziga tortdi. Qodir u «borakallo» degan tomonga boqib, kechagi chinoq asirni ko'rdi. Chinoq bir qadam oidinga chiqdi-yu, atrofda o'zidan boshqa hech kim yo'qligini ko'rib shoshib qoldi. Yana joyiga qaytmoqchi bo'lib, tisarilgan edi, uning oldiga yetib kelgan Ali Naimxon:

– Bemalol, bemalol, azizim, tortinmang! Turk o'g'li jur'atli bo'lishi kerak! – deb uni tutib qoldi. Bu tashabbusdan ruhi ko'tarilgan Ali Naimxon chinoqni maqtab, boshqalarning ham chiqishini kutdi, bu orada ularning «musulmon askarligida» qanday kiyinishi, qanday maishatda yashashiarini og'iz ko'pirtirib maqtadi. Lekin baribir saf qilt etmadi, boshqa bir asirning chiqishi amri mahol ekanini asta-sekin fahmlab, so'zining maromini o'zgartirib bordi, oxiri asabiy bir titroq bilan koyidi, keyin yana «tanalariga o'ylab ko'rishni» yotig'i bilan maslahat berdi. Bu maslahatidan so'ng yana kutdi. Baribir chinoq yoniga boshqa birov qo'shilmasligiga aqli yetgach, u yonidagi nemis ofiseri bilan nimalarnidir chug'urlashdi, xotiniga yuzini o'girib o'zini zo'rlab kuldi.

– Qo'rqishyapti, malikam. Bolshevizm zulmi bularning yuragini olib qo'ygan-da, – dedi u o'z xatti-harakatini oqlagan kishidek.

– Qiziq, nimadan qo'rqishadi! O'z yurtlari go'zal Turkistonga ulug' fyurer xayri-panohida g'olibona kirib borishadi-ku, – dedi xotinni hammaga eshittirib. Uning og'zi kalxat bolasinikiday juda xunuk va beso'naqay katta ekanini endigina payqagan Qodir: «Og'iz ham shunaqa eski

kavushday bo'ladimi! Loytovoqday yuziga biram yarashgan! Gitler ham o'z nemisidan qolgan sarqitini tashlagani joy topolmaganidan keyin, bu «Turkistonparvar» janobga hadya qilganga o'xshaydi. Dunyoda bundan chiroyli xotin zoti yo'qdek yalab-yulqashini qara!» deganicha ancha vaqt bu loytovoq bashara, kalxatog'iz «malika»dan ko'zini olmadi. Shu payt kimdir orqa tomondan:

– O'zing botgan botqoqqa tortma bizni! – dedi. Yana boshqa birov bu tomondan:

– Biz xoin emasmiz! – deb baqirdi.

«Malika»ning ko'zi o'ynab, sheriklariga nimadir dedi, nemis ofiseri ham bezovtalandi. Lekin Ali Naimxon ularga nimalarnidir qisqagina tushuntirib, safga yuzlandi. Yuzida ostini zahar bosib yotgan g'alati bir jilmayish bor edi.

– Vatandoshlar! – dedi u, o'zini arang bosib, – bu nodonlikni tashlang. Shaytonga musulmon ko'nglingizdan joy bermang. Biz yaxshi niyat bilan tashrif buyurgan edik. Bu jaholat nechun!

U ancha gapirdi. Lekin ko'zi bilan o'sha luqma tashlaganlarni hamon qidirib turardi. Uni topgandek bo'ldi shekilli, xotinchka yurishi bilan oldiga bordi, surishtirdi, koyidi. Shu payt, birdan Qodir uning boshqacha tovushini eshitib qoldi:

– Sen juhudbachcha, bu yerda nima qilib turibsən? Sening kasofatingmida bu!

– Kim? Menmi? Men o'zbekman, – dedi safdan biri. Bu tovushni Qodir tanidi, bu Mo'rdaxay edi. «Oh, bechora, qo'lga tushdi!», deb egilib qaradi: Mo'rdaxayning yuzida qon qolmagan.

– Oldinga chiq! – buyurdi Ali Naimxon.

Noiloj qolgan Mo'rdaxay saf oldiga chiqdi. U Qodir kutganidan ko'ra tetik ko'rinardi.

– Nega yolg'on gapirasan? Qani menga qara! – Ali Naimxon uning ko'zidan, sersoqol yuzidan bir narsa uqib oladigan kishidek sinchiklab qaradi. Keyin nima uchundir oyog'iga, yirtiq shinelining kuygan yeriga ko'z tashladi:

– O'zbekligingni nima bilan isbot qilasan?

Mo'rdaxay bunday savol\* qachonlardir berilishini kutmaganidanmi yoki javob qaytarishga o'zligidanmi yelkasini qisdi, ajablandi, ko'zini miltillatdi.

– Yo'q, sen juhudsan! Juhudliging ko'zingdan ko'rinib turibdi, – dedi qat'iy hukmddek Ali Naimxon. Bu hukmini nemis ofiseriga yetkazmoqchi bo'lgandek, orqasiga buri-lishi bilan Qodir:

– Men uni taniyman, afandim! – dedi. «Afandim» so'zi quiog'iga xush eshitilgan Ali Naimxon yuzida tabassum yoyildi, Qodirga yuzini o'girdi:

– Juhudligi to'g'rimi?

– Yo'q! Men u bilan bir maktabda o'qiganmai. O'zbek, ismi Mardon.

Ali Naimxon birdan qovog'i solindi. U ishonmadi. Buni sezgan Qodir yana tasdiqadi.

– Rost!

Hech kim legioniga xohish bildirmay turgan shunday noziq bir paytda «o'zimizniki to'g'ri» deb gojlik qilishni o'rinsiz bilgan Ali Naimxon bir isqirt asirning guvohligiga ishonib qo'ya qolishni ham istamas edi. Bu o'ta soddalik bo'lar edi. Shuning uchun u yana bir isbot talab qildi:

– Qani o'zbek bo'lsang, musulmonligingga kalima keltir.

«Kalima» nimaligini umrida eshitmagan Mo'rdaxay yana hayron bo'ldi. Uning bu mushkulini yana Qodirning o'zi yengillashtirdi:

– Afandim, biz yoshlardan kim kalimani biladi! Kim o‘qitibdi-yu, kim o‘qitgani qo‘yardi. Nahotki shuni bilmasalar!

Ali Naimxon bo‘shashib tushdi: axir Turkistonda diniy maktablar bekitilgan-ku! Bu yigitning gapida jon bor!

– Agar «kalima»ga qarab ajratadigan bo‘lsangiz, meni ham o‘zbek demasligingiz mumkin. – Yana isbotini chuqurlashtirdi Qodir. Lekin «musulmonshunos» Ali Naimxon Qodirni o‘zbek demaslikka hech qanday asosi yo‘q edi, chunki Qodir talaffuzidan tortib, qosh-ko‘zi, yurish-turishigacha quyib qo‘ygan o‘zbek edi.

Qodir «yengdim, endi nima vaj topar ekan?» deb turgan edi, lagerning darvozasi daranglab ochilib, ichkariga yuk mashinasi kirdi. Ustida uch-to‘rtta asir askarlar. Ular yonida va kabinkada uchta nemis avtomatchisi. Mashina safdan sal narida to‘xtadi. Hammaning ko‘zi mashinada edi. Qodir ularga qaradi. Qaradi-yu, hangu mang bo‘lib qoldi: asirning biri Mirsalim, uning sevikli Azizaxonning dadasi Mirsalim edi. «Bu ham asir tushibdi-da!» deb ajablangunicha bo‘lmay, Ali Naimxon bitta o‘zi saf oldida hamon tumshayib turgan chiqoq asirni mashinaga chiqishga buyurdi. Ana shunda Qodir mashinadagilar kimligini tushunib, o‘z ko‘zlariga ishonmadi. «Nahotki, ko‘kragiga mushtlab yurgan Mirsalim xoinlikka rozilik bildirgan bo‘lsa! Yo‘g‘-e! Ehtimol adashayotgandirman. Odam odamga o‘xshashi mumkin». Qodir shunday o‘ylar bilan mashinaga ko‘zini qadadi, hatto o‘zining safdan ajralib chiqib qolganini ham payqamadi. Yo‘q, o‘shaning o‘zi. Qodir adashmagan! Xuddi o‘shaning o‘zi! Axir oraliq kishi adashtiradigan darajada olis ham emas. Qodirning ko‘zi esa, yaxshi ko‘radi.

«Shu yaqindagi lagerda ekan-da, sotqin» deb ko'nglidan o'tkazgan Qodir, zo'r berib, uning ko'zini uchratish niyatida undan ko'zini uzmas edi. Mirsalim bu tomonga boya bir qaraganicha, endi boshini yerdan ko'tarmas edi. Aksincha, Qodirning burgut bo'lib tikilib turganini payqagandek, yuzini ters o'girib oldi. To mashina jo'nab ketgunicha ham bu tomonga qaramadi. Qodir uning ketidan chaqirib, o'zining ko'rganini bildirib qo'ymoqchi bo'ldi-yu, bir tomonda lagerdoshlarining «hali shunaqa tanishlaringiz ham bormidi!» deb ta'na qilishidan, ikkinchidan Ali Naimxonning qahriga uchrab qolishdan cho'chidi. Axir bu yumshoq supurgining bir lahzada kirkiga aylanishi ham hech gap emas-da! Mo'rdaxayning yoniga tushgani ham yetadi!

Ovi ko'ngildagidek o'ngidan kelmasa ham, bo'riligini yashirib, qo'zilarcha muomala qilgan Ali Naimxon «men sizlarning so'zlaringga ishonaman. Sizlar ham mening aytganimga kiringlar, boshiagan yo'limga yuringlar! degan-dek, Mo'rdaxayni safga qaytardi.

– Yaxshilab o'ylanglar! Shayton so'ziga kirmanglar. Biz yana kelamiz! – deganicha shirin xayrlashib ketdi.

Uning bu shirin so'zining taxiri ertasigayoq chiqdi. Lager uning yana kelishiga tayyorlik ko'rib, nimaligi shundoq ham noma'lum bo'lgan «ovqat»ni yana rasvo qildi, endi uni og'ziga olib, nonini tishga bosib bo'lmas edi – turgan-bitgani qipiq. Bu ham yetmagandek «ovqat»ning ichidan soch tolalari, tirnoq, jun, temir-tersak, rezina teri va yana allanimabalo chiqardi. Bularning o'z azob-uqubati o'ziga yetmagandek, boshqa bir qo'shni lagerdan ozib-to'zgan, kiyim-boshining butun yeri qolmagan, umri sanog'lik bir to'da asirlarni keltirib tashladilar. Ular o'z lagerlarida norozilik g'alayoni ko'tarishgan ekan. Qo'zg'olon boshiiqlarini terib

olib, ko'zlari oldida otib tashlashibdi. Qolganlarini esa, ikki hafta butunlay och-nahor qo'yib, keyin ibrat bo'lsin uchun boshqa lagerlarga taqsimlab yuborishibdi. Ular chindan ham holdan tolgan edi. Eshikdan kirib, taqsimlangan baraklariga yetib borishguncha bir nechtasi yo'lda sochilib qoldi. Qodir ulardan biriga ko'mak bermoqchi bo'lib borib cho'chib ketdi: odam bolasi ham shunaqa oriqlab ketadimi! Agar ko'zining miltillaganini aytmasa, tirik o'lik edi u.

Bu hol Qodirning rahmini keltirishi bilan baravar, ularni shu kunga solganlarga nisbatan bitmas-tuganmas nafratini ham uyg'otdi. U bu yerda ham kurash zarurligini angladi. Lekin qanday qilib? Buni bilmas edi!

## 6. MASH'UM UMRNING SO'NGGI

Dilovarxo'ja Sodiqning joniga qasd qilganidan keyin bezovtalanib qoldi – axir buni kechiktirmay bajarish kerak-da!

Avvaliga juda yengil bo'lib ko'ringan bu tadbir, tafsilotiga o'tgan sari murakkablasha bordi. Sodiq inqillab yotgan Bogun emaski, uxlab yotgan yerida kavushini to'g'rilab qo'ya qolsa! Buning ustiga atrof to'la odam, arining uyasiday yerto'laga biri kirib, biri chiqib turadi? U shunday yo'lini qilishi kerakki, nainki tovushi, hatto hidi chiqmasin. Bu yengil emas, albatta. Kechasi yoniga kirib, bo'g'ziga nayza sanchib bo'lmaganidek, biqinib turib paq etib otib ham bo'lmaydi. Demak payt, xilvat, fursat va epchillik kerak.

U «mushkulimni o'zi oson qilsin!» dedi-yu, o'ng yonboshini bosib yotdi. Ertalab barvaqt turib, tahorat oldi. Bir chetga o'tib namoz o'qidi. Duo qildi, nola qildi.

«Ey xudoyim, bir mehribonlik qilsang-chi! Meni qiynab o'tirmasdan shuncha uchgan o'qdan birini, shuncha balo ufurgan bombaning achchiq danakdek bir parchasini uning jon yeriga qadasang nima qiladi. Men-ku sening mo'min-qobil bandangman. Esimni tanibmanki, izmingdaman. Farzingni farz, sunnatingni sunnat tutdim. Yoshligimdayoq «bu sening amring» deb qishloq imomining og'zidan chiqishi bilan ro'za tutmagan, namoz o'qimagan, fitr ro'za bermaganning po'stagini qoqdim, qo'li egrilarning ta'zirini berdim. Keyinchalik o'zim shu yo'lga kirib ketgan bo'lsam ham, seni unutganim yo'q, masjidingga bo'yra, joynamoz olib berib turdim, zakotni kanda qilmadim. O'yiamaki, barcha topganini yolg'iz o'zi bosib yedi deb. Yo'q. Nimaiki o'lja qilgan («o'g'irlagan» deyishga tili bormadi) bo'lsam imomga ham, qoziga ham, yuzboshiga, aminga ham cho'tal berib turganman. Ular hammasidan xabardor edi. Bir safar bir dehqonning qo'shga qo'shib turgan ho'kizini o'marganimda («o'g'irlaganimda» deyishga yana tili bormadi) qozi pochchamning o'zlari «badbaxt, qo'ni-qo'shniga qilasanmi! Narigi qishloqda, sal nariroqda ish tutsang, oyog'ingga yel tushadimi!» deb qutqarib yuborganlar. Bu yaxshiliklarini, albatta, quruq qo'yganim yo'q, bir ovchining ikkita tulkisini (o'g'irlab, yo'q, so'rab) olib berganman. Qishloq oqsoqoli-ku o'zimning otaxonim edilar. Bir pochapo'stin evaziga mardikor ro'yxatidan o'chirib berganlar. Keyinchalik berib turgan «sovg'a-salomlarim» bunga kirmaydi. Omil qori kenja xotini – ayachamni halala qilib, mardikorga qo'shganda, mardikor «endi mening qo'yadigan xotim yo'q» deb turib olganda, uning boshiga it kunini solganman. Ha, rostdan ham shularning hammasini «bismillo» demasdan boshlagan



emasman, har vaqt o'zingni yodlab turganman. Demak hammasidan o'zing voqifsan, ma'zur tutsang bo'ladi.

Inqilob bo'lishi bilan «Islom tug'i ostiga o't!» deding, o'tdim. «Yigit to'pla!» deding, to'pladim. «Kofirni qir!» deding, qirdim. Ha, shuni ham senga eslatib qo'yayki, bizning safimizda kadet o'rislar ham bor edi, ular kofir bo'lmasa kerak, chunki hazrat mufti ular bilan bir dasturxondan non ushatib, bir qozondan osh yerdilar, hatto sallalarini olib qo'ymasdan hushchaqchaqlashib o'tirar edilar. Necha-necha qishloqqa o't qo'yib, necha odamni tig'ga torttirgan bo'lsam, sening noming bilan, bayrog'ing ostida qildim. Axir o'zing «mening ixtiyorimsiz bandamning badanidan bir dona mo'yi tushmaydi» degansan. Demak shularning hammasiga o'zingning ijozating bo'lgan, o'zing buyurib turgansanu, men sodiq quling bajo keltirganman. O'sha vaqtlarda, aziz quling bo'lib yurgan vaqtlarimda, ba'zan maishat bilan bo'lib, besh vaqt namozingni kanda yoki qazo qilgan bo'lsam ayb mendamas, men bilan «bu shar'iydir» deb may ichishgan ulamongda. U kishining betidan o'tib, o'zboshimchalik qilgani botinmadim. U hazrat bo'lsa, ko'p vaqt maishatdan kechib, namozga turmas edilar... Bayrog'ingning sopi sinib, o'zi qizil askar oyog'iga paytava bo'lib ketgandan keyin ko'rgan it kunlarim o'zingga ayon – qoqmagan eshigim, kirmagan teshigim, daydi itdek sanqimagan ko'cham qolmadi. Qishda och qolgan qashqir ham mendan a'lo edi. Shunda ham seni esdan chiqarganim yo'q, oyning o'n besh kuni qorong'i bo'lsa, o'n besh kuni yorug' deb, «bu – biror qilgan gunohimning jazosidir» deb sabr qildim. Bu yog'i yana o'zingga ma'lum: qo'lga tushish, tergov, lager... Shunday qilib hamma sinovingdan «g'ing» demay o'tib kelyapman. Mana endi shu kunga kelib, o'zing musulmonobodlikka ibrat qilib qo'ygan yurtga

yuz tutay deb turganimda, ya'ni og'zim yana oshga yetganida, Sodiq kofir tomog'imga baliq qiltanog'i bo'lib tiqilyapti. Sodiqning kimligini o'zing bilasan: biror marta boshi sajdangga egilgani gumon. Bu ham mayliku-ya, o'sha yillari bayrog'ing ostida bo'lganlarning ozmunchasini shahid qilganmi! Bu qilmishlariga yarasha jazo berib, qamatgan, lagerga tashlatgan bo'lsang ham, tavbasiga tayangani yo'q, tayanish u yoqda tursin, xayoliga ham keltirmaydi. Hali-hali avvalgiday, hamon o'z yo'lim to'g'ri deydi, hamon g'ayridinlar izmida. Men ana shu kofirning joniga qasd qildim. Shu mushkulimni o'zing oson qil, yo'l ko'rsat! O'zing «ol qulim, baxting yor bo'lsin» demasang, asti iloji yo'q. Bu la'nati yursam yo'limda, o'tirsam dilimda to'g'anoq. E, xudovandi karim, sendan shu yoshga kelib, hech narsa iltijo qilgan emas edim, shu bittayu bitta tilagimni ro'yobga chiqar. Sodiqni nemis tig'gi-barroniga uchratu, meni murodimga yetkaz, ya'ni nemis tomoniga omon-eson o'tib olayin. Ishqilib, sharmanda qilma! Omin!»

Dilovarxo'ja o'pkasi to'lib, dimog'ini tortib qo'ydi. Asta turib yerto'laga qaytayotib, Sodiqqa duch keldi.

– Ha, yig'labsiz? Tinchlikmi?

– Kechagi gaplaringizni o'yiab, xo'riigim keldi. Noming yomonga chiqqandan keyin, tavbangga ishonch yo'q ekan!

– Tentak bo'lib qolibsiz, sizga birov bir narsa deyaptimi? O'tgan gaplar Sodiqning xayolidan ancha ko'tarilgan edi.

Dilovarxo'ja «kechagi gaplaringiz-chi», demoqchi bo'ldi-yu, betga chopishni hozir o'ziga ep ko'rmadi. «Ha, nayrangboz, oldimga to'rtta yong'oqni tashlab qo'yib, qo'ynimga qo'l solyapsan-a!» degan fikr ko'nglidan o'tib, o'pkalab dedi:

– Sodiqjon, siz bilmaysiz, odam o'ldirgandan tuhmat yomon: iqror bo'lsang diling og'riydi, rad etsang ishonmaydilar.

Sodiq ana shundagina uning butunlay boshqa narsa ustida o'ylab kelayotganini payqab qoldi. Lekin o'zining joniga qasd ekani yetti uxiasa tushiga kirmas edi. Shunday bo'lsa ham, uni zimdan kuzatib, ko'ngli g'ash bo'ldi. Topshiriq bilan kelgani uchun maqsadga ko'chishga majbur bo'ldi:

– O'q-dori olib kelarkanmiz.

– Qachon? Hozirmi?

– Albatta ertagamas! Hozir.

– Qayerdan?

– Soyning narigi betidagi chakalakzordan. Polk o'qdorixonasi o'sha yoqda-ku.

– Ikkalamizmi? Yo yana odam bormi?

– Ikkalamiz borsak bo'larmish.

Dilovarxo'janing yuragida bir narsa chaqmoq chaqqandek yalt etib ketdi. Uning ko'z oldiga qonli rejasi va Sodiqning oppoq murdasi keldi! «Ey xudo, mushkulimni o'zing oson qilyapsan shekilli!» degan quvonchli fikr uni entiktirib qo'ydi va bo'g'ilib ketgan kishidek gimnastyorkasi yoqasini chiqardi, kamarini bo'shatdi. Garchand butun umidi miltiqda bo'lsa ham, o'zini go'llikka solib Sodiqdan so'rab qo'ydi:

– Miltiqni ham olaymi yo ortiqcha bo'larmikin?

– O'zingiz qanaqa odamsiz, frontda jangchi ham qurolsiz yuradimi! Oldingizdan nemis chiqib qolsa, «menga tegma, miltig'im yo'q» deb maqom qilasizmi?

– Sizda borichun...

– Mendagi o'zimga kerak. Yo navbatma-navbat otamizmi?

Sodiqning kulib aytgan bu soʻzini Dilovarxoʻja tuzuk idrok etmadi. U oʻlib qolsa ham miltiqni qoldirmoqchi emas, butun umidi shundan edi. U yaxshi bilardiki, hozir boradigan joylari anchagina yoʻl. Soyini yoqalab borib, pastga tushiladi, keyin chakalakzor boshlanadi, oʻq-dorixonona esa ana shu chakalakzorning allaqayerida. Garchand u hech bormagan boʻlsa ham, shu yerda mudofaa tutganlarida komandir ehtiyot yuzasidan aytgan edi.

Dilovarxoʻja Sodiq bilan oldinma-keyin bora turib, pastdagi soyga qarab qoʻydi: soyning suvi yaxshi, lekin chuqurligi qalay ekan, odamni koʻmadimi? Keyin soyning u betiga nazar tashladi: daraxtning orasida niqoblab qoʻyilgan toʻp-zambaraklar, atrofida bitta-ikkita askar yuribdi. Ular ham ancha narida. Yon-verida esa hech kim yoʻq. «Ayni joy ekanu, qarshidan biror odam kelib qolishi mumkin-da?» – dedi Dilovarxoʻja va ikki qadam oldinda borayotgan Sodiqning sochi oʻsib ketgan boʻyniga, koʻyiagi yoqasidan sal chiqib turgan oppoq ichki yoqasiga, shalpangroq koʻringan quilogʻiga, hammadan ham nayza sanchishni moʻljallagani chap kuragingning ostiga ichki hayajon bilan yana bir qarab qoʻydi. Bu niyatdan uning badani seskanmasa ham, yuragi dov bermadi. Sal nariroq boraveraylik-chi! Hali vaqt bor-ku.

Shu vaqt oldinda uch jangchi koʻrindi. Ularni koʻrishi bilan Dilovarxoʻja oʻzini shoshma-shosharlik qilib qoʻymaganidan quvondi, oʻz aqliga qoyil qoldi. «Sharmanda boʻlishimga sal qolgan ekan-a!» deb shukur qildi. Qarshidan kelayotgan jangchilar ikkitadan qutini kamarlari bilan xurjun qilib, yelkalariga osib olgan edilar. Ayniqsa, jussasi kichkinasi qora terga tushib ketgan edi, ularni koʻrishi bilan:

– Sharbatga ketyapsizlarmi? – deb so‘radi, javob ham kutmay nolidi: – Tentaklik qilib sizlar ham ikkitadan olib yurmanglar. Juda og‘ir ekan. Oldiniga bilinmagan edi, endi yelkani uzib yuboray deyapti.

U yukini yerga avaylab qo‘yib, gimnastyorkasining yengiga terini artdi. Boshqa biri ham to‘xtadi, uchinchi esa, «to‘xtaganing bilan birov taqimingni moylab qo‘yadimi, yurib qolsang-chi!» degandek, indamay o‘tib ketdi. Nariroq borib orqasiga qaramay baqirdi:

– Osmonga «yuykers» amaking chiqib, nonushtangni berguncha turasanlarmi? Qani yuringlar!

Jussasi kichkina jangchi po‘ng‘illadi:

– Hammaning senga o‘xshab urug‘idan fil chiqqanmi? – keyin Sodiqdan ko‘tartirib yuborishni iltimos qildi. Yuk uncha og‘ir emas edi. U uzoqiashgach Sodiq:

– Etagini hilpillatib, shohi ko‘yiak kiyib yurganlardan shekilli, – dedi. Dilovarxo‘ja o‘z mudhish xayoli bilan band edi. Eshitmadi, shoshib qayta so‘radi:

– Nima dedingiz?

– Xayolingiz qayoqda o‘zi? Nimaning tashvishiga tushib qoldingiz tag‘in? U orqasiga o‘girilib hamrohiga qaradi.

Dilovarxo‘ja siri fosh bo‘lgan kishidek tipirchilab qoldi. Sodiqqa juda g‘ayritabiiy ko‘ringan bir harakat bilan vaj ko‘rsatdi:

– Shu bugun kechasi yomon tush ko‘rdim.

Sodiq qah-qah solib kuldi:

– Shuning motamini tutyapman deng. Balli-e, kim aytadi sizni issiq-sovuqni ko‘rgan deb.

Dilovarxo‘ja shunday ahvolda ediki, Sodiq hozir «nima tush ko‘rdingiz?» desa javob qilolmas edi. Uning baxtiga tushga uncha ahamiyat bermaydigan Sodiq,

qiziqib surishtirmadi. Faqat kap-katta odamning ko'rgan tushidan bunchalik bezovtalanayotganiga kulib qo'ya qoldi. Dilovarxo'ja bundan juda mamnun bo'lib, o'zini tutib oldi. Yana miyasida o'sha mudhish xayollar izg'ib qoldi... Go'yo uning mushkulini chindan ham oson qilayotgandek sal yurishgandan keyin bir tomoni tik qiya, bir tomoni suvga borib taqaladigan tor so'qmoq yo'l boshlandi. Bu so'qmoqning polk mudofaa tutgandan keyin paydo bo'lgani hali yaxshi toptalmaganligidan ko'rinib turardi. Dilovarxo'jaga ayni shunday joy kerak edi. Axir qo'ndoq bilan orqasidan boshiga birni o'xshatib solsa, vassalom! U gangib suvga tushgunicha bir necha toshga urilishi turgan gap. Bu toshlar ham ancha yerini chaqa qiladi, ko'kartiradi, qonatadi – birov uning qo'ndoq bilan urilganini bilib o'tiribdimi! Keyin, to hushi o'ziga kelgunicha og'zi-burniga suv to'ladi, bu undan yaxshi! Ma'lumki, bo'kkan kishi darrov suvning yuziga chiqa qolmaydi. Ichi suvga to'lib, shishishi kerak. Ungacha Dilovarxo'ja nemis tashiagan varaqani changallab, front liniyasidan o'tib bo'ladi. U yoqqa o'tib ketish darrov mumkin bo'lmasa, Sodiqning o'lganiga ko'zi yetganidan keyin, ayyuhannos solib boshiga odam to'plashi, uni qutqarmoqchi bo'lib o'zini suvga tashlashi ham mumkin. Bu yo'l ham yomon emas. Front mamlakat ichkarisi emaski, ota go'ri qozixona qilib tekshirib yurishsa! Ana shundan keyin, nemisga bemalol o'tib ketadi.

Sodiq esa bu yovuz niyatdan butunlay bexabar, kechagi otishmadan jarohat topgan daraxtlarning shox-shabbalariga, snaryad yoki minadan o'pirilib ketgan soy bo'yiga, ko'm-ko'k maysalar o'rtasida so'galdek xunuk ko'rinib turgan bomba chuqurliklariga nazar tashlab, xayol surib borardi. Urushga tili yo'q dov-daraxtlar, begunoh yeru

past-balandliklar ham qatnashadi, daryo, tog', ungurlar qatnashadi, bir umr inson oyoq qo'ymagan qiyaliklar, esdan chiqib ketgan so'qmoq yo'llar qatnashadi, ular ham insondek jarohat topadi, safdan chiqadi, bir umr nogiron bo'lib qoladi. Demak urushning mashaqqatini faqat kishilar emas, butun mavjudot tortadi, uning oqbilakligini butun mavjudot yelkasida ko'taradi, qalbida his etadi. Urush paytining gulu chechagidangina emas, uning musiqasidan, ashulasidan ham porox hidi keladi. Urush oqbilaklarni yomon ko'radi. Dushmandan nafratlanish mardlik va matonatni tug'diradi. Kurashda dushmanga beshafqatlik el-yurtga mehr-muhabbatning oliy bosqichidir.

Sodiq shunday odamiy o'ylar bilan parvoyi falak ekan, Dilovar xo'janing ichini it tirnab, yovuz niyatini amalga oshirish uchun yelkasidan miltig'ini qo'lga oldi. Buni Sodiq payqadi-yu, yana o'shanday beparvolik bilan tegishdi:

– Ha, miltiqni qo'lga olib qoldingiz, chumchuq otasizmi?

Dilovarxo'ja ichki bir mudhish hayajon bilan ko'ziga qon to'lib turgan bo'lsa ham, bahona topa oldi:

– Yo'lning torligini ko'rmaysizmi? Kishi toyib ketsa...

– Qo'lda ko'targan yaxshimi? Undan ko'ra, menga bera qoling, unda juda ham bemalol bo'ladi. – Sodiq orqasiga o'girilib qo'lini uzatdi.

– Yo'g'-e! Bir kishiga ikki miltiq og'irlik qiladi.

– Bo'lmasa oldinga o'ting, shoshmasdan yo'l boshlaysiz. Tag'in toyib ketsangiz baloyingizga qolmayin, hali qiladigan ishlarimiz ko'p-a!

Dilovarxo'ja «oh, bilib qoldi!» dedi ichida va butun a'zoyi badani titrab, rangi quv o'chdi. Sodiq qiyalab turib, uni oldinga o'tkazar ekan, ko'ngliga «nega bu bunchalik bezovta? Mana rangi ham devor bo'lib ketdi!» degan fikr keldi. Lekin shunda ham yomonlikka yo'ymadi:

– Ochig‘ini ayting, biror yeringiz og‘riyaptimi?

– Nega? Yo‘q!

– Allanechuksiz-ku! Tobingiz qochib turgan bo‘lsa orqangizga qayta bering. Birorta odam topib, o‘zim olib kelarman. Bizga ham haligilarniki singari tankka qarshi yonilg‘i bersalar kerak-da!

Dilovarxo‘ja orqasiga qaytishga rozi bo‘lmagandek, nega bunchalik o‘zgarib turganiga tuzukkina sabab ham ko‘rsatolmadi. Sodiq esa «erkak kishi emasmi, dardini aytgani nomus qilyapti» deb bir oz indamay bordi. Lekin o‘z vzvodidan ikki jangchini uchratishi bilan uni zo‘riab orqasiga qaytarib yubordi:

– O‘ralib yoting, – deb tayinladi, – kishi o‘ziga beparvo bo‘lmasligi kerak.

U, bu bilan ham qanoatlanmay, yonilg‘ilarni keltirib komandirga doklad qilgandan keyin, doktor boshlab Dilovarxo‘janing yerto‘lasiga kirdi. Kasali nozikroq bo‘lsa u mening oldimda uyalmasin deb, o‘zi tashqariga chiqib turdi. Doktor biror kasal topolmay, yelkasini qisganicha chiqib ketdi:

– Qo‘rqqanmi... – dedi u xolos.

Doktorning ketidan Sodiq ham ajablanib yelkasini qisdi.

Dilovarxo‘ja o‘zini butunlay fosh bo‘lgan hisoblab, o‘tirgani joy topolmay qoldi.

\* \* \*

Sodiqday ustasi farangdan kelgani yo‘q. Kecha Bogunning to‘rvachasi tufayli gapni shunaqa aylantirib bordiki, dod deb yuborishimga sal qoldi. Shunda ham dilidagini ayta qolmasdan, chiqarib yubordi. Bugun ertalab go‘yo hech narsa bo‘lmagandek muloyim kirib keldi. Mening nima tufayli yonib o‘tirganimni payqadi-yu, yana oldimga



xashak tashlab, ko'nglimni oldi, «o'q-dori olib kelamiz» deb yo'l boshladi. Bu kurash tushayotgan polvonning raqibi belidagi belbog'ini bo'shatib turib, birdan qo'lga o'rab, yonboshiga olishi edi. Men sodda buni tushunmay uni yiqitaman deb, qasd qilib yuribman. Ayni doliguliga kelganda payqab qoldi, shunda ham ochig'ini aytmay, go'yo mehribonlik qilib sog'lig'imni so'radi, qo'yarda-qo'ymay yarim yo'ldan qaytarib yubordi. Vaholanki, o'sha paytda hamma narsa rangi-raftorimdan ko'rinib, qo'llarim titrab turuvdi. Shart yoqamdan olib, «Xo'sh, niyating nima?» deganda, qo'limdan nima ish kelardi. Hech narsa! Yo miltiqni ko'tarishga ulgurardim yoki yo'q. Shunda ham u yuragini keng tutib, yana arqonni uzun tashladi. Kichik bir hazil bilan chegaralanib qo'ya qoldi. Lekin meni oldiga o'tqazib oldi, u bilib turib shunday qildi. Tavba, kishining shunchalik ham asabi mahkam, yuragi daryo bo'ladimi! Boshqa odam bo'lganda kechayoq oyimni o'ttiz kun qilib, hisobni to'g'rilab qo'ya qolardi. Bugun-chi? Bugungisi-ku, juda o'tib ketdi. Bunaqasi bu yorug' jahonda bo'lmaydi. La'natining joni muncha sabil bo'lmasa! O'lmaslikka xat olganmi degin.. Pinagini buzmaydi-ya! Tavba! Uning o'sha inqilob yillaridayoq «Komandir» laqabini olib, butun beva-bechorani ergashtirganicha bor ekan. Axir menday odam tan berib o'tirgandan keyin, u yog'ini aytmasa ham bo'ladi. Ajab, sho'rolar shunday sadoqatli odamining oyog'iga kishan solib, lagerga tashlagani qiziq. Boshingga ko'tarmaysanmi, boshingga! Soyangga ko'rpacha solib, yo'lingda jonini fido qilib yuboray deyapti-ku, «qoch, dushmansan!» deb ko'krigidan itarasan! Bular hammasi-ku mayli, nega endi bilib turib doktor boshlab keldi? Uning joniga qasd qilib turgan odamning sog'lig'i unga nega kerak bo'lib qoldi? Yo'ldagi xatti-harakatimni xaspo'shlab,

o'z og'zimdanda iqrora bo'lgunimcha qo'yib bermoqchimi? Hammasini bilib turgan odamga, og'zimdanda iqrora bo'ldim nimayu, yoqamdan bo'g'ib iqrora qildirdi nima? Bu mushukning chala jon sichqonni u yoqdan-bu yoqqa otib o'ynashiga o'xshaydi. Yo'q, men bunga chidolmayman. Modomiki, yana o'qim toshga tekkan ekan, boshqa chorani ko'rishim kerak. Esim borida etagimni yopib olmasam, sharmandam chiqadi. Bu yer endi menga tor. Bugun bo'lmasa, ertaga uning hiqildog'imdan tutishi turgan gap. Yo o'zim borib, uning ham, o'zimning ham kimligimni, qanaqa qilib frontga tushib qolganimizni aytib bersammikan? Xo'sh, bundan menga nima naf? O'z bo'ynimni o'zim tutib beramanmi? Unga ham tikilgan balo bordir. Men o'z ishimni to'g'rilab ketaveray, to men o'ychi o'ylagunimcha, u tavakkalchi ishimni to'g'rilab qo'ymasin tag'in! To'g'rilab qo'yishi ham hech gapmas.

Dilovarxo'ja ustiga yopib yotgan shinelini bir chetga otdi, iring'ib o'rnidan turdi. Sodiq ikkita odamni boshlab kirib, «qo'lingni ko'tar, qotil» deyayotgandek, eshikdan ko'zini uzmay yig'ishtirildi. Ehtiyot yuzasidan miltig'ining o'qdoniga o'q joyladi, yonidagi nemis varaqasini «o'g'ri» cho'ntagidan yuzaroqqa olib qo'ydi. Safar to'rvasini olmoqchi bo'ldi-yu, keyin qaytdi. Birov «ha, yo'l bo'lsin!» deb, so'roqiyab qoladigandek tuyuldi. Uning ichida bo'lgan kolbasa konservani cho'ntagiga tiqdi, nonni ham paytava uchun berilgan, lekin ishlatishga ko'zi qiymay yurgan oppoq gazmolga o'radi, qo'yniga tiqdi. Og'ir safarga otianayotgan kishidek qandaydir duo ham o'qidi. «Ishimni o'zing o'ngidan keltir»,– deb yuziga fотиha tortdi. Yerto'ladan chiqdi.

Uning rejasicha, hamma o'zi bilan ovora. Bugun otishma bo'lmaganidan xursand bo'lib, yerto'lalarda

dam olyapti. Albatta, dushman tomonni kuzatib o'tirgan navbatchi kuzatuvchilar bor. Ularning asosiy vazifasi dushman tomonga ko'z-quloq bo'lib turish. Shunday bo'lsa ham Dilovarxo'ja ularni imkon boricha uzoqroqdan chetlab o'tishga qaror qildi. Buning uchun birdan-bir yo'l to'g'ri nemis tomonga emaklamasdan, soyga o'tish. U yerda nima ko'p – past-balandlik. U yerning butalari ham yotgan kishi'ni ko'mib ketguday o'siq. Ana o'shalar joniga ora kirishi mumkin.

U o'zini bosib, postga chiqib ketayotgan askardek miltig'ini osib, ancha yergacha bordi. Bir-ikki uchragan odamga turli bahona ko'rsatdi. U hammadan ham Sodiqdan qo'rqardi. Faqat Sodiqqina uning ichini bilishi mumkinday ko'rinardi. Uning baxtiga Sodiq tugul, umuman, bu atrofda jangchilar ko'rinmas edi. U mo'ljal qilgan yerigacha yurak o'ynoqilik bilan kelib, «Xudoga shukur, eng og'ir yeridan o'tib oldim», – deganicha chuqurlikka o'zini tashladi, ko'kragi to'lib nafas oldi. To nafasini rostlab olgunicha bir yerdan qimirlamadi. Bir ko'ngli shom qorong'isi tushishini shu yerda kutgisi keldi, biroq bunga yuragi dov bermadi, birov ketidan quvib kelayotganga o'xshadi. Beline qattiq bog'lab chuqurdan chiqdi-yu, «bismillo» deganicha emaklab ketdi. Chindan ham o'siq o'tlar, o'nqir-cho'nqirlar, ba'zan chakalakzorga o'xshagan yerlar uni begona ko'zdan yashirayotgandek edi. Aslida Sodiq «undan xabar olib tur» deb tayinlab ketgan jangchi Dilovarxo'ja yerto'ladan chiqishi bilan unga xabar bergan, bu qiziq harakatdan ajablangan Sodiq uning iziga tushgan edi.

Sodiq Dilovarxo'ja chuqurlikka tushib ancha vaqt jim bo'lib ketganida «o'zi nima gap?» deb tepasiga borgisi keldi-yu, tag'in «to'xtab tur, qani bu yog'i nima bo'larkin?» deb qiziqqanicha uzoqdan kuzatib turdi. Dilovarxo'ja

chuqurdan tik turib chiqish o'rniga o'g'ri kishidek u yoq-bu yoqqa alanglab qaradi, keyin boshini past qilib yelib ketdi. Sal nariroq borib, yerga yotib oldi, yotganicha emakladi. Bu hammasi avvaliga Sodiqqa g'alati tuyuldi, keyin bundoq o'ylab qarasa, uning niyati buzuq, oyoq olishi xunuk. «Ha, it, – dedi Sodiq ichida naftrat bilan, – oltin tuvak xumori tutib qolibdi-da! To'xtab tur seni!»

Sodiq to uzil-kesil ishonch hosil qilgunicha uni qo'yib berdi. Keyin «to'xta!» deganicha tik turib unga tashlandi. Dilovarxo'ja uning tovushini eshitishi bilan o'rnidan turib nemis tomonga chopa ketdi. Sodiq yana tovush berdi. Qarasa, u hademay nemis tomonga o'tib qoladigan, mo'ljallab turib o'q uzdi. Dilovarxo'ja o'q tekkandan keyin yiqildimi yoki undan oldin o'zini yerga tashladimi, bilmay qoldi. Yo'l-yo'lakay miltig'ining o'qdoniga o'q yuborib, ketidan chopdi. U yetib borganda Dilovarxo'ja mukka tushib yotar, miltig'i qo'lidan uchib ketgan edi. Sodiq uning o'q eganiga gumon qilib, g'azab bilan:

– «Tur, xoin! – dedi miltig'ini o'qtalib, xo'ja turish o'rniga yotgan joyida ingradi. Shundan Sodiq bildiki, u og'ir yaralangan. Tepasiga kelib, oyog'i bilan uni orqasiga ag'dardi. Ko'kragi, qorni qop-qora qonga belangan edi. Tili so'zga kelmadi. Chagalida o'sha mudhish varaqa.

Sodiqning jinday bo'lsin unga rahmi kelmadi, aksincha, nafratidan dir-dir titrar edi. Uning joni uzilishini kutib o'tirmay, shapkasidagi «Yulduz»ni yulqib oldi. Uning miltig'ini ham bu yelkasiga osib, besh qadamcha yurishi bilan Bogunning tamaki to'rvachasi esiga tushdi. «Sotqinning cho'ntagida qolishi uvol» degandek, qaytib borib, yonidan uni ham oldi.

Bu vaqtda Dilovarxo'ja to'ng'iz qo'pgan edi. Uning mo'ylovga o'xshagan baroq qoshlari bo'z ko'ylakka tushgan qora tukli sherst yamoqday badbashara ko'rinardi.

## 7. E'TIQODI BUTUN KISHI

Sodiq o'zini hamon bir narsada kechirolmas edi: nega u so'nggi damgacha Dilovarxo'janing yovuz niyatini payqab ololmadi? Nahotki u uncha-muncha tosh bilan chaqilmaydigan yopishqoq yong'oq edi? Uningku bir vaqtlar atrofiga yigit to'plab, bosmachilik qilganini bilardi. Shunday ekan, nega endi ko'z-quloq bo'lib kuzatib yurmadi? Bu hushyorligining dami qaytib qolganidanmi yoki uning bir vaqt «o'sha yillar tentaklik qilib yurgan ekanmiz-da, eslasa kishining kulgisi qistaydi» deb tavba qilganiga ishonganidanmi? To'g'ri, grajdanlar urushi yillarida tavbasiga tayanib, bizning tomonga o'tgan, keyinchalik o'zining oqko'ngilliligi, mardligi, sadoqati va ishbilarmonligi bilan o'tmish gunohini yuvganlar ozmuncha bo'lmagan. Dilovarxo'jani ham o'shanaqalardan biri, mamlakat boshiga og'ir kun tushganda asqatar, o'zini oqlar deb g'aflatda qoldimi? Unday desa, uning varaqa ko'tarib kelishi, «urushda biz yutqazdik» deb sinamoqchi bo'lganlari ko'zini ochishi kerak emasmidi? Yo'q, barcha ayb o'zimda, urush yillarining bunday «sayyohlar» haqida «ularga ishon, lekin izini yo'qotma, to'rt ko'z bo'lib tur» degan ajoyib shiorini unutilib qo'ydim. U tulkinging tavbasiyu, mug'ombir yig'isiga ishonmaslik kerak edi. Endi nima bo'ldi. Hammaning og'zida duv-duv gap: «Bir o'zbek jangchisi qo'lida nemis varaqasi bilan dushman tomoniga o'tib ketayotgan ekan, otib tashlashibdi. Qanday uyat!»

Sodiq hammadan ham shunga sira chidamas edi, har eshitganda bir enlik etidan tushardi. «Men uni yaxshi bilardim, asli dushman – bosmachi edi, adashib frontga tushib qolgan» desa, birov «o'zing ham o'shanaqalardan bo'lma, seni ham bir tekshirib ko'rish kerak» deytogandek bo'lardi.

Bu ityalog'ni o'zimga hamroh qilishimning nima hojati bor edi? Ko'chalarda daydi itdek sanqib, qo'lga tushib ketmasmidi! Bunaqalarning joyi asii o'sha yerda. Qonun bularni tikanli simdan tashqariga chiqarmay to'g'ri qiladi. Bularning og'zi tekkan suv harom bo'ladi, oyoq izi tushgan tuproqda giyoh unmaydi, nigoh tashlagan bog'i qurib, gulning isini, hayotning bahorini o'g'iraydi. Bir jihatdan sharmandalarcha bo'lsa-da, qo'lga tushgani yaxshi bo'ldi, ichimizda yurib, zimdan ziyon yetkazaverganda nima qilardik? Bundan dahshati yo'q edi! Yaxshi bo'ldi, har holda yaxshi bo'ldi!

Shu so'nggi fikr uning ko'ngliga tasalli berdi, u maydachuyda gaplarni orqaga tashlab, erkin nafas oldi, yo'q, shon-sharaf izlagan ham, o'limni o'ylagan ham jang qilolmaydi. Lekin o'limni pisand qilmagan ham pand yeydi. Snaryad tushishi bilan vaqtida yotib, vaqtida turish, vaqtida biror tepa orqasiga yoki chuqurlikka chopib o'tib olish qo'rqqoqlik emas, balki jang san'ati. Ana shu lahzadagi ongli harakat yashash maqsadida, dushmanga chap berib, yana kurashga imkon topish uchun qilinadi. Kimki, ana shu lahzada o'limni o'ylar ekan, vahimaga berilar ekan yoki uni pisand qilmay beparvo bo'lar ekan, nobud bo'lishi turgan gap. Jang vahima va manmanlikni yomon ko'radi. Chunki maydon mardlar uchun, e'tiqodi butunlar uchun, ko'plar qatori yashash umidi bilan yonganlar uchunginadir.

Sodiq ana shularni xayolidan o'tkazib o'tirib, o'tgan kunlarini ko'z oldiga keltirdi. Uni grajdanlar urushidan sog'-salomat olib chiqqan ana shu tushunchasi va metin e'tiqodi emasmikin! Axir o'sha yillarda uning joniga qasd qilib otilgan behisob bosmachi o'qlari tuproqlarga qorishib, toshlar orasida qolib ketgan. Mana, yana o'sha dushman

qarshisida tishini g'ijirlatib, ko'ziga qon to'lib turibdi. Faqat nomi boshqa, jang maydoni boshqa, bo'lmasa qonli niyati bitta!

Sodiq ana shunday paytda tasodif bilan, qing'ir yo'l bilan bo'lsa-da, frontga tushib qolganidan mamnun. Mamlakat boshiga juda mushkul va og'ir kunlar tushgan shunday bir paytda o'zining mahbuslar lagerida bo'lishini tasavvur etolmaydi. Bordi-yu, stansiyada o'sha oltin tasodif ro'y bermasa, hozir lagerda o'tirgan bo'lsa nima qilardi? Albatta «frontga yuboring!» deb ariza bergan bo'lardi. Lekin ruxsat etisharmidi? Ana shu dahshatli savol ichidan muzdek izg'irin o'tgandek qalbini huvillatib yubordi. Yo'q, deyishsa, unda nima qilardi? Qiynalardi, yonardi, iztirob chekardi, balki yolvorardi – boshqa nima ham qila olardi. Hozir o'sha lagerlarda jonini qurbon berish ishtiyoqi bilan yonib yotgan, ariza ustiga ariza yozayotganlar kammikin?

Yo'q, noto'g'ri yo'l bilan bo'lsa ham Sodiq o'z o'rnini topdi. Uning joyi shu yerda, shu o'qlar chaq nab, minalar portlayotgan, har lahz a o'lim sovuq el u furib turgan muqaddas yerda, shu okop, shu yerto'lada. Dushman uning murdasi ustidan bosibgina bu yoqqa o'tadi. Agar u dushmanga befarq qarasa, o'z muqaddas Vatani uchun jon tikmasa, o'zi o'q uchib, o'zi himoya qilmasa, boshqalar ham shunday qilmasa, unda el-yurt taqdiri nima bo'ladi? Yo'q! Buni u miyasiga sig'dira olmaydi. Arg'amchiga qil quvvat, deydilar. U ana shu dushman tomog'idan xippa bo'g'adigan yo'g'on, baquvvat arqonning ingichka bir qili. Bu bilan u faxrianadi va oxirgi nafasigacha shunday bo'lib qoladi.

Sodiq ana shunday ezgu fikrlar og'ushida mamnun bo'lib miltig'ini tozalab o'tirar ekan, birdan nemis zambaraklari

o'q yog'dirib qoldi. Yerto'laning chekkalaridan shuvillab tuproq to'kildi, ustunga ilib qo'yilgan kotelok taraqlab tushib ketdi, allaqayer qirsillab, nimadir shuvilladi. Uning yonida o'tirgan jangchilar bunday vaqtda qilinadigan odat bo'yicha, miltig'ini olib okoplariga yugurdilar. Garchand bu «zilzila» Sodiqqa yangilik bo'lmasa ham, shoshib qoldi. Chunki u miltig'ini qismlarga bo'lib tashlab, hafsala bilan tozalab o'tirardi. Yig'ishtirish uchun vaqt kerak edi. Shunday bo'lsa ham, «avtomatchilari darrov bosib kelib qolaqoladimi» hozircha mening ishim yo'q-ku» deb o'ziga dalda berdi va zud bilan miltig'ini yig'ishtirishga kirishdi. Shoshganidan manglayi va yapaloq burunlari parragida mayda ter zarralari paydo bo'lib, o'z okopiga etib borganda bo'linma komandiri uni surishtirib turgan edi.

– UZR, o'rtoq komandir! Men shu yerdaman! – deya qo'lidagi miltig'ini okop Brustveriga qo'yib, ko'zini snaryadlar vag'illab chiqib kelayotgan tomonga tikdi. Keyin bizning artilleriya javob qaytardi. Shunday qilib to'pchilar dueli boshlanib ketdi. Ikki tomonning snaryadlari o'rtada yotgan o'qchi, bronteshar, kuzatuvchilarning ustidan hushtak chalib o'tar, bo'g'iq gumburlashi asabga tegib, tutun aralashgan changi yer bag'irlab suzib yurardi. Nima uchundir, bizning to'pchilar otishni susaytirib borib to'xtatdi.

– Hiylaga ko'chdi! – deb qo'ydi Sodiq yonidagi g'o'labirdan kelgan otdelenie komandiri Zubenko.

– Kim? – tushunmasdan so'radi Sodiq.

– Hozir ko'rasiz.

Sodiq «nimani ko'rar ekanman» deb turganda ularning okopini minomyot shunaqa o'qqa tutib qoldiki, u bu yaqin orada bunaqasini ko'rmagan edi.



– O‘zlaringni chetga olinglar! – deb baqirdi Zubenko va otdeleniedan bitta kuzatuvchi qo‘yib, o‘zi ham yashirindi. Ular uzoq kutdi. Lekin nemis minomyoti hamon tinmas edi. Jangchilarning asabiga tega boshiadi. Sodiq ham chidolmadi:

– Bizning artilleriya nima qilyapti, javob qaytarmaydimi?

– Boyagi dueldayoq qirilib bitdi shekilli, – g‘o‘ldiradi uning yonida miltig‘ini choti orasiga olib o‘tirgan biri.

– Sabr! Jangda ham sabr kerak, – dedi Zubenko va nima uchundir osmonga qarab qo‘ydi. – Sabr qilgan yutadi. Hozir hammasi ma‘lum bo‘ladi.

Komandirga hurmat yuzasidan indashmadi. Chunki Zubenko bundan avval ham jang ko‘rgan, bu orada gospitalda yotib chiqqan, o‘z ishi­ning maromini biladigan tadbirkor edi. Chindan ham saldan keyin «hammasi ma‘lum bo‘ldi». Nemis tanklar bilan hujumga ko‘chganda to‘pchilar shunaqa o‘qqa tutib berdiki, «qirilib bitdi shekilli» degan jangchi qizarib qoldi. Birorta tank oldingi qatorga yetib kelolmadi, uch-to‘rttasi maydonda dabdalasi chiqqanicha qoldi, qolgani qaytdi. Lekin boyagi minomyot hamon jangchilarni bosh ko‘tartirmas edi. Kichik-kichik pauza qilib «metodik» o‘qqa tutardi.

– Bu soy tomonda! – dedi Zubenko minalarning uchishiga quioq solib, – pana joyga o‘rnashib olganga o‘xshaydi. Lekin uzoqda emas.

Sodiq uning gapini sinamoqchi bo‘lgandek portlayotgan minalarga quloq solib, qanoat hosil qilgandek bo‘ldi.

– Bordi-yu, shuni ov qilsak nima bo‘ladi? Okopda biqina berib mog‘orlab ketdik-ku.

– Jonga tegib ketdi deyavering, – bu Sodiq bilan o‘rmonda ilk bor uchrashganda ularni surishtiraverib, bir do‘stidan «onang tergovxonada tuqqanmi?» deb ta‘na

eshitgan jangchi – Shubin edi. U so'nggi vaqtda o'sha «beodobligini» yuvmoqchi bo'lgandek o'zini Sodiqqa yaqin tutib yurardi. Okop qazisa yonidan joy ko'rsatadi, bir yerto'lada turadi.

– Qanday ov qilasiz? – qiziqdi Zubenko.

– Bo'lmasa minasi tamom bo'lgunicha... – deb Sodiq gap boshlagan edi, Shubin ilib ketdi:

– Yo o'zimiz tamom bo'lgunimizcha burnimiz bilan yer titamizmi?

Minalar borgan sari ularning okopi yoniga yaqinlashib kelar, yerga tegar-tegmas portlab, ko'mko'k yerda qop-qora dog' qoldirardi. Hammadan ham ularning chiyillab kelib, qo'nishga joy qidirayotgan qushdek bir lahza lapanglab turishi qiziq edi. Agar u kishiga zarar yetkazmasa, uchishini tomosha qilish mumkin edi, birdan ana shunday chiyillagan minadan bittasi ularning okopi tepasida lapanglab turib pastga sho'ng'idi, sal nariga tushib, ularning ustiga tuproq sochdi. Zubenko bo'yniga tushgan mayda kesaklarni terib olar ekan:

– Mayli, boring, la'nati hali-beri akillashini qo'yadiganga o'xshamaydi, – dedi va vzvod komandiridan ruxsat olib berdi. Tashabbusning nimaligini yaxshi biladigan vzvod komandiri:

– Kim-kim boradi? – dedi.

– Men! – dedi Sodiq. U so'zini tugatmay Shubin ham:

– Men! – dedi. G'o'labirdan kelgan jangchi: «Men ham!» degan edi, komandir kuldi:

– Bu yerda kim qoladi? Yog'ochga kaska ilib qo'yamizmi?

Komandir Sodiq bilan Shubinga ruxsat berib, muvaffaqiyat tiladi:

– Ehtiyot bo'linglar! Bu yerda ham hali qiladigan ishinglar bor.

– Menga qara, Shubin, – dedi Sodiq sal chetga chiqishlari bilan. – Mening boshimga bir fikr keldi. Shunga sen nima deysan?

– Xo'sh?

– Maqsad o'sha olti quvurli minomyotining qayerdaligini bilib, bu yog'ini artilleriyaga qo'yib berishmi yoki safdan chiqarishmi?

– Uddalasak safdan chiqargan yaxshi-ya!

– Albatta, to'ppa-to'g'ri borib bo'lmaydi. Bir hiyla ishlatsak.

– Hiyla?

– Ha. Birimiz nemis, birimiz rus bo'lamiz. Shubin tushunmadi:

– Qanday qilib?

– Keyin aytaman! Sen oldin menga maslahat ber-chi, qayerdan nemis formasini topsa bo'ladi?

– Bunisini bilmadim, – o'ylab qoldi Shubin, keyin birdan yashnab ketdi. – Agar kechasi asirni jo'natmagan bo'lsalar...

Shunday paytda bo'ladigan odatdagi chaqqonlik bilan Sodiq: «Bu aqlingga balli! Aslida Aflotunsanu, hech kim tanimaydi, xolos!» – deganicha chopib ketdi. To'g'ri razvedkachilarga bordi, ulardan asirning qayerdaligini bildi. U shtabga kirganda nemis asirini olib chiqib kelayotgan ekanlar.

– Shuning formasi menga kerak edi, – dedi u shtab boshlig'iga va maqsadini aytib berdi. Sodiqning rejasi qiziqchilikka o'xshab, shtab boshlig'ining kulgisini qistatdi. Lekin u «ishonchi bordirki, dadil kirishyapti» degan fikrga keldi.

– Egnidan echib olasizmi? Irganmaysizmi? – qo'li iflos narsaga tegib ketgan kishidek ijirg'anib dedi shtab boshlig'i.

– Zarur bo'lgandan keyin iloj qancha! Kishilar dori bo'ladi deb ilonning qusug'ini yutgan ekan.

Shtab boshlig'i bu jo'yali javobdan yana kuldi:

– Urushgacha kim bo'lgansiz?

Sodiqning yuragi orqasiga tortib ketdi.

– O'qituvchi, – bo'shshib dedi u.

– Sirkda qiziqchi ekansizmi debman.

Suhbatning bunchalik engil tugaganidan xursand Sodiq indamay qo'ya qoldi. Chiqib ketayotgan yerida birdan to'xtatilgan nemis nima gapligiga tushunmay, ko'zi olma-kesak terardi. O'zidan ko'zini uzmay turgan Sodiqdan xavotirda edi. Vaholanki, Sodiq uning o'zini emas, egnidagi kiyimini ko'zdan kechirayotgan edi, kimga sig'adi: mengami – Shubingami?

– Mayli, oling! Lekin qaytib berish sharti bilan.

– Omonlik bo'lsa!

– Omonlik bo'lishiga ishonmaysizmi? – birdan ajablandi shtab boshlig'i kulgisini yig'ib.

– Ishonchsiz kurashib bo'ladimi, o'rtoq kapitan!

– Albatta, yo'q!

Nemisning ixtiyori o'ziga o'tganini bilgan Sodiq unga orqasidan yurish ishorasini qildi. Qo'shni xonaga olib chiqib, echintirdi. Sodiq kutmaganda nemis dir-dir titrab, yalingansimon allanimalar gapira boshladi.

– Ha, la'nati, buncha titraysan, muzda o'tiribsanmi, qaddingni ko'tar, – dedi u kitelini qo'lidan olib bir chetga qo'yar ekan. – Tank orqasidan kelayotganingda juda boshqacha kekkayasan-ku! Joning shunaqa shirinmi?

Qo'rqma, biz odam yemaymiz, odamxo'r! Qani shimni ham chiqar!

Sodiq nemis formasini qo'ltig'iga qisganicha Shubinning oldiga keldi:

– Mana bu yog'i bo'ldi! Endi kim kiyadi? O'zim kiyardim-ku, qoramag'izligim xalaqit beradi, nemisning menga o'xshagani bo'lmasa kerak, gumonsirab qolmasin. Yaxshisi sen kiy, har holda o'xshashliging bor.

– Gapirma! Unga it o'xshasin! – Shubinning zardasi qaynadi.

– O'zing emas, afting o'xshaydi, – hazilga oldi Sodiq. Baribir Shubin yon bosmas edi:

– Aftim ham o'xshamaydi!

Sodiq qarasa, Shubinning chindan jahli chiqyapti.

– Mayli, o'zim kiyaman bo'lmasa, – dedi.

– Kiyishga-ku kiyaman, lekin o'xshatmagin-da, – bo'shashdi Shubin.

– Ha, mayli, o'xshamaysan, sira ham o'xshamaysan.

– Albatta, sira ham o'xshamayman.

Bolalarcha bu tortishuv Sodiqning kulgisini qistatgan bo'lsa ham, labini tishlab, o'zini bosdi. Lekin Shubin hamon tiyilmas edi:

– Rostini aytaymi, burning nemisnikiga o'xshaydi desang, kesib tashlashga tayyorman. Bunaqa burunning boridan yo'g'i yaxshi! Shu formasini ham o'lganimning kunidan kiyapman, bo'lmasa-chi, tekkan qo'limni uch marta sovunlab yuvib tashlayman. Fashist odammi! Hayvon undan afzal. Hatto tegmasang vahshiy hayvon ham senga daf qilmaydi, yoningdan indamay o'tib ketadi, ovchi bo'lganman, bilaman. Bu ifloschi, eshigingni ochmasang, turmini buzadi, uyga kiritmasang, o't qo'yadi. Tavba shularni ham odam bolasi tuqqanmi?

– Bo‘lmasam-chi.

– Ishonmayman, xudo haqqi, ishonmayman!

– Gap tuqqanda emas, do‘stim, tarbiya qilganda. Tarbiya egrini to‘g‘ri qilgandek, to‘g‘rini mayishtirib ketishi ham mumkin.

– Hey, o‘sha tarbiyachisini...

– Ha, balli, endi o‘zingga kelding. Ayb o‘sha tarbiyachisida. Bo‘lmasa qaysi onaizor o‘z bolasini yomon bo‘lsin deydi. Kim onasining qornidan bomba quchoqlab, avtomat ushlab tushibdi!

Sodiqning ko‘z oldiga o‘z mehribon onasi – «Jonbolam xola» kelib ketdi. U hamma onalarni o‘zinikiga qiyos etar, o‘zinikidek mo‘minu mushtipar deb faraz etardi. Hozir qayerda o‘tirganikin? Sodiq jim bo‘lib ketganidan xavotirdamasmikin? Sodiq necha marta unga xat yozmoqchi bo‘ladi-yu, tag‘in birorta g‘alamis iziga tushib qolishidan cho‘chiydi. «Sal o‘zimni tutib, suyagim qotsinchi», deb orqaga tashlaydi.

– Juda yarashdi, – dedi Sodiq Shubin nemis formasini kiyib bo‘lgach. Unga erish ko‘rinib bo‘yning sal bir tomonga egib, ko‘zini qisgan edi, Sodiq darrov gapini burdi:

– Hazil! Endi qiladigan ishingni bilasan-a? Mana bu avtomatni qorningga tirab ol, go‘yo meni asir olgansanu, haydab kelyapsan. Gut? Gutmi? Qani bo‘l!

Ular to ma‘lum yergacha biqinishib, atrofni kuzatib borishdi. Hamon otishma to‘xtamasdi. Endi osmonga samolyotlar ham chiqqan. Allaqayerga yashiringan zenit to‘plarining o‘qlari osmonda gup-gup yoriladi. Qayerdadir stanokli pulemyot sidirg‘asiga o‘q uzib qoladi, avtomat tarillaydi, to‘plar gumburlaydi.

Sodiq bilan Shubin bir qancha joygacha indamay borishdi. Faqat oyoqiari ostida ezilayotgan sariq o‘tlarning

shitir-shitiri va qo'llari bilan yorib o'tayotgan mayda novdalarning shivir-shiviri eshitalardi. Front ancha chetda qoldi. Endi to'plar ovozi bo'g'iq va yer ostidan kelayotgandek eshitaladi.

– Chetlab ketib qolmadikmi? – dedi Shubin bir vaqt.

– Hozir! – Sodiq yugurib borib bir tepaga chiqdi, undan hech narsa ko'rmadi shekilli, daraxtga tirmashdi. Uning engil chiqib ketayotganini ko'rib Shubin tegishdi:

– Mushuk bo'lib keting-e!

– Kerak bo'lgandan keyin mushuk bo'lib tarmashmay, it bo'lib olishmay nima ilojimiz bor? – dedi daraxtdan tushib kelib va boshlab ketdi. – Sal chetga o'tibmiz. La'nati haliyam otib yotibdi.

– O'qi tamom bo'lmabdimi! – kulib qo'ydi Shubin. Uning yodiga okopdagi suhbat tushgan edi.

– Hozircha tamom qilmay, otib turgani durust, bo'lmasa orientirovkani yo'qotib qo'yamiz.

– Unday bo'lsa, qani tovoningizni moylang, tezlating, do'stlarga jabr bo'lib ketdi.

Yana bir oz yurishgach, taxmin qilingan yerga chiqishdi. Ular polkiga hu jum qilayotgan nemis qismining so'l qanoti shu yer bo'lishi kerak edi. Kuzatish buni tasdiqladi.

– Topgan joyini qara, Shubin, buyurtma-ya! Osmondan kelib qaramasang, topib bo'libsan, artilleriyamizning qiynalganicha ham bor ekan. Hovoncha-ya, hovoncha! – dedi Sodiq Shubinni yoniga chaqirib. Chindan ham nemis minomyotchilari qulay joyda edi. Lekin ular hozir, nima uchundir, o'q uzmay turardi. Sodiqning maqtaganini eshitgan, o'z pozitsiyasining juda qulay ekanini ko'z-ko'z qilayotgandek birdan harakatga kelib qolishdi. Sal orqaroqda telefon trubkasini qulog'idan

qo'ymay turgan bittasining allanimaiaar deb bergan buyrug'i va bir qo'lini ko'tarib siltashidan keyin yonmayon qo'yilgan minomyotlarning uchalasi ham baravar o'q uzdi. Toshbo'ronga o'xshab minomyot quvurlaridan ketma-ket chiqqan minalar vishillab ko'kka tikka ko'tarilib, keyin oldinga intilib sho'ng'idi, sal o'tmay paqir-puqur yer qo'porgani eshitildi. Yana takrorlandi. Yana...

Frontda dushmanning o'zini bamaylixotir tutishini va o'q uzishini ko'rishdan dahshatli narsa yo'q. Chunki o'zining kuchiga ortiqcha ishonganiday, qarshisidagi raqibini pisand qilmaganidagina, u shunday ish tutadi.

Reja bilan ketma-ket otilayotgan minalar o'zining boshiga yog'ilayotgandek, Sodiq ortiq chidab turolmadi. Yonida kuzatib turgan Shubinning ham ko'zida o't yonardi.

– Shubin, – dedi Sodiq unga o'girilib, – qani bo'l, meni oldingga sol! Hayda! To'g'ri minomyotga hayda! Lekin o'zingni tut! Qittay xato ham ikkalamizning boshimizni yeydi.

Egnidagi nemis formasini irganib ko'zdan kechirgan Shubin yuzini burishtirdi:

– Shu rol menga yoqmayapti-da, Sodiq, uddalolmayman. Kel, sal nari roqqacha emaklab borib, to'g'ri o'q uzaveraylik.

– Yo'q! – qat'iy qarshilik bildirdi Sodiq. – Shu yergacha keldikmi, bu yog'iga ham tavakkal qilamiz. To'rtta-beshta raschyotini o'qqa tutgan bilan ish bitmaydi, o'rniga boshqasi o'tadi.

– Artilleriya bor-ku!

– Artilleriya! Artilleriya deydiyan bo'lsak, hoziroq orqamizga qaytib, xabar qilishimiz mumkin. Lekin o'shangacha bular joyida turadimi, ko'chib qolsa nima



bo'ladi? Kel, qo'y, do'stim, bitib turgan ishni orqaga surma! Qani, bo'l, avtomatingni qorningga tira! Men ketdim. Maslahat boyagi!

Sodiq «kelishdikmi?» degandek, orqasiga bir qarab, yoqasining tugmachasini yechdi, boshidan pilotkasini olib cho'ntagiga tiqdi, go'yo asir qiyofasiga kirdi.

– Mana buni ham osib ol. O'ljang! – dedi avtomatini uzatib, keyin besh-olti qadam qorni bilan surilib borib asta turdi, qo'lini baland ko'targanicha yurib ketdi. Roli yoqmagan Shubin noiloj qolib, keʻtdan avtomatini o'qalib yo'lga tushdi. Sodiqning bir narsadan qattiq xavotiri bor edi: nemislar shoshib qolib orqadagi «nemis» Shubinni ko'rmay qolib, birdan o'q uzib yuborsa bormi! Lekin boshqa bir tomondan ko'ngli to'q edi: urush boshlangandan beri uzluksiz olg'a yuraverib, kibru havoga berilgan nemis, chekinaverib go'yo jang joniga tegib ketgan «ruslar»ning bunchalik hiyla ishlatishiga ishonmasligi mumkin. Uning nazarida go'yo raqiblarining qarshilik ko'rsatgisi yo'q, faqat komandirlar va komissarlarning zo'ri bilan bunga majbur bo'lmoqda. Bu qarshilik ham go'yo uzoqqa bormaydi.

Sodiq o'z pozitsiyasida bamaylixtir ish ko'rayotgan dushmani ilk bor ko'rishi edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ularga ochiq-oydin ko'zi tushishi bilan eti jimirlab, beixtiyor borayotgan kishidek ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi. U mo'ljallagan yergacha o'zini tutolmay qolib, ishning pachavasi chiqishidan qattiq qo'rqar edi. Ana shunda u favqulodda bir kuch bilan o'zini bosib, ko'nglida: «Sodiq, bu umringning sinovi, yigit bo'lsang o'zingni tut. Yo ustidan, yo ostidan. Yashashni-ku bilarding, zarur paytda uddalab o'la bilish ham bir san'at» – dedi-yu, qadamini dadillashtirdi. Lekin bu dadillik ehtiyotsizlik

ekanini, dushman payqab qolib, shubhaga tushishi mumkinligini fahmladi-yu, yana darrov o'zini «taqdiridan nolib» borayotgan harbiy asir holatiga solib oldi, qo'llarini shalviratib balandroq ko'tardi. Ammo endi yaqqol ko'rina boshlagan nemislardan ko'zini uzmas, mo'ljallangan yerga yetguncha zarurat tug'ilib qolsa o'zini qayoqqa olish, qanday qarshilik ko'rsatishni ko'nglidan o'tkazib, yon atrofini kuzatib borardi.

Shubin esa, asabiy bir sergaklik bilan avtomatini qorniga tirab, uni haydab borar, «haydab borayotgan asiri»dan ko'ra, ko'zi nemislarda edi. Sodiqning «Sen o'zingni tut, ikki ko'zing menda bo'lsin, ilojini qilolsang, mamnun odamday sal kulib tur, mabodo nemis durbindan qarab qolsa, gumonsiramasin!» deganini hozir unutib bo'lgan edi. Go'yo u oldida hamma narsadan umidini uzgandek xomush bosh egib, lapanglab, ba'zan turtinib-surtinib borayotgan Sodiqni ko'rmas edi. Sodiq buni payqagandek turqini buzmasdan lab uchida asta shivirladi:

– Shubin, o'zingni quvnoqroq tut!

Ana shundagina Shubin haydab ketayotgan «asiri»ning sochlari o'sgan, o'rtasi chuqur bo'ynini, shalpanq quiog'ini ko'rdi. «Nega qulog'ining shalpanqligini avval payqamagan ekanman? Yo hozir ko'zimga shunaqa ko'rinyaptimi?» – deb. qo'ydi ko'nglida Shubin. Shu mahalda esiga shunaqa bo'lmag'ur narsalar kelganidan o'zi ajablanib, sal jilmayib qo'ydi. «Yo'q, – dedi keyin o'ziga o'zi, – hozir bunday bo'lmag'ur narsalarni o'ylaydigan payt emas, butun diqqatim shu qarshidagi nemisda bo'lishi kerak. Ha, rostanam, hali o'z vaqtida Sodiqning avtomatini o'ziga berishim zarur-a! Yana yodimdan chiqib qolmasaydi! Yo'q, nega esimdan chiqsin, asosiy vazifamdan biri shu-ku! U yordamlashmasa bir o'zim yolg'izlik qilib qolaman. Ha, shu

paytda Sodiq nimani o'ylab ketayotganikin? Birdan nemis o'q uzib qolsa boshiab uni mayib qiladi-ya! Yo'q, unga tegmasligi kerak, men shunday chaqqonlik qilishim kerakki, u zarar topmasin. Uning yuragi uvushayotganmikin? Uvushsa kerak. Har holda qo'lida quroli yo'q. Qurol kishiga katta dalda. Yo'q, yuragi uvushmasa kerak, uvushsa, cho'chisa, nemisni payqashi bilan «bo'ldi, qani endi qaytdik, juda noqulay joyda ekan, artilleriyaga aytsak, o'zi boplaydi!» demasmidi! Men sal ishora qilganimda ham unamadi. Demak o'ziga ishonchi zo'r. Bu ishonchmikin yoki dushmanga nafratmikin? Kishi dushmandan qattiq nafratlansa, ko'ziga hatto o'lim ko'rinmaydi, deyishadi. Shu juda to'g'ri. Buni o'zimdan qiyos qilsam bo'ladi. Agar nemis mening bola-chaqamni ko'chada sarson qilib, o'z kuchim bilan tiklagan xatamni yondirib tashlamaganida, balki undan bunchalik nafratlanib, darg'azab bo'lib, mana bunday qaltis ishga rozi bo'lmagan bo'lar edim. Bunday desam, Sodiqqa qanday alam o'tgan? Uning yurti uzoqda, bola-chaqasi tinch-ku. Yo'q, yurti uzoqligi to'g'ri, lekin oilasi tinch emas. Shu nemis tufayli tinchligi buzilgan. Halovati ketgan. Demak, uning ham dardi bor. U uzoqdagi uyiga o't qo'yadigan, oq soch onasini qon yig'latadigan fashistning qo'lini shu yerda, xuddi shu rus yerida uzib tashlamoqchi!

Shubin chuvalib ketgan o'yi bilan bo'lib, bundoq qarasa, Sodiq ancha uzoqlashib ketib qolibdi. «U chopadi, nemis qochib ketayotgani yo'q-ku! Yo asabi bardosh berolmay qolishidan qo'rqyaptimi? Yo'g'-e!» deb ko'nglidan o'tkazdi, nemis uni yolg'iz payqab, birdan o'qqa tutib qoladigandek qadamini tezlatib, yetib oldi.

– Ana, bittasi bizni payqadi! – dedi Shubin saldan keyin.

– Ko'rib turibman!

Sodiq nemisning bunchalik kech payqaganidan xursand emas edi. Birortasi shoshib qolib, vahima ko'tarishi mumkin edi. Yo'q, unday bo'lib chiqmadi. Hammadan avval payqagani yugurib borib, telefon trubkasini qulog'idan qo'ymay, minadan bo'shagan temir qutilar ustida o'tirgan ofiserga xabar berdi. U bir lahzagina trubkani quilog'idan uzoqlatib durbinini qo'liga oldi, boshyalang, yoqavayron, holdan toygandek gandiraklab kelayotgan «asir»ga qaradi. Uning orqasida mamnuniyat bilan avtomatini qorniga tirab kelayotgan «nemis avtomatchisini» ko'rib bir zumda yuziga tabassum sochildi. Xabar bergan soldat oppoq tishlarini ko'rsatib, nimalardir dedi. Bu orada boshqalari ham payqab, «qani, beriroq kelsin-chi, bu qanaqa nusxa ekan, boshida shoxi bormikin?» degandek mo'tillashib, turgan yerlarida qotib qolishdi. Sodiqqa shu kerak edi. U darrov ularni sanab chiqdi. Durbinli ofiserini alohida nazardan o'tkazdi. Xuddi shu vaqtning o'zida, mabodo ular chekingudek bo'lsa, qaysi tomonga qochishlarini ham taxmin qilib qo'ydi. U Shubin bilan kelishib qo'ygan shartiga ko'ra, mukkalab ketgan kishidek bir harakat qildi. Shu lahzada qiladigan ishini xayolidan qochirmay kelayotgan Shubin, favqulodda bir epchillik bilan qo'lidagi avtomatni unga irg'itdi va o'zi yonidagi «o'lja» avtomatga yopishdi.

Estafetada qo'liga kaltakcha tegishi bilan birdan chopishni tezlatgan chopqirdek, Sodiq avtomatni ilib oigan zamon o't ochdi. Kutilmagan bu hodisa nemis minomyotchilarining bir nechtasini turgan yeridayoq yer tishlatdi, qochishga ulgurganini esa, o'q quvib yetdi. Sodiq miltiqdan nishonga olib otishga o'rganib qolganidanmi, avtomat qo'liga tegishi bilan oldinga tashianib, bir to'nka ustiga avtomatini qo'yib o'q yog'dirmoqda edi. Undan sal chapda Shubin tik turganicha o'q sochar edi. Sodiq atrofga

qarab, oyoq ustida birorta ham nemis qolmaganini ko'rdi-yu, oldinga yugurib ketdi. Lekin nimaga yugurganini o'zi ham bilmadi, osmonga og'zini ochib turgan minomyotlar oldiga borib to'xtab qoldi. Uning orqasidan yetib kelgan Shubin «endi bu yog'i nima bo'ladi?» degandek, Sodiqdan ko'zini olmasdi. Kutilmagan muvaffaqiyat ularni shoshirib qo'ygan edi. Axir nemisni bitta o'q uzishga qo'ymaslik yengil gapmi?

– Qani sen atrofni kuzatib tur! – deganicha Sodiq nemis soldatlari yordamga kelishini gumon qilgan tomondagi tepalikka yugurib chiqib ketdi, razvedkachilardagina bo'ladigan ziyraklik va quvlik bilan atrofga ko'z tashladi. Bu yoqdan xotirjam bo'ldi shekilli, Shubinga:

– Qani, minomyotlarini ishdan chiqar. Shunday qilginki, birortasidan otib bo'lmasin! – dedi va o'zi o'sha yerda kuzatganicha qoldi.

Do'stining ishonch bilan bergan buyrug'idan g'ayratlanib ketgan Shubin boshlab minomyotlarning uzoqlik va otish burchagini belgilaydigan asboblarini majaqlab tashladi, keyin o'zini ag'darib, mumkin bo'lganicha pachaqiadi, sindirdi-yu, «tag'in nima qoldi!» degandek orqasiga qarab, yotgan erida Sodiqni nishonga olayotgan nemisga birdan ko'zi tushib qoldi, «qoch, Sodiq!» deb uni ogohlantirgunicha bo'lmay o'q uning o'zini oyoqdan yiqitdi. O'q tovushi bilan hushyor tortgan Sodiq yoniga o'girilib, egilganicha qochib ketayotgan nemisni ko'rdi. Turgan joyida o'q uzib qo'ya qolish o'rniga, nima uchundir Sodiq uni quvib ketdi. Butun joni faqat bo'ynida, bo'ynini yashirsa boshqa yeriga tekkan o'qdan ziyon ko'rmaydigandek, bo'ynini ikki yelkasi orasiga qisib olgan fris pildirlab borardi. Sodiq esa, bo'riga tashlangan cho'pon itidek quvar, o'q uzish xayoliga ham kelmas edi. U endi quvib

yetib, orqasidan yoqasiga changalini solay deganda nemis o'zini tappa yerga tashlab, ag'darildi-da, unga o'q uzdi. O'q Sodiqning shundoq quiog'i ostidan shang'illab o'tib ketdi. Qo'rquv aralash nafratdan darg'azab Sodiq chopib kela turib uning to'pponcha ushlagan qo'luga bir tepdi. To'pponcha uchib ketdi. Nemisning qo'li og'ridi shekilli, bo'g'ilganga o'xshash bir ovoz chiqarib, jon holatda og'ziga o'sha qo'lini tiqdi. Lekin qarshisidagi qora terga tushib, halloslab turgan qoramag'iz jangchi unga qo'lining og'rig'idan ham dahshatli ko'rinib ketdi. U, qo'l ekan-ku, o'zini safdan chiqarishi mumkin edi. Qo'rquv ichida buni fahmlagan nemis og'riqni unutib, yotgan yerda ikkala qo'lini baralla ko'tardi.

– Dayus, ahvoling shu ekan-ku, o'q uzib nima qilarding, – dedi entikib Sodiq va alamdand titrab biqiniga birni tepdi. Nemis yuzining tomiri tortishgandek burishtirib, «hiq» etib qo'ydi, lekin qinidan chiqib ketay deb chaqchayib turgan ko'zini undan olmas edi. Sodiq qayoqqa yurishini avtomatining uchi bilan ko'rsatib:

– Tur to'ng'iz, oldinga tush! – dedi.

Nemis ishtoniga bulg'atib qo'yib, onasining shapatisini yurak o'ynoqilik bilan kutayotgan go'dakdek ko'zi javdirab, oldinga tushdi. U shu mahal, Sodiq otib tashiamaslikka va'da bersa, it bo'lib akillashga, cho'chqa bo'lib chiyillashga tayyor ko'rinardi.

Sodiq uni oldiga solib, Shubinning huzuriga kelganda u o'q tekkan yarasini bog'lamoqda edi. Nemis «mana endi, meni uning ko'z oldida otadi! Yoki uning o'ziga ottirarmikin?» degandek juda esankirab qoldi. U Sodiqning:

– Ko'rdingmi, iflos, qilgan ishingni? Onangning haqi bormidi unda! – deganiga tushunmay goh unga, goh barmoqlari qon Shubinga ko'zini lo'q qilardi.

Sodiq, nemisning o'zidan nariroqda orqasini o'girtirib qo'yib, Shubinning yarasidan xabar olmoqchi bo'lgan edi, nemis «meni otgani to'g'irayapti» deb, bag'illab oyog'i ostiga o'zini tashladi, ular bilmagan tilda shafqat so'radi, yig'ladi, yolvordi.

– Holing shu ekan-ku, iflos, tag'in asizodalik, qahramonlik da'vo qilasan. O'tir bo'lmasa, men uning yarasidan xabar olay, – dedi Sodiq va Shubinning holini so'rab, yarasini bog'lashga yordamlashdi, qo'lidan ushlab turg'izdi.

– Uh! – dedi Shubin oyog'ini bosmoqchi bo'lib. – Ishim chatoq, yurib bo'lmaydi.

– Xotirjam bo'l, seni yurgizmaymiz, olib ketamiz, – dedi Sodiq va nemisga o'girildi, – qani, janob oliy irq, bir eshakiik qiling, – keyin Shubinga qaradi. – Bunga opich! Olib boradi, olib bormasin-chi. Bekorga uni quvib, ushlab keldimmi!

Fris Sodiqning ishorasini tushunib, tirik qolishiga ko'zi yetib, qandaydir minnatdor boqqanicha yelkasini Shubinga tutdi.

– Tortinma, – dedi Sodiq iymamayotgan Shubinga, – bizning shuncha begunoh kishilarimizni qonga botirganda, bir marta eshak qilib minsang minibsanda!

Sodiq minomyotchilar pozisiyasidan chiqib chakalakzorga kirib olguncha nemislar bilib qolishidan, mabodo otishishga to'g'ri kelsa yolg'izlik qilib qolishidan yuragi cho'chib bordi. Bugun uning baxti rostakamiga kulgan ekan. Hech qanday hodisa ro'y bermasdan yetib oldi.

Uni qarshi olgan shtab boshlig'i Shubinni opichlab kelayotgan asir nemis efreytorini ko'rib, tegishdi:

– Sopini o'zidan chiqaribsiz-ku!

Sodiqning qisqacha raportini eshitib yana ham quvonib ketdi.

– Xilvatga o'tib, minabozlik qilib yotgan ekan deng, o, la'natilar-e! Boplabsizlar!

Bu suhbat ustiga chiqib qoigan polk komissari ularning gapiga bir oz quloq solib, ko'zoynagi tepasidan qarab turdi-da, ko'zoynagi xalaqit berayotgandek, qo'lga oldi, bir qulog'ining orqasiga hovuchini qo'yib tingladi. So'ngra mamnun termilgancha bir qadam oldinga yurib, Sodiqning yelkasiga qo'lini tashladi.

– Mana bu matonat! Mana buni mahorat deyiladi! Balli, sizlarga! Sizning yarangiz og'ir emasmi? – dedi keyin Shubinga. Uni tezda sanbatga jo'natish haqida farmoyish berdi, samimiy so'zlar bilan ko'nglini ko'tardi. – Ishonamanki, sizlarning bu qahramonligingizni qo'mon-donlik keragicha taqdirlaydi. Endi dam olinglar.

Shubinni nosilkada sanbatga olib ketar ekanlar, Sodiq ancha yergacha ergashib bordi. O'zi sog'-salomat qolib, u yaralangani uchun bir nima demoqchi bo'lardi-yu, nima deb gap boshlashni, to'g'rlsi, nima deyishini bilmas edi.

– Og'ayni, – dedi u Shubinning qo'li ustiga qo'lini qo'yib, – mendan xafa bo'lmaysan...

– Nimaga?

– La'natining senga o'q uzganini aytmaysanmi...

– Senga o'tsa yaxshi bo'larmidi? – o'zini zo'rlagandek kuldi Shubin.

– Shunday bo'lsa ham... yaxshi bo'lmadi, – dedi iyma-nib Shubin.

– Bordi-yu, nobud bo'lganimda nima qilarding? Buning otini jang deydilar, hayot-mamot jangi. Qurbon bo'lishimiz ham mumkin. Hammasini bo'ynimizga olib maydonga kirganmiz, do'stim. Bu yerda sening nima gunohing bor!



– Shundayku-ya...– iqrор bo‘lib bo‘shashdi Sodiq.

– Lekin sen meni kechirishing kerak, Sodiq. Men senga bir beodoblik qilib qo‘yganman.

– Beodoblik?

– Ha. Katta beodoblik. Birinchi marta uchrashganimiz esingda bormi?

– Ha, bor.

– Shunda sendan shubhalanib, savollar berganman. Esingdami?

– To‘g‘ri qilgansan. Mana sherigim pachoq chiqib qoldiku! – dedi Sodiq xijolatimiz bir ohangda.

– Sherigingni gapirma. U odammi! Qoshi xunuk edi! Axir men unimas, seni so‘roq qilganman.

Sodiq qarasa, Shubin o‘sha qilgan ishidan xijolatda. Jo‘rttaga hazilga burmoqchi bo‘ldi:

– Sen hali ham o‘shani esiab yuribsanmi? Mening xayolimdan ham ko‘tarilib ketibdi. O‘zi qachon bo‘lgan edi?

– Bilasanmi, Sodiq, kishiga ishonmaslikdan yomon narsa dunyoda yo‘q.

– Bilaman! Juda yaxshi bilaman, do‘stim, qalbingga nishtar bo‘lib botadi. – Sodiq o‘zining shubha va tuhmat bilan qamalganini eslagan edi.

– Ana shuning uchun ham sen meni kechirishing kerak.

– Allaqachon kechirib yuborganman.

– Mening go‘lligimni qara, kelib-kelib senday odamdan shubha qilibman-a! Bu kallamas mendagi, qovoq, xom qovoq.

– Unday dema, Shubin, men xafa bo‘laman. Qani hammada ham senikiday boshu yurak bo‘lsa!

– Shundaymi? Chiningmi?

– Chinim!

Ikki o'rtiq o'pishib xayrlashdi.

Sodiq uning orqasidan uzoq qarab qoldi.

\* \* \*

Sodiq bilan Shubinning shu qahramonligidan xabar topgan front gazetasi, muxbirini yuborib, Sodiq bilan suhbat uyushtirdi va suratini olib ketdi. Bir necha kundan keyin kattagina material bilan surat bosilib chiqdi. Garchand bu jangovar ocherkda muxbir o'zidan hech nima qo'shib-chatmagan, imkon boricha bo'lgan voqeani halollik bilan tasvirlab bergan bo'lsa ham, Sodiq o'zini allavaqtgacha noqulay sezib yurdi. Hammadan ham surati chiqqaniga xursand emas edi. Front jangchi, komandirlariga ibrat qilib bosilgan bu surat Sodiq uchun yomonlikka xizmat qilishi mumkin edi. Axir Sodiq, o'zining qilgan gunohini qochoq ekanini biror lahza unutmas, ba'zan bu narsa qalbini iskanjaga olib ezardi. Bordi-yu, uning qochganidan xabar topishgan bo'lib, qidiruv e'lon qilingan, o'sha qidiruvchilar qo'liga shu surat tushib qolsa bormi!

Sodiq ana shularni o'ylab besh-olti kun qattiq bezovtalanib yurdi. Muxbirning iltimosini astoydil rad etib turib olmaganiga achindi. Axir, yo'q, kerak emas, deb oyog'ini qattiq tirab turganda zo'rlab suratga olmas edi-ku. To'g'ri, kamtarlik qilgan kishidek bo'yin tovladi. «Shubin tuzalib chiqqanda, birga olarsiz. Ikkalamiz borganmiz» deb bahonalar ko'rsatdi, suratga tushishni yomon ko'rishini ham aytdi, muxbir ko'nganday bo'lgan ham edi-yu, polk komissari kirib qolib, ishni katta qilib yubordi:

– Albatta surati bilan bering, bu kichkina ish emas. Qanday jang qilishni boshqalar o'rganishsin! – deb alohida ta'kidladi. Noiloj qolgan muxbir «ayb menda emas,

komissaringiz iltimosi» deganday apparatini to'g'riladi. Sodiq ham ichidan zil ketganicha bir narsa deyolmadi. Mana o'sha surat gazetada. Kichikkina bo'lsa ham mayli ekan, kattagina. Yana biram tiniq chiqibdi!

Sodiqning uyquasi qochib tashvishlanganicha ham bor edi.

Uni bir mahal tergov qilgan Chuxanov ana shu divi-ziyaning operativ guruhida edi. Urush boshlanib, frontda uning kasbidagi kishilarga ham zarurat tug'ilganda safar-bar qilingan va bir qancha vaqtdan beri shu yerda edi. U ertalab nonushtadan turishi bilan uning hazilkash o'rtoqlaridan biri:

– Elat-ingizning qahramonligi bilan tabriklaymiz, o'rtoq Chuxanov! – deb tegishdi, qo'yarda-qo'ymay qo'lini olib siqdi.

– Qanaqa elat? – beparvogina so'radi u.

– Axir o'zbekistonlikmisiz? Mana, marhamat, elatingiz bilan tanishuvingiz mumkin!

Hazilkash do'sti artistona harakat bilan gazetani unga uzatdi. Chuxanov gazetaning uchinchi betidagi Sodiqning suratini ko'rdi-yu, tanish odamini uchratganday birdan yuzi yorishib ketdi. Lekin qanday tanish ekanini hadeganda xotirlab ololmadi. Uning quvonganini ko'rgan hazilkash o'rtog'i yana tegishdi:

– Tanish ham chiqib qoldimi? Demak, yarimtaga eriysiz. Shu bugun kechqurun stolga qo'yasiz, yo hozir tashkil qilib yuborasizmi?

Chuxanov indamadi. U ko'ngilsiz bir narsani eslagan-dek yuzidagi tabassum pardasi tushirilayotgan sahnadek yig'ishtirila boshladi. Uning bit ko'zlari bir nuqtaga qadalib, sochsiz keng peshonasi yiltilladi. U Sodiqni tanigandek bo'ldi. «Nahotki u? U qanday qilib frontga tushib qoladi?

Yo'q, u emas. Biror o'xshashidir», deb o'yladi Chuxanov va suratga yana tikilib qaradi. O'zidan uzoqroq tutib qaradi. «Yo'q, xuddi o'shaning o'zi!»

Bu surat unga qiziq bir jumboq bo'ldi. Hazilkash o'rtog'idan bir amallab qutulib, o'ziga ajratilgan xonaga kirdi. Ocherkni o'qib chiqdi. Suratni yana qarshisiga qo'yib mulohaza yuritdi, tagiga yetolmadi. Hukumatidan dakki egan Sodiqdek bir odamning bunchalik matonat bilan jang qilishiga, oddiy to'qnashuv paytida emas, balki o'z xohishi bilan talab etib borib qahramonlik ko'rsatishiga Chuxanovning aqli bovar qilmas edi. Axir bunday mardlik frontda har kuni sodir bo'lavermaydi. Ocherkka ko'z yugurtirib turib, polk komissarining u to'g'rida aytgan so'zini o'qidi: «Ona-Vatanini jonu dilidan sevgan kishigina, dushmanga qahru g'azab bilan to'lib-toshgan jangchigina bunday mardlik ko'rsatishga qodir!»

Chuxanov bu fikrga qo'shildi. Lekin u bilgan Qo'chqorov shunday ishga qodirmidi?

Chuxanov Sodiq masalasiga juda qiziqib qolgan edi. Bir xayol bilan o'zi o'sha qismga borib, surishtirib kelmoqchi bo'ldi. Ammo bu yerda vaqti ziqligiga achinib, o'rniga bir yordamchisini yubordi. Uni kuzatar ekan, tayinladi:

– Shtabga kir, hujjatlarini ko'r. Agar komandiri kommunist, ishonchli kishi bo'lsa asta suhbatlash: qachon kelgan?

Ertasiga yordamchi doklad qildi:

– Shtabda hech qanday hujjatlari yo'q. Qism qurshovdan chiqqan kuni yo'ldan qo'shilgan. Tunov kuni nemis tomoniga qochib o'tib ketayotganni otgan ham shu jangchi ekan. U qochgan o'z hamrohi, hamshahari bo'lgan.

Chuxanovning yana shubhasi oshdi. Sodiq, u bilgan Qo'chqorovga, o'zi tergov qilgan Qo'chqorovga o'xshasa ham, uning vatanparvarlik ishlari o'xshamas edi.

– Ajabo! – dedi u boshini changallab, – bu qanaqasi bo'ldi? Bunaqasini hech uchratmagan edim.

U yaxshilab tekshirishga qaror qildi. Xuddi shu kuni kechqurun Sodiqni o'ziga yaqin tutadigan, ayniqsa mana shu mashhur voqeadan keyin u bilan faxrlanib yurgan vzvod komandiri uni bir chetga chaqirib, diviziya shtabidan operativ xodim kelib, uni surishtirib yurganini aytdi.

– Bu nima qilishgani? Biror ishingiz yo'qmi? – dedi.

Sodiq «yo'q!» dedi-yu, yuragi «shuv» etib, orqasiga tortib ketdi.

## 8. XOIN VA JOSUS

Mirsalim ham o'sha kuni Qodirni ko'rgan edi.

Avvaliga «Qodir bu yerda nima qiisin?» deb gumon-siradi. Keyin sinchikiab qarasa o'sha, xuddi o'sha zumrashaning o'zi! Nima uchundir u hatto boshqalardan ajralib turardi. Mirsalim uni tanidi-yu, badanini chumoli talagandek tirnog'igacha junjib ketdi. Lekin Qodir uni ko'rgan-ko'rmaganini aniq bilmas, shunday bo'lsa ham yuzma-yuz turishga bardosh berolmay, orqasini o'girib olishga majbur bo'ldi. Bu bilan ham ko'ngli tinchimadi. Qodir hamon unga ko'zini nishtar qilib qarayotgan, bu nishtar orqasini teshib yuborayotganga o'xshardi. Nazarida, u yugurib kelib «hali sizning ichingiz bilan tashqingiz boshqa-boshqamidi! Ko'krakka urib «vatanimga jon fido!» deb yurishiaringiz paxtavon gaplarmidi!» deb yoqasini tutib, akasining xunini talab qilayotgan, mashinadan tortib tushirayotgandek tuyulardi. Ana shunda yangi boshiiqlardan bir oz o'pkaladi: ha, xo'p, o'z roziligimiz bilan legioningga yozilganimiz to'g'ri. Lekin nega bu lagerga olib

kelib do'st-dushman oldida ko'z-ko'z qilib yuribsan! To'g'ri olib ketaversang bo'lmasmidi? Endi nima bo'ldi? Kishining ko'ngli xijil, xira: kaltakesak chaqmasa ham, ko'zing tushsa eting seskanadi-da!

Ishtonsizning hadigi cho'pdan, degandek, to mashina gurillab, orqasiga tutun qaytarib lagerdan chiqib ketguncha Mirsalimning ichidan qirindi o'tdi. Tashqariga chiqqandan keyin bundoq qarasa, badanida terga botmagan mo'yi qolmabdi!

Muhtaram kitobxonning esida bor, Mirsalim o'sha frontga tushgan kuniyoq otishmadan quyondek dir-dir titrab, o'tirgan okopida qolavergan edi. Bir mahal hushi o'ziga kelib, okopdan boshini chiqarib qarasa, nemislar jang maydonini xazonchinak qilib yuribdi. «Dam shu damdir, o'zga damni dam dema!» – dedi-yu, miltig'ini okopda qoldirib ikkala qo'lini ko'tarib, birov «le, sen tirik ekansan-ku!» deb tars etib otib qo'yadigandek baland ko'tarib, to nemis payqab terib olguncha goh unisiga, goh bunisiga ko'zini lo'q qilib turdi, bellari tolib, ko'zlari tinib ketdi. Bir ochatqi nemis «okopdan chiq!» deb ishora qilishi bilan lip etib oldiga tushdi. Urush boshlanishi bilan yodlab mashq qilgan nemischa so'zlaridan bitta-ikkitasini arang eslab, nimadir dedi. Nemis iljayish o'rniga xo'mrayib qo'ydi. «Nemischani bilmaydigan nemis shekilli bu» degan xayol bilan boshqa xushomad qilmadi. O'q tovushiari uzoqlashib ketganiga shukur qilib, nemis imo qilgan tomonga qo'ydek ketaverdi. Uni soyda, bir katta shoxi bombadan sinib, osilib qolgan emanning soyasida o'tirgan kishilarga olib borib qo'shib qo'ydi. Ular ichida oyoq-qo'li butun yolg'iz u edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, emanga suyanib o'tirgan, bir oyog'i uzilib tushgan serjant u kelishi bilan «davangiday bo'lib sog'-salomat asir tushgani

uyalmadingmi?» degandek bir xo'mraydiki, Mirsalim kayfi tarqagan kishidek hushyor tortib, gindiraklab ketdi, o'zini uning ko'zidan chetga oldi.

Mirsalim lagerga tushishi bilan hech kimga tuzukkina aralashmadi, o'zini yakka tutdi. Lekin u o'limdan qattiq qo'rqr, bir yeri sal sanchsa ham vahimaga tushib, xudoga nola qilardi, g'ishtning orasiga ko'mib kelgan, buvasidan qolgan uy-joy, yer vasiqasi ko'z oldidan piri-piri o'taverardi. Bu mol-mulklar u o'lib, yana allakimlarga qolib ketayotgandek ich-ichidan yonib-kuyardi. Qizi Aziza ham yaxshi chiqmadi. Agar u otasining izmidan chiqmay, nima desa, labbay deb turganida biror tagli-taxtli yigitga uzatgan bo'lardi. Tagli-taxtli kuyov albatta uning so'zini ikkita qilmas, farzand o'rnini bosishi mumkin edi. Shunda xotirjam bo'lib, o'sha vasiqalarni unga berib kelgan, biror baxtsizlik ro'y berib (issiq jon-da!) qaytolmay qolsa, u vaqti-soati kelganda voris sifatida mulkni undirgan bo'lardi.

Mirsalim shularni o'ylab, och-nahor qolishi ham ko'ziga ko'rinmay yurgan kezlarda bir kuni Ali Naimxon kelib qoldi. U ko'ziga najotkor bo'lib ko'rindi, uning eskicha bir talaffuz bilan mullabachchalardek yumshoq gapirishidan erib ketdi. Urush boshlanganda yiltillab, front va lagerga tushishi bilan ustini dahshat kuli bosgan umid uchqunlari yana chaqnadi. Hammadan ham Ali Naimxon: «Ey turk o'g'lonlari, g'aflat uyqusidan endi uyg'oning! Islom bayrog'ini poklab, yuqori tuting!» – deganida ko'ziga yosh qalqib keldi. «Ey xizr nazar qilgan banda, tur, endi o'z joyingga o't», – dedi-yu, birinchi bo'lib qo'l ko'tarib chiqdi. Shu onda qizini tagli-tugli kuyovga chiqarib, vasiqani unga berib kelmaganidan xursand bo'ldi: o'zi g'olib kirib borib barchasini undirib oladi, davri-davron suradi!

Mirsalim Qodirni ko'rib qolguncha mana shu shirin xayollar og'ushida mastu alast edi. Qodir uning orombaxsh tushini buzib, birdan uyg'otib yuborgan kishidek dahshatga soldi. Axir u Sodiqning ukasi edi. Akasining qamalishida uning qo'li borligini yaxshi bilmasa ham, har holda gumoni bor, shu gumonini Ali Naimxonlarga sal bildirsa bormi! Xayriyat, Qodir bunday qilmadi. «Bu ham xudoning marhamati» degan Mirsalim mashina lager darvozasidan chiqishi bilan og'ir bir uh tortib, shukronalik qilib qo'ydi.

Mashina shu ketganicha hech qayerda to'xtamay, ularni poezdga soldi. Kuzatuvchilar ertasiga poezddan tushirib, yana mashinada olib ketdi. Mashina Germaniya bosib olgan mamlakatlardan birining katta shahri yonidagi harbiy lagerga olib kelib tashladi. Shu kuniyoq ularni hammomga tushirib, nemis formasini kiydirishdi. Forma nemis-fashist soldatinikining aynan o'zi bo'lib, faqat yoqasiga «Ollo, Turkiston biz bilan» deb yozib qo'yilgan edi. Bo'linmalarning komandiri nemislar edi.

Uch kun o'tgach Ali Naimxonning o'zi keldi. «Assalom, turk o'g'lonlari! Shonli ishlaringizni Ollo xayrli qilsin» deganidan keyin, barcha bilan bir-bir suhbatlashdi. Navbatini sabrsizlik bilan kutib turgan Mirsalim, u yakka-yakka qabul qilayotgan xonaga bisotidagi butun izzatu ikrom va nazokatini ishga solib kirib bordi. Garchand ustida harbiy forma bo'lsa ham, mullabachchalardek qo'l qovushtirib, qaddini egib turdi. Ali Naimxon suhbat boshladi:

- Nomi sharifingiz, afandim?
- Mirsalim Mirzohidiy.
- Go'zal Turkistonimizning qayeridan bo'ladilar? U yerda ham shu nom bilan yurarmidilar?



Mirsalim gap familiyasi oxiridagi «iy» qo‘shimchasi haqida borayotganini tezda fahmiab, aybdorlarcha ishshaydi.

– Asli shunday edi, keyinchalik...

– Tushunarli! – Ali Naimxon «bas, ko‘p ezmalik qilma» degandek uning so‘zining damini qaytardi. Lekin qo‘polroq chiqib qolganini o‘zi ham payqab qoldi shekilli, ketini tabassum bilan yumshatdi. – «Mir», «amir» so‘zining ixchamiashtirilgani ekanini biladilarmi?

– Havvo, taqsir! – mamnun tirjaydi Mirsalim.

– Madrasada tahsil ko‘rganmidilar?

– Bir oz. Qolgani uyda bo‘lgan.

– Juda yaxshi! Juda yaxshi! Qur‘oni sharifdan xabarlarini bordir, albatta?

– Bor, afandim, bor.

– Qani bo‘lmasa, biror sura tilovat qilsinlar. Ko‘pdan beri vatandoshimizning tabarruk ovozlari eshitganimiz yo‘q.

Mirsalim ko‘rsatilgan yerga odob bilan o‘tirib, bir-ikki tomoq qirdi. Qaysi surani yaxshi bilishini xayolidan o‘tkazdi. Keyin qarshida turgan Gitlarning suratiga ko‘zini tikib, ikkala qo‘lini tizzasiga qo‘yganicha butun san‘atini ko‘rsatib qiroat boshladi.

Ali Naimxon boshini sal bir tomonga egib quloq soldi, labi bilan nimalarnidir pichirlab qo‘ydi. Qiroat tamom bo‘lib, fотиha tortilganda, u g‘ayri islom kishilaridagina bo‘ladigan bir qovushimsiziik bilan qo‘lini yuziga olib bordi. «Musulmonligi beshakdur, lekin qo‘li bunday ishlardan chiqib ketibdi. Bo‘lmasa, Qur‘on o‘qilgan paytda boshyalang o‘tirarmidi. Ollo o‘zi kechirsin!» deb qo‘ydi uni ko‘rib Mirsalim.

– Sizga bir xizmatni topshirish niyatida turibman, – dedi Ali Naimxon Qur'on tilovatidan keyin cho'kkan jimlikni buzib, – albatta rad etmasalar kerak.

Ali Naimxon o'ziga «taqsir», «afandim» deb murojaat etilishini xush yoqtirardi. Buni kelgan kuniyoq kimdandir eshitib, ko'ngliga tugib olgan Mirsalim shu torni zarur-nozarur cherta boshladi:

– Bosh ustiga, afandim! Go'zai Turkistonimiz sha'ni-shukuhi uchun o'tga kirishga ham rozimiz, taqsir!

Ha, balli! Ofarin! Oлло niyatingizni bersin! – dedi Ali Naimxon, garchand yosh jihatidan Mirsalimdan faqat ikki-uch yosh katta bo'lishiga qaramay o'zini ulug'vor va yuksak mansabdor sifatida tutib. Mirsalim esa, xushomad bilan battar cho'kib borardi:

– Tashakkur, afandim!

– Yoshiarimiz islom rasmi-rusmiaridan ancha begona bo'lib qolibdi. Bu, albatta bandai musulmonga uyat. Shu gumrohlarni o'zlari yo'lga solsalar, ibrat ko'rsatsalar.

Mirsalim vazifasi nimadan iborat ekanini to'la va aniq tasavvur qilolmasa-da, bunday izzatu hurmat va martabadan taltayib, minnatdorlik bilan qabul etdi.

– Toki yigitlar orasida mavqeiyari mavjud bo'lsin uchun zarur unvon ham berurmiz, – qo'shib qo'ydi Ali Naimxon.

Sal kundan keyin bu amal va unvon nimaligi ma'lum bo'ldi. Shu kundan boshlab Mirsalim Mirzohidiy «obermulla» unvoni bilan bo'linma yigitlariga qaysi yonboshni bosib yotish shar'iyligidan tortib, qanday tahorat olib, besh vaqt namozni qanday o'qishgacha – hamma-hammasi haqida ta'lim berishga kirishdi.

Mirsalim oldiniga oddiygina ko'ringan bu vazifaning kunlar o'tgan sari mazasiga tushunib, martaba darajasini

ko'tardi. Bir xonani masjid uchun ajratib oldi. Uning qibla tomoniga mehrob o'ydirib, Qur'ondan bir bayt she'r yozdirdi. Allaqayerdan istanbul dokasini topib, salla o'rnida boshiga o'rab, imomlikka o'tdi. Bora-bora yigitlarning shapkasini teskari qilib namoz o'qishi ham yoqmay qoldi. Do'ppini, iloji bo'lsa har birining boshida salla bo'lishini ko'ngli tusadi. Bolaligini eslab, oq karton bilan tush topishlarini buyurdi. Undan chust do'ppi yasab, namuna qilib ko'rsatdi. Garchand qalampir nusxa guli to'ygan zulukka o'xshab qolgan bo'lsa ham «do'ppi – musulmonlik ramzidir» deb maqtadi, hammaning o'ziga bittadan do'ppi yasab olishini, shu do'ppi bilangina namozga kirishi shartligini alohida ta'kidladi. Ertasigayoq bu farmoyishini bajarmagani, yana shapkada chiqqani uchun bir yigitni besh qamchi urdirdi. Boshqa birini so'z qaytargani uchun gaupvaxtaga yubordi. Shunday qilib «o'z obro'yini tiklab», har o'tganida soldatlarni mutelarcha qo'l qovushtirib turadigan qilib oldi. Bu tabiatan mansabparast Mirsalimning ayni muddaosi edi. U o'zini suvga tashlangan baliqdek erkin his qilib, ertaning zavqshavqi bilan mast edi. U endi g'oliblar qatori Turkistonga kirib borishiga shak-shubha qilmas edi. Yoz bo'yi yaxshi hujumda borgan nemis armiyasi qish kirishi bilan to'htab qolishi, keyin Moskva ostonasida peshonasi g'urra bo'lib chekinishi uning ko'ngliga bir oz shubha solgan bo'lsa ham, keyinchalik Ali Naimxon bilan bir qilgan suhbatidan so'ng yana ishonchini tiklab oldi. Bu orada Ali Naimxon nima uchundir qisqa muddat Turkiyaga borib keldi.

U yerdan olib kelgan, lupa bilan o'qiladigan cho'ntak Qur'ondan bittasini zo'r iftixor bilan Mirsalimga uzatdi:

– Marhamat, ober-mulla afandim, bu bizdan sizga in'om!

– O, naqadar sharaf bu! – Mirsalim Qur'on Ali Naimxon qo'lidan garchand kaftda yo'q bo'lib ketadigan kichkinagina bo'lishga qaramasdan bukilib, ikki qo'llab oldi va o'pib peshonasiga bosdi, allaqayoqdan ko'zida yosh ham paydo bo'la qoldi.

Ober-mulla Mirsalim Mirzohidiy kitobning duch kelgan yerini ochib, o'qimoqchi bo'lgandek ko'z yuritdi, ko'zi o'tmayoq hayron bo'ldi. Ali Naimxon «ey g'o'l, shunga ham fahming yetmadimi?» degandek ta'na bilan ishshayib, yordamga keldi:

– Bu mana bunday o'qiladi, afandim! – dedi va Qur'onning bir chetiga ingichka ipak lenta bilan berkitilib qo'yilgan tangadek lupani olib, so'zlar ustida yuritdi.

– Bu mo'jiza! – yashnab ketdi Mirsalim. Xatga ko'z yuritdi. – Juda tiniq ko'rinar ekan! Qanday bejirim, yonda olib yursa bo'ladi.

– Xuddi shuning uchun ham ixcham ishlangan.

– Qani har yigitimizga bittadan bo'lsa!

Ali Naimxon indamadi. Uning qarashi «men ulardan hezalak mullabachcha emas, soldat tayyorlayman, mening sha'ni-shukuhim uchun jon olibjon beradigan avtomat-soldat tayyorlayman. Bu Qur'onu sen qilayotgan ishiar hammasi bir kapiki narsa! Bularga mening o'zimning ham ortiqcha ixiosim yo'q» degan ma'noni ifodalab turardi.

Ali Naimxon legionchilarning bir umum yig'ilishida «turk qardoshlardan» bo'shashibgina salom topshirdi; boshqa bir narsa demadi. Mirsalim bir vaqt orzu qilgan bu «ajoyib mamlakat» haqida so'rab-surishtirgisi keldi-yu, botinmadi. Shuncha quiyay vaqt qidirdi – bo'lmadi.

Bugun ertalab Mirsalim har kungidan ham barvaqt turib, kazarmani aylandi. Eshik oldidan navbatchi legionchining bosh kiyimini bir chetga olib qo'yib, mudrab

yotganini ko'rib jon-poni chiqib ketdi. Postda uxlab qolgani bir ayb bo'lsa, boshyalang o'tirishi zo'r gunoh edi. Oidiga oyoq uchida kelib, shart qulog'idan oldi-yu, cho'zib tortdi. Kutilmagan bu dahshatdan cho'chib uyg'ongan navbatchi qarshisida turgan ober-mulla Mirzohidiyni ko'rib dag'-dag' titrardi. U nemis komandiridan ham berahm edi.

– Bu nima qiliq, ablah! – dedi Mirsalim.

– Ma'zur tutasiz, ober-mulla afandim, ayb menda!

– Ikkita razvedkachi kirib, hammani chavaqlab ketsa nima bo'lardi! – dedi atayin balanddan kelib Mirsalim, garchand to bu kazarmaga kelgunicha yo'lda qancha soqchi borligini u yaxshi bilsa ham.

Legionchi hamon dag'-dag' titrab, mo'ltayib turardi. Mirsalim bundoq qarasa, endigina mo'ylabi sabza urgan yoshgina yigit. Agar shu oqarib turgan yuzlariga qon yugurib, sal kulsa bormi, qizboladek chiroyli bo'ladi- qoladi. Axir unga ham bir xizmatkor kerak-da! Qachongacha bo'lar-bo'lmas ishlarga ham o'zi yugurib, choyini o'zi damlab, o'rnini o'zi tuzatadi. Ali Naimxonning yonida ham doim mirzalik qilib yuradigan bodomqovoq chiroyli yigitcha bor.

Mirsalim shunday shirin o'ylar bilan qarshisida turgan legionchini yana bir bor ko'zdan kechirdi, birdan jilovini bo'shatgisi kelmadi.

– Buning uchun otish kerak!

Yigit yig'lab yubordi: bu yerda odam otish hech gap emas-da!

– Afandim, afandim...

Mirsalim rahmi kelgandek, oyog'iga tashlangan yigitning boshiga qo'lini qo'ydi.

– Ko'z yoshing haqqi, kechiraman, tur. Turk bolasiga yig'lash uyat! Senga o'zimning aihida xizmatlarim bor.

– Bosh ustiga! Jonim bilan, afandim!

Shu ondan boshlab yigitcha uning barmoqlariga bog'langan vizvizak bo'ldi: istasa aylantiradi, istasa yoniga solib qo'yadi. Shu kundan boshlab Ashrafxon (u yigitning nomi shunday edi) Mirsalim oyog'ini yuvganda suv quyib, hammomga tushsa xodimchilik qilib, kirini yuvib, botinkasini tozalab, o'rnini tuzatib, choy damlab berib yurdi. Qilgan jinoyati yangiligida uncha malol kelmagan bu ishlar kunlar o'tgan sari og'irlik qilib, ensasini qotirdi. Mirsalim Ashrafxonning payiga tushdi. Bir kuni zo'rlab olib kirib, uncha-buncha ish buyurdi. Bildiki, endi u bilan murosqa qilib bo'lmaydi. Uni chiqarib yuborib, ketidan ikki-uch yerini bir amallab ko'kartirdi, kiyim-boshini yirtib, orqasidan faryod solib yugurdi. Kazarma darvozasida uning yoqasidan bo'g'ib o'ziga suiqasd qilganini, ulug' fyurer sha'niga nojo'ya gaplar aytganini, qochish niyatida undan pul so'rab kirganini bichib-to'qib, qamoqqa oldirdi, keyin ottirib yubordi. Ko'ngli tinchib boshqa birini ko'z tagiga solib qo'ydi. Bu orada legionga kelib qolgan Ali Naimxon uning ziyoratligidan minnatdor bo'lib, ko'nglini so'radi:

– Shunday bo'ldi, afandim, sal bo'lmasa la'nati betavfiq...

Uning so'zini bo'ldi Ali Naimxon:

– Ollo o'zi bir saqlabdi. Ziyoratlik har vaqt zarur, ayniqsa bizning ishda.

– Albatta, afandim, albatta.

Mirsalim bir hezalak legionchiga buyurib tiktirgan chust do'ppini izzatu ikrom bilan Ali Naimxon boshiga kiygizdi.

– Bay-bay, zap yarashdi, afandim! – deya narxini ko'tarib qo'ydi.

Aslida yarashish u yoqda tursin, uni juda tasqara qilib yuborgan edi. Do'ppi kiyishning o'zi ham Ali Naimxonning esidan chiqib ketgan bo'lsa kerak, boshida tuppa-tuzuk turgan do'ppini peshonasiga surib, xuddi kalning o'zi bo'ldi-qo'ydi. Keyin qo'lga olib, tomosha qildi, noshud qo'l tikkani ko'rinib turgan bo'lsa-da, san'atini maqtadi. Mirsalim buni qochiriq tushunib: – Go'zal Turkistonga muborak poyqadamlari yetgan kuni bir a'lo do'ppi bizdan, afandim, – dedi.

– Albatta! Albatta! – dedi tamagirlarcha Ali Naimxon. So'ngra do'ppini katta og'zi chakagi uzilgan eski kavushdek tanobi qochib turgan yonidagi xotiniga uzatdi. Xotin o'sha xunuk ishshayishda temir qanot qarqinoq qo'lga tushgan boladek qotib qoldi. Ikki-uch aylantirib tomosha qildi.

– Ofarin! Ming ofarin! – dedi o'zining laylak uya sochi ustiga do'ppini qurbaqasalla qilib qo'ndirar ekan. – Qayoqdan oldinglar?

Ali Naimxon bu tayyorlanayotgan sovg'adan o'z ayg'oqchilari orqali allaqachon xabar topgan edi. Xotining «legionda hali shunaqa oyimqiziar ham bormi?» degan xayolga borishidan andisha qilgan Ali Naimxon Mirsalimga mug'ambirlarcha ko'z qisib, o'zi javob qildi:

– Anqo qushi go'zal Turkistonimizdan keltirgan, xonim afandim.

– Bo'lmasa bu sizga yarashadi, janob prezident, – dedi xotini va yana kalga o'xshatib, erining boshiga qo'nqaytirib qo'ydi.

Ali Naimxon mamnun tabassumdan o'zini arang tutib turardi.

Shu kuni u Mirsalimni o'zi bilan birga ovqatlanishga taklif qildi. U kelib tushgan mehmonxonada o'tgan bu mehmondorchilik Mirsalimning ancha ko'zini ochdi.

Ali Naimxon qancha «Ollo, Xudo» demasin, cho'chqa go'shtidan hazar qilmaydi, haromdan qaytmaydi, unda milliy urf-odatlardan hech narsa qolmagan: dasturxon ustida burnini dastro'molchaga qoqadi, ovqat qoldig'i ustiga uvoldan qo'rqmay papiros kuli tashlaydi, yerga tushgan non uvog'ini olib qo'ymaydi. O'rniga dam olgani cho'zilar ekan, oyoq panjalari orasiga barmoqlarini solib kirini uqaladi, keyin tishiga kirib qolgan go'sht tolasini o'sha qo'li bilan olib tashladi. «Go'zal Turkiston» haqida fikri ham juda g'alati. U yerdagilarning barchasi ahmoq, nodon, gumrohu befahm, faqat o'zigina ma'rifat olib boradigan ko'rinadi. U bormaguncha Turkistonning husni ochilmaydi! U o'zini qancha fuqaroparvar tutishga urinmasin, shisha orqasiga chiroq shu'lasini yashirib bo'lmaganidek, uning xudbinligi, shuhratparastligi, tezroq Turkiston taxtiga o'tirish uchun ichikib o'layotgani, bag'ritosh, berahmiigi yaqqol ko'rinib turardi.

– Qilich bir qonga belanishi shart, aks holda Turkiston to'g'ri yo'lga tushib ololmaydi, – dedi u yotgan yerida sigara tutatar ekan, boshlangan suhbatni davom ettirib. – Davlatni boshqaradigan kishilar shu yerdan borishi kerak. Qilich kesmaganni so'z kesishi lozim. Biz uchun hazrat Gitlerdan ortiq mehribon yo'q. U kishi Turkistonni yaxshi ko'radilar. Fyurerning muzaffar qo'shini Turkiston darvozalariga yetib borishi bilan u yog'ini o'zimizning yigitlar surib ketadi. Buning uchun ham tashqaridan, ham ichkaridan tayyor bo'lib turishimiz shart. Shunday emasmi, Mirzohidiy afandim.

– Albatta! – tasdiqladi, u garchand vinodan boshi g'uvillab gapning mag'ziga tushunmagan bo'lsa ham.

– Ehtimol, sizga mas'uliyatli vazifalar yuklashga to'g'ri kelib qoladi. Barchasiga hozir turmoq ham qarz, ham farz.



Gap Turkistonga borganda beriladigan lavozim haqida boryapti, deb labining tanobi qochgan Mirsalim, quiluq qilib:

– Siz nimani ma’qul topsangiz shu! – dedi.

– Qani endi barcha ham sizga o’xshab zarbu shijoat bilan g’ayrat kamarini bog’lasa!

Ertasiga Ali Naimxon uni o’zi bilan Berlinga olib ketdi. Yetib borishgan kuni tushgacha uni o’z mashinasida shahar aylantirdi, tomosha qildirdi. Yarim yalang’och chiroyli qizlar sahnachasida raqs tushib turgan muhtasham bir restoranda ovqatlanishdi. Raqs tugagach, Ali Naimxonning ishorasi bilan orkestr «Qichqir, xo’rozim» kuyini chaldi, o’zi xirgoyi qildi. Mirsalim o’zi yaxshi ko’rgan, ko’ngli xushnud bo’lib turganda xirgoyi qiladigan ashulani Ali Naimxon ham yoqtirishini ko’rib ichidan oftob chiqib ketdi. Maroqlanib qo’shildi. Kuy tugagach, Ali Naimxon kerilib qo’ydi:

– O’zim o’rgatganman.

– O’zingiz nima chalasiz? – juda qiziqdi Mirsalim.

– Nay. Bolaligimda sal-pal mashq qilgan edim. Siz-chi?

Mirsalim dutor, tanbur chalishni pesh qilgisi kelib tursa ham, shu onda botinolmadi:

– Bir oz tanburga havasim bor.

– Biz ham Turkistonda mana shunaqa nozaninlar o’yin tushadigan restoranlar tashkil qilamiz, albatta tashkil etamiz.

– Ha, rostanam, boyagi gapingiz chala qoldi, – dedi Mirsalim yo’ldagi suhbatni eslab, – ko’p xotinlik masalasida o’z fikringizni aytmoqchi edingiz!

– Modomiki, shariat yo’lini tutmoqchi ekanmiz, bir erkakka to’rt xotingacha ijizat beramiz. Boshqa iloj yo’q.

– Demak uchta zapasim Turkistonda deng, – tirjaydi Mirsalim. Ali Naimxon uni ma’qullagandek kulib qo’ydi.

Ovqatdan keyin u Mirsalimni qavatini sanab ulgurmagan ko'p qavatli qop-qora binoning dabdabali bir xonasiga olib kirdi.

Eshikdan kirgan zahoti Ali Naimxon «Xayl Gitler!» deya oldinga qo'lini uzatgan edi, qarshidan xuddi shunday harakat bilan bir harbiy kishi\* chiqib keldi. Anchadan beri qo'li o'rganib qolgan Mirsalim ham buni takrorladi va kabinetga ko'z tashladi. Sher panjali katta stol. Usti to'la telefon. Devor ostlarida chiroyli stullar. To'rda Gitlarning juda katta surati. Uning o'ng tomonidagi devorda Gimmlerniki, lekin u kichikroq. Parket polga patgilam to'shalgan. Xullas, kabinet juda hashamatli.

Ular kabinet egasi – chigirtkadek kam go'sht, burniga pensne qistirgan, yaltiroq etikli kishining taklifi bilan o'tirishdi. Ali Naimxon u bilan nemischalashib ketdi. Legionga kelganidan beri nemis tilini o'rganishga astoydil kirishgan Mirsalim uncha-muncha tushunib turardi. Gap Mirsalimning kelajagi haqida borardi.

– Shu kishi juda bop. Sinalgan va tajribali, – dedi Ali Naimxon. – Ayniqsa islom diniga ijozat berilgan hozirgi Turkiston uchun bu kishining dindan xabardorligi juda qo'l keladi.

Nemis Ali Naimxonga qattiq ishonganidanmi yoki Mirsalimga o'xshaganlar bilan uchrashaverib, pix yorganidanmi, ortiqcha gapni cho'zmay:

– Yaxshi! – dedi va knopka bosib, odam chaqirdi. Mirsalimni kirgan kishiga topshira turib: – Qisqa muddatlikka! – deb uqtirdi.

Shu kundan boshlab Mirsalimga josuslik ta'limi o'rgatilib, O'rta Osiyo shaharlaridan biriga yuborish tayyorligi ko'rila boshladi.

## 9. SO'NGGI SHUBHA. SO'NGGI TASHVISH

Sodiq do'sti Shubinni sanbatda ko'rib chiqib kelardi. U «uzoqlashib ketsam o'z polkimni yo'qotib qo'yaman», deb gospitalga ketishga rozi bo'lmagan, buning ustiga yarasi ham unchalik og'ir emas edi. Sodiq o'tgan gal kelganida «ordeningni taqib kelmabsan-da, yarashgan-yarashmaganini aytib berardim» deb tegishgan, «bir saviat to'kib kelishini» iltimos qilgan edi. Hali o'ziniki qo'lga tegmaganidan havasi kelyaptimi (uning tuzalib chiqishini kutib turishardi), mayli taqsum taqib kelay, harna ko'ngli ko'tarilgani. «Ko'ngli ko'tariqlikning dardi tez ariydi, deyishadi» degan xayol bilan bugun Sodiq jangovar ordenini taqib kelgan edi. Uning ko'kragiga ko'plar suqlanib qaragan, hatto ba'zi tafsilotlarini surishtirgan, faxrlansa arzigudek mukofot bo'lsa ham baribir Sodiqning dili ravshan emas, ko'nglining allaqayeri xira tortib, allaqayeri huvillab turardi. Chunki bu zo'r mukofotga sabab bo'lgan voqea qanchalik uning obro'yini oshirgan bo'lsa, shunchalik tashvishga ham solib qo'ygan edi. Surati gazetada chiqib, qandaydir operativ xodim surishtirib ketganidan beri o'z qilmishi o'ziga ayon. Sodiq o'yiab o'yiga, yurib yo'lga yetolmas edi. Shundan beri halovati ketgan, chaqirilmagan yerga mehmonga kelgan kishidek o'zini noxush his qilardi, rangi-ro'yi ham o'zgargan bo'lsa kerak, o'rtoqlari «Senga mukofot yoqmadi!» – deb tegishardi. U, o'sha ko'ngilsiz xabarni vzvod komandiridan eshitgan tuni deyarli kiprik qoqmadi. Yotgan yeri tosh bitib ikki-uch tashqariga chiqib keldi. Yerto'la og'zida turgan askardan tamaki so'rab, kaftiga olib chekdi, to barmog'i kuyguncha so'rib chekdi. Keyin okopdan chiqarib tashlangan nam tuproq ustida Hulkar og'ishiga, yulduzlar uchishiga qarab o'tirdi. Tun

jimjit. Gir atrofda na yilt etgan bir chiroq bor, na qilt etgan harakat. Daraxtlardan tushgan soyalar olabujir, mudhish va sirli. Faqat nemis kuzatuvchisining ba'zan-ba'zan otib turgan yorug' mushagi borliqni qoplagan qora pardani birdan ko'tarib, bir zumgina yana allanechuk sovuq ko'rinish kashf etadi. Ana o'shanday mushakdan biri kamalak kabi doira yasab, nurli iz qoldirgancha ko'kka vijillab ko'tarildi, keyin paq etib tovush berdi-da, hamma yoqni tiniq yoritdi va sho'ng'ib ketdi. Sodiq uning yorug'ida kunduzi otishma bo'lib o'tgan, ko'ziga xunuk ko'ringan qonli oraliqqa nazar tashladi. U yer hozir qanchalik tinch. Kunduzi u yerda yuzlab mina yorilganiga, minglab o'qiar uchganiga hozir kishi ishonmaydi. Bu sokinlik emas, hatto kunduzgi ajal hidi kelib turgan otishmalar ham shu lahzada uning diqqatini tortmadi. Hammasiga qo'l siltagandek beparvo o'rnidan turib, kirib yotdi. Baribir uyqusi kelmadi. Shu kechasi uning o'ylamagan o'yi, tuzmagan rejasi qolmadi. Demak operativchilar uning payiga tushgan. Ertami-indin kelib, haydab olib ketadi. Yana tergov, yana sud. Bu safar albatta sud qilishadi, o'tgan galdagidek «maxsus kengash» orqasidan hukm chiqarib qo'ya qolmaydi. Bu gal sud uchun material yetarli. Yana o'sha zanglagan tikan simli lager. Konvoy bilan ishga borish. Ishdan qaytish. Erkshizlik. Yana ufqda yilt etgan nuri yo'q hayot...

Sodiq erkin hayotning endi ta'miga tushunib, qoya-siga ko'tarilgan sor burgutdek parvoz qila boshlagan bir paytda yana lagerga qaytishning og'irligi uchungina emas, balki el-u yurt taqdiri jang maydonida hal bo'layotgan bir vaqtda oyoq-qo'li bog'liq kishidek yoki qo'lidan biron tuzuk ish kelmaydigan nogiron-mushfiqdek lagerda o'tirishiga asti chidamas edi! U, bu gal o'zini mahbuslikdan qochgan kishidek aybdor hisoblardi. Bu gunohning kechirilmasligini

bilardi, bilardi-yu, Ich-ichidan kuyib yonardi. Axir u bu gunohi sodir bo'lguncha butun vujudi bilan o'zini begunoh his etib, istagan tashkiloti va kishisiga murojaat etishga ma'naviy erkinlik sezdi. Endi-chi? Endi uning tili qisiq. Endi uning bu tarixini bilgan kishi hech yoniga tushmaydi. Eh, qani odamlar hayotida bo'ladigan nuqsonu tasodiflardan qo'rqmasa-yu, kishining yuragiga, ishu idrokiga quloq solsa. Eh, ko'ksi so'qirlik ko'zi so'qirlikdan qanchalik yomon! Shuncha ajoyib mashinalar kashf etgan dono odamlar nega kishining yuragini, fikru e'tiqodini ro'yirost ko'rsatadigan, aniqlab beradigan birorta asbob o'ylab topolmaydilar! Ana shunda qanday yaxshi bo'lardi. Tergovchilar ham qarshisiga turg'izib qo'yib, «qani kimsan, nimasan, yuragingni ochib tashla!» deb qon bo'lib o'tirmas edi. Ana o'sha mashinaga ro'paro' qilardi-yu, hammasini bilardi-olardi.

Sodiq soy ustiga tashiangan yakkacho'p «qo'lbola» ko'prikk kelganda, nima uchundir, undan o'tishga oyog'i tortmadi, ko'ngli allanechuk bo'lib, suv yoqasiga o'tirdi. Nazarida, shu «qo'lbola» ko'prik afsonadagi pulsirotu, uning ustidan o'tishi taqdirini hal qiladiganday edi.

Sodiqning ko'ngliga shunday shubha tushuviga jinday sabab ham bor edi. Soyning u sohilida shtab o'rnashgan bo'lib, uni zimdan surishtirib kelgan operativchilar o'sha yerda edi. Sodiq u sohildagi yog'och uylarga nazar tashladi: uni surishtirib kelgan va bugun-erta oldiga solib haydab ketadigan operativchi qaysi birida yasharkan? Anavi tunukasi ko'kka bo'yalganidami yoki bo'sag'asidagi yo'g'on emanga bolalar qushga taxta uya qo'yganidami? Ehtimol usti qamish bilan yopilganidadir! Yo'q, ular bu uylarning hech-birida turmaydi. Ularga alohida puxta yerto'lalar qazishgan – axir maxfiy hujjatlar shunday omonat,

bir bomba bilan dabdala bo'ladigan uylarda saqlanarmidi! Demak ular xavfsiz yerlarda yashashadi. Ana shunday xavfsiz yerto'lalardan birida uning ham yangi ochilgan delosi saqlanadi. Unda nimalar yozilganikin? Ehtimol ular Sodiqni bundan bexabar deb o'yiashsa kerak. Bo'lmasa nega shuncha vaqtdan beri indashmaydi. Yoki lagerga xat yozib, anglashayotganmikin? Shunday bo'lsa kerak, aks holda, allaqachon uning oyog'ini yerga tegizmay olib ketishardi. Yoki «qochgan bilan sichqon uyasini ijaraga olib, bir kovakda tiqilib o'tirmabdi-ku! Jonini fido qilib jang maydonida yuribdi. Yomon niyati bo'lganda shu vaqtgacha oshkor bo'lib qolardi. Sof bir inson bo'lsa, shunchalik bo'lar-da! Keling, uni bezovta qilmaylik. Noto'g'ri ishlar qilib qo'ymaslik uchun zimdan kuzatib tursak kifoya» degan fikrga kelishganmikin? Qani endi shunday bo'lsa! Mayli, istaganlaricha tekshirishsin, astar-avramni ag'darishsin, kuzatishsin, lekin erkimni qaytib olishmasa, ko'p qatori grajdanlik burchimni shu frontda oqlashga ruxsat berishsa bas! Mening shundan boshqa oliy orzum yo'q!

Bu o'ylar suv yoqasida xomush o'tirgan Sodiqni birdan jonlantirib yubordi, tuman bosgan tog'dek ko'ngliga nur to'ldirdi, ruhini ko'tardi, hatto boyagi mudhish o'ylarga borgan o'zi ekaniga shubhalanib qo'ydi. Demak endi uni qamashmaydi, uning gunohini kechishgan, u ko'p qatori bexavotir jang qila berishi mumkin.

Sodiq irg'ib o'rnidan turdi. Suvni shaloplatib yuzini yuvdi, go'yo suv bilan uning ko'ngliga o'tirgan gard ham yuvilib ketgandek yengil tortdi. Shu payt o'zidan sal narida, suvdan chiqqan bargi qalin o'tga bir oyog'ini tirab turgan qurbaqaga ko'zi tushdi, unga gap qotdi:

– Shunaqa ishlar, og'ayni, endi yana frisning onasini uchqo'rg'ondan ko'rsatamiz. To chiqqan kovagiga qo'yib

kelmasak asti hisobmas. U hali chuchvarani xom sanab, sichqon bo'lib filga tashlanib yuribdi.

Qurbaqa uning so'ziga tushunayotgandek bo'rtib chiqqan yirik ko'zini bir-ikki pirpiratdi, oppoq bag'baqasini serkillatib beso'naqay katta og'zini ochib yopdi.

– Nima, sening ham yuragingda armoning bormi? Kim seni bezovta qilyapti? Sen ham tuhmatga yo'liqqanmisan? Bechora! Sabr qil, hayotdan umidingni uzmasang bas. Haqiqat o'z o'rnini topadi. Lekin uning ko'p vaqt poezdga o'xshab kechikib kelish odati bor. Shunisi yomon! Mayli, ezgulikning erta-kechi yo'q. Yana yayrab qolasan. Men ham o'z uyimga, bola-chaqam oldiga ketaman. Bilasanmi, mening yerga ursang ko'kka sakraguday sho'x o'g'lim bor. Senga o'xshab u ham suvni yaxshi ko'radi. Ertayu kech suvdan chiqmas emish. Qog'oz qayiqiar oqizarmish. O'sha ariqda sening elatlaring bordir. Qaytib borganimda sendan ularga salom aytaymi? Albatta aytaman, ko'ngling to'q bo'lsin.

Qurbaqa «yaxshi, bu olijanobligingni sira esimdan chiqarmayman. Rah mat! Xayr!» degandek yana chaq-chaygan ko'zlarini pirpiratib, oppoq bag'baqasini serkillatdi, keyin «sho'lp» etib suvga sho'ng'ib ketdi. Sodiq mehribon suhbatdoshidan nogoh ajralgan kishidek qo'l silkib, kuzatib qoldi. Sodiq, qurbaqaga yuragida yig'ilib yotgan dardini to'kib solganidan bo'lsa kerak, boyagidan ham xursand, haligina hammomdan chiqqan kishidek ruhi juda yengil edi. U qirg'oqdagi oq qayinning jigarrang chivig'ini sindirib oldi, o'yin qilib etigi qo'njiga urganicha «qo'lbola» ko'prikdan o'tdi. Haligi tanish qurbaqa yana suvdan chiqib uni kuzatib turgandek orqasiga qarab, boya sho'ng'ib ketgan yerni kuzatdi. Qurbaqa ko'rinmas edi, u oyog'ini qo'yib turgan novcha o't yesa, mayin to'lqinga ergashib silkinardi.

Sodiq papiros chekib kelayotgan askarni ko'rib, ko'ngli sust ketdi, chekadigan odamdek xumori tutdi.

– Bir chektirmaysizmi, birodar? – dedi u yetib kelishi bilan.

– Shu qolganini berishim mumkin, – dedi askar, lekin uni ham darrov bera qolmay bosib-bosib ikki-uch tortdi. Sodiq shunga ham rozi bo'lib turar ekan, askar uning ko'krigidagi ordenni ko'rib qoldi, birdan o'zgarib:

– Kechirasiz, men boshqa beraman, – dedi va cho'ntagidan katta bir chimdim olib, qog'oz bilan uzatdi, – men sizni tanimabman. Nemis minomyotchilarining ta'zirini bergan siz bo'lasiz-a! Juda qoyil qilibsiz! Komissar kecha partiya majlisida sizni gapirdi.

Xuddi shu payt ko'k tunuka uylar tomonda betartib otishma boshlanib qoldi. Sodiq o'qlar tovushiga quloq solib, nemis avtomatini darrov tanidi. «le, nemis avtomatchilarimi?» deya xayolini yig'ib olgunicha, uning qarshisidan bir to'da jangchilar yelib kelaverdi. Sodiq bundoq qarasa, eng oldinda polk komissari, qo'lida yaiang'och to'pponcha. Sodiq qarshisiga chiqib «nima gap o'zi, demasdanoq, komissar: «Desant! Nemis desanti!» – dedi-yu, yelib o'tib ketdi. Sodiq uning harakatidan bildiki, nemis shtabni birdan bosib olish niyatida to'satdan qandaydir desant tashlagan. Desant kechikib payqalgan, aks holda komissar bunchalik shoshib, o'zi shu atrofdagi jangchilarni boshlab, hujumga otianib qolmas edi. «le, men bu yerda nima qilib turibman», deb qarab qolgan Sodiq, avtomatini yelkasidan olib, komissarning yoniga o'tdi. Ular borayotgan yer mayda o'rmonlik bo'lib, yirik daraxtlardan bachkanasi, mayda shoxobchaligi ko'p edi. Bu mayda novdalar goh yuzga, goh ko'zga shart-shart urilib, yurishga xalaqit berardi, yo'lni o'zgartirib turishni



talab etardi, Komissarning boshlab borishiga qaraganda ular mo'ljaliga yetolmay o'rmonga, uning yonidagi past-balandlikka chekingan desantning yonidan chiqishlari kerak edi. Xuddi shunday bo'lib chiqdi. Komissar nemis desantlari ko'rinishi bilan beijozat bitta ham o'q uzmasiikni alohida tayinlab, emaklab oldinga surilishga buyruq berdi, o'zi oidinga tushdi. Yoshi anchaga borib qolgan, ko'zoynaksiz yomon ko'radigan komissarning bunchalik epchillik bilan qornida surilib ketishini ko'rib Sodiq ajablandi, umr bo'yi shuni mashq qilgan kishiga o'xshardi. U ancha yergacha shu xilda borgach, to'xtadi. O'girilib orqasiga qaradi. Jangchilarning hammasi yetib kelishini kutib turdi, keyin o'rnidan irg'ib turib, «Vatan uchun, olg'a!» deganicha oldinga tashlandi. Hamma «ura!» bilan unga ergashdi. Otishma birdan qizib ketdi. Bularning muvaffaqiyatli manevridan ruhlanib ketgan qarshidagi shtabchilar ham yopirilib keldi. Ikki tomonidan qurshab olingan nemis desanti jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatardi. Aslida uning boshqa iloji ham yo'q edi. Bu paytda ular taslim bo'lishni hali o'ziga or bilar, o'z kuchiga haddan ortiq bino qo'yib gojlik bilan qarshilik ko'rsatar, yaralansa ham, oxirgi patrongacha otishar edi.

Jang qizigandan-qizib bordi. Sodiqning ikki ko'zi komissarda edi. U shunday jangovar to'qnashuvlarga jangchi boshlab kirib yurgan komandirday ziyrakiik va idrok bilan o'z to'dasini yo'lga solib turar, nishon olib to'pponchadan o'q uzardi. Ana, u to'pponchasida o'q tugab qolganini tepkisini bir-ikki bosganidan keyingina fahmiab, uni qiniga soldi-yu, haligina yiqilgan jangchiniig avtomatini qo'lidan oldi, g'ujanak bo'lib chekinib borayotgan desant ketidan yiqila-qo'pa o'q uzdi. U terlab ketgan, gimnastyorkasining bir yengi tirsagigacha yirtilgan edi.

• Sodiq komissardan ko'zini uzmay, uning yonida dushmanga o'q yog'dirib borar ekan, o'zidan ancha narida bir komandirning uch-to'rtta nemis avtomatchisi qarshisida yolg'iz qolganini, hali-zamon nobud bo'lishi mumkinligini fahmlab o'zini o'sha tomonga urdi. Sodiq yetib kelganda komandir panoh tutib turgan tepalik orqasidan sapchib chiqib, nemislarga tashlandi, ikkitasini o'q bilan yiqitib uchinchisini bosib tushdi, bir-birini ag'aratishib olisha ketdi. Yelib kelganidan komandir nafasi tiqilib, entikib qoldimi yoki barzangiday nemisga chog'i kelmadimi, hadeganda ostiga tushganicha chiqib ololmadi, to Sodiq ular tepasiga yetib kelgunicha uddalolmadi. Qo'tosday nemis esa, birato'lasi uni bir yoqlik qilib qo'ya qolish niyatida qo'lidan uchib ketgan avtomatiga zo'r berib intilardi. Shuning ustiga yetib kelgan Sodiq frisning boshiga avtomatning qo'ndog'i bilan birni tushirib, uni sulaytirdi-da, komandirning ustidan surib olib tashladi. Hamon o'zini o'nglab ololmagan, usti boshi qon komandirni ko'rib, Sodiq devor bo'lib qoldi. O'z ko'zlariga ishonmadi, mudhish tush ko'rayotgandek seskandi. Neilojki, tush emas, o'ngi edi. U bir zumgina jang maydonida ekanini unutib, turgan yerida o'tirib qoldi. Komandir esa, yotgan yeridan zo'rg'a turib o'tirdi. U yaralangan edi.

– Rahmat! Siz yetib kelmaganingizda... bu fris boshimni yerdi, – dedi holdan tolgan komandir bo'shshib, Sodiqning esa tili so'zga kelmas edi!

Bu komandir – Sodiqning tergovchisi Chuxanov edi. Chuxanov Sodiqning qaysi ahvoldaligini bilib turganidanmi, ochig'iga ko'chdi:

– Men sizni tanib turibman. Siz ham meni tanidingiz, albatta. Meni o'limdan qutqarib qolganingizga jilla ham xursand bo'lmasangiz kerak. Shundaymasmi?

Sodiq uni eshitmas, uning quhog'i allaqachon tom bitib qolgan, ko'zlari bir nuqtaga qadalib, xayoli mudhish kamerada, bir mahal tergov bergan nomerli xonalarda sarsari bo'lib kezib yurardi. U endi o'zining adoyi tamom bo'lganiga shubha qilmas edi. Axir u Chuxanovning qanaqaligini yaxshi biladi. Axir shu qarshisida o'tirgan yarador o'sha o'zi bilgan Chuxanov bo'ladigan bo'lsa, uning qo'lidan nimalar kelishi ma'lum! Axir endi uni ko'rayotgani yo'q!

Sodiq, bo'lar ish bo'ldi, deb tavakkal bilan tik boqib:

– Tanib turibman! – dedi. Lekin uni o'limdan qutqarib qolganiga qanday munosabatda ekanini aytmadi. Bu esa, Chuxanovga g'alati ta'sir qildi, ochiq aytib qo'ya qoldi:

– O'limdan qutqarib qolganingizga pushaymoningiz bo'lsa, otib tashlashingiz mumkin. Bu to'polonda hech kim bilmaydi. Bemalol!

Bu gap Sodiqning nafsoniyatiga tekkan, hatto g'azabini keltirgan edi, chidab turolmadi, u ham ochig'iga ko'chdi:

– Siz meni kim deb o'yiasangiz o'ylang, lekin meni haqorat qilmang. Men frontga sizni uchratib, o'ch olish niyatida kelgan emasman. Garchand tasodif bilan frontga tushgan bo'lsam ham.

Chuxanov uning qizishib borayotganini ko'rib, jo'rttaga hazil bilan qistirdi:

– Dilovarxo'ja bosmachini otib tashlaganingiz ham to'g'ri.

– Bu ham to'g'ri! – hamon yonib tutaqar edi Sodiq. – Xo'sh, ayting, endi nima qil deysiz? Qurolimni tashlab, lagerga qaytib ketaymi? Shumi muddaoinglar!

– Birov sizni lagerga qayting deyotgani yo'q. Agar qaytaradigan bo'lsak, allaqachon o'sha yerda bo'lardingiz, – bosqlik bilan dedi Chuxanov.

– Bo'lmasa nega orqamdan surishtirib yuribsizlar.

– Bu boshqa gap. Surishtirganimiz to'g'ri. Surishtirdik, bildik, muhokama qildik.

– Keyin... keyin... nima qarorga keldinglar? – shoshib qoldi Sodiq. Boya suv bo'yida ko'ngliga sevinch solgan xayol haqiqatga aylanayotgandek ko'zlari chaqnaq ketdi, ilk marta Chuxanovning ko'ziga ko'zini urishtirib tik qaradi. Chuxanov bo'lsa, murdaga hayot in'om qilgan kishidek mamnun kulib turardi.

– Indamay qo'yganimizdan keyin nima qarorga kelganimiz o'z-o'zidan ma'lum.

– Demak gunohimni kechdinglar?

– Biz kechganimiz yo'q, o'zingiz gunohingiz yo'qiigini isbot etdingiz.

– Ya'ni?

– Ko'kragingizdagi ordenni nimaga olgan bo'lsangiz, o'sha bilan!

Sodiq ko'kragidagi ordenni endi birinchi marta ko'rayotgan kishidek unga suqlanib boqdi, uning naqadar ko'rkam va salobatli ekanini endi fahmlagandek bo'ldi, chang o'tirgandek ustini artib qo'ydi. Shundan keyingina Chuxanovning yaralanib yotganini eslab, ko'mak bermoqchi bo'lib cho'ntagidan shaxsiy tibbiy paketini olgan edi, Chuxanov:

– O'zumniki bor, – dedi.

Chuxanov o'ng ko'kragining teparog'i – yelkaga yaqin yeridan o'q yegan, o'q ichkarida qolibdi. Sodiq uning gimnastyorkasining oldini shart yirtib tashlab, yara og'ziga paxta qo'yib, dokasini yelkasi osha ikki aylantirgan edi, uzoqiashib ketgan otishma birdan yaqinlashib qoldi, qandaydir o'q ular tepasidagi qarag'ayning ko'm-ko'k

shoxini shirt uzib tushirdi. Yana ikkitasi shu atrofda chatnadi.

– Qani turing, chetroqqa o'tmasak bo'lmaydiganga o'xshaydi, – dedi Chuxanov va Sodiqning yelkasiga qo'lini qo'yib o'rnidan turdi. Sodiq dokaning uchini ushlaganicha uni suyab bordi. Ular panaroq yerga o'tirishdi. Sodiq yarani bog'lab bo'lgach, achingandek:

– O'q ichida qolibdi, – deb qo'ydi.

– Hech narsa qilmaydi, magnit bilan tortib olishadi, – dedi Chuxanov jilmayib. Sodiq bu gapning chinmi, hazilmi ekanini bilmadi.

Bir ozdan keyin otishma tugadi. Qirilib bitgandan qolgan nemis desantchi-avtomatchilarini haydab olib o'tib ketishdi. Chuxanov Sodiqqa suyanib sanbatga borar ekan, yuragini ochdi:

– Qo'chqorov! Boshqa ko'rishamizmi, yo'qmi – bilmayman. Shuning uchun sizga bir haqiqatni aytmochiman. Men sizni qattiqqo'llik bilan o'sha vaqtda tergov qilgan ekanman – bu to'g'ri. Xafa bo'lishga haqqingiz bor. Lekin shuni unutmangki, men sizni dushman deb, dushmanga qilinadigan muomalada bo'lganman. Bu mening burchim edi.

– Qiziq. Tuhmat bo'lsa ham-a!

– Bu siz uchun, boshidan kechirgan kishi uchun qiziq, xolos. Axir biz uch kishining guvohligiga qanday qilib ishonmaymiz. Lekin ba'zan shubhalanardim ham... O'sha suratingiz chiqqan kuni yana shubham oshdi, biz qilgan xatoni qandaydir bir mo'jiza yo'li bilan tuzatayotganingizni bildim. Chunki siz biz ayblagan kishi bo'lganingizda frontga emas, boshqa yoqqa yo'l olgan bo'lardingiz, biror xilvatda Gitlarning g'alabasini kutib, uning tani-joni sog'lig'ini tilagan bo'lardingiz. Frontga yo'l olishingizning

o'zi kifoya qilgani holda, yana jonbozlik ko'rsatib jang qilyapsiz. Bularning hammasi bizga ma'lum bo'lganidan keyin xatoimizning naqadar qo'pol ekaniga iqrar bo'lib, sizni bezovta qilmaslikka qaror qildik. Lekin sizning barcha kuzatuvimizdan xabar topishingiz qiziq. Bu sir qolishi kerak edi. Sizga kim aytdi?

– Bu sir, – kuldi Sodiq. – Kechirasiz, aytolmayman, beodoblik bo'ladi.

– Endi ahamiyati yo'q, mayli, – uni xijolatdan chiqardi Chuxanov. Keyin barcha gapiga yakun yasagandek, – mana shunaqa gaplar, o'rtoq Sodiq Qo'chqorovich Qo'chqorov! – dedi. Bir ozdan keyin yana qo'shib qo'ydi: – Endi nima yordam kerak bo'lsa, marhamat.

Sodiq shu kungacha nafrat bilan eslab yurgan odamining yuragida shuncha samimiy gaplari boridan juda hayratda edi. Uning yelkasiga qo'lini qo'yib, qoqilib ketsa yarasi zirqirab kelayotgan Chuxanov, u bilgan, uni bir necha kunlab qattiqqo'llik bilan tergov qilgan Chuxanovga sira o'xshamas, Sodiq uni qancha o'xshatishga harakat qilsa ham, o'xshatolmas edi. Ana shunda, nahot odamning qalbida shuncha ezgu hislari yotib ana o'shanday tashqi ko'rinish bilan yashay olsa! Yo xizmatlari shunga majbur etadimi deb o'yladi. Bir tomondan unga rahmi ham keldi – demak ularga ham yengil emas ekan.

Bulardan tashqari, Sodiqning o'z dardi ham uning yuragini tirnardi-yu, ochilib gapirishga nimadandir xavfsirardi. Shunday bo'lsa ham uchini chiqarishga majbur bo'ldi:

– Bilasizmi, mening hujjatlarim hali chatoq. Shuni bir yoqlik qilish kerak edi.

– Bilaman.

– Shundan ham xabardormisiz, – dedi Sodiq.

– Ha, bo‘lmasam-chi! Ovqatni qaysi jag‘ingizda chaynashingizdan tortib, cho‘ntagingizda bir ukrain o‘rtog‘ingizning yodgor tamaki to‘rvasi borligigacha bilamiz!

Sodiq o‘zining elakdan rosa o‘tkazilganiga endi sira ham shubha qilmadi. Bu esa unga bemaol gaplasha berish huquqini berdi. Yana haligi iltimosini takrorladi.

– Ochig‘ini aytaymi sizga? Bu masala hozircha murakkab, sherning og‘zidan o‘ljasini qaytarib olishdek xavfli. Ko‘p joylarga yozish kerak. Birorta kaltabin yana xalaqit berib qo‘yishi, ishning pachavasini chiqarishi mumkin. Buning hozircha ahamiyati ham yo‘q. Vijdoningiz pok. Qiynalayotganingiz yo‘q.

– Shunday bo‘lsa ham...

– Bu to‘g‘ri. Lekin keyinroq to‘g‘rilash yengil bo‘ladi. Urush bir oz oidinga bosib, yengishimiz hammaga oshkor bo‘lsin. Hozir alg‘ov-dalg‘ovroq.

Sodiq «qo‘lbola» ko‘prikdan o‘tishgach, bir oz dam olishga taklif etdi. Chuxanov qarshilik bildirmadi. Yonidan tamaki chiqarib o‘radi, Sodiqqa ham tutdi:

– Rahmat, chekmayman.

– Chekardingiz-ku.

– Diqqinafasligimdan ba‘zan chekib qo‘yaman.

– Endi-chi? – boya yo‘lda kulganiga o‘xshab jimaydi Chuxanov.

– Endi zarurat yo‘q.

– Unday bo‘lsa juda xursandman. Keragi yo‘q, chekmang!

Chuxanov papiros tutatdi, Sodiq boya o‘tirgan yeriga borib, suvga qaradi. Tanish qurbaqani izladi. Narigi sohilda turgan bir qurbaqani ko‘rib qoldi. «O‘shamikin?» dedi-yu, termilib qoldi. Uning oppoq bag‘baqasi chiroyli ko‘rinib ketdi, bag‘baqasi emas, hatto o‘zi ham eski qadrdondek

mehrini tortdi. U bilan yuragini ochib suhbatlashgani esiga keldi-yu, Chuxanovdan iymanib, unga:

– Qurbaqa ham qiziq maxluq: ertayu kech suvda. Muzlab ketmagani! – dedi.

Uning ko'ziga faqat qurbaqa emas, qirg'oqdagi anavi tosh ham, po'rsildoq sassiq o'tlar ham, siyrak bulutli ko'kka uchlarini nayza qilib sanchib turgan anavi qarag'ay, oq qayin, eman, archa ham, kishilar oyog'i ostida ezila berib kukun bo'lib ketgan qumlar ham – hamma-hammasi hozir jozibador bo'lib, o'zgacha husnu latofat kashf etib ko'rinardi...

...U shu kechasi birinchi marta oyog'ini bemalol uzatib yotdi.

## 10. SINOV DAQIQALARI

Qodir ertalab ko'zini ochsa, barakning hidiga turib bo'lmaydi. Bu achchiq va qo'lansa hidning iflos kiyimbosh, bir qancha vaqtdan beri yuvinmagan badandan chiqqan ter, qoni oqib yotgan yaralar ostlariga solingan pichan chirigi va yana allanimabalolardan murakkab topganini u yaxshi bilardi. Ayniqsa, g'alayon qilgan lagerdan keltirilganlar qo'shilganidan keyin juda ham sasib ketdi.

Qodir turli alfozda g'ujanak bo'lib yotgan odamlar orasidan o'tib, iloji bo'lmaganida ustidan hatlab tashqariga chiqdi. «Eh, toza havo, bor ekansan-ku» degandek, chuqur nafas olib, burun kataklari kerildi. «Shu payt bitta papiros bo'larmidi?» degan fikr ko'ngliga keldi. Uning ertalab chekish odati bor edi. O'ziga o'xshab toza havoga chiqib, to'dalashib yurgan kishilarga ko'z tashladi: qani birortasi chekayotgan bo'lsa, uyat bo'lsa ham so'rardi, tagi bilan emas, bir tortib berish uchun so'rardi! Yo'q,



hech kim chekmayapti! Shu payt, xuddi uning g'ashiga tegishni niyat qilgandek bir nemis soldati chekib o'tib qoldi. Papiros uning ko'ziga shunaqa chiroyli ko'rinib, tutuni dimog'iga shunaqa xush yoqdiki, ko'zi tinib ketdi! Bundoq o'yiasa, bu yaqin bir oy ichida chekmagan edi. Nemis, Qodirning ko'ngli papirosga sust ketib turganini sezdimi yoki odatdagi «ermak»laridan birini qilgisi kelib qoldimi, ikki qadam burilib chekib turgan sigaretini qattiq bir tortdi-da, itga suyak tashlagandek yerga irg'itdi.

– Ol! – dedi masxaralab Qodirga.

Qodirning qanchalik chekkisi kelib turmasin, «og'zing to'la qon bo'lsa ham dushmanning oldida tufurma», degan xayol bilan o'zini tiyib:

– Rahmat! Chekmayman! – dedi.

– Chekishingni bilaman. Ol! Senga nozni kim qo'yibdi! O'lib turibsan-ku. Ol! – nemis qo'nji kalta etigining uchi bilan sigaretani unga yaqin surdi.

– Sarqit chekmayman! Gadoy emasman! Nemis istehzo bilan qah-qah urib yoniga qo'l soldi, sigareta olib, masxaralab uzatdi.

– Butunini chekasizmi! Bilmabman, xax-xax-xa. G'ururim baiand deng!

Qodir bilmadi: «ha, nima deysan!» degandan keyin bir musht solib, nemisni ag'dardimi yoki ag'dargandan keyin shunaqa dedimi, bir vaqt esi o'ziga kelib, bundoq qarasa, begona bir barakning dahlizida turibdi. Orqasiga o'girilib, nemis yiqilgan yerda olag'ovur ko'tarilganini ko'rdi. «Bir oz bosilsin!» deganicha shoshib o'zini barakka olar ekan, eshik orqasidagi yumshoq bir narsaga oyog'i tegib ketdi, undan cho'chib ustidan hatlagan edi, umbaloq oshib ketishiga sal qoldi. Eshik orqasida yotgan o'lik edi. Uning ustida qandaydir jonli narsalar o'rmalashib yurardi. Qodir

ularning kalamush ekanini darrov payqadi, chunki ularning baragida ham kechalari chiyillab uyqu bermas edi.

Qodir timirskilab yerdan tosh topib, kalamushlarga otgan edi, u borib murdaning yuziga «shalop» etib tushdi. Bu tovush Qodirni shunchalik dahshatga soldiki, dodlab eshikka chiqib ketganini o'zi\* bilmay qoldi. Buning oldida nemisga tarsaki solgani hech gap emas edi...

Shu kuni kechqurun tekshirishda yetti kishi yetmadi.

– Ular qani? – dedi lager feldfebeli asirlardan tanlab «kapo» – kuzatuvchi qilib qo'ygan o'z kishisiga.

«Kapo» uning oldiga itoatkorona yugurib borib doklad qildi:

– O'lgan.

– O'lgan bo'lsa nima qilish kerak edi! Yo har kuni eslatib turish shartmi!

– Yo'q, shart emas, janob feldfebel! Hozir!

Yugurdak «Sen! Sen! Sen!» deb besh-olti kishini safdan olib, chopib ketdi. Saldan keyin o'liklarni barakiardan sudrab chiqib, feldfebelning oyog'i ostiga, saf oldiga qator qilib yotqizib qo'ydi. Qodir ularga boqib «otgan toshim basharasiga tushgani qaysi biri ekan? Ha, anavisi bo'lsa kerak, quiog'ini kalamush kemirib ketibdi-ku» deb xijolat tortib achindi.

Hisob to'g'ri chiqdi. Saf tarqatildi.

Qodir shu kechasi «nemis ertaga tanib qolsa nima qilaman?» degan tashvishda emas, murdaga qilgan beodobligidan dahshatga tushib uxiolmadi.

\* \* \*

Qodir umrida ko'rmagan bir qush kelib ular o'tirgan yerdagi barakning cheti nurab ketgan tomiga qo'ndi, undan nimanidir cho'qib, tikka ko'tarildi, qator-qator tikan

simlar, uning yonida turgan avtomatchilarning ustidan bemalol uchib o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Qodirning unga havasi keldi: shu qushcha ham baxti yo'q. Shu qushga aylanishga rozi edi.

Uni kuzatib turgan Pushkaryov:

– Odam baxtli bo'lishi uchun ko'p narsa kerak emas, shundaymasmi, Qodir? – deb qo'ydi.

– Albatta. Masalan, menga hech narsa bermasin, hech narsa demasinu, faqat o'z holimga qo'yib bersa bas. To'g'ri darvozaga borsam, uni ochsam, undan chiqib ketaversam, ketaversam.

– Keyin nima qilardingiz? – uning soddaligidan jilmaydi Pushkaryov.

– Keyin nima qilardim? Jangga kirardim, dushman yengilgach, maza qilib yashardim.

– To'g'ri, Qodir, bir insoncha yashashdan yaxshi narsa yo'q. Menimcha, har odam o'z taqdiri bilan dunyoga keladi. Birov umri bo'yi ezgu ishdan boshqani bilmaydi, uncha ko'zga ham tashlanmaydi.

– Kuzda, xazonchinak paytida qalin barglar orasida qolgan to'ppidek behiga o'xshab, – gap qistirdi Qodir.

– Behi o'sgan bog'larni toza sog'inibsiz-a?

– Sog'inmay bo'ladimi, ayniqsa, mana bu jahannamda. Ochig'ini aytsam, sog'inish nimaligini endi bildim. Kishi qanchalik og'ir kunda qolsa-yu, uzoq ketsa, shunda qattiq sog'inar ekan. Eh!

– Bu to'g'ri, – dedi Pushkaryov asl mavzuga qaytib, – ba'zi odam esa, umrida bir marta, faqat bir martagina ro'yirost turib «olg'a!» deyish uchun tug'iladi, uzoq ham yashamaydi. Modomiki, shunday ekan, umrning uzun-qisqasi yo'q. Dunyoga kelib, bir shamcha yalt etib ketgan umr umrmi? Odamdan «Qancha yashading?» deb emas,

«Dunyoga kelib nima qilding?» deb so'rash to'g'ri bo'ladi. Birov butun bir kitob yozadi...

– Boshqa birov «ship» etgan tovush eshitsu, kirpiga o'xshab boshini ichiga olib yashaydi, – uning so'zini og'zidan oldi Qodir. – Eh, hayot, hayot! Naqadar murakkab narsa! Men shu hayot kitobiga bir vergui qo'yolsam jon derdim.

– Hali vergui emas, butun-butun so'ziar yozasiz. Hali sizga atalgan ishning birorta qati ham buzilgani yo'q.

Bularning shunday jahannamda o'tirib, bahor chechakiarining isi bilan mast bo'layotganlaridan kulgisi qistagan Mo'rdaxay «bularning esi joyidami?» degandek bir-bir ko'zdan kechirib, bo'ynini qichidi. Bu gaplar unga ertak bo'lib tuyuldi. U, shu kunlari juda zabun yurardi, ozib-to'zib ketgan edi, boshini titroq cholday liqillatib:

– Men tashqarini o'yiamay qo'ydim. Qornim to'yib tursa bo'lgani edi, – dedi.

– Qorning to'yib tursa bo'ldimi? – kesatdi Qodir.

– Boshqa nima iloj bor? Qochganlarni ko'ryapmiz-ku, otib, oyog'idan sudrab kelishyapti.

– O'sha ham o'limi oldidan bir necha daqiqa balsa-da, erkin nafas olib qolyapti. O'zingni tut, Mo'rdaxay!

– Ichi to'la zahar bo'lgandan keyin kosasi oltin bo'ldi nima-yu, sopol bo'ldi nima, Qodirjon aka, baribir emasmi?! – Mo'rdaxay ma'yus bir qarash qilib, do'stlarini mensimagandek turib ketdi. Bu Qodirga alam qildi.

– Bo'lmasa legionga yoziling, ustingiz butun, qorningiz to'q bo'ladi.

– Nega men yozilishim kerak ekan? Siz-chi? Siz nega yozilmaysiz!

– Chunki men sizga o'xshab qornim g'amiga tushib qolganim yo'q.

– Qornim g‘amiga tushganim xoinlik qilaman deganim emas. Siz meni yaxshi bilmas ekansiz. Akangiz sizga uyda qanaqa tarbiya bergan bo‘lsa, menga maktabda shunaqa ta‘lim bergan.

Bu kutilmagan javobdan Qodirning nafasi ichiga tushib ketdi. Pushkaryov ham «keragi yo‘q, tortishmang» degandek uning tirsagini tutdi. Mo‘rdaxay jadallab kirib ketdi. Orqasidan Pushkaryov:

– Mana bu uzoqqa bormaydi, – dedi.

– Sabab?

– Qorin tashvishiga tushgan uzoqqa bormaydi. Bu yerda qorin g‘ami bilan emas, qadr g‘ami bilan yashash kerak. Hayot ishonchini, erkinlik ishonchini yo‘qotmaslik kerak. Inson o‘zi o‘ylaganidan ko‘ra, bardoshii va qudratli. Bundan o‘z o‘rnida foydalanish uchun esa, yurak va ishonch kerak. Yana bir-ikki oy o‘tsin, o‘zingiz‘ bilib qolasiz.

– Yana bir-ikki oy? Nahotki!

Pushkaryov kecha qoshiq sopidan sementga yedirib qilingan «qo‘lbola» ustarada olingan, bir necha yeri kesilgan oq-sariq yuzini yiltillatib jilmaydi.

– Ha, ertaga qo‘yib yuboradi, deb o‘ylaysizmi?

Qodir erta-indin qo‘yib yuborilishini o‘yiamasa ham, bu hayotning yana bir necha oy cho‘zilishi mumkinligidan vahimaga tushdi, birdan tutaqib ketdi:

– Yo‘q-yo‘q! Yaxshisi o‘zimni o‘ldiraman!

Ko‘pni ko‘rgan bu yoshi ulug‘ Pushkaryov Qodirning bolaligidan kuldi.

– Bu mardlik emas. Mana bu badbaxt hayotdan omon chiqish, keyin yashash va kurashish mardlik.

U sinovchan ko‘ziari bilan kuzatib turar ekan, Qodir u kutgan javobni qildi:

– Buni qarang, – tikanli simlarni ko'rsatib to'rt tomonga alangladi Qodir, – qush bo'lib uchib o'tmasang... Yo'q, iloji yo'q!

– Gap shunda-da! Iloji bor! – tovushini pasaytirib qulog'iga dedi Pushkaryov.

– Iloji bor?

– Ha.

– Men tayyorman.

– Tayyorman, deylshning o'zi etmaydi, tayyorlanish kerak. Qodir tushunmadi.

– Qanday tayyorlanish kerak?

– Faqat siz men bilan ish bitmaydi-da. To'ng'izni g'oz o'qi bilan otib bo'ladimi?

Qodir fahmladi, ko'plashmasa bu zulm toshini ko'tarib bo'lmaydi.

– Men roziman. Qani, nima qil, deysiz?

Pushkaryov Qodir tobiga kelganligiga qanoat hosil qildi, shuncha vaqt uni kuzatib chakki qilmapti, endi unga ishonsa bo'ladi. Lagerda olib borilayotgan yashirin ishdan uni xabardor qildi, lekin hech kimning nomini tilga olmadi.

– Siz bilasiz vassalom, boshqa bilan ishingiz yo'q. Men esa sizga ishonaman.

– Rahmat! – Qodirning qorong'i dunyosi yorishib ketdi, labining tanobi qochdi. – Endi bu ish qachon bo'ladi?

– Tayyorlik ko'rishimizga bog'liq. Lekin sizni ogohlantirib qo'yishim kerak: tunov kundagi singari qizishib, nemisni tarsakilab yurishni endi qo'ying, befoyda, toshga suv sepganday o'zingizga sachraydi.

Qodir xijolat tortib, o'zini oqlamoqchi bo'ldi:

– Kishini masxaralagandan keyin...

– Masxaralash? Otib tashiaganda qo'lingizdan nima kelardi. Yaxshiyam topolmadi!

Qodir boshini quyi soldi.

– Gap shunday, do‘stim, bular barchasi behuda urinishlar, birlashib, tagidan qo‘porish kerak. Shunday qilish kerakki, zilzilasi Gitlarning uy qusini qochirsin! Kelishdikmi?

– Kellshdik.

– Ha, rostdanam, birortasi gapga solsa, og‘zingizdan gullab qo‘ymang tag‘in. Patriot niqobidagi ig‘vogarlar ham bor-a bu yerda.

– Xotirjam bo‘ling!

Qodir bu tomondan ko‘ngli tinchib, bir necha kundan beri yuragini g‘ash qilib kelayotgan bir savolni unga berdi.

– Tunov kuni kelgan Ali Naimxon kim? U qayoqdan Gitler bilan til topishib olibdi?

– Pes bilan pes qorong‘ida topishar, degan maqol bor-ku, xuddi shuning o‘zi. Bir mahal Germaniyaga o‘qishga kelib, qolib ketgan savdogar bolasi, vatanfurush. Endi Gitlarning tuvagini yalab yuribdi. Ali Naimxonning qilmishi emas, tovushining ham xunukligi Qodirning esiga tushdi, iflos narsa bosib olgandek ko‘ngli behuzur bo‘lib ketdi:

– Vatan, vatandoshlar, emish! Qaysi qo‘ygan ustuning uchun joning achiydi! Uyalmagani! Pushkaryov yana ta‘kidladi:

– Gap shu, o‘rtoq Qo‘chqorov!

– Albatta, o‘rtoq Pushkaryov! O‘lmoq bor, qaytmoq yo‘q!

Qodirning xayoli bahor qushlaridek chaman kezib ketdi. Ko‘z oldiga Aziza keldi. «Qani endi u yurgan ko‘chadan yana bir yursam, u uzgan guldanda hidlasam, u chanqog‘ini bosgan ariqdan bir hovuch suv ichsam, u sevgi ufurgan havodan ko‘ksim to‘lib nafas olsam. Mayli edi shundan keyin o‘lsam, o‘ldirsalar! Yo‘q, shundan keyin

hayotning qadriga yetib yashasam, maza qilib yashasam. Yashashim kerak!»

Pushkaryov Qodirga topshiriq berib, barak orqasiga o'tishi bilan, uni bir «kapo» to'xtatdi. «Obbo, la'nati, butun gapimizni eshitib turgan ekan shekilli» deb u o'zini qarshilik ko'rsatishga tayyorlab ulgurmay\* «kapo» gap boshladi:

– Men siz bilan ochiqchasiga gaplashmoqchiman. Rostini aytsam, siz juda qaltis ish tutyapsiz. Ehtiyot bilan ish ko'rayotganga o'xshaysizu, hammasi sezilib turibdi. Mana hozir shu qoracha yigit bilan uchrashuvingizni olaylik. Nima gaplashganingizni eshitmagan bo'lsam ham, bilib turibman.

– Nima gapirishibmiz? Hech narsa gaplashganimiz yo'q!

– O'zingizni go'llikka solmang! Hammasini bilaman: kecha oqsoch ukrain bilan ko'rishganingiz-chi! Anavi puchuk kazak-chi! Tunda burni katta armanini nimaga chetga olib o'tdingiz. Tunov kuni nega boshqa barakda yotib qoldingiz? Yoningizdagilar kim edi. Barchasi kaftimda.

Buni Pushkaryov kutmagan edi. U shak keltirolmasa ham, iqror bo'lishi mumkin emas edi. Bu xildagi kurashni o'ziga kasb qilib olgan kishilarga xos iroda va matonat bilan sira pinagini buzmedi. Bunday kishilar egilmaydi, tik turganicha yiqiladi.

– Meni kim bilandir adashtiryapsiz,– dedi xotirjam.

– Sizning bu xotirjamligingiz meni ajablantirmaydi, chunki sizning kimiigingizni bilaman, juda yaxshi bilaman, o'rtoq chekist! Hozir gap bunda emas, boshqa yoqda! Siz meni sotqin hisoblaysiz. Bir tomondan bu to'g'ri. Mening vazifamni bajarish o'zi xoinlik. Lekin men xoinmanmi? Bu boshqa masala! Men siz bilan birga bo'lmoqchiman. Ishonasizmi?



Bu uchrashuv oqibati bunday keskin tus olishi Pushkaryov uchun sira kutilmagan yangilik edi! U cheksiz xayol to'fonida qolib ketdi: bu kim? O'z qilmishidan pushaymon kishimi yoki ig'vogarmi? Ig'vogar bo'lsa hamma narsadan xabardor ekan, nega endi uning o'ziga aytib o'tiribdi? O'zini bir ko'rsatib olib, keyin xo'jayiniariga xabar bermoqchimi? Yoki shu atrofdagi yashirin partiya tashkilotining topshirig'i bilan lagerda ishlayotgan odammi? Unda bunday qo'pol bir yo'l bilan aloqa bog'lashining qanchalik zaruri bor? Yo joni shirinlik qilib qolgan qo'rqqomi?

Ishqilib, Pushkaryov qancha urinmasin, uning kimligini tushunib yetmadi. Lekin bir narsa aniq edi: agar u chindan ham ig'vogar bo'lsa, uyushtirayotgan qochishni barbod qilish uchun yetarli ma'lumotga ega. Demak shunday ekan, ortiqcha o'ylab o'tirishning hojati yo'q. Pushkaryov shart kesdi:

– Bordi-yu, sizga ishonsak nima nafingiz tegadi?

– Bu sizning qobiliyatingizga bog'liq! Men lager korchalonlari qo'yniga uzatilgan qo'lingiz bo'la olaman. Istasangiz yuragini, istasangiz jigarini sug'urib beraman.

Bu o'ta botirlik Pushkaryovni yana cho'chitdi: yo u chindan ham dovyurak yoki soyasi yupqa chiranchiq.

– Mayli, – dedi u, – ertaga qosh qorayganda yettinchi barak orqasida uchrashamiz.

– Xo'p! – «Kapo» xayrlashmasdan jo'nab ketdi. Nariroq borib hushtak bilan qandaydir kuyni xirgoyi qilgani eshitildi. U juda beparvo borardi.

Pushkaryovning ertaga va'dalashishdan maqsadi shunday edi: ertagacha hamfikrlari bilan maslahatlashadi, agar qochishni uyushtirayotgan yashirin qo'mita unga ishonsa-yu, xo'p-xo'p, ishonmasa unda nima bo'ladi?

Besh kishilik qo'mita shu kuni kechasi va ertalab uzoq maslahatlashdi: bir fikrga kelishning iloji bo'lmadi: hammadan ham «kapo»ning oltin tog' va'da qilishi, tili botirligi ularni ehtiyot bo'lishga undardi. Shunda birdan Qodirni ikkita nemis askari kelib olib ketganini eshitib qoldilar.

– Tamom! Ig'vogar ekan u! – dedi biri.

– Agar ig'vogar bo'lsa mendan boshlashi kerak edi, – dedi Pushkaryov.

– Sabr qil, sen bilan menga ham navbat kelib qoladi.

– Qiziq, nega Qodirdan boshlashdi? – tushunmas edi Pushkaryov.

– Chunki u orqali kalavani chuvalatish yengilroq bo'lsa kerak, – dedi kecha «kapo» tilga olgan kazak.

– Kechirasiz! Qodir uncha-muncha toshda chaqiladigan yong'oq emas! – qat'iy dedi Pushkaryov.

– Mana endi ma'lum bo'ladi, – gapga aralashdi «kapo» tilga olganlardan biri – armani yigit.

– Agar o'sha menga uchrashgan «kapo» xabar bergan bo'lsa, Qodirdan so'rab o'tirishning hojati yo'q. U hammani bilar ekan. Qodir yolg'iz menigina sotishi mumkin.

Pushkaryovning shu so'zidan keyin hech kim hech narsa demadi. Hamma o'z fikri-o'yi bilan bo'lib qoldi.

– To'dalashib, xayol surib o'tirishimizdan foyda yo'q. Qani bir qarorga kelaylik! – dedi tashabbus ko'rsatib Pushkaryov.

– Bu xilda o'tirishimiz bo'lsa, qidirib yurishmasdan hammamizni shu yerda bosib olib qo'ya qolishlari turgan gap, – boshini ko'tarib dedi kazak.

Qaror Qodirning ishi bir yoqik bo'lgunicha yig'ilish-maslik, «kapo»ni esa bo'g'ib tashlash bo'ldi. Bu ishga kishi tayinlandi. Lekin bir mahal o'limga hukm qilingan

«kapo»ning o'zi Pushkaryovni qidirib, barakka kelib qoldi. Uni ko'rishi bilan Pushkaryov «ha, iflos, meni olib ketish uchun odam boshlab kelyapsanmi?» deb ko'nglidan o'tkazguncha, u juda ehtiyotlik bilan bir chetga ishora qildi. Pushkaryov «bo'lar ish bo'ldi – endi ochiq gap lasha berish kerak», deb ko'rsatgan tomonga o'tishi bilan «kapo»:

– Qodirning ishidan xavotirlanmanglar, – dedi va tafsilotini aytmadan beparvo yurish qilib chiqib ketdi. Pushkaryov surishtirishga ulgurmas, kishilar xalaqit berdi.

Pushkaryov bu xabardan hayron bo'lganicha qolaverdi. Hamfikrlariga ma'lum qildi. Ular yana ishonishmadi. Hamma narsani yana biror kishining lagerdan turmaga olinishi hal qilardi. Agar «kapo»ning qo'li bo'lsa, u bilgan kishilardan birortasi bugun-erta qo'lga olinishi kerak edi. Kechgacha hech qanday hodisa sodir bo'lmadi. Qosh qorayib kelardi. Tayinlangan kishilar «kapo» bilan va'dalashilgan yerga kelsa, uni nobud qilib qo'yishlari mumkin edi. «Ehtimol u ig'vogar emasdir!» – shunday fikrga kelgan Pushkaryov sheriklariga uchrashdi, qaror ijrosini orqaga surishni maslahat ko'rdi:

– Chindan ham ig'vogar bo'lsa-ku xo'p-xo'p, bir emas, ming bor o'ldirsang ham oz. Bordi-yu... yo'q, o'rtoqlar, yaxshi o'ylash kèrak. Uning bizga ko'p foydasi tegishi mumkin.

– Pushkaryov, sen bu mulohazalaring bilan hamma-mizni qopqon bir-bir oyog'imizdan qisguncha sabr qiladiganga o'xshaysan. Men bu fikringga qo'shilmaymay. Bizdan bittamizni oldimi, iloji bor ekan, biz ham bittasining boshini yeymiz, – dedi kazak.

– Seniki juda xristianchasiga: tish uchun tish, bosh uchun bosh! – hazilga oldi Pushkaryov.

– Qanday tushunsang, shunday tushunaver! Lekin men dushmanga shafqat qiloimayman!

– Bu shafqat emas, ehtiyotkorlik, do‘stim! Begunoh chiqib qolsa ayt-chi, keyin vijdoning qiynalmaydimi.

– Begunoh bo‘lsa «kapo»lik qiladimi! Qo‘ysang-chi?!

– Bu mening fikrim xolos. Yana ko‘pchilik biladi.

Ko‘pchilik hukmni ikki kun orqaga surdi. Bugungi uchrashuvga Pushkaryovning o‘zi boradigan bo‘ldi. Qodirning nimaga turmaga olinganini, o‘zini qanday tutayotganini bilishni unga topshiriq qilib beradi.

Bir jihati bu «kapo» uchun sinov – taqdirini hal qilardi.

\* \* \*

Qodirning qo‘lga tushishi qiziq bo‘ldi.

Qodir, qizning o‘zidan ham xayoli shirin bo‘lar ekan, deb ko‘nglida Azizani o‘yiab, quyoshdan ko‘zini pana qilib yonboshlab o‘tirgan edi, birdan kimdir:

– Tur, kamarni ech, – deb qoldi.

Yuziga tashlab qo‘ygan ro‘molchasini olib, tepasida turgan nemis feʼld febelining o‘zini ko‘rdi. Kundan-kun darmonsizlanib borayotgan tizzalarini qirsillatib o‘rnidan turdi. Feʼldfebel uning kir bo‘lib ketgan gimnastyorkasining etagini ko‘tarib, shimini tutib turgan enlik kamarni ko‘rsatdi.

– Chiqar! – dedi yana.

Qodir darrov fahmladi: feldfebeini kamar emas, uning to‘qasidagi qizil askar ramzi bo‘lgan besh qirrayulduz betinch qilyapti. Pushkaryovning «endi qizishib ish tutmang» degan nasihati esiga tushib, kamarni chiqarib bermoqchi ham bo‘ldi-yu, shimining tushib ketishini o‘ylab xayollab qoldi. Lagerning hokimi mutlaq xo‘jayini feʼldfebelga shuning o‘zi yetib ortardi. U tutaqib ketdi. Bir tarsaki tushirdi, so‘kindi. Qodirning tarsaki zarbidan ko‘z

oldi chaqnab ketgan bo'lsa ham, Pushkaryovning tanbehini eslab, indamadi, noiloj besh qirrali yulduz qadalgan qizil askar kamarini chiqarib berdi. Lekin фельдфебель, aytgan zahoti chiqarib bermaganidanmi yoki o'zining itiigi tutdimi, ikkita kishisini chaqirib, uni berib yubordi. Ketidan o'zi borib:

– Nima uchun qizil yulduz olib yurganingni bilaman. Yana kimlarda bor?! – deb dag'dag'a qildi. Qodir bo'sh kelgan sari oshib ketaverdi, yana bir-ikki urib qoldi. Shunda Qodirning sabri tugab, nimalardir deb baqirdi, so'kdi, turmaga tushdi.

Turma lagerdan devor bilan ajralgan bo'lib, lager va ko'cha tomondan eshigi bor. Bu yerda devori qalin, poli sement qorong'i va zax kameralar bir talay. Shulardan biriga Qodirni kiritib, ustidan sharaqlatib qalin taxtadan bo'lgan, qo'sh qulfli eshigini yopdilar. Qodir bu turma haqida avval eshitgan – uning tirik mozor ekanini bilardi. Shunday bo'lsa ham, ortiqcha qo'rqmadi, «bitta kamar uchun otib tashlamasalar kerak, axir» degan umid bilan qorong'i va katalak kameraning bir chetiga, sement polga o'tirdi. Kamerada na karavot, na taburetka bor edi. Faqat burchakdan, to'pning og'zidek tuynukdan yorug' tushib turardi, u yorug'ning ham yarmini temir panjarasi bo'g'ib qolardi. «Panjara tutmasa, bu yerdan odam qush bo'lib uchib chiqib ketadimi?» deb o'yladi u. To zax sement hidi kelib turgan mudhish bu xonaning qorong'isiga o'rgangunicha ko'p vaqt ko'zini yumib turdi. Asta-sekin ko'zi ko'nikkan sari bu kameraning dahshati ochila bordi: devorlari dog'dug', qoigan qon izlari, shiftning burchaklarini o'rgimchak uyasi bosgan, polidan muz chiqadi, birpas o'tirishi bilan butun badanini sovuq qopladi. Keyin turib yurishga majbur bo'ldi. Uning nima qilayotganini

kuzatayotgandek eshikdagi tuya ko'zidek teshikdan kimdir tez-tez qarab turardi.

Ana shularning hammasini aniq ko'rib, tasavvur qilgandan keyin, Qodirni vahima bosdi: arzimagan bir ish uchun shunday joyga tashlagan feldfebel nega otib yuborishi mumkinmas? Kim undan hisob oladi-yu, kimdan u hayiqadi!

Ertasi tushgacha Qodirning bor-yo'g'ini hech kim surishtirmadi. Na bir burda non bor, na bir qoshiq suv, faqat tunda bir-biridan to'rt enlik olislikda yonma-yon mixiangan taxta-shita uzatdilar. Shuning ustida yotdi. Yotish qayoqda, ag'anab chiqdi. Taxtaning qattiqligidan emas, kameraning zaxligidan, taqdiri qorong'iligidan ko'ziga uyqu kelmadi.

Ertasiga tuynukdan tushgan yorug'dan kun yorishganini sezib o'tirgan edi, birdan qo'sh quifli eshik daranglab qoldi. Uni olib chiqib ketdilar. «Yana qayoqqa olib boradilar?» deb yurak o'ynog'i bo'lib borgan Qodir, besh minut o'tmay, o'zini o'sha feldfebel bilan yana bir SS ofiseri huzurida ko'rdi. Ruschani uncha-muncha bilgan feldfebel SS ofiserining so'roqlarini yarimta-yurimta qilib tarjima qilib turdi. Berilgan savollarning yulduzli kamarga aloqasi yo'q edi. Ofiser juda balanddan kelardi:

– Lagerda sening nima ish qilishingni bilamiz. Agar o'zing iqror bo'lib, sheriklaringni ham nomma-nom aytib bersang hayotingni saqlab qolamiz. Istasang Turkiston legioniga yuboramiz.

Qodir avvaliga cho'chib tushdi: ko'z oidiga Pushkaryov keldi. Nahotki bular hammasidan xabardor? Agar bilsa, nega endi mendan surishtirib o'tiradi? Bilmaydi. Bilsa bunday qilmas edi. Mening nimamga joni achiydi. Bular qorong'i uyda taxmin bilan tosh otib yuribdi.

Shu ishonch unga kuch bag'ishladi va o'zining o'limdan xabari bor, ammo bunday «ahmoqlik»lardan mutlaqo bexabar qilib ko'rsatdi. Ofiser baribir unga ishonmadi, konkret so'roqqa ko'chdi:

– Anavi rus tunov kuni senga nima dedi?

Qodirning yuragi shig'illab ketdi:

– Qaysi rus?

– O'zingni go'llikka solma, oftobda uchrashganing.

– Esimda yo'q. Hech kim bilan uchrashmadim. Kimni ko'ribman?

Birdan uning qulog'i tagiga shapaloq tushib qoldi:

– Nega yolg'on gapirasan. Mana bu nima? – u surat ko'rsatdi. Unda Qodir Push karyov bilan yonma-yon turardi.

– Mana bu-chi? – yana birini uzatdi.

Mana endi seni qo'lga tushirdim deb kibrlanib turgan ofiser, Qodirning javobidan beshbattar tutaqib ketdi.

Qodir esa suratni ko'rishi bilan «bu faqat surat, so'zimizni qayoqdan biladi. Shu bilmaganidan meni tergayapti-da, aks holda, uning oyog'ini yerga tegizmay olib kelardi. Demak, bu yog'i menga bog'liq. «Ey qalbm, endi metin bo'l, tillarim tosh qot! O'lsang o'lu, lekin siring ichingda qolsin» degan fikr bilan javob qaytardi.

– Ha, bumi, bir mahal bizning tomonlarda bo'lgan ekan, hozir o'zgarib ketgandir deb so'rayotgan edi.

– Yana nima dedi?

– Hech narsa.

– Ismi nima ekan? Armiyada kim bo'lgan ekan?

Bunisini aytmadi, men ham surishtirganim yo'q.

Uning ismini bilganim bilan qornim to'yarmidi.

– Qorningni to'yg'izsak, bilib berasanmi?

– Aytarmidi? Aytmaydi. Bu yerdagi odamlar pishiq ekan.

Uning soddaligi ofiserga yoqdi, mag'rur jilmaydi, feľdfebel bilan ko'z urishtirib oldi:

– Biz yordam beramiz.

– Uddalolmasman... Uddalolmayman! Bekorga ayg'oqchi deb o'ldirib qo'yishadi.

– Joning shunaqa shirinmi?

– Kimning joni shirin emas. Qari onam bor...

– Ha, balli, o'sha qari onangni ko'rging kelsa, biz bilan ishlashing kerak. Usting butun bo'lmasa ham, qorning to'q yurishiga kafilmiz.

– Yo'q. Qo'limdan kelmaydi, uddalolmayman.

– Ochlikdan o'lib ketasan-ku, bu holda.

Qodir «boshqa qanday ilojim bor?» degandek yelkasini ma'yus qisdi. Shuning ustiga tunov kuni Pushkaryovni to'xtatib, o'z xizmatlarini taklif etgan «kano» eshik taqillatib, kirib qoldi. U egilib salom berdi, lekin ofiser ham, feľdfebel ham mensimagandek sal bosh irg'ab qo'ya qoldi.

– Demak, sen o'zingnikilar kelib, ozod qilishidan umidvorsan, ha, shayton! – Ofiser yana qutura boshladi. Uning engagidan ko'tarib qo'ydi, – bo'lmasa nega ochdan o'lishga rozisanu, biz bilan ishlashmaysan?..

– Qo'limdan kelmaydi, – yana bo'shashib javob qildi Qodir.

– Keladi! Keltiramiz. Rozi bo'lsang bas.

Bu gal Qodir indamadi. To'g'risi, nima deb javob qilishni bilmasdi. Yana o'sha javobni qaytarish quturgan it og'ziga qo'l tiqish edi.

Ofiser uning og'zini poylab turdi, hadeganda javob bo'lavermagach:

– Xo'sh, nima deysan? – dedi sabri tugab.



Qodir jo'rttaga yana bo'shshadi, «yo'q, qilmayman» deyishga botinmay yotig'i bilan:

– Qilolmayman, uddalolmayman, – dedi.

– Uddalaysan!

– Yo'q.

– Qilasan!

– Yo'q!

Ana shundan so'ngra Qodir yetti uxlab tushiga kirmagan qiynoqni ko'rdi. Uni begona qo'raga kirgan daydi itdek urib-surib qo'shni xonaga olib chiqdilar, bir oyog'iga arqon solib, shiftdagi halqaga osib qo'ydilar. Butun egan-ichgani og'ziga kelib, oyog'idan ushlab, bozordan olib kelinayotgan jo'jaxo'roz qanotidek qo'llari shalvirab, ancha vaqt qolib ketdi. Bu orada ofiser shoshmasdan bitta sigareta chekdi. Allanima haqida «kapo» bilan nemischalashdi, feldfelbel qayoqqadir chiqib keldi. Yana papiros tutatib chiqib ketdi. Keyin ofiser «kapo»ga nemischalab gapirdi, u Qodirga tarjima qilib berib turdi. Savol yana boshidan boshlandi: «Anavi rus senga nimalar dedi? Nimaning rejasini tuzdilaring? U qayerda ishlagan ekan? Biz bilan ishlashga rozi bo'lasanmi-yo'qmi?»

Qodir tushundiki, javob berish befoyda. Modomiki, o'ziga ma'lum sirni ochmoqchi emas, ular bilan ishlash niyati yo'q ekan, har qanday javob faqat ortiqcha kaltak va haqorat uchun vosita bo'lishi mumkin. U indamadi. Nazarida oyog'i uzilib ketayotganga o'xshardi. «Ikki oyog'imdan osganda ham bunchalik bo'lmasdim» degan xayol bilan tishini tishiga qo'ydi. Avval to'pig'i, keyin tizzasining ko'zi, undan keyin bell kesak bo'ldi, sezish hissini yo'qotdi. Bora-bora ikki qo'li ham o'ziga og'irlik qilib qoldi, qo'ltig'ining osti zirqirardi, tomog'iga nafasi tiqilib, ko'z oldini tuman bosib keldi. Xuddi shu paytda ofiserning:

– Xo’sh, o’ylab bo’ldingmi? – degan tovushi arang qulog’iga kirdi. Saldan keyin o’ylash emas, eshitisdan ham qoldi: qulog’i tom bitib, ko’z oldini tun qorong’iligi bosdi.

U hushiga kelganda boshqa bir kamerada yotardi. Bu yer avvalgisidan sal katta bo’lib, ikkita zang bosgan karavot ham qo’yilgan edi. Bittasida yotgan odam u ko’zini ochishi bilan o’rnidan turib, salomlashdi. Nimaga qamalganini so’rab, o’zinikini aytib berdi. Shu bilan kamerada odatda bo’ladigan dastlabki suhbat tugadi. Saldan keyin u odamni olib chiqib ketdiar. Tuni bilan qaytmadi. Ertalab:

– Gitlarni ko’mishga chiqdim. Mendan boshqa hech kim yo’q, oyog’idan sudrab ko’mib keldim,— deb qahqah solib kirib keldi. Kuni bilan kulgidan to’xtamadi. Tuynukdan tushib turgan yorug’ga qarab, qushga o’xshab talpindi, karavoti ustiga chiqib sakradi. Jim qoldi. Yana qah-qah urdi. Kamerada Qodir borini payqamadi ham. O’zi bilan o’zi servar bo’lib, kunni o’tkazdi. Kechga yaqin olib chiqib ketdilar, boshqa qaytmadi. U jinni bo’lib qolgan, uni otib tashlagan edilar.

Qodirning unga rahmi kelib, o’z taqdiridan vahimaga tushdi: men ham jinni bo’lib qolmasam!

Ertasiga bu dahshatli vahimadan qutulib, kameraga «ko’nikkan»dek bo’ldi. Uni ko’zdan kechirdi: avvalgisidan sal yorug’. Tashqaridan sal-pal tovush ham eshitaladi. Bu tovush qulog’iga ilk bor kimganda bag’rini tilib ketdi: inson tovushining bunchalik hayotbaxsh ekanini endi tuygandek edi. Chanqoq kishi suvga yopishgandek qo’lini hovuch qilib, tashqariga quloq soldi, lekin tovush kelardi-yu, uni anglab bo’lmas edi. Bu ham bora-bora joniga tegdi. Kamera devorlarini «tomosha» qilayotib, birdan chumchuq ko’zidek kavakdan bir narsaning chiqib turganini payqab

qoldi. Gavharga yo'liqqan gadoydek entikib, uni tortib oldi. U himarilgan qog'oz edi. Bu kaftdek qog'ozga xat yozilganini yorug'ga solgandagina bildi va o'qidi:

«Bu yerda siyoh yo'qligidan qonim bilan gugurt cho'pida yozyapman. Men oddiy kishiman. Maslagim yo'lida halok bo'lyapman! Qalbim tinch. Xayr, do'stlar! Biz yengamiz! A. Ovcharenko».

Bu xat unga bir olam kuch-quvvat baxsh etdi.

\* \* \*

Pushkaryov, umuman qochishni uyushtiruvchi yashirin qo'mita Qodirdan keyin hech kimni nemislar bezovta qilmaganidan hayratda edi. Mana bugun beshinchi kun. Uni kuzatish uchun topshiriq olgan «kapo» ham yettinchi barak orqasida o'sha bir uchrashgandan keyin lager zonasida ko'rinmay qoldi. Bu yana qiziq edi.

Bu jumboq qo'mitaning qo'lini bog'lab qo'ygan edi. Agar shu hodisa ro'y bermasa yoki «kapo» oraga tushib qolmaganida shu bugun-erta lager oyoqqa turgan va o'z baxtini sinab ko'rgan bo'lar edi. Hozirgi holatda ish boshlab bo'lmas edi. Balki nemislar shu hodisaning boshlanishini butun lagerni qirib tashlash uchun bir bahona sifatida atayin kutib turgandir. Unda barcha tayyorlik bir pul bo'lishi turgan gap.

Qodirni yaxshi tanigan Pushkaryov juda bezovta edi, qo'mitaning ishi orqaga sudralib putur yetishidan bir cho'chisa, yoshgina ajoyib yigit Qodir uchun yana bir joni achir edi. «Nima hodisa ro'y berdi ekan» deb o'ylab o'yiga yetmas edi. Shu payt fikrdoshi arman yigit uni qidirib kelib qoldi:

– Chiq, «kapo» hovlida yuribdi. Seni qidirayotgan bo'lmasin! – dedi.

Pushkaryov shoshganidanmi yoki hayajonidanmi irg'ib o'rnidan turib, eshikka otilar ekan, orqasidan yetib kelgan arman yigit faqat u eshitadigan qilib:

– Hovliqma! – deb qo'ydi. Shundagina Pushkaryov o'zining noo'rin harakat qilganini sezib, darrov beparvo tusga kirdi.

Chindan ham «kapo» uni kuzatib yurgan ekan, Pushkaryovga ko'zi tushishi bilan bir chetga ishora qilib, uying orqasiga o'tdi. Uy orqasida yurganicha gapirib ketaverdi.

Pushkaryov ham o'zicha ketayotgandek quloq soldi. «Kapo» Qodir haqida to'plagan xabarini yetkazib, ketidan:

– Uningiz uncha-muncha olmos kesolmaydigan oyna ekan! – deb qo'ydi.

– Yaxshi! – dedi xotirjam bo'lib Pushkaryov, lekin Qodirning tortgan azobidan yuragi achishdi. – Endi nima bo'ladi?

– Aytolmayman. Kamerada yotibdi.

– Aniq aybi bo'lmasa chiqarib yuborishlari ham mumkinmi?

– Aytish qiyin. Lekin yigit o'n yil yotganda ham sizlarga kasri urmaydigan. Bu yog'idan xotirjam bo'lishingiz mumkin. Bunaqasi kam bo'ladi.

– Xuddi shunaqaligi uchun ham, uni qutqarish kerakda! Aks holda, sat qayisar derdik.

«Kapo» bosh qashib qoldi: bu juda og'ir jumboq edi.

– Senga topshiriq shu: bir yo'lini qil! – dedi Pushkaryov qat'iy.

Boshi qotib qolgan «kapo» o'ylab turib:

– Biror to'polon bo'lganda edi, men uni olib chiqsam...  
– deb qo'ydi.

«Kapo»ning bu gapi qochishni uyushtiruvchi «yashirin qo'mita»ning ishini tezlatishga turtki bo'ldi.

Qodirdan ko'ngli tinchigan qo'mita, yana ikki avtomat qo'lga tushirganidan keyin qochish kunini belgiladi. Otishma vaqtida Qodirni kameradan olib chiqishni turmani yaxshi bilgan «kapo» bilan yana besh-olti kishiga topshirdilar.

– Bu boshqa gap! – dedi «kapo». Ketidan qistirdi:  
– Omon-eson bu jahannamdan qutulib olsak mening kimiigim haqida o'zingiz guvohlik berasiz-da.

– Bu yog'idan ko'ngling to'q bo'lsin.

– Bu amalim xatoimning majburiy oqibati edi. Bir kuni hammasini aytib beraman.

– Albatta.

Yakshanba kuni nemislar ayni shirin uyquda yotadigan tongotarga yaqin lagerъ oyoqqa turdi. Tayyorlik puxta bo'lganidan operasiya shunaqa tez va muvaffaqiyatli amalga oshdiki, qochoqlar bir soat ichida mo'ljallangan joyga kirib oldilar.

Qodirni kamerasidan juda epchillik bilan olib chiqqan «kapo» lager darvozasida o'q yeb yiqilgach, uni ikki kishilashib ortmoqlab kelgan Qodir saldan keyin yo'lda, o'rmon og'zida qoldirishga majbur bo'ldi. U hayotdagi o'z burchini o'tab bo'lgan kishidek ko'zini mangu yumgan edi. «Kapo» o'z halokatini bilgandek, qo'ynidagi bir parcha qog'ozga shunday deb yozib qo'ygan edi: «Pavlinskiy Vadim Todorovich, nemis tili o'qituvchisi...», keyin adresi.

Bir oydan keyin o'rmonda paydo bo'lgan partizanlar otryadi og'izga tushdi, bu atrofda nemislarning halovati yo'qoldi.

## 11. ONA YURTGA QAYTGANDA

Qodir ona shahriga kirib kelganda ayni yoz edi.

Bu yurtning yoziga nima yetsin: ishkomida charos qorayib, polizida qirq xil qovun dum beradi, nashvatisi atir taratib, qimizak olmasi ko'ngil ochadi, gilosi ko'z qamashtirib, anjiri til yoradi. Qayrag'ochdagi savat uyasida laylak tomoq qoqib, musichalar kukulashganda, zaxcha chag'illab, bulbullar bog'u chamanni kuyga g'arq qilganda, ariq suvi osmondek tinib, qo'ng'irog'ini bir tekis chalganda, kunduzi tuprog'iga tuxum ko'msang pishirgudek isib, oqshomi orombaxsh salqin tortganda bu o'lkani aylanganmisiz? Mirishkor bog'bon supasida bir bosh husayni yoki echkiemarni suvga chayib, yeb bobodehqon chaylasida tunab, saharda ananas, ko'kcha, oqurug'ning tarsiliab yorilishini eshitganmisiz? Shoda-shoda ko'sak bog'lagan ko'm-ko'k paxtazor boshida, ayni tush paytida, usta paxtakor qo'lidan bir piyola ko'k choy ichib, yog'liq palovdan keyin o'niab kanal, yuzlab anhorlardan biriga sho'ng'iganmisiz? Yo'q? Demak, mo'jiza yurtni ko'rmabsiz, dunyoda shunday oromijon ham bo'lishini bilmabsiz!

Ana shularni o'ylab ona shahrida poezddan tushgan Qodir, ilk qarashidayoq hamma yoqda bundan necha-necha ming kilometr uzoqdagi dahshatli urushning ta'sirini ko'rdi. Yuzidan yoshlik shodu xurramligi, quvnoq sho'xligi sochilib turgan yigitlar siyrak. Otasi, aka-ukasi, eri, farzandini frontga jo'natib, ularning o'rnini bosgan qiz-juvon o'smir-keksalarning rangi-ro'yida avvalgi zavq, shukuh, tabassum yo'q. Kiyim-boshlari ham soddalashgan: yengil botinkalar, tufllilar o'rnini qo'pol etik, ipi qayishli og'ir botinkalar, ipak o'rnini ip almashgan edi. Qarashlar og'ir va o'ychan. Boshiga mushkul ish tushib, pardozi-andozni

unutgan juvondek ko'cha-ko'ylarning burungi fayzi yo'q. Tramvayning jiringlagan tovushida ham qandaydir o'zgachalik bordek. Urush go'yo bu shahar, bu yurtning husnini o'g'irlab qo'yganga o'xshardi.

Qodir telegramma bermagan edi. Hammaning o'z ishi boshidan ortib yotgan hozirgi tig'iz paytda hech kimni bezovta qilgisi kelmadi. Azizaning frontdaligini xatdan biladi. Uni kutishga oyisi-yu, Jannat kelinoyisi chiqqa oldi, xolos. Kim biladi, onasi akasining g'ami ustiga Qodirning shuncha vaqt bedomu darak bo'lib ketganidan keyin qanday ahvolga tushgan? Ehtimol g'am bukib qo'ygan, stansiyaga chiqishga yo kuchi yetadi, yo yo'q! Bu oila boshiga qora kun tushganda mehribonlik qilib turgan kelinoyisini bezovta qilishni o'ziga ep ko'rmadi. Innaykeyin, bu kunlarda vokzalda kishi kutish, tutish qabrison tepasiga «Marhabo, xush kelibsiz» deb yozib qo'ygandek erishga o'xshab ko'rindi. Shoshmasdan kirib borsa ham bo'laveradi. Nimani qoyil qilib kelyaptiki, uyiga telegramma berib, vokzalga odam to'playdi!

O'sha tongda nemis lageridan qochgandan keyin Pushkaryov tuzgan partizan otryadida jang qilib yurdi: poezd quietdi, ko'prik portlatdi, ko'p qatori chog'i kelgan nemis garnizonlariga hujum qildi, xoinlarni tutib otdi, razvedkaga bordi. Xullas, nima buyurilsa yo'q demadi, qo'lidan ne ish kelsa, bosh tortmadi.

Shunday to'qnashuvlardan birida soni va qornidan o'q yeb, uzoq yotdi. Oxir bo'lmagach, samolyotda «Katta yer»ga evakuatsiya qilishdi. Dengiz yoqasidagi bir shaharda keragicha davolab, mana endi olti oy otpuskaga yuboryaptilar. Qodir tanish ko'chalardan o'tib, eshigiga yaqinlashgan sari yuragi gup-gup urib, nafasi o'pkasiga tiqilardi. Bu nima? Hayajonmi? Yo'lida ko'zi to'rt mehribon

onasining sog'inchimi? Nemis lagerida tortgan azob-uqubatlarining hovrimi? To'kkan qonning shukuhi, ona shahrining olov mehrimi? Nima bu?

U, bir burda qora nonga zor bo'lib, lagerda ozib-to'zib, bitlab yurganda, iflos nemis ofiseri kaltaklab-kaltaklab, oyog'idan shiftga osib qo'ygan-da shu lahzani, shunday totli lahzani o'yiaganmidi? Ha, bular bari osmondagi oymomaga qarab talpingan go'daknikiday shirin xayollar edi, xolos. Mana, ko'z oldidan bir lahza ham nari ketmagan o'sha oddiygina eshik! Mana uning ostonasi tubidan shildirab oqqan kumush ariq. Mana, chinorga bir shoxini erkalik qilib qo'yib turgan akasiya daraxti. Shoxlar orasida chumchuqlar ham avvalgidek chug'urlashadi, osmon ham o'sha, quyosh ham o'sha. Hamma-hammasi o'z joyida. Faqat, ulardan urush tufayli fayzu orom ketgan, tinchlik ketgan. Ana shu chinor, ana shu ariq, ana shu chumchuqlar, ana shu osmon, quyosh, yer, esgan shamol, ana shu ona shahar, go'zal yurtning husni, latofati, ko'rki jozibasi bo'lmasa, zavqi-shavqi, farog'ati, fayzi-halovati bo'lmasa, ularning dardi bilan yonmasa, frontlarda qon kechib, lagerda zardob yutib, dushman orqasida jang qilib yurarmidi! Shular borki, uning bag'ri butun, ko'ngli tinch.

Qodir hayajondan titragan qo'llari bilan eshik zulfini ushladi, asta itardi: qani ilk bor kimni ko'rarkin?

Hovli suv quygandek jimjit. Adolat xola qo'shninikidan o'tgan balxtut soyasidagi supachada nima bilandir ivirsib o'tiribdi: ko'zida ko'zoynak, boshida oppoq doka ro'mol. «Men ketganda ko'zoynak tutmas edi, demak, ancha qaribdi-da. Tag'in ham fil ekan – shuncha g'amga bardosh berib kelyapti», deb o'yladi Qodir. Birdan kirib borib uni qo'rqitib yubormaslik uchun tomoq qirib yo'taldi. Har qachongiday ziyrak «Jonbolam xola» keksalarga xos



sipolik bilan tovush kelgan tomonga qaradi, qaradi-yu, eshikda turgan odamning kimligini aniq ko'rmagan bo'lsa ham, onalik qaibi bilan uning Qodir ekanini tuydi. Darrov ko'zidan ko'zoynagini olib, yana termildi, endi yaxshi tanib, shoshib qoldi. O'rnidan turaman deb, supa chetidagi piyolani tushirib yubordi.

– Qodirjon, bolam, bolaginam! – ona boshqa bir so'z aytolmay, yalangoyoq kelib, o'g'lining yelkasiga qo'lini tashladi, yig'lab yubordi, sevinchidan ho'ng-ho'ng yig'ladi. – O'z oyoqlaring bilan eshik qoqib kirib keladigan kunlaring bor ekan-ku! Onang bechorani buncha qiynamasalaring. Biringniki yetmaganday seniki ham bormidi, jon bolam. Sen-ku, qamoqda emas eding, buncha jim bo'lib ketmasang. Onam kuyib o'lsin dedingmi!

Adolat xola yillab yuragida yig'ilib yotgan sevinchini ham, ginasini ham aytib tugatolmas edi. U dam kuyinib yig'lar, dam ko'z yoshlari orasidan kulib, o'g'lini qayerga o'tqazishni bilmas edi. Qodirning ham o'pkasi to'lib, dimog'i achib kelsa-da, o'zini arang tutib, yoshini ichiga yutdi. Yelkasidagi safar to'rvasini supa chetiga qo'yib, o'zi ham sholchaga omonat o'tirdi. Adolat xola uydan nimdoshgina ko'rpacha olib chiqib to'shadi:

– Tur, bolam, yerda o'tirasanmi, ko'rpachaga o't. U yer zaxlik qiladi.

Qodir etigini chiqarib tashladi. Ona nimdosh bir kalish olib kelib, supa ostiga qo'ydi:

– Akangniki, bolam kelsa kiyadi deb olib yuribman. U kelgunicha sen kiyib tura tur. Aka-ukanikining aybi yo'q. Borib kelganimizdan beri undan darak yo'q bolam. Nimaligini bilmayman. Xat yozamiz, javob yo'q, surishtiraman birov bir narsa demaydi. O'z yog'imga o'zim qovurilib yuribman.

Ona bu gal o'rtanib, yurak-bag'ri ezilib, ko'ziga yosh oldi. Lekin baribir qarshisida o'tirgan o'g'lining kelish sevinchi ustun chiqib, doka ro'molining bir uchi bilan ko'zini artди, bu qilmishiga uzr so'ragandek:

– Sen xafa bo'lma, bolam,\* ko'zim shunaqa seryosh bo'lib qolgan, kishi qarigandan keyin shunaqa bo'lar ekan! – dedi va samovarga olov tashlab yubordi. Dasturxon yozar ekan, nonga bo'lgan navbatdan nolib qo'ydi:

– Kallai saharlab navbatga chiqaman, mana bugun g'aflat bosib uxlab qolgan ekanman, nonsiz qoldim. Endi kechqurun kelganidan olaman. Ocheredim bor. Hurinisoning ketidanman:

Adolat xola dasturxonga bittagina qora gijda qo'yib, quruq meva-cheva sochdi:

– Bu o'zlaringga asrab qo'yganimdan. Bulturgisiga qurt tushib ketgan ekan, danagini chaqib edik. Bunisi yangi. Baraka topkur Ikrom ota har yili bir-ikki chelakda o'rik, tog'olcha, shaftoli berib yuboradi. Hech kimga biylatmay «bu yerdagilarning og'zi tegib yuribdi» deyman-u quritaman-qo'yaman.

Qodir safar to'rvasini oidiga tortib, undan non, konserva konsentrati olib, dasturxonning oyisiga yaqin tomoniga go'yo sovg'a-salomdek qo'yar ekan, Adolat xolaning yuzi yorishdi: shukur, tuzatib kutib ololmayotganimga yarasha o'g'lim o'ziga to'q ekan!

Adolat xola avvalgidan ancha cho'kkan, chakak tishlari tushib, lunjlari ichiga botib ketgan edi. Sochining ham qorasi qolmabdi hisob. Ko'zining qorasini parda bosgandek, oqish tortgan, uncha-muncha narsaga chimirilib qaraardi.

«Temirni zang, odamni g'am kemiradi» deb ko'nglidan o'tkazdi Qodir, yalpiz hidi kelib turgan shaftoli qoqidan og'ziga solar ekan. Keyin hammani bir-bir surishtirib chiqdi.

– Kennoyim sog‘-salomat yuribdimi?

– Shukur. Yaxshiyam baxtimga o‘sha bor ekan.

Onasining javobidan ko‘ngli allanechuk holga kelgan Qodir Maratni so‘radi. Ona birdan yashnab ketdi:

– Dastyor bo‘lib qoldi. Biram shirin bo‘lgan shu kunda...

Adolat xola o‘g‘lining jim bo‘lib qolishini o‘zicha tushunib, yordam bermoqchi bo‘ldi:

– Aziza tomonni so‘ramaysan, xabaring bormi?

Qodir sal qizarib:

– Ha, Azizaning frontdaligini bilaman. Xat olgandim, – dedi.

– Yo‘q, Mirsalim shumqadamning kelganini aytyapman.

– Mirsalim? Mirsalim aka keldimi? Qachon? – cho‘chib tushdi Qodir.

– Ha, ancha bo‘lib qoldi. Tut pishig‘ining oxirida edi.

– Shu yerdami?

– Qayerda bo‘lardi, bolam, shu yerda. Yomonni balo ham urmaydi! Yuribdi. Tani nosog‘roq shekilli, bolasini tashlagan biyaday bo‘shashib yuribdi. Tunov kuni uzoqdan bir ko‘zim tushgan edi. Sen uni front-mrontda uchratganing yo‘qmidi?

– Yo‘q. Nima qildi?

– Shunday, o‘zim aytyapman.

– Yo birovga meni ko‘rdim debdimi?

– Yo‘q. Bezovta bo‘lganingga aytyapman.

– Darrov qayta qolganiga hayron bo‘lyapman, – gapni burdi Qodir.

– Bunaqalar tegirmondan ham butun chiqadi, yo‘lini topadi.

«Chindan ham yo‘lini topganmikin?» – o‘yiab ketdi Qodir. Uning ko‘z oldiga hamma lavha bir butun keldi: harbiy asirlar lageri, galstugida fashist belgisi bor Ali

Naimxon, darvozadan kirib kelgan usti ochiq mashina, uning ustida Mirsalim...

«Ajabo, bu qanday bo'ldi? Axir u legionga ixtiyoriy yozilganlar qatorida edi-ku? Yoki keyin esa o'ziga kelib, yana bu yoqqa qochib o'tdimi? Boshqa ish bilan, yovuz niyat bilan kelgan bo'lsa-ya!» Ali Naimxonning temir changalidan chiqish o'ng'ay emas, buning bir balosi bor! Surishtirib ko'rish kerak».

Shu mulohazalarga borgan Qodir uni u yoq-bu yoqdan cho'qilab ko'rib, ishlayotgan joyini so'radi.

– Jannat, kuzdan o'z maktabiga borar emish, deya-yotgan edi. Hozir bekor yuribdi shekilli! Ha, bolam, buncha so'rab-istab qolding?

Qodir kulgiga oldi:

– Qaynatam bo'lganidan keyin qiziqaman-da!

Adolat xola laq etib tushdi, ishondi:

– Azizaning o'zi yaxshi bola, otasiga o'xshamaydi-yu, tilim qisiq. Bo'lmasa...

– Xo'p, demasmidingiz? – yana hazilnamo qilib so'radi Qodir.

– Mening jag'imni ochma, bolam, – og'ringandek bo'ldi Adolat xola, – payg'ambar bo'lsa ummatligidan chiqib ketardi. Daryo bo'lib eshigim tagidan oqsa oyog'imni chayqamasdim, qizini kelin qilish ekanu! Odammi? Undan to'rt oyoqii it yaxshi. Ket desang tushunadi, boqsang do'stlik qiladi.

– Shundayku-ya... – xayol surib ketdi Qodir. Adolat xola buni «gapim bolamga og'ir botdi, ming qilganda Aziza uning sevganida» deb o'yladi, yupatdi:

– Lekin bolam, sen ko'nglingni bo'lma! Aziza topil-maydigan qiz. Sendan keyin to frontga ketgunicha bizdan xabar olib turdi, men ham shirin so'zimni ayaganim yo'q.

Sen yo'q desang ham, men yo'q demayman. Keyin, bolam, seni deb ozmuncha aziyat chekkani yo'q. Ming baloga qalqon bo'ldi.

– Men bir nima deyapmanmi, oyi! – o'zini oqlagandek dedi Qodir.

– Shunday bo'lsa ham... Bergan so'zing ustida tur, yigitlik burdingni ketkazma, bolam.

Qodir Aziza haqida o'ylamayotganidan bu tanbehlar unga og'ir botmadi. Uning fikri-o'yi Mirsalimda edi. Uning qanday qilib kelib qolganidan hayron.

«Har holda bir surishtirib ko'rish shart. Nojo'ya chaqilgan bitta gugurt olamni yondiradi-ya!» degan qarorga keldi.

Bu orada ko'cha betkayidagi qator teraklarning shamdek yonib turgan uchidan olov o'chdi. Jannat bilan bog'chadan qaytgan Marat amakisining bo'ynidan quchoqlab ko'rishib, bir vaqt, front ketayotganida buyurib yuborgan qilichini» da'vo qilib qoldi.

– Qani? Olib keldingizmi?

Qodirning esidan chiqib ketgan edi, xijolat tortgandek bo'ldi. O'rtaga Adolat xola tushdi:

– Dadangning o'zi olib boraman, debdi.

– Shunaqami, amaki! Maza!

Marat o'zida yo'q quvonib, amakisining bo'ynidan yana quchoqladi, boshqalar xomush tortdi.

\* \* \*

Mirsalim Qodirning olti oy otpuskaga kelganini eshitdi-yu, cho'g' bosib olgan yalangoyoq odamdek tipirchilab qoldi.

«Endi qanday bo'ldi? Qodir o'shanda meni lagerda ko'rmagan bo'lsa-ku, xo'p-xo'p. Ko'rgan bo'lsa-chi? Unda

ish tamom». Yo'q, ko'rmagan. Umrda meni hech harbiy formada ko'rmagan odam qanday qilib darrov tanib ola qoladi? Ha, men uni taniganimda, nega u meni tanimaydi? Tanigan! Ko'rgan! Mening bu yerga qaytganimni ham eshitgan. Eshitgan-u organga xabar bergan. Organ «qani, o'zing kelib isbot qilib ber» deb uni o'tpuska bahonasn bilan chaqirgan. Yo'g'-e, juda ham bunchalik emasdir! Ha, aytganday, o'zi qanday qilib bu yoqqa o'tib qoldi? Men uni lagerda o'lib ketgandir deb yuribman. O'lmabdi-da. Shuncha azob-uqubatga bardosh berganini qara! Bo'lmasa, qancha odam ochdan qirilib ketdi. Tavba, joni po'lat ekanmi deyman! Ehtimol o'zining ham etagi iflosdir. Tag'in podadan oldin chang chiqarib, o'zimni-o'zim baloga qo'ymay! Sabr qil, Mirsalim, sabr. Seni bu yoqqa o'tkazib yuborayotganlarida nima degan edi, boshliqiarang, ustingga tog' quiasa, dod demasang yutasan! Hali bu nima bo'пти? Faqat shubha-ku! Ehtimol hech nima bo'lmas. Yo'q, beparvo ham bo'lma, otingni qamchila, oldini ol!» – shunday mulohazalardan keyin Mirsalim Qodir bilan tasodifan bir uchrashish, uning qo'yniga asta qo'l solib ko'rish fikriga keldi. Mis chilimini bir-ikki bosib tortib, xotining: «Hoy, dadasi, aytgan shirchoyingizni qilyapman», deyishiga qaramay naridan-beri kiyinib chiqib ketdi. Erining kelganidan beri bugun kechasiday betoqat bo'lganini ko'rmagan xotin, «o'zi bunga bir narsa bo'ldimi, chayon chaqqan odamday bir yerda o'tirolmay qoldi!» deganicha shirchoyning oloviga suv sepdi.

Mirsalim ko'chaga Qodir kutib turgandek qanchalik shoshib chiqqan bo'lsa, xo'jayinlarning: «Shoshib ichsang, sovuq suv ham og'iz kuydiradi» deganini eslab, birdan shunchalik tez hovridan tushdi. Boshidagi surmarang chorqirra do'ppisini olib, jiyagiga yopishgan gardni barmog'ini

ho'llab, tozaladi, kichkinagina quloqlari tepasidagi endi oq oralagan sochini bostirib qayta kiydi, yoqasini tuzatdi. Bu orada u anchagina yurib qo'ygan, katta ko'cha yuziga chiqib qolgan edi. Muyulishda to'zib yotgan qandaydir qush patlarini ko'rib, nima uchundir, yuragi orqasiga tortib ketdi: uning ko'zi oldidan mushuk bosgan parrakda ketmay qoldi. Bag'ritosh Mirsalimning o'sha qushga sababsiz rahmi keldi, keyin ko'nglini g'ash qilib, diqqatini oshirdi. Nega? O'zi ham bilmas edi. Yo shu parranda kuni boshiga tushadimi?

Mirsalim ko'chani ancha aylanib yurdi. Qodirlarning eshigi ro'parasidan bir-ikki o'tdi, u yurishi mumkin bo'lgan ko'chalarga burildi. Hech qayerda Qodir yo'q edi. «Aksiga oladi, bir mahallar ro'paramdan chiqaverib, g'ashimga tegardi, ensamni qotirardi. Endi-chi? Endi xohlasang kunduz chiroq yoqib qidir!» degancha, Mirsalim qorni ochib uyiga qaytdi. Uning ro'zg'ori tashqaridan g'aribona ko'rinsa ham, aslida but edi. U juda katta pul bilan bu tomonga o'tgan, xo'jayinlari uning bir-ikki yilining g'amini egan. Faqat pulgina emas, u kerakli hujjatlar va aloqa qilib turishga zarur turli-tuman apparatlar bilan ham ta'minlangan, bu ixcham narsalar kiyim-boshining choki, tugmachasi, astari, yelkasi, poshnasi, charmi orasiga joylangan edi. U omon-eson yetib kelgan kunining ertasi-gayoq bularning barchasini o'rgatganlaridek qilib, shahar chetidagi gadoy topmas bir xilvat jar yoqasiga yashirgan va xo'jayinlari bilan bog'lanishga ham ulgurgan edi. Uning asosiy vazifasi bu atrofga ichki Rossiyadan ko'chirilgai harbiy obyektlarning qayerdaligini xabar qilish va xalqning ahvol-ruhiyasini bilib turish, kerak yerda tutanturuq tutib yuborish edi. Ali Naimxon bir suhbatda aytganidek, uning zimmasiga «Turkistonni ichdan tayyorlashdek oliyanob

burch» yuklangan edi. Bu ish qanchalik og'ir va murakkab, Mirsalim qanchalik tixirlik qilgan bo'lmasin, buning oqibatidagi shonu sharaf, boylik, obro', qolaversa, «Xayl Gitler!» deb ichgan qasami majbur etgan edi. Keyin bu ish uzoqqa cho'zilmaydi, to nemis kelgunicha, vassalom. Uning Turkistonga kirib kelishi esa, uzoq emas. Undan keyin oyog'ini uzatib yotadi: degani degan, aytgani aytgan!

Mana bular barchasi endi xuddi sarobga, ayniqsa, Qodir kelganini eshitgan daqiqadan buyon allaqachon ko'rilgan yoki allakimdan eshitilgan tushga o'xshardi. Berlinda ta'lim olib yurgan kezlari besh-olti oy erta-indin keladigan kundek juda yaqin tuyilgan bo'lsa, endi har soat bir yilga, bir oy bir asrga o'xshar, sanab tugatolmas edi. Agar nemis-fashist qo'shinlarining yoz chiqib, qilib turgan hujumlari bo'lmasa, u «o'zi xon, o'zi bek, dorilamon kunlar»ni kuta-kuta, uning ilinjida allaqachon jinni bo'lib qolgan bo'lardi. Hozir esa ularning hech biri uning esiga kelmas, faqat joni ko'ziga ko'rinar edi. Qodir uni lagerda ko'rmagan bo'lsa-yu, uni tinch qo'ysa bas! Unga boshqa hech narsa kerak emas! Yo'q, asiida bundaymas, hozir do'ppisi tor kelib turgani uchun shunday deyapti. Ertaga tinchib ketsa yana o'sha totli orzusi ketidan quvadi, uni deb butun bir shaharga o't qo'yishga tayyor bo'lardi!

Mirsalim diqqinapas bo'lib uyiga qaytdi. Xotini ertalabki shirchoyni isitib, oldiga qo'ygan edi, zardasi qaynab ketdi:

– Men buni nonushtaga buyurganman! Tishga bosa-digan biror narsa pishirsang o'lasanmi, padarla'nati!

– Padarimni o'qimasangiz o'rniga o'tmaydimi? Sizga padarim nima qildi? Qizini sizga cho'rilikka berib, hech kimga ziyoni tegmasdan go'rida yotibdi!



– Ha, bir ziyoni tegmagan o'sha go'rdagi dadang qoluvdi! Gapir!

– Shuncha qora kunni ko'rib, tavba qilmagan noshukur banda! – dedi xotin uning oldidan shirchoyni olib, oshxonaga burilar ekan.

Alamini kimdan olishini bilmay turgan Mirsalimga shu kifoya edi. Irg'ib o'rnidan turdi. Zarb bilan oshxonaning eshigini ochib, bir zumda dakangxo'rozday xotini qoshida paydo bo'ldi:

– Nima deding? Yana bir qaytar!

Xotin o'girilib qaraguncha bo'lmay, Mirsalim bir tarsaki qo'ydi, bunga ham ko'ngli to'lmay tepib yubordi. Ag'anab tushgan xotining tepasiga borib yana o'dag'ayladi:

– Men shu yomon kunlarning ne-ne azobini kim uchun chekib yuribman? Sen uchun, manjalaqi! Qizing uchun! Otasining yuziga tufurib ketgan qizing uchun!

Qo'lidan uchib ketgan kosa siniqiarini yig'ib olar ekan, xotini yig'i aralash dedi:

– Xudo xayringizni bersin, men uchun bo'lsa, hech narsa qilmang. Uzatgan oyog'ingizni yig'mang. Men o'layu, siz qutuling.

Mirsalim shu kuni kechgacha qilar ishini bilmay, ovsar odamga o'xshab yurdi. Shom qorong'isida yana chiqib Qodirning yo'lini poyiadi. Yana qon bo'lib qaytdi. Nazarida Qodir qayerdadir unga choh qazish bilan ovora edi!

Ayvonga o'tsa xotini o'rnini boshqa solib yotibdi. Bu yana alam qilib ketdi. Jahl bilan borib «men «puf sassiq» bo'lib qolgan bo'lsam, bor, yaxshisini topib ol» deb tepib-tepib yuborgisi keldi-yu, yana shaytonga hay berdi, o'zini tutdi. O'rni ustida boshini solib o'tirdi. Turib hoviida yurdi. Bir ko'chaga chiqib keldi. Fikrini qanchalik shirin xayollarga burmasin, oxiri aylanib borib, Qodirga taqalardi. Qodir esa,

uni tomog'idan xippa bo'g'ib, NKVDga sudrayotganga o'xshardi. Uyga kirib yashirib qo'ygan ehtiyot ampulasini ko'zdan kechirdi – uni sichqon tortib ketgan yoki birov o'ib qo'ygandek ko'rinardi. «Nahotki sen jonimga qasd qilib, shu yerda turgan bo'lsang!» – deb uning og'irligini salmoqlagandek kaftiga oldi. Bu xo'jayinlarining «kerak bo'lishiga ishonmaymizu, qoidada bor. Eng so'nggi chora sifatidagina zarur bo'ladi» deb bergan zaharlaridan biri edi.

Mirsalim ampulani kaftida ushiab turib, o'ziga juda-juda rahmi keldi. Ertagi ajoyib kunlardan mahrum bo'layotgan odamdek joni achidi, bekorga o'lib ketayotganiga xo'rliigi tutdi. «Ali Naimxonga maza, o'sha yoqda yurganlarga maza! Ularni hech kim ta'qib qilmaydi. Istasa, yalang'och xotinlar raqs tushgan o'sha hashamatli restoranlarda aysh-ishrat qiladi. Oyog'ini bemalol uzatib yotib, ertalab xotirjam o'rnidan turadi. Men-chi? Men nina yutgan itdek betoqatman. Bugunim qanaqa o'tishini bilmaganim ustiga ertamdan xavotirdaman. Aslida o'sha yoqda «yo'q» deb turib olsam bo'lar ekan. Men ham o'shalarga o'xshab tayyoriga kirib kelardim. Katta bo'lmasa, kichikroq bir amal tegardi, albatta. Yo'q, yaxshi bo'lmadi! Ajoyib, baxtii kunlarning kelishini bilib, bunga ishonib turib o'lib ketish qanday dahshat! Nahotki o'sha kunlarni ko'rmayman? Yo'q, ko'raman, ko'rishim shart. Faqat bardosh kerak, bardosh» – shunday o'yar bilan o'zini ovutgan Mirsalim zaharli ampulani joyiga qo'ydi. Uning o'rniga tokcha orqasida turgan shishadagi spirtni olib, jindakkina suv aralashtirib ichdi. Birpasda boshi g'uvillab, sherga aylandi. Qodir ko'ziga chivindek ko'rindi. O'zining boyagi holatidan kulib ayvonga chiqib keldi. Qatiq to'kilgandek olachalpoq

oydinda yotgan xotining yoniga o'tirdi. Hamma narsani unutilib, uning bag'riga qo'lini yubordi. Xotini cho'chib uyg'onib:

– Bu nima qiliq? – degan edi:

– Ha, qizliging esingga tushdimi, jonim, – deb ustiga o'zini tashladi.

U, nima uchundir, xotinini yig'lab quchoqlardi.

\* \* \*

Qodir Mirsalim bilan uchrashib, uni shubhalantirib o'tirmasdan, to'g'ri kerakli idoraga xabar qildi. Qarshisidagi mo'jazgina maydonida dengizchi yigit haykali turgan bu idora xodimi Qodirning hikoyasini bir so'z qo'shmay oxirigacha eshitib, o'zi papiros tutatdi-da, unga ham tutdi:

– Siz kechikib xabar beryapsiz, o'rtoq Qo'chqorov, deb kuldi u. – Mirzohidov sizning ustingizdan allaqachon anonimka tashlab bo'lgan. Marhamat, mana o'qing!

Qodir ko'zlariga ishonmadi: anonimka uning to'g'risida nimalar demas edi – uni o'z ixtiyori bilan dushmanga topshirilishidan tortib, gitlerchilarga qilgan allaqanday xizmatlarda ayblardi. So'nggida «partizanda bo'lgani bekor. Hujjatlari soxta» deyilgan edi.

– Qalay, bunga nima deysiz?– iljaydi xodim.

– Tekshirish kerak, ehtimol shunaqadir.

Xodim yana kuldi:

– Bunda ham kechikdingiz.

– Yo'g'-e!

– Ha, – ikkala ko'zini chirt yumib qo'ydi xodim.

Anonimka Mirsalimning dastxati emas edi. Qodir hayron bo'lib:

– Bu Mirzohidovning xati emas-ku! – dedi.

— Hali ham soddasiz, Qo'chqorov, shuncha chig'riqdan o'tib ham pishmabsiz. Anonimka yozgan kishi aniq imzo qo'yib, o'z xati bilan tashlaydimi! Bunaqaga hech ishi tushmagan bechora Qodir bu nayranglarni qayoqdan bilsin! U yelkasini qisib qo'ya qoldi. Xodim uning qo'lini siqdi:

— Rahmat, o'rtoq Qo'chqorov! Katta yordam berdingiz. Bu yog'i endi, bizning ishimiz. Ishonamizki, barchasini sir tutasiz. Shunday qilingki, Mirzohidovning o'zi ham sizdan shubhalanmasin!

...Bir qancha vaqtdan keyin Mirsalim butun ashqoldashqollari bilan jinoyat ustida qo'lga olindi.

## 12. HAQ JOYIGA QAROR TOPADI!

Sodiq bugun ertalab ko'zini ochdi. Ko'zini ochdi-yu, boshini bog'liq, o'zini gospitalda ko'rdi. Lekin qachon yaralanganini eslolmadi. Faqat ko'kda nemis samolyoti paydo bo'igani va kimningdir «Qo'chqorov! Qoch!» degani yodida. Demak shunda...

Sodiq boshini yostiqlardan sal ko'tarib, yarasining zirqirashiga quloq soldi: uncha og'riq sezmedi. Yon-veriga nazar tashladi: oqlangan oddiy xona. Shifti tilim-tilim taxtadan. Eshigi bir tavaqalik. Italyancha derzasining ko'zlariga ochiq, qaychi shaklida qog'ozlar yopishtirilgan. Yuqoridagi bir ko'zi o'rnida ko'kimtir kardon. Yonidagi yarador unga orqasini o'girib yotganidan uxloqmi-uyg'oqmi bilolmadi. Bitta o'rin bo'sh. Undan narigisida sochlari sariqdan jigarrangga o'tib ketgan bittasi yotibdi, ko'zi ochiq bo'lsa ham, qilt etmaydi: yo qattiq xayolda, yo yarasi og'ir. Sodiq uni bezovta qilishni istamasdan o'zi ham shiftga ko'zini tikdi, xayol-uni sudrab ketdi.

Eshikni asta ochib, tibbiy hamshira kirdi. O'ynoqi ko'zlari Sodiqqa tushishi bilan do'ndiq yuzini kulgi to'liqini qopladi. «Tez yursam etagimning shamoli ozor bermasin sizlarga» degandek, qadamini muloyim bosib hammani bir-bir ko'zdan kechirdi-da, Sodiq qoshida to'xtab, sal engashdi:

– Ko'zingizni ochib yotganingiz qanday yaxshi! Hadeganda o'zingizga kelavermay, biram hammani qo'rqitib yubordingiz! Aziza Mirsalimovna sizni tanir ekanmi, juda qo'rqib ketdi.

Sodiqning ko'z o'ngida chaqmoq chaqilgandek bo'ldi! Lekin bu tanish ismni darrov xotirlab ololmadi:

– Aziza Mirsalimovna?

– Ha, bizning vrach. Taniysizmi? Mirzohidova!

Sodiq nima deyishini bilmay qoldi. «Taniyman» desa, ehtimol butun tarixni ochishga majbur bo'lib qolar, shuning uchun dudmal qildi:

– Ko'rsam tanimasam...

– Voy, men hozir chaqiraman! – tibbiy hamshira o'ljasi begona bo'lib ketayotgan kishidek shoshib qoldi. Qo'lidagi dorini Sodiq karavoti oldidagi tumbochka ustiga qo'yib, endi yugurib chiqib ketmoqchi bo'lgan edi, Sodiq qo'lidan tutdi:

– Menga avval bir piyola suv bering, tomog'im qurib ketyapti.

Hamshira chiqib ketgach, Sodiq o'zini qanday tutishini o'ylab, stakandagi suvni cho'zib ichdi.

Bir mahal koridordan tapir-tupur oyoq tovushlari eshitildi. Keyin qiya eshik shart ochilib, ostonada oq xalat kiygan, Sodiq nazarida, u yuz yillarcha burun ko'rgan qiz

paydo bo'ldi. Aziza o'sha-o'sha edi. Faqat kam go'sht yuzlarida, chaqnab turgan ko'zlarida, asabli qisilgan lablarida yoshiga yarasha ulug'vorlik, sipolik va bilimdonlik barq urib turardi. To'g'ri, Sodiq u bilan hech qachon yozilib gaplashgan emas, lekin orqavarotdan ta'rifini ko'p eshitgan edi. Keyin bilsa, Qodir bilan ikkisi bir-birini sevishib qolibdi. Shundan keyin-ku, unga sira ko'rinmaydigan bo'lib ketdi, hatto Mirsalim uyiga mehmonga chaqirganda ham u bo'lmas edi. Ana shunda Sodiq o'zini tutgan, aqli butun qizga o'xshaydi, o'z obro'yini tutib yuribdi, oldimga chiqib «men ukangizning ma'shuqasi bo'laman» deb jilpanglay berganda nima bo'lardi, degan fikrga kelgan, agar Qodirjon uylanishdan og'iz ochsa, to'yiga bosh-qosh bo'lishni orzu qilgan edi.

Aziza shiddat bilan ochgan eshikni yopishni ham unutib, to'g'ri Sodiqning tepasiga keldi, keldi-yu, nima deyishini bilmay yig'lab yubordi. Mijjasidan tirqirab chiqqan marjon yoshlar oqarinqiragan kam go'sht yuzida yiltiroq izlar qoldirib, Sodiqning uzatilgan qo'liga tom-di.

– Sizni ham ko'radigan kun bor ekan-ku! – deya oldi Aziza va titragan qo'llari bilan g'oyibona qadrdon bo'lib qolgan Sodiqning qo'lini ushlab, ko'ksiga boshini qo'ydi. U piq-piq yig'lar, oq qalpoq kiygan boshi, ensiz yelkasi silkinib-silkinib tushardi. Nimalardir deb so'zlardi-yu, yig'i tovushini bo'g'ib, eshitishga xalaqit berardi.

Bunday samimiy uchrashuvdan shoshib qolgan Sodiq uning titrab turgan yelkasiga qo'lini qo'yib, otalarcha silar, zo'r berib:

– Nega yig'laysiz? Yig'lamang, qo'ying! – der edi.

Azizaning ketidan kirgan boyagi hamshira esa uyning o'rtasida qotib qolgan edi.

Frontda ekansiz-ku, bir enlik xat yozmaysiz-a! – deya gap boshladi Aziza. – Bizlar... uyingizdagilar ming xayolga borib o'tirishibdi. O'sha-o'sha siz-a, Sodiqjon aka. Hech ham o'zgarmabsiz! Frontga yuborishdimi yo o'zingiz talab qildingizmi?

– O'zim... – astagina javob qildi Sodiq.

– Juda yaxshi-da! Hozir odamning sarasi frontda. Aziza dastro'molini olib, yuzida yiltillab turgan yosh iziarini artdi, peshonasiga tushgan mayda sochlarini tuzatdi. U sevinchini qanaqa qilib ifodalashni bilmas, esiga kelgan gaplarni pala-partish gapirib tashlamoqda edi. Uning bu oqko'ngilligi va samimiy, soddaligi Sodiqni bir zumda maftun etdi. Ichidan ukasining didiga tasanno o'qib qo'ydi, Azizaga hurmati oshdi.

– Adolat xolam yaxshi yuribdilar, ikki ko'zlari sizning yo'lingizda, qish kelsa uzum asrab, yoz kelsa rayhon o'stirib, «o'g'lim kelsa, oshiga kertib ichadi» deb o'tiribdilar. Marat-ku, azamat yigitcha bo'lib qolgan, qa chon bo'lsa «dadamni poezdda borsangiz ko'rasiz» deb parovoz bo'lib qichqirgani qichqirgan. Jannat kennoyimdan ajralmaydi, bog'chalariga birga borib, birga keladi. U kishi ham sog'salomat.

Sodiq «Qodirni qanaqa qilib ta'riflar ekan» deb Azizaning og'zini poylab turgan edi, u buni payqadi shekilli, birdan qizarib, sipo tortdi.

– Qodir akam frontdalar, – deb qo'ya qoldi.

– Ancha bo'ldimi ketganiga?

– U kishi urush boshidayoq ketgan.

Sodiq Azizaning battar qizarib ketayotganini, hatto burni ustiga mayda ter toshganini ko'rib, Qodir to'g'risida boshqa gap so'rashni lozim topmadi.

– Dadangiz-chi? – deya boshqa yoqqa burdi. Bu Aziza uchun kutilmagan savol bo‘lib tushdi. U dadasining so‘ralishini, ayniqsa, undan ozor chekkan kishi tomonidan shu lahzada so‘ralishini kutmagan edi. U birdan hushyor tortdi. «Jo‘rttaga so‘rayapti, meni sinayapti. Munosabatimni bilmog‘chi» deb o‘yiab, pinagini buzmasdan javob qildi:

– Frontdalar, «urushga kirib ketyapman» deb ikki enlik xat yozganlaricha dom-daraksiz ketyaptilar.

Sodiq bir narsani fahmlagandek dimog‘i bilan astagina «himm» deb qo‘ydi. Nima uchundir, ko‘z oldiga Mirsalim emas, Dilovarxo‘ja keldi.

Sodiq Azizani zimdan kuzatib, «dadası tufayli mulzam qilib qo‘ydim shekilli» degan fikrga kelgan edi, yo‘q, unday bo‘lib chiqmadi. Aziza «dada tanlash mening ixtiyorimda bo‘lsa, o‘zim bilardim» deganga o‘xshash malol chekmay o‘tirar, har qancha savol bo‘lsa o‘ziga olmasdan javob berishga rozi ko‘rinardi. Ana shundan keyin Sodiq bir vaqt maktab ilmiy mudirining «qarqinoqdan bulbul chiqqan» deganini, Jannatning «Mirsalimning qizi dadasiga o‘xshamaydi, o‘z ishiga puxta, mustaqil, uncha-buncha sovuqqa bargi qovjiramaydi» deb ta‘riflaganini esladi va ularning fikriga qo‘shildi. Unga mehri tovlanib:

– O‘zingiz ko‘pdan beri bu yoqdamisiz?

– Ha, institutni tugatdim-u, safarbar qilishdi.

Eshikda shoshinqiragan kishining boshi ko‘rindi:

– Doktor Mirzohidova! Yangi yaradorlar keldi! – dedi u va o‘tib ketdi. Azizaning og‘zidagi og‘zida, bo‘g‘zidagi bo‘g‘zida qolib, kechirim so‘raganicha chiqib ketdi. Sodiq orqasidan «bular hayotdagi o‘z o‘rnini yaxshi biladi, ota bolasi bo‘lishdan odam bolasi bo‘lishning naqadar afzalligini tushunadi. Bular sovuqda muzlamaydi, issiqda



aynimaydi!» deb qo'ydi, ko'ngli taskin topgandek o'rniga bemalol cho'zilib, oyog'ini uzatdi. Lekin sal ko'zi ilingan ekan, ko'ngli xira tortib uyg'ondi. Bundoq o'yiab qarasa, Azizaga yolg'on gapirish bilan ish bitmaydi. Shuning uchun u Aziza yangi kelgan yaradorlarni qabul qilishda yordamlashib, yana kirib kelganda barcha voqeani ochiq-oydin aytib berdi.

– Shunaqa gaplar, singlim, – dedi u oxirida, – urush tugasin-chi, keyin nima bo'lsa bo'ladi. Hozir «hayt» degan tuyaga darmon bo'lib turgan payt. Aziza xomush tortib qoldi. Ziyrak Sodiq buni sezsa ham, achchiq-chuchukni ko'ra berib pishib ketganidan ortiqcha parvo qilmadi.

– Azizaxon! Kechirasiz, albatta. Bir vaqtlar Qodir bilan uchrashib turishingiz qulog'imga chalingan edi. Hozir qandaysizlar, deb so'rashga tilim bormayapti. Mening fojiam zarar bermadimi?

Entikkandek qizarib ketgan Aziza uyalingirab javob qildi:

– Oldiniga sal... keyin o'zimizni tutib oldik.

– Rahmat, singlim («kelin» deb yuborishiga sal qoldi), Qodir yomon yigit emas, dedi Sodiq, keyin kulib qo'shdi: – Bizning urug'da yomon yo'q, lekin yomonga chiqqan bor. Masalan, menga o'xshab.

– Qani hamma yomon sizga o'xshagan bo'lsa, shaharga soqchi-yu, darvoza kerak bo'lmas edi!

Azizaning bu ishonchi Sodiqni ruhlantirib yubordi:

– Rostini aytaymi, Azizaxon, turmayu lager mening yurtimga bo'lgan mehru muhabbatimni qilning qiyig'icha susaytirmadi, aksincha, ularni qalbidam yana ham yaxshiroq ardoqladim, mana shu mehr meni shu kungacha omon saqlab kelayotgan bo'lsa ajab emas. Yo'q, shu

mehr, faqat shu mehr tufayli barcha qiyinchiliklarga bardosh berdim. Ishonchi komil bo'lmagan, umidsizlikka tushganlarning ozmunchasi nobud bo'lib ketdimi! Bu yillar men uchun bir sinov bo'ldi, zo'r sinov bo'ldi.

– Bunday e'tiqod, bunday iroda har kimda ham bo'lavermaydi, – dedi Aziza ko'pni ko'rgan odamlardek hikmatomuz qilib.

– Chunki vijdonim pok edi. Vijdon pok bo'lsa kishi bardoshli bo'lar ekan! Jismoniy azobdan vijdon qiynog'i yomon-da! O'sha yerda ajalim yetganda ham baiki qiynalmasdan o'lardim. Vijdoni toza odam yengil o'ladi, deyishadi.

– Qo'ying, o'lim qursin! Shuncha odam o'lib, yer to'yaptimi?

– Yo'q, singlim, o'limdan qo'rqqanning kuni qursin, o'lim qo'rqoqqa dahshat! Hayotda o'z o'rnini topgan, ideali yuksak odam uchun o'lim umrning qonuniy yakunlanishi! Chunki u nima maqsadda yashab, nima uchun o'layotganini biladi. Oliy maqsad yo'lida yashab, dunyodan o'tish naqadar sharaf! Masalan, men hozir yaralanib yotibman, og'irni-yengilmi bilmayman...

Aziza «yarangiz og'ir» deyishga tili bormay:

– Uncha og'ir emas! – deb qo'ya qoldi.

– Og'ir bo'lganida ham, jinday bo'isin tashvishim yo'q, chunki to'kilgan qonimning qimmatini bilaman. Ehtimol ertaga halok bo'larman. Shunda ham bearmon ketgan bo'laman. Nega desangiz, el-yurtimning eng og'ir kunlarida yirtig'iga yamoq, uzugiga uloq bo'ldim, garchand g'irromlik qilib frontga tushgan bo'lsam ham, mehnatimda, jangimda g'irromlik yo'q. Axir faylasuflar «tasodif zarurat elchisi» deyishadi-ku.

– Bu ham sizning baxtingiz, Sodiq aka, juda katta baxtingiz. Bo'Imasa siz tushgan vagon qularmidi!

– Sekinroq aytasizmi! Agar shu tasodif ro'y bermaganda, bilmadim, lagerda qanday yashardim. O'zimni yeb qo'ysam kerak edi! Shu kunlarda yurtiga astoydil xizmat qilmagan odam, bir kuni kelib «men chin insonman» desa bekor! Insonning mardi hozir maydonga chiqishi kerak. Bu kunlar zo'r sinov: saragi sarakka, puchagi puchakka ajraladigan payt.

– Ba'zi bir puchaklar keyin o'nglanib olishadi! – kulib qo'ydi Aziza. Uning esiga oliy ma'lumotli bir qo'shnisining urush boshlanishi bilan bir zavodga bronni uchun ishga kirgani keldi.

– Vijdonini-chi? Vijdon terakning bargi emaski, ikki beti ikki xil bo'lsa. Hozir asosiy masala ular emas, front. Frontni to'g'rilab olish kerak. Dushman Moskva bo'sag'asida manglayidan zarba yegani bilan hali kuchli. Hall ancha-muncha ish bor: talay kuch, talay odam kerak.

Sodiq dardini to'kishga hamdard topgan, yuragini bo'shatgan, endi dunyoda armoni qolmagan odamdek yengil edi. Ichida qamalib yotgan o'sha og'ir havoning eng so'nggisini ham chiqarib tashlayotgandek uzun nafas oldi.

– Urush yaqinda tugarmikin? – xotin-qizlarga xos soddalik va ko'ngil chanlik bilan so'radi Aziza.

– Joningizga tegdimi? – yana miyig'ida kulib dedi Sodiq.

– Mening-ku jonimga tekkani nima bo'lardi, yaradorlarni ko'rib rah mim keladi.

– Halok bo'layotganlarni aytmaysizmi! Yigitlarning sarasi ketyapti. Nachora! Biz urush boshlaganimiz yo'q. Urushishga majburmiz, yerimizda oxirgi gitlerchi avtomat

bilan yurar ekan, jang qilamiz – bu burchimiz. Gitlerchining bu ishi semiz qo'chqorning quturib, temir darvozaga kalla qilishiga o'xshaydi, shoxi sinib, boshi pachoqlanishini bilmaydi.

Sodiq mizg'ib qolganida bo'sh karavotga keltirib yotqizilgan yarador uyqu aralash ingrab ularning diqqatini tortdi. Aziza irg'ib o'rnidan turib, uning qoshiga bordi, odeyalini boshidan tushirib, yuziga boqdi.

– Qattiq og'riyaptimi? – dedi. Yarador ko'pdan beri ayol kishining mayin va yoqimli tovushini eshitmaganidanmi, birdan ko'zini ochdi. Tepasida yoshgina qizning mehribonona boqib turganidan iymangandek, boshini ko'tarishga urindi.

– Qo'zg'almang! Qo'zg'almang!

Baribir yarador xotin kishi oldida uzala tushib yotishni o'ziga ep ko'rmagandek yarim turib o'tirdi, og'riqni kuch bilan engayotgani yuz go'shtiarning tarang tortilib, tishini tishiga bosib turishidan sezilmoqda edi. U avval Azizaga, keyin boshi salladek qilib dokalar bilan o'rab tashlangan Sodiqqa salom berdi. Sodiq yaradorlarning ilk uchrashganda bir-biriga beradigan savoli bilan yangi qo'shnisiga murojaat etdi:

– Qayerda yaralandingiz?

Yangi yarador shunday shaharchaning nomini aytdiki, Sodiq o'z quioqlariga ishonmadi. Aniqlamoqchi bo'ldi:

– Tashlab chiqishdi deysizmi?

– Yo'q, ozod qilishdi. Kecha frisni u yerdan quvib chiqardik. Hozir biznikilar ancha ilgarilab ketishdi.

Garchand bu xushxabar bo'lsa ham, Sodiqni tashvishga solib qo'ydi. Yarador tilga olgan shaharchani Sodiq yaxshi bilar, u yerda o'z sapyor otdeleniesi bilan (u

so'nggi vaqtda serjant unvoni olib, otdelenie komandiri edi) jang qilgan, tutib turishning iloji bo'lmaganidan keyin, polk tashlab chiqqan edi. Ana shunda komandir uni chaqirib, shaharchada bo'lgan bittayu bitta to'rt qavatli maktab binosini minalashtirib chekinishni topshirganu Sodiq buni ikki jangchisi bilan nemis kirishidan salgina oldin tugatgan, bino uchinchi kuni kechqurun portlashi kerak edi.

Sodiq shoshinqirab turib, o'rniga o'tirdi:

– Rostdanmi?

– Frontda ham yolg'on gapiradimi kishi! – yaradorning nafsoniyatiga tekkandek bo'ldi. – Kecha o'sha shaharchadagi dala hospitalida edim, maktab binosida.

– Maktab binosida? – Sodiq battar entikdi. – To'rt qavatli-a?

– Ha, bilasizmi?

– U bino minalashtirilgan edi-ku! Ana xolos!

Sodiq nafasi og'ziga tiqilib, Azizadan qachon bu yerga kelganini so' radi. So'radi-yu, yana beshbattar bo'lib oyog'i kuygan tovuqdek zir yugurib qoldi. Karavoti tepasida turgan gimnastyorkasiga yopishdi. Uni kiyib, tugmasini solmasdanoq eshikka yugurdi, eshikda qiladigan ishini shu yerda ham bitirish mumkinligini idrok qilib qoldimi, orqasiga qaytib, Azizaga tushuntira ketdi:

– Mana, hozir soat bir, yana besh soatdan keyin bino portlaydi. Ichi to'la odam, yaradorlar. Aziza o'zining nima yordami tegishini tushunmay ko'zi javdirab turardi. Yangi kelgan yarador ham o'rniga o'tirib olgan, bu dahshatning vahimasi bilan o'z og'rig'ini unutgan edi.

– Hospitalning mashinasi bormi? – dedi qat'iy bir fikrga kelib Sodiq. Aziza bor, deyish o'rniga o'sha vahimaning

tashvishi bilan shoshib eshikka otildi, orqasidan Sodiq yugurdi. Aziza mayda qadam bilan chopib borar, uning orqasidan etib olgudek bo'lib Sodiq shoshardi. Aziza koridorning u boshiga borib, bir eshikni tortdi. U ochilmagach, yonidagini tortdi. U ham berk edi. Keyin Sodiqqa:

– Siz shu yerda turing! – deganicha pastki qavatga tushib ketdi. Har lahzasi bir soat tuyulgan bir necha minutdan keyin Aziza pakanadan kelgan, dum-dumaloq bir kishini gospital boshlig'ini boshlab chiqdi. Boshliq shoshmas, bunaqa narsalarni ko'raverib eti o'lib qolganligidan salmoqiab gapirardi:

– Bugun kechqurun portlashi aniqmi? Yo portlab bo'lganmikin? Yaxshi bilasizmi?

– Albatta! O'z qo'lim bilan mina qo'yganman!

– Sizdan boshqa biladiganlar ham bormi?

– Bor! Lekin portlagichni qayerga o'rnatilganini yolg'iz men bilaman. .Mendan boshqa odam ziyonsizlashtirilmaydi.

Boshliq «attang, sendan boshqasi ham bilganda yaxshi bo'lardi. Seni shu ahvolda qanday yuboraman» degandek uni kuzatib, axir:

– Boshingizdan jiddiy yaralanganingizni bilasizmi? – dedi.

– Bilaman, o'rtoq medisina xizmati mayori. Lekin iloj qancha! Shuncha odamning nobud bo'lishi...

– Xabar berib qo'ya qolsak nima qiladi? Yaradorlarni tezda olib chiqishadi – vassalom!

– Bino-chi, bino?

– Shuncha vayron bo'lgan binolarning bittasi-da!

Sodiq – «shunday deyishga uyalmaysizmi?» deb yuborishiga sal qoldi.

– O’sha mashinada o’zim bora qolsam bo’lmaydimi?

– Men sizga tushimni aytyapmanmi? – dedi jerkib boshiq. U Sodiqning bu «beodob»iigi uchun o’zidan baland turgan boshliqlar oldida javobgar bo’lib qolishdan cho’chiyotgan edi. Bu qo’pollikdan Sodiq «smirno» holatiga keldi. Boshliq kalta oyoqlarini katta-katta bosib pastga tushib ketdi. O’z boshiig’ining bu qo’polligidan xijolatda qolgan Aziza, izoh berdi:

– O’zi yomon odam emas, bir oz yuragl torroq.

– Mashina bermasa bermasin, baribir boraman! – dedi Sodiq g’azabdan ko’zlari chaqnab. Bu asabiylikdan boshi zirqirab ketdi, qo’llari bilan ikki chakkasini changalladi.

– Ko’ryapsizmi? – dedi Aziza ham rahmi kelib, – boshliqning rozi bo’lmaganicha ham bor. Yarangiz og’ir.

– O’sha binoda yotgan, kechqurun kuli ko’kka sovuriladigan yaradorlarga yengilmi? Ularning joni jon emasmi? Boshlig’ingizni oqlamang, kimligini ko’rib turibman: dunyoga o’t ketsa ketsin, mening kabobim pishsa bas, deydiganlarga o’xshaydi.

Sodiq shu gaplarni aytdi-yu, zarda bilan qo’lini siltab pastga tushib ketdi, blror o’tkinchi mashina bilan jo’nashni mo’ljallab, katta ko’chaga chopdi.

Saldan keyin Azizani kabinetiga chaqirtirgan boshliq:

– Tajang hamshaharingiz qani? Ayting, tashqarida mashina turibdi, borib kelsin, – dedi. Aziza eshikdan chiqar ekan, yana ogohlantirdi: – Issiqroq kiyinsin!

Sal bo’lsa Sodiqning nazarida qoralanib qolay degan yaxshi boshlig’ining bu mehribonligidan xursand bo’lgan Aziza, Sodiqni qidirishdan avval o’z xonasiga kirib, safar qopchig’idan oppoq issiq paytava oldi, o’rni ustidagi odeyalni qo’ltig’iga qisdi.

Bu payt Sodiq katta ko'cha chetida sovuqqa qotgan odamday u yoqdan-bu yoqqa asabiy borib-kelib turardi. Yoniga kelib to'xtagan mashinani ko'rishi bilan unga tashlandi, boyagi gina-kudurati esidan chiqib, Azizaning qo'lini siqdi.

– Rahmat, Azizaxon! Mana bu boshqa gap!

Aziza boshlig'ini oqlab olmoqchi bo'lib:

– Mayor yubordi! – dedi.

– Boshliq degan mana bunday bo'libdi! Xayr, Azizaxon.

– Nega xayr bo'ladi, hali qaytib kelasiz-ku.

– Albatta!– Sodiq mashinaga o'rnashib o'tirdi, – u yerda boshqa qiladigan ishim yo'q. Birorta jonon vrachmi, hamshirami ushlab qolmasa!

– Shunaqa ishlaringiz ham bormi?

– Bo'lmasa-chi! – Sodiq mamnun edi.

– Hali to'xtab turing, hammasini Jannat kennoyimga aytib bermasam.

– Yo'q, yo'q! Tavba qildim. Bo'ynimga osilsa ham tashlab kelaman.

Aziza xandon soldi:

– Ha, qo'rqmas ekansiz!

– Buni qo'rqish emas, hurmat deydilar, Azizaxon, hurmat!

Sodiq Azizaning zo'rlashiga qaramasdan faqat issiq paytavani oldi, odeyalni qaytardi.

– Kishini tantiq qilib yubormang judayam!

Aziza shunga ham xursand bo'lib, qo'l silkib qoldi. Sal o'tmay mashina ufqqa bigizdek sanchilib borib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Qorasovuq edi. Yaiang'och daraxtlar cho'ltoq supurgiga o'xshaydi. Unda-bunda uchragan archa yoki qarag'ay



«sovuq menga cho't emas» degandek ko'm-ko'k bo'lib turardi.

– Necha soatda yetib boramiz? – dedi Sodiq mashinaning benzinidan boshini chetga tutib.

– Uch soat vaqt ketadi, – dedi shofyor unga qarasdan. Ketidan izoh berdi: – Yo'l yomon! Ko'ryapsizmi, cho'tirning betiga o'xshaydi, ressonni sindirib yuboray deyapti. Keyin sizning boshingizga tez yurish to'g'ri kelmaydi, boshliq tayinlagan.

– Mashinangiz tez yura oladimi, haydayvering!

O'z kasbini yaxshi ko'rgan shofyorga jon kirdi, ichida «bormisan, o'zimning ham yuragim siqilib borayotgan edi dedi-yu, uchirib ketdi.

– Mana bu boshqa gap!

Sodiqning mamnun bo'lganini ko'rgan shofyor miyig'ida kulib, gap tashladi:

– Haligi doktor qiz sizga kim bo'ladi?

– Hamshahar.

– Ajoyib odam-da. Bunaqasi kam bo'ladi. Ba'zan jahli chiqib koyisa ham, mukofot berayotganga o'xshab tuyuladi. Bo'lmasa unar-unmasga ishshaya bermaydi, qovog'ini solib yuradi. O'zi ko'rgan zamoning yuragingdan «jiz» etib oladigan chiroyli ham emas, shu nimadan bo'larkin? Odamlar ko'ngli ochiqligidan deyishadi.

– Ehtimol, – dedi Sodiq ohista. Uning butun fikri o'yi o'sha maktab binosida edi: vaqtida yetib boradimi? Beziyon qilishga ulguradimi? Yo hisobda adashgan bo'lsa, portlab bo'lganmi? Ancha odam halok bo'lgandir. Yo'g'-e! Hali vaqt bor. Albatta yetib boradi!

Bino portlab ketguday bo'lsa, u kechirilmas jinoyatga qo'l urgan, faqat u tufayli shuncha kishi nobud bo'lgan,

umrbod vijdon azobida qoladigandek o'zini his qilardi. Shu mahal sapyorlikka o'tganidan ham xafa bo'lib ketdi: jangchiligini qilib, paq-puq otishib yuraversa bo'lmasmidi? Endi nima bo'ldi? Xudo ko'rsatmasin, portlab ketguday bo'lsa, shuncha odamning uvoli bo'ynida!

– Haydang, inim, haydang. Kechiksak bo'lmaydi, ha, aytgandek, hech narsa olmabman, biror yerdan lommi, kirkami topiladimi? Bolta ham bo'ladi.

– Topiladi. Yo'lda ishlayotganlardan olamiz.

– Shunday qiling. U yerda qidirib yuramizmi. Qaytishda tashlab ketamiz.

Shofyor javob o'rnida boshini qimirlatdi. U rulga yotib olgudek engashgan, ikki ko'zi yo'lda edi. Yo'lning chetida pachoq mashinalar, dabdalasi chiqib ketgan aravalar, yonboshiga ag'darilib tushgan buzuq to'p-zambarak va uning uskunalari, zanjiri uzilganicha o'tirib qolgan yoki kuyib qorayib ketgan nemis tanklari to'plarining halqumini ko'kka tiragancha qotib qolgan. Ana bittasining lyuki qiyshayib ketibdi, zambarak o'qi tekkan bo'lsa kerak. Tekis yerlardagi qorlarni shamol yalab ketgan bo'lsa ham, bombadan paydo bo'lgan chuqurlarda oppoq to'planib yotibdi. Ana, anavi tepachaning orqasidan bir gala olaqarg'alar biri qo'nib-biri uchadi, qag'qug'i olamni tutadi, nimanidir xomtalash qiladi. «Odam murdasi emasmikan?» degan fikr Sodiqning xayolidan o'q tezligida o'tdi va etini jimirlatib yubordi, ketidan «frisniki bo'lsa, bu ham kam!» deb o'ziga tasalli berdi.

Mashina uchib borardi...

Ikki qishloqdan bosib o'tishdi, birida xumcha ilgudek qoziq ham qolmagan, hamma narsa vayron bo'lgan, qolganini olov kemirgan. «Hammom» degan

tunuka viveska bitta mixga ilinib qolibdi, shamolda soat mayatnigidek borib keladi. «Kishilari qayoqqa ketganikin?» deb o'yladi mashina oynasidan qarab borayotgan Sodiq... Bundan keyingi qishloq ancha butun qolgan, ba'zan yog'och uylar mo'risidan «bu yerda hayot bor» degandek tutun burqsiydi. Kimdir ko'cha yuzidagi vayronasi chiqqan g'ishtin imoratining devoriga plakat yopishtirib ketipti. Sochiga oq tushgan ishchi kiyimdagi bir kishi, senga gapiryapman, degandek barmog'ini bigiz qilib turibdi, ostida: «O'rtoq! Dushman ustidan g'alabamizni yaqinlashtirish uchun bugun sen nima ish qilding?» degan yozuv bor. Bu plakat Sodiqqa yoqdi, «hamma yerga buni yopishtirish kerak ekan, hatto jangchining okopida ham bo'lsin» deb ko'nglidan o'tkazdi.

Mashina birdan tormoz bera boshladi. Sodiq buzildimi, deb cho'chib ketdi. Buni payqagan shofyor:

– Lommi, kirkami kerak deyapsiz-ku. Anavilardan olamiz, – deya izoh berdi. Sodiq «ha-ha!» deguncha shofyor mashinani ko'chani bir chetida to'xtatib, ko'prik tuzatayotgan askarlar oldiga ketdi. U askarlar bilan nima haqdadir tortishdi, lekin Sodiq eshitmadi. Bir mahal shofyor bitta kirkani yelkasiga olib, ketiga burilgan edi:

O'zingdan olaman, mashinang tanig'liq! – degan tovush qulog'iga chalindi. Unga shofyor:

Qo'rqma, maxorkaga alishtirib chekmayman, dadangdan meros qolgan bo'lsa ham! – deganicha orqasiga qaramay kelaverdi. Lekin uni mashinaga tashlar ekan:

– Pishiqlik yigitlar ekan, bunaqalar otining nushxo'rtini ham begona qilmaydi, – deb qo'ydi.

Mashina yana yo'lga tushdi, Sodiq bezovtalanib, nemisdan o'lja tushirgan, tunda yonadigan soatiga qarab

qo'ydi, o'zicha hisobni chiqardi: ulguradi! Mashina buzilib qolmasa yoki biror hodisa ro'y bermasa, bas!

Lekin yarim soat o'tar-o'tmas, u xavotir olgan narsa sodir bo'ldi. Qayerdandir paydo bo'lgan ikkita «MisserShmit» yo'l harakatini to'xtatib qo'ydi, uzun yo'lning u yoqdan-bu yog'iga sho'ng'ib mashina, aravanigina emas, hatto ko'zga tashlangan har bir kishining ketidan quvardi. Bunaqa yo'llarda yuraverib, pix yorgan shofyor, samolyotni ko'rishi bilan mashinasini chakalakzorga urdi, ustiga shox sindirib tashlab niqobladi, o'zini chetga oldi.

Samoiyotlar hali-veri ketadiganga o'xshamas edi. Sodiqning ichini esa, mushuk tirnardi: ko'zi ko'kda surlik qilib vag'illab yurgan samolyotda, xayoli minalashtirilgan binoda edi. «Kechgacha shu hol davom etsa-ya!» deb vahimaga tushib ketdi. Shu payt yo'l ustida big'illagan bola tovushi keldi. Beixtiyor yugurib borgan Sodiq bilan shofyor yo'l yoqasida, chuqurda qonga belanib yotgan kampirni va uning tepasida big'illab turgan 5–6 yashar qizchani ko'rdi, samoiyot ularni payqab, o'qqa tutib ketgan edi. Sodiq bora solib, qizchani bag'riga oldi, keyin uni shofyorga uzatib, o'zi kampirning boshini ko'tarib, hayot so'nib borayotgan ko'ziga boqdi. Kampir:

– Nevaram... nevaramni, – dedi-yu, boshqa so'z aytolmay uning qo'liga shilq etib tushdi. Shu lahzada yana ular tepasida paydo bo'lgan samolyot, o'z «san'ati»ning samarasini tomosha qilayotgandek, bir qanotini qiya qilib sho'ng'ib o'tdi, sochgan o'qi ulardan sal narini nuqtalab, qora changini chiqardi. Shu ketganicha samolyotlar qaytib kelmadi. Sodiq qizchani to'plangan besh-o'nta qishioq aholisidan biriga «qaytib kelgunimcha, omonat» deb topshirib, o'zi mashinaga sakrab chiqdi:

– Haydang, juda kechikib ketdik.

Chindan ham vaqt juda ziq qoigan edi. Endi Sodiq hayal o'tmay soatiga qarar, yo'li borgan sari olis tortib ketayotgandek tuyulardi, umrida mashinaning bunchalik sekin yurishini ko'rmaganga o'xshardi. Oxir chidolmadi:

– Haydasangiz-chi, buncha ehtiyot qilasiz, har murvati oitin bo'lsa ham!

– Yuz o'nda ketyapmiz, ortig'ini motor ko'tarmaydi!

Sodiq «nahotki shu ketishda soatiga yuz o'n kilometr bosyapmiz» deb shofyor oldidagi teziik ko'rsatkichiga shubha bilan qaragan edi, to'g'ri chiqib, shofyordan xijolat tortdi, keyin to yetib borguncha og'iz ochmadi. Shaharga yaqinlashgan sari mudhish fojidan xabar topib yordamga kelayotgan odamdek yuragi duk-duk urib nafasi og'ziga tiqildi, hatto ter chiqarib yubordi. U nima uchundir binoning butun turganiga shubha bilan qarar, bu shubha uning vijdonini beshbattar qiynar edi. Ana u ko'chadan burilishi bilan bino ko'zga tashlanishi kerak: mana yuz metr qoldi, mana ellik, mana o'n. «Ha xayriyat, hali butun ekan!» deb yubordi, bag'ridan to'fon ko'tarib chiqqan sevinch yuziga mamnuniyat tabassumi sochdi, boshi zirqirab, ko'zi chaqnab ketdi. Lekin soatiga qarab bag'riga muzday yel ufurgandek bo'ldi: binoning portlashiga yigirma besh daqiqa qolgan edi!

U bino oldida mashinadan tushganda hammayoq jimjit, binoga o'rnashgan dala gospitali o'zining odatdagi ishi bilan mashg'ul edi. «Nahotki uning yigirma daqiqadan keyin portlab ketishini hech kim bilmasa!» deganicha podvalga o'zini urar ekan, shofyor:

– Mening keragim yo'qmi? – dedi.

– Nima edi?

Shofyor nozik ishi bor bo'ydoq yigitlardek ma'noli qilib kuldi:

– Bir yerga kirib chiqaman.

Sodiq «sevgan qizi shu yerda ekan-da» deb ruxsat berdi-yu, o'zi podvalga sho'ng'ib ketdi. Podval qorong'i, undan zax hidi kelardi. Sodiq shofyordan olgan qo'l fonari bilan yo'lini yoritib, tanish burchakka o'tdi. Yana yigirma daqiqachadan keyin portlashiga ishora beradigan «mashina» mana shu yerdagi devorning g'ishtin fundamenti orasiga joylashtirilgan edi. Uni Sodiq o'z qo'li bilan shunday puxtalab qo'ygan ediki, hozir ziyonsizlantirish anchagina vaqtni olardi. Buning ustiga nemis shubha qilmasin, deb podvalda turgan o'tin qaqir-quqirlarni ikki jangchisi bilan shu burchakka qalashtirib tashiagan, endi uni olib, joy ochish ham hazil ish emas edi. Ana shunda shofyorga ruxsat berib chakki qilganini bildi. Bir xayol bilan gospitaldan yordam so'ramoqchi bo'ldi, lekin kishilar bilib qolib, to's-to'polon, shov-shuv ko'tarilishidan, bu orada vaqt o'tib ulgurolmay qolishidan cho'chidi. «O'zim qilganim yaxshi!» dedi-yu, o'tinni jadal bilan olib tashiy boshladi. O'tin uning nazarida shunchalik ko'p ediki, qanchalik tez va zud bilan olmasin, bu yaqin bir-ikki soat ichida tugaydigan ko'rinmas edi. Unga sari qo'li-qo'lga tegmay, ishiar, barmoqlarining timdalanib ketganiga, allaqayerining chang kirib achishiga qaramay quchoqlab olib tashlar, ikki ko'zi ochiladigan devor fundamentida edi. Uning hatto soatiga qarashga yuragi betlamas! Bordi-yu, bir-ikki qolgan bo'lsa nima qiladi.

Axiyri eng so'nggi to'nkani olib, bir chetga uloqtirdi. Qora terga botgan yuzini changli barmoqlari bilan sidirib, kirkani qo'lga oldi. Mo'ljal qilib, zarb bilan urgan edi,

fundamentdan yalt etgan olov chiqdi-yu, kirka orqasiga siltanib ketdi, kamariga qistirib qo'ygan qo'l fonari yerga tushib chil-chil sindi, hamma yoqni qorong'ilik qopladi. Chiroq qidiradigan payt emas edi. Sodiq fonar qizg'ish shu'la sochib turganida esida qolgan yerga tusmol bilan yana kirka urdi. Qo'li bilan paypaslab olmaday g'isht ko'chib tushganini bildi. Yana urdi. Bu gal haligi g'ishtning qolgani ko'chib tushdi. Keyin uning yonidagilarni ko'chirish qiyin bo'lmadi. Sodiq mo'ljalni to'g'ri olgan ekan, bir oz o'tgach hosil bo'lgan kavakka qo'lini tiqib, hozir uning nazarida eng katta dahshat bo'lgan o'limbaxsh qutining muzday «tanasini» sezdi. Endi unga qutidan tortib olib, simni uzish kerak edi. Pichoq qani? Pichoq tugil, yonida biror dami o'tkir buyum ham yo'q edi. U o'ylab o'tirmay, qutini kavakdan sug'urib oldi-da, bir oyog'ini devorga tirab, siltab tortdi. U shunday shiddat bilan tortgan ekanki, sim uzilibgina qolmay, o'zi orqasi bilan siltanib borib, yiqildi, boshi qattiq narsaga urilib, ko'zidan o't chiqib ketdi, ko'ngli behuzur bo'ldi. Shunda ham dahshat to'la qutini tashlab yubormadi. Esini yig'ib, unga quloq soldi. Portlashga signal beradigan qutidagi prujina g'izillab borib, chiq etib urildi. Demak, portlash muddati bo'ldi, lekin u beziyon edi! «Ikki daqiqa qolganda ulguribman-a!» degan Sodiq oyoq-qo'llari bo'shashib, o'tirgan yeridan turdi va mast kishidek gandraklab eshikka yo'l oldi.

U kiyim-boshi tuproq, yuz-ko'zi terdan loy boshidagi dokasi qonga belanib podvaldan chiqqanda, gospitaldagilar binoning minalashtirilganidan endi xabar topib, qiy-chuv bilan yaradorlarni tashishar, derazalardan ko'rpa-yostiq hovliga uchar, it egasini, mushuk bekasini tanimas edi!

Holdan tolgan Sodiqning podvaldan gandıraklab chiqib kelayotganini ko'rgan komandir kiyimidagi bir kishi «anavi kim?» degandek yonidagi sherigining tirsagidan tortdi. Sherigi bir narsani fahmlagandek Sodiqning qarshisiga shaxdam yurib keldi. Sodiq ham o'shalar tomoniga devonasifat boqib kelardi. Ulaç yetib kelishi bilan kuch-quvvati uzilgan kishidek zo'rg'a og'zini ochib «bino ziyonsizlashtirildi!» dedi-yu, o'rilgan pichandek turgan yerida yiqildi, qo'lidagi quti uchib ketdi.

Bu uning oxirgi so'zi bo'ldi. Shu hushidan ketganicha qaytib o'ziga kelmadi. O'zi o'limdan qutqargan yaradorlar yotgan shu binoda yarim soatdan keyin joni uzildi.

Ertasiga o'tkazilgan dafn marosimida unga bir paytlar boshliq bo'lgan komissar qabri ustida:

– U oltin odam edi! Oltin esa, zanglamaydi! Er yigit el uchun tug'iladi, el uchun o'ladi. Unga shon-sharaflar bo'lsin! – dedi va qabriga o'z qo'li bilan Sodiqning ismi-sharifi yozilgan, uchi besh qirra yulduzli temir tayoq qadadi, o'z to'pponchasidan o'q uzib, uning sha'niga berilgan salyutga qo'shildi.







## XOTIMA

Kechagina chirsillab turgan qahraton birdan bo'shshadi.

Yilt etib ko'zi ko'rinishi bilan tarnovdagi kumush sumalak uchidan chiq etib bir tomchi yerga tushdi va oyna siniqlaridek chil-chil bo'lib, nurlanib ketdi. Tushga borib, tarnovlar to'lib suv oqdi, tom boshida qor qolmadi.

Sal kundan keyin ariq labi ko'm-ko'k sabza urib, balxtut shoxida turgan chumchuq ipdek ingichka cho'pni ko'ndalang tishlab bo'g'ot ostiga kirib ketdi.

Keyin binafsha lab ochdi, chuchmoma bo'y cho'zdi, lola xandon kuldi. Keyin oppoq bo'lib bodom, cho'g'dek bo'lib shaftoli gulladi, yong'oq kuchala tashladi, keyin... keyin bahor, tengi yo'q go'zal bahor barq urdi!

Shu bahor maysasiday mo'yiabi sabza urgan, quralay ko'zlarida bahor quyoshi yashiringan, bo'ydor va miqti vujudidan o'smirlik kamoloti gurkirab, bir boqishdayoq dadasi Sodiqni eslatib turgan Marat o'rtoqlari bilan bog' sayriga chiqib, bir hovuch dovuchcha olib keldi. Ayvon ustuniga suyanib, xira ko'zlarini hoviida chir aylanayotgan oq to'sh qaldirg'ochlarga tikib o'tirgan buvisiga:

– Buni qarang, buvi, danagi qattiq bo'libdi! – dedi va oppoq zich tishlariga bir danagini chirs etib bosib, mag'zini ayirib oldi, etini esa, buvisining havasini keltirayotgandek kasir-kusir chaynadi. Adolat xola ham yo'lini topdi: bir kaftini oshga bostirdi, ilikdek yumshatib nordongina tamshadi.

– Oyim haqlarini ketkazib bo'libdilar! – deb kuldi buni ko'rib Qodir. Tizzasida o'tirgan bir yarim yashar Lolaning ham og'ziga dovuchchaning etidan ezib soldi. Lola avvaliga notanish bu xushxo'r ta'mdan ayasi Azizanikiga juda-juda o'xshash qosh-ko'zlarini bir chimirib, keyin chapillatib yedi. Uning akasi Alisher esa, 6–7 yoshli bolalarga xos sho'xiik va «ochko'zlik» bilan dadasining oldidan chiqqan dovuchchalarni sapchib olib og'ziga solar, kimningdir havasini keltirayotgandek boshini sarak-sarak qilardi.

– Bunaqa qilma, uyat bo'ladi, jon bolam! – dedi unga ta'lim berib munkillab qolgan Adolat xola.

– Yaxshi bola bo'lsang, Marat akang ertaga ham olib kelib beradi.

Maratning yonida o'tirgan, sochlari oq bo'lsa ham yuzlarini uncha ajin bosmagan, yoniq ko'zlarida bardosh va matonat olovi gurillab turgan Jannat, o'ziga xos mehribonlik bilan oldidan chiqqan dovuchchani Alisherga uzatib turardi, u bilan ko'z urishtirib «bemalol yeyaver, yana chiqsa seniki» ishorasini qilardi. Alisher mamnun ishshayib, Maratning bolaligini unga eslatardi.

Samovar yonida o'tirgan Aziza oshdan keyin birinchi piyola choyni o'rnidan sal qo'zg'alib izzatu ikrom bilan qaynanasiga uzatdi.

Jamoat jam, shu totli dam olish oqshomining ertasiga pochtaʼlon tashlab ketgan to'rt enlik xat oilaning sha'niga hamon isnod keltirib, dilini g'ash qilib yotgan dog'ni bahor toshqinlari qish qirmochlarini sidirgandek tozalab, yuvib ketdi.

Bu Sodiqning pirovardi rasmiy jihatdan ham reabilitatsiya qilinganligi haqidagi xabar edi!

Qodir olti oy otpuskasidan keyin yana frontga ketgan, urush tugagach Venadan qaytib, Azizadan akasining

tarixini eshitgan, ketidan quvgan edi. Baribir hech narsa chiqmadi. Faqat bahor kunlaridan birida uning ham arizasiga keng yo'l ochiigan edi.

Oila o'z haq-huquqlarini sal kunda tiklab oldi. Marat dadasi halok bo'lgan shahar komsomol komitetiga xat yozib, u portlashdan olib qoigan maktab o'quvchilari bilan aloqa bog'ladi. Ular Sodiqning qabrini topib, uni kuzatib turish otalig'ini olganliklarini xabar qilishdi. Keyin o'z maktablarini Ikkinchi jahon urushi qahramoni Sodiq Qo'chqorov nomiga qo'yish masalasini qo'zg'ab, bunga muvaffaq bo'lishdi. U bilan birga jang qilganlarni qidirib topishdi. O'z navbatida Marat ham surishtirib, uning dafn marosimida ishtirok etgan, muhtaram kitobxonimizga tanish, batalon komissari bilan bog'lanishdi. Komissar Sodiqning o'sha qahramonligi uchun oliy mukofotga tavsiya etilganini batafsil yozib, Moskvadan, arxivdan surishtirishni maslahat ko'rdi, o'zi ham harakat qilajagini bildirdi. Chindan ham Sodiq orden bilan mukofotlanganligi ma'lum bo'ldi.

Mana shu juma kuni kechqurun ana shu mukofotni marhumning oilasiga topshirish marosimi bo'ldi.

U direktor bo'lgan maktabning katta zaliga odam sig'mas edi.

Umrida birinchi marta prezidiumga chiqib o'tirgan Adolat xola, hamma faqat unga qarayotgandek o'zini noqulay sezib, atrofga ko'z yuritar ekan, kimningdir pastdan «hoy, aylanaylar, o'tiraylik, majlis uvol bo'lmasin» deganini eshitib, miyig'ida kulib qo'ydi. U bilan birga prezidiumning oldingi qatorida butun oila a'zolari o'tiribdi, orqada sahna to'rida esa Sodiqning katta qilingan fotosurati gullarga o'rab qo'yilgan. Hammadan ham Marat terisiga sig'may mamnun.

Majlis oldidan ordenni kimning qo'liga topshirish haqida gap borganda ko'pchilik Adolat xolani ma'qui topgan bo'lsa-da, «Jonbolam xola»ning o'zi qarshi turdi.

– O'g'li olsin, otasining chirog'ini yoqadigan u. Men mingdan-ming roziman! – dedi. Maratning shu vaqtdagi g'ururini ko'rsangiz!

Rayon rahbari shaxsga sig'inish davrining xunuk oqibatlari to'g'risida gapirib kelib, oxirida shunday dedi:

– Bizning kishilar – oltin kishilar. Oltin esa, zanglamaydi. Hatto shaxsga sig'inish yillarining rutubatlari ham unga putur yetkazolmadi. Qahramon Sodiq Qo'chqorovning qismati bunga yorqin misol bo'la oladi. U butun aqlu idroki, mehru sadoqatini eng og'ir kunlarda Vatan yo'liga bag'ishlay bildi. U doim biz bilan birga, biz uni unutmaymiz.

Rayon xalq maorifi bo'limining mudiri Sodiqning maorif sohasida qilgan ajoyib xizmatlari haqida, kekxa o'qituvchi-pensioner Ikrom ota Sodiqning insoniy fazilatlarini haqida gapirdi:

– Kishilarning og'irini yengil qilib yurar edi, umrining oxirida ham kishilarning falokatini aritib, dunyodan o'tibdi, yigit bechora. Chiroqning sasib uzoq yongani emas, qisqa bo'lsa ham charaqlab, barchaning dilini yoritib yongani inobat. Sodiqjon ana shunday chiroq bo'ldi! – dedi u ko'ziga yosh olib.

Ikrom otadan keyin harbiy komissar minbarga chiqib Sodiq halok bo'lgan shahardagi Sodiq Qo'chqorov nomli maktab jamoasining xatini o'qib berdi. Ular o'z maktablari binosini, undagi yuzlab yarador kishilarning hayotini o'z joni evaziga saqlab qolganini alohida qayd qilib, shunday farzandni tarbiyalagan onaga, xalqqa minnatdorlik bildirdi, uning onasi, xotini va o'g'lini shaharlariga taklif

qilardi. Qasidanoma bu xat shunday soʻzlar bilan tugallanardi: «...Sodiq Qoʻchqorovning oʻqituvchidan chiqqanligi bizni ayniqsa faxrlantiradi. U qanday yashash va kurashishni yosh aviodga sinfdagina oʻrgatib qoʻya qolmay, vaqti kelganda uning ajoyib namunasini oʻz timsolida koʻrsatdi. Biz uning nomini pok saqlashga vaʼda beramiz!»

Soʻngra komissar gulduros qarsaklar ostida Maratga ordenni topshirdi. Gʻayrat va chaqqonlik bilan oʻrnidan turgan Marat butun zalning oʻziga ishtiyoq bilan boqayotganini koʻrdi-yu, boyadan beri hijjalab oʻtirgan chiroyli soʻzlarni esidan chiqardi-qoʻydi. Hayajondan titragan qoʻllari bilan oliy mukofotni olar ekan:

– Otam kabi yashashga, otam ishini davom ettirishga tantanali soʻz beraman! – deya oldi. Bu qasam Marat kutganidan ham zoʻr qarsakka sabab boʻldi.

Adolat xola esa, sevinchdan hoʻng-hoʻng yigʻlab oʻtirardi.

Tantana tugab, Jannat Adolat xolaning qoʻltigʻidan olib turgʻizar ekan, chidolmadi, uning nimjon yelkalariga boshini qoʻyib, yigʻlab yubordi, yoshlarini tiyolmay yigʻladi. Bu yosh shuncha yillardan beri ichida yigʻilib yotgan alam, hasrat, kuduratini yuvib chiqarayotgan oʻkinch yoshi edi! Oʻz qismatidan rozi Aziza yoʻlda kelayotib, eriga dedi:

– Hu anavi gapingiz esingizda bormi, Qodirjon aka?

– Qaysi gapim? Sizga juda koʻp gaplar gapirganman.

– Yoʻq, bittasi juda alohida. Oʻlsam ham esimdan chiqmaydi.

– U qaysisi ekan?

– Akangiz qamalib, sizni institutdan boʻshatishgandan («haydashgandan» deyishga tili bormadi) keyin biz uchrashdik-ku, chinorli xiyobonda.

Men sizni uyingizdan chaqirib chiqdim.

– Xo‘sh? Xo‘sh? – Qodir o‘sha mudhish kechani esiadi.

– Ana shunda «endi orani ochdi qilib qo‘ya qolaylik, Aziza!» degandingiz. Shunday deyishga qanday tilingiz borgan? Shu gapingiz esimga tushsa, hali-hali seskanib ketaman.

Qodir yuragi orqasiga tortgandek bo‘lib kuldi:

– Shunaqa deganmanmi, a, Aziza? O‘zimiz ham hazilakam kunlarni boshimizdan kechirmadik-da!

– To‘g‘ri! Hech kimning sevgisi biznikichalik qattiq sinovdan o‘tmagandir! Yo bizga shunaqa ko‘rinadimi, dadasi?

– Bilmadim, ayasi! – hazilga oldi Qodir ham. Qodirni qo‘ltiqlab kelayotgan Aziza uning qo‘llariga shunday qattiq yopishdiki, pinjiga kirib ketguday bo‘ldi, erkalandi.

Shu payt Marat ular orqasidan yetib keldi.

– Darrov ketib qolibsizlar. Men sizlarni qidirib yuribman.

– Biz seni Guli bilan tansa tushgani qolding deb o‘ylabmiz.

– Oyisi bilan kelgan... – dedi Marat uyalinqirab.

– Oyisi bo‘lsa tansa tusholmaysanmi? Marat indamadi, kelinoyisini qo‘ltiqlab oldi. Aziza «bolani qizartirmang!» degandek erining qo‘lini qisib qo‘ydi.

Kumush barkashdek oy qoq tikkaga kelgan edi.

Shuncha g‘am-g‘ussaga chidagan Adolat xola, yaxshi kunlar sevinchini ko‘tarolmadi: tantanadan keyin uch kun yotib, vafot etdi.

1963–1965.

Toshkent – Moskva – Toshkent





## MUNDARIJA

### I QISM

1. ATLAS KO'YLAKLI QIZ .....	3
2. TIRNOQQA ZOR OILA.....	9
3. YANGI JOY, YANGI TANISHLAR .....	17
4. IKKISINING HAM QALBI GURS-GURS URARDI.....	32
5. O'G'RI MUSHUK .....	41
6. IKKI DILLI VA IKKI TILLI ODAM .....	50
7. JANNATNING KO'Z YOSHLARI .....	64
8. QARQINOQDAN CHIQQAN BULBUL .....	69
9. XUSHOMAD ZIYOFATI VA ARZ .....	90
10. MIRSALIM MUSHTUMINI TUGDI.....	106
11. QAYG'U TIZGINIDAGI SEVINCH.....	116
12. TIRNOQ OSTIDAN KIR QIDIRIB.....	122
13. KO'NGILSIZLIKLAR .....	138
14. KUTILMAGAN QORA KUN .....	153
15. YIG'IGA AYLANGAN ALLA.....	161

### II QISM

1. AYBSIZ AYBDOR .....	165
2. QIZ ISYONI .....	174
3. ISHONCHGA KIRGAN TUHMATCHILAR .....	181

4. YUZMA-YUZ.....	189
5. O'LGANNING USTIGA TEPGAN...	203
6. MUSHARRAFNING HIRSI .....	209
7. «SIZNI DEGANIM DEGAN, QODIRJON AKAI!» .....	221
8. MARATNING AYASI .....	237
9. KUTILMAGAN UCHRASHUV .....	252
10. OLIJANOBLIK .....	263
11. SOG'INIB .....	276
12. QOCHOQLAR .....	292

### III QISM

1. EL BOSHIGA ISH TUSHGANDA.....	307
2. ELGA QO'SHILGAN ER BO'LADI...	319
3. YOVUZ NIYATLI KISHI .....	326
4. QOTIL YANA QON ISTAB QOLDI...	341
5. QODIRNING QORA KUNLARI .....	358
6. MASH'UM UMRNING SO'NGGI.....	380
7. E'TIQODI BUTUN KISHI.....	394
8. XOIN VA JOSUS.....	418
9. SO'NGGI SHUBHA. SO'NGGI TASHVISH.....	432
10. SINOV DAQIQALARI.....	445
11. ONA YURTGA QAYTGANDA .....	467
12. HAQ JOYIGA QAROR TOPADI!.....	481
13. XOTIMA.....	502



SHUHRAT

# OLTIN ZANGLAMAS

Muharrir *SH. Odilov*

Musahhih *D. Boymirzayeva*

Texnik muharrir *Ye. Sibayeva*

Sahifalovchi *K. Xamidullayeva*

«ZUKKO KITOBOXON» nashriyoti.  
Tasdiqnoma № 7069. 22.10.2020 y.  
Toshkent shahar, Olmazor tumani, Langar ko'chasi, 78-uy.

Bosishga 2022 yil 11-martda ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108 1/<sub>32</sub>. Ofset qog'ozi.  
«Arial» garniturası. Nashr tabog'i 25,5.  
Shartli bosma tabog'i 26,88. Adadi 3000 nusxa.  
Buyurtma №70

Shuhrat

**Oltin zanglamas:** roman / Shuhrat. – Toshkent:  
«ZUKKO KITOBXON» nashriyoti, 2022. – 512 b.

UO'K 821.512.133-31

KBK-84-44(50'zb)

*Shuhrat*

**OLTIN  
ZANGLAMAS**

ISBN 978-9943-5295-8-8



9 789943 529588